

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI



**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



**IQTIDORLI TALABALARNING ILMIIY TADQIQOT
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BO'LIMI**

2023-yil 4-son

**IQTIDORLI TALABALAR
ILMIY AXBOROTNOMASI**

4

Namangan - 2023



Namangan davlat universiteti Iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi. Namangan, NamDU, 2023. – 366 bet. www.namdu.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor S.T.Turgʻunov.

Masʼul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektor, texnika fanlari doktori, dotsent Sh.N.Ataxanov.

Masʼul muharrir oʻrinbosari: Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish boʻlimi boshligʻi M.O.Habibullayev.

TAHRIR HAYʼATI:

Fizika-matematika fanlari – f-m.f.d., dots. B.Samatov; f-m.f.d. R.Xakimov, f.m.f.n., dots.D.Boytillayev.

Kimyo fanlari – k.f.d., prof. Sh.Abdullayev; PhD.dots. D.Xolmatov.

Biologiya fanlari – b.f.d. A.Batashov; b.f.d. Gʻ.Abdullayev.

Texnika fanlari – t.f.d., prof. S.Yunusov; t.f.n., dots. T.Saypiyev.

Qishloq xoʻjaligi fanlari – g.f.d., dots. B.A.Kamalov; q-x.f.n., dots. A.Qozaqov.

Tarix fanlari – t.f.d., prof. A.Rasulov; s.f.d., v.b.prof. N.Dexkanov, t.f.n., dots. Z.Madrahimov, t.f.n., dots. Z.Xaydarov, PhD. M.Mahmudov.

Iqtisodiyot fanlari – i.f.d. dots. N.Sotivoldiyev; i.f.n., dots. K.Sirojiddinov.

Falsafa fanlari – PhD., dots. R.Zamilova; f.f.n. O.Mamatov.

Filologiya fanlari – f.f.d., prof. N.Uluqov, f.f.d., dots. H.Usmanova, PhD. Z.Botirova.

Geografiya fanlari – g.f.d., dots. B.A.Kamalov, g.f.n., dots. E.A.Soliyev.

Pedagogika fanlari – p.f.d. dots. Oʻ.Asqarova; p.f.n., dos M.Nishonov.

Tibbiyot fanlari – b.f.d. Gʻ.Abdullayev; tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari – p.f.d., prof. Z.Nishanova; p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrirlar: Fazliddin Mamasidiqov, Yahyobek Tursunboyev

Tahririyat manzili: Namangan shahar Boburshoh koʻchasi, 161-uy

Tel.: (69) 227-01-44, 227-06-12. **Faks:** (0369)227-07-61.

E-mail: iqtidorli@namdu.uz. **Telegram:** [@NamDU_iqtidor](https://t.me/NamDU_iqtidor)

Iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi jurnali NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining navbatdan tashqari 2023-yil 11-dekabrda kengaytirilgan 12-sonli yigʻilishida muhokama qilinib, ilmiy toʻplam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma №12). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan maʼlumotlarning toʻgʻriligi uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.



FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

01.00.00

ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

FIZIKA O‘QITISHDA FANLARARO BOG‘LANISHLARNING AHAMIYATI

Abdullayev Abdulvositxon Abdumutalxon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Fizika fakulteti 4-bosqich talabasi

abdullayevabdulvositxon@gmail.com telefon: +998935669366

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fizika o‘qitishda jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichiga javob beradigan, kadrlar tayyorlash va ta‘lim samaradorligini oshirishda fizikaning boshqa fanlar bilan bog‘lanishlarini ahamiyatini pedagogik-didaktik jihatlari nazariy asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** maktab, ta‘lim jarayoni, fanlararo bog‘lanish, o‘quv jarayoni, o‘qituvchi, o‘quvchi.*

Fizikani predmetlararo bog‘lanishdan foydalanib o‘qitish muhim ahamiyatga ega. Fizika fanining taraqqiyoti, tabiat hodisalarining asl mohiyatini o‘rganish fizika predmetini tabiiy sikldagi boshqa fanlarga bog‘lab o‘qitilishini ta‘minlaydi[1]. Ammo o‘quv jarayonida predmetlararo bog‘lanish o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi. Bu masala ko‘p qirrali bo‘lib, uni faqat ma‘lum maqsadga qaratilgan yo‘nalishlardagina amalga oshirish mumkin.

Predmetlararo aloqa turli fanlarni sun‘iy ravishda birlashtirish degan gap emas. Ularni o‘zaro aloqada o‘rganshi predmetlar o‘rtasidagi umumiy o‘xshashlikni, har biriga xos xususiyatni puxta bilib olgan taqdirdagina samarali bo‘ladi. O‘quvchilar xodisalarni o‘xshash tomonlariga va o‘zaro bog‘lanishlariga ko‘ra bir butun xolda tasavvur qiladilar. Ularda ana shunday tasavvurni xosil qilishda o‘quv predmetlarini o‘zaro bog‘lab o‘rganish muhim rol o‘ynaydi.

Fizikani boshqa predmetlarga bog‘lab o‘qitish o‘ziga hos xarakter, shakl va xususiyatga ega. O‘qituvchi og‘zaki bayon, suhbat, ma‘ruza, mustaqil ishlash metodlaridan



foydalanishi mumkin. Predmetlararo aloqani amalga oshirishda o‘qituvchi o‘z fanini yaxshi bilishi bilan birga boshqa fanlardan ham xabardor bo‘lishi muhim rol o‘ynaydi[2].

Fizika o‘qituvchisi biror mavzuni boshqa fan materiallari bilan bog‘lab o‘qitish uchun quyidagilarni e‘tiborga oladi:

1. Mavzuni o‘tish uchun ajratilgan vaqtni hisobga oladi.
2. Mazkur mavzuga doir fan materiallarini aniqlaydi.
3. O‘quvchilarni boshqa fanlardan o‘rgangan tushunchalarini aniqlaydi.
4. Darsga zarur bo‘lgan ko‘rgazmali qurollarni tayyorlaydi.

Predmetlararo bog‘lanishga xos xususiyat, eng avvalo darsdan kuzatilgan maqsad va vazifalarga qarab belgilanadi. Uning muvaffaqiyati esa o‘qituvchining bilimiga, mahoratiga, darsning to‘g‘ri tashkil etilganligiga, dars metodlariga bog‘liq bo‘ladi. Yoshlarga ta‘lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish maktab isloxotida-o‘qituvchiga, uning e‘tiqodiga, kasb mahoratiga, iste‘dodi va madaniyatiga hal qiluvchi darajada bog‘liqdir. Ammo o‘qituvchining bilimi va pedagogni mahoratini tinimsiz o‘tib, takomillashib borishi, ta‘lim formalari, metodlari va vositalarining takomillashish darajasi bilan bog‘liq.

Fizika o‘qituvchisi biror mavzuni boshqa fan materiallari bilan bog‘lab o‘qitish uchun quyidagilarni e‘tiborga oladi:

1. Mavzuni o‘tish uchun ajratilgan vaqtni hisobga oladi.
2. Mazkur mavzuga doir fan materiallarini aniqlaydi.
3. O‘quvchilarni boshqa fanlardan o‘rgangan tushunchalarini aniqlaydi.
4. Darsga zarur bo‘lgan ko‘rgazmali qurollarni tayyorlaydi.

Tabiiy-ilmiy fanlar o‘quvchilarda olamning zamonaviy manzarasini ochishga qiziqish uyg‘otadi. Tabiat haqidagi bilimlar dialektik dunyoqarashning tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘quvchilar ilmiy dunyoqarashining asosiy g‘oyalari olamning moddiy birligi, materiya xarakati shakllarining o‘zaro bog‘lanishi, jonli va jonsiz tabiatning birligi, materiya mavjudligining shakllari-fazo va vaqt, “tabiat-jamiyat-inson” munosabati kabi tushunchalarini o‘zlashtirishlari uchun predmetlararo bog‘lanishdan foydalanish zarur.

Maktab fizika kursida predmetlararo bog‘lanishning ahamiyati katta. Fizika kursini o‘rganishda boshqa fanlarda o‘rganilgan bilimlarga ham asoslaniladi. Masalan, mexanik



harakat, tebranish va to‘lqinlarni o‘rganish uchun matematikadan trigonometrik funktsiyalar, figuralarning yuzasi tushunchalari, elektroliz va termodinamik tushunchalarni o‘rganish uchun ximiyadan elektrolitik dissotsiatsiya, valentlik tushunchalari, havo namligi, atmosfera bosimi, konvektsiya, magnetizm kabilarni o‘rganish uchun geografik tushunchalar, termodinamika qonunlari, issiqlik, elektr va optika haqidagi ta’limotlarni paydo bo‘lishini o‘rganish uchun tarix kursidan o‘sha davrdagi tarixiy sharoit, sanoat va qishloq xo‘jalik taraqqiyoti haqidagi tushunchalar zarur bo‘ladi. O‘z navbatida fizika kursida egallangan bilimlar boshqa fanlarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Masalan, elektr toki, o‘tkazgichlarni ulash, elektromagnit hodisalar haqidagi bilimlar mexnat darslarida qo‘llaniladi. Fizika kursida o‘rganilgan optik asboblardan spektral analiz, fotograf kabi tushunchalar astronomiyani o‘rganishda qo‘l keladi. Bunday bog‘lanish fanlar taraqqiyotining zamonaviy darajasida, tabiiy, ijtimoiy va texnik bilimlar integratsiyasida, yaqqol ko‘rinadi. Kursni fanlar tutashgan joyda biofizika, bioximiya, fizik ximiya, meditsina radiologiyasi, biokibernetika, bionika kabi yangi fanlar vujudga keladi. Zamonaviy kompleks murakkab muammolarni o‘rganishda fanlar bir-biri bilan birlashadi. (Masalan, inson va kosmos, inson va tabiat, jamiyat va shaxs, fan va ishlab chiqarish, inson va mashina kabi).

Yangi fanlarning yaratilishi mutaxassislariga yangi talablar qo‘yadi, politexnik bilimlar va ko‘nikmalar bilan qurollangan yosh mutaxassislar tayyorlashni taqozo qiladi. Bunday mutaxassislar tayyorlash esa maktabdan boshlanadi.

Fizika tabiat haqidagi fan bo‘lib xisoblanadi. Tabiatni faqat fizika fanigina emas, balki boshqa fanlar ham o‘rganadi. Masalan, tabiatshunoslik, geografiya, ximiya, astronomiya va boshqalar. Har bir tabiiy fan tabiat xodisalarining turli tomonlarini o‘zining uslubi bilan o‘rganadi. Lekin ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Barcha tabiiy fanlar birgalikda tabiat xaqida umumiy tasavvur xosil qiladi. Barcha tabiiy fanlar bo‘ladigan hodisalarni bir-biriga suyangan holda o‘z nuqtai-nazari bo‘yicha tushuntiradi. Bunda o‘quv predmetlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa turli xodisalar orasidagi ob‘ektiv bog‘lanishni aks ettiradi.

Keyingi yillarda fizika o‘qituvchilari orasida predmetlararo bog‘lanish asosida o‘qitishga qiziqish sezilarli ravishda ortdi.

Biz turli tabiiy fanlar o‘rtasida bog‘lanishni o‘rganish orqali o‘quvchilarda:



a) obyektiv dunyodagi eng muhim hodisalar haqidagi umumlashgan bilimlarni shakllantirishga;

b) olamni yagona ilmiy manzarasini yaratishga;

v) yagona ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga erishamiz.

Maktabda o‘rganiladigan barcha fanlar o‘quvchilar ongida tabiatda va jamiyatda yuz beradigan hodisalarga dialektik yondashuvni xosil qiladi. Bunda tabiiy fanlar muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ularni bir-biridan ajratib o‘rganish mumkin emas. Dunyoni bilishni asosi tabiiy fanlarni o‘qitishda shakllantiriladi. Chunki bu fanlar materiya xarakatining alohida turlari va xossalari xaqida tushuncha beradi. Masalan, fizika darslarida tabiatdagi sodir bo‘ladigan mexanik, tovush, issiqlik, elektr, magnit, yorug‘lik xodisalarini o‘rganishda o‘qituvchi materiya harakatining ana shu muvofiq formalarga diqqatni jalb qiladi. Ximiya va biologiya o‘qituvchilari esa o‘quvchilar e‘tiborini ximiyaviy reaksiyalar va organizmlarda ro‘y beradigan biologik jarayonlarda kuzatiladigan materiya xarakatining yanada murakkabroq shakllariga qaratadilar.

Bu fanlar orqali materiya tushunchasini doimiy kengaytirib borish, materiya xarakatining turli shakllarini ma‘lum ketma-ketlikda o‘rganish o‘quvchilarda materiya va uning uzluksiz xarakati haqidagi tasavvurlarning yagona sistemasini yaratadi. Bundan tashqari, xarakat materiya mavjudligining yagona shakli ekanligiga ko‘nikma shakllanishiga yordam beradi. Tabiat hodisalarini o‘zaro aloqa va bog‘liqlikda o‘rganish bu xodisalarning umumiy aloqadorligi haqida o‘quvchilarda ishonch xosil qiladi.

O‘rta maktablarda ba‘zi masalalar, g‘oyalar, xatto asboblar turli fanlarda bir necha marta ko‘rib chiqiladi. Masalan, diffuziya xodisasi, 5-sinf tabiatshunoslik darsida (“Suvda eriydigan va erimaydigan moddalar”), 6-sinf geografiya darsida (“Suvdagi tuz tarkibi”), 6-sinf botanika darsida (“Tsitoplazmaning xarakatlanishi. Xujayraga moddaning kirishi”), 7-sinf fizika darsida (“Tazlarda, suyukliklarda va kattik jismlarda diffo‘ziya”), 8-sinf ximiya darsida va nihoyat 8-sinf zoologiya darsida (“Nafas olish, xazm kilish jarayonida diffuziyaning roli”) ko‘rib chiqiladi.

Kompas asbobi 5-sinfda tabiatshunoslik darsida (“Plan va karta”), 6-sinf geografiya kursida (“Joyda orientirovka olish, kompasga qarab azimutni belgilash”), 8-sinf fizika



kursida (“Magnit may-doni”), 8-sinf geografiya darsida (“Azimutlar-magnit va xaqiqiy, direktsion burchak”) hammasi bo‘lib to‘rt marta ko‘rib chiqiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar kompas bilan ilgari tanishganliklarini bilmaydi [3-7]. Shuning uchun yana boshdan tushuntiradi. Predmetlararo bog‘lanishni to‘g‘ri o‘rgatilishi tabiiy-ilmiy sikldagi turli fanlar bo‘yicha o‘quv materialining takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaydi, vaqtni ma‘lum darajada tejashga imkon beradi.

Fizika kursini boshqa tabiiy ilmiy-sikldagi fanlar bilan bog‘lab o‘qitish quyidagi imkoniyatlarni ochib beradi:

1. O‘quvchilar fundamental tabiiy-ilmiy tushuncha (“modda”, “mate-riya”, “harakat”, “energiya”) va qonunlarni “energiyaning saqlanish va bir turdam ikkinchi turga aylanish qonuni”, “impulsning saqlanish qonuni”, “massaning saqlanish qonuni”) chuqurroq o‘zlashtiradilar.

2. Turli tushunchalar bo‘yicha o‘quvchilarda umumlashgan ko‘nikma va malakalarni (predmetlararo xarakterdagi o‘lchash, grafik yasash, darslik bilan ishlash kabi) hosil qilish.

3. O‘quvchilarda bilish qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘qitishning rolini oshirish, ularda har xil manbalardan mustaqil foydalanish malakasini shakllantirish.

4. O‘quvchilarning dialektik materialistik dunyoqarashlari va politexnik bilimlari doirasini kengaytirishda o‘qitishning rolini oshirish.

5. Tabiiy-ilmiy sikldagi turli fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning olgan bilimlarini umumlashtirish va sistemalashtirish masalasini muvaffaqiyatli hal qilish.

6. Kompleks xarakterdagi masalalarni yechishda, tabiatda va texnikada sodir bo‘ladigan hosidalarini xar tomonlama o‘rganishda turli tabiiy fanlar bo‘yicha olingan bilimlardan foydalanish malakasini xosil qilish.

7. Tabiatdagi ko‘pgina xodisa va qonunlarni o‘rganishda ortiqcha takrorlashlarni tugatish, natijada ma‘lum o‘quv vaqtini tejab qolish.

8. Tejab qolingan vaqt xisobiga ba’zi xodisa va qonunlarni chuqurroq o‘rganish, ijodiy va amaliy xarakterdagi ishlarni bajarish.

Ta’lim jarayoni nazariy bilimlardan tashqari, amaliy ko‘nikma va malakani ham o‘z ichiga oladi. Ko‘nikma va malaka tushunchalari o‘zi nima? Ularning farqi nimada? Quyidagi



savollarga javob berishga harakat qilamiz. Ko‘nikma deganda o‘quvchining u yoki bu amaliy mashqni bajara olish faoliyati tushuniladi. Masalan, o‘quvchida darslikdan mustaqil bilim olish ko‘nikmasi, masala yechish ko‘nikmasi, elektr sxemasi asosida elektr zanjirini tuzish, funksiya grafigini chizish, hisob amallarini bajarish va hokazolar hisoblanadi. Ko‘nikma mustahkam bo‘lishi uchun eng avvalo soddaroq masalalarni yechishdan boshlab to murakkab masalani ham yechish darajasigacha erishish lozim. Ko‘nikmalar umumiy lashib malakaga aylanadi[8-13]. Masalan: fizikadan Nyutonning II qonunini to‘liq tushinib, uni to‘g‘ri chiziqli notekis harakatda yoki noinersial sanoq sistemasida kechadigan harakatlarda ham qo‘llay olsa, demak o‘quvchidagi ko‘nikma malakaga aylangan, deyish mumkin. Milliy ta‘lim islohatlari hujjatlarida malakali kadr, malakali mutaxassis degan tushuncha ishlatilmoqda. Malakali kadr, qanday mezonlarga javob bera oladi degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Malakali mutaxassis istalgan nostandart sharoitda muammoni tez va to‘g‘ri hal qila olishi ko‘zda tutiladi. Malakali kadr tushunchasi politexnik ta‘lim tushunchasi bilan uyg‘unlashib ketadi. Demak, ko‘nikmani malakaga aylantirish mexanizmi fizikani o‘qitish jarayonida amalga oshiriladi.

Umumta‘lim maktabini bitirib chiqayotgan yoshlarimizning aksariyati fizika fanidan ko‘nikmaga ega bo‘lib, bu ko‘nikmalar umumlashmagan, sistemaga kelmagan va malakaga aylanmaganligi kuzatilmoqda. Shuning uchun oliy o‘quv yurtlariga kelayotgan abituriyentlarning fizikadan reytingi boshqa fanlarga nisbatan juda past. Buning asosiy sababi umumta‘lim maktablarini bitirayotgan yoshlarda fizikadan savol va masalalarni yechish malakasini yetishmaganligidadir. Ko‘nikmani malakaga aylantirishning psixologik asoslari ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, fizika o‘qituvchisidan chuqur bilim, ijodkorlikni, sabr-toqat va jonbozlikni talab etadi.

Xulosa. O‘quvchilar fanlarni o‘zaro aloqada o‘rganishda mavzudan olingan ma‘lumotni olgan bilimlariga nisbatan chuqurroq va kengroq bilimga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar ilmiy dunyoqarashining asosiy g‘oyalari olamning moddiy birligi, materiya harakati shakllarining o‘zaro bog‘lanishi, jonli va jonsiz tabiatning birligi, materiya mavjudligining shakllari fazo va vaqt, “tabiat-jamiyat-inson” munosibati kabi tushunchalarni o‘zlashtirishlari uchun predmetlararo bog‘lanishdan foydalanish zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бугаев А.И.Методика преподавания физики в средней школе. М: “Просвещение”.1981.
2. Эрунова Л.И. Урок физики и его структура при комплексном решении задач обучения.М.: “Просвещение” .1988.
3. Игровые ситуации на уроках физики /методические рекомендации/. Составители дотс.И.Я.Ланина, учитель школы № 39г.Киева А.З.Колтунов,Ленинград,1988.
4. Ланина И.Я.Внеклассная работа по физике.М.: “Просвещение”,1977.
5. Малофеев Р.И. Проблемное обучение физике в средней школе. М.: “Просвещение”. 1980.
6. Mamadaliev.A.Xunar-texnika bilim yurtlarida fizika ukitishning ayrim masalalari.Namangan,1987.
7. Методика преподавания физики в 6-7 классах средней школы.Под.ред В.П.Орехова, А.В.Усовой.М.: “Просвещениэ”.1976.
8. Методика факультативных занятий по физике под. ред. Кабардина О.Ф., Орлова В.А. М.: “Просвещениэ”.1988.
9. Оноприэнко.О.В.Проверка и учёт знаний учащихся по физике в средней школе.Ленинград.1974.
10. В.Г.Разумовский, Ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ўстириш. Тошкент. “Ўқитувчи”.1978.
11. Сердинский В.Г.Экскурсии по физике в сельской школе. М.: “Просвещение”.1991.
12. Усова А.В. Завьялов В.В.Учебные конферентсии и семинары по физике в редней школе.М.: “Просвещение”. 1975.
13. Физика укитиш методикаси асослари. Пёришкин.А.В. Разумовский В.Г.Фабрикант В.А.лар тахрири остида.Тошкент. “Укитувчи”.1990.



BILISHNING EMPIRIK VA NAZARIY USULLARI

Abdusattarova Dilfuza Shukurullo qizi

Namangan davlat universiteti, Fizika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Tel: [+998931511600](tel:+998931511600)

Ilmiy rahbar: Turdaliyev Ulug‘bek Valijon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti, Fizika kafedrasida o‘qituvchisi

E-mail: ulugbekturdaliyev9508@gmail.com

Tel: [+998999777650](tel:+998999777650)

Annotasiya: *Bilishning empirik va nazariy usullari to‘g‘risida malumotlar keltirildi. Empirik bilishning fan va texnika rivojidadagi o‘rni va ahamiyati yoritildi. Eksperiment har qanday nazariy bilim va gepotezaning isboti sifatida xizmat qiladi. Empirik tadqiqot kuzatuv va eksperimentning yangi ma‘lumotlarini aniqlab, nazariy tadqiqotni kuchaytiradi, uning oldiga yangi vazifalar qo‘yadi.*

Kalit so‘zlar: *Empirik, eksperimental tajriba, nazariy bilim, hodisa, tajriba, gepoteza, fan, kuzatish, maqsad, ilmiy bilish, izlanuvchi, natija.*

“Empirik” degan tushuncha zamirida “empiriya”, ya’ni “tajriba” tushunchasi yotadi. Lekin bu bilishning empirik darajasi tajribadagina iborat degan ma’noni bildirmaydi. Ilmiy nazariyaning zarur empirik bazasi eksperimentdir, u hozirgi zamon fani rivojining muhim omiliga aylandi. Fanning, birinchi navbatda tabiiyotning butun taraqqiyot tarixi eksperiment bilan biron-bir tarzda bog‘liqdir. Tabiiyot fanini ko‘pincha eksperimental fan deb atab, bu bilan uning ilgari antik va o‘rta asrlar fani doirasida mavjud bo‘lgan tabiatni bilish usullaridan farqini ta’kidlab ko‘rsatadilar. Yangi zamon fani tomonidan amalga oshirilgan oddiy, o‘z imkoniyatiga ko‘ra g‘oyat cheklangan va hodisalami yuzaki o‘rganish va tasniflash uchungina yaroqli bo‘lgan hodisalami oddiy kuzatish metodidan eksperimentga asoslangan yangi metodga o‘tib, hodisalami muntazam va muayyan maqsadni ko‘zlab faol tadqiq etishga o‘tish bilishning tarixiy rivojlanish yo‘lidagi muhim bosqich bo‘ldi.[2]

Eksperimentlar ikki sinfga bo‘linadi: sifatiy va miqdoriy eksperimentlar. Sifatiy va ancha oddiy eksperimentning maqsadi hodisaning faqat mavjudlik faktini aniqlashdan iborat.



Masalan, yorug‘lik sinishi ko‘rsatkiehlari turlicha bo‘lgan muhitlar chegarasidan yorug‘lik o‘tishini tadqiq qilib, sinish fakti mavjudligini osonlik bilan aniqlash mumkin. Sifatiy eksperiment murakkab o‘lchov sistemalari va ma’lumotlarni ishlab chiqish sistemalari bilan kamroq jihozlanadi[1].

Miqdoriy o‘lchovli eksperimentni o‘tkazish uchun murakkab asbob-uskunalar talab qilinadi. Bunday eksperimentning vazifasi sistemaning holatini ko‘rsatuvchi parametrlar o‘rtasidagi miqdoriy aloqalarni aniqlashdan iborat. Sinish qonunlarini o‘lchagich asboblari yordamida tekshirishda tajribalar o‘tkazilib, tushish burchagi bilan sinish burchagi o‘rtasidagi miqdoriy nisbatlar aniqlandi va burchaklarning sinuslari bilan sinish koeffitsientlari o‘rtasidagi funksional aloqa topildi. Eksperiment ilmiy bilimlarni isbotlash va rivojlantirish vositasidir.

Shunday qilib eksperiment — bu bilimga ega bo‘lish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat turi bo‘lib, o‘rganilayotgan obyektga maxsus asbob-uskunalar vositasida ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Shu tufayli: o‘rganilayotgan obyektning mohiyatini xiralashtirib qo‘yuvchi qo‘shimcha hodisalar ta’siridan holi qilish va uni sof holda o‘rganish; jarayonning borishini qat’iy belgilangan hamda nazorat qilish va hisobga olish mumkin bo‘lgan sharoitda ko‘p marta takrorlash; ko‘zlangan natijaga erishish uchun turli ta’sir va sharoitlarni reja bilan o‘zgartirish, birlashtirish va o‘lchash mumkin bo‘ladi. Empirik tadqiqot kuzatuv va eksperimentning yangi ma’lumotlarini aniqlab, nazariy tadqiqotni kuchaytiradi, uning oldiga yangi vazifalar qo‘yadi.

Har qanday nazariya - bu faktlarni ishonchli tarzda bilishgina emas, o‘rganilayotgan hodisalarning empiric ta’rifigina emas, u bu faktlarni tushuntirish funksiyasini ham bajaradi. Gipotezalardan farqli o‘laroq, nazariya to‘g‘ri va asosli tushuntirish imkonini beradi. Nazariya mavjud va aniqlangan faktlarni muayyan sohadagi qonunlar va boshqa mavjud aloqalarning mantiqan zarur oqibati sifatida tushuntiradi. Ya’ni nazariyada bizni qurshab turgan hodisalar va voqealarni tasodiflar tartibsizligi deb emas, balki obyektiv zarur va qonuniyatli munosabatlarning ko‘rinish va mavjud bo‘lish shakli sifatida izohlash mumkin bo‘ladi.

Bundan tashqari, oldindan aytish, ilmiy bashorat qilish ilmiy nazariyaning muhim funksiyasidir. O‘tmishni va hozirni tushunishga, yig‘ilgan va ma’lum faktlarning mohiyatini fahmlashga imkon beradigan tushuntirishdan farqli o‘laroq, ilmiy bashorat yordamida



kelgusidagi taraqqiyotning asosiy tendensiyalari va istiqbollarini ochib berish mumkin. Bashorat qilish uchun foydalaniladigan qonunlar “dinamik”, ya’ni voqealar borishini bir ma’noda determinlashtiruvchi bo’lsa, bir ma’noli bashoratni amalga oshirish mumkin. Voqealar sodir bo’lishining u yoki bu ehtimolini belgilovchi “statistik” qonunlar asosida bashorat qilinsa, unda ehtimoliy bashorat amalga oshirilgan bo’ladi.

Shunday qilib, nazariya —bu muhim munosabatlar va qonunlarni bilish asosida obyektiv va real jarayonlarni ifoda etuvchi tushunchalar tizimidir. Har bir konkret nazariya aks ettirish va konstruksiyalashning birligidir. Boshqacha so‘z bilan aytganda, har qanday nazariya asosida chiqariladigan xulosalar evristik qiymatga ega bo’lgan va tajribada qo‘shimcha tekshirib ko‘rilishi lozim bo’lgan gipotetik elementlarni o‘z ichiga oladi. Nazariya va eksperiment - bir-birini to‘ldiruvchi ikki xil bilish usulidir. Demak, ilmiy bilish tuzilmasida ikkita o‘zaro farq qiluvchi, lekin bir-biri bilan bog‘liq daraja — empirik va nazariy darajalar mavjud. Biroq bilimlarning muayyan sohasini aynan ta’riflash uchun bu ikki daraja yetarli emas. Ilmiy bilim tuzilmasida ko‘pincha qayd etilmaydigan, lekin juda muhim bo’lgan darajani - bilish jarayonida voqelik to‘g‘risidagi umumiy tasavvurlarni o‘z ichiga olgan, falsafiy kategoriyalar tizimida ifodalangan falsafiy fikrlar darajasini alohida ko‘rsatmoq kerak.

Abstraktlikdan konkretlikka ko‘tarilishni umumiy tarzda ilmiy nazariy fikrning predmetni yoki obyektini tadqiq qilish borasida tobora to‘la, har tomonlama va bir butun qilib ifoda etish tomon harakatdir, deb ta’riflash mumkin. Bilimning abstraktligi deganda, keng ma’noda bilimning to‘liq emasligi, bir tomonlamaligi, konkretligi deganda esa bilimning to‘liqligi, mazmundorligi tushuniladi. Shu ma’noda “ abstraktlikdan konkretlikka ko‘tahrish” iborasini butun bilimning umumiy yo‘nalishini tavsiflash uchun qo‘llash mumkin, chunki unda bilimning kamroq mazmundorlikdan ko‘proq mazmundorlik tomon harakati qayd etiladi. Torroq va aniqroq metodologik ma’noda aytganda “abstraktlikdan konkretlikka ko‘tarilish” ilmiy-nazariy bilishning qamrab olgan boshlang‘ich abstrakt ideallashtirilgan nazariy konstruksiyadan uning ichidan tabaqalashtirilgan, lekin bir butun bo’lgan, turli-tuman rang-barang tomonlar, munosabatlar, aloqalar va empirik ko‘rinishlar birligini ifodalovchi manzarasari harakatini bildiradi. Fikrning abstraktlikdan konkretlik tomon harakati



to'g'risidagi tushunchani birinchi bo'lib Gegel fikr taraqqiyotining umumiy yo'nalishini xarakterlash uchun taklif qilgan.

Abstraktlikdan konkretlikka ko'tarilish metodi rivojlanishi tadqiq etilayotgan obyektning mavjud holatiga olib keladigan murtak "hujayrani", konkret-umumiyni topishga asoslanadi. Abstraktlikdan konkretlikka ko'tarilish jarayonida boshlang'ich ushbu hujayraning turli qo'shimcha, konkretlashtiruvchi sharoit bo'lganda rivojlangan obyektlar shakliga aylanadigan turli-tuman imkoniyatlar aniqlanadi, bu esa shu hujayradagi mavjud imkoniyatlarning ro'yobga chiqish yo'llarini oldindan ko'rishga imkon beradi. Binobarin, abstraktlikdan konkretlikka ko'tarilish metodi fundamental nazariy tadqiqot metodi bo'lib, shunday imkoniyatlamini topishda muhim rol o'ynaydi.[3]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mushek Takwani. Experimental physics. India 2020
2. Matbua Ahmedova. Falsafa. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyot Toshkent – 2006
3. Ю. А. Сауров К. А. Коханов, Методология функционирования и развития школьного физического образования. Монография. Киров 2011



KULON QONUNI. ZARYADLANGAN JISMLARNING O‘ZARO TA‘SIRI

Asqaraliyev Jasurbek Odiljon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Telefon nomer: +99893 844 73 11

E-mail: a23906557@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nuqtaviy zaryadlarni ta‘sir kuchlari keltirilgan. “l” uzunlikdagi ipga osilgan α burchak ostida ta‘sirlashsa va qandaydir suyuqlikka botirilgandagi ta‘sir kuchi qanchalik farq qilishi ko‘rib chiqilgan. Ikkita nuqtaviy zaryad qandaydir masofada maxkamlangan bo‘lsa, ularning muvozanat holatda bo‘lishi ham batafsil o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *nuqtaviy zaryad, ta‘sirlashuv kuchi, kulon qonuni, kosinuslar teoremasi, zaryadning saqlanish qonuni, jism og‘irligi, markazdan qochma kuch*

Abstract: *This article presents the impact forces of point charges. It was considered how much the force of impact varies when the object is immersed in a liquid, hanging on a string of length “l”, at an angle α . If two point charges are imprisoned at a certain distance, they are in state of equilibrium, has also been studied in detail.*

Key words: *point charge, impact force, Coulomb's law, theorem of cosines, charge conservation law, body weight, centrifugal force*

Аннотация: *В данной статье представлены силы удара точечных зарядов. Было рассмотрено, насколько изменится сила удара при погружении предмета в жидкость под углом α , подвешенного на веревке длиной «l». Если два точечных заряда сосредоточены на определенном расстоянии, их равновесное состояние также подробно изучено.*

Ключевые слова: *точечный заряд, сила удара, закон Кулона, теорема косинусов, закон сохранения заряда, масса тела, центробежная сила.*

Kirish: *Quyidagi maqolada zaryadlangan jismlarni havodagi ta‘sir kuchi[1], suyuqlikdagi holatini ham [2,3] batafsil ko‘rish mumkin. Bundan tashqari ko‘pchilikda*



muammo bo‘lgan murakkab masalalarga to‘liq yechim [4] topilgan. Bu keltirilgan masalalarni yechimini topishda kvadrat tenglamaga keltirib ishlash usullari ham keltirilgan.

Asosiy qism.

Kulon nuqtaviy zaryadlar uchun quyidagi qonunni keltirgan:


Vakuumda joylashgan 2 ta nuqtaviy zaryadning o‘zaro ta’sir kuchi ular zaryadlari modullari ko‘paytmasiga to‘g‘ri proporsional, ular oralaridagi masofaning kvadratiga teskari proporsionaldir [3-6]. $F_1 = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \frac{|q_1||q_2|}{r^2}$

Agar zaryadni o‘lchami oralaridagi masofani o‘lchamidan aytarli darajada kichik bo‘lmasa zaryadni o‘lchamini ham inobatga olamiz. U holda ta’sir kuchi $F_2 = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \frac{|q_1||q_2|}{(R_1+R_2+r_x)^2}$ ga teng bo‘ladi. Bu yerda R_1 va R_2 zaryadlangan jismni radiusi, r_x zaryadlar orasidagi masofa.

1. Vodorod atomining elementar nazariyasida elektron yadro atrofida doiraviy orbita bo‘ylab aylanadi, deb qabul qilinadi. Agar orbita radiusi $r=53\text{nm}$ bo‘lsa, elektronning v tezligi hamda elektronning aylanish chastotasi n aniqlansin.

Berilgan
 $r=53\text{ nm}$
 $e=1,6 \cdot 10^{-19}\text{ C}$
 $m=9,1 \cdot 10^{-31}\text{ kg}$
 $\epsilon_0=8,85 \cdot 10^{-12} \frac{\text{C}^2}{\text{Nm}^2}$
 $v=?$ $n=?$

Yechish:



(1) $F_q = \frac{m v^2}{r}$

(2) $F_k = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{e^2}{r^2}$

(1) ifodani (2) ifodaga tenglab

yuboramiz [7,8], $\frac{m v^2}{r} = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{e^2}{r^2}$ bundan $v = \frac{e}{2\sqrt{\pi m \epsilon_0 r}}$

chastota formulasi $n = \frac{v}{2\pi r}$ bundan $n = \frac{e}{4\pi r \sqrt{\pi m \epsilon_0 r}}$

$v = \frac{1,6 \cdot 10^{-19}}{2\sqrt{3,14 \cdot 9,1 \cdot 10^{-31} \cdot 8,85 \cdot 10^{-12} \cdot 5,3 \cdot 10^{-11}}} = 2,19 \cdot 10^6 \frac{\text{m}}{\text{s}}$




$$n = \frac{1,6 \cdot 10^{-19}}{4 \cdot 3,14 \cdot 5,3 \cdot 10^{-11} \sqrt{3,14 \cdot 9,1 \cdot 10^{-31} \cdot 8,85 \cdot 10^{-12} \cdot 5,3 \cdot 10^{-11}}} = 6,6 \cdot 10^{15} \text{ Hz}$$

Javob : $v = 2,19 \cdot 10^6 \frac{m}{s}$, $n = 6,6 \cdot 10^{15} \text{ Hz}$

2. Tomoni $a=10\text{sm}$ bo‘lgan to‘g‘ri oltiburchakning uchlarida $Q, 2Q, 3Q, 4Q, 5Q, 6Q$ ($Q=0,1\text{mkC}$) nuqtaviy zaryadlar joylashgan. Oltiburchak tekisligida yotuvchi va uning uchlaridan teng uzoqlikda joylashgan nuqtaviy zaryadga tasir etuvchi F kuch aniqlansin.

Berilgan
 $a=10\text{sm}$
 $Q=0,1\text{mkC}$
 $F=?$

Yechish:



$$F_1 = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{4QQ}{a^2} - \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{QQ}{a^2} = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{3Q^2}{a^2}, F_2 = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{6QQ}{a^2} - \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{3QQ}{a^2} = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{3Q^2}{a^2}$$

$$F_3 = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{5QQ}{a^2} - \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{2QQ}{a^2} = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{3Q^2}{a^2}, \text{ ushbu ifodalardan } F_1 = F_2 = F_3 \text{ mu-}$$

Nosabat [2] kelib chiqadi. F_1 va F_2 lar orasidagi burchak 120^0 ga teng , F_1 va F_2

kuchlarning natijaviysi $F_{12} = \sqrt{F_1^2 + F_2^2 - 2 F_1 F_2 \cos 120^0} = F_1$ va F_3

yo‘nalishida bo‘ladi. [1-3,6-7] $F_n = F_1 + F_3 = 2 F_1, F_n = 2 \cdot \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{3Q^2}{a^2}, F_n = \frac{2}{4 \cdot 3,14 \cdot 8,85 \cdot 10^{-12} \cdot$

$$\frac{3 \cdot (10^{-7})^2}{0,1^2} = 54 \cdot 10^{-3} \text{ N}$$

Javob : $F_n = 54 \cdot 10^{-3} \text{ N}$

3. Bir hil o‘tkazuvchanlikli, zaryadlangan ikkita shar bir-biridan $r=60\text{sm}$ masofada turibdi. Sharlarning itarishish kuchi $F_1 = 70\text{mkN}$. Sharlar bir-biriga tekkizilib, so‘ngra oldingi masofaga uzoqlashtirilgach itarishish kuchi ortdi va $F_2 = 160\text{mkN}$ bo‘ldi. Bir-biriga



tekkizilguncha sharlarda bo‘lgan Q_1 va Q_2 zaryadlar hisoblansin. Sharlarning diametrlari ular orasidagi masofadan ko‘p marta kichik deb hisoblansin.¹

Berilgan

$$r=30\text{sm}$$

$$F_1 = 90\text{mkN}$$

$$F_2 = 160\text{mkN}$$

$$\epsilon_0=8,85 \cdot 10^{-12} \frac{\text{C}^2}{\text{Nm}^2}$$

$$Q_1 = ? , Q_2 = ?$$


Yechish:

$$1\text{-holat} \quad \frac{Q_1}{r} \quad F_1 \quad \frac{Q_2}{r} \quad F_1$$

$$(1) \quad F_1 = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q_1 \cdot Q_2}{r^2}$$

$$Q_1 \cdot Q_2 = 4\pi\epsilon_0 r^2 F_1 \quad \text{bundan} \quad Q_2 = \frac{4\pi\epsilon_0 r^2 F_1}{Q_1}$$

Sharchalar bir-biriga tekkizilib keyin ajratib olinganida ular uchun $Q = \frac{Q_1 - Q_2}{2}$ munosabat o‘rinli. Bundan $Q_1 + Q_2 = 2Q$ tenglik kelib chiqadi.



$$F_2 = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q^2}{r^2} \quad \text{bundan} \quad Q = 2r\sqrt{\pi\epsilon_0 F_2} , \quad Q_1 - Q_2 = 4r\sqrt{\pi\epsilon_0 F_2}$$

$$\begin{cases} Q_1 \cdot Q_2 = 4\pi\epsilon_0 r^2 F_1 \\ Q_1 - Q_2 = 4r\sqrt{\pi\epsilon_0 F_2} \end{cases} \quad \text{bundan} \quad Q_1 - \frac{4\pi\epsilon_0 r^2 F_1}{Q_1} = 4r\sqrt{4\pi\epsilon_0 F_2} \quad \text{ifoda kelib chiqadi}$$

$$Q_1^2 - Q_1 4r \cdot \sqrt{\pi\epsilon_0 F_2} - r^2 \cdot 4\pi\epsilon_0 \cdot F_1 = 0 \quad \text{bu kvadrat tenglamani yechib } Q_1 \text{ ni topamiz}$$

$$D = (4r \cdot \sqrt{\pi\epsilon_0 F_2})^2 + 4r^2 \cdot 4\pi\epsilon_0 \cdot F_1 = 16r^2 \pi\epsilon_0 (F_2 + F_1)$$

$$\sqrt{D} = 4r \cdot \sqrt{\pi\epsilon_0 (F_2 + F_1)}$$

$$Q_1 = \frac{4r \cdot \sqrt{\pi\epsilon_0 F_2} + 4r \cdot \sqrt{\pi\epsilon_0 (F_2 + F_1)}}{2}, \quad Q_1 = 2r\sqrt{\pi\epsilon_0} \cdot (\sqrt{F_2} + \sqrt{(F_2 + F_1)})$$

$$Q_2 = 4r\sqrt{\pi\epsilon_0 F_2} - Q_1 = 4r \cdot \sqrt{\pi\epsilon_0 F_2} - (2r\sqrt{\pi\epsilon_0} \cdot (\sqrt{F_2} + \sqrt{(F_2 + F_1)}))$$

¹ А.Г.Чертов, А.А.Воробьев “Fizikadan masalalar to‘plami” Toshkent “O‘zbekiston” 1997. 202 bet



$$Q_2 = 2r\sqrt{\pi\epsilon_0} \cdot (\sqrt{F_2} - \sqrt{(F_2 + F_1)}), \quad Q_1 = 2 \cdot 0,3\sqrt{3,14 \cdot 8,85 \cdot 10^{-12}} \cdot (\sqrt{1,6 \cdot 10^{-4}} + \sqrt{1,6 \cdot 10^{-4} + 0,9 \cdot 10^{-4}}), \quad Q_1 = 9 \cdot 10^{-8} \text{c}$$

$$Q_2 = 2 \cdot 0,3\sqrt{3,14 \cdot 8,85 \cdot 10^{-12}} \cdot (\sqrt{1,6 \cdot 10^{-4}} - \sqrt{1,6 \cdot 10^{-4} + 0,9 \cdot 10^{-4}})$$

$$Q_2 = -1 \cdot 10^{-8} \text{c}$$

$$\text{Javob: } Q_1 = 9 \cdot 10^{-8} \text{c}, \quad Q_2 = -1 \cdot 10^{-8} \text{c}$$

4. Bir hil o'tkazuvchanlikli, zaryadlangan ikkita shar bir-biridan $r=30\text{sm}$ masofada turibdi. Sharlarning o'zaro tortishish kuchlari $F_1 = 90\text{mkN}$ ga teng. Sharlar bir-biriga tekkizilib, oldingi masofaga uzoqlashtirilgandan keyin ular $F_2 = 160\text{mkN}$ kuch bilan itarishisha boshlashdi. Bir-birlariga tekkizilguncha sharlarda bo'lgan Q_1 va Q_2 zaryadlar aniqlansin. Sharlarning diametri ular orasidagi masofadan ko'p marta kichik deb hisoblansin.²

Berilgan

Yechish:

$$r=30\text{sm}$$

$$1\text{-holat} \quad \frac{Q_1}{F_1} \quad \frac{F_1}{Q_2}$$

$$F_1 = 90\text{mkN}$$

$$F_2 = 160\text{mkN}$$

$$\epsilon_0 = 8,85 \cdot 10^{-12} \frac{\text{C}^2}{\text{Nm}^2}$$

$$Q_1 = ? , \quad Q_2 = ?$$


$$(1) \quad F_1 = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q_1 \cdot Q_2}{r^2}$$

$$Q_1 \cdot Q_2 = 4\pi\epsilon_0 r^2 F_1 \quad \text{bi} \quad Q_2 = \frac{4\pi\epsilon_0 r^2 F_1}{Q_1}$$

Sharhalar bir-biriga tekkizilib keyin ajratib olinganida ular uchun $Q = \frac{Q_1 - Q_2}{2}$

munosabat o'rinli. Bundan $Q_1 + Q_2 = 2Q$ tenglik kelib chiqadi.

2-holat



$$F_2 = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q^2}{r^2} \quad \text{bundan } Q = 2r\sqrt{\pi\epsilon_0 F_2}, \quad Q_1 - Q_2 = 4r\sqrt{\pi\epsilon_0 F_2}$$

$$\begin{cases} Q_1 \cdot Q_2 = 4\pi\epsilon_0 r^2 F_1 \\ Q_1 - Q_2 = 4r\sqrt{\pi\epsilon_0 F_2} \end{cases} \quad \text{bundan } Q_1 - \frac{4\pi\epsilon_0 r^2 F_1}{Q_1} = 4r\sqrt{4\pi\epsilon_0 F_2} \quad \text{ifoda kelib chiqadi}$$

² А.Г.Чертов, А.А.Воробьев "Физикadan masalalar to'plami" Toshkent "O'zbekiston" 1997. 202 bet



$Q_1^2 - Q_1 4r \cdot \sqrt{\pi \epsilon_0 F_2} - r^2 \cdot 4\pi \epsilon_0 \cdot F_1 = 0$ bu kvadrat tenglamani yechib Q_1 ni topamiz

$$D = (4r \cdot \sqrt{\pi \epsilon_0 F_2})^2 + 4r^2 \cdot 4\pi \epsilon_0 \cdot F_1 = 16r^2 \pi \epsilon_0 (F_2 + F_1)$$

$$\sqrt{D} = 4r \cdot \sqrt{\pi \epsilon_0 (F_2 + F_1)}$$

$$Q_1 = \frac{4r \cdot \sqrt{\pi \epsilon_0 F_2} + 4r \cdot \sqrt{\pi \epsilon_0 (F_2 + F_1)}}{2}, \quad Q_1 = 2r \sqrt{\pi \epsilon_0} \cdot (\sqrt{F_2} + \sqrt{(F_2 + F_1)})$$

$$Q_2 = 4r \sqrt{\pi \epsilon_0 F_2} - Q_1 = 4r \cdot \sqrt{\pi \epsilon_0 F_2} - (2r \sqrt{\pi \epsilon_0} \cdot (\sqrt{F_2} + \sqrt{(F_2 + F_1)}))$$

$$Q_2 = 2r \sqrt{\pi \epsilon_0} \cdot (\sqrt{F_2} - \sqrt{(F_2 + F_1)}) \quad Q_1 = 2 \cdot 0,3 \sqrt{3,14 \cdot 8,85 \cdot 10^{-12}} \cdot$$

$$(\sqrt{1,6 \cdot 10^{-4}} + \sqrt{1,6 \cdot 10^{-4} + 0,9 \cdot 10^{-4}})$$


$$Q_1 = 9 \cdot 10^{-8} \text{ c}$$

$$Q_2 = 2 \cdot 0,3 \sqrt{3,14 \cdot 8,85 \cdot 10^{-12}} \cdot (\sqrt{1,6 \cdot 10^{-4}} - \sqrt{1,6 \cdot 10^{-4} + 0,9 \cdot 10^{-4}})$$

$$Q_2 = -1 \cdot 10^{-8} \text{ c}$$

Javob: $Q_1 = 9 \cdot 10^{-8} \text{ c}$, $Q_2 = -1 \cdot 10^{-8} \text{ c}$

5. Ikkita musbat Q va $4Q$ nuqtaviy zaryadlar bir-biridan $L=60$ sm masofada mahkamlangan. Muvozanat vaziyatida bo'lishi uchun Q_1 zaryadni berilgan zaryadlar orqali o'tuvchi to'g'ri chiziqning qaysi nuqtasida o'rnatish kerak? Agar zaryad faqat mahkamlangan zaryadlar orqali o'tuvchi to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlana olsa, muvozanat turg'un bo'lishi uchun zaryad qanday ishoralari bo'lishi kerakligi ko'rsatilsin.³

Berilgan $Q, 4Q$
 Yechish: 
 $L=60$ sm
 $X=?$

$$F_1 = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q \cdot Q_1}{x^2}, \quad F_1 = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{4Q \cdot Q_1}{(L-x)^2}$$

(1) ifodani (2) ifodaga tenglab yuboramiz yani

$$\frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q \cdot Q_1}{x^2} = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{4Q \cdot Q_1}{(L-x)^2} \quad \text{bundan} \quad \frac{1}{x^2} = \frac{4}{(L-x)^2} \quad \text{buni soddalashtirsak} \quad x = \frac{L}{3} \quad \text{munosabat}$$

$$\text{o'rinli. } x = \frac{60}{3} = 20 \text{ sm}$$

³ A.Г.Чертов, А.А.Воробьев "Fizikadan masalalar to'plami" Toshkent "O'zbekiston" 1997. 202 bet



Muvozanat turg'un bo'lishi uchun Q_1 zaryadning ishorasi musbat bo'lishi kerak. Chunki ikkala chetki qismdagi zaryadlarning ishorasi musbat.

Javob: $x=20\text{sm}$ ga teng, ishorasi musbat bo'lishi zarur.

6. Erkin $Q_1 = 180\text{nC}$ va $Q_2 = 720\text{nC}$ zaryadlar orasidagi masofa $L=60\text{ sm}$. Zaryadlar tizimi muvozanatda bo'lishi uchun, uchinchi Q_0 zaryadni o'rnatish lozim bo'lgan zaryadlar orqali o'tuvchi to'g'ri chiziqdagi nuqta aniqlansin. Zaryadning kattaligi va ishorasi aniqlansin. Muvozanat turg'un bo'ladimi yoki turg'unmasmi?

Berilgan Yechish:

$$Q_1 = 180\text{nC} \quad \begin{array}{c} Q_1 \\ \bullet \\ \text{---} \\ \bullet \\ Q_2 \end{array} \quad \begin{array}{c} F_1 \\ \downarrow \\ \text{---} \\ \downarrow \\ F_2 \end{array} \quad \begin{array}{c} Q_0 \\ \bullet \\ \text{---} \\ \bullet \\ Q_2 \end{array} \quad \begin{array}{c} F_2 \\ \downarrow \\ \text{---} \\ \downarrow \\ F_1 \end{array} \quad \begin{array}{c} Q_2 \\ \bullet \\ \text{---} \\ \bullet \\ Q_1 \end{array}$$

$$Q_2 = 720\text{nC}$$

$$L=60\text{ sm} \quad F_1 = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q_0 \cdot Q_1}{x^2} \quad \left(F_2 = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q_0 \cdot Q_2}{(L-x)^2} \right)$$

$X=?$, $Q_0=?$ (1) ifodani (2) ifodaga tenglab yuboramiz

$$\frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q_0 \cdot Q_1}{x^2} = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q_0 \cdot Q_2}{(L-x)^2} \text{ bundan } \frac{Q_1}{x^2} = \frac{Q_2}{(L-x)^2} \text{ bundan (3) } x = \frac{L}{1 + \sqrt{\frac{Q_2}{Q_1}}} \text{ ni topdik}$$

Endi Q_2 va Q_0 zaryadlarning Q_1 zaryadga tasir etayotgan kuchlarini topib bir-biriga tenglab yuboramiz.

$$F_{1.1} = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q_0 \cdot Q_1}{x^2} \quad , \quad F_{1.2} = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q_2 \cdot Q_1}{L^2} \text{ bundan } \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q_0 \cdot Q_1}{x^2} = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \cdot \frac{Q_2 \cdot Q_1}{L^2} \text{ bundan}$$

$Q_0 = Q_2 \cdot \left(\frac{x}{L}\right)^2$ endi x ni o'rniga (3) ifodani olib kelib qo'yamiz.

$$Q_0 = Q_2 \cdot \left(\frac{\sqrt{Q_1}}{\sqrt{Q_2} + \sqrt{Q_1}}\right)^2 \text{ ifoda hosilbo'ladi.}$$

$$x = \frac{L}{1 + \sqrt{\frac{Q_2}{Q_1}}} = \frac{60}{1 + \sqrt{\frac{720\text{nC}}{180\text{nC}}}} = 20\text{ sm}, \quad Q_0 = 720\text{nC} \cdot \left(\frac{\sqrt{180\text{nC}}}{\sqrt{720\text{nC}} + \sqrt{180\text{nC}}}\right)^2 = 80\text{ nC}$$

Javob : $x=20\text{ sm}$, $Q_0 = -80\text{ nC}$ Q_0 ni ishorasini manfiy olingandagina zaryadlar muvozanatda turadi. Muvozanat turg'un bo'lmaydi, sababi Q_0 ni ishorasini manfiy olindi. Uni qaysi tomonga siljitilsa o'sha tomonga tortilib ketadi.



Xulosa: yuqoridagi maqolada zaryadlangan sharcha, sharchalarni ta'sir kuchini topish ko'rib chiqildi. A.Chertov kitobining elektrostatika bo'limining muammoli masalalari ko'rildi va bu ishlangan masalalarni yana boshqa usullarda ham yechim qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Чертов, А.Воробьев “Физикадан масалалар тупамли” 1997-йил www.ziyo.uz.com kutubxonasi
2. С.Г.Калашников “Электр” 1979-йил
3. А.С.Ну’монхо’jayev, R.У. Komilova, К.А.Турсунmetov, А.Х.Yunusov, В.Норматов, А.М.Худойberganov “FIZIKA” 2-qism Ma’ruzalar matni 2003-yil
4. Д.В.Сивухин “Общий курс физики”
5. И.Савельев “Умумий физика курси” 2-том 1975-йил
6. М.Н. О’lmasova FIZIKA, Elektrodinamika asoslari “O‘QITUVCHI” TOSHKENT 2004



FIZIKA KURSINI O‘QITISHDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINING AHAMYATI

Ruvojiddinov Shavkatjon Faxriddin o‘g‘li

Namangan davlat universiteti, Fizika yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Tel: [+998883740206](tel:+998883740206)

Ilmiy rahbar: Turdaliyev Ulug‘bek Valijon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti, Fizika kafedrası o‘qituvchisi

email: ulugbekturdaliyev9508@gmail.com

Tel: [+998999777650](tel:+998999777650)

Annotasiya: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi. Eksperimental tajriba va uning tashkil etuvchilari qismlari va turlari keltirib o‘tildi. Sinf o‘quvchilarini laboratoriya mashg‘uloti davomida guruhlarga bo‘lish usullari va shartlari haqida ma‘lumot berildi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlarini yanada qiziqarli va samarali qilish uchun pedagoglarga ayrim usullar malum qilindi.

Kalit so‘zlar: Laboratoriya, eksperimental tajriba, namoyish tajriba, hodisa, o‘qituvchi, maktab, ko‘rgazma, kuzatish, maqsad, o‘quvchi, izlanuvchi, natija.

Laboratoriya eksperimental ishlardan iborat bo‘lib, fizikani o‘rganish va o‘qitishning muhim tarkibiy qismidir. O‘quvchilar ko‘pincha fizika fanidan laboratoriya ishlarini bajarishda amaliy mashg‘ulot va qurilmalar bilan ishlashadi. Xo‘sh, nima uchun laboratoriya mashg‘uloti amaliy ahamiyatga ega va mashg‘ulot mobaynida nima qilish kerak?


Mashhur fizik va Nobel mukofoti sovrindori, doktor R.Feynmanning fikricha, “ilm-fan tamoyili va aslida fanning ta‘rifiga ko‘ra “barcha bilimlarning sinovi tajribadir”. Tajriba ilmiy haqiqatning yagona isbotidir.” Biz hodisalarni kuzatish jarayonida, ushbu hodisalarni tushuntira oladigan qonunlarni ishlab chiqamiz. Masalan, daraxtdan tushgan olma tasodifiy tajriba bo‘lib, uning yuqoriga otilgan to‘pning qaytib tushishi va yuqoridan tashlangan boshqa jismlar bilan ko‘p umumiy jihatlari bor. Shunday qilib, “Harakat qonunlari” (mashhur 3 ta harakat qonuni) Isaak Nyuton tomonidan ilgari surilgan. Qonun ilgari surilganda, u tajribalar bilan o‘z isbotini



tasdiqlab olishi kerak. Maktab yoki kollej darajasidagi fizika tajribalarida biz fizika qonunlarini sinab ko‘ramiz va eksperimental natijalar darsliklarimiz bizga o‘rgatgan nazariyaga mos kelishini tekshiramiz[1]. Biz eksperimental texnikani, apparatlar bilan ishlashni, apparatning aniqligi va sezgirligi chegaralarida ishlash va hisob-kitoblardagi xatolarni topamiz. Amalyotda tajriba bajarish fizika darslikdagi fizikani o‘rganish kabi oson emas. O‘quvchilar fizika fanidan ko‘p sabablarga ko‘ra qiyinchiliklarga duch kelishadi va buning sababini keyingi maqolamizda kengroq yoritamiz.

Xo‘sh, fizika mashg‘ulotida amaliy tajribalar nimani o‘z ichiga oladi? Eksperimental tajriba ikki turdagi faoliyatni o‘z ichiga oladi:

Bizni qiziqtirgan eksperimentlarning birinchi turi laboratoriya bo‘lib, unda



1-shakl. Eksperimental tajriba va uning tashkil etuvchilari.

o‘quvchingning o‘zi tajriba o‘tkazadi (1-shakl). Bunday tajribalarning odatiy ketma-ketligi mavjud va ularga amal qilish laboratoriya mashg‘ulotini o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad va aniq natijani kafolatlaydi.[3]

1. O‘qituvchi eksperimentning maqsadini, asboblarni o‘rnatish va ulardan foydalanishni, qanday kuzatishlar (o‘qishlar) o‘tkazilishini, bu kuzatuvlarni qanday olib



borishni, ushbu kuzatishlar asosida fizik miqdorni qanday hisoblashni, ehtiyot choralarini (mumkin va mumkin emas) tushuntiradi.

2. Fizika laboratoriyasida o‘quvchilar og‘ir asbob-uskunalar, yuqori kuchlanishlar, o‘tkir tig‘li asboblar, qattiq jism yoki turli xususiyatga ega suyuqliklar va hokazolardan foydalanishni o‘z ichiga olgan tajribalarni bajarishlari mumkin. Bunday qurilmalar bilan qanday xavfsiz ishlash mumkinligiga o‘quvchilar to‘laqonli tushunganiga ishonch hosil qilish lozim.

3. Fizika - bu o‘lchovlar haqidagi fan. Biz fizik miqdorlarni luksimetr, mikrometr vintli o‘lchagich, ampermetr, voltmetr va boshqalar kabi asboblar bilan o‘lchaymiz. Shuning uchun avvalo ushbu o‘lchov asboblarini qanday ishlatishni tushunish, agar mavjud bo‘lsa yo‘riqnomasi bilan tanishib chiqish kerak. Barcha o‘lchov asboblari “eng kam hisoblash” yoki ushbu asbob bilan olinishi mumkin bo‘lgan eng kichik o‘lchov qiymatiga va eng yuqori o‘lchov chegarasiga ega. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilariga yoki o‘lchov asbobiga zarar yetkazmaslik uchun asbobdan ehtiyotkorlik bilan foydalanishni o‘rgatishi kerak.

4. Laboratoriya mashg‘ulotlar umumiy tartibda yoki 2-3 o‘quvchidan iborat guruhda bajariladi. Bu shunchaki bir namuna. O‘quvchilarni qanday tartibda va nechta guruhga bo‘lish albatta o‘qituvchiga bog‘liq. O‘qituvchi guruhlarga bo‘lish jarayonida sinfdagi o‘quvchilar soni va laboratoriya ishi uchun zarur bo‘lgan vaqt meyorini hisobga olishi zarur. Buning sababi darslikda laboratoriya ishi uchun odatda 1 ta dars ajratiladi. Shu sabab o‘qituvchi ko‘pincha laboratoriya mashg‘ulotini umumiy tartibda o‘tkazadi. Bu bir tomondan qaraganda yaxshi lekin, bunday vaziyatda laboratoriya mashg‘uloti ham namoyish tarjiba kabi o‘tib ketadi va o‘quvchi laboratoriya mashg‘ulotida olishi kerak bo‘lgan qurilmalar bilan ishlash, tajribani bajarish va natijalarni olish kabi bilim ko‘nikmalaridan mahrum bo‘ladi. Bunday faziyatni oldini olish uchun o‘qituvchi albatta o‘quvchilarni guruhlarga ajratishi va har bir guruh laboratoriya mashg‘ulotini bajarishi kerak.

5. Laboratoriya mashg‘ulotni bajarish qurilmani o‘qituvchi tushuntirganidek tartibga solish, kuzatishlar olib borish, bu kuzatishlarni jadval shaklida qayd etishdan boshlanadi.

6. Natijalar qayd etilgandan so‘ng, kerakli formuladan foydalanish va tajriba maqsadining bir qismi bo‘lgan qiymatni topish uchun hisob-kitoblarni bajarish kerak. Masalan,



difraksion panjara yordamida yorug'likning to'liq uzunligini aniqlash tajribasida kuzatilgan maksimumlarning tartibiga qarab burchakning ortib borishi va bu natijalar orqali kuzatilayotgan yorug'lik to'liq uzunligini qiymatini hisoblashni o'z ichiga olishi mumkin.

7. Natijalarni tahlil qilish uchun bir yoki bir nechta grafiklarni chizish yoki jadvallarni to'ldirish kerak bo'lishi mumkin, shuning uchun grafiklarni chizish usullari bilan tanishish kerak. Grafiklarni tuzish quyidagilarni bilishni o'z ichiga oladi: masshtabni qanday tanlash, grafik qog'ozni portret yoki landshaft rejimida saqlash, qaysi miqdorni X o'qi bo'yicha chizish, qaysi miqdorni Y o'qi bo'yicha chizish, o'qlarni belgilash, belgilab o'tish.

8. Ko'rinib turganidek, grafiklarni chizish yoki jadvallarni to'ldirish ko'pgina fizika tajribalarining deyarli muhim qismidir. Hisob kitob ishlari yakunklangach ularning har bir qiymatini jadvalning mos qismlariga yoziladi va tajribaning umumiy natijalari taxlil qilinadi.

9. Tajriba natijalari darslikdagi aniq qiymatlarga mos kelmasligi mumkin va bu tabiiy holdir. Esda tutingki, biz tajriba o'tkazyapmiz, uning qanchalik aniq bo'lishi chegarasi asbob-uskunalar bilan kuzatuvlarni amalga oshirishda turli xil xatolarga bog'liq. (shaxsiy xatolar, uskunadagi xatolar, haroratning o'zgarishi yoki to'satdan shamol bo'lishi kabi tasodifiy xatolar). Ushbu xatolar yakuniy natijaga ta'sir qiladi. Shuning uchun ham har bir laboratoriya uchun nisbiy va absolyut xatoliklar chegarasi mavjud[2].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlarini yanada qiziqarli va samarali qilish uchun nima qilishi mumkin? Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga kelgusi hafta qaysi laboratoriya mashg'ulotlarni bajarishlarini oldindan aytishi mumkin. Natijada o'quvchi o'zining darsligidan ushbu mavzuning nazariyasini o'qishi, laboratoriyada o'qituvchidan so'rashi mumkin bo'lgan savollarni oldindan tayyorlashi, qurilma bilan qanday ishlashni o'qib kelishi mumkin. Qurilmaning nomi va uning eksperimentda ishlatilishi bilan tanishadi.

Shuningdek, o'quvchi laboratoriyasida bo'lgan vaqtda tajribalarni o'tkazishning muqobil usullarini o'ylab ko'rishi, texnikani yaxshilashni taklif qilishi, ularni o'qituvchi bilan muhokama qilishi va shunga muvofiq harakat qilishi mumkin.



O‘quvchilar laboratoriya daftarini saqlashi, unga barcha kuzatishlaringizni yozib borishi, grafiklarni chizishi, hisob-kitoblarni muntazam yuritib borishi va yakuniy natijalarni eksperimental xatolar bilan yozib olish orqali o‘z bilimlarini oshirishlari mumkin.

Dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning mobil telefondan foydalanishni odatda rag‘batlantirmaydi. Ammo, o‘quvchilar fizika laboratoriyasida mobil telefondan foydalanishlari ijobiy natijaga olib kelishi mumkin. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari hududida mobil telefondan foydalanish ma‘muriyat siyosatiga bog‘liq bo‘lganligi sababli, laboratoriyada mobil telefondan foydalanishdan oldin fizika o‘qituvchisi ma‘murning roziligini olish juda muhim. Xo‘sh, laboratoriyada mobil telefon bilan nima qilish mumkin? Eng foydali qism bu tajribani videoyozuvga olishdir. Shuningdek, o‘quvchi qurilmaning rasmlarini olishi va qurilmani eslab qolishi uchun sarlavha/yorliq qo‘yishi mumkin. Shunday qilib, tajribani keyinroq qayta ko‘rib chiqishi imkoniga ega bo‘lishi mumkin, chunki ko‘pincha fizika laboratoriyasi sinflarda haftada bir yoki ikki haftada bir marta o‘tkaziladi. [1]

Fizika laboratoriyasi - bu fiziklarning o‘yin maydonchasi. O‘quvchilar laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish davomida olgan bilimlarining asosli ekanligiga ishonch xosil qilib borishadi. Umid qilamizki, barcha pedagoglarimiz laboratoriyada o‘quvchilar uchun barcha qiziqarli tajribalarni o‘tkazishadi, shuningdek, ilm-fan sirlarini o‘rgatish orqali yangi istedod egalarini kashf qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

4. Mushek Takwani. Experimental physics. India 2020
5. U.Turdaliyev. Optika bo‘limidan laboratoriya ishlari. Namangan 2022
6. Ю. А. Сауров К. А. Коханов, Методология функционирования и развития школьного физического образования. Монография. Киров 2011



FIZIKANI O‘QITISHDA VR TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Abdulboqiyeva Gulshoda Dilshod qizi

Namangan davlat universiteti Fizika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Tel: +99 890 050 03 16

Ilmiy maslaxatchi: Ismanova Odina To‘lqinbayevna

Namangan davlat universiteti Fizika fakulteti dekani

Anotatsiya: O‘quvchilarga zamonaviy ta‘lim berish maqsadida astranomiya darslarini o‘tishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kerak. Buning uchun VR texnologiyasi yordamida astranomiya darslari uchun mobil dasturiy ilova yaratilishi lozim. Buning yordamida O‘quvchi koinot haqidagi bilimlarni virtual koinot ichida kezib o‘rganadi va fanga bo‘lgan qiziqish ko‘rsatgichi ortadi.

Kalit so‘zlar: Astranomiya, Zamonaviy ta‘lim, VR texnologiyasi, koinot, Dastur, Mobil ilova, Virtual Reality, Kepler.

XXI asr ilg‘or texnologiyalar asr. Bugungi kunda zamonaviy texnika va dasturlar barcha soxalarga shidad bilan kirib bormoqda, masalan tibbiyot, sanoat va iqtisod soxlariga. Bunday zamonaviy dasturlar va texnologiyalar ta‘lim soxasini chetlab o‘tmasligi kerak. Hozirgi kunda pedagoglar o‘quvchini fanga qiziqтира olmaslik muamosiga ega. Bunga asosiy sabab shundaki o‘quvchi fanga oid kitobni o‘qish yoki maruza tiglashdan ko‘ra mobil telefonidagi yuqori grafikali o‘yinni o‘ynashni afzal ko‘rmoqda.



1-rasm: VR simulyatori.

Bunday o‘yinlar nafaqat yoshlarni balki katta yoshdagi odamlarni ham qiziqtirib bormoqda. Bunday vaziyatda o‘quvchini aybdor qila olamizmi? Albatta o‘quvchilik vazifasini bajarmayotganlikda ayblashimiz va chora ko‘rishimiz mumkin, lekin bu o‘quvchini fanga bo‘lgan qiziqishini paydo qilib qo‘ymaydi. Demak o‘quvchi mobil dasturlarni darsdan afzal ko‘rayotgan bo‘lsa, biz fanni o‘qitishni zamonaviy dasturlar bilan amalga oshirish kerak. Buni zamonaviy VR texnologik dasturi yordamida amalga oshiramiz. Virtual Reality “Virtual Reality” yoki “VR” deb ataladi, u ham so‘nggi yillarda yangi texnologiyalar sifatida tarjima qilinadi. [1-rasm] Bundan tashqari u texnologiya yoki sun‘iy muhitga ham tegishli. Virtual haqiqat - bu foydalanuvchilar uch o‘lchamli makon yaratishi uchun kompyuter simulyatsiyasidan foydalanadigan virtual dunyodir. Bu foydalanuvchilarga boshqa his-tuyg‘ularni simulyatsiya qilish imkonini beradi. “Virtual haqiqat davrining” paydo bo‘lishi bilan vr texnologiyasi zamonaviy hayotga tobora ko‘proq kirib bormoqda.




2-rasm: Pekinning boshlang‘ich maktab VR / AR sinflari



Hozirgi vaqtda Pekin Aviatsiya va kosmonavtika universiteti, Pekindagi Poynt universiteti, Peki texnologiya instituti, Janubi-gʻarbiy Jiaotong universiteti, Shandong universiteti, Zhejiang universiteti, Peking universiteti va boshqa institutlar virtual haqiqat texnologiyalari laboratoriyalarini yaratdilar. Xitoyning Renmin Universitetining VR / AR ta'lim Ittifoqi Markaziy kengashi tomonidan Pekinning boshlangʻich maktab direktori Xitoyda ilk bor “VR oʻqitish modeli maktabining asosiy oʻqituvchisi” nomiga ega boʻldi. Mamlakatning koʻplab boshlangʻich va oʻrta maktablari VR / AR sinflarni oʻqitish uchun taqdim etdi. [2-rasm] Biz ham ta'lim soxasida huddi shunday oʻzgarishlarni amalga oshirishimiz kerak.

Astronomiya darslarini oʻtishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kerak. Buning uchun VR texnologiyasi yordamida astronomiya darslari uchun



3-rasm: Namunaviy VR dasturidan lavha

mobil dasturiy ilova ishlab chiqiladi va VR ochki ichiga dastur oʻrnatilgan mobil telefon joylanadi. Oʻquvchi koinot haqidagi bilimlarni virtual koinot ichida kezip oʻrganadi. Dasturdagi har bir mavzu DTS asosida yaratiladi. Har bir dars uchun alohida malumotlar tayyorlanadi. Dasturning asosiy afzaligi yuqori grafika va dizaynga ega boʻlishidir. Hozirda Oʻzbekistonda IT soxasi rivojlanib bormoqda bu esa bizda zarur dasturni yarata oladigan



kadrlarni mavjudligini bildiradi. Bunday ta'lim usuli o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini keskin ortishiga sabab bo'ladi. Misol tariqasida tasavur qiling siz Kepler sayyorasini o'rganmoqchisiz. Buning uchun VR ochki taqasiz va dasturiy oynadan Kepler sayyorasi tanlaysiz, shundan so'ng siz Kepler sayorasiga borasiz. Sayora haqidagi to'liq malumotlar va uning tuzulishini o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz. Bu siz uchun haqiqatga aylanadi. Sayyorada bo'lgan payitingiz siz sayoradagi suv shovqinini va shamol ovozini his qilaisiz, bundan tashqari sizga sayora haqidagi to'liq malumotlar audio tarzda uzatib boriladi.[3-rasm]

Ushbu loyihaning dasturiy taminotini tayorlash narxi taxminan 35 000 \$ ni tashkil etadi. VR ochkilarning narxi esa o'rtacha 300 000 so'm. Dastur ochiq kodli bo'lgani uchun uni play marketdan yuklab olish mumkin bo'ladi. Shunda sizdan talab etiladigan yagona narsa bu VR ochki bo'ladi holos.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Pedagogika nazariyasi. Toshkent 2008. X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 288 bet.
2. <http://srcyrl.simulator9dvr.com/info/vr-virtual-reality-technology-development-and-24384412.html>
3. <http://m.srcyrl.yd4dcinema.com/info/where-the-vr-technology-is-used-35767694.html>
4. <http://m.srcyrl.shinecon.fr/news/how-vr-ar-education-broke-out-on-the-occasion-11144400.html>
5. <https://youtu.be/qhLExhpXX0E>



NAMOYISH TAJRIBA TURLARI VA ULARNING AHAMYATI

Tursunaliyeva Sevinch Odiljon qizi

Namangan davlat universiteti, Fizika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Tel: +99894081003

*Ilmiy rahbar: **Turdaliyev Ulug‘bek Valijon o‘g‘li***

Namangan davlat universiteti, Fizika kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: ulugbekturdaliyev9508@gmail.com

Tel +998999777650

Annotasiya: *Namoyish tajriba turlari va ularning ahamyati ilmiy asoslangan xolda qisman yoritib o‘tildi. Tajriba obykti sifatida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 11-sinf fizika darsligida mavjud bo‘lgan difraksion spektr mavzusidagi namoyish tajribani o‘tkazish sxemasi va talablari keltirildi. Xulosa qilib aytganda fizika fani o‘qituvchisi tomonidan namoyish tajribalarni o‘tkazishi va uni dars mavzusiga mos ravishda mukammal sxemasini va rejasini ishlab chiqishi dars sifatining oshishi, o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqish va nazaryani amalyotda qo‘llashga bo‘lgan ishtiyoqning ortishiga sabab bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *namoyish tajriba, bilim usuli, laboratoriya, tushuncha, difraksion spektr, ko‘rgazmalik tamoyili, kuzatish, maqsad, o‘quvchi, izlanuvchi, natija.*

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilar tomonidan fizika fanini o‘zlashtirishda biroz qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. O‘quvchilar tomonidan fizika fani o‘rganish qiyin bo‘lgan tushunarsiz fanday. Ammo dunyoning rivojlangan mamlakatlari texnika va texnologiyaga oid bo‘lgan fanlarni o‘qitishga alohida urg‘u bermoqda, Fizika esa bu fanlarning eng asosiysidir. Fizikani o‘quvchilarga tushunarli tarzda o‘rgatish, ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogikaning dolzarb masalasidir. Tushunarlilik tamoyil hamisha eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgani holda u o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, yosh xususiyatlari, didaktik jarayonni tashkil etish metodikasi, individual xususiyatlar (o‘quvchi va o‘qituvchining)ga bog‘liqdir. Ya.A. Kamenskiyning fikricha bu tamoyil oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, ma‘lumdan noma‘lumga asoslangan bo‘lishi lozim. Ya.A. Kamenskiyning fikricha “Yosh xususiyatlari asosida ulargagina tushunarli



bo‘lgan narsani o‘rgating. Materialni bo‘laklab, so‘ngra yaxlitlab, so‘ngra xulosalab, keyin esa amaliyot bilan bog‘lab tushuntiring.”[1]

Bilim berishning ko‘rgazmalik usuli qadim zamonlardan beri ishlatib kelinayotgan eng qulay, samarali va tushunarli tamoyil hisoblanadi. Zero, ko‘rish orqali eshitishga nisbatan 5 marta ko‘proq va 13 marta ko‘proq taktik organlarga nisbatan ko‘proq ma’lumotni miyaga yetkaziladi. Bu ma’lumotlar tez, oson va mustahkam o‘rnashib qoladi. Ko‘rgazmalik tamoyiling qoidalari juda ko‘p bo‘lib, ayrimlarini takidlab o‘tish lozim.

- So‘z bilan emas, namoyish bilan ko‘proq, tez va oson tushunib olish mumkin.
- Shuni unitmaslik keraki bola rang, shakl, tovush orqali tezroq tushunadi.
- Ko‘rgazmalik maqsad eman, vosita ekanligini unitmaslik darkor.
- Tushuncha, bilim aniq dalil va ko‘rgazma bilan samaralidir.

Ko‘rgazmalik bilim bilim olish usulida o‘quvchi ongida yangicha dunyoqarash, fikr erkinligi va ijodkorona kuzatish shakillanib boradi. Kuzatish davomida ilmiy bilishning emperik va nazariy qisimlari uyg‘unligi taminlanadi.

Namoyish tajriba esa sun‘iy yaratilgan sharoitda (laboratoriyada) olib boriladigan kuzatishdir. Namoyish tajribada tadqiqotchi o‘rganish obyektiga faol ta’sir qilishi, u yoki bu tashqi ta’sirlami o‘zgartirishi mumkin. Masalan, yorug‘likning difraksion panjaradan o‘tganda spektrga ajralishini maqsadli kuzatish - namoyish tajribadir.

Namoyish tajriba kuzatishga qaraganda yuqoriroq darajadagi bilish usulidir. Namoyish tajriba usuli hodisalaming muhim belgilari va xususiyatlarini, ulaming boshqa hodisa va narsalar bilan munosabati, aloqa va bog‘lanishlarini chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi. Bu usul izlanuvchiga tabiiy sharoitda kuzatish orqali hosil qilish mumkin bo‘lmagan bilimlami olish imkoniyatini beradi. Ilmiy tadqiqot sohaslariga, tadqiq qilinuvchi obyektlaming tabiatiga qarab, namoyish tajribalar fikriy Namoyish tajriba bo‘lishi ham mumkin. Namoyish tajriba o‘tkazishda izlanuvchi quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

- Namoyish tajriba maqsadini aniqlash va uni o‘tkazish uchun zarur shart - sharoit yaratish;
- tajribaning mukammal sxemasini va rejasini ishlab chiqish;
- Namoyish tajriba uchun zarur asbob va qurilmalami yig‘ish;



- tajriba o‘tkazish va o‘lchash natijalari asosida kerakli hisoblashlarni bajarish;
- Namoyish tajriba natijalarini analiz qilish va xulosa chiqarish. [3]

Yuqorida shartlar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinf fizika darsligida mavjud bo‘lgan difraksion spektr mavzusidagi namoyish tajribani o‘tkazish mumkin. Namoyish tajribaning asosiy maqsadi o‘quvchilarga difraksion panjaraga kelib tushgan oq yorug‘lik uning tirqishlaridan aylanib o‘tish jarayonida dispersiyalanishi va natijada yorug‘lik spektri kuzatilishini tushuntirishdan iborat. Namoyish tajriba uchun zarur bo‘lgan qurilmalarni yig‘ish bu pedagogdan yuqori mas’uliyat talab e’tadi. Shunki namoyish tajribaning maqsadi va kuzatilishi kerak bo‘lgan fizik hodisadan kelib chiqib har bir qurilma uchun texnik talab qo‘yiladi. Mazkur talablarning bajarilmasligi esa namoyish tajribadan ko‘zlangan maqsadga erisha olmaslikka olib keladi. Difraksion spektr mavzusidagi namoyish tajribani o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan oq yorug‘lik manbayi, difraksion panjara, mashtabli ekran va optik tutqichlarga ham texnik talab mavjud.

- Oq yorug‘lik manbayidan tarqaladigan nur keng spektrli xromatik bo‘lishi.
- Namoyish tajriba uchun tanlangan difraksion panjara davri 300-600 lines/mm oralig‘ida bo‘lishi.
- Optik tutqichning ichki kengligi difraksion panjara o‘lchamiga mos bo‘lishi.
- Mashtabli ekranning ishchi qismi oq rangdan iborat bo‘lishi.

Ushbu qurilmalar uchun qo‘yiladigan texnik talablardan tashqari Namoyish tajriba sifatini oshirish maqsadida tajriba obyektiga qo‘yiladigan talablar bor. Difraksion spektrning manzarasi aniqroq ko‘rinishi, o‘quvchi har bir rang spektrini ajrata bilishi uchun tajriba honasi imkon qadar qorong‘u bo‘lishi lozim. Barcha talablar bajarilgach tajribani o‘tkazish sxemasini va rejasini ishlab chiqiladi. Namuna uchun tanlangan namoyish tajriba uchun quyidagi bajarish tartibi ishlab chiqildi.

- Tajriba uchun kerakli qurilmalarni tanlab olish.
- Oq yorug‘lik manbayini yoqish. (Imkon qadar tajriba honasini qorong‘u qilish zarur).
- Optik tutqichga davri 600 lines/mm bo‘lgan difraksion panjarani joylashtirib, uni oq yorug‘lik nuri yo‘liga qo‘yish.

- Mashtabli ekranni optik tutqichdan keyin difraksion spektr manzarasi markaziy tushadigan qilib joylashtirish.

- Difraksion spektrning markazi oq rangda qolgan barcha maksimumlar esa spektr tasvirida bo‘lishini kuzatish[2].

Ushbu tartib asosida namoyish tajribasi o‘tkazilgach, tajriba natijalarini analiz qilish va xulosa



1-rasm. Davri 600 lines/mm bo‘lgan difraksion panjaraning spektr manzarasi.

chiqarish bosqichi amalga oshiriladi.

Dastlab o‘qituvchi, o‘quvchilar bilan birgalikda olingan natijani yani mashtabli ekranda xosil bo‘lgan difraksion spektr manzarasini kuzatishadi. Bu esa o‘quvchilar tomonidan nega spektrning tartibi bunday?, nega difraksion panjara oq yorug‘likni turli spektrlarga ajratadi?, degan savol tug‘uladi va muamoli vaziyat kelib chiqadi. Bunday vaziyatdan foydalangan holda pedagog o‘quvchilarga difraksion spektr mavzusiga oid nazariy bilimlarni oldindan belgilangan tartib asosida bosqichma bosqich tushuntirib boradi.

Yorug‘likning o‘z yo‘lida uchragan to‘siqning chetki qismiga kirishini odamlar ancha avval sezganlar. Bu hodisaning ilmiy izohini birinchi bo‘lib F. Grimaldi bergan. U narsalar ortida paydo bo‘ladigan soyaning xiraroq chiqishini tushuntiradi. U bu hodisani difraksiya deb



ataydi. Shunday qilib, to‘lqinning o‘z yo‘lida uchragan to‘siqni aylanib o‘tishiga to‘lqinlar difraksiyasi deyiladi. Bunda yorug‘likning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tarqalish qonuni bajarilmaydi. Difraksiya hodisasi kuzatilishi uchun to‘siqning o‘lchami unga tushayotgan to‘lqin uzunligidan kichik bo‘lishi kerak. Yorug‘lik difraksiyasini tor tirqishdan yorug‘lik o‘tganida ham kuzatish mumkin. Bunda ham tirqish o‘lchami unga tushgan yorug‘lik to‘lqini uzunligidan kichik bo‘lishi kerak. Yorqin va aniq difraksion manzarani olish va kuzatish uchun difraksion panjaradan foydalaniladi. Difraksion panjara – yorug‘lik difraksiyasi kuzatiladigan ko‘p sonli to‘siq va tirqishlar yig‘indisidan iborat. Difraksion panjara tirqishlarining joylashishiga qarab ikki turga bo‘linadi: tartibli (muntazam) va tartibsiz difraksion panjaralar. Tartibli difraksion panjarada, tirqishlari ma‘lum bir qat‘iy tartibda joylashgan bo‘ladi. Tartibsiz difraksion panjarada, tirqishlari tartibsiz joylashgan bo‘ladi. Yassi tartibli difraksion panjarani tayyorlash uchun olmos yordamida shaffof plastinaga parallel va bir-biriga juda yaqin joylashgan chiziqlar tortiladi. Tortilgan chiziqlar to‘siq, ular orasi tirqish vazifasini o‘taydi. Tirqishning eni a , to‘siq eni b bo‘lsin. U holda $a+b=d$ panjaraning doimiysi yoki davri deyiladi.

Oq yorug‘likning difraksion panjaradan o‘tishini qaraylik. Difraksion panjaraga kelib tushgan oq yorug‘lik uning tirqishlaridan aylanib o‘tish jarayonida dispersiyalanadi. Natijada yorug‘lik spektri hosil bo‘ladi. Ushbu difraksion spektrning bosh maksimumi oq rangda bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda fizika fani o‘qituvchisi tomonidan namoyish tajribalarini o‘tkazishi va uni dars mavzusiga mos ravishda mukammal sxemasini va rejasini ishlab chiqishi dars sifatining oshishi, o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqish va nazaryani amalyotda qo‘llashga bo‘lgan ishtiyoqning ortishiga sabab bo‘ladi. Natijada sezib va ko‘rib qabul qilinganlar tafakkur orqali tahlil qilinadi hamda fikrlash orqali amalga oshadi. Fikrlash asosida hodisaning mazmuni o‘zlashtiriladi va o‘quvchi ma‘lum bilimga ega bo‘ladi. Bilimlarni amalda qo‘llashga o‘rgangandagina, u, inson uchun haqiqiy bilim bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimov X.I., Yo‘Ldoshev U.A Pedagogik Psixologiya o‘quv qo‘llanma Toshkent -2009



2. Turdaliyev Ulug‘bek. Optika o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Namangan-2023
3. M.Djorayev, B.Sattarova. Fizika va astronomiya o‘qitish nazariyasi va metodikasi.

Toshkent 2015



FIZIKA YO‘NALISHI TALABALARINI KREATIVLIK XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Xakimova Xumora Akramjon qizi

Namangan davlat universiteti Fizika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Tel: +94 1743374

Maxmudov Ulug‘bek Ravshanbekovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalri universiteti Farg‘ona

filiali Kompyuter injiniring yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Tel: +99 0015018

Ilmiy maslahatchi: Ismanova Odina To‘lqinbayevna

Namangan davlat universiteti Fizika kafedrasida dotsenti

***Annotatsiya:** Ushbu ishda oliy ta‘limning fizika yo‘nalishi talabalarida kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishda loyihalash faoliyatining ahamiyati ko‘rsatib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** texnologiya, kreativlik, mutaxassis, ta‘lim, talaba, fizika, loyiha, informatsion, pedagogik sharoit, tadqiqot, fikr, masala.*

Bugungi kunda fan texnologiyalarini shiddat bilan rivojlanishi yangi zamonaviy mutaxassisliklarni paydo bo‘lishini taqazo qilmoqda. Bunday sharoitga inson moslashishi va yangi mutaxassislikni tez uzlashtirib yangi yutuqlarga erishishi uchun asosiy omillardan biri sifatida uning kreativlik xususiyati katta ahamiyat kasb etishi tasdiqlanmoqda. Chunki kreativ sifatlariga ega bo‘lgan mutaxassis mantiqiy fikrlash qobiliyatiga, boy tasavvurga, o‘z ijodkorligini to‘la-to‘kis namoyish etishga, tafakkur tezligiga, o‘ziga xos original g‘oyalarni ilgari sura olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bunday qobiliyatga egalik esa mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasini hosil qiladi[1].

Shuning uchun ta‘lim sistemasining, shuningdek oliy ta‘lim sistemasining asosiy zamonaviy kontsepsiyasi sifatida o‘quvchi va talabalarda fundamental bilimlar asosidagi kreativlikni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki kreativlik xususiyatiga ega mutaxassis yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari o‘z sohasi va unga turdosh bo‘lgan sohalarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yoki yuzaga kelgan muammolarni, ularni xal qilish



uchun mavjud bilimlarni kamchiligini va ular ichidagi ziddiyatli xolatlarni juda tez sezish bilan ajralib turadi. SHu bilan birgalikda bunday shaxslarda turli yechimlar ichidan eng optimal variantini ajratib olish, yangi bilimlarni tez o'zlashtirish va boshqa sohaga tez moslashuvchanlik hususiyatlari shakllangan bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan sifatlarga ega mutaxassisni tarbiyalashda an'anaviy ta'lim shaklini o'zi hozirda yetarli bo'lmay qoldi, chunki a'anaviy ta'lim shakli asosan ma'lumotlarni eslab qolishi va faktlarni to'plashga asoslangan edi.

Ko'plab fanlar qatori fizika fanida ham oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ma'ruza mashg'ulotlarida ma'lumotlar, ya'ni bilimlar berib amaliy mashg'ulotlarda ushbu bilimlar asosan mustaxkamlanganligi uchun formal bilim qaror topgan.

Shuning uchun an'anaviy ta'lim talabalarning kreativligi rivojlanishiga katta turtki bermagan. Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan talabaning kreativligini rivojlanishi individual hisoblanadi, ammo kreativlik maxsus tashkil qilingan muhitda tez rivojlanib mustahkam asosga ega bo'ladi. Ya'ni kreativlikni shakllanishi va rivojlanishiga ijtimoiy-pedagogik omillar ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchi va talabalarda fizika darslarida kreativlik va ijodiylikni rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlarda asosan amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan masalalarni turli usullar bilan yoki nostandart masalalar ishlash, turli laboratoriya mashg'ulotlari bajarishga katta e'tibor qaratilgan[2,3] va albatta buning natijasida ijobiy natijalarga erishilgan. Ammo ta'limga bu kabi yondashuv talabaning tom ma'noda kreativ shaxs bo'lib shakllanishiga olib kelmaydi, chunki ushbu xolda shakllangan kreativlik namoyon bo'lishi uchun lokal holat zarur sharoitlar yaratilishini taqozo qiladi. Ya'ni oliy ta'limdagi nazorat ishlari, kirish yoki bitiruv imtixonlari va olimpiadalarda talabalarga taklif qilingan fizik masala va topshiriqlarni hal qilishda kreativlik namoyon bo'lishi ta'minlanmaydi. Ammo kreativ fikrlash kunlik ehtiyojga deyarli aylanmaydi. Kreativlik kundalik ehtiyojga aylanishi uchun esa mutaxassisda atrofimizda sodir bo'ladigan jarayonlarni sezgirlik bilan kuzatishi, uning ichidagi muammo yoki qarama qarshilikni seza olishi, ushbu asosda masala qo'yish va uni xal qilish kabi ko'nikmalar shakllanganligi asosiy xususiyatga ega.



Oliy ta'lim fizika bakalavr yo'nalishida umumiy va nazariy fizika kurslarida olib borilayotgan mashg'ulotlarda ham asosan o'quv qo'llanma va darsliklarda keltirilgan masala, fizik topshiriq yoki laboratoriya ishlaridan foydalaniladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek ta'limning bu shaklda olib borilishi shaxsning kreativligini to'la shakllantirmaydi.

Ma'lumki shaxs shakllanishi uchun ob'ektiv va sub'ektiv psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi ob'ektiv sharoitlarni yaratish, ya'ni fizikadan auditoriyada va undan tashqaridagi mashg'ulotlarda talabalarni mustaqil izlanishini, jarayonlarni ko'z oldiga keltira olishi uchun o'ziga bo'lgan ishonchni orttirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Agarda yuqoridagi xususiyatlarni rivojlantirish fizikadan dars mashg'ulotlarida tizimli ravishda olib borilsa kreativlik kundalik ehtiyojga aylanadi. Bunda asosiy e'tiborni talabalarni mustaqil izlanishiga qaratish lozim, chunki ushbu xolatda talaba muammoni o'zi topadi, masala qo'yadi, yechim topadi va yechim to'g'riligini tahlil qiladi. An'anaviy amaliy mashg'ulotlarda talaba to'la mustaqil xolda faoliyat yuritmasdan, balki tayyor qo'yilgan muammoni hal qiladi. Kreativlik xususiyati talab darajasida rivojlantirish uchun tizimli ravishda ko'p vaqt shug'ullanish zarur, ammo amaliy mashg'ulotlarajratilgan auditoriya soatlari juda chegaralangan. Shuni hisobga oladigan bo'lsak talabalarning mustaqil ta'limi uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish zarur. Tahlil va o'rganishlarga ko'ra talaba yoki o'quvchilarni faoliyat turlaridan biri bo'lgan loyihalash yuqoridagi shartlarga deyarli javob beradi.

Bundan tashqari loyihalash faoliyatini yana bir e'tiborga molik tomoni talabalar guruh bo'lib ishlashni, o'z fikrini to'g'riligini isbotlashni va o'zaro fikrlashda yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlarga yechim topishni o'rganadi.

Bundan tashqari talabalarda loyihalash faoliyatlari orqali ularning kreativligini rivojlantirishga quyida berilgan kreativlikni ta'rifini asos qilib olishimiz mumkin.

“Kreativlik-bu birinchi navbatda insonni turli g'oyalarni loyihalashi uchun umum qabul qilingan usul va yo'llardan bormasdan qo'yilgan muammoni nostandart yechimini topishidir”[1].

Ma'mumki deyarli barcha barcha pedogogik eksperimentlarni o'tkazish uchun qandaydir shart-sharoitlar yaratish zarur. Xuddi shunga ko'ra loyihalash yordamida talabalarda



kreativlikni yanada rivojlantirish uchun yaratiladigan zaruriy yetarli psixologik-pedagogik shart-sharoitlar katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Talabalarga yaratilishi zarur bo‘lgan psixologik – pedagogik shart sharoitlarni aniqlab olishda loyihalash nima, fizikada mashg‘ulotlarda qanday loyihalarga foydalanish samaraliroq hisoblanadi? Degan savolga atroflicha javob axtarish zarur deb hisoblaymiz.

Adabiyotlarda keltirilishicha, loyihalash – bu tavsif shaklida mujassamlangan reja, g‘oya va tasavvur bo‘lib, ularni mohiyatini ochib boruvchi chizma – grafiklar, hisoblashlarni asoslash va amaliy yoki nazariy natijalar olish imkoniyatini yaratishdir. Talabalarni loyiha bajarish faoliyati esa faol ta‘lim olish shakli bo‘lib, ko‘zlangan natijaga erishish maqsadidagi faol ijodiy jarayonlardan biridir.

Bajarilishi kerak bo‘lgan ishlar va olinishi kerak bo‘lgan natijaga qarab loyihalar bir necha turlarga bo‘linadi. Aynan qay bir loyihadan fizika mashg‘ulotlarida foydalanishni tanlash uchun fizika fanini o‘ziga xos xususiyatlarini va oliy ta‘lim muassasalarida qanday maqsad uchun mutaxassis tayyorlanayotganini hisobga olish lozim.

Ma‘lumki fizikani tabiiy-ilmiy fanlar majmuasidagi “aniq fan” deb qarash mumkin, chunki fizikada shakllangan qonun-qoidalar va isbotlar sistemasi o‘quvchida o‘zining shaxsiy qarashini aniq mantiqiy ketma-ketlikda asoslash qobiliyatini rivojlantiradi. Jadval, grafik, chizma va matndagi ma‘lum fizik kattaliklarni tahlil qilish va taqqoslash, ma‘lumotlarni qayta ishlash orqali muammoni ochishga yo‘l topadi va uni to‘g‘riligini isbotlaydi.

Yuqorida sanab o‘tilgan o‘quvchini faoliyat turiga ko‘ra fizika yo‘nalishidagi talabalarga loyihalashni tadqiqotchilik va informatsion turlari bo‘yicha faoliyat olib borishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1. Informatsion loyiha-bu maqsadi fan va fanlararo dolzarb mavzular bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plash va ularni tahlil qilib qandaydir xulosalar chiqarishdan iborat loyihadir.

2. Tadqiqotchilik loyihasi – qandaydir gipotezani to‘g‘riligini isbotlashga yoki noto‘g‘ri ekanini ko‘rsatishga, biror bir fizik jarayonni kam o‘rganilgan jihatini o‘rganib uni tavsiflovchi fizik parametrlarni o‘zaro bog‘lanishini analitik, sonli usulda yoki grafiklar yordamida ko‘rsatib berishga va mohiyatini ochib berishga qaratilgan loyiha bo‘lib, amaliy ahamiyat ham kasb etishi mumkin.



Talabalarda loyihalash va loyihani bajarish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda loyihalar mazmunidan kelib chiqib avval informatsion loyihalar so‘ngra esa tadqiqotchilik loyihalarini ustida ish olib borishlari tavsiya qilinadi. Buning asosiy sabablaridan biri har qanday tadqiqotchilik loyihasida xam avval biror bir mavzu bo‘yicha qandaydir ilmiy muammoni o‘rganilganlik darajasi mavjud ma‘lumotlar, ya‘ni ilmiy maqolalar, monografiyalar va ilmiy maqolalar tahlil qilinadi. Ilmiy loyihani asosiy qismi muammoni topa bilish va u asosida to‘g‘ri masala qo‘yishdan iborat.

Biror bir mavzu doirasida ilmiy muammo topish uchun yuqorida ta‘kidlaganimizdek ushbu mavzuga oid turli ilmiy jurnallarda, adabiyotlarda e‘lon qilingan ilmiy maqolalar yig‘iladi va to‘plangan ma‘lumotlar tahlil qilib chiqiladi, ya‘ni go‘yoki informatsion loyiha bajariladi.

Dastlabki bosqichda loyiha bajarish uchun guruhlar tashkil etilganda albatta har bir guruhga fanni yaxshi biladigan va divergent fikrlaydigan bir-ikki nafar talabalar birlashtirilishi zarur, chunki bunday talabalarda muammoni yoki masalani bir necha usulda yechish ko‘nikmalari shakllangan bo‘ladi.

Talabalarni samarali loyihaviy faoliyat olib borishlari va ushbu jarayon davomida kreativlik hususiyatlarini yanada rivojlantirishlariga omil bo‘ladigan zaruriy va yetarli pedagogik shart - sharoitlar yaratilishi zarur, ushbu shart sharoitlarni yaratishda fizikadan bajariladigan loyihalarni o‘ziga xosligiga e‘tibor qaratish lozim [4]. Ijodiy yoki sotsial-ijtimoiy loyihalardan farqli ravishda fizikadan informatsion yoki tadqiqotchilik loyihalarini bajarishi uchun talaba fizik bilimlarga ega bo‘lishi va ularni qo‘llay olishi, biror bir muammoni va uni yechimini ilmiy tilda mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish, murakkab matematik apparatdan foydalangan xolda hisob-kitob ishlarini olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari olingan yechim to‘g‘riligiga ishonch xosil qilish uchun yoki masalani boshqa bir usul bilan ishlab olingan kattaliklarni taqqoslaydi yoki internetdan olingan ma‘lumotlarni izlab topilgan ma‘lumotlar bilan solishtirib ko‘rib tahlil qilishni o‘rganadi.

Hozirgi paytda ilmiy tadqiqot ishlarida, shuningdek loyiha bajarishda yuqori samaradorlikka erishish uchun IT texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari an‘anaviy usulda masala ishlaganda talabalar asosan fizik jarayonni biror vaqt



momentidagi yoki biror bir fizik kattalikni cheklangan sondagi qiymatini topish talab qilinadi. Ushbu topilgan qiymatga asoslanib ro‘y berishi mumkin bo‘lgan fizik hodisa yoki qandaydir bog‘lanishlarni real grafigi haqida aniqroq hulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Fizik jarayon esa qandaydir vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladi, shuningdek biron bir fizik parametrlarni o‘zgarishi qolgan parametrlarni o‘zgarishiga ham olib keladi, ammo biror bir kattalikni vaqt bo‘yicha real o‘zgarish grafigini olish uzoq va murakkab hisob-kitoblarni bajarishni talab qiladi. Bu kabi hisoblashlarni bajarishda kompyuter dasturlaridan foydalanish ancha qulaylik tug‘diradi.

Ma‘lumki har qanday loyiha bajarilganda yozma shaklida hisobot topshiriladi, buning uchun esa talaba o‘z fikrini aniq mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Ushbu ko‘nikmalarni shakllantirishga referat va kurs ishi shaklida talabalarga topshiriq berish va taqdimot shaklida qabul qilib olishga katta e‘tibor qaratish zarur.

Talabalarni o‘zaro fikr almashinuvchi va ilmiy muloqot olib borishini shakllantirish uchun kurs ishi yoki referat uchun tanlangan biror bir mavzuni 2 yoki 3 guruhga bir vaqtda topshiriq sifatida beriladi va talabalar berilgan topshiriqni bajarishda turli adabiyotlardan foydalanishlari talab qilinadi. Buning natijasida guruh talabalari taqdimot paytida ilmiy munozara olib bora olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. [5,6]

Fizika ham nazariy ham ekspremental fan ekanini hisobga oladigan bo‘lsak, ekspremental yo‘nalishdagi loyihalarni bajarish uchun talabalar fizik eksprement va laboratoriya ishlarini bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak. Oliy ta‘lim muasasalariga fizikadan bajariladigan laboratoriya ishlari uchun tayyor algoritmlar beriladi, ammo biror bir loyihani amalga oshirishga esa talaba eksprement bajarish tartibini, kerakli uskuna va hisob-kitoblar foydalaniladigan analitik ifodalarni o‘zi izlab topshirishi kerak. Shuni hisobga olgan holda oliy ta‘lim muasasalari va talabalar imkoniyatidan kelib chiqib biror bir fizik kattalikni aniqlashga mo‘ljallangan fizik topshiriqlarni talabalar mustaqil bajarishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek har bir loyiha uchun 3-4 nafar talabadan iborat guruxlar tashkil etiladi va loyihani qandaydir muddat ichida bajarishni talab etiladi. Bu esa ishni to‘g‘ri tashkil etgan xolda vaqtdan samarali foydalanishni ta‘qazo qiladi. Talabalarga bunday



ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga loyihalash faoliyatlarini so‘nggi bosqichida e‘tibor qaratishni rejalashtirish kerak, chunki talabalar tomonidan boshqa ilmiy guruhlar tomonidan bajarilgan loyihani tahlil qilish va o‘zlari tomonidan bir necha loyihalarni amalga oshirish jarayonida mehnat va vaqt taqsimoti haqida tushunchalar paydo bo‘ladi. Bizningcha yuqorida sanab o‘tilgan pedagogik sharoitlarni talabalarni loyihalash faoliyatlarini olib borishlari, loyihada qo‘yilgan muammoni mustaqil va nostandart yo‘llar bilan xal qilishga kreativlikni rivojlantirishi uchun zaruriy shartlar sifatida qarash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoni.
2. Белобрыкина О.А., “Специфика креативности в научном творчестве школьников”. Новосибирский государственный педагогический университет.
3. Гаврилова Г.Н. Педагогические условия развития креативности у учащихся общеобразовательной школы в процессе внеклассной работы: на материале физики. Чебоксары. 2010 г.
4. Сешанко В. Жалнина Н., Самостоятельная работа студентов: Актуальные проблемы. Высшее образование В России. 2006. №7, с.103.
5. Блесман А. И., Полещенко К. Н., Семенюк Н. А., Теплоухов А. А., Основы проектной деятельности. Учебная пособияИзд. ОмГТУ. Омск. 2021 г.
6. Дудина И.М. Основы проектной деятельности. Учебно методическое пособие. Ярославль ЯрГУ 2019 г.



BIOLOGIK JARAYONLARNI MATEMATIK MODELLASHTIRISH HAQIDA.

Sotiboldiyev Shukurullo Karimjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Matematika fakultetining 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Yunusova.Gulshod.Nazihovna

Namangan davlat universiteti “Informatika” kafedrasida professor v.b., p.f.n.

e-mail: Shukurullosotiboldiyev94@gmail.com

Tel: +998-99-974-80-31

Annotatsiya: Bu maqola modellashtirishni biologik jarayonlarga tadbiq etish haqida bayon etiladi. Matematik modellashtirishni biologiyaga tadbiq etish mumkinligi haqida, biologik jarayonlar matematik formulalar tahliliga hamda biologik jarayonni differentsial tenglamalar orqali ifoda qilib, uni sonli usullar uslublarida yechish maqsadga muvofiqdir.

Kalit so‘zlar: murakkab tizimlar, reproduktiv tizimlar, biologik ob‘ektlar, Lyapunov usuli, statsionar holat, muvozanat holatining barqarorligi.

О МАТЕМАТИЧЕСКОМ МОДЕЛИРОВАНИИ БИОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ

Сотиболдиев Шукурулло Каримжон ўгли

Магистрант 2-курса математического факультета Наманганского государственного университета

Юнусова.Гулишод.Назиховна

Наманганский государственный университет и.о. кафедры «Информатики»

e-mail: Shukurullosotiboldiyev94@gmail.com

Тел: +998-99-974-80-31

Аннотация: В этой статье описывается применение моделирования к биологическим процессам. Что касается возможности применения математического моделирования в биологии, то целесообразно анализировать биологические процессы математическими формулами и выразить биологический процесс через дифференциальные уравнения и решать его численными методами.



Ключевые слова: сложные системы, репродуктивные системы, биологические объекты, метод Ляпунова, стационарное состояние, устойчивость равновесного состояния.

ON MATHEMATICAL MODELING OF BIOLOGICAL PROCESSES

Sotiboldiev Shukurullo

2nd year master student of the Faculty of Mathematics of Namangan State University.

Yunusova .Gulshod.Nazixovna

Namangan State University Department of Informatics

e-mail: Shukurullosotiboldiyev94@gmail.com

Тел: +998-99-974-80-31

Abstract: *This article describes the application of simulation to biological processes. As for the possibility of using mathematical modeling in biology, it is advisable to analyze biological processes with mathematical formulas and express the biological process through differential equations and solve it numerically.*

Key words: *complex systems, reproductive systems, biological objects, Lyapunov's method, stationary state, equilibrium state stability.*

Kirish

Hozirgi zamonda modellashtirish hamda unda qoʻllaniladigan dasturiy vositalar: MatCad, MatLab dasturlari yordamida turli jarayonlarni differentsial tenglamalarga keltirib, ularni hisoblab, grafiklarini olish, jarayonlar taqsimot funktsiya grafigini chizish mumkin boʻladi. Biologik jarayonlarda uchraydigan masalalarni oddiy usullarda yechib boʻlmaganda sonli usullar yordamga keladi. Taqribiy yechish usullari orqali biologik jarayonni matematik formulalar yordamida differentsial tenglamaga keltirib, uni yechimi olinadi. Bunda MatCad, MatLab kabi dasturlardan foydalanish mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Bu sohada adabiyotlar hamda maqolalar, ilmiy tadqiqotlar natijalari, ularning yangiliklari bilan tanishib, biologik jarayonlarni modellashtirishga mos jihatlarni tahlil qildik. Biologik tizimlarni modellashtirish - biologik modellashtirishning yoʻnalishi, yaʼni biologik



tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlariga ega modellarini yaratish jarayoni. Har qanday biologik tizim modellashtirish ob‘ektiga aylanishi mumkin [1]. [2] va [3] ishda modellashtirish haqida bayon etilgan bo‘lib, unda modellashtirishga ta‘rif keltiriladi. Modellashtirish - o‘rganilayotgan ob‘ekt (asl nusxani) uning shartli tasviri, tavsifi yoki boshqa ob‘ekt (model) bilan almashtirish va modelning xususiyatlarini tekshirish orqali asl nusxaning xususiyatlarini bilish [4]. Bu lotincha modul so‘ziga to‘liq mos keladi, bu so‘zdan “model” atamasi olingan bo‘lib, “namuna” yoki “o‘lchov” degan ma‘noni anglatadi [5]. Biofizikada, ekologiyada, biologiyada juda ham ko‘p masalalarni modellashtirish orqali yechimini topish maqsadga muvofiqdir [6].

Muhokama

Modellashtirish fizika va biologiyaning asosiy tadqiqot vositalaridan biridir. Amaliy jihatdan muhim bo‘lgan ko‘pgina hollarda faqat ma‘lum bo‘lgan eksperimental ma‘lumotlarga asoslangan model ob‘ektda nima sodir bo‘layotganini tushunish va bevosita o‘lchovsiz jarayonlarni baholash imkonini beradi. Dinamik tizimlarning zamonaviy nazariyasi printsiplial jihatdan dinamik xatti-harakatlarning murakkab turlarini tavsiflashga imkon beradi, ammo har bir o‘ziga xos biologik tizimni tavsiflash uchun modelni shakllantirish, uning parametrlarini aniqlash va xatti-harakatlarining mumkin bo‘lgan turlarini o‘rganish uchun ko‘p ish talab etiladi. Tirik tizimlarning xilma-xilligiga qaramasdan, ularning barchasi modellarni qurishda e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

1. **Murakkab tizimlar.** Barcha biologik tizimlar murakkab ko‘p komponentli, fazoviy tarzda tuzilgan, elementlari individuallikka ega. Bunday tizimlarni modellashtirishda ikkita yondashuv mumkin. Birinchisi jamlangan, fenomenologik.

Bu yondashuv tarixan eng qadimiy hisoblanadi va populyatsiyalarning dinamik nazariyasiga xosdir. Yana bir yondashuv - tizimning elementlari va ularning o‘zaro ta‘sirini batafsil ko‘rib chiqish, yuqorida muhokama qilingan simulyatsiya modellashtirish. Simulyatsiya modeli odatda analitik o‘rganishga ruxsat bermaydi, lekin uning parametrlari aniq jismoniy va biologik ma‘noga ega; tizimning bo‘laklari haqida yaxshi eksperimental bilimga ega bo‘lgan holda, u turli xil tashqi ta‘sirlar ostida uning xatti-harakatlarini miqdoriy bashorat qilishi mumkin.



2. **Reproduktiv tizimlar** (avtomatik ko‘paytirishga qodir). Ushbu yondashuvga muvofiq, tizimning aniqlovchi xususiyatlari (masalan, turlarning umumiy soni) va vaqt o‘tishi bilan ushbu miqdorlarning xatti-harakatlarining sifat xususiyatlari (statsionar holatning barqarorligi, tebranishlarning mavjudligi, fazoviy heterojenlikning mavjudligi) ko‘rib chiqiladi.

Murakkab fazoviy-vaqtinchalik rejimlarning rivojlanishida muhim rolni tarkibiy qismlarning o‘zaro ta’siri (biokimyoviy reaksiyalar) va xaotik (diffuziya) va tashqi kuchlar (tortishish kuchi, elektromagnit maydonlar) yo‘nalishi bilan bog‘liq bo‘lgan uzatish jarayonlari o‘ynaydi. tirik organizmlarning adaptiv funktsiyalari (masalan, mikrofilamentlar ta’sirida hujayralardagi sitoplazmaning harakatlanishi). 3. Doimiy ravishda o‘z-o‘zidan materiya va energiya oqimlari o‘tib ketadigan ochiq tizimlar. Biologik tizimlar termodinamik muvozanatdan uzoqda, shuning uchun chiziqli bo‘lmagan tenglamalar bilan tavsiflanadi. Onsagerning kuchlar va oqimlar bilan bog‘liq chiziqli munosabatlari faqat termodinamik muvozanat yaqinida amal qiladi.

4. Biologik ob’ektlar murakkab ko‘p bosqichli tartibga solish tizimiga ega. Biokimyoviy kinetikada bu zanjirlarda ijobiy va salbiy teskari aloqa halqalari mavjudligida ifodalanadi. Mahalliy o‘zaro ta’sirlar tenglamalarida teskari aloqalar chiziqli bo‘lmagan funktsiyalar bilan tavsiflanadi, ularning tabiati murakkab kinetik rejimlarning, shu jumladan tebranish va kvaz-stokastik rejimlarning paydo bo‘lish imkoniyati va xususiyatlarini belgilaydi.

Fazoviy taqsimot va tashish jarayonlari hisobga olinsa, bunday nochiziqliklar statsionar tuzilmalarning (turli shakldagi dog‘lar, davriy dissipativ tuzilmalar) va avtoto‘lqinlarning har xil xatti-harakatlarining (harakatlanuvchi jabhalar, harakatlanuvchi to‘lqinlar, etakchi markazlar, spiral to‘lqinlar va boshqalar) naqshlarini keltirib chiqaradi.) Organ, organizm, populyatsiya, tirik tizim darajasida ham heterojen bo‘lib, matematik modelni yaratishda ushbu asosiy xususiyatni hisobga olish kerak. Fazoviy strukturaning paydo bo‘lishi va uning shakllanish qonuniyatlari nazariy biologiyaning vazifalaridan birini ifodalaydi. Bunday muammoni hal qilishning bir usuli - morfogeneznining matematik nazariyasi. Bizning kursimizda modellashtirish ob’ektlari turli darajadagi tashkiliy biologik jarayonlar bo‘ladi.



Jarayonlar har doim o'z vaqtida sodir bo'lganligi sababli, bizning holatlarimizda modellashtirish usullari dinamik tizimlar nazariyasi usullari bo'ladi. Vositalar - vaqt hosilalari bilan differensial tenglamalar (dinamik modellar), ularning sifat tahlili va/yoki kompyuter simulyatsiyasi. Biologik jarayonlarni modellashtirishning odatiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- tizim elementlari (shu jumladan, tajribada kuzatilmaydigan elementlar) o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini yoritish.
- Eksperimental ma'lumotlardan foydalangan holda model parametrlarini aniqlash va tekshirish.
- Modelning barqarorligini baholash (barqarorlik tushunchasining o'zi rasmiylashtirishni talab qiladi).
- Model xatti-harakatlarini bashorat qilish, shu jumladan. turli xil tashqi ta'sirlar ostida.

Bitta birinchi tartibli differensial tenglamaga mos keladigan birinchi tartibli sistemali biologik tizimlarning matematik modellarini o'rganishni boshlaylik: $\mathbf{dx}/dt = \mathbf{f}(\mathbf{x}, t)$. Agar tizim avtonom bo'lsa, u holda tenglamalarning o'ng tomoni aniq vaqtga bog'liq emas va tenglama quyidagi ko'rinishga ega: $\mathbf{dx}/dt = \mathbf{f}(\mathbf{x})$. Bunday tizimlarning har bir vaqt momentidagi holati bitta qiymat bilan tavsiflanadi - x o'zgaruvchining ma'lum bir t vaqtidagi qiymati. $x(t)$ tenglamaning yechimlari t , x tekislikdagi egri chiziqlar bo'lib, integral egri chiziqlar deyiladi. $t = t_0$ uchun $\mathbf{x} = \mathbf{x}_0$ boshlang'ich shartlari berilsin. Agar tenglama uchun Koshi teoremasining shartlari qanoatlansa, bu boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi yagona yechim mavjud bo'lib, (t_0, x_0) nuqtadan bitta integral egri $\mathbf{x}(t)$ o'tadi. Integral egri chiziqlar kesishishi mumkin emas. Bitta avtonom differensial tenglamaning yechimlari cheksizlikka boradi (bu real tizimlarda bo'lmaydi) yoki asimptotik tarzda statsionar holatga yaqinlashadi [7].

2.1. **Statsionar holat** (dam olish nuqtasi, yagona nuqta, muvozanat holati) Statsionar holatda tizimdagi o'zgaruvchilarning qiymatlari vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi. Differensial tenglamalar tilida buning ma'nosi: $\mathbf{dx}/dt = \mathbf{0}$. Agar tenglamaning chap tomoni nolga teng bo'lsa, uning o'ng tomoni nolga teng bo'ladi: $\mathbf{f}(\mathbf{x}^*) = \mathbf{0}$. Bu algebraikning ildizlari. \mathbf{x}^* tenglama differensial tenglamaning statsionar holatlaridir. Haqiqiy biologik tizimlar ko'plab



tebranishlarni boshdan kechiradi, shuning uchun modelni qurishda modelning statsionar holatlari barqaror yoki yo‘qligini bilish muhimdir.

2.2. Muvozanat holatining barqarorligi . Har bir inson barqarorlik haqida intuitiv fikrga ega. Barqaror muvozanat holatini quyidagicha aniqlash mumkin: agar muvozanat holatidan etarlicha kichik og‘ish uchun tizim hech qachon yagona nuqtadan uzoqqa bormasa, u holda yagona nuqta barqaror muvozanat holati bo‘ladi, bu esa a ga to‘g‘ri keladi. tizimning barqaror ishlash rejimi. Boshqacha qilib aytganda, barqaror (Lyapunov bo‘yicha) muvozanat holati uchun bayonot to‘g‘ri bo‘ladi: agar muvozanat holatidan og‘ish vaqtida kichik bo‘lsa ($|\mathbf{x}(t_0) - \mathbf{x}^*| < \delta$), u holda istalgan vaqtda. sistema yechimining muvozanat holatidan chetlanishiga keyingi $t > \text{vaqti}$ ham kichik bo‘ladi: $|\mathbf{x}(t) - \mathbf{x}^*| < \epsilon$. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak: agar kichik og‘ishlar tizimni ushbu statsionar holat yaqinidan juda uzoqqa olib ketmasa, statsionar holat barqaror deyiladi. Masalan, teshikdagi to‘p (ishqalanishli yoki ishqalanishsiz). Statsionar holat, agar vaqt o‘tishi bilan undan kichik og‘ishlar parchalanib ketsa, asimptotik barqaror deyiladi. Masalan, yopishqoq muhitdagi teshikdagi to‘p. Vaqt o‘tishi bilan kichik og‘ishlar ortib borayotgan bo‘lsa, statsionar holat beqaror deyiladi. Misol: tepalikdagi to‘p. Barqaror statsionar holat attraktorning eng oddiy turi hisoblanadi. Attraksion - bu tizimning vakili nuqtasi vaqt o‘tishi bilan moyil bo‘lgan to‘plam (tortishuvchi to‘plam). Kursimizda biz attraktorlarning quyidagi turlarini ko‘rib chiqamiz:

- barqaror dam olish nuqtasi;
- chegara davri – doimiy davr va amplitudali tebranish rejimi (tizimning 2 o‘lchamidan boshlab).

2.3. Statsionar holatning barqarorligini o‘rganishning analitik usuli (Lyapunov usuli). Statsionar holatga yaqin tizimni chiziqilashtirish Lyapunov usuli oddiy differensial tenglamalar bilan tavsiflangan turli o‘lchamdagi tizimlar, nuqtali tizimlar va qisman differensial tenglamalar bilan tavsiflangan, uzluksiz va diskret taqsimlangan tizimlarning keng sinfiga nisbatan qo‘llaniladi. . Avtonom birinchi tartibli differensial tenglama uchun Lyapunov linearizatsiya usulini ko‘rib chiqing. \mathbf{x}^* tenglamaning statsionar yechimi bo‘lsin: $\mathbf{dx}/dt = \mathbf{f}(\mathbf{x})$. Bunday tizimlarning har bir vaqt momentidagi holati bitta qiymat bilan tavsiflanadi - x o‘zgaruvchining ma‘lum bir t vaqtidagi qiymati. $x(t)$ tenglamaning yechimlari t, x tekislikdagi



egri chiziqlar bo‘lib, integral egri chiziqlar deyiladi. $t = t_0$ uchun $x = x_0$ boshlang‘ich shartlari berilsin. Agar tenglama uchun Koshi teoremasining shartlari qanoatlansa, bu boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi yagona yechim mavjud bo‘lib, (t_0, x_0) nuqtadan bitta integral egri $x(t)$ o‘tadi. Integral egri chiziqlar kesishishi mumkin emas. Bitta avtonom differensial tenglamaning yechimlari cheksizlikka boradi (bu real tizimlarda bo‘lmaydi) yoki asimptotik tarzda statsionar holatga yaqinlashadi.

Boshqacha qilib aytganda, barqaror (Lyapunov bo‘yicha) muvozanat holati uchun bayonot to‘g‘ri bo‘ladi: agar muvozanat holatidan og‘ish vaqtida kichik bo‘lsa ($|x(t_0) - x^*| < \delta$), u holda istalgan vaqtda. sistema yechimining muvozanat holatidan chetlanishiga keyingi $t >$ vaqti ham kichik bo‘ladi: $|x(t) - x^*| < \epsilon$. Bu tenglama Maltus tenglamasiga qaraganda realroqdir (1.3 ga qarang), chunki u turlarning cheksiz ko‘payishiga imkon bermaydigan cheklangan resurslarni hisobga oladi. Verhulst tenglamasi ikkita muhim xususiyatga ega. Kichik xda turlar soni ortadi, katta xda ma‘lum K chegarasiga yaqinlashadi. Kichkina xda turlar soni ortadi, katta xda u ma‘lum K chegarasiga yaqinlashadi. Bu tenglamani analitik tarzda yechish mumkin. Yechim jarayoni quyidagicha. O‘zgaruvchilarni ajratishni amalga oshiramiz:

$$K \cdot dx / [x \cdot (K - x)] = r \cdot dt.$$

Chap tomonni yig‘indi sifatida ifodalaymiz va integrallaymiz:

$$[1/x + 1/(K - x)] \cdot dx = r \cdot dt; \ln(x) - \ln(K - x) = r \cdot t + \ln(C).$$

Logarifmlardan o‘zgaruvchilarga o‘tsak:

$x/(K - x) = C \cdot \exp(r \cdot t)$ hosil bo‘ladi. Bu yerda C ixtiyoriy doimiy bo‘lib, u boshlang‘ich qiymat bilan aniqlanadi; $x(0) = x_0$ da yechimni olamiz - sonning vaqtga bog‘liqligi:

$$x(t) = x_0 \cdot K \cdot \exp(r \cdot t) / (K - x_0 + x_0 \cdot \exp(r \cdot t)).$$

Populyatsiya hajmining turli xil boshlang‘ich qiymatlari uchun ushbu funktsiyaning grafigi rasmda ko‘rsatilgan. Populyatsiya kattaligining turli boshlang‘ich qiymatlari uchun ushbu funktsiyaning grafigi ko‘rsatilgan. Agar boshlang‘ich qiymat $x_0 < K/2$ bo‘lsa, o‘sish egri chizig‘i burilish nuqtasiga ega. Agar $x_0 > K$ bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan raqam kamayadi. Yuqoridagi misolda tenglamaning o‘ng tomonida ikkinchi darajali ko‘phad mavjud. Agar o‘ng



tomon yanada murakkab chiziqli bo‘lmagan funksiya bo‘lsa, statsionar qiymatlar uchun algebraik tenglama bir nechta ildizlarga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu echimlardan qaysi biri bu holda amalga oshirilishi dastlabki shartlarga bog‘liq bo‘ladi. Keyingi ishlarda, qoida tariqasida, biz modellarimiz uchun analitik yechim izlamaymiz.

Populyatsiya kattaligining turli boshlang‘ich qiymatlari uchun ushbu funktsiyaning grafigi 2-rasmda ko‘rsatilgan. Agar boshlang‘ich qiymat $x_0 < K/2$ bo‘lsa, o‘sish egri chizig‘i burilish nuqtasiga ega. Agar $x_0 > K$ bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan raqam kamayadi. Yuqoridagi misolda tenglamaning o‘ng tomonida ikkinchi darajali ko‘phad mavjud. Agar o‘ng tomon yanada murakkab chiziqli bo‘lmagan funksiya bo‘lsa, statsionar qiymatlar uchun algebraik tenglama bir nechta ildizlarga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu echimlardan qaysi biri bu holda amalga oshirilishi dastlabki shartlarga bog‘liq bo‘ladi. Keyingi ishlarda, qoida tariqasida, biz modellarimiz uchun analitik yechim izlamaymiz.

Populyatsiya kattaligining turli omillar'ich qiymatlari uchun ushbu funktsiyaning grafigi 2-rasmda ko‘rsatkichlar. K agar'ich qiymat $x_0 < 2$ bo‘lsa, o‘sish egri chizig‘i burilish nuqtasiga ega. Agar $x_0 > K$ bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan hisob. Yuqoridagi misolda tenglamaning o‘ng tomonida darajali ko‘phad mavjud. Agar o‘ng tomon yanada murakkab chiziqli bo‘lmagan funksiya bo‘lsa, statsionar qiymatlar uchun algebraik tenglama bir nechta ildizlarga ega bo‘lishi mumkin. Ushechimlardan qaysi biri bu holda amalga oshirilgan dastlabki shartlarga bog‘liq bo‘ladi.

XULOSA

Hulosa qilib shuni aytish kerakki, matematik modellashtirish biologik jarayonlarni differentsial tenglamalarga keltirib, ularni hisoblab, an’anaviy usulda yechim olib bo‘lmaydigan jarayonlarga aniqlik kiritadi, yechimlarni olishga yordam qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.B. Дунаев, Моделирование биологических процессов и систем; URL: https://www.bmecenter.ru/sites/default/files/publications/Modelirovanie_biologicheskikh_prot_sessov_i_sistem%20%281%29.pdf, -B. 56.



2. Основы моделирования биологических процессов и систем, URL: <https://moodle.kstu.ru/course/view.php?id=2706>.

3. Моделирование биологических процессов и систем., URL: <https://ntb.donstu.ru/content/modelirovanie-biologicheskix-processov-i-sistem.?> –С/ 250, 2009 г.

4. Модели и моделирование; URL: <https://moodle.kstu.ru/course/view.php?id=2706>.

5. Методы вероятностно-статистического моделирования; URL: <https://moodle.kstu.ru/course/view.php?id=2706>.

6. Ризниченко, Г. Ю. Математическое моделирование биологических процессов. Модели в биофизике и экологии: учебное пособие для вузов/ Г.Ю.Ризниченко.— 2-е изд., перераб. и доп.— Москва: Издательство Юрайт, 2023.— 181с.— (Высшее образование).— ISBN 978-5-534-07037-8. — Текст : электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL:<https://urait.ru/bcode/512499> (дата обращения: 06.07.2023).

7. Matematik statistika va matematik modellashtirish., Toshkent “Logo”, 20 yil? - В.103. 2019 у.



TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR SAMARALI TASHKIL ETISH STRUKTURASI

Boymirzayev O'lmasbek Sarbarali o'g'li

*Namangan davlat universiteti, Amaliy matematika magistratura mutaxassisligi 2-kurs
magistranti*

Аннотация. Ушбу мақолада электрон таълим платформалари ва улардан самарали фойдаланиш, таълим тизимида замонавий ахборот технологияларини татбиқ этиш бўйича маълумотлар берилган.

Аннотация. В данной статье представлена информация об электронных образовательных платформах и их эффективном использовании, внедрении современных информационных технологий в систему образования.

Annotation. This article provides information about electronic educational platforms and their effective use, the introduction of modern information technologies into the education system.

Zamonaviy axborot texnologiyalarning rivojlanish holati, birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan ta'lim sohasining rivojlanishiga bog'liq. Hozirgi kunda ta'limning mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaralib, dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish tadqiqotlari takomillashtirilmoqda. Asosiy maqsad zamonaviy axborot texnologiyalar asosida o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllari, strukturasi, mazmuni va ulardan foydalanish masalalarini yoritishdan iborat.

Zamonaviy axborot texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishning asosida axborotlashtirish, multimediya va tarmoq tizimlari yordamida o'quv jarayonini tashkil etish yotadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda, o'quv rejalar, o'quv dasturlari va o'quv materiallarini yaratishga tavsiyalar ishlab chiqishda, testlashtirish va nazorat qilishda pedagogik xodimlarga ko'makchi vazifasini bajaradi.



O‘quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy qilish, ta’lim tizimida olingan bilimlarni baholash va nazorat qilish tizimini yaratish, shakllantirish, strukturasi va mazmunini ishlab chiqish masalalarida Mayorov A.N. (1994), Minin M.G. (2000), Faronov V.V. (2006) lar tomonidan taklif qilingan metodikadan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.[1,2,3]

Umumiy maqsad o‘quv jarayonida kompyuter tarmoqlaridan foydalanish, talabalarning ta’lim tizimida olgan bilimlarini baholash va nazorat qilishda tizimdan foydalanish eng asosiy masala hisoblanadi.

Bugungi kunda Respublikamizda ta’lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qancha amaliy ishlar bajarildi. Jumladan, respublikamizda “Elektron ta’lim” milliy tarmog‘i barpo etildi. Bu tarmoq orqali respublikamizning barcha joylaridagi ta’lim oluvchi yoshlarga kerakli axborot resurslari yetkazib berilmoqda.

Elektron ta’lim – bu ta’limning shunday shakli, o‘qitish jarayonida o‘qituvchining shaxsan ishtirok etishiga zarurat qolmaydi, talabalar barcha vazifalarni zamonaviy axborot texnologiyalar asosida mustaqil bajarishlariga imkoniyat yaratiladi.

Ta’lim tizimiga zamonaviy zamonaviy axborot texnologiyalar tatbiq etilsa, o‘quv jarayonini olib borish yanada takomillashib, talabalarning chuqur bilim olishlari uchun yanada ko‘proq imkoniyatlar yaratiladi. Shu maqsadda o‘quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etishning dasturiy ta’minotini yaratish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

O‘quv jarayoniga zamonaviy zamonaviy axborot texnologiyalarni samarali joriy etish murakkab jarayon bo‘lib, unda asosan kompyuterning dasturiy va texnik komponentlaridan foydalaniladi. O‘quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish shakli ya’ni arxitekturasiga asosan, ta’lim muassasasining markaziy serverida joylashgan ma’lumotlar bazasida axborotlashtirilgan o‘quv jarayonlarida foydalaniladigan barcha resurslar majmuasi joylashgan bo‘lib, bu resurslardan tarmoq orqali o‘quv jarayonlarida, kafedralarda, fakultet



dekanatlarida, rektoratda va talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun axborot-resurs markazida foydalanish mumkin.

Ma'lumotlar bazasi administrator (ma'lumotlar bazasini tashkil etish va boshqaruvchi shaxs) tomonidan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi yordamida boshqariladi (1-rasm) va doimiy ravishda yangilanib, qo'shimcha resurslar bilan boyitib boriladi. Zamonaviy axborot texnologiyalar yordamida axborotlashtirish tizimining samarali ishlashida, uning tarkibida faoliyat ko'rsatuvchi komponentlar muhim ahamiyatga ega.

№	Familiyasi, ismi, otasining ismi	Qatnashgan	Qatnashmagan(sababli)	Qatnashmagan	Ball
1.	AKBAROVA UG'ILKHON MURODILPA KIZI	*	○	○	14
2.	AHMADKHOVA IRODAXON ORVIYON KIZI	*	○	○	17
3.	BANIJEVA OYDINA MAMURXON KIZI	*	○	○	11
4.	BAHRAMOV RUSTAMXON QAMBARALI UGLI	*	○	○	14
5.	IBRAG'IMOV BAKHTIER ABDURAHIM UGLI	*	○	○	15
6.	KIMSANBOEVA SHIRMONXON RAZLIDIN KIZI	*	○	○	11
7.	MAMAKHOVA DILRABO OJIKHON KIZI	*	○	○	17
8.	MAMURALIYEV ABDURAHMONXON DONIYERXON UGLI	*	○	○	9

1-rasm. Hemis tizimi o'quv platformasi.

Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalar yordamida axborotlashtirish tizimining quyidagi asosiy komponentlari mavjud (2-rasm):

- markaziy serverning maxsus segmentlarida joylashtirilgan ma'lumotlar bazasi;
- ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi;
- lokal tarmoq;
- foydalanuvchilar, o'quv jarayoni ishtirokchilari;
- ma'lumotlar bazasi administratori.

Zamonaviy axborot texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'quv jarayonining ma'lumotlar bazasi tarkibi quyidagilardan iborat:

- o'quv jarayoni resurslari (elektron o'quv qo'llanmalari: elektron ma'ruza, elektron amaliy va tajriba mashg'ulotlari, kurs ishi);

- bilimni tekshirish tizimi (elektron test-nazorat majmualari);

- o‘zlashtirish natijalari hisoboti (guruhlar o‘zlashtirishining elektron jurnali);
- o‘quv jarayonini boshqarish (elektron ta’lim tizimi administratori). [1]



2-rasm. Zamonaviy axborot texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish strukturasi va asosiy komponentlari

Zamonaviy axborot texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etgan asosiy komponentlar bilan batafsil tanishib chiqamiz:

Elektron o‘quv qo‘llanmalari bazasi ta’lim muassasasi markaziy serverida joylashtiriladi. Ular gipermatnli formatdagi (HTML formati) va multimediali elektron ma’ruza, amaliy, tajriba mashg‘ulotlari hamda kurs ishi topshiriqlaridan iborat bo‘ladi. Bunda ma’ruza, amaliy va tajriba mashg‘ulotlariga mos ravishda o‘zaro murojaatlar o‘rnatilgan bo‘lib, bu tizim iyerarxik strukturaga ega. O‘quv jarayonida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati elektron kutubxona bilan bog‘langan bo‘lib, unda nafaqat mavjud adabiyot balki aynan foydalanilgan bo‘lim yoki sahifani ochish imkoniyati mavjud.

Bilimlarni nazorat qilish tizimi elektron ta’lim tizimining bir qismi hisoblanib, o‘tilgan fanlar bo‘yicha olingan bilimni tekshirish uchun xizmat qiladi. Ta’lim oluvchining egallagan bilimni aniqlash maqsadida tizimda turli shakldagi testlar joriy qilingan. Ta’lim oluvchi savollarga qanchalik to‘g‘ri javob berganini aniqlashi uchun so‘rov yakunida qaysi savollarga to‘g‘ri va qaysilariga noto‘g‘ri javob berganligi to‘g‘risida tahliliy ma’lumot chiqadi [2].

Elektron kutubxonada o‘quv jarayoniga va mustaqil bilim olishga yordam bera oladigan elektron ta’limiy resurslar (elektron darslik va turli xildagi elektron variantdagi adabiyotlar) mavjud bo‘lib, so‘rovlar yordamida kerakli adabiyotning elektron variantini, real kutubxonadagi shifrini yoki Internet manzilini topish mumkin. Hozirgi kungacha turli xil elektron kutubxona dasturchilar tomonidan yaratilgan va foydalanib kelinmoqda.



Ta'lim muassasasi serveri PHP texnologiyalaridan foydalanib MySQL (MS Access) bazasida va HTTP serverlarida tuzilgan dasturlarni birlashtirish va tarmoqlashtirish uchun xizmat qiladi.

Ta'lim muassasasi markaziy serverining ma'lumotlar bazasi butun tizimning yadrosi hisoblanadi. Unda foydalanuvchilar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar, talabalarning darsga qatnashishi, reytingi va o'zlashtirishi, barcha o'quv materiallari, elektron kutubxona, va h.k.lar saqlanadi.

O'quv jarayonining ma'lumotlar bazasi MS Access dasturida SQL so'rovlari asosida yaratilgan (Karpova, 2001). Ma'lumotlar bazasini loyihalash va yaratish bosqichlari quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- ma'lumotlar bazasida joylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning axborot-mantiqiy modelini tuzib chiqish;
- relyasion ma'lumotlar bazasining mantiqiy strukturasi va qaysi dasturlarda tuzilishini aniqlab olish;
- ma'lumotlar bazasining jadvallari MS Access dasturida yaratish;
- ma'lumotlar sxemasini yaratish;
- jadvallarga ma'lumotlar kiritish;
- zarur shakl, so'rov, makros, modul va hisobotlarni MS Access dasturida SQL so'rovlari yordamida ishlab chiqish;
- ushbu ma'lumotlar bazasidan foydalanish uchun Delphi dasturlash muhitida foydalanuvchi interfeysini yaratish.

Tavsiya etilayotgan elektron o'quv jarayonidan foydalanishni qulaylashtirish maqsadida foydalanuvchi interfeysi Borland Delphi (Gofman, Xomonenko, 2006) muhitida tuzilgan bo'lib, bu muhit ma'lumotlar bazasiga biriktirilgan (3-rasm).[3]

Elektron o'quv qo'llanmalardan o'quv jarayonlarida foydalanishdan asosiy maqsad – har bir o'rganilayotgan fan bo'yicha talabaning ongida aniq tasavvur hosil qilish, hamda bo'sh vaqtlarida o'quv jarayoni materiallaridan mustaqil foydalanishini ta'minlash orqali fanning ta'lim oluvchi tomonidan chuqur o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. Shu maqsadda ushbu



ishda elektron o‘quv qo‘llanmalarini (o‘quv jarayonining elektron resurslarini) yaratishga asosiy e‘tibor qaratilgan.

Elektron ma‘ruzaning afzalligi shundan iboratki, unda mavzular jadval, grafik, tasvirlardan tashqari murakkab yoki anglash mushkul bo‘lgan jarayonlarning virtual modellari multimediya texnologiyalari yordamida yoritib beriladi. Multimediya texnologiyalari sifatida Macromedia Flash va 3D StudioMax dasturlaridan foydalanilgan. Mavzuni o‘rganishda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati virtual kutubxona bilan bog‘langan bo‘lib, unda nafaqat mavjud adabiyot balki aynan foydalanilgan sahifani ochish mumkin.

Amaliy mashg‘ulotlar sxema, grafik, tasvir va jadvallar yordamida yoritilgan bo‘lib, zarur joylarda ma‘ruza, tajriba mashg‘uloti va elektron kutubxonaga murojaatlar o‘rnatilgan elektron qo‘llanmadan iborat.

Elektron tajriba mashg‘ulotlari o‘tkaziladigan yoki ko‘rib chiqiladigan tajriba ishlarining virtuallashtirilgan kompyuter modelidan iboratdir. Bunda ta‘lim oluvchi har bir mashg‘ulotning virtual modelini kuzatish imkoniga ega bo‘ladi.



3-rasm. Elektron ta‘lim jarayonida foydalanuvchi interfeysi.

Barcha elektron o‘quv qo‘llanmalari, fan dasturlarining elektron shakli, nazorat testlari fan o‘qituvchilari tomonidan dasturchilar yordamida mos keladigan dasturiy vositalar asosida tuzib chiqiladi. Yuqorida taklif qilingan tizimni sinovdan o‘tkazish maqsadida Informatika fani mazmuni misol qilib olingan. Ma‘ruza, amaliy va tajriba mashg‘ulotlari uchun matn, ovoz, grafik, sxema, tasvir va virtual modullardan iborat elektron o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqilgan. Bu fandagi barcha virtual jarayonlarning Macromedia Flash dasturiy muhitida



animasion moduli yaratilgan bo‘lib, bunday fayllar kichik hajm egallashi bilan ma’lumotlarni tarmoqdan yuklab olishda qiyinchilik tug‘dirmaydi. Nazorat testlari Delphi dasturiy muhitida yaratilgan bo‘lib, bunda har bir savol 4 ta javob variantlaridan iborat. Test yakunida talaba test bo‘yicha to‘plagan ballarini ko‘rishi mumkin.

Bundan tashqari o‘quv jarayonining dasturiy muhitida “Elektron jurnal” bo‘limi bo‘lib, bu ham Delphi dasturiy muhitida yaratilgan. Bunda ta’lim oluvchilarning har kunlik to‘plagan ballari, darslarga qatnashishi, oraliq va yakuniy nazorat ballari kiritib boriladi. Dastur barcha hisobot ishlarini avtomatik ravishda hisoblab, semestr yakunida talabalarning shu fandan o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlab beradi va virtual tizim orqali internetdagi tegishli saytlarga uzatish imkoniyatiga ega.

Xulosa

- O‘quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy qilish natijasida o‘quv jarayonining sifat va samaradorligi oshiriladi;
- Elektron ta’lim tizimining test-nazorat dasturlari orqali talabalar bilim va ko‘nikmalarini ob‘yektiv baholashdagi afzalliklari alohida ahamiyatga ega;
- Elektron ta’lim tizimining ma’lumotlar bazasini loyihalash va yaratish bosqichlari mazmuni bayon qilindi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Radjabov B.Sh., Xidirova Ch.M. O‘quv jarayonini virtuallashtirish tizimining komponentalari va dasturiy ta’minoti. //TATU xabarlari. Toshkent, 2009, №3. -83-85 b.
2. Mayorov A.N. Testы школьных достижений: конструируемые, проведенные, использованные. Spb.: Obrazovaniye i kultura,1994. - 190 s.
3. Minin M.G. Diagnostika kachestva znaniy i kompyuternyye tekhnologii obucheniya. Tomsk: Izd-vo TGPU, 2000. -160 s.



KIMYO FANLARI

02.00.00

ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

CHEMICAL SCIENCES

KIMYOVIY BOG‘LANISHLAR, KOVOLEN BOG‘LANISH

Rahmonov Murodjon Ikromovich

Namangan davlat universiteti talabasi

E-mail: nuridiyda05@gmail.com

Anatatsiya: *Ushbu maqolada kimyo faning ajralmas bo‘laglaridan biri bo‘lmish kimyoviy bog‘lanishlar: kovolen bog‘lanish mavzusiga oid maktab va oliy talim muassasalari darsliklaridan foydalanib yozilgan maqolani guvohi bo‘lasiz*

Kalit so‘zlar: *Kimyoviy bog‘lanish, elektroman- fiylik, kovalent bog‘lanish, qutbli va qutbsiz kovalent bog‘lanish, donor-akseptor bog‘lanish, vodorod bog‘lanish, ion bog‘lanish, metall bog‘lanish, valentlik, oksidlanish darajasi.*

Аннотация: *В этой статье вы станете свидетелем написанной с использованием учебников школ и вузов статьи на тему химических связей: ковалентных связей, которые являются одной из неотъемлемых частей химии.*

Ключевые слова: *Химическая связь, электроотрицательность, ковалентная связь, полярная и неполярная ковалентная связь, донорно-акцепторная связь, водородная связь, ионная связь, металлическая связь, валентность, степень окисления*

Annotation: *In this article, you will witness an article written using the textbooks of schools and higher education institutions on the topic of chemical bonds: covalent bonds, which is one of the integral parts of chemistry.*

Keywords: *Chemical bond, electronegativity, covalent bond, polar and non-polar covalent bond, donor-acceptor bond, hydrogen bond, ionic bond, metallic bond, valency, oxidation state*

Hozirda fanga millionlab kimyoviy moddalar ma‘lum. Har qanday kimyoviy modda - atomlar va ularning birikishidan hosil bo‘lgan kristallar, molekulalar va ionlardan tashkil



topgan materiyadir. Bularda atomlar bir-biri bilan ma'lum turdagi bog'lanishlar (kuchlar) vositasi- da birikadi. Bu bog'lanishlar yuzaga kelish mexanizmi, tabiati ularda ishtirok etuvchi zarrachalarning turlariga ko'ra bir necha xil bo'ladi.

Kimyoviy bog'lanishlarga va ularning hosil bo'lishiga atomlarning elektron tuzilishi nuqtai nazaridan qarash lozim. Chunki kimyoviy bog'lanishlarning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi asosiy vosita - elektronlar va elektron bulutlaridir. Umuman har qanday kimyoviy bog'lanish o'zaro birikuvchi atomlar tashqi (va tashqidan oldingi) elektron qavatdagi bir yoki bir necha elektron bulutlarining yadrolar o'rtasida qayta taqsimlanishi (bir-birini o'zaro qoplanishi) natijasida hosil bo'luvchi ko'p yadroli va ko'p elektronli sistemadir. Shu nuqtai nazardan kimyoviy bog'lanish haqidagi ta'limotlarni o'rganish hozirgi zamon kimyosining asosiy masalalaridan biridir. Bu ta'limotni bilmay turib kimyoviy birikmalarining turli-tumanligi sabablarini, ularning hosil bo'lish mexanizmini, tuzilishini va reaksiyaga kirisha olish xususiyatini to'la tushunib bo'lmaydi. Molekulada atomlarni tutib turadigan kuchlarning yig'indisiga kimyoviy bog'lanish deyiladi.

Hozirgi vaqtda molekulalarda element atomlarining qanday bog'langanligi quyidagicha tushuntiriladi: kimyoviy bog'lanish paytida element atomlarining tashqi va tashqidan oldingi energetik pog'onachalaridagi elektronlar ishtirok etadi va qayta taqsimlanadi.

Kimyoviy bog'lanishda ishtirok etuvchi bu elektronlar valent elektronlar deyiladi. Bosh guruhcha elementlari tashqi qavat elektronlari bilan yonaki guruhcha elementlari tashqi va tashqidan oldingi ikkinchi qavat elektronlari bilan kimyoviy bog'lanishda ishtirok etishi mumkin. Ularning maksimal sonini elementning davriy sistemadagi joylashgan o'midan, ya'ni guruh raqamidan bilish mumkin (ayrim elementlar bundan mustasno). Element atomlari tashqi energetik pog'onalarini tugallashga intiladi. Buning uchun ayni atom boshqa atomlardan elektron olishi yoki valent elektronlarini birgalikda juftlashtirishi yoxud boshqa atomga elektron berishi mumkin. Element atomlari orasida qanday bog'lanish vujudga kelishi elementlarning elektromanfiyligiga bog'liq. Elektromanfiylik - molekuladagi atomlarning o'ziga elektron tortib turish qobiliyatidir. Ayni elementning taqribiy elektromanfiyligi (EM) uning elektronga moyilligi E bilan ionlanish energiyasi (1) yig'indisiga (yoki uning yarmiga) teng:



Gazsimon fazada bo‘lgan normal holatdagi atomdan bir elektron- ni batamom chiqarib yuborish uchun zarur bo‘lgan minimal energi- ya miqdori ionlanish energiyasi deyiladi. Element atomi bir elektron biriktirib olganda ajralib chiqadigan energiya miqdori ayni elementning elektronga moyilligi deb ataladi.

Kimyoviy bog‘lanish va uning turlari: 1916 yilda amerika olimi J.Lyuis kimyoviy bog‘lanish bir vaqtning o‘zida ikkala atomga tegishli bo‘ladigan elektron juftlarining ho- sil bo‘lishi hisobiga vujudga keladi, degan fikrni bildirdi. Bu g‘oya

Hozirgi zamon kovalent bog‘lanish nazariyasiga asos bo‘ldi. Shu yilning o‘zida nemis olimi V. Kossel quyidagi fikrlarni bildirdi:

o‘zaro ta’sir etuvchi ikki atomdan biri elektron berib, ikkinchisi elektron biriktirib oladi; bunda birinchi atom musbat zaryadlangan ionga, ikkinchisi esa manfiy zaryadlangan ionga aylanib qoladi;

hosil bo‘lgan qarama-qarshi zaryadli ionlarning o‘zaro elektrostatik tortilishi barqaror birikma hosil bo‘lishiga olib keladi. Bu fikr ion bog‘lanish haqidagi hozirgi zamon tasavvurlarini yaratilishiga olib keldi. Elektron nazariya asosida atomlararo ikki xil bog‘lanish mavjudligi aniqlandi. Birinchi xil bog‘lanishda molekula zaryadlanmagan zarrachalardan iborat bo‘ladi. Bu xil bog‘lanish kovalent bog‘lanish deb yuritiladi. Ikkinchi xil bog‘lanishda molekula qarama-qarshi elektr bilan zaryadlangan ionlardan iborat bo‘lib, bu bog‘lanish ion bog‘lanish deb ataladi.

Kovalent bog‘lanish. Kovalent bog‘lanish, asosan, metalmas atomlari orasida vujudga keladi. Atomlarning o‘zaro bir yoki bir necha elektron juftlik hosil qilishi natijasida vujudga keladigan bog‘lanish kovalent bog‘lanish deyiladi. Kovalent bog‘lanish tabiatiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi: qutubsiz va qutubli kovalent bog‘lanishlar.

Elektromanfiylik qiymati jihatidan o‘zaro teng bo‘lgan element atomlari o‘rtasida vujudga kelgan bog‘lanish qutbsiz kovalent bog‘la- nish deyiladi. Qutbsiz kovalent bog‘lanish asosan bir xil atomlar orasi- da vujudga keladi. Bunda umumlashgan elektron jufti xech qaysi atom tomon siljimagan bo‘ladi, chunki har ikkala atomning o‘ziga elektron- ni tortish qobiliyati, ya’ni elektromanfiyligi bir xil bo‘ladi.



Kovalent bog‘lanishning bu turini bir necha moddalarda kuzatish mumkin. Har birida bittadan elektron bo‘lgan ikki vodorod atomi o‘zaro yaqinlashganda vodorod molekulasini (H₂) hosil qiladi. Bu jarayon quyidagicha ifoda qilinadi:

Har qaysi atomning umumiy juft uchun beradigan elektroni sxemada nuqta bilan tasvirlangan. Vodorod molekulasida bir juft elektron ikki yadro orasida joylashishi natijasida barqaror konfiguratsiya hosil bo‘lishga olib keladi. Bunda atomlar o‘rtasida hosil bo‘lgan umumlashgan elektron juftlik har ikkala atom yadrolaridan bir xil uzoqlikda joylashadi. Shuningdek, qutbsiz kovalent bog‘lanishli moddalarga, vodorod bilan birga O, C, N, singari oddiy moddalarni hamda ayrim murakkab moddalari CH₄, CS₂, misol qilib keltirish mumkin.

Elektromanfiylik qiymatlari jihatidan bir-biridan oz farq qiladigan element atomlari orasida vujudga kelgan bog‘lanish qutbli kovalent bog‘lanish deyiladi. Kovalent bog‘lanishning bu turini ham bir necha moddalarda kuzatish mumkin. Vodorod xlorid molekulasining hosil bo‘lishi, bog‘lanishning bu turiga yaqqol misol bo‘lishi mumkin.

Bunda atomlar o‘rtasida hosil bo‘lgan umumlashgan elektron juftlik elektromanfiyligi kuchliroq element ya‘ni xlor atomi tomon siljigan bo‘ladi, natijada molekulani bir tomonida musbat qutb, ikkinchi tomonida manfiy qutb (dipol) vujudga keladi. Molekula qutbli bo‘ladi.

Kovalent bog‘lanishlar elektrmanfiyligi bir xil yoki bir biridan juda oz miqdorda farq qiladigan atomlar orasida hosil bo‘ladi. Masalan, vodorod atomlarining o‘zaro birikishi natijasida H₂— vodorod molekulasining hosil bo‘lishini ko‘rib chiqamiz

Atomlarning umumiy elektron juftlari vositasida bog‘lanishi kovalent bog‘lanish deyiladi. Elektrmanfiyligi bir xil bo‘lgan atomlar orasida umumiy elektron juftlari hosil bo‘lishi hisobiga vujudga keladigan kimyoviy bog‘lanish qutbsiz kovalent bog‘lanish deyiladi. Elektrmanfiyliklari bir-biridan biroz farq qiladigan atomlar orasida hosil bo‘lgan kimyoviy bog‘lanish qutbli kovalent bog‘lanish deyiladi.

Kimyoviy bog‘lanish nazariyasi hozirchi zamon kimyosining asosiy muammolaridan biridir ushbu maqolamda maktab va oliy talim muassasalari darsliklaridan foydalanib ushbu mavzuni birlashtira oldim deb hisoblayman

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Kimyoning zamonavoy muammolari Shu.Akadifova D.S.Rahmonova S.R.Razzoqova
J.N.Todjiyev
2. M.T.Abdulayev O.K.Ergashev B.A.Hayitov, kimyo
3. Sh.X.Shomurotova F.A. Djumayeva I.R.Asqarov, N.X.To‘xtaboyev, K. G‘opirov,
kimyo 8-sinf.



03.00.00

BIOLOGIYA FANLARI

БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

BIOLOGICAL SCIENCES

**ПРИМЕНЕНИЕ БИОГУМ И ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ ЖИДКИХ
БИООРГАНОМИНЕРАЛЬНЫХ УДОБРЕНИЙ ИЗ БИОГУМОВ**

Сайфиддинов Осимхан Обиддинович

Наманганский инженерно-строительный институт, студент 3 курса Тел: +99(899)

611 20 04, э-маил: DcOs1mxon@gmail.com

Алихонова Зухра Саидходжаева

Ташкентский химико-технологический институт,

кандидат химических наук, доцент

***Аннотация:** Главный руководитель бурного развития сельского хозяйства. Один из факторов, прежде всего, комплексные и эффективные удобрения связана ли персонализация с использованием, тем самым Средняя урожайность сельскохозяйственных растений 40-50% увеличения можно добиться. К производству и применению удобрений затраченные затраты дополнительно произведено сельскохозяйственной продукцией продукты покрываются 2-3 раза.*

***Ключевые слова:** Биоминеральное удобрение, биогумус, нейтрализация, калий, магний, азот, фосфор, растения, фульвокислота, питательная среда, сахар, патока, аэрация.*

**APPLICATION OF BIOHUM AND TECHNOLOGY FOR PRODUCING LIQUID
BIO-ORGANOMINERAL FERTILIZERS FROM BIOGUM**

Sayfiddinov Osimkhan Obiddinovich

Namangan Institute of Civil Engineering, 3rd year student

Tel: +99(899) 611 20 04, email: DcOs1mxon@gmail.com

Alikhonova Zukhra Saidkhodzhaeva

Tashkent Institute of Chemical Technology,



Candidate of Chemical Sciences, Associate Professor

Abstract: *The main leader of the rapid development of agriculture. One of the factors, first of all, complex and effective fertilizers is whether personalization is associated with use, thereby the average yield of agricultural plants of 40-50% increase can be achieved. For the production and use of fertilizers, the costs incurred are additionally produced by agricultural products, the products are covered 2-3 times.*

Key words: *Bio-organomineral fertilizers, biomineral fertilizer, vermicompost, neutralization, potassium, magnesium, nitrogen, phosphorus, plants, fulvic acid, nutrient medium, sugar, molasses, aeration.*

«Гомус» — латинское слово, переведенное как «земля», обозначающее не саму планету, а ее верхний, плодородный слой. Плодородной она становится за счет разложения органических веществ – листьев, травы, остатков животных и продуктов их жизнедеятельности.

Биогомус содержит 0,7-1,2% калия, 0,3-0,5% магния, 2-3% магния, 0,8-2% азота и много фосфора. Биогомус для рассады также содержит фульвовую и гуминовую кислоты. Только они способны перерабатывать энергию фотонов Солнца. Кислоты превращают его в химические вещества. Они блокируют болезнетворные бактерии в почве. Он важен для развития и жизни растений. Фульвовая кислота обеспечивает клетки необходимыми питательными веществами, предотвращает отеки, выводит токсины и вирусы.

Одной из основных проблем, стоящих перед сельским хозяйством нашей страны, является низкая эффективность минеральных удобрений. Для калийных удобрений она составляет 60-70%, для фосфорных 20-25% в первый год и 40% в последние 2-3 года.

Следующая проблема связана с почвенным гумусом, который является основой плодородия всех почв. Гумус играет важную роль в процессах улучшения физических свойств почвы и создания умеренного водно-погодного режима. Он действует как аккумулятор энергии почвы, препятствует вымыванию из нее минеральных удобрений и, как следствие, повсеместному загрязнению окружающей среды, а также переводит



труднорастворимые соединения фосфора в хорошо усваиваемое состояние. Все это обеспечивает подвижность связанных фосфатов в почве, которая составляет от 3 до 6 г P_2O_5 на 1 м² посевной площади. Это большой запас фосфора, который в настоящее время не используется для сельскохозяйственных культур.

Выращивание сельскохозяйственной продукции является одной из отраслей экономики, которая является основным источником производства продуктов питания. В этом месте обеспечение агропромышленного комплекса биологическими, органическими и минеральными составами удобрений, позволяющими повысить плодородие почв, рациональное использование земельных и водных ресурсов, является основным фактором получения качественного и высокого урожая сельскохозяйственных культур. Поэтому одной из приоритетных задач является разработка технологии получения эффективных органо-минеральных удобрений, содержащих гумусовые вещества, для питания растений в сельском хозяйстве.

В связи с тем, что содержание гумуса в плодородных почвах снижается, особое внимание уделяется производству удобрений и стимуляторов роста растений, содержащих гумус, с использованием органических ресурсов и их использованию в сельском хозяйстве. В связи с этим разработка технологий получения гуминовых удобрений и стимуляторов, необходимых для повышения продуктивности почв, является одной из актуальных задач.

В нашей республике достигнут определенный уровень научных результатов по переработке окисленной формы ангреновского угля в органоминеральные удобрения[1]. В связи с этим актуально наладить производство жидких биоорганоминеральных удобрений с использованием в качестве сырья перегноя дождевых червей. С целью восполнения пробела в области биоорганоминеральных удобрений в капельном орошении и гидропонике создана технология производства жидких биоорганоминеральных удобрений на основе биогумуса дождевых червей.

Реологические свойства щелочного экстракта, выделенного из биогумуса и жидкого биоорганоминерального удобрения, представлены в таблице 1.

Таблица 1



Реологические свойства щелочного экстракта, выделенного из биогумуса и жидкого биоорганического удобрения

Температура (t), °C	Щелочной экстракт		Жидкое биоорганическое удобрение	
	Плотность (ρ), г/см ³	Вязкость (η), сПз	Плотность (ρ), г/см ³	Вязкость (η), сПз
25	1,0246	1,06	1,0150	1,05
30	1,0223	0,96	1,0135	0,95
40	1,0175	0,83	1,0102	0,81
50	1,0131	0,73	1,0070	0,72

Таким образом, внедрение данной технологии в условиях промышленного производства обеспечивает удовлетворение потребности агропромышленных предприятий в эффективных жидких биоорганических удобрениях с уникальными потребительскими свойствами. Эти удобрения отличаются высоким качеством, могут длительно храниться, использоваться для капельного орошения и гидропоники, имеют высокий экспортный потенциал. Продукт отличается высокой урожайностью, высокой добавленной стоимостью и агрохимической эффективностью.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Национальный доклад о состоянии окружающей среды и использовании природных ресурсов в Республике Узбекистан (1988- 2007). – Ташкент, 2008. – 298 с.
2. Халитов А.Х., Розин В.И. О необходимости исключения фтора из состава минеральных удобрений/В кн.: Интенсификация сельскохозяйственного производства и проблемы защиты окружающей среды. – М.: Наука, 1980. – 296 с



TARIX FANLARI

07.00.00

ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ

HISTORY SCIENCES

**IBN ARABSHOHNING “TEMUR TARIXI” ASARIDA AMIR TEMURNING
HINDISTONGA QILGAN YURISHIGA DOIR AYRIM MULOXAZALAR**

Durdona MASHRABALIYEVA

NamDU, Tarix yo‘nalishi talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur maqola buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur davri (1336 – 1405-yillar) tarixnavisi Ibn Arabshohning “Temur tarixi” asarida Amir Temurning Hindistonga qilgan yurishi va yurish davomida ishlatgan harbiy hiylalari haqida qisqacha ma’lumot ulashadi.*

***Abstract:** In this article, the historian of Timur period (1336-1405 years) Ibn Arabshah’s work “History of Timur” shares brief information about Amir Temur’s campaign to India and the military tricks he used during the campaign.*

***Аннотация:** В данной статье историк тимуровского периода (1336-1405 гг.) Ибн Арабшах в труде “История Тимура” делится краткими сведениями о походе Амира Темура в Индию и военных хитростях, которые он использовал во время похода.*

***Kalit so‘zlar:** “Ikkinchi Ranessans”, Ibn Arabshoh, “Temur haqidagi xabarlarida taqdir ajoyibotlari”, Amir Temur, Hindiston, sulton Mahmud, Malluxon, Sorangxon, fillar, tikanli simlar, olovli tuyalar, “Temur tuzuklari”.*

Har bir sivilizatsiyaning yuksalish va tanazzul davri bo‘lganidek, o‘rta asrlarning eng shonli davrlaridan biri bo‘lgan temuriylar davri ilm-fan rivoji uchun keng zamin yaratdi va yangi ilm, ma’rifat sivilizatsiyasiga asos soldi. Afsuski bu sulola ko‘p yashamadi, ma’lum sabablarga ko‘ra tarix sahnasini Shayboniylar davlatiga bo‘shatishga majbur bo‘ldi.

1370-yilda Movaunnahr taxtiga o‘tirgan Amir Temurning asosiy maqsadi tinchlik va barqarorlikni ta’minlash va farovon, osoyishtalikni yaratish hisoblangan. O‘z navbatida bu vazifani kutgandan ham a’lo darajada bajargan Sohibqiron “Ikkinchi Ranessans” deb atalgan



ilm-fan inqilobiga zamin yaratgan. Buning orqasida esa adolatli siyosat turgan bo‘lib, adolat bilan shu darajaga erishilgan. Sohibqiron o‘zi aytganidek, “Adlu ehson bilan jahon gulshani obod bo‘ldi”⁴, ya’ni ilm-fanga eng avvalo ehson qilinsa, adolatli yurt boshqaruvi bo‘lsa mamlakat ravnaq topaveradi.

Shu davr mobaynida boshqa aniq fanlar singari tarixnavislik ham rivojlandi. Ma’lumki, yurtimiz tarixnavisligiga arab muarrixlari ham munosib hissa qo‘shganlar. Ularning orasida Ibn Arabshoh (1388-1450) alohida ajralib turadi. Muarrixning Amir Temur va uning davlati, siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan “Ajoyib al-maqdur fi navoib Taymur” (“Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari”) asari mazkur davrda yozilgan asarlarga nisbatan salbiy fikrlarga boy bo‘lsada, muallif ko‘p voqealarga o‘z ko‘zi bilan shohid bo‘lgani va yo shohid bo‘lganlardan eshitganlari asar qiymatini oshiradi.

Ibn Arabshoh 1388-yilda Damashqda tug‘ilgan. Uning ota-onasi haqida ma’lumotlar deyarli yo‘q. 1401-yilda Amir Temur Shomni zab etgach, juda ko‘p olimlarni, rassomlarni, me’morlarni, hunarmandlarni Samarqandga olib ketadi. Shular jumlasidan 12 yoshli Ibn Arabshoh o‘z onasi, birodarlari va ba’zi qarindoshlari bilan Samarqandga olib ketiladi⁵. U Samarqandda 1401 – 1408-yillarda istiqomat qiladi va ba’zi tazyiqlar sabab, boshqa yerlarga chiqib ketishga to‘g‘ri keladi. Ammo yosh alloma Samarqandda bo‘lgan kezlarda ko‘p ilm ahllari bilan suhbatda bo‘lgan. Ibn Arabshoh o‘z asarida qayd etishicha, o‘sha davr yetuk astronomlaridan biri Mavlono Ahmad, shatranj o‘yini ustasi Allouddin va Temurning mashhur amirlaridan biri Ollohdodlar bilan suhbatda bo‘lib turgan. U bir qancha mamlakatlarga sayohat qilib, sultonlar, amirlar, beklar xizmatida bo‘ladi va yangi bilimlarni ham muntazam o‘rganib boradi.

Ibn Arabshoh 1436-yilda Qohiraga mashhur tarixchilar Ibn Hajar al-Asqaloniy, As-Sahaviy va Abul Mahosin ibn Tag‘riberdi kabi tarixchilar huzurga keladi va do‘stona munosabat o‘rnatadi. Ibn Arabshoh sulton Zohir Chaqmoq saroyida bir qancha muddat yashadi va sultonga bag‘ishlab bir asar yozadi, ammo umrining oxirida unga nisbatan sulton

⁴ Амир Темур ўғитлари. – Т.: Наврўз, 1992. – Б. 43.

⁵ Уватов У. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 16.



saroyida igʻvo tarqab uni hisbga olishadi, u hisbda besh kun boʻldi, hisbdan chiqqach 1450-yilning 25-avgust kuni vafot etadi va Qohiraga dafn etiladi⁶.

Ibn Arabshohning asarlari orasida mashhuri “Ajoyib al-maqdur fi navoib Taymur” (Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari) asari hisoblanadi. Asar fransuz, ingliz va lotin tillariga tarjima qilinganda “Temur tarixi” nomi bilan atalib, keyinchalik shu nomda qoladi. Asarda muallif aytishicha asarni 1436 –1437-yillar mobaynida yozadi.

Asar toʻrt boʻlimga ajratilgan boʻlib, birinchi boʻlimda Temurning nasabi, bolalik va oʻsmirlik yillari dastlabki faoliyatiga doir maʼlumotlar beradi. Ikkinchi boʻlimda esa Temur Movarounnahr hokimyatini egallashi va 1370-yildan boshlab deyarli umrining oxirigacha olib borgan harbiy yurishlari haqida bayon qilingan. Amir Temur vafotidan (1405-yil) keyin taxminan 1446-yilgacha boʻlgan voqealar uchinchi boʻlimda bayon qilingan. Va nihoyat toʻrtinchi boʻlimda esa Temurning sifatlari, shakl-shamoyillari va shaxsiy hislatlari haqida maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi. Muallif, Amir Temur shaxsiga nisbatan tanqidiy yondashgan, sababi muallif bolaligida Amir Temurning asirlari qatori Samarqandga haydab keltirilganligi yuqorida qayd etgan edik. Asar Temurning vafotidan 30 yil keyin yozilgan. Shuni ham qayd etish kerakki, baʼzi tarixiy faktlar buzilib, notoʻgʻri koʻrsatilgan. Masalan, Temurning bolaligi, harbiy yurishlar sabablari, ayniqsa urush qurbonlarining soni juda boʻrttirib koʻrsatilgan⁷.

Asar Amir Temur haqida yozilgan asarlardan nisbatan toʻliqroq va boshqa asarlarda kam uchragan Amir Temurning bolaligiga doir maʼlumotlar anchagina, ammo asar kamchilikdan xoli emas.

Asarda Temurning Hindistonga yurish sabablarini quydagicha bayon qilingan: “Hind sultoni Feruzshoh dunyo zahmatidan xudo rahmatiga oʻtgani habari (Temurga) borib yetdi. Uning oʻrniga xalifa boʻladigon oʻgʻli yoʻq edi. Uning vafoti hukmi natijasida boʻsh qolgan ushbu lavozimni egallash uchun Temur say koʻrsatdi. Keyin odamlar (Hindistonda) Mallu ismli kishini vazirlik lavozimiga sayladilar. Moʻlton shahri mutavallisi Sorangxon unga qarshi isyon koʻtardi. Natijada, ular orasidagi ixtilof Temur uchun zoʻr quvvat va madadkor boʻldi”.

⁶ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (Ajoib al-maqdur fi-tarixi Taymur). – T.: Fan, 2018. – B. 17.

⁷ Doniyorov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. -T.: NIF MSH, 2020. -B.169.



Natijada, Temur qulay fursatni qo‘ldan boy bermay yurishga otlanadi va hindlar bilan jang olib boradi, asarda mazkur jangdagi Temur qo‘ygan pistirma va ishlatgan harbiy hiyla haqida quydagicha bayon qilinadi: “Mo‘lton askarlari behisob, jumladan 800 ta fili bor edi. Bu payt Mallu hokimiyatni egallagan edi va Temur uning tomon otlangani habari kelgach, ko‘p mol-dunyoni sarflab, ot va odamlarni jam qildi, urushda qo‘llash uchun fillar ustiga kajava o‘rnatdi. Temur ham o‘z yurishida qushday uchib kela boshlaydi. Ular hind yeriga yetgach, hind qo‘shinlariga ro‘baru chiqdilar. Temur otlarini hurkitish uchun hindlar fillarni oldinga qo‘yadilar va har bir fil ustiga qalqonlardan kajava yasab, shiddatli jangga dosh beraoladigon jangchilardan qo‘ygandi. Fillarga devlarni ham qochishga undaydigon dahshatli qo‘ng‘iroq va zanglar taqdilar, hind qilichi deb ataladigon qilichni fillar xartumiga bog‘ladilar. Fillar hartumidagi bu qilichlar oziq tishlar ustiga ustama edi, o‘q otib, nayza ushlab kelgan har bir kimsani tilka-pora qilar edi. Bu holatdan Temur voqif bo‘lib, bu tuzoqni daf qilish uchun tuzoq ishlatdi. U metindek fikrini temir tikon tayyorlatishga ishlatdi va tikonlarni uchburchak shakl qildi. Shunday shaklda tikonlardan minglarcha yasatdi. Keyin ular saf bo‘lib fillar maydoniga yurdi, ushbu tikonlarni kechasi sochib fillar va ular egalariga kulfatu ofat keltirdi. Temur otlarni saralab piyodalarni tanladi hamda o‘z askarlaridan dushmanga qarshi o‘ngu chapga pistirma qo‘ydi. Temur askarlari chegaraga borib yetguncha asta-sekin yurdi. Ikki tomon bir-biriga ro‘baro bo‘lgach, Temur o‘z otlari bilan fillar yo‘li bo‘ylab chekindi. Shunda Mallu askarlari Temur otlari hurkidi, uning nusrat quyoshi so‘ndi deb, Temur askarlari izidan fillarga tashlangan o‘sha tikonlar tomon haydadi, ortidan hind otliq va piyodalar ergashdi, fillar seli tikonlar tashlab ajratilgan joyga yetgach, tikanlar fillarning tovonlariga sanchildi. Natijada, fillar orqaga tirsalib, qocha boshladi va ortidagi odamlaru otlarni yanchib keta boshlashdi. Hind yerlarida tuyalar bo‘lmay, ularning manzarasidan fillar qo‘rqib, uzoqroq qochdilar sababi Temur 500 ta tuyalarga filiklar tiqilgan qamishlar va yog‘lanib ho‘llangan paxtalarni yukladi. Qo‘shin ro‘baro kelgach tuyalarni haydashni buyurdi, o‘sha paxta va filiklarga o‘t qo‘yib fillar tomon haydadi. Tuyalar olov haroratini his qilgach, bo‘kirib fillar tomon yeldek ucha boshlashdi. Fillar olovni ko‘rib, tuyalar bo‘kirishini eshitgach, orqasiga qarab tiraqaylab qochdilar va o‘z otliqlarini yanchib, piyodalarni paymol qildilar. Jang nihoyasiga yetgacha Mallu qochdi. Hindlar tarqab, har tomonga qochdi. Temur o‘zi mamlakat taxti Dehli shahriga



qarab yo‘l oladi. Shahar ahli qurshovda bo‘lib Temurga monelik ko‘rsatdi. Bir tomondan Temur shaharni ishg‘ol qilishga muvaffaq bo‘ldi, lekin yana uch kun jang-u jadal davom etdi”⁸.

Shunday qilib, buyuk Sohibqiron hind yerlarini egallashni udaladi va uni o‘z saltanatiga qo‘shib oladi. Sohibqiron hindlarni qanday yengani xususida “Temur tuzuklari”da quydagicha bayon qilgan edi: “Sulton Mahmud va Malluxon 50 ming otliq, piyoda askar, 120 ta zanjirband fillar bilan men bilan jang qilishga shaylandi. Men lashkarim bilan xandaq qazdirdim. Lashkarim bilan xandaq ichiga yaxshilab joylashdim lashkarimdan bir favjini dushmanga qarshi jangga tashladim. Dushman qarshisiga borgach, o‘zlarini kuchsiz ko‘rsatib qo‘rqanday bo‘lib chekinishlarini va g‘animlarni dadillatiririb kelishni buyurdim. Dushman lashkari bu holni ko‘rib o‘zlarini g‘olib hisoblab, mening qahrli lashkarim favjlari bilan yuzma-yuz keldilar. Sulton Mahmud jangga kirishdi va yengilib tog‘ tomonga qochdi”⁹. Bundan ko‘rinib turibdiki, mazkur asarda fillarga qilgan hiyla haqida Temur hech qanday so‘z demagan. Ibn Arabshoh yozganlarini tarixchi V.Cherevanskiy ham tasdiqlaydi edi: “Yuzlab buqalar tayyorlandi, ularga yaxshilab qoramoy surtilgan pilikli shox-shabba o‘rab o‘t yoqib yuborilgan buqalarni fillar tomonga qo‘yvorildi, og‘riq va qo‘rquvdan aqldan ozgan buqalar fillarni jangovar kuchini parokanda qilib tashladi”¹⁰. Shuni ko‘rishimiz mumkinki, Temurning harbiy hiylasi ish berib, qudratli dushmanni yer tishlatdi. Mazkur jang 1399-yilda bo‘lib o‘tgan bo‘lib, Hindistondan Temur juda katta boylik bilan yurtiga qaytadi.

Biz ko‘rgan mazkur jangda voqealarida buyuk Sohibqironning aql-zakovati va harbiy mahorati qo‘l keldi. Shuningdek, taktik jihatdan uning qo‘shini o‘sha davr boshqa harbiy tuzilmalardan ancha farqli edi. Qo‘shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilingan, qattiq intizomga rioya qilgani bois Temurning ko‘p g‘alabalarini asosiga aylanadi. Hindiston yurishi ham aynan uning qo‘shinini intizomi, tartibi va qo‘shinga nisbatan adolati boshqa yurishlari kabi bu yurishida ham zafar olib keldi. Ibn Arabshoh jang voqealarni aniq faktlar asosida

⁸ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (Ajoib al-maqdur fi-tarixi Taymur). – T.: Fan, 2018. – B.171-175.

⁹ Temur tuzuklari. – T.: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2020. – B.61-62.

¹⁰ Владимир Череванский. Амир Темур. – Т.: Ёзувчи, 1993. – Б.142-143.



yoritibgina qolmay, sabablar, natijalar va oqibatlarini ham aniq-ravshan ochib berishga harakat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (Ajoib al-maqdur fi-tarixi Taymur). –T.: Fan, 2018.
2. Doniyorov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. – T.: NIF MSH, 2020.
3. Амир Темур ўғитлари. – Т.: Наврўз, 1992.
4. Уватов У. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида. – Т.: Шарқ, 1997.
5. Temur tuzuklari. – Т.: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2020.
6. Владимир Череванский. Амир Темур. – Т.: Ёзувчи, 1993.
7. <https://darakchi.uz/oz/15996>



YU.F. BURYAKOVNING CHOCH VA ELOQ SHAHAR MADANIYATINING SHAKLLANISH BOSQICHLARIDAGI TADQIQOTLARI

Irbolayeva Iroda Sodiqjonovna

Namangan davlat universiteti Arxeologiya mutaxassisligi magistranti

Telefon: +998949088601

quyosh0817@gmail.com

***Anontatsiya:** Maqolada Yu.F. Buryakovning qadimgi Toshkent hududidagi shaharlar joylashuv o‘rni, shakllanishi, hududiy madaniyatlarning ta’siri haqida ma’lumotlari manbalar asosidagi xulosalari haqidagi ilmiy qarashlar izohlandi. Keyingi maqolalarda Buryakovning tadqiqotlari bilan bir qatorda boshqa arxeologlar, manbashunoslar asarlari bilan mujassamlashtirishni maqsad qildik.*

***Annotation:** Yu.F.Buryakov in the old Tashkent area. The scientific views about the location of their formation, the influence of regional cultures, and the conclusions based on the sources were explained. In the following articles, we aim to incorporate Buryakov’s research as well as the works of other archaeologists and source scholars.*

***Аннотация:** Ю.Ф.Буряков в районе старого Ташкента.Изложены научные взгляды на расположение городов, их формирование влияние региональных культур, сделаны выводы на основе источников. В следующих статьях мы постараемся объединить исследования Бурякова, а также работы других археологов и источниковедов.*

***Kalit so‘zlar:** Benakent, Xarashket, Xudoykent, Chirchiq, Qovunchi, Banunket, Danfeganket, Zaltiket, Bar Kush, Kabarna, Ohangaron vodiysida Kendektepa, Nuket.*

***Keywords:** Benakent, Harashket, Khudoykent, Chirchik, Kovunchi, Banunket, Danfeganket, Zaltiket, Bar Kush, Kabarna, Kendektepa, Nuket.*

***Ключевые слова:** Бенакент, Харашкет, Худойкент, Чирчик, Ковунчи, Бснункет, Данфеганкет, Залтикет, Бар Куш, Кабарна, Кенктепа, Нукет.*

Toshkent shahar arxeologiyasini o‘rganishda sovet arxeologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi v aorta asr shaharlarining rivojlanishi dinamikasi juda



murakkab. Sahahar nuqtalari alohida hududlar bir qator mahalliy xususiyatlarga ega. Chochning organilish tarixi bir hududda bo'lmay balki, karvon yo'llarining rivojlanishi, yangi yo'llarning paydo bo'lishi shaharning ham o'rnini vaqtlar otgan sari o'zgarib borishiga sabab bo'ldi. Bu esa arxeologlar organish jarayonida ma'lum qiyinchiliklarni ham yuzaga keltirdi. Choch va Eloqning shahar ko'rinish va bu yerdagi topilmalar ko'pi Farg'ona shahar tarixiy ob'ektlaridagi topilmalarga o'xshash, ba'zilari esa bir hilligini ko'rish mumkin. Sovet davridagi ma'muriy-siyosiy markazlar, karvon yo'llaridagi hunarmandchilik savdo nuqtalari bilan bir qatorda bu yo'llardagi shaharlarni ham qayd etishimiz mumkin. Chochning voha bilan tutashgan joylari esa chorvachilik, rudali metallarni qazib olish va qayta ishlash ustaxonalari bo'lib, keyinchalik bu hududlarda qal'alarni qurilishi iqtisodiy shahar hududlarga aylanishi sodir bo'lgan¹¹.

Arxeologlarni o'rganilishi, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dastlab bir-birlarida uzoq-uzoqlarda yashagan aholini mahalliy an'analar, iqtisodiy o'sishlar birlashtirib shaharlar shakllanishiga sabab bo'ldi. Sharqiy Movorounnahrda katta hududning tarix topografiyasiga oid ma'lum materiallarni ko'rib chiqilganida, Choch va Eloqning topografiyasiga oid manbalar ham topildi. Mahalliy manbalarga e'tibor berilganda esa, yodgorliklarni o'rganish turli yo'llarni ko'rsatadi. Choch va Eloqda shaharlar topografiyasiga e'tibor qaratilganida ularning soni juda ham ko'pligi bilan ajralib turadi. Stratigrafik tadqiqotlar aholi yashaydigan Toshkent vohasidagi shaharlar hayoti qoldorlik davrida vujudga kelganligini ko'rsatadi. Ana shunday shaharlardan janubiy savdo yo'lida joylashgan shaharlarga Benakent, Xarashket, Xudoykent, Chirchiq vodiysi shaharlarining madaniyat nuqtalari Qovunchi, Banunket, Danfeganket, Zaltiket, Bar Kush, tog' etaklaridagi¹² shaharlarga Kabarna, Ohangaron vodiysida Kendektepa, Nuket kabi shaharlar mavjud bo'lgani qazishmalar, tadqiqotlar natijasida topilgan yozma va arxeologik manbalarga ko'ra xulosaga kelingan. Toshkent vohasining eng janubida joylashgan Xaya shahridan shu nom bilan atalgan tangalar topilgani fikrlarimizni mustahkamlaydi.

¹¹ В.А.Жуковский. Развалины старого Мерва, Матералы по археологии Росски, вып. 16, СПб., 1890

¹² В.В.Бартольд. Туркестан в эпоху монгольского нашествия, Соч., Т.І.М., 1963, стр.114-237;



Toshkent shahridagi qadimiy makonlar, asosan, vohaning markazida, Chirciq va Ohangaron daryolar oralig'ida joylashgan bo'lib, bu daryolar o'sha davrdagi Sharqning eng yirik arteriyasi yaqinida Transoxiana-Sirdaryo-Yaxarte.

Toshkent vohasining eng qadimiy shahri bugungi kundagi izlanishlar natijasida, Qang'a yoki Qanxa hududlari bo'lib, uning shahar ko'rinishiga kelishi va mudofa devorlari bilan o'ralishi milloddan avvalgi I asrga borib taqaladi. Uning poydevori bir xil shakldagi g'ishtdan qurilgan. Minoralarni barpo etishda o'ziga xos usul orqali istehkom san'atiga katta turtki bo'lgan, dastlabki oval minoralar qurilgani madaniy qatlarni ochish jarayonida o'rganildi.

Yana bir shahar qoldiqlari miloddan avvalgi II asr oxirida qurilgan Parfiya davlati o'rni ob'ektlarini o'rganilganda, bu yerdagi istehkomlarni qurilish texnikasi Xorazmdagi Ko'zaliqir istehkim, minoralarda ham qo'llanilganligini bildiradi.

Toshkent vohasidagi Burg'ulik madaniyatini o'ziga xosligi esa, bu dastlab ko'chmanchi bo'lgan, keyinchalik o'rtoq aholi bilan aralashuvi yuz bergan xalqlarning ellinistik urf odatlari aks etgan kulolchilik buyumlari, devoriy qizil kulolchilik buyumlari Qovunchtepa yodgorligining quyi qatlamidan G.V.Grigoryev tomonidan topilgan. Lekin birinchi marta bu hududda qazilma ishlarini A.I.Terenojkin 1940 yilda o'rgangan. A.I.Terenojkin tomonidan o'rganilgan qatlamda Shoshtepadagi Qovunchi madaniyati tuzilishi asosida Quloqchintepa, Niyozboshtepa, Changtepa, Burg'uluksooning quyi oqimida Burg'uluk kulollari tomonidan ishlangan buyumlar, Ohangaron sohillaridan aholi yashaydigan qo'rg'onlar qoldiqlari topilib, bular bronza davrining so'nggi asrlariga oid ekanligi aniqlangan. Va bu madaniyatning kelib chiqishi Shimoliy Farg'ona hududiga tarkibiga kiradigan Chust dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq. Shu bilan birga ayrim xususiyatlari uni Janubiy Sibirning Karasuk madaniyatiga yaqinlashtiradi.¹³

Zamonaviy ma'lumotlarga ko'ra, Choch poytaxti bo'lgan Yuni Qanxa hududi o'rnida joylashgan. Toshkent vohasidagi madaniy qatlamlarning eng asosiylari Qovunchitepada, Mingo'rik, Shayhontoxur, Kindektepa qazib o'rganildi.

¹³ Ю.Ф. Буряков Историческая топография древних городов Ташкентского Оазиса (Историко – археологический очерк Чача и Илака)-Танкент-1975, стр.,205.



Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston hududida o‘rganilgan tarixiy ob‘ektlarni tadqiq qilish bilan, manbalar asosida yanada to‘g‘ri ma‘lumotlarni tarix sahifalariga kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lumotlar anchagina. Bu jarayonlarda xolisona fikrlar bildirish esa tarixchi, arxeologlardan izlanishlar bilan birga keng tafakkur etish ham talab etiladi. Toshkent haqidagi Buryakovning arxeologik o‘rganishlarini yoritib berish ham bu o‘rinda salmoqli harakatlardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. В.А.Жуковский. Развалины старого Мерва ,Матералы по археологии Росски, вып. 16, СПб., 1890
2. В.В.Бартольд.Туркестан в эпоху монгольского нашествия, Соч., Т.І,М., 1963,стр.114-237;
3. Ю.Ф. Буряков Историческая топография древних городов Ташкентского Оазиса (Историко – археологический очерк Чача и Илака)-Танкент-1975, стр.,205.



**XXI ASRNING MADANIY RENESSANSI:
ZAMONAVIY KUTUBXONALAR TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI**

Rahmatullayeva O‘g‘iloy Maxmudovna

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi

mutaxassisi, NamDU magistranti

Telefon: +99891 366-46 - 81

Annotatsiya : Ushbu maqolada uchinchi Renessans davrida zamonaviy va innovatsion kutubxonalar fan va texnika, taraqqiyot rivojlanishida, ma’naviy va madaniy muhitda juda ham katta ahamiyat kasb etishi to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

Annotation: This article discusses the role of modern and innovative Libraries during.

Kalit so‘zlar: Renessans, novatorlik, metaforadir, kutubxona, «Bookcafe», QR, “Matbaai Is’hoqiya”, fenomenal, nashriyot .

Keywords: Renaissance, Innivative, Metaphor, QR, “Press Ishakiya”, Publishing House, fenomenal, Bookcafe.

O‘zbekiston shaharlari azaldan ilm-fan markazi sifatida mashhur bo‘lib, bunda kutubxonalar katta ro‘l o‘ynagan. Ayniqsa IX-XII asrlarda Amir Temur va Temuriylar davrida mamlakatda ulkan kutubxonalar tashkil etildi, ilm-fan yuksaldi. Keyingi asrlar, xususan, xonliklar davrida ham mintaqadagi yirik shaharlar, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon shaharlarida hukmdorlar saroylarida yirik kutubxonalar faoliyat yuritgan.

XX asr boshida jadidchilik harakati rahnamolari mintaqa shaharlarida ma’rifatni keng targ‘ib qilish maqsadida dastlabki ommaviy kutubxonalarga asos soldilar. Ularning shaxsiy mablag‘lari va xayriyalar hisobidan tashkil qilingan ushbu kutubxonalarda jamlangan adabiyotlar mazmuni va yo‘nalishi jihatidan saroy kutubxonalaridan ancha farq qilib, zamon ruhini aks ettirib turar, xalq ommasi, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega edi.[1:3s]

XXI asrning madaniy Renessansi aslida qanday tushuncha?

Zamonaviy kutubxonalar taraqqiyotning muhim omili sifatida qanday ahamiyatga ega? Renessans (fransuzcha Renaissance, italyancha Rinascimento, lotincha renasci “tiklanish”) –



bu tavsif qadimdan faqat madaniyat va san`atning gullab – yashnashi bilan bog`liq bo`lgan. Renessans atamasi ilm va fanning rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Tiklanish termini ilk marotaba XVI asr rassomi, yozuvchi – san`atshunos Jorjo Vazarining rassomlar tarjimai holiga bag`ishlangan asarida tilga olingan va XIX asr fransuz olimi Jyul Mishle tufayli madaniyat va san`atning fenomenal yuksalishi ma`nosida ilmiy urfga kirgan.

Ma`lumki O`zbekiston tarixida fan va madaniyat yuksalishining ikkita muhim bosqichi bo`lgan – bular IX – XII asrlardagi Sharqiy Renessans va XIV – XVI asr boshlaridagi temuriylar davri Renessansi. Temuriylar davrida Sharq va G`arb madaniyatining global darajada o`zaro hamkorligiga yangicha turtki bergan Buyuk ipar yo`li tiklangan. Renessans atamasi ijtimoiy hayotning barcha sohalariga nisbatan qo`llanishi mumkinligi bilan asoslidir.

XX asr tarixchi olimlari va sharqshunoslari tomonidan butun Sharq – Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlari madaniyatiga nisbatan keng qo`llanila boshlangan, Zamonaviy ilmiy termonologiyada Renessans tushunchasi – ijtimoiy hayotning umumiy yuksalishi, iqtisodiy, siyosiy va ma`naviy qurilish sohalalaridagi novatorlik izlanishlari natijasida madaniyat va san`atning, ilm fanning yuksalishi va gullab – yashnashini belgilaydigan yorqin metaforadir[2:2s]

Tarixdan ma`lumki, buyuk ajdodlarimiz katta ma`naviy me`rosga ega bo`lganlar. Ularning boy me`roslari hozirgi kunda turli xil davlatlarning kutubxona va muzeylarida saqlanib kelmoqda . Xususan, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul - muhabbat” asarining forsiy tilga o`girish maqsadida XVI – XVII asrlarda Hindistonda ko`chirilgan nusxasi mavjud. Ta`kidlash lozimki, Navoiyning nafaqat bu asari, balki boshqa asarlari ham fors tiliga o`girilganligi Hindistonning Madras, Haydarobod, Aligarx, Kalkutta va boshqa shaharlaridagi kitob xazinalarida saqlanayotgani aniqlangan. [3:2s]

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an`analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma`naviy-intellektual salohiyati, ongu – tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg`usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo`lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e`tibor qaratib kelinmoqda.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 7 iyundagi qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot – kutubxona xizmat ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, buning uchun joylardagi kutubxonalar faoliyatini zamon talablari asosida yaxshilashda dasturul amal bo‘lmoqda.

Namangan viloyati, vodiya balki, respublikamizda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tomondan alohida o‘z o‘rniga egadir. Viloyatimiz tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan buyuk shaxslar, allomalar, adabiyotchi olimlar yetishib chiqqanlar. Albatta bularning yetuk shaxs bo‘lib shakllanishlarida oiladagi to‘g‘ri yaratilgan ma‘naviy muhit, berilgan to‘g‘ri tarbiya, asosiysi, farzandlarni kitob o‘qishga bo‘lgan mehrni shakllantirishdir. Viloyatimizda kitobxonlik madaniyati kecha yoki bugun shakllanib qolgani yo‘q. Buni biz viloyatimizla yashab ijod qilib o‘tgan adabiyotshunos, tilshunos, tarixchi olim Isxoqxon to‘ra Ibrat domla misolida ko‘rishimiz mumkin. Ibrat tomonidan dastlab uy kutubxonasi tashkil etilgan. Tashkil etilgan bu kutubxonada ustoz domla tomonidan bir qancha turli tillarda yozilgan adabiyotlar jam bo‘lgan. Bu esa o‘sha davr uchun albatta katta imkoniyat va yutuq bo‘lgan. [4:130]

Xususan, 1908 yilda Namanganda Is‘hoqxon o‘g‘li Ibrat tomonidan «Matbaai Is‘hoqiya» nomli ilk nashriyat qoshida «Kutubxonai Is‘hoqiya» nomli kutubxona tashkil etildi. O‘sha davrlarda kutubxonalarni tashkil etishda asosiy maqsad eng avvalo yoshlar, maktab o‘qituvchilari, madrasa talabalari, ziyolilarni yangi adabiyotlar, darsliklar, matbuot bilan muntazam tanishtirib borish edi. Chunki bu adabiyotlar va gazetalarni boshqa biror joydan topish amri mahol edi.

Namangan viloyati juda xam katta o‘ziga xos boy tarixiy merosga egadir. Viloyatda faoliyat olib borayotgan Nodirabegim nomidagi Namangan viloyat axborot-kutubxona markazi kitobxonlarga o‘z xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda. 2019-yil ham ma‘naviyat va ma‘rifat dargohi Nodirabegim kutubxonasi rekonstruktsiya qilingan binoda ish boshladi. Xususan, binoni modernizatsiyalash jarayonida kitobxonlar uchun 9 ta o‘quv zali bunyod etildi. Ularda bir vaqtning o‘zida 500 nafarga yaqin kitobxon mutolaa qilishi mumkin. «Bookcafe», QR kodli elektron kitoblar, audio adabiyotlar, yangi asarlar ko‘rgazmasi, media va internet zallari, xorijiy yozuvchilar asarlarini o‘qib-o‘rganishga mo‘ljallangan «Do‘stlik»



o‘quv zali tashrif buyuruvchilar uchun har tomonlama qulaylik yaratgani bilan ahamiyatli. Binoning ikkinchi qavatida «Nodirabegim» zali tashkil etilgan bo‘lib, unda hassos shoironing hayoti va ijodi, u yashab o‘tgan davrdan hikoya qiluvchi eksponatlar o‘rin olgan. Yangilangan binoda aholi barcha qatlamlari, jumladan, imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarning bemalol mutolaa qilishlari ham alohida e‘tiborga olingan. Internet va media zalida ko‘zi ojiz foydalanuvchilarga 76 nomdagi audio kitoblar maxsus kompyuterlar xotirasiga o‘rnatilgan.

Axborot-kutubxona fondi turli yo‘nalishdagi ko‘plab adabiyotlar bilan to‘ldirilib, ayni kunda kitoblar jamg‘armasi 624 ming nusxaga, elektron resurslari esa 5000 nomga etdi. Foydalanuvchilar soni esa 28,5 ming nafardan ortdi. Kutubxona boy tarixiy merosga ega bo‘lib, XVII–XVIII asrga taalluqli kitoblar, 1940 yildan buyon chiqarilgan gazeta va jurnallarni saqlab, mushtariylarga havola etib kelmoqda. Endilikda, foydalanuvchilar kutubxona fondlaridagi o‘zlariga kerakli bo‘lgan resurslarni masofadan turib buyurtma berishi, ochiq axborot resurslardan ma‘lumotlarni yuklab olish, mavjud xorijiy-ilmiy ta‘limiy ma‘lumotlar bazalaridan, shuningdek, kutubxona tarmoqlaridan (@Namanganakm, @NodirabegimMediabot, Namangan.natlib.uz kanallari), qo‘shimcha xizmat turlaridan foydalanishlari mumkin.

AKMda hozirda 9 ta o‘quvzali foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatadi. «Nodirabegim» zalida o‘zbek shoirasining muzeyi tashkil qilingan. Ekskursiyaga tashrif buyuruvchilar qadimiy qo‘lyozmalar, kitoblar hamda muzeyga qo‘yilgan tarixiy eksponatlarni tomosha qilishlari mumkin. Zalda o‘lkashunoslik sektori mavjud bo‘lib viloyatdagi shoir va yozuvchilarning asarlari jamlangan. O‘lkamizdagi shoir va yozuvchilarni kitob taqdimotlari, suhbat va uchrashuvlari o‘tkazib boriladi. “Tafakkur” bosh o‘qish zalida kitoblar, respublikamizdan chiqadigan gazeta va jurnallarning 41 mingga yaqin fondi mavjud bo‘lib, foydalanuvchilar muntazam ravishda foydalanishlari mumkin. Yoshlar o‘qish zalida adabiy, siyosiy, ilmiy-ommabop kitoblar saqlanadi. O‘qish zalidan o‘quvchilar va abituriyentlar barcha fan darsliklaridan foydalanishlari mumkin.

Internet va media markazi. Zal bir vaqtning o‘zida 30 foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatadi. Foydalanuvchilar uchun elektron kitoblar, audio-video resurslar va xorijiy ilmiy-



ta'limiy bazalardan foydalanish havola etiladi. Shuningdek, kutubxonalararo sektori bilan birgalikda masofadan xizmat ko'rsatgan holda kitoblarni elektron ravishda uzatadi.

“O‘zbekiston milliy adabiyotlar” o‘qish zalida siyosiy adabiyotlar, ensiklopediyalar, O‘zbekiston tarixiga oid ma'lumotlar qiziqarli va noyob manbalar foydalanuvchilar ixtiyorida. “Ilm” o‘qish zalida asosan ilmiy izlanish bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchi, o‘qituvchi, magistrant va doktorantlar uchun joriy etilgan bo‘lib, o‘qish zali dissertatsiyalar, ilmiy mavzudagi turli kitob va bazalar bilan xizmat ko‘rsatiladi. “Jahon xorijiy adabiyotlar” o‘qish zalida 427 ming 389 ta xorijiy tillardagi badiiy adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalar o‘rin olgan. Shuningdek, zal qoshida “Baynalminal – do‘stlik klubi” qardosh xalqlar adabiyotlarini targ‘ib qilish va taqdimotlar o‘tkazish klubi ham faoliyat olib boradi.

Nodir va noyob adabiyotlar fondida XVII–XVIII asrga taalluqli nodir kitoblar, 1940 yildan buyon chiqarilgan gazeta va jurnallar saqlanib kelinmoqda. Ularning bibliografik va to‘liq matnli bazasi shakllantirib borilmoqda. Kutubxona foydalanuvchilari, tashrif buyuruvchilarni fondga saqlanib kelinayotgan manbalar bilan tanishtirish, targ‘ib qilish maqsadida mavzuli ko‘rgazmalar tashkil etib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Tamaddun silsilasi” Ilmiy jurnal. “Iste’dod ziyo press” nashriyoti. Namangan - 2020 – S. 3 (287 sahifa)
2. “Moziydan Sado”, “Echo of Hisory”, “Эхо Истории. Ilmiy – amaliy, ma’naviy – ma’rifiy jurnal. Toshkent – 2020- №4 son [48 s]
3. “Moziydan Sado”, “Echo of Hisory”, “Эхо Истории. Ilmiy - amaliy, ma’naviy – ma’rifiy jurnal. Toshkent – 2019- №3 son [48 s]
4. “Ensiklopedik lug‘at” Tashkent -2010- [448s]



SITORAI MOHI XOSSA

Mahmudov Qahramon

Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Buxoro amirligidagi eng muhtasham, mahobatli me'moriy ishnooti Sitorai Mohi Xossa haqidadir. Obidaning qurilish tarixi, ustalarning ismlari, qo'llanilgan me'moriy uslublar va yechimlar ushbu maqolada yoritilgan. Sitorai Mohi Xossa nomining kelib chiqishi haqidagi farazlar ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Amir Nasrullo, Amir Muzaffar, Amir Abdulahad, Amir Olimxon, Ahmad Donish, Abu Abdullo Rudakiy, Usta Shirin Murodov, Usta Abdug'affor, Usta Abdurahmon, Bozori Moh, Mohoki attori.

Me'morchilik, o'zbek xalqining g'urur qilgan eng qadimiy san'at turlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik sharofati bilan o'z taraqqiyotining yangi davriga kirdi. Xalqimiz o'zining boy tarixiy, madaniy va, a'naviy merosiga ega bo'ldi. Ming- ming yillik me'morchilik va shaharsozlik tariximixni, hattoki borib ko'rish taqiqlangan arxitekturaviy yodgorliklarni nafaqat ziyorat qilishga, balki ularni o'rganishga va qayta ta'mir qilishga ham keng imkoniyatlar yaratildi. Vatanimizda qadim zamonlardan boshlab yaratilgan nodir me'moriy obidalarni, shaharsozlikning yaratilish tarixini, qurilish usullari va qoidalarini insonlarga xolisona yetkazish vaqti keldi. Yurtimizda yoshi 2000 ga yetgan va undan o'tgan shaharlar bisyor, masalan, Samamarqand shahrining 2750 yillik, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlarining 2500 yillik, Shahrisabzning 2700 yillik, Toshkent shahrining 2200 yillik, Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubileyleri yurtimizda keng nishonlangan.

Yurtimizdagi eng qadimgi sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lgan Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyi ham juda keng ko'lamda hamda dunyoning eng nufuzli hamkor tashkilotlari hamrohligida o'tkazilgan. Hususan BMT va YUNESKO dan vakillar tashrif buyurishgan. Ushbu nufuzli tadbirda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov ham nuqt so'zlagan: « Buxoro o'lkamizning ming yillar davomida jahon tafakkuri, ma'naviy, madaniy va diniy qadriyatlarini taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan,sharafli nomga sazovor bo'lgan muqaddas joylardan biridir . buxoroning har bir qarich yeri, har bir tarixiy va madaniy



obidasi el-yurtimizning buyuk iqtidori va yaratuvchanlik salohiyatidan, yuksak taraqqiyot, ilmu ma’rifat, ma’naviyat va madaniyat, falsafa va din ravnaqi yo’lidan darak beradi.»

Umuman olganda arxitektura kishilik taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq paydo bo’lgan. Ibtidoiy odam tabiat kuchlaridan o’zini muhofaza qilish uchun hayotiy zarurat tufayli oddiy mag’ora va chaylalar yasagan. Inshootning ko’rkiga ham e’tibor berib go’zallik qonunlari asosida ijod eta boshlaga.¹⁴

XIV-XVI asrlarda Yevropada Uyg’onish davri yuz berdi , bu hodisa albatta me’morchilikda ham o’z aksini topdi. Qadimgi klassik arxitektura prinsiplarining yangi davr talablari asosida rivojlantirishni tashkil etgan. Bu davrda keng ko’lamdagi va murakkab ko’rinishdagi inshootlar yaratilgan.

Xuddi shunday markaziy osiyo arxitekturasi ham o’ziga xos uyg’onish avrini bosib o’tgan. Arxitektura uslubida naqsh va rangga alohida e’tibor berilgan, binolarning yangi turlari va kompozitsiyalari ijod qilingan. Buddha dini tarqalgan yerlarda Buddha haykallari bilan bezatilgan ibodatxonalar bunyod etilgan rus arxitekturasi yetuk inshootlar, ularning komplekslari va ansamblari qurilgan.

Kapitalistik jamiyatning paydo bo’lishi va rivojlanishi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yangi tipdagi inshootlarni bunyod etishga olib kelgan. Fabrika, zavod, elektr stansiya, vokzal, aerovokzal, garaj, elevator, birja, firma singari bino va inshootlar qurila boshlangan. Temirbeton, metal konstruksiyalari va boshqa qurilish materiallari(oyna, plastmassa va hokazo) arxitektura uslubida tubdan o’zgarish yaratgan.¹⁵

O’rta Osiyo hududida mavjud bo’lgan uch xonliklar davrida ham har bir davlatda o’ziga xos qurilish uslubi mavjud bo’lgan. Buxoro , Xiva va Qo’qon xonliklarida o’z davri uchun muhtasham va salobatli inshootlar qad rostlagan. Xususan Buxoro xonligida Ashtarxoniylar hukmronligidan so’ng hokimiyat tepasiga kelgan mang’it sulolasi amirlari davrida bunday qurilish ishlari va yangi me’moriy obidalar qad rostladi. Ulardan biri Buxoro amirlarining yozgi saroyi Sitorai Mohi Xossadir.

¹⁴ M.M. Vaxitov, Sh.R Mirzayev. «Me’morchilik»-T. «Tafakkur».2010. 6 bet

¹⁵ O’sha manba. 7 bet



Buxoro amirlarining Sitorai Mohi Xossa yozgi qarorgohi XIX – XX asrlar Sharq me'morchilik san'ati va badiiy hunarmandchiligi mahoratini o'zida uyg'unlashtirilgan ajoyib majmuadir. Markaziy Osiyoda biron bir me'moriy majmuada uni yaratgan ustalar naqshu namosi koshona ichidagi go'zal buyumlar jilosi bilan bunchalik darajada tushmagan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Balkim, shuning uchun ham unga atab buxorolik shoirlar yozgan va kelgusi avlodlar uchun qasr devorlariga naqshlab qo'yilgan madhiyalarda saroy, undagi bog' qayta – qayta jannatga qiyos qilinadi.

Mang'itlar sulolasining so'nggi hukmdori Sayyid Olimxon ming orzu umidlar bilan bu jannatni barpo qilishga bosh bo'ladi. Lekin, hech bir Bandai ojiz yer yuzida jannat yaratishga da'vo qilishga haqqi yo'q. Faqat alloh jannatni yaratmoqa qodir va undan kim, qanday savob ishlari uchun joy olishini yakka-yu yagona o'zi hal qiladi. Balki, Sayyid Olimxonning Buxoroi Sharifni tashlab ketishiga majbur bo'lgani, umrining so'nggi chorak asrini begona yurtda darbadarlikda o'tkazganligining ham boisi shudandir.

Endilikda Sitorai Mohi Xossa mustaqil O'zbekistonning chiroyiga chiroy qo'shib kelayotgan ajoyib me'moriy gavhardir. Vatanimizning truli shahar va qishloqlari, xorij mamlakatlardan kelayotgan sayyohlar dilrabo qo'shiq singari go'zal bu koshonani, uning ichidagi ko'rgazmaga qo'yilgan betakror buyumlarni ko'rib, hayratdan barmoq tishlashadi, ota-bobolarimizning cheksiz mahoratiga tahsinlar aytishadi.¹⁶

Buxoro shahrining shimoliy tomonida Sitorai Mohi Xossa madaniy meros obyekti – amirlikning yozgi qarorgohi, saroyi barpo etilgan.

Sitorai Mohi Xossaning qurilishi XIX asrning o'rtalarida boshlangan va 1914 yilda qurib bitkazilgan. U Buxoro shahri markazidan 2,5 km janubda Buxoro tumani bilan chegaradosh hududida joylashgan.

Setorai Mohi Xossaning qurilishi yangi tarix davriga, Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining protektoratligi davriga to'g'ri keladi.¹⁷

Sitorai Mohi Xossa mang'itlar sulolasining saroyidir. Uning dastlabki imoratlari Amir Nasrullo hukmronligi davri (1826-1860 yillar) qurilgan. Biroq bu yerda saroy va xushmanzara

¹⁶ Қорёғди жумаев. Ситорай Моҳи Хосса. :Бухоро. «Фан» – 2010. 3-бет

¹⁷ Vohidov M.M. Buxoro arxitektura yodgorliklari. —Buxoro, 2009.



bog‘ barpo etish Amir Abdulahadxon hukmronligi davrida (1885-1910 yillar) boshlangan. Amir Olimxon hukmronligi davrida (1910 -1920 yillar) yangi saroy tiklangan va shu davrdan boshlab saroy kompleksi yangi va eski saroyga ajratilgan.¹⁸

Eski saroy uch hovlidan va ko‘pgina xonalardan iborat ansamblidir. Bu yerdagi eng eski xona Amir Muzaffarxon mehmonxonasi (1860- 1885 yillar) keng va baland zal, ikki tomondagi bolaxonali ayvonlar, yevropacha eshik va derazalar bilan ajralib turadi. Mehmonxonaning devoriy rasmlari va ranglarida motivlar uyg‘unlashtirilgan.

Uch qismga bo‘lingan kvadrat xonani tashkil etuvchi Abdulahadxon zali boshqacharoq ishlangan. Bir – biriga ro‘para joylashtirilgan va bir xilda bezatilgan ikkita zal o‘rtadagi baland supa orqali birlashtirilgan. Supaning g‘arb tomonida taxt o‘rnatilgan. Abdulahadxon va Muzaffarxon zallarining badiiy bezaklarida o‘xshashlik tomonlari juda ko‘p.¹⁹

Yuqorida ko‘rib o‘tkanimizdek yozgi saroydagi har bir xona va zallar qaysidir tomonlari bilan bir – biriga o‘xshashliklari mavjud bo‘lsa ham o‘zgacha yondashuv borligi sezilib turadi.

Mazkur me‘moriy obidaga nega aynan bunday nom berilgani to‘g‘risida Qoryog‘di Jumayev o‘zining “Sitorai Moohi Xossa” asarida onasidan eshitgan rivoyatni keltiradi, uning bayoni mana bunday bo‘lgan: “Buxoro amiri Muzaffarxonning go‘zallikda tengi yo‘q suyukli xotini bo‘lib, uning ismi Sitorabonu ekan. Sitorabonining chiroyi shunchalik buyuk ekanki, yuzini ochganda, hatto to‘lin oy ham unga nisbatan xunukligidan andisha qilar emish.

Afsuski, Sitorabonuning uri qisqa bo‘lipti, u ming dard bilan taxt vorisi Abdulahadxonni dunyoga keltirib, o‘zi vafot qilibdi. Muzaffarxonning suyukli jufti halolining vafotidan so‘ng ko‘p qayg‘urib, boshqa biron ayolgan qayrilib qaramabdi. Oxiri Sitorabonuning muborak nomini abadiylashtirish maqsadida padari buzrukvori qurilishini boshagan yozgi saroyga uning nomini qo‘yish va go‘zallikda to‘lin oy bilan bahslashadigan ajoyib koshona barpo etishga jazm qilibdi.

Amirning maqsadi suyukli xotini sharafiga “Sitorai Mohi Xossa”, ya‘ni ko‘ngildagi yulduz va uning samodagi aksi bo‘lgan oy deb atalgan mahobatli bir saroy barpo qilib, uni

¹⁸ M.M. Vaxitov, Sh.R Mirzayev. «Me‘morchilik»-T. «Tafakkur».2010. 217 bet

¹⁹ Vohidov M.M. Buxoro arxitektura yodgorliklari. —Buxoro, 2009.



yerdagi jannatga aylantirish edi. O‘shandan buyon u har kuni qarorgoh qurilishidan xabar olib turar, go‘zal bir oshyona qurgan ustalarni shohona sovg‘alar bilan rag‘batlantirar ekan.”²⁰

Sitorai Mohi Xossani bunyod bo‘lishi to‘g‘risida boshqa rivoyatlar ham mavjud. Ulardan biri mana bunday rivoyat qilinadi: “Qadim zamonlarda, kunlardan bir kun Buxoro guzarlari bo‘ylab jarchilar izg‘ib, Amir Muzaffarxonning otasi amir Nasrulloxon oliy xazratlarining farmonini xalqqa e‘lon qilishibdi. Eshitmadim demanglar, eshitmadim demanglar! Amirul mo‘minin Nasrulloxon janobi oliylari bugun juma namozidan keyin Buxoroi Sharihning barcha ustalari, me‘mor va muhandislarini Arki Oliyga mashvaratga taklif qilular. Olampanoh shaharning tashqarisida husni jamolda Eram bog‘lari bilan tenglashadigan go‘zal bir ko‘shk barpo qilish niyatida. Kimki bu qurilishda ishtirok etib, amirul mo‘ninin exsonlaridan bahramand bo‘lmoqni istasa, mashavaratga tashrif buyursin.

Bizkim, Buxoroi Sharif mulkinging sultoni Amir Nasrulloxon, arkoni davlatni boshqaruv tashvishlaridan so‘ng hordiq chiqarmoq maqsadida shahardan tashqarida bir ko‘shk qurdimoqni niyat eturmiz. Bino uchun shunday bir joy tanlamoq lozimki, aning iqlimi yozda salqin, qishda iliq bo‘lib, tanga rohat baxshida etsu, bunda orom olgan kishi turmush tashvishlarini unutsun!” deya hitob qilgani aytiladi.

Eski Sitorai Mohi Xossaning sharq tomonida amir Olimxon hukmronligi davrida qurilgan bosh qarorgoh alohida me‘moriy ahamiyatga ega. Unga koshin va rangli shisha bilan bezatilgan tantanavor peshtooq – muhtasham toqli darvoza orqali kiriladi. Bu kompleksni tiklashdan avval Buxoroning eng yaxshi ustalari Rossiyaga rus me‘morlarining tajribasini o‘rganish uchun yuborilgan. ²¹ Bu ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki ushbu me‘moriy inshootni barpo etilishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Ustalarning Rossiyaga yuborilishi ham bejiz emas, ustalar ushbu majmuada ham Yevropa ham mahalliy uslublarni mujassamlashtirishgan. Fikrimizning isbotini quyida beradigan ma‘lumotlarimiz ham tasdiqlaydi.

²⁰ Қорёғди жумаев. Ситораи Моҳи Хосса. :Бухоро. «Фан» – 2010.

²¹ М.М. Vaxitov, Sh.R Mirzayev. «Me‘morchilik»-Т. «Tafakkur».2010.



Qurilish rus injenerlarining nazoratida bo‘lgan. Bosh bino barpo etish jarayonida Yevropa bilan Isfagan saroylari arxitekturasi va Buxoroning boy turar – joylari binolarining me‘moriy yechimlaridan foydalanilgan.

Bino chiroyli me‘moriy yechimga ega, biroq sintez ishi sohasida uncha tajribaga ega bo‘lmagan ustalar uchun murakkab bo‘lganligi sababli, binodagi tron zali antresol va arkalar bilan tig‘izlashtirib yuborilgan.²²

Qoryog‘di Jumayev o‘zining kitobida inshoot nomining kelib chiqishi haqida yana bir farazni ilgari suradi unda Abu Abdullo Ro‘dakiyning «Jo‘yi Mo‘liyon oyad hamyo» qasida keltiriladi. Bu qasidaga asoslanib Buxorolik taniqli tarixnavis Nusratillo Naimov mana shu qasidaning so‘nggi to‘rt misrasiga asoslanib «Sitorai Mohi Xossa» nomining mazmuni fors tilidan tarjima qilinganida «Shohning ko‘nglidagi yulduz» ma‘nosini bildiradi, degan taxmini bayon qiladi.

Darhaqiqat, Buxoroda qadim zamonlarda podshohlar oyga qiyos qilinib, ularga «Moh» deb ta‘rif berishgan. Shuning uchun ham «Bozori moh» («Shohning bozori»), «Mohoki attori» («Shohning attorlik bozori») iboralari saqlanib qolgan. Shubhasiz, mang‘it hukmdorlari Rudakiyning qasidasini yoddan bilishgan, va saroy nomini uning so‘nggi misralariga qiyos qilib atashgan bo‘lishsa, ajab emas²³. Demak bu fikr – mulohazalardan kelib chiqib me‘moriy obida nomida ham turli yondashuvlar va qarashlar mavjudligini ko‘rish mumkin.

Sitorai Mohi Xossa qurilishi yuqorida bir necha bor ta‘kidlab o‘tganimizdek Amir Nasrullo davrida boshlangan bo‘lib Amir Muzaffar, Amir Abdulahad davrida davom ettirilgan va Amir olimxon davrida davom etgani haqida aytib o‘tdik. Bu qurilish ishlarida ko‘pchiligimizga yaxshi tanish bo‘lgan Ahmad Donishning xizmatlari katta. Ahmad Donish bino chizmalarini chizishda, loyihalashda samarali ishlar olib borgan. Qarorgohning hozirgi shaklidagi asosiy binolari mang‘itlar sulolasining so‘nggi vakili Mir Sayyid Olimxon humkronligi (1911-1920 yillar) davrida barpo etilgan. Shuning uchun qarorgoh tuzilishi eski va yangi saroylarga bo‘linib, eski deganda, Olimxon hukmronligi davridan ilgari bunyod etilgan inshootlar nazarda tutiladi.

²² M.M. Vaxitov, Sh.R Mirzayev. «Me‘morchilik»-T. «Tafakkur».2010.

²³ Қорёғди жумаев. Ситорай Моҳи Хосса. :Бухоро. «Фан» – 2010.



Buxoro amirligining Rossiya vassaliga aylangani saroy qurilishi uslubida ham o‘z ifodasini topgan. Olimxon qurilishlarni loyihalashtirishda rus muhandislari Sakovich va Morgules xizmatidan foydalangani tufayli, ko‘pchilik binolarning tashqi ko‘rinishi ovropacha uslubda bo‘lib, ichki bezaklar esa milliy uslubda bajarilgan.

Rus muhandislari Abdulahadxon saroyini tashqarida qoldirib, uning sharq tomonida mahobatli bir me‘moriy majmuani loyihalashtirgnalar va buxorolik ustalar ishtirokida uni amalga oshirganlar.

Saroyning asosiy binosi qurib bitkazilgach, bog‘ ichida ko‘shk va shiyponlar barpo etishga kirishilgan. Hammadan ham 1915 yilda bunyod etilgan «Xonai Hasht» - sakkiz xonalik ko‘shkni loyihasiga ko‘ra haqiqiy ovropacha ko‘rinishi bilan diqqatni tortadi.²⁴

Sitorai Mohi Xossaning qurilish ishlarida ishtirok etgan ustalar haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik. Inshoot bosh me‘mori Usta Shirin Murodov, duradgorlik ishlariga Usta Abdug‘affor , naqqoshlik ishlariga Usta Xasanjonni jalb etdi. Aslida mashhur ustalar Abdurahim Hayotov, Ostonaqul va Ibrohim Hafizov, Karim Samadov, Hasanjon Umarov va Usta Shirin Murodov va yana o‘nlab ganchkorlar, naqqoshlar, koshinkorlar, yog‘och o‘ymakorlari ijodini yahlit bir me‘moriy qo‘shiq darajasiga yetkazgan sardor Usta Abdug‘affor miroxo‘r bo‘lgan ekan.²⁵

Umumiy qilib olganimizda harbir saraoy, ko‘sh va boshqa binolarga alohida e‘tibor bilan bunyod etilgan. Har bir hukmdor o‘zidan oldin qurilgan inshootlardan go‘zalroq inshoot qurishga harakat qilishgan va ma‘lum ma‘noda bunga erishishgan ham . Sho‘rolar davrida bu inshootlarni qurgan hukmdorlar to‘g‘risida turli uydirmalar to‘qilgan, ularni yomon otliq qilishga harakatlar bo‘lgan. Mustaqillikni qo‘lgan kiritiloshi bilan bularning barchasiga chek qo‘yildi.

Bugungi kunda inshootning ta‘mir talab qismlari qayta rekonstruksiya qilingan. Inshootning kirish joyida xalq amaliy san‘ati namunalari bo‘lgan buyumlar savdo rastasi mavjud. Hovlida esa tovuslar, Oq zalda amirlik huzurida bo‘lgan chet el elchilarining billur vaza, qimmatbaho gilamlar, guldonlar kabi sovg‘alaridan iborat.

²⁴ Қорёғди жумаев. Ситораи Моҳи Хосса. :Бухоро. «Фан» – 2010.

²⁵ Қорёғди жумаев. Ситораи Моҳи Хосса. :Бухоро. «Фан» – 2010.



O‘zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e‘tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha me‘moriy inshootlar qatorida Setorai Mohi Xossa saroyi ham qayta ta‘mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustda Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi. 2008-yil 12-sentabrda Muzeylar to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me‘moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.²⁶

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki ushbu obida yurtimizning chiroyiga chiroy qo‘shib turgan inshootlardan biri, uning chiroyi, mahobati chet ellik sayyohlarni doimo o‘ziga jalb etib kelmoqda. Sitorai Mohi Xossa hali o‘rganilishi kerak bo‘lgan jihatlari bisyor va biz ularni keying izlanishlarda davom ettirishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

²⁶ M.M. Vaxitov, Sh.R. Mirzayev. «Me‘morchilik»-T. «Tafakkur».2010



QORAXONIYLAR DAVLATINING SHAKLLANISH JARAYONI VA TASHKILY SANASIGA OID MASALALAR

Mamajanova Mashhuraxon Maxmudjon qizi

Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qoraxoniylar davlatining shakllanish jarayoni va tashkiliy sanasiga oid masalalar, turli xil manbalarda berilgan ma’lumotlardagi fikr-mulohazalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: qoraxoniylar, “Siyosatnoma”, “Madjmal at-tavorix”, bug‘ro, chigil, yag‘mo, to‘xsi, uyg‘ur, o‘g‘uz.

O‘tmishda diyorimiz tuprog‘ida juda ko‘p davlatlar yuzaga kelgan, taraqqiy etgan va vaqti kelib o‘z o‘rnini boshqa sulolaga bo‘shatib bergan. Yurtimiz tarixiga doir har bir davlatning yuzaga kelish jarayoni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan uzviy bog‘liqdir. Albatta, bunda umumiy jihatlar bilan birga har bir davlatning o‘ziga xos jihatlarini ham e‘tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Qoraxoniylar davlati to‘g‘risida shu davrga taalluqli tarixiy asarlarning deyarli barchasida so‘z ketsa-da, ushbu davlat qachon va qaysi etnik asosda tashkil topganligi hanuzgacha munozarali masala bo‘lib kelmoqda.

Qoraxoniylar davlati to‘g‘risida taniqli olim K.SH. SHoniyozov ham o‘z asarlarida keng to‘xtalib o‘tgan. Shu bilan birga Qoraxoniylar davlati Qarluq davlatining davomi ekanligi, bu ikki nomdagi davlat aslida bir davlat bo‘lganligi va mazkur xoqonlik qarluq qabilasi tomonidan 840 yilda tashkil topganligi to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan²⁷. Umuman olganda, K.SH. SHoniyozov mazkur davlat tarixini yoritishda butunlay yangi fikrlarni o‘rtaga tashladi.

Qoraxoniylar hukmronlik qila boshlagan davr to‘g‘risida mavjud manba va adabiyotlardagi ma’lumotlar o‘zaro qarama-qarshi bo‘lib, biz bunda ularning bir-birini inkor etuvchi ziddiyatli jihatlarni ham anglashimiz mumkin.

²⁷ Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 35-65; Шу муаллиф Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 326-328.



Jumladan, K.SH. SHoniyozovning fikricha, Qoraxoniylar davlatini 840 yildan to 1212 yilgacha, ya'ni to'rt asr mobaynida qarluq xoqonlari idora qilgan²⁸.

Atoqli sharqshunos olim V.V. Bartold Qoraxoniylar davlati 940 yilda yuzaga kelgan deb qayd etsa²⁹, ayrim tarixiy asarlar bu masalada X asrning 90 yillari, ya'ni undan ham kechroq davrni ko'rsatmoqda³⁰.

Qoraxoniylar davlatining tashkil topgan sanasiga oid bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tadqiqotchilar o'rtasida bu masalada hatto, bir-birlariga yaqinroq fikrni ham uchratmaymiz. Aksincha, ularning ko'pchiligi, shu jumladan, O. Pritsak, K.SH. SHoniyozov davlatga asos solingan yil deb 840 yilni belgilashsa, boshqa tadqiqotchilar guruhi V.V. Bartold, O.K. Korayev va boshqalar esa bu davlatni 940 yilda tashkil topgan, deb hisoblashadi. Ular o'rtasidagi farq ko'rinib turganidek yuz yil, ya'ni bir asrlik vaqtni tashkil qilmoqda. Albatta, tadqiqotchilarning bu darajada katta farqli xulosaga kelishlariga mavjud manbalardagi bu masalada berilgan to'liqsiz va kamchil ma'lumotlar sabab bo'lgan. Ularning har biri o'z mulohazalarini ma'lum bir asoslar bilan isbotlashga, dalillashga harakat qilishgan. Shuning uchun ularning fikrlarini to'g'ridan-to'g'ri inkor etish yoki qo'llab-quvvatlash ancha murakkab masaladir.

K.SH. SHoniyozov ta'kidlaganidek, V.V. Bartoldning bunday fikrga kelishiga, Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridagi 940 yil "Bolasog'un shahrini musulmon bo'lmagan majusiylar ishg'ol qildi", degan axborotni hamda 1126 yil noma'lum muallif tomonidan ko'chirma tarzida yozilgan "Madjmal at-tavorix" deb nomlangan asardagi "bug'ro" yag'mo podsholarining unvoni bo'lgan, deb keltirilgan ma'lumotlari sabab bo'lgan³¹.

Nizomulmulk ma'lumotlaridagi majusiylar, ya'ni musulmon bo'lmagan qabila, bu bizning fikrimizcha yag'molar bo'lishi mumkin. Bundagi Bolasog'un shahrini ular tomonidan ishg'ol qilinishini esa sulolaning o'zaro ichki taxt uchun kurashi jarayonida, mazkur

²⁸ Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Б. 165.

²⁹ Бартолд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – М.: Наука 1968. – С. 73. Бартолд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – М.: Наука 1968. – С. 73.

²⁹ Mirzazoda. H. Tarixi adabiyoti tojik. – Dushanbe: Maorif, 1983. – B. 3.

³⁰ Mirzazoda. H. Tarixi adabiyoti tojik. – Dushanbe: Maorif, 1983. – B. 3.

³¹ Бартолд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. Соч. Т. V. – С. 73.



qabilaning ham aralashuvi, deb tushunadigan bo‘lsak, bundan Satuk Bug‘raxon yag‘mo qabilasining jangovar harbiy kuchi yordamida taxtni egallagan, degan ma‘no kelib chiqadi.

Ehtimol, shuning uchun Satuk Bug‘raxon garchi Qarluq davlatining asoschisi Bilgan Qul Qodirxonning nevarasi bo‘lgan bo‘lsa-da³², yag‘molarning jangovar harbiy kuchiga tayangan holda hokimiyatni egallashi va “ bug‘ra “, “ qoraxon “ kabi unvonlar bilan ulug‘lanishi oqibatida ba‘zi tarixiy asarlarda ushbu davlatni yag‘molar tashkil etgan, degan fikrlar paydo bo‘lgandir.

Fikrimizni davom ettiradigan bo‘lsak, Satuk Bug‘raxon hokimiyatni egallashdan oldin, Qoshg‘arda hukmronlik qilgan. Qoshg‘arda va uning atrofida esa yag‘molar joylashgan edi³³. Yag‘mo, chigil, xalach va boshqa ko‘pgina turkiy qabilalar aynan Satuk Bug‘raxon davrida islom dinini qabul qilishgan³⁴. Demak, yag‘molar Satuk Bug‘raxon hokimiyatni qo‘lgan olgunga qadar islom dinida bo‘lmaganlar. Agarda Nizomulmuluk 940 yilda Bolasog‘unni egallagan majusiylar, deb yag‘molarni nazarda tutgan bo‘lsa, yuqoridagi ma‘lumotlar bir-birini to‘ldiradi.

Demak, V.V.Bartoldning yuqorida keltirgan ma‘lumotini, biz Qoraxoniylar davlatining ijtimoiy-siyosiy hayotida shu davrdan boshlab qarluq qabilasidan tashqari boshqa turkiy qabilalar jumladan, yag‘mo qabilasi ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib, aynan bu qabilaning harbiy jihatdan jangovar kuch-qudratga ega ekanligi, ularni xoqon saroyida nufuzli mavqeini egallashlarini ta‘minlagan, deb tushunishimiz mumkin ekan.

Yuritilgan fikr-mulohazalarga asosan aytish mumkinki, Qoraxoniylar davlatining tashkil topgan sanasi hozirgi kungacha tarixiy asarlarning aksariyatida qayd etilib kelinayotgan X asrning o‘rtalaridan emas, balki uning poydevori ancha ilgari barpo etilgan bo‘lib, X asrning o‘rtalarida esa bu davlat chinakam saltanat (imperiya) darajasiga erishib, hududiy jihatdan kengayib, avvalgi davrga nisbatan ancha kuch-qudratga erishgan va tarixda “qoraxon” ya‘ni buyuk xonlar nomi bilan atalgan. Tarixiy asrlarda ham bu davrda ko‘proq Qoraxoniylar davlati haqida so‘z ketib, ular Movarounnahr sarhadida kechgan tarixiy voqealarda markaziy o‘rinni

³² Umar Soner Hunkan. Türk hakanlığı. (Karahanlılar). – Istanbul, 2007. – S. 490-493.

³³ Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Б. 74.

³⁴ Бартольд В.В.Ю Очерки истории Семиречья. – С. 41.



egallashgan. Demak, Qoraxoniylar davlati o‘zining taraqqiyot bosqichlarida rivojlanib borganki, u yirik bir davlat timsolida birdaniga shakllanmagan. Aksincha, uning davlatchilik tizimi hamda tarkibiy tuzilishi turkiy xalqlarning uzoq davrlardan buyon rivojlanib kelgan boy davlatchilik an‘analari va tajribalari bilan uyg‘unlashib borgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tizimining yuzaga kelishi va shakllanishi qarluqlarning qabila ittifoqi asosida tashkil topgan Qarluq davlatiga borib taqaladi. Shu bois Qoraxoniylar davlatining tarixi ikki bosqichga bo‘linadi. Uning birinchi bosqichi VIII asrning 60-yillari – IX asrning birinchi yarmini o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda hokimiyat “ Qarluq davlati” nomi bilan yuritilgan. IX asrning o‘rtalaridan qaluq, chigil, yag‘mo, to‘xsi, uyg‘ur, o‘g‘uz va boshqa turkiy qabilalarning harbiy ittifoqi yuzaga kelishi bilan davlat kengayib, qudrati ortadi. Ushbu davlat qoraxon ya‘ni “buyuk xon”lar tomonidan boshqarilib, u “Qoraxoniylar davlati” nomi bilan shuhrat topadi. Ilk o‘rta asrlarda tashkil topgan bu ulkan tarixiy saltanat XI-XII asrlarda nihoyatda rivoj topadi. Bu davr Qoraxoniylar davlati tarixining ikkinchi bosqichidir. Unga ko‘ra barcha ittifoqdosh qabilalar davlat boshqaruvida o‘z o‘rni va huquqiga ega bo‘lgan. Mazkur qabilalarning yuqori tabaqa zodagonlari el-yurt va viloyatlarning boshqaruvida davlatning yuksak lavozimlariga ko‘tarilganlar. Ularning martabalari esa hokimiyatning boshqaruvi bilan bog‘liq atamalarning etimonida o‘z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999.
2. Бартолд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – М.: Наука 1968.
3. Mirzazoda. H. Tarixi adabiyoti tojik. – Dushanbe: Maorif, 1983.
4. Umar Soner Hunkan. Türk hakanlığı. (Karahanlılar). – Istanbul, 2007.
5. Бартольд В.В. Очерки истории Семиречья.
6. Бичурин Н.Я. Собрание сведений.
7. O‘zbekiston SSR tarixi (Qadimgi davrdan hozirgi kungacha) / I.M. Mo‘minov tahriri ostida. – Toshkent: Fan, 1974.
8. Erdogan Merkil. Musulman turk devletleri tarihi – Ankara, 1993.



9. Emel Esin. Islamiyetten onceki turk kulturu. Tarihi ve islama giris. – Istanbul, 1978.
10. Shoniyozov K.Sh. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni haqida ba’zi fikr-mulohazlar – Toshkent, 1996.



XX ASRNING SO‘NGGIDA O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR MASALASI HAMDA GENDER TENGLIGI: TASHABBUSLAR VA MUAMMOLAR

Fozilova Maftuna

Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda ayollar va erkaklar teng huquq va imkoniyatlarini ta‘minlash jamiyatimizda tinchlik va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning asosiy omillaridan biridir. Gender tengligi xalq farovonligi, jamiyat tinchligi, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash, o‘z intilish va qobiliyatini to‘la ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish masalasi davlatimizning doimiy e‘tiborida.*

Abstract: *Ensuring equal rights and opportunities for women and men in the social, economic and political spheres is one of the main factors of strengthening peace and economic stability in our society. Gender equality plays an important role in ensuring national welfare, social peace, and economic stability. The issue of ensuring the employment of women and girls, expanding the opportunities for the full realization of their aspirations and abilities is in the constant attention of our state.*

Kalit so‘zlar: *postsovet davri, ayollar mehnati, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, gender tenglik*

Key words: *post-Soviet period, women's work, healthcare, education, gender equality*

O‘zbekistonda postsovet davridagi iqtisodiy o‘tish ayollarga qattiq ta‘sir qildi. Ushbu o‘tish davri bilan birga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar sovet davridagi ayollarning ta‘lim olishlari va kasbiy imkoniyatlariga ega bo‘lishlari uchun asos bo‘lgan arzon ta‘lim va individual va oilani qo‘llab-quvvatlash xizmatlarining qisqarishiga olib keldi. Natijada, O‘zbekistonda ayollar erkaklarnikiga qaraganda ko‘proq qashshoqlikka duchor bo‘lishadi, ayniqsa, agar ayollar ajrashgan, beva qolgan, turmushga chiqmagan onalar yoki ko‘p oilali bo‘lsalar. Ayollarning ishsizlik darajasi erkaklarnikidan yuqori (ishsizlarning 63 foizini ayollar tashkil etadi). Ishsiz ayollarning aksariyati qishloq joylardan kelgan kam maoshli qishloq xo‘jaligi ishlariga o‘qitilgan malakasiz ayollardir. Sog‘liqni saqlash va ta‘lim kabi davlat xizmatining ayollardan iborat bo‘lgan sohalorida to‘plangan boshqa ayollar 1991-yilda



mustaqillikka erishgandan so‘ng ularning ish haqi qiymati real ma'noda pasayganligi sababli iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.³⁵

Ayollar ko‘p hollarda qo‘shimcha to‘siqlarga duch kelishmoqda. turmush darajasini oshirish uchun yangi imkoniyatlardan foydalanish. Masalan, ayollar nafaqat kichik biznesni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan biznes ko‘nikmalariga ega emas, balki kredit olish imkoniyatiga ham ega emaslar. Xususiy sektor korxonalarida erkaklarni ishga joylashtirishga katta afzallik beriladi, bu qisman ayol xodimlarning “xarajatlari” tufayli, Mehnat kodeksida homiladorlik va tug‘ish ta’tillari kabi qator huquqlar kafolatlangan. Yuqoridagi o‘zgarishlar natijasida O‘zbekistonda ayollarning iqtisodiy va bandlik holatiga oid ikkita xavotirli tendentsiya kuzatilmoqda. Birinchidan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish ayollarni mehnat bozorida, xususan, xususiy sektorda raqobatbardoshligini kamaytirdi. Ikkinchidan, qashshoqlik feminizatsiya jarayonini boshdan kechirayotganidan xavotir ortib bormoqda.

Umuman olganda, iqtisodiy qiyinchiliklar ayollar uchun sog‘liqni saqlash sohasida alohida muammolarni keltirib chiqaradi. Mustaqillikka erishgandan so‘ng, sog‘liqni saqlash byudjeti hajmi asta-sekin pasayib bordi, odamlar tibbiy xizmatlarning aksariyati uchun hatto nominal ravishda bepul bo‘lgan holatlarda ham to‘laydilar. Sog‘liqni saqlash xarajatlarining ortib borayotgani, odatda sog‘liqni saqlashga yuqori talablarga ega bo‘lgan va odatda o‘z farzandlarining sog‘lig‘i uchun kundalik mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan tug‘ish yoshidagi ayollarga ta’sir qiladi. O‘zbekistonda ayollarning sog‘lig‘idagi asosiy muammolardan biri kamqonlik bo‘lib, ayollarning deyarli 60 foizi ma’lum darajada aziyat chekmoqda. Anemiya tez-tez tug‘ilish, noto‘g‘ri ovqatlanish va yomon suv sifati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan holat. Bu yerda, ayniqsa, kambag‘al ovqatlanish va cheklangan kaloriya iste’moli bilan bog‘liq muammolar ko‘proq bo‘lgan qishloq joylarida kambag‘allik, albatta, omil hisoblanadi.³⁶

O‘tish jarayoni ta’limga ham ta’sir qildi. Ayollarning oliy ta’limdagi ishtiroki bir qator omillar (masalan, ta’lim narxining oshishi va qizlarning shaharlarda o‘qishiga ruxsat

³⁵ Жураев, Ю. А., & Икрамов, Р. А. (2020). Фукарлар экологик назорати: юридик асослари ва тушунчаси. Academic research in educational sciences.

³⁶ ВМТ. 1979. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya (размещено по адресу: <http://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw/text/0360795R.pdf>).



bermaslik) tufayli kamayib bormoqda. Ayollar va erkaklarning ta'lim ixtisosligi va kasb tanlash sohalari haqida stereotipli fikrlash usullari kuchli bo'lib qolmoqda. Ayollar tomonidan afzal ko'riladigan joriy ta'lim dasturlari mehnat bozorining mavjud talabi bilan yaxshi bog'liq emasligi va buning natijasida ayol mutaxassislarni noqulay ahvolga solayotgani haqida dalillar mavjud. Shuningdek, ayollarga kichik biznes va kasb-hunar yo'nalishlari bo'yicha ko'nikmalarni o'rgatadigan kasb-hunar kurslari yetishmaydi.³⁷

Mustaqillik va millatchilikning kuchayishi, shuningdek, ayrim doiralarda an'anaviy gender mafkuralarining qayta paydo bo'lishini ko'rsatdi. Ayollarni qo'llab-quvvatlovchi rasmiy qarorlarga qaramay, ayollarning jamiyatdagi to'liq ishtiroki erkaklarni asosiy iqtisodiy ta'minotchi sifatida ko'radigan gender mafkuralari bilan cheklangan. Bunday e'tiqodlar nafaqat ayollarning yaxshi maoshli ishlarga kirishini cheklaydi, balki ota-onalarning qizlarining oliy va kasb-hunar ta'limiga bo'lgan kelajakdagi sarmoyalariga ham tahdid soladi. Afsuski, bunday e'tiqodlar ayolning jamiyatdagi mavqeini erkaknikidan past deb hisoblaydigan va shu bilan erkaklarning ayollar ustidan hokimiyatini oqlaydigan boshqalarni to'ldiradi.

Shuningdek, bir qator bilimli va kasbiy xotin-qizlar O'zbekistonda ayollarning mavqeini yo'qotish tahdidiga qarshilik ko'rsatdi. Bu ayollarning ko'pchiligi o'z bilim va tajribasini O'zbekistonda kuchayib borayotgan ayollar nodavlat notijorat tashkilotiga rahbarlik qilishga yo'naltirdi. Shu asosda bunday ayollar ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy mavqei uchun muhim bo'lgan sohalarda (shu jumladan biznes va kasbiy tayyorgarlik, huquqiy savodxonlik, psixologik maslahatlar, salomatlik va oiladagi zo'ravonlik dasturlari, nogiron ayollarga yordam berish va boshqalar) yordam ko'rsatadilar.³⁸

Ayollarning mavqeini yaxshilash va jamiyatdagi rolini oshirishga qaratilgan ushbu va boshqa siyosatlarga qaramay, ayollar hali ham hayotlarining barcha jabhalarida tengsizlikka duch kelishmoqda. Shuning uchun asosiy muammo siyosatchilar va keng jamoatchilik o'rtasida gender tushunchasiga yondashuvlarni joriy etishdir. Gender bo'yicha aniq va

³⁷ Aktamovich, I. R., & Ziyadillayevich, I. A. (2020). Historical and Theoretical Roots of Establishing a Democratic Law in Uzbekistan. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 6(10), 507-510

³⁸ Asian Development Bank. *Uzbekistan Country Gender Assessment*



ishonchli ma'lumotlarning yo'qligi va O'zbekistonda yangi tadqiqot metodologiyalarining yo'qligi samarali gender loyihalarini ishlab chiqishda asosiy cheklovdir. Ilmiy tadqiqotning ustuvor yo'nalishlari orasida qashshoqlik darajasi bo'yicha uy xo'jaliklarini o'rganish; ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokida gender munosabatlari; ayollarni himoya qiluvchi qonunlarni amalga oshirishdagi to'siqlar; va an'anaviy va diniy madaniy urf-odatlarining ayollarga ta'sirini sifatli tadqiq qilishdir.³⁹

Ishsizlik va past maoshlar bilan bog'liq umumiy iqtisodiy muammolar xizmat ko'rsatish va kommunal xizmatlarning etarli darajada va/yoki qimmat ta'minlanishi kabi boshqa ijtimoiy muammolardir. Masalan, mustaqillikka erishgandan so'ng sog'liqni saqlash byudjeti miqdori asta-sekin pasayib bordi, odamlar ko'pchilik tibbiy xizmatlar uchun to'laydilar, hatto xizmatlar nominal ravishda bepul bo'lsa ham. Gaz, elektr va suvning tartibsiz ta'minlanishi, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlarining qimmatligi kabi muammolar keng tarqalmoqda. nazorat qilingan. Biroq, subsidiyalar uchun sarflangan umumiy miqdor 1994-yildagi davlat xarajatlarining 16 foizidan 2000-yildagi atigi 3 foizgacha kamaydi. Bu esa, ilgari subsidiyalangan kommunal xizmatlar va xizmatlarning harajatlarini ko'proq o'z zimmasiga olishga majbur bo'layotganini anglatadi. Bundan tashqari, pora olishning keng tarqalganligi ko'pchilik odamlarning yashash narxini oshirdi. Maoshlar qarzdor bo'lib, yashash xarajatlarini qoplamaydigan bir sharoitda pora olish, ishga joylashish va tegishli sog'liqni saqlashni ta'minlashdan tortib, universitetda joy olishgacha bo'lgan keng tarqalgan holatga aylandi.

Bunday omillar ayollar uchun ham bevosita, ham bilvosita ijtimoiy xarajatlarga ega. Masalan, sog'liqni saqlash xizmatining o'sib borayotgan narxi odatda sog'liqni saqlashga yuqori talablarga ega bo'lgan va odatda o'z farzandlarining sog'lig'iga kundalik mas'uliyat yuklaydigan tug'ish yoshidagi ayollarga ta'sir qiladi. Hukumat va boshqa korxonalar postsovet davrida bunday markazlar narxini subsidiya qila olmagan uchun maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasi ham pasaygan.

Davlat bir qator ijtimoiy yordam dasturlarini, jumladan, ko'p va kam ta'minlangan oilalarga to'lanadigan nafaqalarni boshqaradi; qiyinchilikka duchor bo'lgan yoki pensiyaga chiqqan ishchilarga to'lanadigan ijtimoiy sug'urta; va keksalar va nogironlarga to'lanadigan

³⁹ Ikramov, R., & Bekmirzayev, N. (2020). Yurist nutqi madaniyati. Toshkent: Akademiashr



ijtimoiy nafaqa. Mahalla qo‘mitalari kam ta‘minlangan oilalarga dori-darmon va kommunal xizmatlar uchun imtiyozli narxlar ko‘rinishida ham yordam ko‘rsatadi. Ijtimoiy ta‘minotning ayrim shakllarini oladiganlar soni aholining taxminan 12 foizini tashkil etadi. Ijtimoiy nafaqalar yashash xarajatlarini qoplash uchun etarli darajada emas. 1998-yilda ayollarga 60 yoshga, erkaklarga 65 yoshga to‘lgan o‘rtacha oylik keksalik nafaqasi 1250 so‘mni yoki taxminan 2 kilogramm go‘shtga teng edi. 1998-yilda ushbu nafaqa oluvchilarning 76 foizini ayollar tashkil etgan. Bu zamonaviy Toshkentning bezovta qiluvchi ko‘cha manzaralaridan birini tushuntirishga yordam beradi: keksa ayollar o‘zlarining arzimagan pensiyalarini qo‘shimcha qilish uchun tilanchilik qilishga majbur.

O‘zbekistonda ham islomga, ham o‘zbek madaniy an‘analariga qiziqish ortib bormoqda, garchi bu kontekstda islom va “an‘ana”ni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, chunki o‘zbek tarixi, tili va madaniyatini o‘rganish islomning jihatlarini ham o‘z ichiga oladi. O‘zbek an‘analari va islomning mustaqil O‘zbekistonda tutgan o‘rni haqidagi ommaviy munozaralarni ommaviy axborot vositalarida uchratish mumkin va ular ko‘pincha hukumat manbalaridan kelib chiqadi.⁴⁰ Bu yangilanishning eng ko‘zga ko‘ringan belgilaridan biri hijob kiygan ayollar va qizlarning ko‘payib borayotgani (ya‘ni to‘pig‘igacha bo‘lgan ko‘ylaklar va yuzni o‘rab, yelkasini o‘rab turuvchi mahkam o‘ralgan oq sharflar). Hukumat an‘anaviy va islomiy ta‘sirler iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligidan xavotirda bo‘lsa-da, hukumat Sovet nazoratidan mustaqil davlatga o‘tishni nishonlash uchun o‘zbek madaniy ramzlarini qo‘lladi. O‘zbek tilining davlat tili, vaqt o‘tishi bilan esa ta‘lim tili sifatida qayta kiritilishi bunga misol bo‘la oladi. Qolaversa, davlat siyosati sifatida kirill yozuvini bosqichma-bosqich almashtirish ko‘zda tutilgan.

Albatta, O‘zbekistonda islomning ko‘plab oqimlari, jumladan, turli xil falsafiy va mafkuraviy pozitsiyalari mavjud. Madaniy an‘analarni ayollarning maqomi va gender munosabatlariga mumkin bo‘lgan ta‘siri nuqtai nazaridan qayta baholashni kengroq ko‘rib chiqish muhimdir. Sovet Ittifoqi davrida ko‘plab oldingi urf-odatlar va diniy marosimlar to‘xtatildi. Masjidlar yopildi va din qattiq davlat nazoratiga o‘tkazildi. Ayollar qo‘llab-quvvatlandi va jamoat, siyosiy va kasbiy hayotni davom ettirishga da‘vat etildi.

⁴⁰ “Xotin qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to‘g‘risida”gi qaror (02.09.2019.).



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aktamovich, I. R., & Ziyadillayevich, I. A. (2020). Historical and Theoretical Roots of Establishing a Democratic Law in Uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 6(10), 507-510.
2. Asian Development Bank. Uzbekistan Country Gender Assessment.
3. BMT. 1979. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya (размещено по адресу: <http://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw/text/0360795R.pdf>).
4. Ikramov, R., & Bekmirzayev, N. (2020). Yurist nutqi madaniyati. Toshkent: Akademyashr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
6. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi
7. Берн Ш. Гендерная психология. М.: ОЛМА Медиа Групп, 2002.
8. Жураев, Ю. А., & Икромов, Р. А. (2020). Фукарлар экологик назорати: юридик асослари ва тушунчаси. Academic research in educational sciences.
9. “Xotin qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to‘g‘risida”gi qaror (02.09.2019.)



UYG‘ONISH DAVRI BESHIGINI TEBRATGANLAR

Abdullayeva Nilufar

Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIV - XVI asrlarda Yevropada yuz bergan Uyg‘onish davri va uning asosiy markazi sifatida Florensiya shahrining yuksalishida Medichilar oilasi va ularning san‘at ahliga ko‘rsatgan homiyligining ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Jovanni di Medichi, Kozimo Oqsoqol, Lorenzo Muhtasham, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, San-Lorenzo bazilikasi, bank, cherkov.*

Medichilar oilasi kuch va qudratga urushlar yoki meros orqali erishmagan oilalardan biri edi. Florensiya shahriga ishlash uchun kelgan bu oila bank faoliyatiga qo‘l urib o‘zining katta mashhurligi va hokimiyatga ega bo‘lgan kelajagi uchun tamal toshini qo‘ydi. Medichi oilasi bankiga Jovanni di Medichi asos soldi. Bank ishi orqali oila dastlab Italiyada, keyinchalik esa butun Yevropadagi eng badavlat oila maqomiga erishdi. Jovanni di Medichi boshlagan ishni o‘g‘li Kozimo di Medichi muvaffaqiyatli davom ettirdi.

Jovanni di Medichi bank ishini boshlaganda ularning asosiy e‘tiborga oladigan jihati kapital oqimini to‘g‘ri kuzatish bo‘lgan. Buning uchun Jovanni 2 tomonlama buxgalteriya hisobi usulini yaratdi va amalda qo‘lladi.

Bu tizimda qarz va kredit bo‘yicha qayd etiladi. Bir hisob varaqning qarzi boshqa bir hisob varaqning kreditiga mos kelishi kerak. Buxgalteriyaning bunday tizimi tayyorlangan hisobotlarning aniqligini oshiradi, bu esa xatolarni yaxshiroq aniqlash imkonini beradi.⁴¹ Oddiy va samarali bo‘lgan bu bank hisob usuli o‘sha davrdagi an‘anaviy bank faoliyatining kengayishiga va Yevropa bo‘ylab pul o‘tkazishni osonlashtirdi. Florensiya jahon savdosining markazida bo‘lgan bir paytda bu orqali Medichi oilasi katta daromad olishga muvaffaq bo‘ldi. Keyinchalik esa Uyg‘onish davri rivojiga hissa qo‘shishlari uchun imkoniyatlarga ega bo‘ldi.

Uyg‘onish davri va Medichi oilasining hukmronligidan oldin san‘at cherkov atrofida to‘plangan edi. Biroq, bularning barchasi Medichi oilasining paydo bo‘lishi va Uyg‘onish davri kelishidan boshlab o‘zgarib ketdi. Ular dastlab arxitektura, haykaltaroshlik, keyin esa

⁴¹ The Medici Archive Project 1999-2005. <http://www.medici.org>.



rassomchilikka homiylik qila boshladilar. Jovanni di Bichchi di Medichidan boshlab oilaning rahbarlari arxitekturaga sarmoya kiritishni davom ettirdilar.

San-Lorenzo bazilikasi shaharning markazida joylashgan. Me‘mor Arnolfo di Kambio tomonidan ishlab chiqilgan Florensiya sobori qurilishi 1296-yilda boshlangan. Dastlab Florensiyani Yevropaning iqtisodiy va madaniy poytaxti sifatidagi maqomini ko‘rsatish uchun qurilgan, rejaga ko‘ra soborning sakkiz burchakli qismini ajoyib gumbaz bilan yakunlash kerak bo‘lgan. Gumbaz 150 fut kenglikda, yerdan deyarli 17 qavatli bino balandligidan boshlanishi kerak edi. Qurilish siyosiy vaziyatlar, urushlar va qora vaboning tarqalishi tufayli ortga surilib bordi. Binoni yakunlash rejasini tuzish uchun me‘morlar o‘rtasida tanlov boshlandi. Tanlov ishtirokchilarining orasida Filippo Brunelleschi ismli me‘mor ham bo‘lib, uning klassik me‘morchilikka asoslangan g‘oyalari shahar rahbariyatiga ma‘qul kelmadi. Kozimo di Medichi esa Brunelleschida boshqalar ko‘rmagan sifatlarni payqadi va o‘zining shaxsiy arxitektoriga aylantirdi. Gumbazni tugatish g‘oyasini Medichi banki moliyalashtirdi.⁴² Reja Qadimgi Rim Panteoni uslubiga asoslandi. Me‘mor tosh yo‘nuvchilar bilan ishlab, gumbazni yog‘och va betonsiz qurish yo‘lini o‘ylab topdi. Sobor 1436-yilda qurib bitkazilgan, hatto Rim Papasi ochilish marosimiga tashrif buyurdi.⁴³ Brunelleschi gumbazi nafaqat Kozimoning homiy sifatidagi eng katta yutug‘iga aylandi, balki bu Medichilar uyi tomonidan amalga oshirilgan eng ulug‘vor harakatlardan biri bo‘ldi. Florensiyaning ramzi abadiy o‘zgardi va Brunelleschi gumbazi bugungi kunda qurilgan eng katta tosh gumbaz sifatida qad rostlab turibdi.

Kozimo di Medichi Florensiya hukumatiga kirib borish va nazorat qilish uchun o‘z boyligidan foydalandi. O‘limidan so‘ng “Mamlakat otasi” nomini oldi. Siyosiy nazariyotchi Nikkolo Makiavelli o‘z asarida Kozimoni “Respublika shahzodasi” deb atadi. Shubhasiz, Kozimo sulola o‘rnatishda otasidan o‘zib ketdi, ammo bu hali boshlanishi edi. Uning nabirasi Lorenzo Kozimoga o‘xshab ketsada, uning dadil homiylik harakatlari Uyg‘onish davrining eng buyuk rassomlarini kashf etdi.

⁴² Kelly Ann Gilbert. Medici power and patronage under Cosimo the Elder and Lorenzo the Magnificent. Michigan.: Eastern Michigan University Press, 2005. P. 17

⁴³ Sarah Kirk. The art of decapitation: Medici power, prestige and propaganda. - Oklahoma.: Oklahoma State University Press, 2023. P. 20



Lorenzo siyosiy maydonga chiqqanida, Uygʻonish davri allaqachon Florensiyaning oʻzida badiiy choʻqqisida edi. Bayramlar koʻp boʻlib, Lorenzo va ukasi Juliano ishtirok etishar, oʻzlari ham klassik tafakkur elementlari bilan oʻralgan xalq uchun madaniy tadbirlar tashkil qilishardi. Lorenzo oʻz davrining taniqli adabiyot arboblari, oʻzining turli sanʼat jamiyatlariga villalar sovgʻa qilgan, vaqti-vaqti bilan villalarga tashrif buyurib, rassom va yozuvchilar bilan suxbatlashgan. Lorenzoning eng sevimli mashgʻuloti boʻlgan bu suhbatlar muhim ahamiyat kasb etsada, Leonardo da Vinchi va Mikelanjelo kabi uning shaxsiy bogʻida oʻz ishi bilan shugʻullanganlar kam edi.

1460-yillarning oxiri yoki 1470-yillarning boshlarida San-Marko monastiri yaqinida joylashgan bogʻ sarv daraxtlari va Lorenzo tomonidan toʻplangan qadimiy haykallar bilan toʻlgan. Bogʻda yosh rassomlar oʻz tajribalarini oshirishlari mumkin boʻlib, haykaltaroshlik boʻyicha taʼlim berilgan va havaskorlar qadimiy haykallardan andoza sifatida foydalanish imkonini beradigan oʻquv maskani tashkil qilingan. Leonardo da Vinchi bu bogʻga tez-tez tashrif buyurib turgan va hatto Lorenzo unga maosh ham tayinlab, birga yashashi uchun sharoit yaratib bergan.⁴⁴ Da Vinchi u yerda ustoz Andrea del Verrokkio bilan birga ishlay olgan. Manbalarga koʻra, Lorenzo Muhtasham homiyligidagi bu bogʻ haqiqiy sanʼat maktabi edi. Aynan shu yerda Da Vinchi “Uygʻonish davri odami” ga yoki sanʼat va fanning koʻp sonli sohalarini biladigan mohir innovatorga aylandi.

Lorenzo yosh Mikelanjeloga antiqa buyumlarning biridan marmarga nusxaga koʻchirayotganida duch keldi. Bolaning gʻayrioddiy isteʼdodini koʻrgandan soʻng va atigi 15 yoshda ekanligini bilgach, Mikelanjeloni oʻz farzandlari qatorida tarbiyalash uchun saroyga koʻchib oʻtishiga qaror qildi. Boʻlajak haykaltaroshning isteʼdodi tarbiyalanib bordi va keyinchalik “Kentavrlar jangi”, “Dovud” va eng mashhuri “Oxirgi hukm” kabi asarlarida yaqqol namoyon boʻladigan mahoratlarni oʻzlashtirdi. Rimning Sistina ibodatxonasi shiftini Papa Klement VII (Julio di Juliano de Medichi) topshirigʻi asosida bezatdi.

⁴⁴ Nicholas J. Cuzzo. The florentine house of Medici (1389-1743): politics, patronage and the use of cultural heritage in shaping the Renaissance. - New Jersey, 2015. P. 18



Mavqe yoki qiziqsh yoki har ikkalasi uchun Lorenzo ko‘pchilik homiylardan ajralib turardi, chunki u o‘zi homiylik qilgan ijodkorlarga aralashishni istamas edi. Uning fikricha, daho odamlarga shunday moslashish va hazil qilish kerakki, ular qodir bo‘lgan eng yuksak sa’y-harakatlarni amalga oshira olsin.

Ushbu falsafaning namoyon bo‘lishi Lorenzoning rassomlar Sandro Botticelli, Filippino Lippi, Domenico Girlandiaolarga qilgan xayrixohlida ko‘rish mumkin. Ularning barchasi Florensiyaning g‘arbiy qismidagi Spedaletodagi Medichi villasidagi freskalarni bo‘yashda ishtirok etishgan. Lorenzoning laqabiga mos muhtasham saroy ifodalab berilgan. Lorenzo o‘zi homiylik qilgan san’atkorlarni bir-biri bilan raqobatlashishga undadi. U shaxsan ma’lum bir rassomga buyurtma beradimi yoki yo‘qmi, avvalo arxitektura, rasm, haykaltaroshlik, adabiyot, fan va musiqa gullab-yashnagan muhitni yaratishga intildi.

Misol uchun, Botticelli 1477-1482-yillarda La Primavera rasmini bo‘yashni davom ettirdi. 1482-yildan 1485-yilgacha rassom Medichi oilasi tomonidan buyurtma berilgan “Pallas, Kentavr va Bahor” allegoriyasini va “Veneraning tug‘ilishi” asarlarini chizib tugatdi. Keyinchalik, Botticelliga Lorenzo Muhtasham tomonidan Dante Aligerining “Ilohiy komediyasi”ga chizmalar chizish ishi topshirildi. Xuddi shu tarzda, 1481-yilda Lorenzo Da Vinchiga Milan gersogi qoshida ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanish topshirildi. Milan safari davomida Da Vinchi “So‘nggi kechki ovqat” asarini yaratdi.

Uyg‘onish davri keng yoyilib borar ekan, Florensiya uning markaziga aylanib bordi. Kozimo di Medichining Donatelloga “David”ni buyurtma qilib, o‘z villasi markaziga joylashtirishi, shuningdek San-Lorenzo bazilikasi gumbaziga qilingan homiylikdan boshlangan harakatlar, keyingi davrlar mobaynida yanada kuchayib bordi. Lorenzo Muhtasham san'at ahliga yaratib bergan qulay muhit dunyo ko‘zini quvnatgan durdonalar paydo bo‘lishiga zamin hozirladi. Uyg‘onish davri va bu davr namoyondalari haqida so‘z yuritish davomida, albatta ularga imkoniyatlar eshigini ochgan Medichilar oilasi haqida to‘xtalish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nicholas J. Cuzzo. The florentine house of Medici (1389-1743): politics, patronage and the use of cultural heritage in shaping the Renaissance. - New Jersey, 2015.



2. Sarah Kirk. The art of decapitation: Medici power, prestige and propaganda. - Oklahoma.: Oklahoma State University Press, 2023.
3. Kelly Ann Gilbert. Medici power and patronage under Cosimo the Elder and Lorenzo the Magnificent. Michigan.: Eastern Michigan University Press, 2005.
4. The Medici Archive Project 1999-2005. [http:// www.medici.org](http://www.medici.org).
5. Encyclopedia Brittanica. Cosimo de Medici. SV, 2005.



O‘ZBEKISTONDA MILLIY-MADANIY MARKAZLAR FAOLIYATIDAN

Yaqubova Shahzoda Qo‘ziboy qizi

Namangan davlat universiteti, Tarix yo‘nalishi, 3-kurs talabasi

Tel: +998951072621, yaqubovashahzoda03@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mustaqil O‘zbekistonimizni bag‘rikengligi, faqatgina bir millat ostida emas balki ko‘p millatli bo‘lib inoq yashashimiz yoritilgan. Mustaqillik yillarida ko‘pmillatli yurtimizda milliy-madaniy markazlarning tashkil etilishi va faoliyati, bu markazlarning yurtimiz taraqqiyotidagi ahamiyati haqida ma‘lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mustaqillik, millatlararo munosabatlar, konstitutsiya, milliy-madaniy markazlar, Baynalminal madaniyat markazi, “O‘zbekiston – umumiy uyimiz”, “Kuchimiz – birlik va hamjihatlikda”, “Vatan yagonadir – Vatan bittadir”, “Mehnat shuhrati” va “Do‘stlik” ordenlari, “Shuhrat” medali.*

Mustaqil O‘zbekistonimiz bag‘rikeng yurtdir. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng ko‘pmillatli yurtimizda millatlararo munosabatlar yanada mustahkamlanib, taraqqiy etib bormoqda, oliy maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilinmoqda. Bu sohada respublikamizda amalga oshirilayotgan isloxotlarni yurtimizdagi milliy-madaniy markazlar faoliyati misolida ko‘rishimiz mumkin.

Respublikamizdagi milliy-madaniy markazlar faoliyatini yoritishdan oldin, bu soha tarixini bilib olishimiz zarur. Milliy-madaniy markazlar bu – O‘zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlaridir. Vatanimizdagi milliy-madaniy markazlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining jamoat tashkilotlari to‘g‘risidagi amaldagi qonunlariga hamda o‘z nizomiga asoslangan holda faoliyat yuritadi. Bunday markazlar muayyan millatga xos bo‘lgan milliy madaniyati, tili, urf-odati, an‘ana va taomillarini o‘rganish, saqlab qolish va rivojlantirishdan manfaatdor bo‘lgan O‘zbekiston fuqarolarini ixtiyoriy ravishda birlashtiradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Milliy-madaniy markazlar 1999-



yil, 14-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat va notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuniga asoslangan holda tuzilgan⁴⁵.

Yurtimizdagi milliy-madaniy markazlar o‘z faoliyatlarini 1989-yilda boshlagan. Yurtimizda yashovchi – koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida mana shunday markazlar tuzilgan. Bu markazlarning haqiqiy rivojlanishi va ravnaq topishi O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng boshlandi. Vatanimiz mustaqilligi munosabati bilan ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada, milliy-madaniy markazlar soni yil sayin ortib bordi. 1992-yil respublikamizda 10 ta milliy-madaniy markazlar ish olib borgan bo‘lsa, 1995-yilda ularning soni 72 taga, 2003-yilga kelib 135 taga, 2021-yilda 147 taga va hozirgi kunga kelib ularning soni 151 taga yetgan. Ularning tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, bularning ichida ilk tashkil topgani “Koreys milliy-madaniy markazi” bo‘lsa, yuksak va keng imkoniyatlarga ega bo‘lgani esa “Rus milliy-madaniy markazi”dir.

O‘z navbatida respublikamizda Xitoy va Hindiston milliy-madaniy markazlari ham Vatanimizning iqtisodiyotni rivojlantirishda o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Misol uchun “Xitoy milliy-madaniy markazi” – O‘zbekiston va Xitoy xalq respublikasi o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va madaniy munosabatlarni yanada rivojlanishiga munosib xissa qo‘shib kelmoqda. “Hindiston milliy-madaniy markazi” esa, o‘zining bunyodkorlik sohalari bilan yurtimiz taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Respublikamizdagi bu madaniy markazlar o‘zbek xalqini hamda yurtimizda istiqomat qiloyatgan boshqa millatlarni milliy o‘zligini anglashga va manaviy qayta tiklanishning o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq holda jamiyatni yangilash uni demakratlashtirishga undovchi zo‘r kuch bo‘lib xizmat qilmoqda⁴⁶. 2020-yilning o‘zida 7 ta shunday markazlar tashkil tashkil topgan va shu yili milliy-madaniy markazlar faoliyatini yaxshilash uchun 600 mln so‘m mablag‘, shuningdek, 1,45 mlrd so‘mlik grant ajratilgan.

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi “Nodavlat va notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 14.04.1999. 763-I-son // Lex.uz/docs/11360.

⁴⁶ Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997. – B. 472.



Mustaqil O‘zbekiston tarixini o‘rganar ekanmiz, diqqatimizni o‘ziga tortadigan tomonlaridan biri, yurtimiz aholisining ko‘p millatliligidadir. Qadim zamonlardan beri, o‘lkamiz hududida o‘zbeklar bilan bir qatorda tojiklar, qozoqlar, turkmanlar, qirg‘izlar, uyg‘urlar va boshqa millat vakillari istiqomat qilib kelganlar⁴⁷. Bulardan tashqari yurtimizda qo‘shni o‘lkalardan kelgan va shu yerda joylashib qolgan eroniylar, afg‘onlar, arablar, hindlar, xitoyliklar ham yashab keladilar. Arablar istilosidan so‘ng Mavorounnahrga ko‘chib kelgan va shu yerlarda yashay boshlagan arablar Buxoro va Qashqadaryo tomonlarda o‘z qishloqlarini tashkil qilganlar. Hozirgi kunda ham bu arablarning avlodlari shu hududlarda yashab kelmoqda.

Vatanimizning ko‘p millatligining yana bir yo‘nalishi bu, Buyuk ipak yo‘lini bizning diyordan o‘tganligidir. Sharq va G‘arbni bog‘lovchi bu yo‘lda minglab insonlar o‘z hayotlarini bag‘ishlagan edi. Aynan savdo-sotiq orqali ham yurtimiz hududiga turli xalq vakillari kirib kelgan va o‘lkamizni o‘zlariga vatan qilishgan. Vatanimizni aholisining ko‘pmillatliligini o‘rishining yana bir tarixiy pallasi bu O‘rta Osiyoni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olish jarayoni va mustamlakachilik yillari bilan bog‘liqdir. Bu istilolar natijasida, yurtimiz hududi yanada ko‘p millatli davlatlardan biriga aylandi. 1897-yili Rossiya imperiyasi bo‘yicha birinchi marta aholini ro‘yxatga olish o‘tkazildi. Aynan 1897-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, Turkiston o‘lkasi hududida 70 dan ortiq millat va elatlar yashayotganligini bilish mumkin⁴⁸.

1989-yilda O‘zbekiston SSR Madaniyat vazirligi qoshida mamlakat millatlararo Madaniyat markazlari tashkil etildi. Uning tarkibida 12 ta, jumladan Koreys, Qozoq, Arman, Ozarbayjon, Tojik va boshqa madaniyat markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan edi. Vaqt o‘tgan sayin ularning soni ham ortib borgan. Xususan, mustaqilligimizning beshinchi yilida bunday markazlar soni 80 tani tashkil qilgan.

1993-yil 24-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi Baynalminal madaniyat markazi” tashkil etildi⁴⁹. Bu Baynalminal madaniyat markazi Respublikadagi milliy madaniy markazlarni birlashtirdi va ularni bir-birlari

⁴⁷ Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi – T.: “O‘AJBNT”, 2001. – B. 33.

⁴⁸ Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: Sharq, 1998.

⁴⁹ Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi – T.: “O‘AJBNT”, 2001. – B. 33.



bilan hamkorlikda ish olib borishga ko‘maklashmoqda. Ushbu madaniyat qoshidagi milliy madaniy markazlar faoliyatidagi muhim yo‘nalish, umumxalq bayramlariga, jamiki millat va elatlarni ishtirok etishi va unda o‘zining milliy an‘analariga sodiq qolgan holda bayramda ishtirok etishni ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat vakillarini diyorimizning ijtimoiy, ma‘naviy, ma‘rifiy, hayotida faol ishtirok etishni ta‘minlaydi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilotlar hamda tarixiy vatanlari bilan do‘stona hamkorlik, madaniy ma‘rifiy aloqalarni tiklash, Respublika baynalminal madaniyat markazi, vazirliklar idorasi, davlat va jamoat tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda mamlakatimiz aholisini hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlash milliy madaniy markazlarni vazifalaridan biri hisoblanadi⁵⁰.

O‘zbekiston Respublikasidagi milliy-madaniy markazlar 2003-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, Respublika miqyosidagi markazlar: Toshkent shahrining o‘zida 12 ta (koreys, arman, yahudiy, qozoq, nemis “Vidergeburg”, “Светлица Польска” – polyak,” Славбудич”, ukrain, turkman, turk, uyg‘ur, rus) madaniy markaz faoliyat yuritmoqda. Qoraqalpog‘iston respublikasida esa 5 ta (koreys assotsiyasi, qozoq, rus, turkman, koreys), Andijonda 6 ta (viloyat madaniy markazlari, arman, qirg‘iz, koreys, rus, uyg‘ur), Buxoroda 12 ta (viloyat madaniy markazlari, arman, yahudiy “Shalom”, nemis, “Vitergeburg”, “Светлица Польска” – polyak, rus, tatar-boshqird, “Oftobiy Sug‘diyov” tojik, fors, turkman, shahar markazi, turk), Jizzaxda 7 ta (viloyat va shahar madaniy markazlari, koreys, qirg‘iz, tatar, tojik, qozoq), Qashqadaryoda 5 ta (viloyat madaniy markazi, koreys, rus, tatar-boshqird, arab), Navoiyda 8 ta (viloyat va shahar madaniy markazlari, qozoq, rus, “Nur” – tatar, yahudiy, “Choson” – koreys, qoraqalpoq), Namanganda 5 ta (viloyat madaniy markazi, yahudiy, “Mironbon” – koreys, qirg‘iz, rus), Samarqandda 13 ta (viloyat va shahar madaniy markazlari, yahudiy, koreys, rus, nemis, polyak, rus, tatar boshqird, yurk, “Ozarbayjon-O‘zbekiston”, “Luyis” arman, Buxoro yahudiylari), Sirdayoda 11 ta (viloyat va shahar madaniy markazlari, qozoq, qirg‘iz, koreys, “Rus” slavyan, tatar, Guliston shahri – koreys, “Tiklanish” koreys, Yangiyer shahri – koreys, uyg‘ur), Surxondaryoda 5 ta (viloyat madaniy markazi, rus, koreys, tojik, turkman), Xorazmda

⁵⁰ O‘zbekistonni yangi tarixi. 3 tom. – T.: “Sharq”, 2000. – B. 242.



3 ta (viloyat madaniy markazi, koreys, qozoq), Toshkent viloyatida 5 ta (viloyat madaniy markazi, qozoq, koreys, rus, ukrain), Farg‘onada 8 ta (viloyat madaniy markazi, koreys, qirg‘iz, nemis, slavyan, tojik, tatar, yahudiy)⁵¹ va boshqalar yurtimizda faoliyat yuritmoqda.

Milliy-madaniy markazlarimiz faoliyati haqida O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: “Qadimiy diyorumizda asrlar davomida turli madaniyat va sivilizatsiyalar yonma-yon yashab kelgani, bu esa bag‘rikenglik tinchlikparvarlik, sahovat va mehr-oqibatlilik fazilatleri bilan ajralib turadigan xalqimizning o‘ziga xos mentalitetini shakllanishiga muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir⁵².”

Yurtimizdagi milliy-madaniy markazlar millatlararo totuvlik, tinchlik, va barqarorlikni mustahkamlash maqsadida ko‘plab keng ko‘lamli tadbirlarni uyushtirmoqda, amalga oshirmoqda. Xususan, 2003 va 2005-yillarda “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” respublika festivallari, 2006-yilda O‘zbekiston mustaqilligining 15 yilligiga bag‘ishlangan “Kuchimiz – birlik va hamjihatlikda” va “ Vatan yagonadir – Vatan bittadir” festivallarini o‘tkazilishi esa jamiyatimiz mazkur markazlarning obro‘si oshishiga yanada yordam berdi. 2017-yil 24-yanvarda Respublikamizda “Respublika baynalminal madaniyat markazining 25 yilligi munosabati bilan milliy-madaniy markazlarning bir guruh faollarini mukofotlash to‘g‘risida” gi Prezident Farmoni imzolandi. Bunda yurtimizdagi millatlararo do‘stlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatimizda turli millat va elat vakillari o‘rtasida hukm surayotgan o‘zaro hamjihatlik va mehr-oqibat muhitini asrash, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda milliy madaniy markazlar faoliyatini rivojlantirish borasidagi katta xizmatlari uchun bir guruh faollar “Mehnat shuhrati” va “Do‘stlik” ordenlari, shuningdek “Shuhrat” medali bilan mukofotlandi. 2021-yil 10-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Xalqlar do‘stligi” kunini belgilash to‘g‘risidagi”gi Qonuni imzolangan edi. Shu asosda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etildi. 30-iyul mamlakatimizda “Xalqlar do‘stligi kuni” etib belgilanganligidan keyin, 2022-yil oktabr oyida prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Navoiy viloyatida saylovchilar bilan

⁵¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. – B. 663-664.

⁵² O‘zbekistonni yangi tarixi. 3-tom. – T.: “Sharq”, 2000. – B. 275.



uchrashuvda “Bugun saylovchilar bilan uchrashuvda bu qutlug‘ bayramni kelgusi yili Navoiy viloyatida katta tantana bilan nishonlash taklifini bildirdim. Shuningdek, 2022-yilda Navoiyda ko‘p millatli xalqimiz birligining ramzi sifatida “Do‘stlik bog‘i”ni barpo etishni rejalashtirganmiz”, degan edilar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida ham O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatning tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi⁵³ deb belgilangan.

Xulosa sifatida shuni qayd qilish mumkinki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o‘zining to‘liq ifodasini topdi. Hozirda milliy-madaniy markazlar O‘zbekistonda millatlarni har tomonlama yaqinlashuviga millatlar taraqqiyotiga gullab yashnashiga asoschi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murtazayeva R. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik – T.: “Go To Print”, 2020. – B. 344.
2. Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997. – B. 472.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. – B. 663-664.
4. Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi – T.: “O‘AJBNT”, 2001.

⁵³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023. / <https://lex.uz/docs/-6445145>



5. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: Sharq, 1998.
6. O‘zbekistonni yangi tarixi. 3-tom. – T.: “Sharq”, 2000.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023. / <https://lex.uz/docs/-6445145>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalminal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi. 2017-yil 24-yanvar./ <https://president.uz/oz/lists/view/198>.
9. O‘zbekiston Respublikasi “Nodavlat va notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 14.04.1999. 763-I-son // Lex.uz/docs/11360.



NODIRSHOH AFHORNING MARKAZIY OSIYOGA YURISHIDA: O‘ZBEK XONLIKLARINI MUNOSABATI

Alijonov Saidali, Mamasoliyev Elchinbek, Erkinjonov Elomon

Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar Tarix yo‘nalishi talabalari

Anastatsiya: Ushbu maqolada Nodirshohning O‘rta Osiyoga yurish va bu yurishga o‘zbek davlatlarining munosabatlari haqida, shuningdek Eron shohining Buxoro, Xorazmga yurishi va Farg‘ona vodiysida yangi tashkil topayotgan Qo‘qon xonligining munosabatlari haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Nodirshoh, Abulfayzxon, Muhammad Hakimbiy, Muhammad Rahibiy, Buxoro, Elbarsxon, Abdulkarimbiy, Rizoquli, oq uyli, Xorazm.

XVIII asrda turkiylarda bo‘lgan Nodirshoh Eronda Afshoriylar davlatiga asos soldi. U afg‘onlarni gilzol qabilasini Erondagi bosqinchilik siyosatini oldini oldi, balki afg‘onlarni to‘liq Eron hududidan quvib chiqardi. 1733-1735-yillarda Usmoniylarga qarshi kurash olib borib, Armaniston va Gruziyani Eronga bo‘ysundirdi. 1736-yil Sigouvshon (hozirgi Sobirobod) shahrida o‘ziga shohlik unvonini oldi.⁵⁴ Aynan shu davrdan boshlab Nodirshoh Afg‘oniston, Hindiston, O‘rta Osiyo, Kavkaz va qo‘shni mintaqalarga harbiy yurishlari boshlanadi.

Nodirshohni O‘rta Osiyoga yurishi paytida O‘rta Osiyodagi o‘zbek xonliklari, unga ma‘lum miqdorda, kuchlari yetkanicha qarshilik ko‘rsata boshladilar. Biroq, o‘zaro kelishmovchilik, iqsodiy ahvolni tangligi, Buxoro xonligini kaltabinlik bilan olib borgan siyosati, shuningdek dushmaga ayrim mansabdorlani sotilganligi O‘rta Osiyodagi Xorazm va Buxoro xonligini Eronga Nodirshoh vafotiga qadar qaram bo‘lib qolishiga olib keldi.

Nodirshoh 1736-yil Qandahor xonligini bo‘ysundirgach, endigi e‘tiborini O‘rta Osiyoga qaratdi. Bu paytda Markaziy Osiyoda parokanda bo‘lgan Buxoro xonligi, nisbatan Sherg‘ozixon va Elbarsxon davrida kuchaygan Xorazm xonligi va Buxorodan ajralib chiqqan Farg‘ona vodiysida o‘z davlatchiligini qurayotgan ming urug‘i boshchiligidagi Qo‘qon xonliklari mavjud edi. Nodirshoh dastlab 1736-yil o‘g‘li Rizoquli boshchiligidagi qo‘shinni

⁵⁴ Sh. Vohidov. A. Qodirov. Sharqning mashhur sulolalari. Akademik.T.:2013. 514-516b.



jo‘natadi, Rizoquli Andaxo‘y, Shibirg‘on, Balxni egallab, Balx hokimi ashtarxoniy Abul Hasnxonni qo‘lga olib otasi huzuriga jo‘natadi. Rizoqul Amudaryodan kechib o‘tib, Qarshi qa‘lasiga hujum qiladi. Bu paytda Qarshi qa‘lasi mudofaasida mang‘it urug‘ini yetakchilaridan biri bo‘lgan Muhammad Hakimbiy boshchilik qilayotgan edi. U Abulfayzxonidan yordam so‘raydi. Xon Xorazm xonni Elbarsxondan ko‘mak jo‘natishini so‘rab murojat qiladi. Elbarsxon katta qo‘shinni bilan Buxoroga yordam berish uchun yo‘lga chiqadi. Rizoquli esa chekinishga majbur bo‘ladi.⁵⁵ Nodirshoh Hindiston yurishi bilan bandligi uni o‘zbek xonliklariga qarshi yurish qilishiga imkon bermaydi. 1738-1740-yillarda Hindistondagi Boburiylar hukumdori Mahmudshoh mag‘lub etilgandan. So‘ng, Nodirshoh Afshor bor e‘tiborini Markaziy Osiyoga qaratdi.

Nodirshohni dastlab parokandalikka uchragan Buxoroni bosib olishga qaror qilidi. Bundan avval esa Buxoro xonni Abulfayzxon Xo‘ja Jo‘yboriyini Nodirshoh huzuriga Peshovarga jo‘natdi va Nodirshohga maktub berib yuboradi, maktub mazmuni quydagicha: *“Men o‘tmish sultonlarining xonadonidanman, falakka ham kuchi yetuvchi o‘shal shahriyorga qarshi kurashishga quvvatim yetmaydi, bir burchakda duo qilib yotibman, har qachon kelsangiz mehmonim bo‘lgaysiz”* ushbu nomaga javoban Nodirshoh o‘z elchisi va xatini Abulfayzxoniga jo‘natadi va uni maktubi quydagicha: *“Sizning deganlaringiz rostdir, ammo Elbarsning tanbexi bajarilishi lozim bo‘lgan vojib narsalardan bo‘lib, uni biz o‘zimizga lozim bildik, u badfe‘lga biz jazo beramiz inshallox. Hirot saltanati uyiga kirganimizdan so‘ng Balxga, undan esa siz oliy makon va yuksak maqomning ziyofatiga va muloqat ramu rusumini ado qilishga boramiz, siz bizga mezbon bo‘lursiz. Ko‘nglingizda hech qanday andishaga yo‘l bermangki, bizning diqqatimiz sining mulki molingizga qaratilmagandir”*⁵⁶ Nodirshoh bu bilan O‘rta Osiyo xonliklarini egalash niyatidan qaytmaydi. Nodirshoh Buxoro xonlikka qarshi ikkinchi hujumini boshlaydi. Shoh Chorjoy hududiga kelib, Amudaryo ustiga ko‘prik qurishni boshlaydi. Shoh Amudaryodan o‘tib Qorako‘l hududiga keldi. Qorako‘ldan Buxoroga bir kunlik masofa edi.

⁵⁵ B.Eshov. O‘zbekiston davlatchiligi va Boshqaruv tarixi. T.:2012. 259b.

⁵⁶ Мулла Олим Махдум Ҳожию. Тарихи Туркистон/Араб ёзувидан тадбил Ш. Воҳидов ва Р. Ҳоликова; Сўз боши ва изоҳ муаллифи Ш. Воҳидов. Янги аср авлоди Т.:2009. 168-169 б.



Nodirshohni Buxoroga hujumidan Mang'it urug'i yetakchilaridan bo'lgan, Muhammad Hakimbey foydalanib qolishga harakat qildi. U Nodirshohni Buxorodagi vakiliga aylandi. Nodirshoh bilan tuzilgan sulhda ham ishtirok etdi va Buxoro xonni huzridagi Shohning vakiliga aylandi. Eron shohhi Abulfayzxonga "shoh" unvonini berdi. Shunday qilib Abulfayzxon Eronga qaram Buxoro shohiga aylandi.

Shoh bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra Buxoro naqd pul, 200 ming eshak ko'tara oladigan bug'doy va yem-xashakni berishi kerak edi. Nodirshoh bundan tashqari 10 ming qo'shin toplab berishi kerak edi. Bundan tashqari Hakimbey Buxoroda o'z yaqinlarini nufuzli lavozimlarga tiqa boshladi. Donyolbiy Karmana hokimi bo'ldi. Nodirshoh 12 ming nufuzli a'yon va hokimlarni farzandlarini oq uyli ya'ni garov sifatida Eron hududiga ko'chirdi. Ularga Rahimqulu miroxo'r bosh bo'ldi, biroq uni vafotidan so'ng Muhammad Rahimbey oq uylilarga bosh bo'lib, Eron hududida qoldi.⁵⁷ Nodirshoh Buxoroda markaziy hokimiyat parokandalikka uchragani va har hokim o'z mulkida hukumronligini hisobga olib, ularni Abulfayzxonga itoatsizligini ko'rib shu sababdan ham 12 ming kishini oq uyli qilgan edi.

Nodirshoh Buxoroni dastlabki kunlarda egalashi bilanoq Xorazm xonligi masalasini ham hal qilmoqchi bo'ladi. U Xorazm xonligiga munosib nomzodni qo'yish va u orqali bu hududlarni o'z nazoratini o'rnatmoqchi bo'lgan. Lekin, Farg'ona vodiysida endi tashkil topayotgan yangi xonlikni bosib olish harakatlarini biz Nodirshohda ko'rmaymiz. Ammo, Buxoro xonligi tomonidan tuzilgan 10 ming qo'shin aynan Qo'qon xonligiga qarshi yohud himoya maqsadida tuzilgan bo'lishi mumkin degan tahminlar ham bor, sababi esa o'sha kezlarda ming sulolasi vakillari tez-tez Samarqand, O'ratepa, Jizzax, Shahrisabz atroflairga uyushtirib turgan bosqin va hujumlari bo'lishi mumkin. Qo'qon xonligi xonlari ham Nodirshoh bosqiniga o'zlarini munosabatlarini bildirishgan. Xudayorxonning vorsi bo'lgan ismi esa noma'lum Xudayorxon zodani " Anjuman-ut-tavorix "asarida quydagicha bayon qilnadi: "...*Abdulkarimxon qalmoq kofirlari bilan jihad qilayotganida tarix 1153/1740-41 yili Nodirshoh, Eroniy chumoli va chigirtkaga o'xshagan lashkari bilan Buxoroga keladi. Abulfayzxon Buxoriy unga sarshilik ko'rsataolmaganidan itoat va bo'ysunishdan boshqa*

⁵⁷ A.Zamonov. F. Subhonov. Buxoro xonligining Ashtarhonoiy hukumdorlari/monografiya. Bayoz. T.:2021. 102-110b.



chora topmaydi. Mamlakat ulug‘lari Nodirshox istiqboliga chiqib, izzat va ikrom ko‘rsatib Abulfayzxonning muhtarama bir qizini uning nikohiga kirgizdilar. [Nodirshox,] katta qo‘shinini ajdarpaykar to‘plar bilan Samarqandga yubordi. U yerning voliyi Abdulkarimxon davlatining mo‘tabar amaldorlaridan bo‘lmish Enakuli dodho Samarqandda bir necha kun eroniyalar bilan jang qilib shahid bo‘ldi. Nodirshox lashkari g‘azab bilan Samarqandda g‘alabani qo‘lga kiritib, Kattaqo‘rg‘on, Urgut va shunga o‘xshash istehkomlarni bosib oldi va Farg‘ona xoni tomonidan qo‘yilgan gumashtalarini xaydab chiqarib, Jizzax qal‘asigacha egalladi. Samarqandning qozisi Mullo Bechora va Kattaqo‘rgon qutvolli Xonkuli o‘zlarining majruh mulozimlari bilan Xo‘qand dorussaltanatiga yetib kelib voqea tafsilotlarini Abdulkarimxonga yetkazdilar.

Kofir qalmoqlarga qarshi urushda xazinadan katta xarajatlar bo‘lib, islom lashkari xali yetarli darajada dam olmagan, yaralangan va majruh bo‘lganlar esa oxirgacha davolanmagan bo‘lsalar ham Eron askarlari hujum etish xabarini eshitgan zahoti xon kamoli g‘ayrat bilan mamlakatning to‘rt tomoniga tavochilar va jarchilar yuborishdi. Tez orada katta lashkar yig‘ib Xo‘jand sari yurish boshladilar. Masofalarni bosib o‘tgach ul viloyatga yetib borib Peshog‘ar mavzeida bir baland qal‘a bino etib, u yerda besh ming jangchilarni qoldirib, xonning o‘zi esa Xo‘jandda keldi...”⁵⁸. Lekin bu ma’lumot faqat Xudayorxon zodaning asrida uchraydi xalos. Asarga asoslanadigan bo‘lsak, Nodirshoh qo‘shinlari Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Urgut va Jizzax hududigacha bo‘lgan hududlarni egallab olishga muvaffaq bo‘lgan. Biroq, Nodirshohning maqsadi Farg‘ona vodiysini bo‘ysundirish emas edi. Nodirshoh uchun eng asosiy raqiblardan biri Xorazm xoni Elbarsxon edi. Chunki, Elbarsxon va undan avvalgi Sherg‘ozixonlar Xurason hududiga tez-tez yurishlar qilib turishgan. Shu boisdan Nodirshoh o‘z qo‘shinini Xorazmga tashlamoqchi bo‘ladi. Nodirshoh dastlab Elbarsxonga Buxoro va o‘z elchisini jo‘natadi. Biroq xon elchilarni qatl ettiradi. Natijada, ikki o‘rtada urush kelib chiqadi. Xorazmga Nodirshoh Amudaryoni shimoliy va janubiy qirg‘oqlaridan zarba beradi. Jangda Elbarsxon mag‘lubiyatga uchraydi va 1739-yili Nodirshoh farmoniga ko‘ra qatl etiladi. Voqealar haqida Munis va Ogahiy tomonidan yozilgan “Firdavs ul-iqbol” asarida quydagicha bayon etiladi: “...Yetti kundan so‘ng musulmonlar ojiz bo‘lib, sulh bila qal‘adin

⁵⁸ Худайрхонзода. Анжуман ут-таворих (Тарих юлдузлари). Fan va Texnologiya T.: 2014. 110б.



chiqtilar va yakshanba kuni xon umaro bila chiqti. Mohi mazbur 1198ning yigirma to'rtida seshanba kuni Nodirshoh Elbarsxon va Eshmuhammad biy boshliq umaroi Xorazmdin yigirma kishini shahid qildurdi"⁵⁹ Elbarsxon va uning tarafdorlari yo'q qiligidan so'ng Nodirshoh 1739-1740-yillardan to 1747-yilgacha ya'ni o'zi vafot etib Eronda toj-u taxt uchun kurashlar avj olishigacha Xorazm taxtiga birin-ketinlik bilan Tohirxon, Nuralixon va Abulg'oziy soniy (ikkinchi)larni xon etib ko'tarib Xorazm hududida ham o'z hukmronligini o'rnatadi. Nodirshoh bosqini natijasda, Buxoro xonligi, Xorazm xonligi va Qo'qon xonni Abdulkarimbiy tamonidan Ashtarhoniylardan tortib olingan O'ratepa, Kattaqo'rg'on, Urgut, Jizzax hududlari Nodirshoh tasaruffidagi mulklarga aylanadi. Nodirshohni vafotidan so'ng esa, bosib olingan hududlar yana mustqailigini tiklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Vohidov. A. Qodirov. Sharqning mashhur sulolalari. Akademik. T.: 2013. B616.
2. B. Eshov. O'zbekiston davlatchiligi va Boshqaruv tarixi. T.: 2012. B426.
3. Мулла Олим Махдум Ҳожию. Тарихи Туркистон/Араб ёзувидан тадбил Ш. Воҳидов ва Р. Ҳолиқова; Сўз боши ва изоҳ муаллифи Ш. Воҳидов. Янги аср авлоди Т.: 2009. Б241.
4. A.Zamonov. F. Subhonov. Buxoro xonligining Ashtarhonoiy hukumdorlari/monografiya. Bayoz. T.: 2021. B136.
5. Худаёрхонзода. Анжуман ут-таворих (Тарих юлдузлари). Fan va Texnologiya T.: 2014. B346.
6. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Янги аср авлоди. Т.: 2010. Б517.

⁵⁹ Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Янги аср авлоди. Т.: 2010. 102б.



O‘ZBEKISTONDA PAXTA ISHI SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI

Xolmirzayeva Oyshaxon

Namangan davlat universiteti Tarix fakulteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 80-yillarida SSSR davlati tomonidan O‘zbekiston SSRga nisbatan qo‘llanilgan “paxta ishi” siyosati natijasida yurtimizda sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, qishloq xo‘jaligi inqirozi va ushbu siyosat natijasida o‘zbek xalqining badnom qilinishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: SSSR, O‘zbekiston SSR, paxta ishi, oq oltin, qatag‘on, korrupsiya, sud majlisi, T.X.Gdlyan, N.V.Ivanov, o‘zbeklar ishi, qishloq xo‘jaligi.

SSSR davlati ikkinchi jahon urushi yakunlangandan so‘ng og‘ir iqtisodiy inqirozni boshdan kechirdi. SSSR “ oq oltin “ hisoblangan paxtani mustamlaka respublikalardan arzon narxlarda sotib olib boshqa mamlakatlarga yuqori narxlarda eksport qilgan. Jahon urushidan keyin yuzaga kelgan og‘ir iqtisodiy inqirozni bartaraf etish maqsadida SSSR davlati ittifoqdosh respublikalarga paxta yetishtirishni oshirish talabini qo‘ygan. Ushbu siyosat barcha ittifoqdosh respublikalarda amalga oshirilgan bo‘lsada, uning oqibatlarini asosan bizning yurtimizda sezilarli edi. 1946-yil 2-fevralda SSSR XKS tomonidan “O‘zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada yuksaltirish rejasi va tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qilindi⁶⁰. Ushbu qaror O‘zbekistonda paxta yakka hokimligini o‘rnatishga sabab bo‘ldi, natijada oziq ovqat yetishtirish uchun mo‘ljallangan yerlarning katta qismi paxta ekin maydonlariga aylantirildi. Yer maydoni ko‘p bo‘lishiga qaramasdan texnika kolxoz va sovxozlar va sovxozlar markaz tomonidan qo‘yilgan talabni bajarolmasdi. Buning asosiy sababi texnik jihatdan qoloqlik va O‘zbekiston paxta yetishtirishga moslashgan o‘lka emasligi edi. Chunki paxta sersuv mahsulot bo‘lib va bizning o‘lkamizda paxta yetishtirishga suv manbai yetarli emas edi. Markaz tomonidan belgilangan paxta tonnasini topshirolmaslik natijasida qo‘shib yozish, korrupsiya avj oldi. Ushbu yuzaga kelgan muammolarni hal qilish maqsadida SSSR tomonidan 1983-yil paxta sanoatidagi su‘iste‘molliklarni aniqlash bo‘yicha

⁶⁰ Xakimov I. Qo‘shib yozish – jinoyat. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. Tashkent. 1989. B. 51.



maxsus tergovchilar guruhi “ Paxta ishi “ sud majlisi komissiyalari tuzildi va ulardan bir nechtasi O‘zbekiston SSRga ham yuborildi va ularga aholining urf-odatlarini, turmush-tarzi yaxshi bilgan sodiq mahaliy rahbarlar biriktirib qo‘yildi. Shunday komissiyalarning asosiylaridan hisoblangan 1983-yil aprelda tuzilgan T.X.Gdlyan va N.V.Ivanov boshchiligidagi tergov guruhi O‘zbekistonga yuborildi⁶¹.

Paxta ishi bo‘yicha 1985-1990-yillarda O‘zbekiston SSRda sovet ittifoqi qatag‘on siyosatining yangi va so‘nggi davrini amalga oshirdi. Ushbu qatag‘on davrida qancha inson hibsga olinganligi haqida aniq ma‘lumot mavjud emas. Ba‘zi manbalarda taxminan 40 000 yaqin kishi hibsga olinganligi haqida ma‘lumot beriladi⁶². Haqiqatdan ham bu davrda poraxo‘rlik, qo‘shib yozishlar avj olgan bo‘lsada, hibsga olinganlarning kopchiligi umuman korrupsiyaga aloqador bo‘lmagan halol mehnati evziga kun kechirayotgan rahbarlar va oddiy dehqonlar edi. Qamoqqa olinganlarga ularning yaqinlariga tahdid qilish, o‘g‘ir jazolarni qo‘llash orqali, tergov rahbarlari tomonidan qo‘yilgan ayblovlarni bo‘yinlariga olishga majbur etilgan.

Paxta ishi deb nomlangan siyosatning asl maqsadi o‘zbek xalqini talon-taroj qilish edi. Gdlyan va Ivanov boshchiligidagi tergov guruhi o‘zbek xalqini asossiz ravishda ayblab, ularning yillar davomida halol mehnatlari bilan topganlarini tortib oldi va ularning nomlarini badnom qildi. Asl vazifasi korrupsiya, qo‘shib yozish kabi jinoyatlarni aniqlash bo‘lgan tergov guruhi, aholini boyliklarini nohaq ayblovlar bilan talash bo‘ldi va eng achinarlisi, ushbu guruh orasida o‘z manfaati yo‘lida xalqiga, vataniga xiyonat qilgan o‘zbeklar ham yo‘q emas edi.

Xulosa qilib aytganda sovet ittifoqi o‘lkamizda olib borgan “paxta ishi” , “o‘zbeklar ishi” siyosati o‘zbek xalqiga ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy-ma‘naviy zarar yetkazdi. Paxta yakkahokimligi o‘lkada oziq ovqat mahsulotlarini yetishtirishni chekladi va xalq orasida oziq-ovqat tanqisligi, qahatchilik muammolarini keltirib chiqardi, shuningdek bugungi kunda global muammoga aylangan orol fojeasini kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Paxta hosildorligini oshirish

⁶¹ Yunusova X.E. XX asrning 80-yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ma‘naviy hayot. Tarix fan Doktor ilmiy darajani olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2009. B. 197-198.

⁶² O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Toshkent. Sharq nashriyoti. 2000. B. 530.



uchun foydalanilgan turli xil o‘g‘itlar aholi salomatligi va tuproq hosildorligiga salbiy ta‘sir o‘tkazdi. Paxta uchun qo‘yilgan talabni bajarish uchun aholining deyarli barcha qatlami, yosh bolalar, katta yoshlilar jalb qilindi va bu yosh avlodning savodsiz bo‘lib yetishishiga xizmat qildi.

Paxta ishi siyosati o‘zbek xalqining fidoiy rahbar xodimlari mehnatkash va zahmatkash oddiy aholining boshiga kulfat bo‘lib keldi. Garchi korrupsiya, qo‘shib yozish, poraxo‘rlik kabi jinoyatlar boshqa ittifoqdosh respublikalarda ham sodir etilgan bo‘lsada, SSSR aynan O‘zbekistonni tanladi va “ paxta ishi “ ni “ o‘zbeklar ishiga aylantirdi⁶³. O‘sha davrda nashr qilingan gazetalarda o‘zbek xalqi haqida yolg‘on ayblovlarni tarqatildi va o‘zbeklarni ochiqchasiga badnom qilindi. Minglab aybsiz yurtdoshlarimiz nohaq o‘ldirildi, nomlari qoralanib, Moskva qamoqxonalari jo‘natildi va ularning nomlari mustaqillik yillaridagina ularning nomlari oqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xakimov I. Qo‘shib yozish – jinoyat. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. Tashkent. 1989. B. 51.
2. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Toshkent. Sharq nashriyoti. 2000. B. 530.
3. I.A. Karimov. Hayot sinovlarida toblangan Qashqadaryo eli. Toshkent. O‘zbekiston. 2001. B. 5
4. Yunusova X.E. XX asrning 80-yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ma‘naviy hayot. Tarix fan Doktor ilmiy darajani olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2009. B. 197-198.
5. Ilyuxin. V. Qabohat yohud... Toshkent, O‘zbekiston 1993. B. 9.
6. Murtazayeva R.H. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Akademiya. 2010.
7. Oblomurodov N. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2011.

⁶³ Ilyuxin. V. Qabohat yohud... Toshkent, O‘zbekiston 1993. B. 9.



О‘ЗBEKISTONDA MILLATLARARO ALOQALAR VA ETNIK JARAYONLAR

Boydedayev Dostonbek Xusniddin o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Tel: 93 190-26-06 e-mail: boydedayevdostonbek7@gmail.com

Аннотация: *Ushbu maqolada ko‘p millatli mamlakat hisoblanadigan O‘zbekistonning uzoq tarixiy o‘tmishi davomida sodir bo‘lgan etnik jarayonlar, millatlararo aloqalar, ko‘p millatli davlatning shakllanishi, chegaradosh mamlakatlar bilan munosabatlardagi o‘ziga xoslik, xalqaro munosabatlar uchun yaratilgan sharoitlar haqida so‘z boradi.*

Калит so‘zlar: *millat, konfessiya, o‘zbek, rus, tojik, qoraqalpoq, etnik jarayon, turkmanlar, chechenlar, mesxeti turklari, qrim tatarlari, ingushlar, bolqorlar, greklar, milliy-madaniy markazlar, Baynalmilal madaniyat markazi.*

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ЭТНИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются этнические процессы, межэтнические отношения, становление многоэтнического государства, своеобразие отношений с сопредельными странами, условия, созданные для международных отношений, имевшие место на протяжении длительного исторического прошлого Узбекистана, обсуждается многонациональная страна.*

Ключевые слова: *национальность, конфессия, узбек, русский, таджик, каракалпак, этнический процесс, туркмены, чеченцы, турки-месхетинцы, крымские татары, ингуши, болгары, греки, национально-культурные центры, Международный культурный центр.*

INTERNATIONAL RELATIONS AND ETHNIC PROCESSES IN UZBEKISTAN

Abstract: *In this article, the ethnic processes, inter-ethnic relations, the formation of a multi-ethnic state, the uniqueness of relations with bordering countries, the conditions created for international relations, which took place during the long historical past of Uzbekistan, which is a multi-ethnic country, are discussed. is talked about.*



Key words: *nationality, confession, Uzbek, Russian, Tajik, Karakalpak, ethnic process, Turkmens, Chechens, Meskheti Turks, Crimean Tatars, Ingush, Bulgarians, Greeks, national-cultural centers, International Cultural Center.*

Kirish: Oʻrta Osiyo oʻlkasi tarixiy nuqtayi nazardan ancha uzoq davrdan buyon yashash uchun qulay sharoitlarga ega ekanligi, aholining gavjumligi hamda xoʻjalikning turfa xil sohalari rivoj topganligi bilan dong taratgan. Bunday imkoniyatlardan kelib chiqqan holda yon atrofidagi turli millat va elatlar bilan u yoki bu darajada aloqa oʻrnatishga intilgan va bunga erishgan ham. Natijada koʻp tomonlama manfaatdorlikka asoslangan xalqaro aloqalarning ilk kurtaklari shakllana boshlagan. Birgina Buyuk Ipak yoʻli ham gapimizga misol boʻladi. Ushbu yoʻnalishning tashkil topishi va gurkirashida Oʻrta Osiyoning xissasi Xitoynikidan kam emas.

Oʻrta Osiyo hududi sovetlar davrida parchalangan, keyinchalik 5 ta respublikaga oʻzgargan boʻlsa-da, bu hudud yagona tarixiy oʻtmish va yagona tarixiy ildizlarga ega. Ana shu tarixiy davrda sodir boʻlgan eng muhim etnik jarayonlar va millatlararo munosabatlarning oʻziga xos jihatlariga ushbu maqolada toʻxtalib oʻtamiz.

Asosiy qism: Millatlararo munosabatlar masalasida gap ketganda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning farmonini yorqin misol qilib olish mumkin. Unda: “Oʻzbekiston Respublikasi oʻzining hududida yashovchi millat va elatlarning tili, urf-odati va anʼanalariga hurmat bilan munosabatda boʻlishni, ularni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini eʼlon qiladi va kafolatlaydi”⁶⁴ –deyilgan.

Shu oʻrinda millatlararo munosabatlarning mohiyatini yoritishdan avval “millat” tushunchasiga toʻxtalib oʻtamiz:

“Millat” tushunchasi eng qadimiy atamalardan biri hisoblanadi. Ushbu atama oʻzbek tiliga arab tilidan kirib kelgan. Arab tilida “millat” soʻzi oʻtmish davrlarda “islom dinidagi xalq” maʼnosini bildirgan⁶⁵. Millatlarni son jihatidan shartli ravishda 5 guruhga boʻlish mumkin:

1. Buyuk millatlar- aholisi 100 milliondan ortiq;

⁶⁴ <https://lex.uz/docs/-4597662>

⁶⁵ Samadov A. Milliy gʻoya va millatlararo munosabatlar. –S.: SamDU, 2019. –B. 33.



2. Katta millatlar- aholisi 50 milliondan 100 milliongacha;
3. Yirik millatlar- aholisi 10 milliondan 50 milliongacha;
4. O‘rtamiyona millatlar- aholisi 1 milliondan 10 milliongacha;
5. Kichik millatlar- aholisi bir necha 10 mingdan 1 milliongacha.

Markaziy Osiyo xalqlaridan o‘zbek va qozoq millatlari yirik millatlar qatoriga kiradi. Qirg‘iz, turkman, tojiklar o‘rtamiyona millatlarga, qoraqalpoqlar esa kichik millatlar turkumiga kiradi.

Ana endi O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududidagi millatlararo munosabatlarning negizi hisoblanadigan etnik jarayonlarning shakllanish tarixiga to‘xtalib o‘tamiz.

Jahondagi boshqa xalqlar kabi o‘zbek xalqining shakllanishi ham uzoq yillar davomida sodir bo‘lgan etnik jarayonlarning mahsulidir.

O‘zbeklar alohida etnik birlik (elat) bo‘lib, Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g‘arbiy mintaqalarida shakllangan. O‘zbek xalqining asosini hozirgi O‘zbekiston hududida qadimdan o‘troq yashab, sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelgan mahalliy sug‘diylar, baqtriylar, xorazmiylar, farg‘onaliklar, shoshliklar, yarim chorvador qang‘lar, ko‘chmanchi sak-massaget kabi etnik guruhlar tashkil etgan⁶⁶.

Bundan tashqari Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Volga, Ural daryosi bo‘ylaridan turli davrlarda O‘rta Osiyoga kirib kelgan aholi ham etnogenez jarayoniga katta ta’sir o‘tkazgan.

Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida yuqoridagi qabila va elatlarning etnik aralashuvi natijasida o‘zbek xalqiga xos antropologik qiyofa shakllandi.

Qang‘ davlati davrida o‘ziga xos madaniyat- Qovunchi madaniyati shakllandi. Aynan shu davrda O‘rta Osiyoning vodiy va vohalarida hozirgi o‘zbek va voha tojiklariga xos antropologik qiyofa to‘liq shakllandi.

Bundan keyingi O‘rta Osiyo hududidagi etnik jarayonlarga kushonlar, xioniylar, kidariylar, eftallar va turk xoqonligi ta’sir o‘tkazdi.

Turk xoqonligi davrida turkiy qabilalar o‘rtasidagi faol aloqalar natijasida o‘zaro uyg‘unlashib, bir-birini to‘ldirgan turkiy qatlam madaniy yutuqlari namoyon bo‘ldi. VII asrdan

⁶⁶ Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha). –T.: Sharq, 2017. –B. 88-89.



o‘lkamiz “Turkiston” deb atala boshlandi. Shu tariqa O‘rta Osiyo o‘lkasida madaniyatning asosini turkiy etnos tashkil etgan qatlam shakllandi va rivoj topdi.

Bu hududdagi millatlararo aloqalar va etnik aralashuv jarayonlari keyingi davrlarda ham to‘xtamadi va qaysidir ma’noda hozirgi kunda ham davom etmoqda. Masalan Chor Rossiyasi istilosidan keyin ham o‘lkamizdagi shaharlar etnik jihatdan xilma-xil bo‘lgan. Agar Marg‘ilon, Andijon, Qo‘qon, Namangan shaharlarida o‘zbeklar 97,6%, 96,5%, 92,9%, 85,2% ni tashkil qilgan bo‘lsa, Yangi Marg‘ilon (hozirgi Farg‘ona) aholisining tarkibi quyidagicha edi: ruslar- 42,9%, o‘zbeklar- 29,2%, ukrainlar- 8,1%, polyaklar- 8,1%, yahudiylar, asosan Buxoro yahudiylari- 2%, nemislar- 1,7%, tatarlar- 1,6%, qirg‘izlar- 0,9%, armanlar- 0,5%, xitoylar- 0,3%, uyg‘urlar- 0,2% va hokazo edi⁶⁷.

Birgina Toshkent shahri aholisi 43 tilni o‘z ona tili deb hisoblagan. Bu ham o‘lkamiz aholisi azaldan ko‘p millatli bo‘lganligidan dalolat beradi.

O‘z navbatida, o‘zbek xalqi ko‘p millatli hududlarda istiqomat qilishidan kelib chiqib, bag‘rikenglik, insonparvarlik, ahillik kabi xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan. 2-Jahon urushi yillarida ham bu fidokorlikning yorqin namunalariga guvoh bo‘lindi. Bu davrda O‘zbekistonga 1 million nafardan ortiq kishi, jumladan, 200 000 bola evakuatsiya qilindi. Turli millatdan bo‘lgan bolalarni o‘zbeklar o‘z farzandiday ardoqlab, ularni voyaga yetkazdi. Toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudovlar oilasi 15 bolani, kattaqo‘rg‘onlik urush nogironi Hamid Samadov 13 bolani, samarqandlik kolxozchi ayol Fotima Qosimova 10 bolani o‘z qaramog‘iga olgan⁶⁸.

1943-1944-yillarda aholining ayrim qismlari ham bizning hududimizga ko‘chirildi. Qrimdan 151 604 nafar qrim tatarlari, Gruziyadan 110 000 nafar mesxeti turklari, Shimoliy Kavkazdan 175 000 nafar chechenlar, 20 000 nafardan ortiq ingushlar, 4500 nafar bolqor va greklar yurtimizga ko‘chirildi.

Mustaqillik davridagi holatni ko‘radigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng, aholimiz ko‘p millatli ekanligidan kelib chiqib,

⁶⁷ Murtazayeva R. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. –T.: Go To Print, 2020. –B. 126-127.

⁶⁸ Rajabov Q., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). –T.: G‘afur G‘ulom, 2017. –B. 94-95.



millatlararo totuvlik g‘oyasi dadil ilgari surildi. Bugun O‘zbekistonda 138 ta milliy-madaniy markazlar millatlararo totuvlik g‘oyasini hayotga tatbiq etmoqda.

Ruslarning “Maslennitsa”, tatarlarning “Sabanto‘y”, uyg‘urlarning “Sayil” bayramlari, xitoylarning “Chunuze” yangi yili, koreyslarning “Soller” va “Ovol-tano” bayramlari nishonlanmoqda. Har yili respublikamiz miqyosida “Biz yagona oila farzandlarimiz”, “Vatan yagonadir, Vatan bittadir”, O‘zbekiston- umumiy uyimiz” shiori ostida festivallar o‘tkazilmoqda⁶⁹.

Hududimizda o‘z madaniyati va o‘z an‘analariga ega bo‘lgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ular ham boshqa fuqarolar bilan bir xil huquqlarga ega.

Hozirgi kunda O‘zbekiston aholisining 80% ini o‘zbek, 4,9% ini tojik, 3,8% ini rus, 3,6% ini qozoq va 7,7% ini boshqa millat vakillari tashkil etmoqda.

Yurtimizdagi turli millat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritadi. Dastlabki milliy-madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989-yilda tashkil etilgan. Buning natijasi o‘laroq 1992-yilda 10 tani tashkil etgan milliy-madaniy markazlar hozirga kelib 138 tani tashkil etmoqda.

Bundan tashqari 1992-yil Respublika Baynalmilal madaniyat markazi yuqorida e‘tirof etilgan milliy-madaniy markazlarning faoliyatini muvofiqlashtirib, ularga tashkiliy va uslubiy yordam ko‘rsatadi.

Bugungi kunda yurtimizda Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Hozirda qo‘mita mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan jami 151 ta milliy-madaniy markaz, 38 ta do‘stlik jamiyati va xorijdagi vatandoshlarning 38 ta jamiyati bilan hamkorlik qilmoqda. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari har yili ushbu qo‘mitaning faoliyati hamda olib borilgan ishlar natijasida erishilgan yutuqlar yuzasidan axborot berib kelmoqda⁷⁰.

⁶⁹ Jo‘rayev N., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri). –T.: G‘afur G‘ulom, 2018. –B. 61-62.

⁷⁰ <https://yuz.uz/uz/news/millatlararo-munosabatlar-mustahkamlanmoqda>



Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bizning o‘lkamizda azaldan bir nechta qudratli davlatlar hukm surgani uchun ham turfa millat vakillari bu yerda yashab kelgan. Natijada xalqimiz tushunib yetganidek, bu o‘lkaning tinch rivojlanishining yagona yo‘li barcha millat vakillari bilan bag‘rikenglik tamoyillari asosida kelishib yashashdir. Buni to‘g‘ri tushungan hukumatimizning oqil siyosati natijasida ushbu masala to‘liq ijobiy ruhda hal etildi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Jo‘rayev N., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri). –T.: G‘afur G‘ulom, 2018. – 144 b.
2. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha). –T.: Sharq, 2017. – 160 b.
3. Murtazayeva R. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. –T.: Go To Print, 2020. – 344 b.
4. Rajabov Q., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). –T.: G‘afur G‘ulom, 2017. – 144 b.
5. Samadov A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. –S.: SamDU, 2019. – 304 b.
6. <https://lex.uz/docs/-4597662>
7. <https://yuz.uz/uz/news/millatlaro-munosabatlar-mustahkamlanmoqda>



AXSIKENT-O‘TMISH, BUGUN VA KALAJAK TADQIQOTCHILARI NAZARIDA....

Akhunova Muborakhon Maxmudjon qizi

Namangan davlat universiteti Arxeologiya mutaxassisligi magistranti

Telefon: +998975151373

Ahunovva1993@gmail.com

Anontatsiya: *Maqolada ilmiy asarlar, izlanishlar natijasidagi manbalar asosida Axsikent, Aкси, Eski Aкси haqidagi tarixiy ob’ektlarga doir muhim ma’lumotlar va bu hududda yashab ijod qilgan allomalar haqidagi ilmiy izlanishlarni bayon etildi. Bu mavzuda yana keyingi maqolalarda ham ko‘proq manbalar, tadqiqotlar asosida yoritib berishni maqsad qildik.*

Announcement: *The article based on scientific works, research results. Important information about the historical objects of Akhsikent, Akhsi, Old Akhsi and scientific researches about scholars who lived and created in this area were described. We aim to cover more sources and studies on this topic in the next articles.*

Объявление: *Статья основана на научных работах, исследований. Описаны важные сведения об исторических объектах Ахсакента, Акси, Старого Акси и научные исследования об ученых, живших и творивших в этой местности. Мы стремимся охватить больше источников и исследований по этой теме в следующих статьях.*

Kalit so‘zlar: *“Zul Fazoil”, “Maliki shuaro”, “Ajoyib at-taboqot”, “Yuan”, “Dayuuan”, “Boburnoma”, “Yangi Aкси”, “temuriylar davri Axsikenti” Yu.G.Chulanov.*

Key words: *“Zul Fazoil”, “Maliki Shuaro”, “Amazing at-taboqot”, “Yuan”, “Dayuuan”, “Boburnoma”, “Yangi Akhsi”, “Akhsikenti of the Timurid era”, Yu.G.Chulanov.*

Ключевые слова: *“Зул Фазоил”, “Малики Шуаро”, “Удивительный ат-табокот”, “Юань”, “Дайюань”, “Бобурнома”, “Янги Акси” “Ахсикенти эпохи Тимуридов”, Ю.Г. Чуланов.*

Qadim Aкси sinoatlari, bu yerda ko‘hna tarix bilan uchrashasiz. Aкси haqida tarixiy kitoblarda ko‘plab yozilgan. O‘rta Osiyo tarixiga bag‘ishlangan qator ilmiy manbalarda moziy



Axsikent nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki butun Turkiston, Jahon tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan shaharlardan ekani xususida ham ma‘lumotlar berilgan⁷¹

Axsikent yurtimizda yetishib chiqqan ko‘plab allomalarning kindik qoni to‘kilgan zamindir. Xususan Abul Qosim Mahmud ibn Muhammad as-So‘fiy Axsikatiy, “Zul Fazoil” (Fazilatlar sohibi) nomi bilan shuhrat qozongan Abu Rashod Axsikatiy, “Zul Manoqib” (“Maqtovgga sazovor xislatlar egasi”) laqabini olgan Abul Vafo Muhammad ibn al-Qosim al-Axsikatiy, “Maliki shuaro” (“Shoirlar podshosi”) va “Amiri shuaro” (“Shoirlar amiri”) darajasiga erishgan Abdul Fazl Muhammad Tohir Asiriddin Axsikatiy, Tojuddin Aby Bakr bin Ahmad al-Axsikatiy al-Xo‘jandiy, Sayfiddin Axsikatiy, Mavlono Poyanda Oxun Axsikatiy, Muhammad Yusuf ibn Imomuddin Axsikatiy, Ibrohim ibn Yusuf bin Imomuddin Axsikatiylar diniy va dunyoviy ilmlar sohasida shuhrat qozonganlar.

Tariximizning turli davrlarida poytaxt vazifasini o‘tagan Axsikentning eng ko‘hna davriga doir ma‘lulotlarni asosan bizgacha saqlanib qolgan Xitoy manbalaridan, shuningdek, bu yerda o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar natijalari asosidagi xulosalardan olamiz.

Manzilgohning qazib o‘rgangan qadimshunos olimlar moddiy ashyoviy dalillar va eng ko‘hna xitoy manbalariga tayangan holda shaharning paydo bo‘lishini tahminan miloddan avvalgi III asrlarga to‘g‘ri kelishi ma‘lumotini berganlar. “Ajoyib at-taboqot” asarida ko‘rsatilishicha, shahar 1030 hijriy sanada (milodiy 1621-yilga to‘g‘ri keladi) zilzila natijasida butunlay vayronaga aylangan.⁷²

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti katta ilmiy hodimi, tarix fanlari doktori A.Anorboyev Axsikentda uzoq yillar davomida ilmiy tadqiqot va qazishma ishlarini olib boorish natijasida ko‘plab ilmiy maqola va risolalar chop etdi.Olim Eski Axi manzilgohi qadimgi Xitoy tarixiy manbalarida qanday yuritilganligiga aniqlik kiritdi.Ya’ni, xitoyliklar Farg‘onani Dayyuan (Davan), poytaxtini esa, Yuan, deb ataganliklarini isbotladi. “Yuan” so‘zi xitoychada atrof chekkaso tepalik yoki tog‘lar bilan o‘ralgan makonga nisbatan ishlatilganligini, “day” so‘zi esa, katta, ulkan ma‘nolarni berishini mutaxassis olimlar fikrlariga tayangan holda eslatib o‘tdi. So‘g‘d tilida “par” so‘zi devor yoki

⁷¹Анарбаев А. АХСИКЕНТ-СТОЛИЦА ДРЕВНЕЙ ФЕРГАНЫ.-ТАНКЕНТ: Тафаккур,2013.-С.29.

⁷² .Ahmad bin Yaxya ibn Djabir al-Balazuri. Zavoevaniye Xorasana- Dushanbe: Donish, 1987.-120s.



o‘rab olingan ma’nosini, “kan” so‘zi esa odamlar to‘plandigan joy ma’nolarini mos tushishini ko‘rsatib berdi. Shu bois xitoy manbalarida Dayyuan (Davan), deb atalga davlat Farg‘ona bo‘lib, uning poytaxti Yuan esa qadimgi Axsikent ekanligini ilmiy jihatdan asosladi. “Dayyuan” so‘zi esa “Farg‘ona” so‘zining xitoy tilidagi tarjimasiga aynan mos tushadi. Chunki, arab manbalarda ham Farg‘ona nomi bir paytning o‘zida davlat vas hu davlat poytaxtining nomi sifatida berilgan.⁷³

Qolaversa, ko‘plab mahalliy va arab manbalarida Axsikent Farg‘ona vodiysining qadimgi poytaxti ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.⁷⁴

Aytish joizki, mo‘g‘illar tomonidan Farg‘ona vodiysi qanday bosib olinganligi haqidagi ma’lumotlar manbalarda kam yoritilgan. Shunga qaramasdan, so‘nggi paytlarda shaharlar tarixiga oid chop etilgan deyarli barcha asarlarda vodiy shaharlar ham yurtimizning boshqa hududlarida bo‘lgani kabi, 1220-1221 yillarda mo‘g‘illar istelosi davrida butunlay vayron etilgani ta’kidlanib yozildi.

Shuningdek, aksariyat olimlar Axsikent haqida ham shahar mo‘g‘illar davrida vayron etilgach, temuriy Umarshayx mirzo davriga kelib aholi undan 5-6 kilometr g‘arbroqda yangi Aysi shahriga solganligini qayd etdilar. Temuriylar davri Axsikenti yoki Umarshayx mirzoning poytaxti Aysi bu – hozirgi Aysi qishlog‘i o‘rnida bo‘lganligini e’tirof etishdi. Xo‘sh, buning uchun tarixiy manbaviy asos bormi? Umuman, bu xulosani olimlarimiz qayerdan olmoqdalar? Biz o‘rgangan ma’lumotlarga ko‘ra, Aysi, Axsikat va Axsikent bu bitta makon⁷⁵. XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib Axsikent tadqiqoti bilan shug‘ullangan yevropalik sharqshunos va arxeolog olimlar Axsikent yoki Aysi, deganda faqatgina bitta ob’ektni nazarda tutishgan. U ham bo‘lsa, bugungi Shahand-Jamasho‘y yo‘li yoqasida, Sirdaryoning o‘ng qirg‘ogida joylashgan Eski Aysi arxeologik yodgorligidir.

XX asrning 60-yillarigacha bo‘lgan tarixiy tadqiqotlar tahliliga nazar solinganda, Aysi qishlog‘i o‘rnida temuriylar shahar barpo etganligi masalasida o‘rtaga tashlangan biron-bir asar uchramadi.

⁷³ Анорбоев А. Дарё соҳилидаги давлат // Фан ва Турмуш, 1988.-№8

⁷⁴ Ahmad bin Yaxya ibn Djabir al-Balazuri. Zavoevaniye Xorasana- Dushanbe: Donish, 1987.-120s.

⁷⁵ Пантусов Н.Н. Фергана, по “Запискамъ” султана Бабура. -С.-Петербургъ 1884.-С.46.



Axsikentda 1960-yilning 14-mayidan 20-iyunigacha ish olib borgan Uzbekistan Respublikasi Fanlar akademiyasining maxsus arxeologlar otryadining ilmiy rahbari professor Ya. G‘ulomov bo‘lib, a‘zolari I.Ahrorov, S.Rahimovlar edi. Ushbu ekspeditsiya faoliyatining natijalari to‘g‘risidagi xulosalarini I.Ahrorov “O‘zbekiston ijtimoiy fanlar” jurnali maqolasida bayon etdi. Unga ko‘ra, Eski Axsi yodgorligi XVII asrdagi zilzila oqibatida vayronaga aylangan. Shuningdek, muallif Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida shahrining o‘rta asr rabot qismi esa XV asrdan e‘tiboran undan 2 kilometr sharqda joylashgan Shahand qishlog‘iga ko‘chganligini, bu yerda XVI asr va XVII asrning birinchi choragiga oid sopol buyumlari topilganligi haqidagi ma‘lumotlarni bergan edi. Ayni bu fikrni Boburning “Mahalloti qo‘rg‘onidin bir shar‘iy yiroqroq tushubtur” iborasi tasdiqlashini ham keltirib o‘tgan edi⁷⁶.

Ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Yangi Axsi” yoki “temuriylar davri Axsikenti” haqidagi fikrlar ilk bor XX asrning 60-yillarida Namangan o‘lkashunoslik muzeyi xodimi Yu.G.Chulanov tomonidan “Советская археология” jurnalidagi “Городище Ахсикет” maqolasida bildirilgan. Yu.G.Chulanov o‘z fikrini Eski Axsi yodgorligidagi qazishmalardagi topilmalar XIII asr boshlarigacha bo‘lgan davrgagina taalluqli ekanligi, XV-XVII asrlarga oid ashyolar bu yerdan davrgagina topilmaganligi bilan isbotlamoqchi bo‘lgan. Shu bilan birga muallif yozma manbalarda Axsikent shahri keying davrlarda ham mavjud bo‘lganligi qayd etilgan bo‘lsada, biroq, shu davrga doir ashyoviy dalillar Eski Axsi manzilgohidan topilmaganligi uchun Axsi qo‘rg‘oni qayerda bo‘lganligini aniqlash maqsadida Sirdaroning o‘ng qirg‘ogi bo‘ylab g‘arb sari arxeologik tekshiruvlar o‘tkazganligini yozgan edi. Buning natijasida, Eski Axsi qo‘rg‘onidan 5-6 kilometr g‘arbroqda hozirgi Axsi qishlog‘i o‘rnida Umarshayx mirzo davrida poytaxt bo‘lgan Axsi qo‘rg‘oni joylashgan edi, degan xulosaga kelgan. Eski Axsini u Axsikent I, yangi Axsini esa Axsikent II, deb nomlagan edi⁷⁷.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Axsikent tarixiy yodgorligini o‘rganilmagan sir-sinoatlari, tarixiy qatlamlari hali katta qismi yer ostida saqlanib turibdi, bu muhim ob‘ektlarni

⁷⁶ Ахроров И. Археологические исследования городища Ахсикент в 1960 году // Общественные науки в Узбекистанею-1962.-N8.-С.54,58,59.

⁷⁷ Tohirjon Qozoqov Axsi – Farg‘ona shaharlarning onasi-Toshkent: 2018



o‘rganish, ilmiy izlanishlar qilish esa yetishib kelayotgan yosh arxeolog tarixchi tadqiqotchilar uchun muhim vazifadir. Namangan davlat universitetida Arxeologiya fakultetining bakalavr, magistratura tadqiqotchilarini yetkazib chiqarish esa, O‘zbekiston va vohadagi tarixiy makonlarni mukammalroq va tezroq asl mohiyatini ochib berish uchun katta ma’suliyatlar yuklaydi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti katta ilmiy hodimi, tarix fanlar doktori A.Anorboyev va ularning izdoshlar bu tarixiy ob’ektlarni o‘rganib, vatan tarixini jonlantiruvchi ma’lumotlar berish, tiklash ishlari bugungi kunda katta sayi-harakatlar bilan olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Анарбаев А. Ахсикент-столица древней Ферганы.-Танкент: Тафаккур,2013.- С.29.
2. 2 .Ahmad bin Yaxya ibn Djabir al-Balazuri. Zavoevaniye Xorasana- Dushanbe: Donish, 1987.-120s
3. Анорбоев А.Дарё соҳилидаги давлат// Фан ва Турмуш, 1988.-N8
4. Ahmad bin Yaxya ibn Djabir al-Balazuri. Zavoevaniye Xorasana- Dushanbe: Donish, 1987.-120s.
5. Пантусов Н.Н. Фергана,по “Запискамъ”султана Бабура. -С.-Петербургъ1884.- С.46
6. Ахроров И.Археологические исследования городища Ахсикент в 1960 году// Общественные науки в Узбекистанею-1962.-N8.-С.54,58,59.
7. Tohirjon Qozoqov Ahsi – Farg‘ona shaharlarning onasi-Toshkent: 2018



ALISHER NAVOIYNING "MAHBUB UL-QULUB" ASARIDA QO'LLANILGAN HARBIY SOHA BILAN ALOQADOR TERMINLAR

Adilova Shohista Tohirovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

(94-197-38-38) adilovashohista80@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida qo'llanilgan harbiy soha bilan aloqador terminlar tadqiq etiladi va misollar orqali izohlanadi. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi harbiy soha bilan aloqador bo'lgan terminlar haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda bu so'zlarning nechog'lik ahamiyatga ega ekanligi va qanchalik darajada to'g'ri qo'llanilganligi yuzasidan misollar asosida tahliliy materiallar bilan izohlanadi*

Аннотация: *В статье исследуются и поясняются на примерах термины, относящиеся к военной сфере, используемые в произведении Алишера Навои «Махбуб уль-Кулуб». В настоящее время значение этих слов и правильное их употребление поясняются аналитическими материалами на примерах.*

Annotation: *In the article, the terms related to the military field used in Alisher Navoi's work "Mahbub ul-Qulub" are researched and explained through examples. Currently, the importance of these words and their correct use are explained with analytical materials based on examples.*

Kalit so'zlar: *cherik, navkar, sipohiy, yasovul*

Ключевые слова: *черик, навкар, сипохи, ясовул*

Key words: *cherik, navkar, sipohi, yasovul*

O'zbek xalqining temuriylar davridagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganishda ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy ijodi muhim o'rin egallaydi. Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida ajdodlarimizning asrlar davomida shakllangan axloqiy qadriyatlari, urf-odatlarini, ma'naviy dunyoqarashi o'z aksini topgan. "Mahbub ul-qulub" asarida muallif yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, xalqning turmush tarzi o'sha davr o'zbek tiliga xos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy leksika vositasida tasvirlab berilgan. Navoiyning mazkur asarining o'ziga xos



tarzda ifoda uslubiga egaligi, mavzu ko‘lamining xilma-xilligi o‘zbek tili tarixining adib yashagan davrdagi holati to‘g‘risida muayyan ma‘lumotlar beradi. Asarning dastlabki fasllarida davlat boshqaruvi hamda harbiy sohaga tegishli bo‘lgan leksikalarning xususiyatlari yoritib berilgan. “Mahbub ul-qulub” asarining sakkizinchi fasli “Yasovul guruhi zikrida” hamda to‘qqizinchi fasli “Yasog‘liq va qora cherik zikrida” deb nomlangan. Asarda qo‘llanilgan Cherik (sanskritcha ksatrika – qo‘shin, lashkar) – 1) Turk xoqonligi (6-8-asrlar), Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Chingiziylar, Temuriylar, Shayboniylar, Xiva va Buxoro xonliklarida harbiy yurish vaqtida tuman, viloyat, o‘lka va uluslardan oliy hukmdor tomonidan chiqarilgan farmonga muvofiq yig‘iladigan muntazam qo‘shin. Cherik, asosan, otliq, qisman piyoda qismlardan tashkil topgan. Cherikni belgilangan joy (miod yeri) ga to‘plash vazifasi oliy bosh qo‘mondon adyutanti – tavochi zimmasiga yuklatilgan. Cherik o‘nlik, yuzlik, minglik va tumanlarga taqsimlangan va ularga o‘nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegilar sardorlik qilgan. Buxoro xonligida nomuntazam qo‘shin qora cherik deb nomlangan Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy bu faslni bunday nomlashda tarixiy a‘anaga muvofiq qora cherik deb nomlagan. Quyidagi parchada nomuntazam qo‘shinning faoliyati ochiq-oydin tavsiflangan: Yasog‘liq degan qora cherik, ya’juj va ma’juj xaylig‘a sherik. Emgakin alarg‘a orom yo‘q, yasoq tortardin bir nafas kom yo‘q. Ishlari talay olg‘onni talamoq, yot yurtda chugurtkadek sabza va yafrog‘ni yalamoq. Insonliq bila alar orasida muboyanat, musulmonliq bila alar o‘rtasida munozaat. Fahm-u idrokdin alar zoti oriy, aql-u insofsiz bizzot bori. Qayong‘akim yuzlandilar, alarg‘a yonmoq yo‘q, kecha va kunduz tag‘oful uyqusidin uyg‘onmoq yo‘q. Isig‘ va sovuq tanlariga tafovut qilmay, ochlig‘ va yalang‘ochliq zararini jismlari bilmay. Odamiysizliqda maxluqotdin mumtoz, hayvonliqlari ko‘p-u mardumliqlari oz.

Bu parchaning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi mazmuni quyidagicha: yasog‘liq degan qaro cherik, yollanma askar qo‘shini, ya’juj va ma’juj to‘dasiga, to‘piga sherik. Qiyinchilik chekmakdan alarda tinim yo‘q, yasoq tortardan, jazoga tortardan bir nafas dam olish yo‘q. Ishlari talash, kuchi yetganini talamoq, yot yurtda chigirtkaday ko‘kargan ko‘chatni, yaproqni yalamoq. Insonlik bilan ular orasidagi teskarilik, musulmonliq bilan ular o‘rtasida doimiy janjal, nizo, tortishuv. Fahmu idrokidan alar zoti tozalangan, bo‘sh, xoli, oriy, aql-u insofsizdir, barcha zoti bori. Qayongakim yuzlandilar, qayoqqaki qarab yurdilar, alarda



qaytmoq, qayrilmoq yo‘q, kecha va kunduz bilib bilmaslikka olish uyqusidan uyg‘onmoq yo‘q. Issiq va sovuq tanlariga tavofut, ta’sir qilmay va ochlik-yalang‘ochlik zararini jismlari bilmay. Odamsizliqda maxluqotdan mumtoz – kami yo‘q – ziyod, hayvonliqlari ko‘pu mardumliqlari, odamgarchiliklari oz. Asarda qo‘llanilgan yasoq so‘zi ham aslida tarixiylik bo‘yog‘iga ega. Yasoq qonunlar majmui, jazo ma’nolarini ifodalaydi .

Navkar – Navkarki, boquvchi, tarbiyachi, podshohidan hurmat, izzat, e’tibor ko‘rgay, bek va egasidan, xizmat ko‘rsatadigan xo‘jayinidan tarbiyat va mehribonchilik, marhamat, yordam, iltifot, bag‘ish- lash ko‘rgay, unga javoban erlik va insoniyat uldurkim, oldida qulluq va xizmatkorlik, balki birgalik va sadoqatli bo‘lg‘ay, jonni ayamovchilik qilg‘ay va tilagaykim unga jon fido etgay to shavkat-u huquqin ado etgay. Navkar nukar (mo‘g‘ulcha noxor – do‘st, o‘rtoq) – 1) mo‘g‘ul xonlari, no‘yon huzurida xizmat qiluvchi oliy tabaqali yigitlar. Navkarlar qurollangan erkin kishilar bo‘lib, no‘yonlarga o‘z ixtiyorlari bilan xizmat qilishgan va ularning qaramog‘ida bo‘lishgan. Urush paytida navkar, avvalambor, jangchi, tinchlik paytida esa qo‘riqchi va “uy kishisi”, xonadonga yaqin kishi bo‘lgan. Navkarlar xizmatlari evaziga dastavval uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak va qurol-yarog‘, keyinchalik esa harbiy o‘ljaning bir qismi, in‘om etilgan yer mulki va qarollar bilan taqdirlanganlar, bu esa ularni yirik zodagonlarning vassallariga aylanishlariga imkon bergan. Xizmat pillapoyasida o‘z iste’dodini namoyish etgan ko‘pgina navkarlar keyinchalik turli harbiy bo‘linma va qismlarga qo‘mondon bo‘lganlar; Asarda Alisher Navoiy navkar atamasini “xizmatkor”, “askar”, “qo‘shin” ma’nolarida qo‘llagan.

Sipohiy (forscha) – jangchi, askar.

Sipohiy molin ul xoyli tabohi,

Tun-u kun mufti xohi-noxohi. [Mahbub ul-qulub, 17-18];

Yasovul, yasavul - o‘rta asrda turkiy va mog‘ul xonliklaridagi saroy mansabi. Dastlab, yasa ko‘rsatmalariga asoslangan farmonlarni ijro etuvchi mansabdor shaxs. Yasovulki bir mazlum ishi keyincha borg‘ay va ul mazlumni qutqorg‘ay. Agar muzd tilamagi maqdur din ortuqroqdur, ul zoling‘a ulug‘roq o‘rtoqdur (8-bet).

Alisher Navoiyning ”Mahbub ul-qulub” asarida qo‘llanilgan harbiy sohaga oid leksikalar asar tilida salmoqli o‘rin egallaydi. Shu bois Alisher Navoiyning “Mahbub ul-



qulub” asarida qo‘llanilgan harbiy sohani bildiruvchi so‘zlarni o‘rganish tilimiz tarixining ma’lum davrlardagi holati to‘g‘risida muayyan xulosalarga kelishimizga imkon berishi, tilimiz tarixini o‘rganish sohasini yangi ma’lumotlar bilan boyitishi shubhasizdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 2016
2. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984
3. Абдулхайров М. Навоий асарларида сўз ва иборалар. – Тошкент: Tafakkur bo‘stoni, 2009
4. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982, 168 б.
5. Абдушукуров Б. Эски туркий адабий тил лексикаси. – Тошкент: Tafakkur bo‘stoni, 2015
6. А.Навоий. Махбуб ул-қулуб. Муҳокамат ул-луғатайн: асарни ўгирувчи Баходир Қобул. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2021,17-18-бет.
7. Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси (Ўқув-услубий қўлланма). – Тошкент: Тошкент давлат педагогика университети, 2002
8. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983
9. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985
10. Гафурова Л.Х. Бытовая лексика современного узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1991
11. Дадабоев Ҳ. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Нодирабегим, 2020
12. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи (XIV аср иккинчи ярми – XX аср боши). – Тошкент: Фан, 2007
13. Даниёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972



14. Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, 2000
15. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010
16. Миртожиев М. Туб туркий сўзлар тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2017
17. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002
18. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Universitet, 2006
19. Рустамов А Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979
20. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Fan va texnologiya, 2010
21. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974, 128 б.
22. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992
23. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982
24. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995
25. Усмонова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика. – Тошкент: Фан, 2010,
26. Фозилов Э.И. Қадимги обидалар ва Алишер Навоий. – Тошкент: Фан, 1969,



SUYUNCHIXON VA UNING VORISLARI TAQDIRI

Erkinjonov Elomon

Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Anastotsiya: *Ushbu maqolada Abulxayrixonni Temuriy malikka Robiya sultonni o‘g‘li, Ko‘chkunchixonni ukasi Suyunchixon va unning avlodlari haqida ma‘lumot beradi. Bundan tashqari maqolada Baroqxonni siyosiy faoliyati haqida ham ma‘lumot berilgan, shuningdek Suyunchixonni avlodlarini ayanchli taqdiri haqida ham ma‘lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Suunchixon, Keldimuhammad, Baroqxon, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Abdullaxon, Darvishxon, Bobo sulton, Abdulg‘g‘afor sulton, Do‘st Muhammad sulton.*

Suyunchixon yohud Sevinchixon Abulxayrixonning to‘qqizinchi o‘g‘li bo‘lib, onasi Mirzo Ulug‘bekning qizi Robiya Sulton begim edi. Tug‘ushgan akasi Ko‘chkunchixon hisoblanadi. Bundan tashqari uni tug‘ushgan Oqburun Sulton ismli ukasi ham bo‘lgan.⁷⁸ Suyunchixon milodiy 1454-1456-yillar orasida tavallud topgan. Otasi Abulxayrixon vafotidan keyin o‘zaro kurashlar natijasida sargardonlikni boshidan o‘tkazadi. Shayboniynonni davlat tuzish davrida u ham unga yordam beradi. Shaybon nasli aniqrog‘i Abulxayriylar (Shayboniylar) sulolasi tashkil topganidan so‘ng unga Toshkent mulk qilib beriladi, 1509-yilda esa Andijon hokimligiga tayinlandi. Eron qizilboshlari Movarounnahrardan quvib chiqarilganidan so‘ng, Jonibek Sultonga mulklarni qayta bo‘lish ruhsati beriladi. U Toshkent va Turkistonni Suyunchixon va uning vorislariga inom etish kerakligini aytadi. Keyinchalik, Suyunchixon avlodlari qo‘l ostida Farg‘ona vodiysi ham jamlanadi.

Suyunchixon 1511-yil Ko‘chkunchixon taxtga chiqach unga qolg‘a (valiahd) etib belgilanadi. Xususan, Shayboniylar tarixini yoritgan XofiznTanish Buxoriy o‘zining “Abdullanoma” asarida bu haqida quydagicha to‘xtalib o‘tadi: ”Ko‘chkunchixon yosh jihatdan hamada katta bo‘lganligidan, Uni xon (qilib) ko‘tardilar va qolg‘alik ya‘ni valiaxdlik

⁷⁸ E. Erkinjonov. A. Xakimjonov. S.Ubaydullayev. Ko‘chkunchi Sulton avlodlaribayoni. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКА. Выпуск №37 (том4)апрель 2023.Б 122.



Suyunchixonga tegdi”⁷⁹. Afsuski, Suyunchixon 1525-yil Ko‘chkunchixonidan avval vafot etadi. Undan ikki o‘g‘il Keldi Muhammad Sulton va Navro‘z Ahmad Baroqxon ismli o‘g‘illar qoladi. Ularning o‘zlari va vorislari Toshkent va Farg‘ona vodiysida Abdullaxon hujumiga qadar hukumdorlik qilishdi.⁸⁰

Suyunchixo‘janing katta o‘g‘li Keldimuhammad bo‘lib u Toshkent, Turkiston, Andijon va Axxi hududlarini 1525-yildan yani otasi vafotidan so‘ng amirlar maslahati birla boshqaradi. U rasman 1532-yildan o‘zi mustaqil ravishda mamlakatni idora etadi. Manbalarda u taxtni 1540-yilgacha boshqarganligi haqida ham ma‘lumotlar bor. Keldimuhammad Sultondan bir o‘gil bo‘lib uni ismi Xasan Sulton bo‘lgan, uni dastlab amakisi Baroqxon o‘z tarbiyasiga oladi. Keyinchalik ko‘p o‘tmay o‘z ajali bilan vafot etadi.

Navro‘z Ahmad Baroqxon Ubaydullaxonidan keyin Shayboniylarni ko‘zga ko‘ringan vakilli edi. Hukudorlik yillar bevosita akasi Keldimuhammad vafotidan so‘ng yani 1540-yilda boshlanadi. U Ubaydullaxon asoso solgan Usmonli va Shayboniy munosabatlarini davom etiradi. Shuningdek Samarqandagi amakivachchasi Abdulatifxon bilan bir necha bor Buxoro ustiga harbiy yurishlarni amalga oshiradi. Baroqxon o‘z hukumdorligi davrida Shayboniylarni Toshkent ostida birlashtirishga harakat qiladi. Aynan Baroqxon davrida Toshkentni nufuzi yanada oshdi. Baroqxon hukumdorligi davrida Turk Sultonni Qonuniy Sulton Sulaymondan elchilar keladi. Elchilarga Said Ali Rais boshchilik qiladi va u Baroqxon bilan uchrashganini quydagicha bayon qiladi: “ Bu yerda Navro‘z Ahmadxon, yani Baroqxon bilan ko‘rishib “ xaqirlarning tortig‘i xaqirona bo‘ladi” degandek unga keltirgan birmuncha tortig‘imizni taqdim etdik...Bundan avval saodatli podshoh hazratlari (Turkiya sultoni) shayx Abdulatif Dodosh elchi orqali Baroqxonga bir qancha miltiq otuvchilar va bir qancha qa‘la to‘plari yuborgan ekan.”⁸¹ Bundan ko‘rinadiki Turk sultonni Baroqxonni Movarounnahrni birlashtirish g‘oyasini qo‘llab-quvvatlagan. Bundan tashqari Baroqxon xizmatida 300 yanchar bo‘linmasining ham xizmatda bo‘lishi Baroqxonni keyingi yurishlarida asqotadi.

⁷⁹ Хофиз Таниш Бухорий.Абдулланом(Шарафномаи шохий). 1 қисм ШарқТ.: 1999.61 б.

⁸⁰ Муҳаммддиёр ибн Араб Қатағон. “Мусаххир ал-билод” (Мамлакатларнинг эгаллиниши). Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д. Сангирова.Б 167-180.

⁸¹ Сейди Али Раис.Мирот ул Мамолик.Ўзбекистон ССР фанлар академияси.Т.1963.97.б.



Baroqxon bir necha bor Buxoro, Shaxrisabz, Samarqand uchun Xo‘jag‘am Sulton vorislari Pirmuhammad, Iskandar sulton va Iskandar sultonni vorisi Abdulla sulton bilan katta va kichik janglarni olib borib oxri 1555-yil o‘zaro sulh tuzib 1556-yil Samarqandda vafot etadi. Xon 1540-1551-yillargacha Toshkent va Farg‘onani, 1551-yilda Abdulatifxon vafotidan so‘ng Samarqandni ham idora etdi. Xonni sakkiz farzandi bo‘lib ular: Darveshxon, Bobo sulton, Do‘st Muhammad, Amin sulton, Jalol sulton, Xorazmshoh sulton, Qosim sulton va Tohir sultonlar edi.

Dastlab, Toshkent taxtiga yoshi kattaligi uchun Darvishxon o‘tiradi. Darvishxon adolatpesha xalqni dardini o‘ylaydigan hukumdor bo‘lgan. U otasi davridagi mulklarini o‘z ukalariga taqsimlab berdi. Bobo sultonga Turkiston, Andijon Amin sultonga, Do‘st Muhammad sultonga Axi, Xorazmshoh sultonga Sayram voliyliги berildi. O‘z davrining zukko odamlaridan bo‘lgan Ali Sayyidiyni o‘ziga otaliq etib belgilaydi. Uning davrida Toshkent va boshqa hududlarda afyun va ko‘knori sotishga va yetishtirishni qatiyan taqiqlaydi. 1578-yil Toshkent egallanganidan so‘ng Abdullaxon Darvishxonni Toshkent hokimi etib tayinlaydi ammo ukase Bobo sulton Toshkentni eggallab, akasini o‘dirtirib yuboradi. Darvishxonni ikki o‘g‘li Shoh Muhammad va Muzaffar sultonlar otasini o‘ldirgan Bobo sulton bilan Abdullaxonga qarshi chiqishadi. Bobo sulton mag‘lub bo‘lgach Qorateginga qochishadi, biroq Qorategin hokimi tomonidan qatl etiladi va kesilgan boshlari Abdullaxonga jo‘natiladi.

Bobo sulton o‘z davrining marda va jangovar sulonlaridan edi, yetti-sakkiz marotaba Abdullaxon II bilan olishib ko‘rgan va har gal mag‘lub bo‘lgan Buxoro, Miyonqol va Samarqand ustiga yurish qilib bu huddularni talon-taroj qilgan. Lekin, oxri saltanat ishlaridan bezib Mang‘itlar hududiga yo‘l oladi. U yerda ham ko‘p turolmay ortaga qaytayotganda qozoq sultoni Tavakkalxon tomonidan hujumga uchraydi. Jangda o‘q yeb vafot etadi. Uni besh o‘g‘li bo‘lib, bular Abdullox, Abdulatif, Abdusattor, Ubaydulla, Abdulg‘affor sultonlar edi. Abdullox sulton otasi davrida vafot etadi. Abdulatif esa doim otasi bilan bo‘lgan va Tavakkal bosqini payitida asirga tushadi. Qozoqxonni uni Abdullaxon huzuriga jo‘natadi va xon uni qatl



ettiradi. Abdussator sulton esa Sarbon qa'lasida Abdullaxonga qarshi bir necha oy qarshilik qiladi ammo xon qa'lani egallagach u ham 1582-yili qatl etiladi.⁸²

Ubaydulla sulton taqdiri ham ayanchli yakun topadi. U otasini mag'lubiyatlaridan so'ng qozoq dahstlariga qochadi va uni qozoqlar tutib olib Abdullaxonga odam jo'natishadi. Xon uni olib kelish uchun Sarhun otaliqni jo'natadi. Otaliq Ubaydulla sultonni olib kelish qiyin hisoblab qozoqlarga uni kesilgan boshini berishni aytadi va Ubaydulla sulton qatl etilib Abdullaxon huzuriga boshi Sarhun otaliq tomonidan berib yubroriladi.

Abdulg'afor sulton Toshkent mudofaasini amakisi Tohir sulton bilan shaklantirdi ammo mag'lubiyatga uchradi. Lekin, unga Abdullaxon shavqat qildi, Bobo sulton xondan uzr so'ragandan so'ng o'g'lini otasi huzuriga jo'natadi. Biroq Bobo sulton yana isyon ko'targandan so'ng, Abdullaxon uni mag'lub etadi. Abdulg'afor bus afar Farg'onaga Mo'min sulton huzuriga qochadi. Biroq, Mo'min sulton mag'lub bo'lgach Qo'shg'arga qochadi. Biroq, Oloy to'g tizmasida Tavvakalxon tomonidan ushlanib qatl etiladi va kesilgan boshi Abdullaxon huzuriga jo'natiladi. Aynan Abdulg'afor sultondan so'ng Bobo sulton nasli tugatiladi.

Do'st Muhammad sulton otasi Baroqxon tomonidan qo'lga kiritilgan Miyonqol va Karmana hokimi bo'ladi, biroq otasi vafotidan so'ng Samarqandga chekinib akasi Bobo sulton bilan Abdullaxonga qarshi turadi va mag'lubiyatga uchragach Toshkent hokimi Darvishxon tomonidan Axi hokimligi tayinlanadi va o'sha yerda o'z ajali bilan vafot etadi. Undan Hoshim Sulton ismli o'g'il qolgan bo'lib u dastlab Abdullaxon xizmatiga kiradi, keyinchalik undan hadik sirab qochganda xon odamlar tomonidan tutib o'ldiriladi.

Baroqxonni keying o'g'li Amin sulton Andijonda hukmronlik qildi va o'z ajali bilan vafot etdi. Undan to'rt o'g'il qolgan bo'lib, birinchisi Mo'min sulton otasidan so'ng Andijonni boshqardi. Bobo sulton mag'lubiyatidan so'ng Abdullaxonga sadoqat izhor qiladi. Abdullaxon unga Andijon balki Toshkent hokimligini ham beradi, lekin u amakisi Bobo sulton fojeasidan so'ng Qo'shg'arga qochadi va xon Do'st chuxra og'ani Qo'shg'ar xoni Rashidxonga jo'natadi, Qo'shg'ar xonni uni boshini kesib, xonga jo'natib yuboradi.

⁸² Мухаммддиёр ибн Араб Қатағон. “Мусаххир ал-билод” (Мамлакатларнинг эгалланиши). Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д. Сангилова.Б 167-180.



Ikkinchi sulton Odil ibn Amin sulton esa otasi vafotidan so‘ng amakisi Darvishxon qo‘lida qoldi, keyinchalik mang‘itlar tomonidan qatl etiladi. Afsuski, Amin sultonni qolgan o‘g‘illari Mahdi va Hodi sultonlar haqida ma’lumot yo‘q.

Xorazmshoh sulton Sayram viloyatida hukmdorlik qildi va umrini oxrigacha Sayramni hokim sifatida qoldi. Undan to‘rt o‘gil qoldi. Abdulkarimsulton otasidan so‘ng Sayram mulkini ukalari bilan birga boshqardi. Abdullaxon Toshkentni olgan mahalda u Abdullaxondan onasi qistovi bilan omonlik so‘raydi, Shoximbiy arg‘un ham xondan unga shafe bo‘lishini aytadi. Shoximbiy Sayramgaborganda uni hibsdan ozod qildiradi biroq oraga yana onasi tushib Shoximbiyni hibsdan ozod qildiradi. Abdulkarim sulton esa o‘z aybini yuvish uchun Ko‘chkunchizodalardan bo‘lgan Bo‘zxor sultonni Sayramdaligidan foydalanib uni tutiradi va Shoximbiyga topshiradi. Lekin, baribir u Abdullaxondan hayiqib Mang‘it xonligiga qochadi. Xonni Hirotdaligidan foydalanib Jizzaxgacha bo‘lgan hududlarga chopqin yasaydi ammodxon Buxoroga qaytgach mang‘itlar xonni qahridan qo‘rqib Abdulkarim sultonni, Odil ibn Amin sultonni, ukalari Abdulmuhammadva Muhammad sultonlarni qatl qilib yuboradi.

Qosim sulton ibn Baroqxon otasi vafotidan so‘ng akasi Darvishxon itoatida bo‘ldi, keyinchalik Abdullaxonga o‘z tobeligini izhor qildi va o‘z ajali bilan vafot etdi.

Tohir sulton ham dastlab akasi Darvishxonga xizmat qildi. Abdullaxonni Xurason yurishida Toshkent qo‘shinlariga bosh bo‘ldi. Bobo sulton isyoni arfasida esa akasiga qo‘shildi. Biroq, akasi mag‘lubiyatidan so‘ng Toshkent mudofaasini jiyani Abdulg‘g‘afor bilan tashkilashtirdi. Mag‘lubiyatga uchragach darveshlik libosini kiyib qochib ketadi. 1582-yil uni daragini qozoq xonni Tavakkal topgach uni tutirib xon xuzuriga jo‘natadi. U xon buyrug‘i bilan Sarbon qa‘lasida saqlanadi biroq 1582-yil 8-avgustda siyosat uchun qatl qilinadi natijada Suyunchixonni avlodlari Tohir Sultondan so‘ng uzildi va Toshkent va Farg‘ona hududlar Abdullaxon qo‘l ostiga o‘tadi. Aynan, Suyunchixon avlodlarini Abdullaxondan hayiqishi o‘z boshlariga balobo‘ldi. Shayboniylar naslidan taxtga munosib nomzod qolmasligiga ham sabab bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:



1. E. Erkinjonov. A. Hakimjonov. S.Ubaydullayev. Ko‘chkunchi Sulton avlodlaribayoni. ОБРАЗОВАНИ И НАУКА В XXI ВЕКА. Выпуск №37 (том4)апрель 2023.Б 122.

2. Хофи Таниш Бухорий. Абдуллонома (Шарафномаи шохий). 1қисм. Шарқ. Т.: 1999. Б.414.

3. Муҳаммддиёр ибн Араб Қатағон. ‘’Мусаххир ал-билод’’ (Мамлакатларнинг эгалланиши). Янги аср авлоди.Т.:2009. Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д. Сангирова.428б.

4. Сейди Али Раис.Мирот ул Мамолик.Ўзбекистон ССР фанлар академияси.Т.1963.160.б.



TILZIT SHARTNOMASI

Ro‘zinov Sardorbek Soxibjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

G:mail: Sardorbekrozinov@gmail.com Tel: +998930877145

Annotasiya: *Ushbu maqolada 1807-yil imzolangan mashhur “Tilzit shartnomasi” haqida so‘z borar ekan, uning XIX asr boshlarida Yevropa davlatlari tashqi siyosatidagi ahamiyati, uning buyuk davlatlar o‘rtasidagi kuchlar muvozanatiga ta‘siriga to‘xtalib o‘tiladi. Maqolada shuningdek Napoleon I Bonapartning mohirona diplomatiyasiga ham xolisona baho beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Buyuk Fransuz inqilobi, Naploeon I Bonapart, Prussiya, Avstriya, Tilzit, Aleksandr I, Fridrix Uilyam III, Qit‘a qamali.*

Annotation: *This article discusses the famous “Treaty of Tilzit” signed in 1807, focusing on its importance in the foreign policy of European powers in the early 19th century, its impact on the balance of power between the great powers. The article also offers an impartial assessment of the skillful diplomacy of Napoleon I Bonaparte.*

Key words: *great French Revolution, Naploeon I Bonaparte, Prussia, Austria, Tilsit, Alexander I, Friedrich Wilhelm III, Continental system.*

Аннотация: *В этой статье речь пойдет о знаменитом “Тильзитском договоре”, подписанном в 1807 году, будет затронута его роль во внешней политике европейских государств в начале девятнадцатого века, его влияние на баланс сил между великими державами.. В статье также дается объективная оценка умелой дипломатии Наполеона I Бонапарта.*

Ключевые слова: *Великая Французская революция, Наполеон I Бонапарт, Пруссия, Австрия, Тильзит, Александр I, Фридрих Вильгельм III, континентальная осада.*

Yevropa tarixining yilnomalarida xalqlar va jamiyatlarning yo‘nalishini abadiy shakllantiradigan burilish nuqtalari sifatida ajralib turadigan lahzalar bor. Shunday muhim



daqiqalardan biri, Prussiya, Rossiya va Fransiya davlat rahbarlari o‘rtasida imzolangan “Tilzit shartnomasi”⁸³dir.

Buyuk Fransuz inqilobi⁸⁴ davridagi Italiya, Misrdagi muvaffaqiyatli harbiy yurishlardan so‘ng Napoleon I Bonapart⁸⁵ Markaziy va Sharqiy Yevropa hududlari, xususan Prussiya, Polsha va qisman o‘sha davrda Rossiyaga tegishli o‘lkalarga qo‘shin tortdi. Napoleon Ining Fransiya ta'sirini kengaytirish va butun qit'ada gegemon imperiya o‘rnatishga bo‘lgan urinishlari natijasida 1806-yilga kelib, Napoleon I qo‘shinlari Prussiya va Avstriya kabi yirik mamlakatlarni mag‘lub eta oldi va endi o‘z e’tiborini Yevropada hali Fransiya armiyasi qadami yetmagan oxirgi davlat Rossiyaga qaratdilar. Napoleon I qisqa vaqt ichida bir necha janglar, xususan, Fridlendda g‘alabaga erishdi.

Shunday bir jarayonda Napoleon I dastlab Rossiya bilan, so‘ngra Prussiya bilan muzokaralar o‘tkazib, o‘zi va butun Fransiya uchun manfaatli shartnoma “Tilzit”ni imzoladi. Shartnomani imzolash yuzasidan 1807-yil iyul oyida uch nufuzli arbob o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Tilzit sammiti Fransiyaning qudratini oshirdi. Ushbu maqola Tilzit sammitining tarixiy ahamiyatini ochib beradi, unda ishtirok etgan asosiy o‘yinchilar, diplomatik manevrlar, oqibatlar va Yevropa ishlariga doimiy ta'sir ko‘rsatadi.

Tilzit shartnomasini tarixan ikkita alohida qism Fransiya va Rossiya o‘rtasidagi shartnoma hamda Fransiya va Prussiya o‘rtasidagi shartnomaga bo‘lib tahlil qilish maqsadga muvofiq. Birinchi bitim nisbatan ahamiyatli hisoblanib, Napoleon I va Aleksandr I o‘rtasida yangi ittifoq tuzilishiga olib keldi, Yevropadagi kuchlar muvozanatini o‘zgartirdi.

Uch buyuk imperiya tomonidan imzolangan Tilzit shartnomasi tufayli XIX asr boshlarida Yevropa diplomatiyasida hal qiluvchi va o‘zgartiruvchi davr bo‘ldi. Erishilgan muhim kelishuv Napoleon Fransiyasi va Rossiya o‘rtasida qisqa muddatli tinchlik o‘rnatdi (1807-1810 yillar), shuningdek, Yevropa siyosiy landshaftini qayta shakllantirdi.

Napoleon urushlari Yevropaga tub o‘zgarishlar olib keldi, chunki Napoleon I Bonapartning ambitsiyalari chegaralarni qayta shakllanishini ta’minladi. 1806-yilda inqilobdan

⁸³ <https://www.britannica.com/topic/Treaties-of-Tilsit>

⁸⁴ <https://www.britannica.com/event/French-Revolution>

⁸⁵ <https://en.wikipedia.org/wiki/Napoleon>



soʻng qayta tiklangan Fransiya imperiyasi Prussiyani magʻlub etdi. Oqibatda, Rossiyaning tobora zaif ahvolga tushib qoldi. Fridlendda gʻalabaga erishgan Napoleon I oʻz hokimiyatini mustahkamlashga intilib, Rossiya podshosi Aleksandr I bilan tinchlik muzokaralarini boshladi. Napoleon urushlarining shov-shuvli davrida bir sammit Yevropaning geosiyosiy landshaftini qayta shakllantiradigan hal qiluvchi voqea boʻlib xizmat qildi. Sammit hozirgi Litvada Neman daryosi boʻyida joylashgan Tilzit shahrida boʻlib oʻtdi. Bu joy muzokaralar uchun neytral zamin yaratish maqsadida ehtiyotkorlik bilan tanlangan.

Tilzitga yetib kelgach, har ikki rahbar katta dabdaba va tantana bilan kutib olindi. Shahar nafis bezaklar va dabdabali ziyofatlar bilan ushbu tarixiy voqea uchun koʻzni qamashtiruvchi fonga aylantirildi. Ikki imperator koʻpincha bir necha soat davom etadigan bir qator yuzma-yuz uchrashuvlarda qatnashdilar. Bu munozaralar hududlarni taqsimlashdan tortib, savdo shartnomalari va madaniy almashinuvlar oʻrnatishgacha boʻlgan keng koʻlamli mavzularni qamrab oldi. Uchrashuv davomida Napoleon I va Aleksandr I⁸⁶ uzoq davom etgan munozaralarni olib borishdi, ularda murakkab geosiyosiy raqobat va shaxsiy ambitsiyalarni bildirishdi. Muzokaralar davomida tomonlar uchun umumiy boʻlgan maqsadlar: Fransiya va Rossiya oʻrtasida tinchlikni taʼminlash, taʼsir doiralarini qayta belgilash va umumiy dushmanlarga, xususan, Buyuk Britaniyaga qarshi ittifoq hosil qilish borasida muhokama olib borildi⁸⁷.

Muzokaralar davomida ikkala imperator ham oʻzaro urushdan vaqtinchalik tanaffus olish ham Fransiyaning ham Rossiyaning manfaatlariga mos kelishini tan oldi. Natijada, 1807-yil 7-iyulda Tilzit shartnomasining imzolandi.

Fransiya va Rossiyaning bevosita tashvishlari va uzoq muddatli ambitsiyalarini hal qilishga qaratilgan asosiy qoidalarni oʻz ichiga olgan bu kelishuvning asosiy nuqtalari quyidagilardan iborat:

- har ikki tomon ham harbiy harakatlarni toʻxtatishga kelishib oldilar;

⁸⁶ <https://www.britannica.com/summary/Alexander-I-emperor-of-Russia>

⁸⁷ Lefebvre G. Napoleon: From 18 Brumaire to Tilsit, 1799–1807. Columbia, 1969 p.3



- har ikki davlat tomonidan qo‘shib olingan Polsha hududlaridan tuzilgan Varshava gersogligi Fransiya nazorati ostidagi sun‘iy buffer davlatga aylandi⁸⁸;
- Rossiya qo‘shinlari Markaziy Yevropadan chiqib ketdi, lekin Turkiya bilan ittifoq tuzish orqali Sharqiy Yevropada katta ta‘sirni saqlab qoladi;
- Fransiya Rossiyaning Finlyandiyaga nisbatan da‘volarini tan oldi va ikki davlat o‘rtasidagi savdo cheklovlarini bekor qilindi;
- ikkala davlat ham ko‘pchilik nemis davlatlari va Italiyaning shimoliy hududlari ustidan Fransiya nazoratini tan olishga kelishib oldilar;
- nihoyat, barcha harbiy asirlar har ikki tomondan to‘lovsiz va ayirboshlashsiz ozod qilindi.

Bundan tashqari, har ikki tomon avvalo bir-biri bilan maslahatlashmasdan, Buyuk Britaniya yoki Shvetsiya bilan hech qanday ittifoq tuzmaslikka va‘da berdi. Shartnomaning bir qismi sifatida Aleksandr I Buyuk Britaniya bilan savdo aloqalarini uzish va “Qit‘a qamali”da Napoleon I tomonida qatnashishga rozi bo‘ldi. Buning evaziga Napoleon I Rossiyaning hududiy yutuqlarini tan oldi va Rossiya imperiyasining Sharqiy Yevropadagi ekspansionistik maqsadlarini qo‘llab-quvvatlashga va‘da berdi.

Tilzit yig‘ilishida sammitning siyosiy va harbiy jihatlaridan tashqari, ikki imperiya o‘rtasidagi madaniy almashinuv ham namoyish etildi. San‘atning ashaddiy homiysi Napoleon I Tilzitda bo‘lganida rus madaniyatidan, Podsho esa fransuz musiqasi, me‘morchiligi va modasining ulug‘vorligidan hayratda qoldi. Bu o‘zaro hayrat kelajakda san‘at va adabiyot sohasidagi almashinuv va hamkorlikka zamin yaratdi.

Bundan tashqari, shartnoma fransuz va rus kuchlarining mustahkamlanishini ta‘minladi, chunki endi sobiq dushmanlar rasmiy ittifoqchilarga aylangandi. Fransiyaning Buyuk armiyasiga Britaniyaga bostirib kirish uchun Rossiya hududi orqali o‘tishga ruxsat beruvchi maxfiy protokol ham o‘rnatildi. Bundan tashqari, ikkala imperiya ham Yevropada hukmronligini ta‘minlash va qit‘aning qolgan kuchlariga ta‘sir qilish uchun sa‘y-harakatlarni muvofiqlashtirdi.

⁸⁸ Zawadzki, Hubert (2009). “Between Napoleon and Tsar Alexander: The Polish Question at Tilsit, 1807”. *Central Europe*. 7 (2): p.110–124.



Kelishuv natijasida ikkita asosiy bitim tuzildi: Tilzit shartnomasi va Fransiya-Rossiya ittifoqi. Tilzit shartnomasi Napoleon Ining gegemonligini yuzaga, chunki u Rossiyani muhim hududiy yo‘qotishlarga va siyosiy hamkorlik qilish bo‘lishga majbur qildi. Bundan tashqari, Fransiya-Rossiya ittifoqi ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlab, o‘zaro yordam va hamkorlikni va‘da qildi. Bu yangi ittifoq boshqa Yevropa mamlakatlari uchun “Halokat signali” vazifasini o‘tadi va uchun juda katta oqibatlariga olib keldi. Endi Napoleon I o‘zining yakuniy maqsadi: Britaniyani mag‘lub etish va qit‘adagi hukmronligini mustahkamlashga e‘tibor qaratishi mumkin edi.

Tilzit shartnomasi Yevropadagi kuchlar muvozanatining o‘zgarishini belgilab berdi va Napoleon I Bonapartning demokratiya haqidagi qarashlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Napoleon Ining demokratiya talqini kuchli markaziy hokimiyat va yagona hukumat muhimligini ta’kidladi. Bu qarashlar asosida u hokimiyat yagona hukmdor yoki hukmron partiya qo‘lida to‘plangan, xalq nomidan qarorlar qabul qiladigan boshqaruv tizimini o‘rnatishga harakat qildi. Demokratiyaga bunday yondashuv Napoleon Ining Yevropaning katta qismi ustidan nazoratini mustahkamlagan va Fransiyani mintaqada hukmron kuchga aylantirgan Tilzit shartnomasida o‘z aksini topdi. Shartnoma Napoleon Iga o‘z islohotlarini amalga oshirishga va Yevropaning siyosiy manzarasini demokratik tamoyillariga muvofiq qayta shakllantirishga imkon berdi. Bu tamoyillar asosiy huquqlarni kodekslashtirish va vakillik parlament institutlarini rivojlantirishni o‘z ichiga olgan. Bundan tashqari, Tilzit shartnomasi Yevropa davlatlari va Rossiya o‘rtasidagi munosabatlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Tilzitda bo‘lib o‘tgan munozaralar ko‘p jihatdan yangilik edi. Shartnoma, birinchi navbatda, Yevropadagi kuchlar muvozanatida keskin o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Shartnoma Fransiya-Rossiya ittifoqini o‘rnatdi, har ikki xalq bir-birining hududlari va ta’sir doiralarini hurmat qilishga rozi bo‘ldi. Bu yangi hamkorlik Napoleon I o‘z sa’y-harakatlarini boshqa joyga yo‘naltirishini, Rossiya uning ishlariga aralashmasligini bilishini anglatardi. Podsho esa fransuz tajovuzidan biroz tinim oldi va ulkan imperiyasi ustidan nazoratni saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi.



XIX asr boshlarida Napoleon armiyasi Markaziy Yevropada harbiy harakatlarni davom ettirayotgan edi. 1806-yilda monarxiya qayta tiklangan Fransiya Prussiyani qat'iy mag'lub etdi va Rossiyani tobora zaif ahvolga solib qo'ydi. 1807-yil 14-iyunda Fridlendda g'alabaga erishgan Napoleon I o'z hokimiyatini mustahkamlashga intilib, dastlab Rossiya podshosi Aleksandr I bilan tinchlik muzokaralarini boshladi va kelishuvga erisha bildi⁸⁹.

Rossiya bilan imzolangan bitimdan so'ng Napoleon I mag'lubiyatga uchragan Prussiya qiroli Fridrix Uilyam III'ni Tilzitga taklif qilib (1807-yil 9-iyul), Napoleon zaiflashgan raqibining holatidan foydalanib undan qo'shimcha imtiyozlar olishga harakat qildi. Manzil va manfaatlar o'sha-o'sha faqat mehmon rolida bu gal Prussiya qiroli edi. Siyosiy manevrning ajoyib namoyishida Napoleon I Prussiyadan katta hududiy imtiyozlarni olishga muvaffaq bo'ldi⁹⁰.

Hukmdorlar ishtirokidagi bu uchrashuv nafaqat tinchlik muzokarasi, balki ikki alohida yetakchilar uchun bir-birlarining mahoratini sinab ko'rish imkoniyati edi. Harbiy daholam Napoleon I va Prussiya qiroli bilan o'z xalqlarining kelajagi va Yevropadagi kuchlar muvozanatini muhokama qilish uchun yuzma-yuz uchrashdi. Shartnoma mintaqada dinamikasida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Mag'lubiyatga uchragan davlat Prussiya Fransiyaning shartlariga ko'nishga majbur edi. Kelishuvga ko'ra, nemislar g'arbdagi muhim hududlarni, jumladan, aholisining yarmini fransuzlarga va sharqdagi hududlarini Rossiyaga topshirishga majbur bo'ldi.

Bu shartnomani Napoleon Ining Fransiyaning Markaziy Yevropadagi hukmronligini mustahkamlashga imkon beruvchi yaqqol g'alabasi sifatida ko'rish mumkin. Shuningdek, shartnoma Yevropaning boshqa davlatlari uchun og'ir oqibatlariga olib keldi. Shartnoma natijalariga ko'ra, Prussiya armiyasi cheklanib, ularning moliyasi Fransiya nazorati ostiga o'tkazildi; ko'pchilik nemis davlatlari va Italiyaning shimoliy hududlari Fransiya nazoratiga o'tadi. Bu amalda 962-yildan buyon mavjud Muqaddas Rim imperiyasining tugatilishini

⁸⁹ https://en.wikipedia.org/wiki/Battle_of_Friedland

⁹⁰ Georg Sydow, *Theorie und Praxis in der Entwicklung der französischen Staatsschuld seit dem Jahre 1870*, Jena: Fischer, 1903, p. 49.



anglatardi. O‘z navbatida bu bitim Fransiya ta'siri ostida bo‘lgan Germaniya davlatlarining erkin bog‘langan guruhi bo‘lgan Reyn Konfederatsiyasining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Tilzit bitimlarining natijalari oqibatlari:

1. Yevropa kuchlarining o‘zgarishi: Shartnoma an’anaviy ittifoqlarni buzib yubordi va Yevropadagi kuchlar muvozanatini o‘zgartirdi. Bu Napoleon I urushlarida katta burilish nuqtasi bo‘lib, to Napoleon I rejimining qulashigacha sabab bo‘luvchi geosiyosiy ittifoqlarni shakllanishiga olib keldi.

2. Rossiyaning ichki siyosatiga ta'siri: Tilzit shartnomasi Rossiyaning ichki siyosatiga, xususan, modernizatsiya va sanoatlashtirish harakatlariga ta'sir ko‘rsatdi. Aleksandr fransuzlarning bu sohalaridagi yutuqlaridan hayratda qoldi va bu uning o‘z imperiyasida shunga o‘xshash islohotlarni amalga oshirishga intilishiga olib keldi.

3. Tilzit shartnomasi Prussiyaning Yevropaning yirik davlati sifatida tanazzulga uchrashida hal qiluvchi lahzani ifodaladi. Prussiyaga yetkazilgan hududiy yo‘qotishlar mahalliy aholi holatini zaiflashtirdi va uning birlashgan Germaniyaga singib ketishi uchun zamin yaratdi.

4. Kelishuvning yana bir muhim natijasi Qit’a qamalining tashkil etilishi edi. Ushbu iqtisodiy blokada Yevropa davlatlarining inglizlar bilan savdo qilishni taqiqlash orqali Buyuk Britaniya iqtisodiyotini zaiflashtirishni maqsad qilgan edi. Biroq, bu siyosat oxir-oqibat muvaffaqiyatsizlikka uchradi hamda Fransiya va uning ittifoqchilari o‘rtasidagi ziddiyatning kuchayishiga olib keldi.

5. Bu bitim amalda Napoleon I rejimining intixosini yanada yaqinlashtirdi. “Qit’a qamali”da kerakli natijaga erisha olmagan Napoleon I Rossiyaga bostirib kirishga majbur bo‘ldi. Oqibatda, Fransiya va Rossiya o‘rtasidagi ittifoq parchalanib ketdi. Bu esa o‘z navbatida Napoleon I faoliyatidagi eng katta harbiy muvaffaqiyatsizliklardan biriga olib keldi.

6. Kelajakdagi diplomatik kelishuvlar uchun pretsedent: Tilzit shartnomasi kelajakdagi diplomatik kelishuvlar va muzokaralar uchun pretsedent bo‘ldi. U mojarolarni hal qilish va xalqaro tartibni shakllantirishda diplomatiya kuchini namoyish etdi. Keyingi shartnomalar va kelishuvlar Tilzit shartnomasidan ilhom olib, uning asosiy qoidalarini rivojlanayotgan sharoitlarga moslashtirgan.



Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Tilzit sammiti tarix yo‘nalishini shakllantirishda diplomatiya qudrati borligidan dalolat beradi. Napoleon I va Aleksandr I o‘rtasidagi bu uchrashuv Yevropa uchun juda katta oqibatlarga olib kelgan muhim voqea edi. Tilzitda imzolangan shartnoma Fransiya va Rossiya o‘rtasida strategik ittifoqqa asos solib, qit‘aning geosiyosiy landshaftini o‘zgartirdi. Bundan tashqari, ikki imperiya o‘rtasidagi madaniy almashinuv Yevropa sivilizatsiyasining boyligi va xilma-xilligini namoyish etdi. Fransiya va Rossiya o‘rtasidagi ziddiyat oxir-oqibat qayta avj olgan bo‘lsa-da, Tilzit sammiti yetakchilar o‘zaro kelishmovchiliklarni chetga surib, tinchlik ta’minlash mumkinligini isbotladi.



БРИКС КАК ОТДЕЛЬНАЯ МЕЖДУНАРОДНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ В XXI ВЕКЕ

Меметов Руслан

*Студент 1-курса магистратуры Наманганского государственного университета
направления «История»*

Аннотация: *В данной статье рассматривается краткая история БРИКС и её роль в международной политике.*

Abstract: *This article examines the brief history of BRICS and its role in international politics.*

Ключевые слова: *Бразилия, Россия, Индия, Китай, ЮАР, БРИКС.*

Keywords: *Brazil, Russia, India, China, South Africa, BRICS.*

Введение: Люди с древних времён искали себе союзников для достижения различных целей, как на локальном уровне, так и в мировом масштабе. На сегодняшний день существуют такие крупные военно-политические или социально-экономические организации как НАТО, ЕС, ОПЕК, АТЭС, ОБСЕ, ОДКБ, G7 и другие. И БРИКС является одним из таких политических институтов.

БРИКС (англ. BRICS — сокращение от Brazil, Russia, India, China, South Africa) — межгосударственное объединение, союз пяти государств: Бразилии, России, Индии, КНР, Южной Африки. Данная организация (содружество стран) была основана в июне 2006 года (как БРИК, BRIC), в рамках Петербургского экономического форума с участием министров экономики Бразилии, России, Индии, Китая.

Группа не является официальной многосторонней организацией, подобной Организации Объединенных Наций, Всемирному банку или Организации стран-экспортеров нефти (ОПЕК).

Главы государств и правительств стран-участниц собираются ежегодно, и каждая страна председательствует в группе поочередно на один год.

Цель союза - продвигать сотрудничество и диалог между собой активно, прагматично, поэтапно, прозрачно и открыто. Основное внимание также уделяется



построению мирного, гармоничного положения с общим процветанием, который служит интересам всех людей и наций, которые к нему принадлежат.

Основная часть: Идея об объединении Бразилии, России, Индии и Китая возникла в конце 1990-х – 2000-х годов. Эти страны представляли собой мощные экономические регионы с быстрорастущим ВВП, динамичными рынками и значительным влиянием на мировую арену. По инициативе российского президента Владимира Путина, первая встреча будущих лидеров БРИК состоялась в Санкт-Петербурге в июне 2006 года. В 2011 году в объединение вступила ЮАР, после чего организация была переименована в БРИКС.

В основном, двусторонние отношения между странами БРИКС строятся на основе невмешательства, равенства и взаимной выгоды. С 2009 года правительства стран БРИКС ежегодно встречаются на официальных саммитах (последний 15-й саммит состоялся 22-24 августа 2023 в ЮАР). Помимо саммитов, встречи проходят на уровне глав МИД, министров финансов и других.

Четыре из пяти членов входят в десятку крупнейших государств мира по численности населения, по площади и ВВП, за исключением ЮАР, которая занимает двадцать четвёртое место по площади, и тридцать второе — по ВВП. Общая площадь стран БРИКС составляет 39 746 220 км², а общая численность населения оценивается примерно в 3,41 млрд человек, что составляет около 26,7 % мировой поверхности суши и 41,6 % мирового населения. Члены БРИКС неоднократно характеризовались как наиболее быстроразвивающиеся крупные страны.

На заре своего основания данная организация считалась фундаментом «золотой» экономики будущего. Ведь, О'Нил опубликовал исследовательскую работу под названием «Создание лучших глобальных экономических стран БРИКС», которая заложила основу вышеназванной организации. Из-за их быстрого экономического роста, огромного населения и впечатлительных запасов ресурсов О'Нил считал Бразилию, Россию, Индию, Китай и Южную Африку экономическими центрами 21 века.



Тезис БРИКС (на основе статьи 2003 года «Мечтая о БРИК: Путь к 2050») предполагает, что Бразилия, Россия, Индия и Китай изменили свои политические системы, чтобы войти в систему глобальной экономики. Эксперты предсказывают, что Китай и Индия будут доминирующими глобальными поставщиками товаров промышленного назначения и услуг, в то время как Бразилия и Россия станут также одними из главных импортеров сырья. Сотрудничество является, таким образом, вероятным - как логический шаг БРИКС, потому что Бразилия и Россия вместе логично формируют поставщиков Индии и Китая. Таким образом, у БРИКС есть потенциал сформировать сильный экономический блок - наподобие государств «Большой семёрки».

После окончания Холодной войны, или даже ранее, правительства стран БРИКС начали экономические и политические реформы, чтобы позволить своим странам стать частью мировой экономической системы. Чтобы быть конкурентоспособными на мировом рынке, эти страны сделали (каждая в разной степени) упор на образовании, иностранных инвестициях, внутреннем потреблении и предпринимательстве. Согласно исследованию, у Индии есть потенциал наибольшего роста среди пяти стран БРИКС в следующие 30—50 лет. Главная причина — снижение рабочего возраста населения для Индии и Бразилии случится позже, чем для России и Китая.

Бразилия, Россия, Индия и Китай обладают значительным интеграционным потенциалом, реализация которого позволит более эффективно влиять на глобальные процессы.

В 2014 году БРИКС создал Новый банк развития (НБР), который был запущен с целью финансирования проектов в странах-участницах и других развивающихся государствах. Данное событие стало альтернативой традиционным международным финансовым институтам, таким как МВФ и Всемирный банк. А также в 2016 году был учреждён Механизм условных резервов (ПУР) для экономического развития и финансовой стабильности с общим номиналом валютных резервов в 100 миллиардов долларов США. Это было сделано для того, чтобы оказать незамедлительную помощь стране-участнице в случае непредвиденных или чрезвычайных ситуаций. БРИКС



укрепляет свои торговые и экономические связи. Она стремится к сокращению барьеров для торговли и инвестиций между странами-участницами, а также к повышению уровня экономической интеграции.

Страны БРИКС обмениваются знаниями и технологиями в различных сферах, таких как наука, образование, медицина, космос и ИТ. Это содействует совместным исследованиям и инновациям. БРИКС оказывает влияние на решение мировых конфликтов. Члены группы, сотрудничая в рамках БРИКС и других международных организаций, стремятся к нахождению мирных и дипломатических решений споров. Хотя лишь одна страна из данной организации проголосовала «за» в Резолюции Генеральной Ассамблеи ООН ES-11/1 «Агрессия против Украины» - Бразилия. Остальные члены проголосовали против (Россия), либо воздержались (Китай, Индия, ЮАР).

Заключение: БРИКС – это уникальный пример сотрудничества между крупными развивающимися странами. Его создание стало ответом на изменяющийся мир и стремление укрепить позиции прогрессирующих стран на мировой арене. Коллектив объединившихся стран продолжает играть важную роль в формировании мировой экономической архитектуры и урегулировании глобальных проблем. Важно, чтобы страны БРИКС продолжали развивать сотрудничество и поощрять стабильность и процветание как внутри своих границ, так и за ее пределами.

Список используемой литературы:

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/БРИКС>
2. https://spravochnick.ru/mezhdunarodnye_otnosheniya/briks/#celi-i-zadachi-briks
3. <https://www.wallstreetmojo.com/brics-countries/>
4. <https://www.aol.com/shoppers-click-buy-retailers-slash-110226828.html>
5. <https://vc.ru/u/1074059-nft-brihaspati/754354-briks-istoriya-celi-i-obzor-globalnogo-alyansa>
6. <https://tvbrics.com/news/briks-istoriya-sozdaniya-i-vliyanie-na-mirovuyu-ekonomiku/NOCLICK>
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Резолюция_Генеральной_Ассамблеи_ООН_ES-11/1



08.00.00

IQTISODIYOT FANLARI

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

ECONOMICS SCIENCES

КОНТРОЛЬ ЗА НАЛОГООБЛОЖЕНИЕМ В СФЕРЕ ТУРИЗМА

Абдуллаев Зафарбек Сафибуллаевич

Исследователь Ташкентского финансового института

Номер телефона: +998 90 555 42 31

Электронная почта: zafarbek.abdullayev555@gmail.com

Абдуллабекова Ноилахон Гофуржон қизи

Студент 3-го курса экономического факультета

Наманганского государственного университета

Электронная почта: abdullabekova202n@gmail.com

Abstract: *This article will demonstrate the great advantages of the tourism sector for the state economy and the use of taxes by the state for the development of industries, while taxes are of great importance for the promotion of tourism, environmental infrastructure and social protection of the population. The literature featured in the article also provides feedback and feedback on ways to conduct an effective tax policy in tourism.*

Key words: *Tourism sector, taxation, tourist enterprises, value-added tax, environmental infrastructure, social protection, gross domestic product.*

Аннотация: *В этой статье будут продемонстрированы большие преимущества туристического сектора для экономики штата и использование государством налогов для развития отраслей, в то время как налоги имеют большое значение для продвижения туризма, экологической инфраструктуры и социальной защиты населения. Литература, представленная в статье, также дает отзывы и размышления о способах проведения эффективной налоговой политики в туризме.*

Ключевые слова: *Сектор туризма, налогообложение, туристские предприятия, налог на добавленную стоимость, экологическая инфраструктура, социальная защита, ВВП.*



Введение:

Являясь важным фактором экономического роста, индустрия туризма не только способствует культурному обмену, но и вносит значительный вклад в национальный доход за счет различных налогов. Понимание сложной сети налогов в туристическом секторе очень важно для Штатов, предпринимателей и туристов. Потому что налоги играют большую роль в развитии экономики государства и в то же время в увеличении социальной помощи населению, в развитии инфраструктуры. Туризм дает толчок развитию других сфер услуг рядом с ним. Предпринимателей будет больше, а это, конечно, означает, что доходы государства и показатели ВВП увеличатся. В настоящее время в этой области используется много практических работ и экспериментов но это не значит, что это будет решение для всех. Налоги играют важную роль в поддержании туристической инфраструктуры и услуг. Они вносят свой вклад в местную экономику, финансируя такие удобства, как транспорт, общественные объекты и транспорт, улучшая общий туристический опыт.

Анализ литературы:

Какую систему налогообложения использовать решает каждая туристическая фирма самостоятельно. Принимаемое решение зависит от многих факторов. Например, фирме следует учитывать, как покупатели отнесутся к невозможности вычитать НДС, при переходе к упрощённой системе налогообложения. Также это решение зависит от бухгалтерии, о того, насколько она будет способна к нововведениям в работе. Но в целом можно сделать вывод, что упрощённая система выгодна и удобна. Во - первых, она довольно проста в применении и позволяет в несколько раз меньше тратить времени на заполнении налоговых деклараций и форм бухгалтерской отчётности.⁹¹

При применении практики налогообложения в туризме важно также дать представление туристам об этом, понимая, что деятельность без налогов невозможна.

⁹¹ М.А. Попова, Е.В. Мельникова, А. Р. Хаметова ОСОБЕННОСТИ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТУРИЗМА В РОССИИ/Вестник магистратуры ЖУРНАЛ. 2016. № 11-2(62). ISSN 2223-4047



Было упомянуто, что необходимо провести работу по снижению налога на добавленную стоимость, обратившись в бухгалтерию.

Центральное и местное правительство несёт ответственность за систему налогообложения. Они смогут договориться о налоговой системе. Очень важно правильно собирать доходы с помощью налогов и правильно их использовать.⁹²

В этих пунктах утверждается, что государственное управление играет важную роль во всех сферах, что, если государство также не управляет налоговой системой, система может выйти из строя, и в экономике могут возникнуть негативные ситуации.

С 1 марта 2021 года с граждан Узбекистана и лиц без гражданства, постоянно проживающих в республике, на средства размещения взимается туристический (гостиничный) сбор за каждый день их пребывания. Размер сбора устанавливается Кабинетом Министров. Вырученные средства направляются на финансирование мероприятий, направленных на продвижение и стимулирование внутреннего туризма, обеспечение занятости средств размещения в период с низким туристическим сезоном.⁹³

Выше приводится информация главы государства о необходимости Практики налогообложения при развитии туризма. Налоговый контроль на уровне государственной политики выгоден туристам.

Поскольку увеличение налоговых поступлений может снизить зависимость туристического сектора от валютных поступлений, кроме того, уровень производства и улучшение производственных мощностей, а следовательно, и увеличение дохода на душу населения, могут увеличить спрос на туристическую индустрию и проложить путь к увеличению доходов от туризма.⁹⁴

⁹² Ylvije Borici – Kraja, Elez Osmani, Management of the taxation on tourism operators, an important component of revenues and investments in the tourism sector / <https://academicus.edu.al/nr6/Academicus-MMXII-6-126-135.pdf>

⁹³ Из указа Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию внутреннего и паломнического туризма в Республике Узбекистан» **Podrobneye:** https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/turizm_sohasida_qanday_uzgartirishlar_nazarda_tutilgan

⁹⁴ The Impact of Taxation in the Tourism Industry: Dynamic Approach April 2021 /DOI:10.6084/m9.figshare.14528874.v1 Conference: 8th International Conference on Modern Tricks of Management, Accounting, Economics and Banking with Business Growth ApproachAt: DUBAI-UNITED ARAB EMIRATES



Выше приводится мнение о том, что снижение налогов влияет на ценовой баланс в туризме и за счёт этого увеличивается поток туристов. Проблемы с налогами на туризм часто вращаются вокруг уравнивания с негативным воздействием на доход. Высокие налоги могут отпугнуть посетителей. С другой стороны, неадекватные налоги могут не создать достаточного финансирования для местных эксцессов и услуг.

Указом Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева от 4 мая 2017 года № ПФ–5033 субъектам бизнеса в сфере туризма предоставлены дополнительные льготы. Юридические лица освобождаются от таможенных платежей (кроме сборов за таможенное оформление) за оборудование, комплектующие, технику, запчасти и материалы, не производимые в республике, необходимые для строительства и реконструкции гостиниц и мотелей, на основании установленного перечня сроком на 5 лет.⁹⁵

Таким образом, поскольку налог приводит к увеличению стоимости туристических услуг, примечательно, что туристам также предоставляется решение этой проблемы за счёт снижения налогового бремени. Государства контролируют налоговый контроль в сфере туризма. Это включает в себя установление налоговых ставок, обеспечение соблюдения хозяйствующими субъектами в сфере туризма и сбор доходов.

Методология исследования и анализ и результаты:

Глядя на результаты исследований по ряду проблем в туризме и важности налогообложения, мы замечаем, где лежат основные проблемы. Посредством налогообложения туризма правительство контролирует деятельность предпринимателей и регулирует рыночные отношения. А превышение норматива налоговых поступлений станет препятствием для развития туризма.

Если мы будем следить за статистикой, то заметим, что спрос на туристические услуги растёт из года в год. Это связано с тем, что существует возможность свободной конкуренции со стороны государства. Налоговые льготы также играют важную роль в достижении чётко определённых стратегических целей.

⁹⁵ <https://kun.uz/uz/news/2017/05/15/memonhona-va-sajelik-hizmatlari-solik-imtiezlariga-ega-buldi>



Организации, осуществлявшие туристскую деятельность⁹⁶

Показатели	2019	2020	2021	2022
Количество туристских фирм и организаций, единиц	517	337	288	348
ими обслужено посетителей всего, тыс. человек	942	212.3	577.8	673.8
принято	788.8	186.2	525.2	558.3
отправлено	128.5	18.6	57.4	94.2
оказаны услуги только по оформлению визы или заграничного паспорта, бронированию мест в гостинице и других местах проживания	24.7	7.5	8.0	22.8

Президент Республики Узбекистан Ш.Мирзиёевым Реализация программы развития сферы услуг в стране на 2021-2023 годы, а также увеличение объёма рыночных услуг в 1,5 раза в 2022 году за счёт внедрения новых подходов к развитию сферы услуг, а также возможности создания дополнительных 1,5 миллиона новых рабочих мест, определили туризм как одну из стратегических отраслей национальной экономики. осуществлены последовательные реформы.⁹⁷

Выводы и предложения:

Важно найти баланс в сложной области туристического налогообложения. Необходимо разработать политику, обеспечивающую доход, когда Штаты не реагируют отрицательно на налогообложение, в то время как предприятия должны пытаться найти

⁹⁶ <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/social-protection>

⁹⁷ Постановление Президента Республики Узбекистан от 27 января 2022 года № ПП-104 “о дополнительных мерах по развитию сферы услуг”. Национальная база данных законодательных актов Республики Узбекистан: <https://lex.uz/uz/docs/5840284>



возможности для различных налоговых путей, а путешественники должны постоянно осознавать финансовые последствия. Достижение гармонии в этих аспектах способствует устойчивой индустрии туризма во всем мире. Если туристические предприятия уменьшат сумму расходов, отличную от налоговых, то стоимость услуг снизится. А когда цена снижается, спрос увеличивается. Например, с помощью электросберегающих приборов можно уменьшить сумму расходов на оплату коммунальных услуг. Сумма затрат также уменьшается, если они делятся на экологическую систему. Также важно, чтобы государственные организации предоставляли новые возможности для зелёной экономики и зелёного производства. Финансовым подспорьем для предприятия станет меньшее потребление воды, использование электричества с установленными солнечными батареями.

Список использованной литературы:

1. М.А. Попова, Е.В. Мельникова, А. Р. Хаметова ОСОБЕННОСТИ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТУРИЗМА В РОССИИ/Вестник магистратуры ЖУРНАЛ. 2016. № 11-2(62). ISSN 2223-4047;

2. Ylvije Borici – Kraja, Elez Osmani, Management of the taxation on tourism operators, an important component of revenues and investments in the tourism sector / <https://academicus.edu.al/nr6/Academicus-MMXII-6-126-135.pdf>;

3. Из указа Президента Республики Узбекистан»О мерах по дальнейшему развитию внутреннего и паломнического туризма в Республике Узбекистан”
Podrobneye: https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/turizm_sohasida_qanday_uzgarti_rishlar_nazarda_tutilgan

4. The Impact of Taxation in the Tourism Industry: Dynamic Approach April 2021 /DOI:10.6084/m9.figshare.14528874.v1 Conference: 8th International Conference on Modern Tricks of Management, Accounting, Economics and Banking with Business Growth ApproachAt: DUBAI-UNITED ARAB EMIRATES

5. <https://kun.uz/uz/news/2017/05/15/memonhona-va-sajelik-hizmatlari-solik-imtiezlariga-ega-buldi>

6. <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/social-protection>



7. Постановление Президента Республики Узбекистан от 27 января 2022 года № ПП-104 “о дополнительных мерах по развитию сферы услуг”. Национальная база данных законодательных актов Республики Узбекистан: <https://lex.uz/uz/docs/5840284>



RAQAMLI IQTISODIYOTNING BUGUNGI HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Soyibjonov Islombek Sodikjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti

Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasida o‘qituvchisi

e-mail: soyibjonovislombek93@gmail.com

To‘rayev Asrorbek Akmaljon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti

Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasida o‘qituvchisi

e-mail: turayevasror91@gmail.com

Kaxarov Jobir Djamolovich

Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti,

Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Annotatsiy: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning vujudga kelishi, dunyo iqtisodiyoti va jamiyat hayotida raqamli texnologiyalarning ahamiyati, raqamli platformalarning rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning afzallik va kamchiliklari tahlil qilingan. Tahlil asosida mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ayrim takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Global Internet Protokol (IP) trafigi, innovatsion platformalar, onlayn platformalar, raqamli iqtisodiyot, raqamli platformalar, raqamli transformatsiya, “Raqamli O‘zbekiston – 2030”, robototexnika, sun‘iy ong, “super platforma”lar, tarmoq effekti, tranzaksion platformalar.

Abstract. In this article analyzes the emergence of the digital economy, the importance of digital technologies in the global economy and society, the development of digital platforms, the advantages and disadvantages of the digital economy. Based on the analysis, some recommendations were given to solve existing problems.

Key words: Global Internet Protocol (IP) traffic, innovative platforms, online platforms, digital economy, digital platforms, digital transformation, “Digital Uzbekistan - 2030”, robotics, artificial intelligence, “super platforms”, industry effect, transaction platforms.



Kirish

Raqamli inqilob bizning hayotimiz va jamiyatlarimizni misli ko‘rilmagan darajada o‘zgartirib, 25 yil[1] ichida ulkan imkoniyatlar bilan bir qatorda ayrim muammolarni keltirib chiqardi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi yetakchi mamlakatlar uchun ustuvor yo‘nalishlardan biridir.

So‘nggi yillarda biznes va ijtimoiy soha faoliyatida rivojlanishning yangi to‘lqini raqamli texnologiyalarning yangi avlodi, ya‘ni sun‘iy ong, robototexnika, simsiz aloqa texnologiyalari yordamida ro‘y bermoqda. Yangi texnologiyalar Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga katta hissa qo‘shishi mumkin, ammo biz kutilgan ijobiy natijalarni ololmasligimiz mumkin. Agar biz raqamli texnologiyalarning to‘liq ijtimoiy va iqtisodiy potensialiga erishmoqchi bo‘lsak, kutilmagan oqibatlarga yo‘l qo‘ymagan holda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni zudlik bilan rivojlantirish zarur. Mamlakatimizda ham ushbu sohani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratila boshlandi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2030-yilgacha “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini amalga oshirishni taklif etdi [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi ilk bor 1990-yillarda Yaponiya inqirozi davrida yapon professori tomonidan qo‘llanilgan. 1995-yil Yevropada Don Tapskotning “Цифровая экономика: обещание и опасность в эпоху сетевой разведки” asari va 1995-yil Nikolas Negroponte (Masachusetts, AQSh) ning tadqiqot ishida qo‘llanilgan[1].

Avvalo shuni ta‘kidlash kerakki, raqamli iqtisodiyot o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining zanjiridan iborat bo‘lib, uning ajralmas elementi zanjirlararo (insonlararo, mashinalararo, bulutlar orqali, data markazlararo) raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan ma‘lumot almashinishdir [3].

Raqamli iqtisodiyot dasturining asosiy maqsadlari yoritib berilgan [4]. Raqamli iqtisodiyot - bu xo‘jalik faoliyatini yuritish bo‘lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko‘rinshidagi ma‘lumotlar bo‘lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini tahlil qilish yordamida har xil turdagi



ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tatbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko‘rsatish, elektron to‘lovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog‘langan faoliyatdir [5].

Fikrimizcha raqamli iqtisodiyot – iqtisodiy resurslar taqchilligi sharoitida raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan va boshqariladigan iqtisodiy faoliyat. Har qanday iqtisodiy tizim oldida turgan asosiy muammo bu resurslar taqchilligi bilan bog‘liq raqamli iqtisodiyotda ham asosiy e‘tibor ushbu muammoni hal qilishga qaratilmog‘i lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada raqamli platformalarning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini o‘rganishda qiyosiytadrijiy tahlil, yuqori va quyi o‘rinlardagi kompaniyalarning bozor kapitallashuvi, transmilliy kompaniyalarning raqamli platformalar asosida rivojlanish tendensiyalari tahlilida statistikmatematik, hududlar kesimida Internet qamrovi statistik guruhlash va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi asosida internet trafiklaridan foydalanish holati dinamik tahlil asosida yoritib berilgan.

Tahlil va natijalar

Raqamli iqtisodiyotning quyidagi afzalliklari ajratiladi [6]:

- mehnat unumdorligini 40 %gacha oshirishi taxmin qilinadi;
- raqamli iqtisodiyot juda katta miqdordagi mashina o‘qishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni (raqamli ma’lumotlar) to‘plash, foydalanish va tahlil qilish qobiliyatiga ega;
- onlayn platformalar orqali sotiladigan yangi ish shakllarining yuzaga kelishi;
- raqamli transformatsiya maxsus xizmatlar uchun savdo infrastrukturasi o‘zgarishi;
- sanoat mahsulotlari eksporti endilikda AKT mahsulotlari va xizmatlariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda;
- raqamli iqtisodiyot juda qisqa vaqt ichida ulkan boyliklarni keltirib chiqardi, ammo bu boylik oz sonli shaxs, kompaniya va mamlakatlar atrofida to‘plangan.



Amaldagi siyosat va qoidalar asosida ushbu traektoriya davom etishi mumkin, lekin bu tengsizlikning kuchayishiga olib keladi.

Shu bilan birga ushbu iqtisodiyotning ayrim ziddiyatli tomonlari ham mavjud. Ular quyidagilar:

- yangi texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt, muqarrar ravishda mehnat bozorida katta o'zgarishlarga olib keladi, jumladan, ba'zi tarmoqlarda ish o'rinlarining yo'qolib ketishi va boshqalarida keng miqyosda imkoniyatlar yaratilishiga olib keladi;
- raqamli iqtisodiyot bir qator yangi va turli xil ko'nikmalar, ijtimoiy himoya siyosatining yangi avlodi, ish va bo'sh vaqt o'rtasidagi yangi munosabatlarni talab qiladi;
- raqamli iqtisodiyot, shuningdek, kiberxavfsizlik buzilishlaridan tortib noqonuniy iqtisodiy faoliyatga ko'maklashish va shaxsiy hayotning maxfiy tushunchalariga qadar yangi xavflarni keltirib chiqaradi.

Raqamli iqtisodiyot deyarli hamma narsaga oid juda katta miqdordagi mashina o'qishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni (raqamli ma'lumotlar) to'plash, foydalanish va tahlil qilish qobiliyatiga asoslangan holda katta tezlikda rivojlanishda davom etmoqda [7]. Masalan, Global Internet Protokol (IP) trafigi, ma'lumotlar oqimi uchun proksi 1992-yilda kuniga 100 gigabaytdan (GB) 2017- yilda sekundiga 45000 Gb dan oshdi va dunyo faqat ma'lumotlarga asoslangan iqtisodiyotning dastlabki kunlaridadir. Shu yo'sinda 2022-yilga kelib global IPtrafik sekundiga 150,700 Gbaytga yetkazilishi prognoz qilinmoqda(1-rasm).

2002
100 GB
per second

2007
2 000 GB
per second

2017
46 000 GB
per second

2022
150 700 GB
per second



1-rasm. Tanlangan yillarda global internet-trafik evolyutsiyasi⁹⁸.

Ma'lumot to'plash va undan foydalanishning rivojlanishi va siyosati oqibatlari ma'lumotlar turiga bog'liq:

- ✦ shaxsiy yoki shaxsiy bo'lmagan;
- ✦ xususiy yoki jamoaviy;
- ✦ tijorat yoki davlat maqsadlarida; ▪ ko'ngilli, kuzatilgan yoki taxmin qilingan; ▪ ta'sirchan yoki ta'sirchan bo'lmagan.


Ma'lumotlar to'plash, ma'lumotlardan tushunchalarni ishlab chiqarish, ma'lumotlarni saqlash, tahlil qilish va modellashtirishni qo'llab-quvvatlaydigan firmalarni o'z ichiga olgan "ma'lumotlar qiymati zanjiri" butunlay rivojlandi. Tannarx berilgan ma'lumotlar raqamli intellektga aylantirilib, tijorat masalalarida foydalanish uchun pulga aylantirilganda shakllanadi.

Raqamli platformalar Internetda bir nechta tomonlarni birgalikda harakatlanish uchun birlashtirish mexanizmlarini ta'minlaydi. Tranzaksion platformalar va innovatsion platformalar mavjud bo'lib, tranzaksion platformalar - bu ikki yoki ko'p tomonlama bozor, u turli tomonlar o'rtasidagi almashinuvlarni qo'llab-quvvatlaydigan onlayn infratuzilma. Ular yirik raqamli korporatsiyalar (Amazon, Alibaba, Facebook va eBay singari), shuningdek, raqamli qo'llab-quvvatlanadigan tarmoqlarni (Uber, Didi Chuxing yoki Airbnb) ma'qul ko'radiganlar uchun asosiy biznes modeliga aylandi. Innovatsion platformalar, masalan, operatsion tizimlar (masalan, Android yoki Linux) yoki texnologiya standartlari(MPEG video) shaklida ilova dasturlar va dasturiy paketlar ishlab chiqish uchun kod va kontent ishlab chiqarish uchun muhit yaratadi.

So'nggi o'n yillikda butun dunyo bo'ylab raqamli ma'lumotlarga asoslangan biznes modellaridan foydalangan holda ko'plab raqamli platformalar paydo bo'ldi va ular mavjud sanoat tarmoqlari o'rnini egalladi. Platformalarning ustunligi shundaki, bozor kapitallashuvi bo'yicha dunyodagi yetakchi sakkizta kompaniyaning yettitasi platformaga asoslangan biznes modellaridan foydalanishadi.

⁹⁸ Digital 2019: global digital overview. Value creation and capture: implications for developing countries. UNCTAD, 2020. p 11.

Market capitalisation of top and bottom companies




Source: Bloomberg with PwC analysis

2-rasm. Yuqori va quyi o‘rinlardagi kompaniyalarning bozor kapitallashuvi [8].

Raqamli iqtisodiyotda platformaga asoslangan biznes katta ustunlikka ega. Ham vositachi, ham infratuzilma sifatida ular onlayn harakatlar va platforma foydalanuvchilari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar bilan bog‘liq barcha ma’lumotlarni yozib olish va o‘chirish imkoniyatiga ega. Raqamli platformalarning o‘shishi ularning raqamli ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish qobiliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq, ammo ularning qiziqishlari va xatti-harakatlari daromad olish uchun ushbu ma’lumotlarni qanday qilib tijoratlashtirayotganliklariga bog‘liq.

Jug‘rofiy jihatdan, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi juda notekis. Hozirgi vaqtda dunyo raqamli iqtisodiyotga o‘tmagan va giperraqamli mamlakatlar o‘rtasidagi keskin farq bilan ajralib turadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda har besh kishidan to‘rttasi, kam rivojlangan mamlakatlarda esa har besh kishidan bittasi Internetdan foydalanadi.



3-rasm. Hududlar kesimida Internet qamrovi [9].



Raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy jug‘rofiyasi Shimol va Janub o‘rtasidagi an’anaviy farqni ko‘rsatmaydi. Uni rivojlangan va izchil rivojlanayotgan – AQSh va Xitoy boshqarib kelmoqda. Masalan, ushbu ikki mamlakat blokchayn texnologiyalari bilan bog‘liq barcha patentlarning 75 foizi, narsalar Interneti (internet of things - IoT)ga sarflanadigan xarajatlarning 50 foizi va umumfoydalanishdagi bulutli texnologiyalar dunyo bozorining 75 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Va, eng ajablanarlisi, ular dunyodagi 70 ta eng yirik raqamli platformalar bozor kapitallashuv qiymatining 90 foizini tashkil etadi. Yevropaning ulushi 4 foiz, Afrika va Lotin Amerikasini esa atigi 1 foiz.

Bu “super platforma”lar – Microsoft, undan keyin Apple, Amazon, Google, Facebook, Tencent, Alibaba umumiy bozor qiymatining uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Shunday qilib, ko‘plab raqamli texnologik ishlanmalarda dunyoning qolgan qismi, ayniqsa Afrika va Lotin Amerikasi AQSh va Xitoydan ancha orqada qolmoqda. Mavjud savdo friksiyalarining ayrimlari oxirgi texnologiyalar sohasida global miqyosda hukmronlik qilishga intilishni aks ettiradi.

Raqamli iqtisodiyot qiymati, u bilan bog‘liq qiymatlarni yaratish va egallashda ayrim qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.

Birinchidan, raqamli iqtisodiyotning umumqabul qilingan ta’rifi yo‘q.

Ikkinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda uning asosiy tarkibiy qismlari va o‘lchamlari to‘g‘risida ishonchli statistika yo‘q. Vaziyatni yaxshilash bo‘yicha bir nechta tashabbuslar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, ular yetarli emas va raqamli iqtisodiyotning tez sur‘atlar bilan rivojlanishiga qarshilik qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot o‘lchamlari dunyo yalpi ichki mahsulotining 4,5 foizidan 15,5 foizigacha o‘zgardi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida qo‘shilgan qiymatga kelsak, AQSh va Xitoy birgalikda dunyo YaIMning qariyb 40 foizini tashkil qiladi. Yalpi ichki mahsulotda ushbu tarmoq ulushi Xitoyning Tayvan provinsiyasi, Irlandiya va Malayziyada eng yuqori hisoblanadi.

AKT sohasida kompyuter xizmatlari eng katta tarkibiy qism bo‘lib, qo‘shilgan qiymatning 40 foizini tashkil etadi. Butunjahon kompyuter xizmatlari sanoatida AQSh ustunlik qiladi; ushbu sohaning sanoat qo‘shilgan qiymatidagi ulushi to‘qqizta yirik



iqtisodiyotning jami ulushidan katta. Bu borada Hindiston rivojlanayotgan davlatlar orasida eng katta ulushga ega. Barcha mintaqalar bo'yicha o'sib boradigan yagona tarmoq bo'lgan kompyuter xizmatlari ushbu sohada bandlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. AKT ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymat Sharqiy Osiyoda yuqori darajada to'plangan (Xitoy boshchiligida) va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ushbu sektordan qiymat olish imkoniyati cheklangan bo'lishi mumkin. So'nggi o'n yillikda, raqamli ravishda yetkazib berilishi mumkin bo'lgan AKT xizmati va xizmatlarining global eksporti umumiy xizmatlar eksportiga nisbatan ancha tez o'sdi, bu dunyo iqtisodiyotining tobora rivojlanib borayotganligini aks ettiradi. Raqamli ravishda yetkazib beriladigan xizmatlar eksporti 2018yilda 2,9 trln AQSh dollar (2008-yilda 1,8 trln. AQSh dollar) yoki global xizmatlar eksportining 50 foizini tashkil etdi. Kam rivojlangan mamlakatlarda bunday xizmatlar umumiy xizmatlar eksportining qariyb 16 foizini tashkil etdi va 2005-yildan 2018-yilgacha ular uch baravar ko'paydi[10].

Raqamli platformalar dunyo iqtisodiyotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bozor kapitallashuvi 100 million AQSh dollaridan oshgan platforma kompaniyalarining umumiy qiymati 2017-yilda 7 trln dollardan oshiqroq baholandi – bu 2015-yilga nisbatan 67 foizga yuqori. Ba'zi global raqamli platformalar ma'lum sohalarda juda kuchli bozor pozitsiyalariga erishdilar. Masalan, Alphabet (Google) Internetda qidirish bozorining 90 foiziga egadir. Facebook global ijtimoiy media bozorining uchdan ikki qismini tashkil qiladi va dunyo iqtisodiyotining 90 foizidan ortig'ida eng yaxshi ijtimoiy media platformasi hisoblanadi. Amazon dunyodagi onlayn chakana savdo faoliyatining qariyb 40 foiz ulushiga ega va uning Amazon Web Services global bulut infratuzilmasi xizmatlari bozoridagi ulushi ham shuncha ulushni tashkil etadi. Xitoyda WeChat (Tencentga tegishli) bir milliarddan ortiq faol foydalanuvchilarga ega va Alipay (Alibaba) bilan birgalikda uning to'lov yechimi deyarli butun Xitoy bozorini mobil to'lovlar uchun egallab oldi. Shu bilan birga, Alibaba Xitoy elektron tijorat bozorining qariyb 60 foiziga ega.

Ushbu raqamli gigantlarning dominantlikka tezda ko'tarilishini tushuntirishga bir nechta omillar yordam beradi:

- tarmoq effekti bilan bog'liq (ya'ni, platformada qancha ko'p foydalanuvchilar bo'lsa, bu hamma uchun qadrlil bo'ladi);



- platformalarni ma'lumotlarni to'plash, boshqarish va tahlil qilish qobiliyati tarmoq effekti singari, ko'proq foydalanuvchilar ko'proq ma'lumotni anglatadi va ko'proq ma'lumotlar potensial raqiblarni ortda qoldirib, birinchi darajadagi afzalliklar va katta kapitallashtirish qobiliyatini anglatadi;

- platforma tortishishni boshlagan va turli xil integratsiyalangan xizmatlarni taklif qila boshlaganidan so'ng, muqobil xizmat ko'rsatuvchi provayderga o'tishda foydalanuvchilar uchun xarajatlar o'sishni boshlaydi.

Global raqamli platformalar potensial raqobatchilarni jalb qilish va qo'shimcha mahsulotlar yoki xizmatlarni kengaytirish orqali raqobatdosh pozitsiyalarini mustahkamlash uchun choralar ko'rdi. Raqamli platformalar tomonidan Microsoftning LinkedInni egallashi va Facebookning WhatsAppni sotib olishidir. Alphabet (Google) va Microsoft tegishli ravishda Motorola va Nokia kompaniyalarini sotib olib, telekommunikatsiya uskunalariga sarmoya kiritdilar. Yirik platformalar, shuningdek, chakana savdo, reklama va marketing sanoatida hamda noturar ko'chmas mulk sohalarida boshqa yirik xaridlarni amalga oshirdi.

Raqamli iqtisodiyot ishlashi uchun siyosat ko'plab mamlakatlarning birgalikdagi harakatlariga bog'liq. Bu mavjud siyosat, qonunlar va me'yoriy hujjatlarni moslashtirish, ko'plab sohalarda yangilarini qabul qilishni talab qiladigan katta vazifadir. Ko'plab mamlakatlar uchun raqamli iqtisodiyot va uning uzoq muddatli oqibatlari mavxum bo'lib qolmoqda.

Ayrim muammolar milliy siyosat va strategiyalar orqali hal qilinishi mumkin bo'lsada, raqamli iqtisodiyotning global tabiati ko'proq darajadagi muloqot, konsensus va xalqaro miqyosda siyosat olib borishni talab qiladi.

Ma'lumotlar maxfiyligi va ma'lumotlar xavfsizligi alohida e'tibor talab qiladi. Shaxsiy ma'lumotlar o'g'irlanishiga qarshi kurashish, shaxsiy ma'lumotlarning qanday to'planishi, ishlatilishi, uzatilishi yoki olib tashlanishi bo'yicha qoidalar o'rnatilishi va raqamli iqtisodiyotga asoslangan biznes modellari butun jamiyatga daromad keltirishi uchun qonun va qoidalar zarur. 2018-yil may oyida kuchga kirgan Yevropa Ittifoqining "Ma'lumotni himoyalashning umumiy qoidalari" (General Data Protection Regulation) bugungi kunda global ahamiyatga ega ma'lumotlarni himoya qilishning keng qamrovli yondashuvidir.



Raqamlashtirish turli mamlakatlarga har xil ta'sir qiladi va individual hukumatlar turli xil qonuniy davlat siyosatining maqsadlarini bajarish uchun raqamli iqtisodiyotni tartibga solish uchun siyosiy maydonni talab qiladi. Raqamli ma'lumotlarga ishlov berish va tartibga solish murakkab, chunki ular inson huquqlari, savdo, iqtisodiy qiymatni yaratish va egallash, huquqni muhofaza qilish va milliy xavfsizlikka tegishli. Ushbu turli o'lchovlarni hisobga oladigan siyosatni shakllantirish qiyin, ammo shunga qaramay zarurdir. Bundan tashqari, daromadlarning samarali taqsimlanishi va raqamli uzilishlar bilan kurashish ko'proq ijtimoiy himoya choralari va ishchilarni qutqarish uchun harakatlarni talab qiladi.

Xulosa va takliflar

Raqamli transformatsiya bugungi kunda, ayniqsa hozirgi pandemiya sharoitida juda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotning mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rni va jahon iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatini anglagan holda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Raqamli iqtisodiyotda ilgari borayotgan davlatlarda qo'llab-quvvatlashning yanada keng qamrovli usullarini o'rganish;
- mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish;
- raqamli iqtisodiyot uchun zarur infratuzilmani yaratish, avvalo Internetga kirish imkoniyati cheklangan yoki umuman mavjud bo'lmagan hududlarni tizimga ulash;
- raqamli iqtisodiyot uchun zarur mutaxassis-kadrlarni tayyorlash tizimi faoliyatini takomillashtirish;
- hukumatlar, fuqarolik jamiyati, akademiya, ilmiy hamjamiyat va texnologiya sohasi yangi echimlarni topish uchun birgalikda tadqiqot ishlarini rivojlantirish;
- raqamli ishlab chiquvchilar strategiyalari va globallashtirishning kelajakdagi konturlarini qayta aniqlashtirish uchun yangi texnologiyalardan oqilona foydalanish, sheriklik munosabatlarini mustahkamlash va intellektual yetakchilikni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Digital_economy
2. <http://xs.uz/uzkr/post/davlatimiz-rahbari-2030-jilgacha-raqamli-ozbekiston-2030-dasturini-amalga-oshirishni-taklif-etdi>



3. Gulyamov, S.S. va b. (2019). Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. -T.: Iqtisod-Moliya. 396 b.
4. Ayupov, R.X., Baltabaeva, G.R. (2018). Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T: Fan va texnologiya. 172 b.
5. <https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html>
6. <file:///C:/Users/user/Downloads/global-top-100-companies-2019.pdf>
7. Digital 2019: global digital overview. Value creation and capture: implications for developing countries. UNCTAD, 2020.
8. World Trade Statistical Review 2019 - World Trade Organization.
9. Kurpayanidi, K., Ilyosov, A. (2020) Problems of the use of digital technologies in industry in the context of increasing the export potential of the country// ISJI Theoretical & Applied Science. p. 113-117.
10. Abdullayev, A. M., & Kurpayanidi, K. I. (2020) Analysis of industrial enterprise management systems: essence, methodology and problems. Journal of Critical Reviews, 7 (14), 1254-1260. <https://dx.doi.org/10.17605/OSF.IO/E6JFS>



YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYATGA TA’SIRI

To‘rayev Asrorbek Akmaljon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti

Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi o‘qituvchisi

e-mail: turayevasror91@gmail.com

Soyibjonov Islombek Sodikjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti

Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi o‘qituvchisi

e-mail: soyibjonovislombek93@gmail.com

Mirzatojiyev Shoxijaxon Karimjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda yashirin iqtisodiyot tushunchasi, yashirin iqtisodiyotning mamlakatimizda tutgan o‘rni, u keltiradigan zararlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari xorijiy davlatlarda o‘tkazilgan yashirin iqtisodiyot tadqiqotlari borasida ham mulohaza qilingan.

Kalit so‘zlar: *xufiyona iqtisodiyot, jinoiy iqtisodiy faoliyat, g‘ayriqonuniy, yashirin lobbizm, g‘ayriiqtisodiy, yashirin iqtisodiy aylanma, o‘shor zonalar.*

Yashirin iqtisodiyot oshkora payqab bo‘lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste’mol jarayonlari – iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlarini yaratadi. Yashirin iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud. Xufiyona iqtisodiyot – ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to‘lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlaridir.

Yashirin iqtisodiyot – murakkab ko‘p bosqichli hodisa bo‘lib, uning turli xil shakl va turlari bor:

1. Jinoiy iqtisodiy faoliyat. Bu mutlaqo man qilingan, qonun yo‘li bilan ta’qib etiladigan ishlar bilan shug‘ullanish, ya’ni narkobiznes, qurol biznesi va hokazolar.



2. G‘ayriqonuniy, g‘ayriiqtisodiy usullar bilan daromadlarni qayta taqsimlab o‘zlashtirib olish, ya‘ni o‘g‘irlik, bosqinchilik, reket, poraxo‘rlik.

3. Ikkilamchi iqtisodiyot – kishilarga zarar keltirmaydigan, ular uchun naf beradigan, lekin rasman ruxsat etilmagan va davlat ro‘yxatidan o‘tmagan iqtisodiy faoliyat. Ularga yashirin tadbirkorlik, 1-2 va 5-10 kishi band bo‘lgan yashirin kichik korxonalar faoliyati kiradi. Yashirin tadbirkorlik xizmat ko‘rsatish, qurilish, savdo, kiyim-kechak ishlab chiqarishda keng tarqalgan.

4. Rasman ruxsat etilgan faoliyat bilan birga qo‘shimcha ravishda yashirin ishlab chiqarishga qo‘l urish, ochiq ishlaydigan korxonalarda qo‘shimcha ravishda hisobga kirmagan mahsulot chiqarib, uni **yashirin sotish**.

5. Mansabni suiiste‘mol qilish va korrupsiyaga asoslangan iqtisodiy xatti-harakatlar. Bular jumlasiga davlat idoralaridagi poraxo‘rlik, yashirin lobbizm, mansabdan foydalanib subsidiyalar olishni kiritish mumkin.

6. Qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyat – bu iqtisodiyot davlat sektoriga xos bo‘lib, davlatni aldashga qaratiladi. Buning eng yaqqol namunasi davlat sektoridagi qo‘shib yozishlar, qilinmagan ishlar uchun davlatdan haq olish va shu turdagi ishlardir.

Yashirin iqtisodiyot miqyosi yashirin iqtisodiy aylanma, ya‘ni ruxsat etilmagan tovar va xizmatlarni yaratish va ularni sotish hajmi bilan belgilanadi. Aylanma xufiyona bo‘lganidan uning aniq hisob-kitobi bo‘lmaydi. Buning o‘rniga uni taxminan baholash usuli qo‘llaniladi. Ayrim hisob-kitoblarga ko‘ra, o‘tgan asr oxirlarida yer yuzidagi yashirin iqtisodiy aylanma 8 trln. dollarga yoki jahon yalpi mahsulotining 27,5% ga teng bo‘lgan. Biroq yashirin iqtisodiyot miqyosi turli mamlakatlarda farqlanadi. Yashirin iqtisodiyot eng rivojlangan mamlakatlarga Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari kiradi. 1999-yil Misr va Nigeriyada yashirin iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 70% ga teng bo‘ldi. Yashirin iqtisodiyot hissasi eng kam bo‘lgan mamlakat Osiyoda Yaponiya (1–2%), G‘arbiy Yevropada Shveysariya hisoblanadi. MDH mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot darajasi o‘rtacha. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, masalan, AQSH va Italiyada yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi tegishlicha 6,4 va 11,4% ni tashkil etdi (1997). 21-asrga kelib iqtisodiyotning globallashuvi oqibatida yashirin iqtisodiyot milliy doiradan chiqib, xalqaro darajaga ko‘tarildi.



Yashirin iqtisodiyot globallashuvi bu bir mamlakatdagi yashirin iqtisodiyot boshqa mamlakatga ko‘chirilishida, nojo‘ya biznes ishlari bilan shug‘ullanuvchi xalqaro firmalarning paydo bo‘lishida ko‘rinadi. Bunga misol qilib xalqaro narkobiznesni, yashirin qurol savdosini, ishchi kuchining yashirin migratsiyasini uyushtirishni, offshor zonalar orqali g‘ayriqonuniy yo‘llar bilan topilgan pulni “halollab” olish kabilarni ko‘rsatish mumkin. Bular xalqaro hamjamiyatga katta xatar tugdiradi. Pulni chet mamlakatga yashirin chiqarib “halollab” olishga qarshi kurash maqsadlarida xalqaro hamjamiyat maxsus tashkilot – Xalqaro moliyaviy harakatlar guruhini tashkil etgan (36 mamlakat a‘zo; 2000).

Yashirin iqtisodiyotni faqat salbiy taraflarini emas, aksincha uning jamiyatga keltiradigan foydalarini ham yaxshilab o‘rganib chiqishimiz ustuvor vazifamizdir. Yashirin iqtisodiyot bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga quyidagi yo‘llar bilan ularga imkon berib, o‘z tadbirkorligini ochiq-oshkora amalga oshirishi mumkinligini ko‘rib chiqamiz:

1. Yashirin iqtisodiyot bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga qanchadur muddat evaziga soliqlarni kamaytirish yoki soliqlardan ozod etish orqali, keyinchalik muddat tugaganidan keyin esa ulardan soliq olish. Hozirgi kunda yashirin iqtisodiyot ham xalqaro darajaga ko‘tarilgan. Shu tufayli ularda ham aylanma daromad ko‘payganligini tahmin qilishimiz mumkin. Tahmin qilishimizga sabab esa ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmasligi, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmasligidir. Aylanma daromad ko‘p bo‘lganligi sababli ular to‘laydigan soliq ham shunga yarasha ko‘p bo‘ladi, agar ular o‘z tadbirkorligini oshkora amalga oshirsa.

2. Agar ular ishlab chiqargan mahsulot davlatga va insonlarga naf keltiradigan bo‘lsa, ularga imtiyozlar va kreditlar berish orqali o‘z tadbirkorligini yanada rivojlantirishi uchun yordam berib qo‘llab-quvvatlash.

3. Ortiqcha hujjatbozlikni kamaytirish orqali.

4. Jarimalarni kamaytirish orqali.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki yashirin iqtisodiyotni qisqartirish imkonsiz emas. Buning uchun puxta o‘ylangan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan puxta strategiya kerak. Bunday strategiyaga erishishda albatta birinchi navbatda aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar aholiga xufiyona iqtisodiyotning



salbiy asoratlari muntazam ravishda tushuntirib borilsa, bu orqali xufiyona iqtisodiyot ma'lum darajada bartaraf etishga erishilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramovich N.A. The priority of using innovative technologies in the agricultural education system // Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – С. 185–191.

2. Хакимов О.М., Курбанов З.Х., Мухаммедов Ф. Реализация возможностей получения легких наполнителей на основе меньше пластиковых почв в нашей республике // Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 176–181.

3. Мухтаров Б. А., Ортиков Ё. Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане // Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375–378.

4. Rashidov U., Rashidov A. Assessment of Costs For the Quality of Logistics Activities // International journal of business diplomacy and economy. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 39–43.

5. Ҳосилмуродов И., Султоналиева Г. Тафаккур услубининг фалсафий методологик таҳлили // Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 549–551.

6. Nodira T. Innovative management in the development of the higher education system // Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 346–351.

7. Ali o'g'li A.O. Statistical study of direct maintenance of small business activities in the regions // EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEER). – 2022. – Т. 10. – №. 6. – С. 30–33.



FALSAFA FANLARI

09.00.00

ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ

PHILOSOPHICAL SCIENCES

IJTIMOIIY TARMOQLARNING ZAMONAVIY YOSHLAR HAYOTIGA TA’SIRI

Rayomjonova Sitora Muhammadjon qizi

Namangan davlat uversiteti magistranti

Annotatsiya: Maqola ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotiga ta'sirining dolzarb muammosini ko'rib chiqishga bag'ishlangan: ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotiga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan va respondentlarning ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazgan vaqti aniqlanadi. Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy muloqot vositasi sifatida jamiyatga, xususan, yoshlarga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoq, yoshlar, zamon, internet olami, muammo, tahdid, ruhiy.

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ЖИЗНЬ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ

Райимжоновна Ситора Мухаммаджоновна

магистрант Наманганского государственного университета

Аннотация: Статья посвящена рассмотрению актуальной проблемы влияния социальных сетей на жизнь молодежи: анализируются данные о влиянии социальных сетей на жизнь молодежи и определяется время, проводимое респондентами в социальных сетях. определенный. В заключение можно сказать, что социальные сети как средство социальной коммуникации оказывают как положительное, так и отрицательное воздействие на общество в целом и на молодежь в частности.

Ключевые слова: Социальная сеть, молодежь, время, интернет-мир, проблема.

THE INFLUENCE OF SOCIAL NETWORKS ON THE LIFE OF MODERN YOUTH

Rayimjonova Sitora Muhammadjonovna

Graduate student of Namangan State University



Abstract: *The article is devoted to the consideration of the actual problem of the influence of social networks on the life of young people: the data on the influence of social networks on the life of young people are analyzed and the time spent by respondents on social networks is determined. In conclusion, it can be said that social networks as a means of social communication have both positive and negative effects on society in general, and on young people in particular.*

Key words: *Social network, youth, time, internet world, problem.*

Kirish. Hozirgi zamonaviy texnika asrining asosiy muammolaridan biri bu ijtimoiy tarmoqlarning insonlarga tas'iri bo'lib qoldi. Aynan shuning uchun ham bu mavzuga juda kop etibor qaratilyabdi. Bugungi kunda deyarli barcha faoliyatimiz ijtimoiy tarmoqlarga bog'liq bo'lib qoldi. Hattoki ba'zi odamlar uchun ijtimoiy tarmoqlar hayotining bir qismiga ham aylanib ulgurdi.

Ijtimoiy tarmoq - platforma, onlayn xizmat, veb-sayt, inernet global komputer tarmog'ida ijtimoiy munosabatlarni qurish, aks ettirish, tashkil qilish uchun mo'ljallangan[7]. IT-texnologiyalarning rivojlanishi bilan ijtimoiy tarmoqlar deb ataladigan narsalar keng tarqaldi. Ijtimoiy tarmoqlarning asl maqsadi odamlarni birlashtirish edi. Ularning yordami bilan masofadan turib aloqani davom ettirish mumkin bo'ldi. Ko'pchilik qarindoshlarini, sinfdoshlarini va bolalikdagi do'stlarini topdi. Onlayn yozishma qobiliyati mobil hisobingizdagi pulni sezilarli darajada tejaydi, ayniqsa sizda cheksiz Internet-xizmat paketi mavjud bo'lsa, chunki siz boshqa mamlakatga qo'ng'iroq qilishingiz shart emas[6].

Metodlar. Ijtimoiy tarmoqlar haqida ilk bora o'z tasavvurlarini bayon qilgan olimlar R.Solomonov va A.Rapoport o'tgan asr o'rtalarida muloqotning virtual ko'rinishi haqida o'z fikrlarini bayon qilishgan. Vengriyalik mutaxassislar P.Erdos va A.Renilar ijtimoiy tarmoqlarni shakllantirish borasidagi tasavvurlarini aytib o'tishgan. Internet tarmog'ida insonlar o'rtasidagi muloqotning avj olishi, rivojlanib ketishini esa olimlar ijtimoiy tarmoqlarning tezkor faoliyati bilan bog'lashadi. Dunyodagi va mamlakatimiz miqiyosidagi yangiliklar judayam tezkorlik bilan ijtimoiy tarmoqlar: telegram, instagram, facebook, twitter vahokazo orqali tarqalmoqda, bu esa barcha uchun qulay bolib qolgan va ushbu yangiliklarga



o‘z fikrlarini ochiq bayon qila olishayabdi. Statistika ko‘ra, dunyo aholisining 59 foizi yoxud 4.7 milliard odamlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishadi va ushbu raqamlar yiliga 5.1% yoki 227 millionga oshib bormoqda. O‘zbekiston davlat statistika qomitasi ma’lumotiga ko‘ra O‘zbekiston aholisining 27,2 milliondan ortigi internet xizmatidan foydalanishar ekan. Daryo.uz axborot saytining 2022-yildagi bir kunda odamlar qancha vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga sarflashi borasidan sorovnomasiga ko‘ra yoshi katta qatlam 2-3 soatini, yoshlar esa 8-9 va undan ko‘roq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga sarflashini aytgan. Bundan ko‘rinib turibdiki biz ko‘proq etibor qaratishimiz kerak bo‘lgan qatlam bu yoshlar qatlamidir. Ruhshunoslarning ma’lumotlariga qaraganda, yoshlar buzg‘unchi, destruktiv g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet hali to‘la shakllanmagani uchun o‘qigan yoki ko‘rgan ma’lumotlariga tez ishonishadi[8].

Internet tarmoqlari asosan yoshlarning vaqtini o‘gilamoqda va achinarlisi ushbu yoshlar bekor sarflangan vaqt uchun hech qanday achinishni his qilishmayabdi. Aslida ham bu tarmoqlar har qanday hayotta maqsadiga ega shaxsni ham chalg‘ita oladi[1]. Bu tarmoqlarga bog‘lanib qolish oson, ular sizning kasbiy va shaxsiy maqsadlaringiz yo‘lidagi harakatlardan vaqtingiz va diqqatingizni chalg‘itadi. Oxir-oqibat, agar siz ushbu vositalardan meyordan ortiq foydalansangiz, xoldan toyasiz va Baratunde Turston va u kabi millionlab odamlarni bezovta qilgan chalg‘ish xolatiga tushib qolasiz. Chunki globallashuv butun dunyoda mafkuraviy ta’sir o‘tkazish ko‘lamini juda oshirib yubordi. Inson o‘z fikriga, dunyoqarashiga ega bo‘lmasa, insonga bo‘ladigan ma’naviy tahdidlarga bardosh bera olishi juda qiyin bo‘ladi[2]. Kel Nyuportning ushbu fikrlari hozirgi zamonning dolzarb muammosidir. Hattoki o‘z fikri o‘z dunyoqarashiga ega yoshlar ham sekin-asta internet tarmoqlaridagi saviyasiz tanqidlar va media kontentlarga ko‘p vaqtini sarflashi oqibatida shaxsiy fikrlash qobiliyati yoqolib boradi. Bunday yoshlar chiroyli nomlangan har qanday buzg‘unchi da’vatlarga qoshilib ketaveradi. Albatta har qanday yoshdagi odamlarning hayotdagi o‘z vazifalari mavjud, ayniqsa yoshlar asosiy vazifani bajaradi deb o‘yalyman, chunki keyingi 10 yillikning taqdiri o‘sha davrning yoshlariga bog‘liq bo‘ladi. “Bu dunyo – muttasil aylanib turadigan murakkab mexanizm. Odamlar o‘sha mexanizmning kichik bir vintchasi, xolos. Har bitta vintcha o‘z vazifasini ado



etmog‘i lozim. Bittasi ishlamay qolsa, ko‘rasiz nima bo‘lishini! Butun boshli mexanizm chok-chokidan so‘kilib ketadi”[3].

Natijalar. 2021-yil 2-dekabrda “internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta’siri” mavzusida bolib o‘tgan xalqaro workshopda ham ijtimoiy tarmoqlarning hamma uchun qulayligi, tezda axborot almashish mumkinligi, ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘z dunyoqarashini namoyon qilishning eng qulay usuli sifatida foydalanuvchi yoshlar orasida uning juda mashhurligi tufayli hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri juda yuqori ekani ta’kidlandi.[8]

Internetdagi yomon illatlardan, har xil tahdidlar, begona g‘oyalar ta’siridan yoshlarimizni asrab-avaylash maqsadida Oliy Majlis yuqori palatasi ya’ni Senati 2022- yil 4-fevralda bo‘lib o‘tgan 23-yalpi majlisda internetda yoshlar va voyaga etmaganlar uchun milliy kontentni yo‘lga qo‘yish, ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi va ularni zararli, foydasiz axborotdan himoya qilish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga parlament so‘rovi yuborishga qaror qildi[9].

Yoshlarning hammasi ham vaqtini mazmunli rejalashtira olmaydi. Ko‘plab yoshlar judayam kop vaqtini ijtimoiy tarmoqda otkazadi va yoshlar o‘zlarini haqiqiy jamiyat bilan munosabatlaridan mahrum qiladilar, buning natijasida jamiyatdagi sotsializatsiya, odamlar bilan haqiqatda muloqot qila olmaslik bilan bog‘liq muammolar paydo bo‘ladi. Bunday yoshlar jismoniy faoliyat orqali mablag‘ topishdan ko‘ra «aqliy faoliyat» orqali ijtimoiy tarmoqlarda, garchi hech qanday sohadagi bilimga ega bolmasa ham har hil guruhlariga a’zo bo‘lish, har hil o‘yinlarni o‘ynash orqali pul topishga harakat qiladi. Buning natijasida yoshlar hayotiga xavf soladiga guruhlariga qo‘shilib qolib oxir oqibat joniga qasd qilayotganlar yoshlarning soni o‘sib bormoqda.

Butunjahon Internet tarmog‘ida bo‘lgan yoshlar o‘zlari haqida juda ko‘p ma'lumotlarni joylashtiradilar, bu ko‘pincha ularga qarshi ishlatilishi mumkin. Ko‘pincha tanqidga yoki onlayn haqoratlarga juda og‘riqli munosabatda bo‘lishadi yoki turli maqsaddagi odamlar tomonidan o‘ziga qaratilgan tanqidlarga duch kelishi mumkin, bu esa oxir-oqibat jiddiy ruhiy kasalliklarga olib keladi.



Jadallashayotgan taraqqiyot davrida internetni cheklash va turli ijtimoiy tarmoqlarni bloklash bilan yoshlarimizni salbiy ta'sirlardan asrab qola olmaymiz. Buning o'rniga biz ularni iste'molchi madaniyatiga o'rgatish, saralash va eng a'lolarini o'zlariga ravo ko'rish kabi fazilatlarni yoshligidan singdirib borish lozimdir.

Munozara. Texnik taraqqiy etgan jamiyatda yashar ekanmiz,internet tizimining ijtimoiy tarmog'idan olingan narsa to'g'ri, ishonchli va zararsiz ekanini bilishimiz kerak. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan har qanday ma'lumot-xabarlarini haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga solmoqda. Ular g'arazli maqsadlari yo'lida yoshlarda buzg'unchilik, begunoh odamlar qonini nohaq to'kish kabi jinoyatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq orasida nizo chiqarishga harakat qilishmoqda. Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan yoshlar vaqt, umr g'animat ekanini doimo yodda saqlamog'i lozim. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra insonlarning ijtimoiy tarmoqda sarflaydigan minimal vaqti 3 soatni tashkil etadi. Bir qarashda kishini xavotirga soladigan hech narsa yo'qdek[5]. Ammo bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo'lib, unda inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o'tkazib yuborish bilan birga yoshlarimiz o'jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar-pisandga olmaydi, ajdodlar qadriyatlarini inkor etadi[4].

Ijtimoiy tarmoqlarning foydali taraflari ham anchagina. Eng birinchisi barcha turdagi adabiyotlarga ega ulkan kutubxonalarining mavjudligi. Ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy kanallar, guruhlar orqali istalgan kitobni online yoki audio formatda bepul yuklab olish mumkin, bu esa o'quvchi yoshlar uchun ham kattalar uchun ham juda qulay. Bunday kitoblardan har joyda foydalana oladilar. Bundan tashqari huddi shunday kanal va guruhlar orqali hunar va kasb organish ham mumkin. Tadbirkorlar uchun esa oson va arzon reklama zonasiga aylandi. Ko'pgina psixologlar va o'qituvchilarning ta'kidlashicha, ijtimoiy tarmoqlarning asosiy afzalliklari o'z-o'zini anglash, o'xshash qiziqishlarga ega bo'lgan yangi do'stlar, shuningdek, turli xil ma'lumotlarni topish imkoniyati mavjud. Ijtimoiy tarmoqlar olamida siz o'zingizni qobilyatingizni namoyon qila olishingiz mumkin yoki mamlakat va dunyoning turli burchaklarida joylashgan boshqa odamlar bilan fikr almashishingiz mumkin. Ijtimoiy tarmoq manbaalari zamonamiz o'smirlarini bilim doirasini va dunyoqarashini



kengaytiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “...eng avvalo,yoshlar va aholi o‘rtasida mamlakatimizning boy tarixini,uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib qilishda, jahon ilm-fani va adabiyot yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda. Bu borada zamonaviy kompyuter texnologiyalari va ayniqsa internet tizimi ancha ildamlab ketganini ham inobatga olish zarur”, degan[1].

Xulosa. Internet tarmoqlarining ijobiy ta’siri ham salbiy ta’siri ham asosan o‘smir yoshdagilar bilan bog‘liq. Ijtimoiy tarmoqlardan qanday foydalanish har bir shaxsning oziga va maqsadiga bog‘liq. Umuman olganda insoniyat zamonaviy texnologiyalardan manfaatli foydalanib ularni o‘ziga tobe qilishi kerak. Ammo yuqoridagi kabi vaziyatlar tobora avj olib borgani sari insoniyat zamonaviy texnologiyalarning chinakam quliga aylanishi aniq. Kun kelib bu dunyodan ko‘z yumayotganda yosh umr va vaqtimizni bekorchi oddiy ammo chinakamiga xavfli tuzoqlarga tushib bularni bexuda havoga sarf qilganimizdan afsuslanib qolmaylik. Shu ijtimoiy tarmoqlarga ketkazgan bexuda vaqtlar yani keraksiz video va media kontentlarni ko‘rishning o‘rniga, o‘z ustimizda ishlaylik.

Yuqoridagilardan kelib chiqib yoshlarda salbiy g‘oyalar va yondashuvlarga qarshi immunitetni shakllantirish, kelajagimizning poydevori bo‘lgan yoshlarning tarbiyasida aslo loqaydlik bilan qaramasligimiz shartdir. Albatta bu borada yosh avlodga to‘g‘ri yo‘lni kattalar ko‘rsatadi. Har bir ota-ona va ustozlar bolalarga yoshligidan ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo‘lib qolmaslik va ulardan faqatgina o‘z ehtiyojlari yo‘lida foydalanish haqida tushunchalar berib borsalar, o‘smir yoshdagi farzandlariga e’tiborli va sirdosh bo‘la olsalar bu yoshdagi bolalar to‘g‘ri yo‘lni tanlay oladilar deb o‘ylayman.

Foydalanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi k.k //Xalq so‘zi,2017 16 yanvar
2. Kel Nyuport “Diqqat”.
3. O‘. Xoshimov “Tushda kechgan umrlar”
4. “Yangi O‘zbekiston” sayti.



5. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T.: “Movaraunnahr”, 2016. 5-b.
6. Таранов П. Энциклопедия высокого ума. М., 1999, с.16
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
8. <https://daryo.uz/>
9. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. 28.01.2022y. PF-60. www.lex.uz.



MA'NAVIYAT – INSONNING ULG'AYISHI VA KUCH – QUDRAT MANBAYI

Temurbek Islomovich Ismoilov

Ilmiy rahbar: Namangan davlat universiteti Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi kafedrasi v.b. professori

Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o'g'li

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi MIG'-AU-21 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson tajribasining chuqur shaxsiy va tug'ma jihati bo'lgan ma'naviyat qadimdan o'sish va kuchning kuchli manbai sifatida e'tirof etilgan. Ma'naviyat ko'pincha diniy e'tiqod va urf-odatlar bilan bog'liq bo'lsa-da, u o'zidan kattaroq narsa bilan bog'liqlik hissini o'z ichiga olganligi, ma'naviyat son-sanoqsiz insonlar hayotida muhim rol o'ynaydi, shaxsiy o'sish, ichki kuch va imkoniyatlarni ta'minlaydi hamda ma'naviyatning shaxsiy rivojlanish, farovonlik, chidamlilik va insonning umumiy o'sishiga chuqur ta'siri haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ma'naviyat, ulg'ayishi, urf-odatlar, tarbiyalash, shaxsiy rivojlanish, farovonlik, chidamlilik, rag'batlantirish, maqsad.*

Аннотация: *В этой статье исследуется духовность, глубоко личный и врожденный аспект человеческого опыта, который уже давно признан мощным источником роста и силы. Хотя духовность часто ассоциируется с религиозными верованиями и практиками, поскольку она включает в себя чувство связи с чем-то большим, чем мы сами, духовность играет важную роль в жизни бесчисленного количества людей, обеспечивает личностный рост, внутреннюю силу и расширение возможностей, а также обсуждает духовность. глубокое влияние духовности на личное развитие, благополучие, устойчивость и общий человеческий рост.*

Ключевые слова: *Духовность, рост, традиции, воспитание, личностное развитие, благополучие, устойчивость, мотивация, цель.*

Abstract: *This article explores spirituality, a deeply personal and innate aspect of the human experience, which has long been recognized as a powerful source of growth and strength. Although spirituality is often associated with religious beliefs and practices, because*



it includes a sense of connection to something greater than oneself, spirituality plays an important role in the lives of countless people. plays, provides personal growth, inner strength and empowerment, and discusses the profound impact of spirituality on personal development, well-being, resilience, and overall human growth.

Key words: *Spirituality, growth, traditions, upbringing, personal development, well-being, resilience, motivation, purpose.*

Ma'naviyatning inson kamoloti va kuch-quvvatidagi ahamiyatini tushunish uchun umumiy tushunchani o'rnatish zarur. Ushbu bo'lim ma'naviyatning turli talqinlarini o'rganadi, uning an'anaviy diniy doiralardan tashqari ko'p qirraliligini ta'kidlaydi. Unda ma'naviyatning sub'ektiv tabiati va uning shaxsga maqsad, ma'no va yo'l-yo'riq berish imkoniyatlarini ta'kidlaydi. Ma'naviyat - bu shaxsning o'zidan buyukroq narsaga, xoh u ilohiy kuch, tabiat yoki olam bilan bog'lanishi. U diniy chegaralardan oshib, odamlarga hayotning mazmuni va maqsadini beradi. Ma'naviyatni qabul qilish orqali odamlar shaxsiy o'sishni rag'batlantirish uchun o'zlarining ichki resurslaridan foydalanishlari mumkin. Ma'naviyat o'z mohiyatiga ko'ra hayotdagi chuqurroq ma'no va aloqalarni o'rganishni anglatadi. U ekzistensial savollarga javob izlashni, moddiy boylikdan tashqari maqsadni topishni va rahm-shafqat, sevgi, minnatdorchilik va kechirimlilik kabi qadriyatlarni qamrab olishni o'z ichiga oladi. Ma'naviyat diniy amaliyotlar orqali ifodalanishi mumkin bo'lsa-da, u biron bir muayyan e'tiqod yoki an'ana bilan chegaralanmaydi. Aksincha, bu odamdan odamga o'zgarib turadigan chuqur shaxsiy sayohatdir. Ma'naviyatning inson o'sishi va kuch-quvvatidagi rolini tushunish uchun ma'naviyat nimani anglatishini tushunish kerak. Ma'naviyat odamlarni o'zidan kattaroq narsa bilan bog'laydigan e'tiqod tizimini o'z ichiga oladi, masalan, yuqori kuch yoki umuminsoniy o'zaro bog'liqlik hissi. U diniy qarashlardan tashqariga chiqadi va shaxsiy tajriba va ichki qadriyatlarga e'tibor beradi. "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz. Mening nazarimda, «ma'naviyat» tushunchasi jamiyat



hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma‘rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma‘nodagi «ma‘naviyat» tushunchasi orqali ifoda etish mumkin»[1].

Ma‘naviyat o‘z-o‘zini anglash, o‘zini o‘zi qabul qilish va o‘z-o‘zini o‘stirish orqali shaxsiy rivojlanishga yordam berishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu bo‘limda meditatsiya, ibodat, mulohaza yuritish yoki mulohaza yuritish kabi ruhiy amaliyotlar qanday qilib hissiy aqlni oshirishi va boshqalarga nisbatan hamdardlikni rivojlantirishi mumkinligini o‘rganadi. Shuningdek, u ma‘naviyat insonlarni o‘z qadriyatlarini, e‘tiqodlari va hayotiy maqsadlarini o‘rganishga undashini - shaxsiy qoniqishga hissa qo‘shishini muhokama qiladi. Ma‘naviyat inson taraqqiyotining manbai sifatida ya‘ni ma‘naviyat insonga shaxsiy rivojlanish va o‘shish yo‘lini beradi. O‘z qadriyatlarini va e‘tiqodlari haqida fikr yuritish orqali odamlar o‘zlarining haqiqiy shaxsini tushunishadi. Bu o‘z-o‘zini aks ettirish hissiy davolanishni rag‘batlantiradi, o‘zini o‘zi qabul qilishga yordam beradi, o‘z-o‘zini anglashni kuchaytiradi va shaxsiy o‘shishni rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, ma‘naviyat odamlarga boshqalarga nisbatan hamdardlik va hamdardlik kabi ijobiy fazilatlarni rivojlantirishga imkon beradi. Barcha mavjudotlarning o‘zaro bog‘liqligini tan olish va insoniyat ichida birdamlik tuyg‘usini rivojlantirish orqali ma‘naviy izlanuvchilar ijtimoiy adolat va totuvlikni ta‘minlovchi harakatlarga ko‘proq moyil bo‘ladilar. Ma‘naviyat insonning ichki kuchini o‘stirish orqali kuch beradi, bu ularga qiyinchiliklarga jasorat va qat‘iyat bilan qarshi turishga imkon beradi. U o‘zini o‘zi qabul qilishga, minnatdorchilikka, kechirimlilikka, o‘ziga va boshqalarga nisbatan hamdard bo‘lishga undaydi. Ehtiyotkorlik yoki minnatdorchilik jurnali kabi ma‘naviy amaliyotlarni qo‘llash orqali odamlar ijobiy munosabatlarni rivojlantirish bilan birga qiyinchiliklarga qarshi chidamlilikni rivojlantiradilar.

Ma‘naviyat shaxslararo munosabatlarning o‘shishi va mustahkamlanishiga ham hissa qo‘shishi mumkin. Ushbu bo‘limda umumiy ma‘naviy e‘tiqod va amaliyotlar qanday qilib shaxslar o‘rtasida tegishlilik va birlik tuyg‘usini yaratishini o‘rganadi. U rahm-shafqat, kechirimlilikni targ‘ib qilish va sog‘lom muloqot modellarini rivojlantirish, shu orqali ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda ma‘naviyatning rolini ta‘kidlaydi. Insonlar hayot yo‘lida duch



keladigan qiyinchiliklar yoki qiyinchiliklar davrida ma'naviyat o'zgaras quvvat manbai bo'lib xizmat qiladi. U ibodat yoki meditatsiya orqali qiyin paytlarda tasalli berish orqali taskin beradi. Ma'naviy e'tiqodlar odamlarga azob-uqubat yoki yo'qotishlarni qabul qilish va chidamlilikni oshirish orqali ma'no topishga imkon beradi. Yuqori kuchga yoki universal energiyaga ulanish orqali odamlar ko'pincha chuqur qo'llab-quvvatlash va yo'l-yo'riq hissini boshdan kechiradilar, bu ularga hayot sinovlariga dosh berishga kuch beradi. Qolaversa, ma'naviyat insonni ijobiy fikrlash va turmush tarzini rivojlantirishga undaydi. O'zlarining ma'naviy qadriyatlariga mos ravishda yashash orqali odamlar o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilishni, sog'lom munosabatlarni saqlashni va umumiy farovonlikka yordam beradigan amaliyotlarni birinchi o'ringa qo'yishadi. Hayotga bunday yaxlit yondashuv ularning hissiy chidamliligi va mustahkamligini yanada oshiradi. Ma'naviyat o'z-o'zini aks ettirish, ichki qarash va o'z-o'zini anglashni rag'batlantirish orqali odamlarga shaxsiy o'sish uchun asos yaratadi. Meditatsiya, ibodat yoki diqqat kabi ruhiy amaliyotlar bilan shug'ullanish odamlarga o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va istaklari haqida tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi. Bu o'z-o'zini anglash hissiy aql, boshqalarga nisbatan hamdardlik va umumiy farovonlik tuyg'usini rivojlantirish orqali shaxsiy o'sishni rag'batlantiradi. Ma'naviyat odamlarni ongini kengaytirish orqali jismoniy mavjudligidan tashqarida kashf qilishga undaydi. Bu turli xil ruhiy matnlar orqali bilim izlash yoki falsafiy munozaralarda qatnashishni o'z ichiga olishi mumkin. O'z nuqtai nazarini kengaytirish orqali odamlar o'z hayotlari va atrofidagi dunyo haqida yangi tushunchalarga ega bo'lib, doimiy shaxsiy o'sishga imkon beradi. Ma'naviyat ong, tana va ruhning o'zaro bog'liqligini tan oladi. Bu optimal o'sish va kuch uchun har bir jihatni har tomonlama tarbiyalash muhimligini ta'kidlaydi. Ma'naviy amaliyotlar bilan shug'ullanish odamlarni diqqat bilan ovqatlanish, muntazam jismoniy mashqlar va etarli dam olish orqali jismoniy sog'lig'iga g'amxo'rlik qilishga undaydi. Ma'naviyat odamlarga maqsad va ma'no tuyg'usini berish orqali chidamlilikni - qiyinchiliklardan qaytish qobiliyatini oshirishi aniqlandi. Ushbu bo'limda ruhiy amaliyotlar odamlarga hayotdagi qiyinchiliklarga nisbatan kengroq nuqtai nazarni rivojlantirishga qanday yordam berishini, ularni qiyinchiliklarda shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini topishga undashini ko'rib chiqadi. Ma'naviy aloqa odamlarga o'zlarining ichki resurslaridan foydalanishga va jismoniy dunyo cheklovlaridan



oshib ketadigan tug‘ma kuchni kashf etishga imkon beradi. Harakatlarini ruhiy e‘tiqodlari bilan uyg‘unlashtirib, odamlar maqsad, yaxlitlik va haqiqiylik bilan to‘ldirilgan hayot kechirishi mumkin. Ma’naviyat odamlarga o‘z qadriyatlarini hurmat qiladigan, shu bilan birga atrofdagi dunyoga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan ongli tanlov qilish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Ma’naviyat insonning o‘sishi va kuchida muhim rol o‘ynaydi, bu orqali shaxsiy rivojlanish, chidamlilik va imkoniyatlarni kengaytirish yo‘lini taklif qiladi. U odamlarga maqsad topishga, qiyinchiliklarni inoyat bilan hal qilishga, o‘zlarida ijobiy fazilatlarni rivojlantirishga va jamiyatga mazmunli hissa qo‘shishga imkon beradigan kuch manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ma’naviyatni qabul qilish odamlarga o‘zlarining to‘liq imkoniyatlarini ochishga imkon beradi, shu bilan birga ong, tana, ruh o‘rtasidagi uyg‘unlikni rivojlantiradi - bu oxir-oqibatda yanada to‘laqonli mavjudotga olib keladi. Ma’naviyat insoniyat o‘sishi va kuch-quvvatining kuchli manbai bo‘lib xizmat qiladi, bu diniy mansublikdan tashqarida. Bu odamlarga maqsad hissi, hissiy farovonlik, chidamlilik va mazmunli munosabatlarni rivojlantirish qobiliyatini beradi. Ma’naviyatni qabul qilish orqali odamlar o‘zlarining ichki resurslaridan foydalanishlari va shaxsiy rivojlanish va imkoniyatlarni kengaytirish uchun haqiqiy salohiyatlarini ochishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Toshkent “Ma’naviyat” 2008 (13-bet)
2. S.Otamurotov_va_boshqalar “O‘zbekistonda ma’naviyat sohasidagi islohotlar:rivojlanish bosqichlari, erishilgan natijalar va istiqboli” Toshkent “Akademiya” 2011
3. M.Hamdamova “MA’NAVIYAT ASOSLARI” (Barkamol avlodni tarbiyalashda uzluksiz ta’limni insonparvarlashtirish texnologiyasi) o‘quv qo‘llanma TOSHKENT — 2008
4. S.H.Nosirxo‘jayev, M.F.Lafasov S.A.A‘zamxo‘jayeva “Ma’naviyat asoslari” Toshkent 2016
5. Abdurahim Erkaev Ma’naviyat va taraqqiyot. Toshkent “Ma’naviyat” 2009-yil
6. w.w.w.Ziyonet.uz



O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA IJTIMOIIY HAYOT VA SHAXS MA’NAVIYATI

Soberova Mohira Soliyevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada “Ikki eshik orasi” romanida ma’naviyat, ma’rifat mavzularining badiiy talqini xususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ilm-fan, o‘qituvchi, Robiya, Shomurod, Kimsan, Samad muallim, proza, tafakkur, jamiyat.

Haqiqiy o‘qituvchi kim degan savol ko‘pincha zamonaviy jamiyat odamlari tomonidan ko‘tariladi va uni mazmunli emas, balki falsafiy deb atash mumkin. Darhaqiqat, “o‘qituvchi” so‘ziga qisqacha ta’rif berish juda qiyin, chunki bu kasb egalari jamiyatdagi eng muhim o‘rinlardan birini egallaydi.

Bizga ma’lumki, bugungi ilm-fan va texnika rivojlanayotgan bu davrda iqtidorli, har sohada faol yoshlarga ehtiyoj ham ortib bormoqda. Shunday talabchan, qiziqqon, o‘rgangan bilim va ko‘nikmalarini hayotda qo‘llay oladigan yoshlarning me’mori bevosita o‘qituvchilardir. O‘qituvchilarning dars jarayonini bolalarni fikrlashga undovchi metodik usullar orqali olib borishi, rang-barang materiallardan foydalanishi o‘qituvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini, badiiy asarlarga mehrini oshiradi. Xalqimizning ardoqli yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning ijodini o‘rganish, uning asarlaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish bizga hayot yo‘limizni yorituvchi mash’al desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘tkir Hoshimov: “Hamisha bir orzu bilan yashayman... Shunaqa kitob yozsangki, unio‘qigan kitobxon, hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o‘qib bo‘lgan kuni kechasi bilan uxlolmay to‘lg‘onib chiqsa. Oradan yillar o‘tib asarni qaytadan qo‘liga olganda tag‘in hayajonlansa... Eng katta orzum-shu”. Haqiqatdan ham adibimiz ana shunday asarlarni yarata oldi. Farzandlik burchimni qay darajada ado etdim degan o‘kinchli xayoliga javoban “Dunyoning ishlari” kitobini, urush voqealarining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, ko‘ngillariga ozor yetkazganini ko‘rsatish maqsadida “Ikki eshik orasi” asarini, Abdulla Qahhor xayrixohlik xatini yozgandan keyin esa bir necha roman va qissalarni yozdi. “Ikki



eshik orasi” asarida insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi mahorat bilan tasvirlangan. Adib, birinchi navbatda, tinchlikka rahna solgan urushni tilga oladi. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, ko’ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlari — mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshi haqida so’zlaydi. Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o’rgangani uchun har bir epizod o’quvchini qalbiga jiddiy ta’sir qiladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar shuningdek, yozuvchining o’ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham asarni chuqurroq o’rganish va o’rgatish bizga go’zal fazilatlarni akslantiradi.

Ijodkor 80-yillar o’zbek publitsistikasi rivojiga salmoqli hissa qo’shgan adiblardan biridir. Uning odob-ahloq, ma’naviy olam, milliy qadriyatlar, sho’ro davri adolatsizliklarini dadil yoritgan ocherk va teleko’rsatuvlari bu davrning barkamol mevalaridir. Muallifni endi kundalik dolzarb ijtimoiy masalalar emas, ko’proq azaliy ma’naviy muammolar, inson takdiri, uning qalbi jumboqlari qiziqtiradi. Bu narsa “Ikki eshik orasi” romanida ayniqsa, ravshan ko’rindi. Bu bilan adib ijodiy yo’lining etuklik bosqichi boshlandi. Adabiyot dunyosida «nasrdagi tarona», «nasrdagi shoir» atamaları bor. Yangi o’zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy bilan Said Ahmad haqli ravishda prozaning shoiri deb nom olganlar. Zamonaviy o’zbek adabiyotida O’tkir Hoshimovni ham nasrdagi shoir, yetuk asarlarini esa nasrdagi qo’shiq, tarona deb atash mumkin. Xususan, u “Ikki eshik orasi” deganda inson umrini, ya’ni tug’ilgandan o’lgungacha bosib o’tgan yo’lni ko’zda tutadi. Muallifning g’oyaviy falsafasiga ko’ra bu yo’l juda murakkab va ziddiyatli bo’lib, uni muvaffaqiyat bilan bosib o’tishi uchun insondan katta matonat, iroda, bilim va jasorat talab qilinadi. Asardagi ko’pchilik qahramonlar, xususan, Oqsoqol, Qora amma, Robiya, Shomurod, Kimsan xuddi shunday jasoratli va ruhan boy kishilar bo’lib, ko’p jihatdan yozuvchining g’oyaviy maqsadini ta’sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Muallif falsafasiga ko’ra o’z umrini sharaf bilan bosib o’tmog’i uchun insondan katta matonat va jasorat talab qilinishining sababi shundaki, u o’z hayoti davomida og’ir kurashlar girdobidan, yengib bo’lmas to’siqlardan o’tishga majbur bo’ladi. Asarda xuddi shunday inson hayotining to’siqlari, illatlari sifatida Umar zakonchi, Ra’no, Zuhra kabi



shaxslar timsoli yaratilgan bo‘lib, ular romandagi kurashlar, to‘qnashuvlar, ma’naviy ixtiloflar keskinligini, tarangligini oshirishga imkon tug‘dirgan. Hayotdagi illatlarga qarshi ayovsiz o‘t ochish istagi O‘tkir Hoshimovni “Ikki eshik orasi” romanidan keyin tadrijiy ravishda hajviyotga murojaat qilishga olib keldi. Oqibatda uning “Ikki karra ikki - besh” qissasi maydonga keldi. Yozuvchining ilgari asarlarida ahyon-ahyonda hajviyot uchrab turar edi. “Ikki karra ikki - besh” qissasi esa, ulardan butunicha hajviy uslubda yozilganligi bilan farq qiladi. Hajviyot tig‘ini hayotdagi martabali kishilarga, katta rahbarlarga, xususan, raislarga qaratgani va ularning ma’naviy tubanligini ro‘yi-rost fosh qilishga intilgani bilan yozuvchi qissaning ko‘p sahifalari ta’sirchan va qiziqarli bo‘lib chiqishiga erishgan. Faqat dalillash san’atining yetishmaganligi va ayniqsa, raisning o‘g‘li o‘z otasiga qarshi keskin kurashga kirishishi yaxshi asoslanmaganligi sababli qissa 80-yillar o‘zbek hajviyotidagi sezilarli hodisa darajasiga ko‘tarilmay qoldi. Yuqorida tilga olingan so‘nggi ikki asarida O‘tkir Hoshimovning inson ma’naviy olamini, psixologiyasini teran tahlil qilish mahorati ancha oshganligi aniq-ravshan sezilib turadi. Bunda yozuvchi turli-tuman vositalar qatorida qahramonlarning dil izhorlaridan, ichki monologlaridan unumli foydalangan. Ichki monologlar qo‘llashda yuqoridagi asarlarda boshlangan usuldan yozuvchi “Tushda kechgan umrlar” romanida yanada ustalik bilan foydalandi. “Tushda kechgan umrlar” romanida voqealar qamrovi juda keng: 30-yillarning mash’um “qatag‘on” qilish manzaralari, 80-yillarda Afg‘oniston urushi lavhalari, shu yillarda sodir bo‘lgan “o‘zbek ishi” mojarolari. Bu uchta yirik, juda katta hajmli voqealarni bir-biri bilan bog‘lashda, ular orasiga “biriktirish nuqtasini” topishda muallif ichki monologdan unumli foydalanadi.

Yozuvchining so‘nggi asarlari O‘tkir Hoshimovning hozirgi o‘zbek nasridagi sermahsul ijodkorlardan biri darajasiga ko‘tarilganligidan guvohlik beradi. O‘tkir Hoshimov asardan-asarga o‘tib bordi. Unda nafosat tuyg‘usi behad kuchli. Hatto u aldangan odamning ma’naviy inqirozi, fojeasi, halokati tasvirida ham shu tuyg‘usini saqlab qoladi. Ayniqsa, u yaxshi, oliyjanob, ma’naviy barkamol odamlar qalbi tahlilida o‘zini nihoyatda erkin his etadi. Uning ijobiy qahramonlari aksari go‘dakday beg‘ubor, nafosat tuyg‘usiga boy, hissiyotli, o‘ta ta’sirchan odamlardir. Ayni paytda adib yaratgan eng yaxshi asarlar avvalgilaridan farqli o‘laroq, oshkora publitsistik talqindan xoli. Bu davrga kelib yozuvchi ijodida publitsistik



faoliyat bilan sof badiiyat orasida muayyan ajralish ro‘y berdi. Muallifni endi kundalik dolzarb masalalar emas, ko‘proq azaliy-boqiy ma‘naviy muammolar, inson taqdiri, inson qalbining jumboqlari ko‘proq qiziqtiradi. Bu jihat “Ikki eshik orasi” romanida, ayniqsa, ravshan ko‘zga tashlandi. “Ikki eshik orasi” – yirik ijtimoiy, ma‘naviy-axloqiy roman. Asar voqealarining bir uchi 30-yillar boshlariga, qishloqdagi kolxozlashtirish davri voqealariga borib tutashsa, ikkinchi uchi 70-yillarning oxiriga kelib taqaladi. Shunday bo‘lsa-da, romanning markazida fashizmga qarshi urush davri, urush yillaridagi o‘zbek qishlog‘i hayoti, urush va inson, urushning kishilar taqdiriga ko‘rsatgan chuqur ta‘siri, ular qismatida, zurriyotida, dilida qoldirgan jarohatlari muammosi turadi. Yozuvchi Ikkinchi jahon urushi kishilarimiz uchun zo‘r sinov bo‘lgani, bu sinov paytida o‘zbek kishisiga xos bo‘lgan noyob fazilatlar favqulodda bir kuch bilan yuzaga chiqqani, kishilarimizdagi otashin vatanparvarlik, cheksiz muruvvat, sadoqat tuyg‘ularini ilhom va ehtiros bilan qalamga oladi. Qahramonlar qismati vositasida yozuvchi yashashning ma‘nosi, insonning insonlik sha‘ni, burchi, mas‘uliyati, e‘tiqodi masalalarini ko‘taradi, kitobxonni ular haqida o‘ylashga, bahsga chorlaydi. Qanday yashash va yashamaslik kerak, degan savol asarning yetakchi falsafasi darajasiga ko‘tariladi. Badiiy asar qimmatini, darajasi birinchi galda unda hayot va shaxsning yangicha konsepsiyasi hamda badiiy talqini, ifodasiga qarab belgilanadi. Diqqat bilan razm solinsa, O‘tkir Hoshimovning ijodiy faoliyati davomida yaratgan har bir jiddiy asari - “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Qatag‘on” – bular XX asr millat ma‘naviyati, ruhiyatining muayyan manzillari kabi taassurot qoldiradi. Millat ma‘naviyati manzillarini zabt etish esa ijodiy jasoratdir. “Ikki eshik orasi” yozuvchining ikkinchi romani bo‘lib, 1982-1985-yillar orasida yozilgan. Asarda insonlar taqdiri murakkabligi mahorat bilan tasvirlangan. Unda birinchi o‘rinda inson tinchligini buzuvchi urush tilga olingan, uning qiyinchiliklari, front orti azoblari, ochlik, sevgi va nafrat yuksak mahorat bilan ochib berilgan. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, ko‘ngillarga diltaxalilik keltirishi asarning umumiy pafosini tashkil etadi. Romanda har bir obrazga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu romanda inson umrining naqadar murakkabligini va taqdirning ayanchli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. O‘tkir Hoshimov roman hodisalarini chuqur va teran o‘rgangani uchun, o‘quvchiga har bir voqea tushunarli va aniq qilib yetkaziladi. 7 qism va 7 bobdan iborat ushbu



asar katta-yu kichik ko'ngliga birdek manzur keladi. Asarni o'qigan sari qayta-qayta o'qiging keladi, har o'qiganda yangi-yangi g'oyalar tug'iladi, asardagi ochilmagan qirralar ochilaveradi. Romanning asosiy voqealari Oqsoqol, Qora Amma, Shomurod, Ra'no, Kimsan, Robiya, Umar zakunchi, Olimjon singari qahramonlar orqali yoritilgan. "...Bu kitobdagi ko'p odamlarni o'zim ko'rganman, ko'plari bilan gaplashganman. Ba'zilarining o'zi bilan, ba'zilarining... ruhi bilan... Ba'zilar niman gapirgan bo'lsa, shuni qog'ozga tushirdim. Ba'zilar nima gapirganini emas, niman o'ylayotganini yozishga majbur bo'ldim",- deydi adib O'tkir Hoshimov.

Voqea-hodisalar kichkina bir bola Muzaffar nigohida yoritiladi. Albatta, asardagi qahramonlarning ba'zilar insofi, vijdoni, o'zbek xalqiga xos e'tiqodi bilan kitobxonko'nglidan ijobiy o'rin olgan bo'lsa, Umar zakunchi kabi qattiqqo'l, vijdonsiz, o'z manfaati yo'lida hech narsadan tap tortmaydigan, nomard inson salbiy o'rinni egallagan. Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanga ko'rk bag'ishlaydi. Uning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan obro'e'tibori, eng og'ir damlarda qiyinchiliklarni yengib o'tishga kuch topishi bilan o'quvchi xotirasiga muhrlanadi. U donishmand, tajribali, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan o'zbek qariyalariga o'xshab har bir ishda tashabbuskorlikni o'z qo'lidan bermaydigan shaxs sifatida gavdalanadi. Qora amma va Robiya obrazlarida esa haqiqiy o'zbek ayollarining naqadar sabrli va matonatli ekanligining guvohi bo'lamiz. Shu o'rinda Qora amma so'zi e'tiborga loyiq. Nega Qora amma? Axir oddiygina amma desa bo'lardi-yu. Bilasizmi, ona ichidagi dard, alam qayg'udan yurak-bag'ri qorayib ketganligi uning yuzida ham aks etgan. Farzand dog'i shu ko'ygga solgan. Xalqqa kelgan to'y hammasining sababchisi edi. Robiya asarning bosh qahramoni hisoblanib, otasidan ancha yosh yetim qoladi. Qora ammaning uyida yashab, uning tarbiyasini oladi. Kimsan bilan unashtiriladi, biroq Kimsanning taqdirida urushda halok bo'lish yozilgan edi. Robiya uni kutadi, o'lmaganligiga doim ishonadi, lekin bu hayot doimo insonlar istaganidek bo'lavermaydi. Robiya kichik Muzaffar uchun tog'a sifatida ko'rgan inson bilan turmush quradi va hayotining davomini birgalikda o'tkazadi. Mana shu holatlar Robiyaning naqadar itoatkor ekanligini ko'rsatadi. Bilasizmi, Robiya bundan voz kechishi mumkin edi, axir u qiz bola edi, turmush ko'rmagan edi, zabardast, alp yigitga turmushga chiqish imkoniyati bor edi, biroq u Qora ammaning



qaramog'ida o'sgan, uning uyidan yeb-ichgan, unga qarshi chiqolmas edi. Tirik yetim qolgan, onasi tashlab ketgan Muzaffarni ham ko'zi qiymas edi. Bilasizmi, asarda voqealar shunaqangi syujetlashtirilganki, o'qigan inson ko'z yoshini tindira olmaydi. Mana, masalan, Muzaffarni olaylik, u yoshligida onasining xiyonati sabab undan ayrildi, to'g'ri Robiya unga qo'lidan kelgancha onalik qildi, mehr ko'rsatdi, biroq tuqqan onaga hech kim teng kela olmaydi, nahot Muzaffar onam mendan yuz o'g'irgan deya o'ksinmagan bo'lsa. Bu ham yetmagandek, asar so'nggida u ko'ngil bergan insoni emikdosh singlisi bo'lib chiqadi. Avvaliga qizning uydagilari sovchilarni qaytaradi, Ra'no ham haqiqatni Muzaffarga qanday aytishni bilmaydi, ular orasida nikoh o'qitib bo'lmas edi. Ammo Muzaffar va Munavvar sevgisi fojeali tugaydi, ya'ni 1966-yilda Toshkentda bo'lgan zilzila ularning sevgisiga raxna solidi. Ammo zukko kitobxon shuni biladiki, aslida asar qahramoni, sevgi yo'lida qurbon bo'lishiga sabab, zilzila emas, balki o'z sevgilisidan -emikdoshi bo'lgan Muzaffardan homilador bo'lishi va nomusiga chiday olmay dori ichib, o'z joniga qasd qilishi bilan asar nihoyasiga yetadi. Bu voqea esa barchaning qalbini qattiq larzaga soladi. Munavvarning onasi Bashorat esa bitta-yu bitta qizidan ajrab qolgani unga yomon ta'sir qiladi. Ushbu voqealar asarning naqadar jonli chiqqanidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, adibning har bir asarini kitobxon o'zgacha maroq bilan mutolaa qiladi. Yuqorida sanalgan asarlarni kitob do'konlaridan topolmay, kutubxonalarda o'qish uchun navbatga turgan kitobxon sonining adog'i yo'qligini men bobom va buvimdan, otamandan juda ko'p eshitganman. Zero, hozir texnika asri, biz bu oltin merosimizni, ma'naviy durdona asarlarimizni xohlagan paytimizda, xohlagan sharoitimizda mutolaa qilishga imkoniyatimiz cheksizligidan faxrlansak arziydi. Mana shunday zamonda, Yangi O'zbekistonda yangi imkoniyatlar sari ildam qadam bosishdan, Vatanimiz ravnaqiga yanada ko'proq hissa qo'shishdan charchamaylik va bu yo'lda bor imkoniyatlarimizni ishga solaylik.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: Sharq. 1997 yil.



2. A.Rasulov. Ardoqli adib.O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar – T.,”Sharq”, 2001
3. Normatov U. Nasr an’analari. – T.: Adabiyot va san’at, 1978. – B. 130.
- 4.Mahmudov M. Iste’dod va ijod falsafasi – T.: Adabiyot va san’at, 1976.– B. 164.
4. Quranov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.–T.:Navoiy Universiteti, 2018 – B. 176.
5. Yo‘ldashev Q. So‘z haqida. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 70.
6. Umurav H. Adabiyot nazariyasi. Samarqand,Sandu nashriyoti,2001 yil.B. 51-52.
7. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasida. – T.: Adabiyot va san’at, 2016. – B. 41.
8. Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. –T.: “Kamalak”, 2016, 9 – 10-betlar
9. Ikki eshik orasi,O‘. Hoshimov, “Sharq nashriyoti”,2018
10. saviya.uz -O‘tkir Hoshimov. (1941-2013)
11. Baxronova Matluba Axmedovna. (2022). BADIY ASARLARGA KO‘CHGAN HAYOT SABOQLARI. Conferencea, 401–404. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/640>
12. Bakhronova, M. A. (2020). Representation of disease names in the literature. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 141-144.
13. O‘tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari"asarida kasallik turlari va ularning lisoniy tavsifi M Baxronova -ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2021
14. www.ziyo.uz
15. diss.natlib.uz.
16. arxiv.uz



DUNYO MUAMMOSI O‘ZBEKISTONDA

Tursunboyev Xusayn Xabibullo o‘g‘li

Mexmonxonov Murodulloxon Maxsudxon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo yo‘nalishi

2-bosqich talabalari

tursunboyevxusaynjon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yod yetishmasligi va uning salbiy oqibatlari va xalq tabobatida davolash yo‘llari keltirilgan.*

Annotation: *In this state, there is a deficit, its negative consequences and treatment methods in folk medicine.*

Kalit so‘zlar: *Yod yetishmasligi profilaktikasi, yong‘oq, buqoq, go‘sht*

Key words: *Prevention of iodine deficiency, nuts, goiter, meat*

Inson organizimiga tabiiy muhitning ta‘sirini o‘rganar ekanmiz, mintaqalararo yod yetishmasligi, ma‘lum bir xuddagi axoli o‘rtasida qalqonsimon bez faoliyatini guruhli buzilishiga va buqoq kasalligini kelib chiqishiga, hamda uning daxshatli asoratlarini namoyon bo‘lishiga olib keladi. Har qanday mintaqada umumiy axolining 5 foizida bouqoq kasalligi aniqlansa ushbu mintaqada yod tanqisligi muammosi bor deb xulosa qilinadi[1].

Bularning oldini olish maqsadida Dunyo hamjamiyati qatori O‘zbekiston Respublikasida ham 2006-yil 27-dekabrda «Yod yetishmasligi profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi.

Buqoq kasalligi organizmda yod tanqisligi oqibatida kelib chiqishi jarayonida qalqonsimon bez faoliyatini buzilishiga olib keladi. Buning oqibatida inson organizmida turli kasalliklarni kelib chiqishi aniqlanmoqda. Bugungi kun ma‘lumotlariga qaraganda yer yuzida 760 million axoli buqoq kasalligiga chalingan. Yod yetishmasligi oqibatida 43 million nafar kishilarda aqliy va jismoniy zaiflik, 11 million kishida kretinizm (tug‘ma aqliy zaiflik) borligi tasdiqlandi.

Yod tanqisligi odam organizimi uchun xavfli bo‘lib, yosh bolalarni aqliy va jismoniy tomondan ortda qolishi, miya faoliyatining buzilishi, xotiraning susayishi, bepushtlik, jinsiy



zaiflik, chaqaloqlarni chala va o'lik tug'ilishi, ularda uchraydigan tug'ma nuqsonlarni ko'payishi, xomilaning sekin o'sishi, voyaga yetmagan qizlarda jinsiy rivojlanishdan ortda qolish, xayz ko'rmaslik, befarzandlik va boshqa turli asoratlarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Inson organizmida xattoki yengil yod yetishmasligida ham intellektual darajasi 15-20 foizga kamayishi aniqlangan[1; 2].

Inson organizmi uchun kundalik yodga bo'lgan ehtiyoj 100-200 *mkgni* tashkil etadi. Bugungi kunda Respublika endokrinologiya ilmiy tadqiqot instituti xodimlarining taxlillari shuni ko'rsatadiki, 100 mkg miqdorda kundalik organizm ehtiyoji uchun zarur bo'lgan yod 3,6 kg xurmoda, 2,180 kg yong'oqda, 6,3 kg olmada, 5,3 kg guruchda, 4,8 kg mol go'shtida, 5,6 kg qo'y go'shtida mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki, yodga bo'lgan organizm ehtiyojini oziq -ovqat mahsulotlari orqali qoplashning deyarli imkoni yo'q[2].

Qonun talablarini bajarish va xalq salomatligi yo'lida olib borilayotgan minglab ilmiy tadqiqotlar qatori inson organizmida yod tanqisligini oldini olish, aholini intellektual saloxiyatini ko'tarish, inson organizmidagi kasalliklar etiologiyasida neyrohumoral hamda endokrin buzilishlar oqibatida yuzaga kelishini oldini olish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Yuqorida ko'rsatilgan sabablardan tashqari yong'oq tarkibidagi turli xil fiziologik aktiv moddalar keng spektrdagi kasalliklarga davo sifatida ilmiy tibbiyot va xalq tabobati tomonidan qo'llab kelinmoqda. Ulardan tayyorlangan turli damlamalar, ivitmalar, qaynatmalar va ajratmalar kanserogen shishlarning boshlang'ich shaklidan tortib toki organizmni turli xil gormonal o'zgarishlarigacha, umumtiklovchi va quvvatlovchi yig'malar va oziq-ovqat sifatida ishlatiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yong'oqda yod va boshqa fiziologik aktiv moddalarning ko'p tabiiy manbasi bor ekan. Kimyoviy yod preparatlari va yod izotoplaridan farqli o'laroq yod bilan birga inson organizmi uchun eng kerakli bo'lgan foydali mikroelementlar kompleksi mavjuddir. Organizmda yod balansini tiklash hamda moddalar almashinuvini tubdan izga solishda ushbu manbaadan foydalanishni o'rganish lozim. Bulardan tashqari yong'oq asosida turli fiziologik faol moddalarni ajratib olish, kimyoviy tarkibini o'rganish, ajratilgan moddalarni fizik-kimyoviy usullarda tekshirish, tuzilishini



aniqlash va farmakologik natijalar asosida kasalliklarni davolashda qo'llashga tavsiyalar berishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

Tabiat in'omi bo'lmish yong'oq biz ko'zlagan maqsadlarga erishishimizda tabiiy manbaa bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

3. I.R.Asqarov. Tabobat qomusi. Mumtoz so'z. Toshkent – 2019. – 1590 b.
4. I.R.Asqarov. Sirli tabobat. – T: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2021. – 1084 b.



MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISH SARI

Karimberdiyeva Sojida

Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Tel: +998884671503 E-mail: sojidakarimberdiyeva2@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada vatan tuyg‘usi va milliy g‘urur bilan yashagan bobolarimizga, milliy g‘oya va ma‘naviy hayotimizga doir badiiy va publitsistik qarashlar yoritilgan. Shuningdek vatanimizni asrash eng yuksak vazifalarimizdan biri ekanligi ta‘kidlangan.

Kalit so‘zlar: Vatan, vatan tuyg‘usi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Islom Karimov, Shavkat Mirziyoyev, mustaqillik, ota-bobolarimiz, milliy g‘urur.

FROM NATIONAL REVIVAL TO NATIONAL RISE

Karimberdiyeva Sojida

Namangan State University Faculty of philology

Uzbek language course 1 Stage Student

Abstract: The article covers artistic and publicistic views on our ancestors, our national idea and spiritual life, who lived with a sense of Homeland and national pride. It is also noted that preserving our homeland is one of our highest tasks.

Keywords: Homeland, sense of Homeland, Amir Temur, Alisher Navoi, Islam Karimov, Shavkat Mirziyoyev, independence, our ancestors, national pride.

ОТ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ К НАЦИОНАЛЬНОМУ ПОДЪЕМУ

Каримбердиева Сожида

Наманганский государственный университет

филологический факультет Курс узбекского языка студентка 1 ступени

Аннотация: В статье освещаются художественные и публицистические взгляды на наших предков, национальную идею и духовную жизнь, которые жили с чувством Родины и национальной гордостью. также было отмечено, что сохранение нашей Родины-одна из наших самых высоких задач.

Ключевые слова: отечество, чувство родины, Амир Темур, Алишер Навои, Ислам Каримов, Шавкат Мирзиёев, независимость, наши предки, национальная гордость.



Vatan. Bu soʻz zamiridagi maʼnoni anglash uchun olim yoki professor boʻlish shart emas. Chunki bu bizning yuragimizga yoshligimizdan kirib kelgan. Chaqaloq qaysi yurtda dunyoga kelsa, oʻsha yurtning fuqarosiga aylanadi va oʻsha yurt u uchun vatan hisoblanadi. Shuning uchun ham vatan- bu kindik qoni toʻkilgan tuproq deyiladi.

Har bir narsaga nisbatan muhabbat tuygʻusi boʻlganidek, vatanga nisbatan ham bu his mavjud. Bu vatan tuygʻusidir. Bu tuygʻu, albatta, bizni ona vatanimizni qadrlash, undan faxrlanish, uni dushmanlardan himoyalashga daʼvat etadi. Bu tuygʻu har bir insonning koʻnglida boʻlishi kerak. Agarda bu tuygʻu kimningdir koʻnglida boʻlmasa, u inson inson emas, u manqurtdir.

Asrlar davomida ota-bobolarimiz vatan tuygʻusi va milliy gʻurur bilan yashab kelganlar. Shuning uchun ham ular vatan tuprogʻini muqaddas bilganlar. Ana shunday bobolarimizga sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy, XX asrda yashab oʻtgan jadid bobolarimizni va eng asosiysi bizning Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bobomizni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ular vatanimiz rivojiga ulkan hissa qoʻshganlar. Vatanparvarlik tuygʻusi bizga ana shunday bobolarimizdan meros boʻlib qolgan. Biz bu merosga xiyonat qilmasdan uni koʻz qorachigʻimizdek asrashimiz kerak. Zero Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bu tuygʻuning inson hayotidagi oʻrni haqida alohida fikr yuritib, “Tarix haqiqati shuni koʻrsatadiki, tomirida milliy gʻurur, vatan ishqini joʻsh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir boʻladi”, - deb taʼkidlagan.

Oʻzbekiston deya atalmish jannatmakon yurt biz oʻzbeklarning vatanidir. Vatanimiz bayrogʻini yuksaklarga koʻtarish, uni har tomonlama tiklash va yuksaltirish oʻzimizning qoʻlimizda. Biz bu ishlarni amalga oshirishimiz uchun, avvalambor, milliy gʻoyamizga ega boʻlishimiz kerak. Chunki milliy gʻoyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning oliyjanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni oʻz ichiga oladi. Biz mana shunday milliy gʻoyaga ega boʻlsak, maʼnaviy hayotimizni ham yuksaltira olamiz. Chunki milliy gʻoya va maʼnaviy hayot bir-biriga bogʻliqdir. Agar maʼnaviy hayotimizni boyitsak, milliy yuksalish yoʻlida vataniga oʻz hissasini qoʻsha oladigan barkamol avlodlar boʻlib yetishamiz.



Dunyoda mamlakatlar ko‘p. Bu mamlakatlar ichida bizning vatanimiz ham boshqa mamlakatlar kabi yillar o‘tgani sari rivoj topib, yuksalib bormoqda. Bunga asosiy sabablardan biri yurtimizda bilim olish uchun yaratilgan barcha shart-sharoitlar va maktablarning zamonaviyligi deb o‘ylayman. Aslida ham shunday. Chunki barcha odamlar bilimni maktabdan oladi va kelajakda o‘zi orzu qilgan kasbni egallaydi, o‘z hayotini qura oladi. Shu sababli ham dunyo imoratlari Ichida eng ulug‘i maktab va kasblarning ichida eng sharafli o‘qituvchilikdir. Ana shu sharafli va muhraram kasb egalari bo‘lmish o‘qituvchilar sabbali mamlakatimiz taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shadigan barkamol avlodlar yetishib chiqmoqda. Bunday yosh avlodlar o‘qituvchilardan bilim olgandan so‘ng, albatta, o‘z vatanining rivojiga, ham milliy, ham zamonaviy tomondan yuksalishiga hisasini qo‘shadi. Mana shularni nazarda tutgan holda ham birinchi prezidentimiz Islom Karimov shunday degan: “Muxtasar aytganda, maktab degan ulug‘ dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta’sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o‘qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydi”

Albatta, jahon-keng, dunyoda mamlakat ko‘p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O‘zbekistonimiz yakkayu yagona. Bu go‘zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan. Uni asrab-avaylash va yuksaltirish esa o‘z qo‘limizdadir. Buning uchun esa biz yosh avlodlar yaxshi o‘qib izlanishimiz kerak. Chunonchi, muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” kitobida quyidagi fikrlarni ilgari surgan: “...hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”1.

Har bir insonning o‘zi tanlagan o‘z yo‘li bo‘ladi. Shu qatori vatanimiz O‘zbekistonning ham bitta yo‘li bor. Bu mustaqillikni mustahkamlab, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, yorug‘ va erkin hayot sari olg‘a yurishdir. Bu tutgan yo‘limizda barchamiz bor kuch-g‘ayratimizni ana shu ulug‘vor niyatlarni amalga oshirishga yo‘naltirishimiz kerak. Shundagina biz ko‘zlagan maqsadimizga erishamiz va o‘z manzirimizga yetib boramiz. Kelajagimizni ham nafaqat shu yo‘l orqali, balki yuksalish yo‘li orqali ham mukammal ko‘rinishda qura olamiz. Chunki har bir narsa kuch-g‘ayrat, sabr-toqat va yuksalish bilan mukammal ko‘rinishga ega bo‘ladi.



Vatanimizda hozirgi yillarda ham o'tgan yillardagi kabi juda ko'plab o'zgarishlar bo'lmoqda. Ularning barchasiga Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchilik qilmoqdalar. Ularning tashabbuslari bilan yurtimizning chekka hududlarida ham zamonaviy uylar, bog'lar, eng so'nggi talablarga javob beradigan maktab va bog'chalar qurilmoqda, yo'llar ta'mirlanmoqda.

Bunda xalqimizning birdamligi muhim rol o'ynaydi. Jumladan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday fikrlarni bayon etgan: "Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi. Men bunga qat'iy ishonaman va bu fikrni sizlar ham qo'llab-quvvatlaysizlar, deb o'ylayman". Chindan ham biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaatini yo'lida bir tan-u bir jon bo'lib yashasak yurtimiz yuksaklikka yetishadi. Chunki buni hech kim chetdan kelib qilib bermaydi

Foydalanilgan adabiyotlar:

5. Shavkat Mirziyoyev. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" kitobi. 2020.
6. Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.-O'zb-2011-yil.
7. <https://uzreport.news>
8. <https://taqvim.uz>



REFORMS IN THE EDUCATION OF UZBEKISTAN: STATUS AND PROSPECTS

Rakhmanov Dilshod Ortikbaevich, Askarova Dilorom Kurbonboy qizi, Mirzak Parova

Mohira Abduhalil qizi

Namangan State University Associate Professor

Namangan State University, student

Namangan State University, student

Annotation: *this article will consider the process of reforming the educational system in Uzbekistan. The author tries to summarize the most important and visual approaches to the modernization of educational policy.*

Keywords: *modernization, education system, principles of the education system, national model of Education, Educational Innovations.*

РЕФОРМЫ В ОБРАЗОВАНИИ УЗБЕКИСТАНА: СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Рахманов Дилишод Ортикбаевич, Аскарова Дилором Курбонбой кизи, Мизакпарова

Мохира Абдухалил кизи

Наманганский государственный университет доцент

Наманганский государственный университет, студент

Наманганский государственный университет, студент

Gmail: rakhmanov@gmail.com

E-mail: dilorom112001@gmail.com

E-mail: abduhalilmullayev@gmail.com

Аннотация: *в данной статье будет рассмотрен процесс реформирования системы образования в Узбекистане. Автор пытается обобщить наиболее важные и наглядные подходы к модернизации образовательной политики.*

Ключевые слова: *модернизация, система образования, принципы системы образования, национальная модель образования, образовательные инновации.*

O‘ZBEKSTON TALIM TIZIMIDAGI ISLOXOTLAR: VA ISTIQBOLLARI HOLATI

Raxmanov Dilshod Ortikbaevich, Asqarova Dilorom Qurbonboy qizi,



Mizakparova Mohira Abduhalil qizi

Namangan davlat universiteti dotsenti

Namangan davlat universiteti, talabasi

Namangan davlat universiteti, talabasi

Gmail: rakhmanov@gmail.com

E-mail: dilorom112001@gmail.com

E-mail: abduhalilmullayev@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbekistonda talim tizimini isloh qilish jarayoni kòrib chiqiladi. Muallif talim siyosatini modernizatsiya qilish eng muxim va tasviriy yondashuvlarini umumlashtirishga haraqat qiladi.*

***Kalit sòzlar:** modernizatsiya, talim tizimi, talim tizimi tamoillari, talimning milliy modeli, talim yangiliklari.*

Introduction: Uzbekistan has chosen the path of its development after independence - a large-scale reform aimed at building a democratic legal state, a socially oriented market economy and a strong civil society. Head of State I. Karimov noted that the achievement of the noble goals facing the people of Uzbekistan in the 20th century, the future of the country, its prosperity, what place it occupies in the world community depends, first of all, on the new generation, on how our children will grow up. These wise words clearly reflect the essence of the state policy implemented in Uzbekistan during the years of independence, the priority of which is to educate a young generation who is physically healthy and spiritually mature, intellectually rich, not only has versatile knowledge, but can think independently, step boldly.

Literature analysis and methodology: the great thinker Al-Fergani was the first in astronomy to be the founder of heliosyntric theory, that is, he proved it by accurately calculating the rotation of the sun around the Earth. Another grandfather, Temuriyzadeh Mirzo Ulugbek, built an observatory in Samarkand as early as the 15th century and made a map of the stars. He made the location of the stars so clear that current science and Technology found that this data was only a minute or two different from today's account. It can be seen from this that our father-grandfather - Roman lived as individuals who made a worthy contribution to



world civilization. Basically, the education system was subordinated to the interests of the former center of government ideology. Let's say most of the subjects are not included in the curriculum. Taking only the history of Uzbekistan, this science is not studied impartially, a significant part of the hours allocated to this discipline in the curriculum is devoted to the study of the history of the former Union. The consciousness of the leaks is hidden by the misinterpreted phenomena of the history of our motherland. Toptas of national value and spirituality, original Uzbek scientists and great statesmen, commanders condemned the paths of life and creativity.

Discussion: recently, aspects of reforming the higher education system in neighboring countries have become increasingly relevant. New time sets new rules-a guide to the” knowledge economy “ encourages the development of fundamentally different models of teaching. For modern realities, it is necessary not only to maintain optimal indicators, but also to confirm the principles of organizing the educational process. Experts talk about the need to switch to international standards, optimize programs and create a single labor market. The Republic of Uzbekistan is faced with the task of creating an effective education system. At the moment, the leadership of Uzbekistan has a number of tasks, the main goal of which is to improve the system of higher education in the country. the beginning of the transformation process began in 1997, when the laws of the Republic of Uzbekistan “on education” and “on the National Training Program”were adopted. The Democratic and developing state, headed by the president, is well aware that hope for the future is associated with the younger generation, so the head of state proposed to the people and society a program that would radically reform the entire educational system. In full accordance with the” National Personnel Training Program”, education in the country is carried out in the following forms: preschool, secondary general, secondary special, vocational, higher, post-educational education, professional development and retraining of personnel, extracurricular education. The main feature of the program is the continuity and continuity of Education. Everyone has the opportunity to acquire knowledge, professional skills and specialties throughout their lives. this program creates an effective mechanism of the educational system, in which the main components are as follows:



- formation of a free-thinking person, moral, spiritual and physical development;
- to reveal respect for the individual, creative potential and abilities;

- to acquire advanced education, professional skills and abilities. complete self-realization of the individual in life. A distinctive feature of the "National Training Program" is the introduction of a system of continuing education of mandatory stages — a nine-year system of general secondary and three-year secondary special, vocational education. These two stages ensure the continuity of the transition from general education to professional programs. In higher education, a complete transition to a two-stage system was carried out: undergraduate and graduate. The Bachelor's degree is one of the basic higher education, which focuses on studies. A master's degree is a higher special education in a specific specialty that lasts two years, depending on The Bachelor's degree.

one of them is aimed at obtaining a basic higher education. A master's degree is a higher special education in a specific specialty that lasts two years, depending on The Bachelor's degree. Education is declared a priority in the field of social development of the Republic of Uzbekistan. The basic principles of public policy in the field of education are as follows:

- humanistic, democratic nature of education and upbringing;
- continuity and continuity of Education;
- the obligation of general secondary, as well as secondary special, vocational education;-optional choice of the direction of secondary special, vocational education: academic Lyceum or vocational school;
- demand for education within the framework of state educational standards;
- the secular nature of the educational system;
- the validity of the approach to the choice of the educational system. unity and differentiation of programs;
- education and stimulation of giftedness;
- state and public supply in the education system; combination of management.

Result: the measures taken to solve these problems contribute to the widespread use of ICT tools, make it possible to choose training courses much more flexible and cheaper, to master the content of the relevant specialties offered by higher education. The introduction of



modern educational programs, pedagogical and intelligent technologies into the educational process contributes to a radical improvement in the quality of **Education**. Undoubtedly, the organization of distance classes and seminars, video conferences leaves a positive imprint on the quality training of highly qualified specialists, which serves to strengthen interactive cooperation and cooperation between educational institutions, including foreign ones.

It is important to form the competitiveness of universities. The main means of solving this problem are currently completely new regulatory documents in the field of education (educational standards), developed taking into account the modern experience of organizing the educational process in the leading universities of the world.

When developing new educational standards, the main task is to train modern, highly qualified specialists with analytical and creative thinking skills who use advanced information and communication technologies and can effectively apply all this in their daily practical activities. The goal is to ensure that our education Meets World Standards, to introduce advanced foreign methods of assessing knowledge, which will be a guarantee of the quality and effectiveness of the educational system.

Thus, new educational standards should be one of the most important tools for increasing the level of training of specialists with higher education through mastering the basics of professional activity in the educational process, methods and skills of individual and collective implementation of research work, the development of the ability to scientific creativity. research independence and, as a result, the formation of highly qualified specialists. creation of new knowledge in the context of globalization and their effective application.

In Uzbekistan, it is widely understood that the so-called” human capital “ and constant investment in education are a guarantee of the formation of a developed democratic state, a constant engine of development and an indispensable condition for the direction of modernization of State Development. As the president rightly noted in this regard. we have achieved the noble goals that lie in front of us.

Conclusion: The people of Uzbekistan, the future of the country, its prosperity, how it will take place in the world community in the 21st century, depends, first of all, on the new generation, on how our children will grow up.”This postulate has always received worthy



support and recognition at the state level, in addition, it is strengthening in the minds of people every day, creating a solid layer and foundation for the bright and great future of Uzbekistan.

Used literature:

1. A. G. Muminov Literature in the field of Education of Uzbekistan: status and prospects / / Bureau of Science and practice. 2019. Size 5. №8. Pp. 202-208. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/45/22>

2. Mominov, A. (2019). Reforms in the education of Uzbekistan: status and prospects. Bulletin of Science and Practice, 5 (8), 202-208. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/45/22> (in Russian).

3. https://revolution.allbest.ru/pedagogics/01040872_0.html



VAQT-BAXT KALITI

Abdujabbarova Muhtasarxon Akramjon qizi

Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti

Rus tili va adabiyoti yo‘nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya. *Bu maqolada bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lgan vaqt qadri haqida so‘z yuritiladi. Unda vaqtning hayotimizdagi o‘rni va roli haqida fikr boradi.*

Kalit so‘zlar: *vaqt, imkoniyat, globallashuv, ijobiy, salbiy, zamonaviy, tarix, xalq, hikmatli so‘z, yoshlik, fursat.*

ВРЕМЯ – КЛЮЧ К СЧАСТЬЮ

Абдужаббаровой Мухтасархон Акрамжоновна

Наманганский государственный университет Филологический факультет

Направления русского языка и литературы студентки 3 - курса

Аннотация: *В данной статье идёт речь о ценности времени, что является одним из актуальных вопросов на сегодняшний день. В ней обсуждается место и роль времени в нашей жизни.*

Ключевые слова: *время, возможность, глобализация, позитив, негатив, история, народ, слово мудрости, молодежь.*

TIME IS THE KEY TO HAPPINESS

Abdujabbarova Mukhtasarkhan Akramjon's daughter

Namangan State University Faculty of philology direction of

Russian language and literature stage 3 student

Annotation: *This article talks about the value of time, which is one of the most pressing issues today. It discusses the place and role of time in our lives.*

Key words: *time, opportunity, globalization, positive, negative, modern, history, people, word of wisdom, youth.*

Vaqt- bu imkoniyatlar kalitidir. Hayotni sevgan kishi vaqtni boy bermaydi, chunki vaqtdan hayot yaraladi. Inson uchun eng qimmatli narsa vaqtdir. Vaqtdan boshqa barcha



yo‘qotilgan narsalarni ortig‘i bilan qo‘lga kiritish mumkin, lekin vaqtni ortga qaytarib bo‘lmaydi. Shunday ekan, vaqtning har bir soniyasidan ham samarali foydalanishimiz kerak.

Inson o‘z kuchi, imkoniyatlariga ishonib, orzulariga yetishish yo‘llarini izlab yashaydi. Bularga erishishi uchun ham unga ma‘lum vaqt kerak, vaqt esa har doim ham yetishmaydi. Yoshlarda orzularini ro‘yobga chiqarish, ularga tezroq erishish uchun ko‘plab imkoniyatlar mavjud. Globallashuv dunyoni o‘zgartirmoqda. Yangidan yangi kashfiyotlar insonning yashash tarziga ham ijobiy, ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Agarda kimdir o‘z ustida ishlamas, zamondan orqada qolmoqda va bu o‘z navbatida vaqtning bekorga yo‘qolishiga olib kelmoqda.

Yoshlik yillarida vaqt bekorga o‘tkazilsa, bilim olish fursati ham boy beriladi. Bugungi kunimiz ertaga tarixga aylanadi. Tarix zarvaraqlariga esa har bir insonning o‘z xalqi uchun qilgan xizmatlari, saodatli ishlari manguga muhrlanadi.[1]

Vaqt haqida so‘z yuritir ekanman Abul Fattoh Abu G‘uddaning “Ulamolar nazdida vaqt qadri” asariga yuzlanmoqchiman. Chunki bu asarda vaqtning qadri xususida fikr-mulohazalar va o‘tgan ulamolarimizning vaqtlaridan unumli foydalanganliklari va shu tufayli kelajak avlodlar ya‘ni bizlar uchun ulkan hajmdagi asarlarni me‘ros qilib qoldirishganligi hususida so‘z borgan.

Hozirgi kunda esa juda ko‘plab insonlar vaqtdan noto‘g‘ri foydalanadilar. Vaqt haqida teranroq tafakkur qilib ko‘radigan bo‘lsak, o‘tayotgan har bir daqiqamiz aslida aziz umrimizning qimmatli onlari ekanini his etamiz. Shuning uchun bo‘sh vaqtlarimizni ham rejali ravishda o‘zimiz yoki yurtimiz uchun manfaat keishlarga sarflashimiz lozim, deyilgan.[2]. Yana bu asarda muallif ilm ahllari nazdida vaqt qadri xususida so‘z yuritgan.

Inson har tong yangi kunni qarshi olar ekan, uning ixtiyoriga 24 soat vaqt beriladi. Bu unga har kuni beriladigan 1440 daqiqa yoki 86400 soniyalik fursatdir. O‘tayotgan vaqtimiz haqida o‘ylab ko‘radigan bo‘lsak, soat millarining „chiq-chiq“lari, aslida aziz umrimizning to‘xtovsiz parchalanib ketayotgan onlari ekanini his etamiz.

Vaqtga e‘tibor muhim bo‘lganidan, dinimizda ko‘plab toat –ibodatlar aniq vaqtga xoslab qo‘yilgan. Masalan, bir kunda ado etish lozim bo‘lgan besh vaqt namozga alohida-alohida vaqt tayin qilingan, ularni hammasini bir vaqtning o‘zida o‘qib bo‘lmaydi, bu esa



vaqtning ahamiyati naqadar muhim ekanini bildiradi. Ro‘za tutish ham aniq vaqtga, faqat Ramazon oyiga xoslab qo‘yilgan.[3]. Shunday ekan , kishi o‘tayotgan umrini ziyrak tijoratchi kabi har doim sarhisob qilib borishi lozim. Har kun,hafta,oy va yilda o‘tayotgan vaqtida nimadan foyda ko‘rgani, nimadan zarar ko‘rgani, foyda qancha bo‘lgani, zarar qancha bo‘lgani, fayda nima sababli bo‘lgani, nima sababdan zarar ko‘rganini sarhisob qilib, foydani oshirib, zararni yo‘qotishga urunib borishi lozim. Chunki tijoratchi yo‘qotgan molini yana ortig‘i bilan qo‘lga kiritishi mumkin, vaqtни yo‘qotgan inson esa, uni qayta qo‘lga kiritishi aslo mumkin emas. Ulamolar o‘tayotgan vaqt haqida shunday deganlar: “Vaqt betaraf bo‘lmaydi, yo senga qadrdon do‘st, yoki, ashaddiy raqib bo‘ladi” [4]. Ya`ni o‘tayotgan vaqt insonlarning foydasi yoki zarariga hujjat bo‘ladi.

Bugungi kunimizda zarur ishlar bilan mashg‘ul bo‘lish o‘rniga boshqa bekorchi narsalarga o‘ralashib qolish ko‘zga tashlanmoqda. Aslida esa qanchadan –qancha qulayliklar mavjud bo‘lgan hozirgi paytda juda ko‘plab yutuqlarga erishishimiz mumkin. Lekin vaqtdan noto‘g‘ri foydalanish sababli ko‘pgina zarur ishlarga „vaqt yetmay qolyapti“. Yaxshi ishlarni bajarishga „vaqt topa olmayotganlar“ aslida vaqtga bee`tibor kimsalar hisoblanadi. Chunki ishlarini rejali ravishda bajarib „vaqt topa olayotganlar“ yo‘q emas. Dono halqimizning hikmatli so‘zi bor:

Zarurmas o‘ringa molin sarflagan,

Eng zarur o‘ringa mol topa olmas.[5].

Bu so‘zda nima deyilmoqchi? Vaqtini keraksiz va behuda sarflaydigan insonlar vaqtlar o‘tib eng zarur ishni qilishlari uchun ham vaqt topa olmaydilar. Quyidagi hikmatda aytilganidek:

Yoqutlar topilar vaqtlar bilan,

Vaqtlar topilmas yoqutlar bilan.[6].

Yillar mobaynida oz-ozdan mol-dunyo yig‘ib, qo‘lga kiritishingiz mumkin, ammo yillar mobaynida yig‘gan mol-dunyoyingiz yordamida na vaqtни sotib olishingiz va na vaqtни ortga qaytara olishingiz mumkin. Shu sababli ham har bir ishni o‘z vaqtida bajarishga odatlanish kerak. Ertangi kun uchun oldingizga maqsad qo‘ying, ishlaringizni rejalashtiring, vaqtingizni g‘animat ekanligini his qiling. Hozirgi yoshda siz va biz aynan o‘qish , ilm olish, izlanish



yoshida ekanmiz bunday imkoniyatdan albatta samarali foydalanib qolishimiz lozim. Agarda biz hozirgi kunda o‘qishni xohlamay turli xil foydasiz ishlarga o‘ralashib yuraversak, kelajakda afsus – nadomat chekishimiz turgan gap. Zero aytilganidek:

Har bir ishning vaqti bor,

Vaqt bilganning baxti yor.

Ozod va janatmakon diyorumizning porloq kelajak sohiblari bo‘lishimiz uchun yoshlikdan o‘qishimiz va izlanishdan aslo to‘xtamasligimiz kerak. Chunki, “Yoshlikda olingan bilim- toshga o‘yilgan naqsh”[7] kabidir.

Xalqimiz donolari shuning uchun ham yoshligimizdan „ o‘qi”deb tanbeh berishadi. Yoshlikda olingan bilim umrimizning to so‘ngiga qadar bizning yaxshi hayot kechirishimizga yordam beradi. Shunday ekan yoshlik davrida o‘ynab-kulib emas balki, o‘qib, kasb yoki hunar egallashimiz, vaqtimizni foydali mashg‘ulotlar bilan o‘tkazishimiz, kitob mutoala qilishimiz, vatanimizga kerakli kasbimizning yetuk mutaxassislari bo‘lishimiz darkor deb o‘ylayman. Yoshlik qaytib kelmasligi uchun emas, balki biz hayotga bir martagina kelishimiz uchun ham bu imkoniyatlardan unumli foydalanib qolaylik.

Qadrli tengdoshlar,sizlar uchun yaratilgan va in`om etilgan vaqtdan unumli foydalaning! Zero,

Vaqt oltindek emas,balki,

Oltindan qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <http://www.marifat.uz/marifat/ruknlar/olii-talim/5350.htm>
2. Abul Fattoh Abu G‘udda.”Ulamolar nazdida vaqtning qadri”. T:-G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2018. 4- Bet .
3. Abul Fattoh Abu G‘udda,”Ulamolar nazdida vaqtning qadri”.T:-G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyoti –matbaa ijodiy uyi, 2018. 5-bet .
4. Abul Fattoh Abu G‘udda,”Ulamolar nazdida vaqtning qadri”.T:-G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyoti –matbaa ijodiy uyi, 2018. 8-bet .
5. 4. Abul Fattoh Abu G‘udda,”Ulamolar nazdida vaqtning qadri”.T:-G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyoti –matbaa ijodiy uyi, 2018. 11-bet .



6. <https://tiame.uz/oz/content/yoqutlar-topilar-vaqtlar-bilan-vaqtlar-topilmas-yoqutlar-bilan>
7. <https://tdtuof.uz/uchrashuvlar/yoshlikda-olingan-bilim-toshga-oyilgan-naqshdir>



TARIXIY TAFAKKURNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Imomov Rahimjon Xabibjonovich

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

Vatan, avvalo oila demakdir. Shunday ekan, oilaning mavqei anglash, uning sha'ni, obro'- e'tiborini saqlash, g'ururini yuqori darajaga ko'tarish har bir insonning eng oddiy burchi sanaladi. Oila muhitida berilayotgan tarbiya farzandlarni qon-qarindoshlikni ulug'lash, oila sulolasi manfaatlarini yo'lida birlashish, uning sha'nini saqlashga o'rgatadi. O'z oilasi uchun fidoiy bo'la olgan, uni qadrlay olgan insongina vatanini, xalqini qadrlay oladi. "Oilada amalga oshiriladigan tarbiya mazmuni farzandda o'z ota-onasidan, oilasi, avlod ajdodlari tarixidan, o'zi tug'ilib o'sgan o'lkasi, vatani, millati, xalqi, tili, dini, an'analaridan g'ururlanish hissini shakllantirmog'i kerak" deya fikr bildirganda O.Musurmonova avvalo tarixiy tafakkur jarayoni, ajdodlar ruhiga, hurmat, ma'naviy-ma'daniy merosga e'zoz tuyg'ulari oiladan boshlanishini ta'kidlagan. Oliy ta'lim muassalarining oilalar bilan mustahkam aloqa o'rnatishi, turli tadbirlarda ota-onalarning faol ishtirok etishlariga erishish, oilaviy an'analar va ularning shaxs kamolotidagi o'rni va rolini ochib berishga qaratilgan tanlovlar (masalan, insholar, sulolaviy shajaradan xabardorlik tanlovlari)ni o'tkazish bo'lajak o'qituvchilarning tarixiy tafakkur tuyg'usiga ega bo'lishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Sport ham musiqa san'atidek millat, yurt nomini jahonga tez tanitadi, shuningdek, u fuqarolarning faxr, iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilar bilan ishlash jarayonida ularni o'zbek sportining buguni va istiqboli bilan tanishtirish ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Bo'lajak o'qituvchilarni o'zbek sportining yorqin namoyondalari faoliyati bilan yaqindan tanishishlari uchun sharoit yaratishga alohida e'tibor berish zarur.

Oliy ta'lim muassalarida jahon va respublika miqyosida yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan sportchilar bilan uchrashuvlarni uyushtirish bo'lajak o'qituvchilarga ulardan namuna olishlariga imkon beradi. Shuningdek, ularda sport bilan doimiy shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantirish ham ularning kelgusida sport sohasida mamlakat obro'sini ko'tarishlari uchun asos bo'lishi mumkin. Davlat ramzlari har qanday mamlakatning eng oliy qadriyatlaridan biridir. Binobarin, ularda davlatning shakllanish tarixi, millatning turmush tarzi, hayotiy



yondoshuvlari, ijtimoiy munosabatlari mazmuni, milliy qadriyatlari mohiyatida aks etgan orzu-umidlari, niyat-o‘ylari, kelajak intilishlari o‘z aksini topadi. Davlat ramzlari xalqaro maydonda mamlakat, millat nomini keng yoyishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarda davlat ramzlariga bo‘lgan cheksiz hurmatni qaror toptirish oliy ta‘lim muassasi ma‘muriyati oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tarixiy tafakkur tuyg‘usiga ega bo‘lishlarida ular tomonidan davlat ramzlarining asl mohiyatini anglab yetilishiga erishish alohida ahamiyatga ega.

Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar jarayonida davlat ramzlaridan foydalanish (uni oddiy bir vosita sifatida emas, balki ta‘sirchan kuchga ega predmet tarzida qo‘llashga erishish) muhimdir. Demak, Bo‘lajak o‘qituvchilarda tarixiy tafakkur tuyg‘usini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni tashkil etishda samarali bo‘lgan omillardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday omillar sirasida millatning shonli tarixi, milliy til imkoniyatlari, xalq qahramonlarining jasorati, milliy qadriyatlar (urf-odat, marosim va an‘analari), xalq og‘zaki ijodi, adabiyot, ilm-fan, san‘at, xalq hunarmandchiligi, milliy me‘morchilik, rassomlik, milliy musiqa va qo‘shiqchilik, raqs san‘ati hamda san‘atning boshqa turlari (kino, teatr, sirk, milliy dorbozlik) muhim ahamiyatga ega. Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar ma‘naviy-axloqiy tarbiyani shakllanishiga olib keladi. Ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri esa shaxsni milliy-ma‘naviy hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish va yaqinlashtirish orqali yuksak ma‘naviyatli shaxsni kamol toptirishdan iboratdir.

Tarixiy tafakkur tuyg‘usi milliy mansublikni chuqur anglash, uni e‘zozlashga ma‘naviy-ruhiy jihatdan kelib chiqqan ehtiyoj mahsulidir. Tarixiy tafakkur, eng avvalo, o‘zligini anglash, milliy ravnaqni ta‘minlash yo‘lidagi xatti-harakat, o‘z millati istiqboli oldida mas‘ullikning beqiyos namunasi. Tarixiy tafakkur tuyg‘usiga ega bo‘lgan har bir kishi o‘z millati o‘tmishini yaxshi bilgan, qadrlay olgan va ayni paytda uni yangicha sharoitlar, holatlarda boyitib boradigan barkamol shaxsdir. Shu bilan bir qatorda o‘z kelayotgan yosh avlod boshqa millatlar milliy an‘analari, san‘ati va madaniyatini hurmat qilish qobiliyati, ularni anglash salohiyatiga ega bo‘lmog‘i lozim. Tarbiya - jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Jamiyat esa nomilliy bo‘la olmaydi. Tarbiya yordamida avlodlarning sinalgan, eng ma‘qul, taraqqiyparvar tajribasi o‘zlashtiriladi va yangi avlodga



yetkaziladi, odamlarning ongi, xulqiga shu jamiyatda qabul qilingan axloq me'yorlari singdiriladi, yetakchilik qilayotgan mafkura o'zlashtiriladi. Ma'lumki, milliy mafkura, milliy taraqqiyot, tarixiy mansublik kabi muqaddas qadriyatlarni xalq keng va teran idrok etmoqda. Mamlakatimiz yangi renessans qurish yo'lida asosiy e'tiborni ta'lim va tarbiya tizimiga qaratmoqda. Tub o'zgarishlar amalga oshirilib, ta'lim va tarbiya tizimi keng isloh qilindi. Bu o'zgarishlar odamlarning ongi va tafakkuriga ham ijobiy ta'sir etmoqda. Binobarin, o'sib kelayotgan yangi avlod dunyoqarashida tarixiy tafakkur tarzida namoyon bo'lmoqda. Bu tuyg'uni rivojlantirish, barqaror e'tiqodga aylantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Demak, tarixiy tafakkur tuyg'usining mohiyatini yanada chuqur, puxta anglash, vatanni sevish, u bilan faxrlanish, vatan sharafini himoya qilish uchun yoshlar nimalarga e'tibor berishi kerakligini ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarga singdirish muhim ahamiyatga ega. Agarda milliy tarbiya e'tiborsiz qoldirilsa, stixiyali tarzda kechsa, xalqning milliy o'zligini anglash darajasi, milliy g'ururi, madaniyati, vatanparvarlik darajasi susaya boradi. Chunki har bir individ o'ziga xos milliy-madaniy an'analar, me'yorlari bo'lgan jamiyatda shakllanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar mazmunidan shu narsa ayon bo'ldiki, bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkur tuyg'usini shakllantirishning mazmuni, metodlari, shakl va vositalarini yoritib bergan maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Muammoni tadqiq etish mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning quyidagi yo'llari samarali ekanligini isbotladi:

- xususiy fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarga milliy qadriyatlar, ularning ijtimoiy ahamiyati, o'zbek xalqining jahon ilm-fani va sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi haqidagi ma'lumotlarni berishga jiddiy e'tibor qaratish;

- bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur tuyg'usi asosida shakllantirish jarayonida ommaviy axborot vositalari xizmatidan samarali foydalanish;

- bosh g'oyasi maishiy muammolardangina iborat bo'lib, g'oyaviy saviyasi va ijro mahorati past bo'lgan musiqa va kino san'ati namunalarining ommaviy axborot vositalari sahifalaridan o'rin olishiga nisbatan jamoatchilik ta'sirini o'tkazish, shu bilan birga,



gazeta va jurnallarda imkoni boricha ko‘proq ijtimoiy ong va shaxs dunyoqarashini boyitish, fuqarolarda fikrlash layoqatini shakllantirish;

- ishlab chiqarish va ijod sohaslarida samarali faoliyat yuritayotgan zamona qahramonlarini yoshlarga tanishtirishga alohida e‘tibor qaratish va bu yo‘lda faollik ko‘rsatish;

- yoshlarda umummillat va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan yuqori qo‘ya olishlari, jamiyat va millat oldidagi insoniy burchlarini to‘laqonli anglashlari, xalq baxt-saodati hamda yurt farovonligi yo‘lida mehnat qilishlariga erishish uchun psixologik va pedagogik sharoit yaratish;

- yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etuvchi tadbirlarning keng ko‘lam va yuksak saviyada tashkil etish an‘anasini qayta tiklash;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur tuyg‘usi asosida shakllantirishning psixologik-pedagogik va falsafiy jihatlarini yaxlit holda o‘rganilishiga erishish, mazkur jarayonni tashkil etishning samarali yo‘llari, omillari va vositalarini yetarli darajada o‘rganish kabi jarayonlar muammoga yechim bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘xtahojayeva M.X., Nishonova S, Hasanboyev S va b.q “Pedagogik. Pedagogika nazariyasi va tarixi. I qism.Pedagogika nazariyasi” T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2010-yil - bet 58

2. Mirziyoyev Sh “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”, T.: “O‘zbekiston”, 2017-yil, 23 -bet

3. Yo‘ldashev O‘ “Umumiy pedagogika” T.: “Fan va texnologiya”, 2017-yil, 128-bet

4. Jo‘rayev N “Tarixiy falsafaning nazariy asoslari”. T.: “Ma‘naviyat” 2008-yil, 17-18-bet

5. Ibrohimov A. va boshqalar. “Vatan tuyg‘usi” Toshkent.: 1996. 29-30-bet

6. Musurmonova O. “Oila ma‘naviyati – milliy g‘urur” Toshkent.: 1999. 24–bet

7. Erkaboyeva N.Sh “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda pedagogik fikrlarning rivojlanishi” doktorlik dissertatsiyasi aftoreferati, T.: 2007 yil. 37-38–bet.



INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI

Umida Qayumova

Namangan davlat universiteti

Sotsiologiya yo'nalishi, 1-kurs magistranti

E-mail: qayumovaumida2404@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson kapitalining ahamiyati va inson kapitalini yuksaltirishda ta'limga sarmoya kiritish muhimligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *inson kapitali, inson kapitali indeksi ta'lim, global innovatsion indeks, sarmoya.*

Аннотация: *В этой статье показана важность человеческого капитала и важность инвестиций в образование для улучшения человеческого капитала.*

Ключевые слова: *человеческий капитал, индекс человеческого капитала, образование, глобальный индекс инноваций, инвестиции.*

Annotation: *This article highlights that the importance of human capital and the importance of investing in education to improve human capital.*

Key words: *human capital, human capital index, education, global innovation index, investment.*

Ta'limga sarmoya kiritib, nafaqat mamlakatda ilmi insonlarni ko'paytirish, balki, mehnat unumdorligini oshirishga, iqtisodiyotni rivojlantirish, ilmiy salohiyati yuqori mamlakatlar qatoriga qo'shilish, tovar va xizmatlar aylanmasini yanada yuksaltirishga ham erishishi mumkin. Ilg'or rivojlangan davlatlar qatorida bo'lish, va iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tomondan yanada yuksalish va aholi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish uchun inson kapitalini rivojlantirish vazifasi davlatning ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan eng muhimi hisoblanadi. Shu boisdan ham, 2022 – 2026- yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” ushbu maqsad-muddaolarni nazarda tutganligi bilan ham ahamiyatlidir. Shu bilan birgalikda yaqinda ham, 2023-yil 11-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi 158-son farmoni



ham qabul qilindi. Bu farmon 5 ta ustuvor yo‘nalish va 100 ta maqsadni o‘z ichiga olgan bo‘lib, kelgusida mamlakatda amalga oshirishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘zda tutilgan.

Ushbu “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ijtimoiy sohalarni rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shu bois 2024 yil uchun davlat budjeti loyihasida ijtimoiy sohalarga katta e‘tibor qaratilgan. Xususan, kelgusi yilda inson kapitalini rivojlantirish uchun 102,5 trillion so‘m yo‘naltirish mo‘ljalanmoqda. Bu joriy yilgiga nisbatan 15 foiz ko‘p[1]. Nafaqat rivojlanayotgan balki, har qanday rivojlangan davlatlar uchun ham inson kapitali eng muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Insonlar uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish, xavfsiz mamlakatni barpo qilish, sog‘lom avlodni voyaga yetkazish, barqaror iqtisodiyotni barpo etish uchun inson kapitali xususan ijtimoiy kapitalning o‘rni yuksak hisoblanadi. Dunyoning aksariyat rivojlangan mamlakatlariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, inson kapitaliga tikilgan ulkan sarmoyani ko‘rishimiz mumkin.

Shu o‘rinda inson kapitali nima degan savol tug‘ilishi mumkin. Bu savolga javob beradigan bo‘lsak, Inson kapitali ta‘rifini insonning bilimi, iste‘dodi, qobiliyati, ijtimoiy odati, aql-zakovati va tajribasidan kelib chiqadigan nomoddiy aktiv sifatida ham tushunishimiz mumkin. Umuman inson kapitali bu insonni o‘zida to‘plagan barcha resurslari to‘plamidir.

Inson kapitali - bu odamlarning jamiyatning samarali a‘zolari sifatida o‘z potentsialini ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan va butun umri davomida to‘playdigan bilim, ko‘nikma va sog‘liqdan iborat. Oziqlanish, sog‘liqni saqlash, sifatli ta‘lim, ish o‘rinlari va ko‘nikmalar orqali odamlarga sarmoya kiritish inson kapitalini rivojlantirishga yordam beradi va bu o‘ta qashshoqlikka barham berish va yanada inklyuziv jamiyatlarni yaratish uchun kalit hisoblanadi[2].

Inson kapitalini rivojlantirishdan eng asosiy maqsadi – yuqori texnologik rivojlanish davri uchun kerakli, tezkor, zaruriy va zamonaviy bilimga ega hamda muammoli vaziyatlarni oldindan ko‘ra oladigan va moslashuvchan avlodlarni shakllantirishdan iboratdir. Inson kapitali ishlab chiqarish poydevorining hal qiluvchi elementidir. Ta‘lim jarayoni esa bevosita bu borada jamiyat uchun inson kapitali resurslarini rivojlantirish uchun mas‘uldir. Bilamizki, ta‘lim ijtimoiy hayot, ijtimoiy me‘yorlar, odatlar, salomatlik, va ishlab chiqarishni yaxshilash



orqali jamiyatning hayot sifatini ham oshiradi. Biz buni qaysidir ma'noda yuqori iqtisodiyotga ega bo'lish uchun mamlakatning ta'limga tikkan sarmoyasi deb aytishimiz mumkin. Bilamizki, O'zbekiston aholisini 60 foizidan ko'prog'ini yoshlar qatlami tashkil qiladi. Bu degani mutaxassislar tili bilan aytganda, yoshlar kelgusida katta ishchi kuchiga aylanadi. Iqtisodchilar va ekspertlar yosh avlodning hozirgi vakillari mamlakatlar iqtisodiyotini yana-da ko'tarish va umuman kutilmagan, olamshumul o'zgarish qilishlariga ishonishadi. Bu ishonch va qarash esa inson kapitaliga e'tiborni yuksaltirish zarurligi va bu orqali rivojlangan davlatlar qatoriga kirish imkoni yaratishi ko'zda tutilgandir.

Keyingi yillarda O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rni prezidentning "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat va amaliy faoliyat uyg'unligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida yaxshilanib bormoqda. Xususan, uning doirasida har yili xalqaro reyting forumi, seminar-treninglar tashkil etilmoqda. BMT Taraqqiyot dasturining Inson taraqqiyoti indeksida O'zbekiston 2022-yilda 0,727 indeks bilan 191 davlat orasida 101-o'ringa ko'tarildi. So'nggi yillarda mamlakat ushbu indeksda 14 pog'onaga ko'tarildi[3]. Inson kapitaliga e'tibor muhim ko'rsatkich bo'lib, har bir mamlakatda inson taraqqiyotini baholashning statistik ko'rsatkichi "Inson taraqqiyoti indeksi" (HDI) baholanib kelinadi. Bu o'z ichiga o'rtacha umr ko'rish indeksi, ta'lim indeksi va daromad indeksining birlashmasini oladi. O'rtacha umr ko'rish indeksi mamlakatdagi aholi salomatligi darajasini ko'rsatsa, ta'lim indeksi esa millat raqqiyoti bo'lgan ta'lim darajasi va aholining savodxonlik koeffitsientini bildiradi, yaxshi turmush darajasini aniqlash uchun hisobga olinadigan uchinchi parametr - bu daromad bo'lib, u aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy daromad bilan belgilanadi. Mana shu barcha tarmoqlardagi o'sish va yuqori o'rinni egallash inson taraqqiyoti indeksining oshishiga olib keladi. Inson taraqqiyoti indeksiga yaqindan murojaat qiladigan bo'lsak shuni aniq ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash va ta'limning yaxshi darajasi tufayli inson kapitalining shakllanishi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakatning jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi ham yuqori bo'ladi. Inson taraqqiyoti indeksi har yili butun dunyo bo'ylab mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda vosita bo'lib, xalqlar rivojlanishining ishonchli ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.



Shu o‘rinda Inson kapitali indeksi (HCI) haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, Jahon banki tomonidan 2018-yildan beri 157 mamlakatni o‘z ichiga olgan holda sog‘liqni saqlash va ta‘limning keyingi avlod ishchilarining samaradorligiga qo‘shgan hissasini miqdoriy jihatdan belgilab keladi. Ushbu tadqiqotlarda ilk marotaba 2020-yili ishtirok etgan O‘zbekiston 62 foiz natija ko‘rsatgan.

Inson kapitali indeksi reytingini shakllantirishda asosan 3 xil yo‘nalishda ma‘lumotlar tahlil qilinadi: sog‘liqni saqlash, ta‘lim sifati hamda boshqa iqtisodiy ko‘rsatgichlarga oid statistik ma‘lumotlardan foydalaniladi[4]. Haqiqattan ham ta‘limga bo‘lgan ehtiyoj va ish joyida olingan malaka inson faoliyatida muvaffaqiyatga erishishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli ham kadrlar bo‘limi menejeri (HR)ga inson kapitalini yuksaltirishdagi muhim bo‘lgan vazifalar yuklanadi. Inson kapitaliga sarmoya kiritishning keng tarqalgan usuli bu mavjud ishchilarning bilimini va malakasini oshirishdir. Bu esa deyarli har qanday ish joyida ishchilarni malakasini davomiy holda oshirish maqsadida o‘quv kurslarini, amaliyot va turli seminarlarni tashkil qilishni nazarda tutadi. Sababi, inson qanchalik yangi bilimlarni olsa u o‘z ustida ko‘proq ishlaydi va hozirgi zamonaviy davrda aynisa insonning moslashuvchan qobilayati juda ham zarur. Globallashuv davrida insonning bilimi, malakasi va tafakkuri ham davrga mos ravishda tezlashishni anglatadi. Misol uchun, xorijda ko‘plab texnologiya kompaniyalari mavjud xodimlarni yanada qimmatli ko‘nikmalarga ega bo‘lishga undash uchun o‘quv dasturlari, malaka oshirish kurslari yoki o‘qish uchun to‘lovlarni taklif qilishadi, bu esa ishga yollash xarajatlarisiz yaxshilangan mehnat resurslariga ega bo‘lish imkonini beradi. Bu yerda ham ta‘limga qaratilgan sarmoya o‘z mavesini beradi.

Ta‘lim inson kapitalini rivojlantirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashishda muhim rol o‘ynaydi. Inson kapitali iqtisodiy o‘shishning asosiy omili bo‘lib, ta‘lim uning rivojlanishida hal qiluvchi element bo‘lib xizmat qiladi[5]. So‘ngi yillarda Inson kapitaliga boshqalardan ko‘proq sarmoya kiritayotgan eng faol mamlakatlar beshligidan “Osiyo yo‘lbarlari” deb nomlangan Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Gonkong va Kanada o‘rin olgan. Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, Sharqiy Osiyo mamlakatlari bor e‘tiborini inson kapitaliga ya‘ni talimga qaratgan holda bugungi darajaga erisha oldi. Misol tariqasida oladigan bo‘lsak, Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan



Janubiy Koreya o'tgan asrning 1950-1960- yillarida iqtisodiy jihatdan eng yomon holatda bo'lishiga qaramay, ta'limga tikilgan ulkan sarmoya bilan bugungi kunda har jabhada eng yuqori o'rinlarda keladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga (xususan, ta'limga) qo'yilgan ta'sirchan sarmoya Janubiy Koreyaning iqtisodiy o'sishini boshqa Janubiy va Sharqiy Osiyo iqtisodiyotlari darajasidan ancha oshirdi[6]. Haqiqattan ham ta'limga berilgan yuksak o'zini oqlamay qolmagan. Bugungi kunda aksincha rivojlangan g'arb va yevropa mamlakatlarini ko'radigan bo'lsak ham, inson ta'limiga berilgan yuksak pag'onadagi e'tiborni ko'rishimiz mumkin. Va bugungi kunda ana o'sha mamlakatlar o'zlaridan kelib chiqqan holda eng yaxshi ta'lim tizimini ham taklif qiladilar.

Darhaqiqat, inson kapitalini shakllantirishga olib keladigan ta'limga investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy dvigateli sifatida e'tirof etiladi. Inson kapitali iqtisodiy o'sishga ikki jihatdan hissa qo'shadi. Avvalo, insonda mujassamlangan inson kapitali alohida shaxslar unumdorligini oshiradi, bu esa umumiy ishlab chiqarish hajmining oshishiga va iqtisodiy o'sishga olib keladi. Ikkinchidan, shaxsda mujassamlashgan inson kapitali boshqa barcha ishlab chiqarish omillarining ham unumdorligiga hissa qo'shadi. Bular mos ravishda inson kapitalining ichki va tashqi ta'siri deb ataladi[7].

Inson kapitalini yaxshilash asnosida O'zbekiston reytingini dunyo bo'yicha yaxshilash yuqorida aytib o'tganimizdek taraqqiyot strategiyasida muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu jumladan, 2022 — 2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida berilgan, 52-maqсад: Global innovatsion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish.

– Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilash.

– Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish[8], ko'rsatib o'tilgan.

Global innovatsiyalar indeksi (GII) har yili iqtisodiyotning ma'lum innovatsion ko'rsatkichlarning kuchli va zaif tomonlarini ajratib korsatish orqali baholaydi. Bu indeks eng so'nggi global innovatsiya tendensiyalariga asoslanadi va innovatsiyalarni ko'rsatkichlarini



siyosiy muhit, ta'lim, infratuzilma va bilimlarni yaratish kabi ko'rsatkichlar asosida o'lchashga qaratilgan[9].

Inson kapitaliga investitsiyalarning asosiy ulushi davlat tomonidan amalga oshirilgan ekan, berilayotgan e'tibor va harakatlar tufayli bu yilgi ya'ni 2023- yil Global innovatsiya indeksining (GII) reytingida O'zbekiston 132ta davlat orasida 82-o'rinni saqlab qoldi.

Ta'limga kiritilgan hissa, shubhasiz, iqtisodiy o'sish va yuksalish bilan chegaralanmaydi. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki siyosiy ta'limning butun rivojlanish tarkibiga ta'siri katta. Birgina ta'lim sog'liqni saqlash jarayonini yaxshilaydi, demografik jarayonlarga ta'sir qiladi, ishchi kuchini oshiradi va yanada sifatli va farovon hayotga hissa qo'shadi. Asosiy ehtiyojlar doirasida ta'limning roli, xususan, ta'limning sog'liq va ovqatlanishga ta'siri yaxshi o'rganib kelingan[10]. Ta'lim to'yib ovqatlanmaslik va oldini olish mumkin bo'lgan kasalliklarni yo'q qilishda ham katta rol o'ynaydi. Buning sababi nafaqat ta'lim insonlarga oziq-ovqat va dori-darmonlarni sotib olish uchun yordam beradi, balki keng tarqalgan boshlang'ich ta'lim sog'liqni saqlash xizmatlaridan ko'proq foydalanishga olib keladi. O'z-o'zidan ta'lim orqali sog'liq yaxshilanadi, kasallanish jarayoni kamayadi va erta vafot etish ko'rsatkichlari pasayib, aksincha uzoq umr ko'rish davomiyligi oshadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim demografik dividendlarni yaratishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu modelga ko'ra, ta'lim nafaqat mehnat unumdorligini oshirish, balki tug'ilish va o'limni kamaytirish uchun ham muhim hal qiluvchi omil hisoblanadi[11]. Demografik dividend qachonki mehnatga layoqatli aholi sonining ko'payishi mehnat unumdorligining oshishi bilan birga bo'lganda yuzaga keladi. O'zbekistonda so'nggi ikki yil ichida aholi soni 2 milliondan ko'proqga oshdi. Yuqorida aytib o'tilganidek, aholini 60 foizidan ko'prog'ini mehnatga layoqatli yosh qatlam tashkil qiladi. Bu shuni anglatadiki, O'zbekistonda demografik dividend so'nggi yillarda eng yuqori bosqichda ko'tarilishda davom etadi degani. Shu sababli, ham ta'limga berilayotgan so'nggi yillardagi e'tibor e'tirofga sazovor. Maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'limgacha bo'lgan qamrov oshishi kuzatildi. Shu bilan birgalikda, O'zbekistonda ta'limning barcha bosqichlarida dunyoda yetakchi bo'lgan davlatlarning ta'lim tizimlari tajribalari va elementlariga tayanib ish olib borilmoqda. Misol



uchun, Singapur, Finlandiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimidan mutaxassislar bilan hamkorlik qilinmoqda. Lekin, birgina tajribaga asoslangan holda emas, e'tiborni ko'proq rivojlanishni tezda amalga oshiradigan jarayonlarga qaratish zarur. Yanada rivojlantirishni talab qiladigan yo'nalishlar qatoriga yoshlarni eng yuqori ko'nikma va bilimlarga o'rgatish, uzluksiz ta'lim jarayoni nazorat qilish, tanqidiy fikrlashni, ijodkorlik qobiliyati, ko'plab xorijiy tillarni, STEM sohalariga e'tibor qaratishni, raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishni o'rgatish kiradi.

Sog'liqni saqlash professori, akademik Hans Rosling o'zining "Faktdorlik" kitobida 1980 yillarda diareya, pnevmoniya va bezgakdan vafot etyotgan bolalar o'limi ko'p bo'lganligi va bu ko'rsatkich 2017- yilga kelib pasayganini sababini shunday faktlar asosida tushuntirib bergan, "...bolalarning omon qolish darajasi yaxshilanishiga kasalxonadan tashqarida mahalliy hamshiralar, doylar va ziyoli ota-onalar tomonidan o'tkazilgan profilaktik chora tadbirlar orqali erishilgan. Ayniqsa, onalar: ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar omon qolish darajasi oshishining yarmi onalar o'qish va yozishni bilgani sabablidir. Bolalar kasal bo'lmayapti, sababi ota-onasi ularni yaxshi parvarishlaydi, atrofdagi odamlar qo'lini yuvib turadi, onalar esa dori qutisidagi yozuvlarni o'qiy oladi. Agar 1 va 2 darajadagi mamlakatlarga sog'liqni saqlash tizimiga sarmoya kiritmoqchi bo'lsangiz, pulingizni boshlang'ich maktablar qurishga, hamshiralar ta'limi va emlashga kiritishingiz kerak"[12]. O'tgan asrning oxirida kuzatilgan chechak, pnevmoiya va bezgak kasalliklaridan vafot etgan chaqaloqlarning soni ulkan bo'lgan. Va buning eng yaxshilangan chorasi esa ta'lim ekanligini akademik, shifokor va yozuvchi Hans Rosling o'zining tadqiqotlarida aniq ko'rsatib bera olgan. Demak, bundan inson kapitali, xususan, ta'limga kiritilgan sarmoya eng muhim rivojlanish uchun qadam bo'la olishi ko'rinib turibdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nafaqat iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida balki, xalq farovonligini oshirish, mehnat unumdorligini yuksaltirish, malakali yetuk kadrlarni yetishtirishda muhim bo'lgan ko'rsatkich bevosita inson kapitaliga bo'lgan e'tiborni xususan, ta'limga hamda inson resurslariga bo'lgan siyosatni bardavom olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. <https://parliament.gov.uz/oz/news/belgilangan-vazifalar-ijrosi-ustidan-deputatlik-nazoratini-ornatish-muhim#>
2. <https://www.worldbank.org/en/publication/human-capital/brief/about-hcp>
3. <https://kun.uz/en/news/2023/02/07/uzbekistans-position-in-international-ratings-changing-positively>
4. https://teletype.in/@tdi.uz/H1R7HR4_B
5. Becker, G. S. (1964). Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education. National Bureau of Economic Research
6. Patrik Hultberg, David Santandreu Calonge & Seong-Hee Kim | (2017) Education policy in South Korea: A contemporary model of human capital accumulation?, Cogent Economics&Finance, 5:1, 1389804, DOI: 10.1080/23322039.2017.1389804
7. Lucas, Robert E. (1988): “On the Mechanics of Economic Development” Journal of Monetary Economics, 22, 3–42.
8. <https://lex.uz/docs/-5841063>
9. <https://cleartax.in/glossary/global-innovation-index/>
10. Noor, A. (1980). Education and Basic Human Needs. World Bank Staff Working Paper No. 450. The World Bank.
11. Cuaresma Jesús Crespo and Lutz Wolfgang. Is the Demographic Dividend an Education Dividend? Demography. Vol. 51. № 1. P. 299-315, 2014.
12. “Faktdorlik” Hans Rosling, Toshkent: Nihol, 2021. –160–344b.



ISLOM TARIXIDA PAYDO BO‘LGAN IXTILOFLAR VA ULARNING RIVOJLANISHI

Ravshanbek O‘rinov

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vafotlaridan keyin xulafoi roshidinlar davridayoq musulmonlar orasida turli adovat va tarafkashliklar boshlandi. Bu haqda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Majusiylar yetmish firqaga, yahudiylar yetmish bir firqaga, nasroniylar yetmish ikki firqaga bo‘linib ketganidek, ummatim ham yetmish uch firqaga bo‘linadilar. Bulardan bittasi abadiy najotga erishadilar, qolganlari esa halok bo‘ladilar”, dedilar. Sahobalar: “Yo Allohning Rasuli, najot topguvchilar kimlar?” deb so‘radilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Bugungi kunda men va sahobalarim turgan yo‘ldagilar”, deb javob berdilar (Imom Termiziy rivoyati).

Ulamolar mazkur hadisni g‘oyaviy asos qilgan holda bir qancha kitoblar yozishdi. Ayniqsa, bu borada Abdulqohir ibn Tohir ibn Muhammad Bag‘dodiyning “Al-Farq bayna al-firaq” (“Firqalar orasidagi farqlar”) va Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniyning “Al-Milal va an-nihal” (“Mazhablar va oqimlar”) asari turli ko‘rinishda paydo bo‘lgan firqa hamda oqimlarning g‘oya va faoliyat uslublari bayon etilgan hamda ahli sunna val jamoa aqidaviy qarashlari asosida ularga qarshi raddiyalar berilgan mashhur va mo‘tabar manba hisoblanadi.

E‘tiboringizga mazkur asarlardan ayrim parchalarni keltiramiz:

Abdulqohir Bag‘dodiy asarida musulmonlar o‘rtasida sodir bo‘lgan bo‘linish va ixtiloflar Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bashorat berib, ogohlantirgan holat ekaniga yuqoridagi hadisni misol qilib keltiradi.[1]

Abdulqohir Bag‘dodiy “Al-Farq bayna al-firaq” asarida musulmonlar orasida yuzaga kelgan bo‘linish hamda ixtiloflarni quyidagicha bayon qiladi:

Musulmonlar jamoasi o‘rtasida sodir bo‘lgan ilk ixtilof Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam vafotlaridan so‘ng boshlangan. Boisi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam vafot etgan kunlari sahobalar o‘zlarini yo‘qotib qo‘ydilar. Ba’zilar payg‘ambarimizning vafotlariga ishongan bo‘lsalar, boshqalar payg‘ambar o‘lmagan, balki Alloh taolo Iso alayhissalomni osmonga ko‘targanidek u zotni ham osmonga ko‘targan,



dedilar. Shunda, Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu: «(Ey, Muhammad!) Albatta, Siz ham o‘luvchidirsiz, ular (mushriklar) ham o‘luvchidirlar» (Zumar surasi, 30-oyat) oyatini o‘qib: “Kimki Muhammadga ibodat qilgan bo‘lsa, Muhammad o‘ldi. Kimki uning Robbiga ibodat qilgan bo‘lsa, Muhammadning Robbisi hayot, o‘lmaydi”, deganlaridan so‘ng, bu ixtilof barham topdi;

Keyingi ixtilof Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ning jasadlarini dafn etish masalasida boshlandi. Makkaliklar: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam muborak jasadlarini Makkaga olib borib dafn etamiz, chunki bu zotning tug‘ilgan, payg‘ambar bo‘lgan yerlari va islomning qiblasi – Makka bobolari Ismoil alayhissalomning qabrlari ham o‘sha yerda”, dedilar.

Madinaliklar: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni Allohning amri bilan hijrat qilgan va nusratga erishgan yerlari – Madinaga dafn etamiz”, dedilar. Uchinchi guruh esa: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni Quddusga olib borib, bobolari Ibrohim alayhissalomning yonlariga dafn etamiz, barcha payg‘ambarlar ham o‘sha yerga dafn etilganlar”, deb da‘vo qildilar. Bu ixtilof ham Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan eshitgan: “Albatta payg‘ambarlar jonlari olingan yerga dafn etiladilar”, degan hadislar bilan yakun topdi;

Uchinchi ixtilof Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dan keyin kim xalifa bo‘lishi borasida paydo bo‘ldi. Avs va Xazraj qabilasidan bo‘lgan ansoriy sahobalar Banu Soida bog‘iga xalifa saylash uchun to‘plandilar. Ular Sa‘d ibn Uboda roziyallohu anhuri xalifalikka saylamoqchi bo‘ldilar. Sa‘d ibn Uboda xutba o‘qib, unda ansorlarning fazilatini va birinchi bo‘lib Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ni himoya qilganlarini aytib, xalifalik ishida hech kim ular bilan nizolashishi mumkin emasligini bayon qildi. Ansorlar uning gapini ma‘qulladilar.

Shunda ulardan biri, agar bunga muhojirlar rozi bo‘lmasa va “Biz Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ning qarindoshlari va yaqinlarimiz”, deyishsa, nima deymiz?” dedi. Ulardan biri: “Bizdan bir amir va sizdan bir amir bo‘ladi, deb aytasan”, deb aytdi. Sa‘d ibn Uboda roziyallohu anhu esa bu to‘g‘ri emasligini ta‘kidladi. Ansorlarning Banu Soida bog‘ida to‘planganlari haqidagi xabar tezda Abu Bakr, Umar ibn Xattob va boshqa sahobalarga yetdi.



Ular tezlik bilan o‘sha yerga bordilar. Abu Bakr roziyallohu anhu so‘z boshlab, muhojirlar birinchi bo‘lib musulmon bo‘lganlari va din yo‘lida ko‘p aziyat chekkanlarini zikr qildilar. Shu bilan bir qatorda, ansorlarning ham barcha fazilatlarini birma-bir aytib o‘tdilar. Utba ibn Abd roziyallohu anhudan rivoyat qilingan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning: “Xalifalik Qurayshda” (Imom Ahmad rivoyati) degan hadislarini eslatdilar. Shunda ansorlar boshliqlaridan biri: “Siz amir, bizlar esa vazirlar bo‘lamiz”, dedi. Natijada xalifa Quraysh qabilasidan saylanishi aniq bo‘ldi va Abu Bakrga bay‘at qilindi;

To‘rtinchi ixtilof Fadak[2] qishlog‘i masalasida chiqdi. Chunki bu joy Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hayotlik vaqtlarida u zotning ixtiyorlarida bo‘lib, vafotlaridan keyin qizlari Fotimai Zahro roziyallohu anhu Fadak yerlaridan meros berilishini so‘raganlar. Ushbu ixtilof ham Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning Payg‘ambar alayhissalomdan eshitgan quyidagi hadisi bilan barham topdi: “Albatta Payg‘ambarlar meros qoldirmaydilar, qoladigan narsalari sadaqa bo‘ladi” (Imom Buxoriy rivoyati).

Beshinchi ixtilof “ahli ridda”, ya‘ni Islomning asosiy farzlaridan biri bo‘lgan zakotni ado etishdan bosh tortganlar paydo bo‘ldi. Ko‘pgina arab qabilalari: “Biz zakotni Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamga berar edik, endi u kishidan boshqaga bermaymiz”, dedilar. Xalifa Abu Bakr roziyallohu anhu ularga qarshi kurashdi, ixtiloflar barham topdi.

Navbatdagi ixtilof Yamomadan payg‘ambarlik da‘vosi bilan chiqqan Musaylama Kazzob[3], Sajjoh[4], Asvad ibn Zayd Anasiy[5] bo‘ldilar. Musulmonlar jamoasi ularga qarshi urush olib borishdi.

Hadislarda bu kabi soxta payg‘ambarlar chiqishi haqida ogohlantirilgan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Albatta, kelajakda mening ummatimda o‘ttizta kazzob bo‘ladi. Hammasi o‘zini nabiy deb da‘vo qiladi. Holbuki, men nabiylarning so‘nggisiman. Mendan keyin nabiy yo‘qdir” (Imom Termiziy rivoyati);

Boshqa hadisda: “Oxir zamonda soxta payg‘ambarlar, yolg‘onchilar chiqib, sizlar va sizlarning otalaringiz eshitmagan hadislardan aytadilar. Bunday qilishga sizlarning ham ularning haddilari sig‘masin! Ular sizlarni hidoyatdan burib, fitnaga sola olmaydilar”(Imom Muslim rivoyati),deganlar.



Keyinroq musulmonlar jamoasi Rum va Ajam yurtlariga yurishlar olib borib, qator muvaffaqiyatlarga erishdilar. Bu davrda ular yagona aqida atrofida birlashib, ular o'rtasida faqatgina fiqhning furu' masalalarida (meros, avl[6], kalola[7], radd[8]) o'zaro ixtiloflar yuzaga keldi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, musulmonlar jamoasi "xulafoi roshidin" (632-661 y.y.) Abu Bakr roziyallohu anhu, Umar roziyallohu anhu hamda Usmon roziyallohu anhuning dastlabki olti yili hukmronligi davrida ancha yakdil edilar. Xalifa Usmon roziyallohu anhu xalifaligining so'nggi olti yili va Ali roziyallohu anhuning to'liq davri ichki nizolarning avj olishi bilan tavsiflanadi. Shunga ko'ra, tarixchi Zakoi Kunrapa "xulafoi roshidin" davrini ikki qismga: oltin davr (632-650 y.y.) va bosh-boshdoqlik davri (650-661 y.y.)ga ajratgan.

Xalifa Abu Bakr roziyallohu anhu va Umar roziyallohu anhuning hukmronlik qilgan yillari ham turli ixtiloflar yuzaga kelgan. Ammo xalifalarning olib borgan keskin hamda qat'iy choralari ziddiyatlarning barham topishiga sabab bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абу Бакр ибн Арабий. Ал-Авосим мин ал-Қавосим. – Байрут. Дар ал-кутуб ал-илмия, 1988.
2. Абдулқоҳир ибн Тоҳир ибн Муҳаммад Бағдодий. Ал-Фарқ байна ал-фирақ. – Байрут. Дар ал-маърифа, 1986.
3. Тафсир ан-Насафий. Иккинчи жилд.



ZAMONAVIY JAMIYATDA OILA TUSHUNCHASI VA OILAVIY QADRIYATLAR DINAMIKASI

Gulrux Nurbek qizi Jumaniyozova

Namangan davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Sodirjonov Muxriddin Maxamadaminovich

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

gulruxjumaniyozova04@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada oila uchun hayotdagi asosiy qadriyatlar, barcha oila a'zolarining hamjihatligi, ishonchini va sevgisini mustahkamlaydigan muayyan axloqiy tamoyillarga rioya qilish, zamonaviy oilada oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishning ahamiyati va boshqalar to'g'risida yozilgan. Milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirishning ma'naviy- ma'rifiy ishlarimizdagi ahamiyati, oila va qadriyatlarning abadiy bir-biri bilan chambarchas bog'langanligi va jamiyat, qarindoshlar, do'stlar, bolalarga, oiladagi munosabatining ijobiy darajasi bayon etilgan. So'rov shaklida o'tkazilgan tadqiqot misolida yosh avlodning nikoh va oilaga munosabati to'g'risidagi xulosalar ko'rib chiqildi va zamonaviy yoshlarning oila va oilaviy qadriyatlar haqidagi qarashlari aniqlandi.*

***Kalit so'zlar:** oila, yoshlar, nikoh, oilaviy qadriyatlar.*

ПОНЯТИЕ СЕМЬИ И ДИНАМИКА СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Гулрux Нурбек кизи Жуманиёзова

Студент Наманганский государственный университет

Научный консультант: Содиржанов Мухриддин Махамадаминевич

Доктор философии (PhD) по социологии, доцент

gulruxjumaniyozova04@gmail.com

***Аннотация:** В данной статье написано об основных жизненных ценностях для семьи, следовании определенным моральным принципам, укрепляющим единство, доверие и любовь всех членов семьи, важности развития семейных ценностей в современной семье и т.д. . Значимость дальнейшего развития наших национальных*



ценностей в нашей духовно-просветительской работе, того факта, что семья и ценности извечно тесно связаны друг с другом, а также положительного уровня отношения общества, родственников, друзей, детей, и семья описаны. В качестве примера исследования, проведенного в форме опроса, были рассмотрены выводы об отношении молодого поколения к браку и семье, а также определены взгляды современной молодежи на семью и семейные ценности.

Ключевые слова: семья, молодежь, брак, семейные ценности.

CONCEPT OF FAMILY AND DYNAMICS OF FAMILY VALUES IN MODERN SOCIETY

Gulrux N. Jumaniyozova

Namangan State University student

Research advisor: Sodirjanov Mukhriddin Makhamadaminovich

Doctor of philosophy (PhD) in sociology, associate professor

gulruxjumaniyozova04@gmail.com

Abstract: *This article is written about the main values in life for the family, adherence to certain moral principles that strengthen the unity, trust and love of all family members, the importance of developing family values in a modern family, etc. The significance of the further development of our national values in our spiritual and educational work, the fact that family and values are eternally closely connected with each other, and the positive level of the attitude of society, relatives, friends, children, and family are described. As an example of a research conducted in the form of a survey, conclusions about the attitude of the young generation to marriage and family were considered, and the views of modern youth about family and family values were determined.*

Key words: *family, youth, marriage, family values.*

Kirish: Har bir mustahkam va birlashgan oilada o‘zlarining oilaviy qadriyatlari mavjud bo‘lib, bu jamiyatning tuzilishiga, butunligini saqlashga yordam beradi. Oila va oilaviy qadriyatlar har bir inson hayotining asosi hisoblanadi. Oila – bu muhabbat va hurmatda yaratilgan, nikohga yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik davlat. Sotsiologik



ensiklopediyada quyidagi ta’rif berilgan: “oila-nikoh yoki qon munosabatlariga asoslangan, umumiy hayot va o‘zaro javobgarlik bilan bog‘liq bo‘lgan odamlarning birlashmasi, ijtimoiy tuzilishning eng muhim elementlaridan biri” [1.-B.394]. Har bir mustahkam va birlashgan oilada o‘zlarining oilaviy qadriyatlari mavjud bo‘lib, bu jamiyatning tuzilishiga, butunligini saqlashga yordam beradi. Oila va oilaviy qadriyatlar har bir inson hayotining asosi hisoblanadi. Aynan oilada shaxsiy rivojlanish boshlanadi, chunki qadriyatlar yaxlit tabiatning uyg‘un rivojlanishi uchun zarur ko‘nikmalarni singdira boshlaydi. Shubhasiz, oila shaxsning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Yoshlarning oilaviy qadriyatlar haqidagi g‘oyalari ular tug‘ilganidan boshlab oila va jamiyat ta’siri ostida shakllanadi.

Asosiy qism: Qadim zamonlardan to hozirgi kungacha ko‘plab tadqiqotlar oila va nikohga bag‘ishlangan. Hatto qadimgi mutafakkirlar Aflotun va Aristotel nikoh va oila haqidagi qarashlarini asoslab, o‘z davridagi oila turini tanqid qildilar va uni o‘zgartirish loyihalarini ilgari surdilar.

Oilani rivojlantirish muammolari va bizning davrimizda turli xil bilim sohalari olimlarining diqqat markazida bo‘lib, bu uning har bir inson hayotidagi o‘ziga xos roldan kelib chiqadi. Oila va nikoh munosabatlari tadqiqotga qiziqish uyg‘otadi, chunki oila jamiyatning beshta asosiy institutlaridan biri bo‘lib, unga barqarorlik va har bir keyingi avlodagi aholini to‘ldirish qobiliyatini beradi. Oila va oilaviy qadriyatlar o‘zbeklarning ongi va hayotida muhim o‘rin tutadi, bu davlatning huquqiy sohasi va ijtimoiy siyosatida aks etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi va oila muqaddasligi g‘oyalarini keng targ‘ib qilish, yosh oilalarning erta nikohlari va ajralishlarini oldini olish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligi haqida so‘z boradi. [2]. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993 yil 20 sentabrdagi yalpi yig‘ilishida 1994 yildan boshlab 15 mayni “Xalqaro oila kuni” sifatida nishonlashga kelishilganligini o‘zi ham bu masalani xalqaro miqyosida qanchalik dolzarb ekanligidan dalolat berib turibdi. Barcha




davrlarda ham davlat va jamiyat g‘amxo‘rligi oilalarning mustahkamligi va tinchligiga asos bo‘lgan. Shu bois mamlakatimizda 1998 yil “Oila yili”, 2012 yil “Mustahkam oila yili”, 2016 yil “Sog‘lom bola va ona yili” deb e‘lon qilinganligi hamda Respublikamizda oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi qabul qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2018 yildagi PQ-3808-son qarori bilan uning ustuvor vazifalari va amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar tasdiqlanishi, shuningdek, 2019 yildan boshlab har yili 15 mayda mamlakatimizda Xalqaro oila kuni nishonlanishi davlatimizdagi oilaviy muhit va uni mustahkamlash uchun qilinayotgan amaldagi sa‘y-harakatlarning yaqqol namunasidir.

Oila va oilaviy qadriyatlar har qanday insonning hayotida qurilgan eng muhim poydevordir. Oila va qadriyatlar abadiy bir-biri bilan chambarchas bog‘langan va alohida mavjud emas. Ular har doim bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir, chunki oilaviy qadriyatlarni oila institutidan tashqarida amalga oshirish mumkin emas. Agar oila yo‘q bo‘lsa, unda oilaviy yo‘nalish bexosdan o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Oilaviy qadriyatlar nima? Oilaviy qadriyatlar – bu obyektlarning inson hayoti, inson manfaatlari, ehtiyojlari, ijtimoiy munosabatlar sohasiga jalb qilinishi munosabati bilan nikoh-ota-ona-qarindoshlik rishtalari bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar jamoasining yagona birgalikdagi faoliyatiga asoslangan obyektlar ahamiyatining ijobiy va salbiy ko‘rsatkichlari [3.B.238]. Shakllangan oilaviy qadriyatlar uzoq va farovon oilaviy hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun turtki bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy sotsiologiya fanining eng ustuvor vazifalaridan biri o‘rganilayotgan hodisalar to‘g‘risida bilimlarni to‘plashga hissa qo‘shadigan empirik faktlarni to‘plashdir. Zamonaviy yoshlarning oila haqidagi g‘oyalarini batafsil tahlil qilish uchun biz sotsiologik tadqiqotlar natijalariga murojaat qilamiz. Talaba yoshlarning oilaga, nikohga, oilaviy hayot qadriyatlariga munosabatini aniqlash maqsadida Namangan davlat universitetining talabalaridan so‘rovnoma olindi. Respondentlarning asosiy soni 50 kishini tashkil etdi. So‘rovnomada 17 yoshdan 23 yoshgacha respondent qatnashdi. Namunadagi yigitlarning ulushi 15%, qizlarning ulushi 70% ni tashkil etdi. Ushbu tadqiqotning maqsadi oilaning yoshlar qadriyatlari tizimidagi ahamiyatini aniqlash edi. Tadqiqot natijasida zamonaviy yoshlarning qadriyatlar tizimida oilaning ahamiyati yetarlicha yuqori emasligi aniqlandi.

Tadqiqotning navbatdagi vazifasi nikohning maqbul yoshini aniqlash edi. Respondentlarning katta qismi (44%) 20 yoshdan 21 yoshgacha bo‘lgan nikohning maqbul yoshini ko‘rsatdi. 21 yoshdan yuqori deb 38% respondent belgilagan. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilanadi. Respondentlarning 10% esa 18-19 yoshni belgilagan va 8%i yosh muhim emas degan javobda to‘xtalgan.




1-jadval

Tadqiqotning navbatdagi maqsadi oilaning qaysi turi yoshlarga yaqinroq ekanligini aniqlash edi: kim oila boshlig‘i bo‘lishi kerak va kim oilani moddiy jihatdan ta‘minlashi kerak. Jadval shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning aksariyati turmush o‘rtoqlar teng huquqli oila a‘zolari bo‘lib, birgalikda qaror qabul qilganda (56%) oilani tashkil etish shaklini afzal ko‘rishadi va 36% respondent rad javobini belgilashgan.(1- jadval) Agar ilgari patriarxiya norma bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda oilaviy munosabatlarning sheriklik turi eng keng tarqalgan va kerakli hisoblanadi.

Qanday bo‘lmasin, moddiy ta‘minot to‘laonli oilaning asosidir, chunki moddiy ta‘minotsiz oila ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning to‘liq ishtirokchisi sifatida harakat qila

olmaydi. Oilani kim ta'minlashi kerakligi haqida so'ralganda, respondentlarning yarmidan ko'pi oilani ikkala turmush o'rtoq (36%) ta'minlashi kerak deb hisoblashadi va bu mantiqan to'g'ri, chunki bugungi kunda ko'pchilik oilada ikkala turmush o'rtog'i ham ishlaydi va daromadlarini oila budjetiga sarflaydi. So'ralganlarning 40%i oilani erkak ta'minlashi kerak deb hisoblashadi. Ayol oilani ta'minlashi kerak bo'lgan javob variantini 24% respondent tanlagan.

So'rov davomida respondentlarga quyidagi savol berildi: "Ota-onangizning oilaviy munosabatlar modeli sizga mos keladimi?", natijalar 2-jadvalda keltirilgan.



2-jadval

So'rov shuni ko'rsatdiki, so'rovda qatnashganlarning aksariyati (51%) uchun ota-onalarning oilaviy hayoti namuna hisoblanadi. Respondentlarning 10 foizi salbiy javob berdi, 9 foizi javob berishga qiynaldi.

Qadriyatlar odamlarning xulq-atvorini, odamlarga xos bo'lgan me'yor va qoidalarni belgilaydi. Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida qadriyatlarning o'ziga xos ierarxiyasi shakllanadi, bu qiymat yo'nalishlarida ifodalanadi. Qadriyat yo'nalishlari – bu o'zini tutish va ehtiyojlarni qondirishning ma'lum usullarini ongli ravishda afzal ko'rish yoki rad etish. Ular harakatlar motivatsiyasiga, odamlarning dunyoqarashiga ta'sir qiladi. Oila



inson uchun eng muhim qadriyatlardan biri bo‘lib qoladi. Qadriyatlar deganda shaxs, guruh, jamiyatning muayyan ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy obyektning mulki tushuniladi.

Oila uchun hayotdagi asosiy qadriyatlar, barcha oila a‘zolarining hamjihatligini, ishonchini va sevgisini mustahkamlaydigan muayyan axloqiy tamoyillarga rioya qilishga intiladi. Yana shuni ham alohida ta’kidlash joizki, oila qadriyatlari – bu barcha oila a‘zolari hurmat qiladigan, oilaviy munosabatlar uchun mustahkam poydevor bo‘lgan fazilatlar, xususiyatlar, harakatlar. Yaqinlar bilan doimiy muloqot va odamlarning yaqin qarindoshlari yaqin ekanligiga ishonch hissi odamda xotirjamlikni uyg‘otadi. U har doim har qanday hayotiy vaziyatda ularning yordamiga umid qilishi mumkin. Respondentlardan oilada qadriyatlarning asl mezoni nimalarda namoyon bo‘ladi deb so‘ralganda ko‘pchilik “bir-biriga hurmatda”, “ishonchda”, “o‘zaro hurmatda”, “sevgida” degan javoblarni berishgan. Agar biz har bir oilaning oilaviy qadriyatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, unda hamma uchun bu qadriyatlar farq qiladi. Ba’zilar ota-ona, qarindoshlik, turmush qurish, sog‘liq kabi qadriyatlarni ta’kidlashadi.

Xo‘sh, bugungi jamiyatimizda oila, turmush, tarbiya, munosabat tushunchalari qanchalik ahamiyat kasb etmoqda yoki ularning darajasi qanday bo‘lyapti degan savol bor. Bunday fikr yuritishimning sababi, aslida, o‘zbekning qoniga singigan ushbu tushuncha biroz unutilayotgandek, nazarimda. Shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiya asrida kundan kunga, shiddat bilan ma’lumotlar bazamizga yangi xabarlarni oqib kelayotganini guvohi bo‘lyapmiz. Unda turli xildagi yovuzliklar, tajovuzlar, hattoki qabihliklar ham avj olmoqda. Ha, adashmadingiz, ana shunday noxush holatlarni ko‘ryapmiz aksariyat hollarda. Masalan, o‘z farzandini dunyoga keltirib, hojatxonaga tashlab yuborilgani yoki bo‘lmasa yana biri dunyoga kelgan go‘dakni shafqatsizlarcha daryoga tosh bilan bog‘lagan holda cho‘ktirib nobud qilinayotgani. Axir, bu qanchalar vahshiylik. Hattoki hayvonlar ham o‘z norasidasini yalab-yulqab uni oyoqqa turg‘azadi. Bunday holatning navbatdagisi undan-da ayanchli, erkak o‘zining farzandini dunyoga keltirgan ayolini shafqatsizlarcha kaltaklaydi. Kuchli zarblardan so‘ng hali tug‘ruqdan keyin chillasi ham chiqmagan ayol bu zo‘ravonlikni ko‘tara olmay hayotdan ko‘z yumadi. Xo‘sh, savol tug‘iladi? Sabab nima, nima uchun bunchalik tubanlik, bunchalar zo‘ravonlik va



shafqatsizlik. Bir yosh ayol bu dunyoni tark etdi. Norasida go‘dak ona taftini his qilmay yetim bo‘lib qoldi. Ota esa jazo uchun qamaldi. Axir, nima uchun? Nega? Degan savollar o‘rtab yuboradi insonni. Shafqatsiz otaga qarata aytgim keladi: axir, shular sening oilang edi-ku. Shular seni e‘zozlar, issiq va sovug‘ingdan xabar olar. Keksayganningda oldingga bir kosa ovqat olib keladigan g‘amxo‘rlaring ediku.

Yuqoridagi kabi vaziyatlarni eshita turib, qayerga bu olam odamlari ketayoganini, ularning fikrlash tushunchalari juda zaif bo‘lib ulgurganiga afsuslar aytaman. Shu bois ota-bobolarimiz oilaga juda katta e‘tibor bilan qarashgan. Buyuk allomalarimiz Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek va boshqalargacha o‘z asarlarida oilaviy masalalar, xususan, oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona, bobo-buvining o‘rni, komil va vatanparvar shaxsni yetishtirishda bu muhim ijtimoiy institutning rolga alohida yondashib, ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlarga maktublar, hikmatli so‘zlar, she‘riy satrlar orqali pand-nasihatlarni, hayotiy xulosalar yozib qoldirganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma‘rifatparvarlarimiz ham odob-axloqi go‘zal, jismonan va ma‘nan yetuk avlodni tarbiyalashning yagona yo‘li – barqaror oila qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishib bo‘lmashligini ta‘kidlashgan [4].

Mening fikrimcha , yoshlarni oila qurish jarayoniga mas‘uliyatli munosabatini shakllantirish va ularni oilani tarbiyalash kabi muhim voqeaga oldindan tayyorlash kerak. Yoshlarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirish- bu oila va nikohga ijobiy munosabatni tarbiyalash, yoshlarni turmush qurishga tayyorlash va yosh oila muammolarini hal qilishga qaratilgan jarayon. Shu bilan birga, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, jamiyatdagi hayotga moslashish kabi muhim muammo ekanligini anglash muhimdir. Zamonaviy yoshlarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- O‘qituvchilar tomonidan “sevgi va oila to‘g‘risida” turkumidagi ma‘ruzalar o‘tkazish, “men oilamni qanday ko‘raman” mavzusida davra suhbatlari tashkil etish, masalan, “oilaning axloqiy qadriyatlari”, “oilaviy hayotning axloqiy psixologik asoslari”, “otalik va onalikka



tayyorlik”, “Talaba yoshlar ongida oilaning o‘rni to‘g‘risida”, “zamonaviy yoshlarni oila hayotiga tayyorlash masalalari bo‘yicha”.

- “Yoshlarda oila qadriyatlarini shakllantirish” mavzusida filmlar va spektakllarni tomosha qilish, so‘ngra muhokama qilish.

- Hayotiy vaziyatlarni ko‘rib chiqish uchun, “erta nikohlar”, “yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi” mavzusida psixologlar bilan uchrashuvlar tashkil etish.

- “Nikoh va ajralish statistikasi”, “erta ajralish muammolari” kabi mavzularda muammolarni muhokama qilish bo‘yicha advokatlar bilan davra suhbatlarni tashkil qilish.

- “Yoshlarning nikoh va oilaviy hayotga tayyorligi”, “yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash”, “oilaviy qadriyatlarni shakllantirish” mavzularida treninglar o‘tkazish.

Albatta, oilaviy qadriyatlarni shakllantirish bolalikdan, ota-onalar tomonidan oilada, so‘ngra maktabda va boshqa ta‘lim muassasalarida, yoshlar tashkilotlari va mehnat jamoalarida boshlanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy oilaning barqarorligi va farovonligini yanada rivojlantirish uchun yoshlarning qadriyatlar tizimiga tizimli va maqsadli ta‘sir ko‘rsatish va shu bilan oilaviy hayotga umumiy tayyorgarlikni shakllantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sotsiologik ensiklopediya. 2 jildda. T. 2. Moskva: Fikr, 2003 Yil. – B.394.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5- iyuldagi PF-5106-son farmoni “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi” Toshkent shahri, 2017-yil 5-iyul.
3. Verbina G. G. Oila psixologiyasi: ma‘ruzalar kursi. Cheboksari, 2006 yil. –B.238.
4. Musurmonova O. Ma‘naviy qadriyat va yoshlar tarbiyasi. T. O‘qituvchi, 1996.
5. Turumov F.M. Oila sotsiologiyasi. M.: Nauka, 2019.
6. Fitrat A. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. T. Ma‘naviyat,2000.
7. <https://uz.tierient.com/oilaviy-va-oilaviy-qadriyatlar/>
8. —URL:<https://moluch.ru/conf/psy/archive/111/5654/>



YOSHLARDA ILMIY-TEXNIK IJODGA QIZIQISHLARI

Imomov Rahimjon Xabibjonovich

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

Yangilikka, izlanish va ijodga tashnalik insonga xos xususiyatdir. Aynan ushbu xususiyat insonga ijtimoiy borliq va ijtimoiy munosabatlarning subyekti sifatida qarashga undaydi. Falsafa fanlari doktori S.Norqulov yozadi: “Dunyoni, olamni bilishga qiziqish insonga xos xususiyat. Gnoseologik tajribalarni umumlashtirish va yon-atrofni o‘zgartirishda ulardan foydalanish xususiyati tufayli inson ijtimoiy tarixiy jarayonlarning subhekti, tsivilizatsiya yaratgan. Mazkur jarayonlar tafakkur, ong, ongga xos bilish, bilim olishga intilish bilan bog‘liq”⁹⁹. Tadqiqotchi individual tafakkur va ongning ijtimoiy tafakkur va ongga aylanish qonuniyatlarini ochib beradi, birinchisi qanchalik muhim, ahamiyatli bo‘lmasin, deterministik omillar, ayniqsa, ijtimoiy talablar, jamiyat ehtiyojlari orqali N.A.Berdyayev nazarda tutgan “zaruriyat” mahsuliga aylanadi. Demak, insonning yangilikka, yaratish va ijodga tashnaligi faqat individual hodisa emas, ular ijtimoiy zaruriyat bilan bog‘liq. Bu o‘rinda jamiyat taraqqiyoti talablari deterministik ta’sir etadi.

Ijodning ichki deterministik omillari ham borligini unutib bo‘lmaydi. Ijodiy tafakkur to‘g‘risida gap ketganida ko‘pincha ushbu ichki determinizmni nazarda tutadilar. Ichki deterministik omillarga qobiliyat, ilhom, fikrlash va yaratish dardi, yon-atrofni o‘zgartirish, yanada go‘zallashtirish va insoniylashtirish ishtiyoqi, ongda shakllangan ideal kabi ijodiy psixologik fenomenlar kiradi. Bu fenomenlar, ayniqsa, yoshlar tasavvurlarida, hayotida yetakchi rol o‘ynaydi. Respondentlarimizning 82 foizi Prezidentimiz va hukumatimizning yoshlardagi yangilikka, innovatsion izlanishlarga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlayotganini ijobiy voqelik sifatida baholaydilar, iloji boricha, bu imkoniyatlardan foydalanib qolishga o‘zining tayyorlayotganlarini bildiradilar. Ularning 78 foizi maktab, o‘quv yurtlari va oila institutlari yoshlardan ijodkor shaxslar bo‘lib yetishishni talab etayotganini, bu borada, eng avvalo, ota-ona katta yordam berayotganini, oiladagi ma’naviy-axloqiy muhit, oliyanob fazilatlar, bir-biriga yordam, al’turizm, kattani hurmat va kichikni izzat qilish anhanalari ruhiy madad, dalda bo‘layotganini tahkidlaydilar.

⁹⁹ Норқулов С. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онгда трансформация жараёнлари - Тошкент: Navroz, 2015. 33-б.



Shaxsdagi ijodga bo‘lgan mehrda oila va maktab katta rol o‘ynashini 69 foiz, do‘stlar ta’siri yetakchi o‘rinda turishini 51 foiz, hamkasblar, kursdoshlar 32 foiz, kitob va yoshlar uyushmalarining maxsus madaniy- mahnaviy tadbirlarini 21 foiz respondentlar qayd qiladilar. SHu bilan birga, respondent yoshlarning deyarli 94 foizi u yoki bu ijodiy faoliyat turi bilan shug‘ullanishi yoki qiziqishini bildiradi. To‘g‘ri, ular ichida badiiy ijod yetakchi o‘rinda (78 foiz) turadi, ilmiy-texnik ijod bilan qiziquvchi yoshlar atigi 3 foiz atrofida. Biz ilmiy-texnik ijod bilan qiziquvchi yoshlarning boshqa savollarimizga bergan javoblarini maxsus o‘rgandik. Ushbu yoshlarning oilasida yo otasi yoki akasi ilmiy-texnik ijod bilan shug‘ullanishini aniqladik. Ular ichida do‘stlar yoki boshqalar ta’sir qilgan yoshlar barmoq bilan sanarlidir. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, ilmiy-texnik ijod bilan shug‘ullanish istagini oiladagi kattalar uyg‘otar ekan. Yoshlarda ilmiy-texnik ijodga qiziqish o‘zidan o‘zi shakllanmas ekan, bunda tashqi deterministik omillar-oila, do‘stlar ta’siri yetakchi o‘rinda turadi. Maxsus bilim va o‘quv yurtlarining ta’siri aksiomadir.

Yoshlik olamga, hayotga, ularni anglashga qiziqishlarning shakllanadigan pallasidir. Tug‘ma qobiliyatlar borligini inkor qilib bo‘lmaydi. Masalan, mashhur kompozitor Motsart 4 yoshida opera yozgan, rus kompozitori Prokofev 9 yoshida, Mendelson esa 14 yoshida musiqa bastalagan¹⁰⁰. Alisher Navoiy yoshligidayoq Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini yoddan bilgan, Beruniy va Ibn Sinolar yoshlikdan ilm- fanga qiziqqanlari, nodir qobiliyat egasi bo‘lganlari mahlum¹⁰¹. Mazkur shaxslardagi qobiliyatlar, albatta, tashqi deterministik ta’sirlar tufayli kamol topgan, noyob voqelikka aylangan. Agar ushbu daholar o‘z ustida ishlamaganlarida, izlanishni hayot va fikrlash tarziga aylantirmaganlarida yetuklik darajasiga chiqishlari amri-mahol edi. Tan olish kerakki, ba’zan tabiatda istisnolar uchrab turadi. Masalan, Burdenko nomidagi mashhur ilmiy tadqiqot institutiga 16 yoshdagi yigitcha keladi. Tahlil paytida bosh miya hech qanday ishlash alomati bermayotgani aniqlanadi. Tekshirishdan mahlum bo‘ladiki, yigitchada o‘ng miya yo‘q, chap tomon esa arziyas darajada saqlanib qolgan. SHunga qaramasdan, yigitcha faol yashagan, a’lo o‘qigan, sport bilan shug‘ullangan,

¹⁰⁰ Пешкова В. Феномен гения - Ростов на Дону, Феникс, 2006 - С.7.

¹⁰¹ Қаюмов А. Асарлар. 3 жилд. Тошкент: Mumtoz so‘z 2009. 106-107 б.; Қаюмов А. Асарлар 9 жилд. Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. 64-65, 298-299-б.



intellektual nuqtai nazardan tengdoshlaridan ancha yuqori. Bu anomal hodisa barchani hayratga solgan¹⁰². Bu istisno, oddiy tabiiy hodisa emas.

Mutaxassislarning tahkidlashicha, inson miyasi 35 km. ga joy bo'ladigan axborotlarni o'ziga jo etish xususiyatiga ega. Butun risolani bir o'qiganida yodlab qoladigan, ikki qo'lida ham bemalol yozadigan, o'ttizta raqamgacha yodida saqlab qolib, shu zahoti ularni ketma-ketlikda aytib bera oladigan vunderkindlar yetarlicha topiladi. Demak, insonni, ayniqsa, yoshlarni istagan ijod turiga o'rgatish mumkin. Zamonaviy ta'lim-tarbiya, pedagogika ushbu tamoyilga asoslangan. Respondentlarimizning yuqoridagi javoblari ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Норкулов С. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онгда трансформация жараёнлари - Тошкент: Navroz, 2015.
2. Пешкова В. Феномен гения - Ростов на Дону, Феникс, 2006
3. Қаюмов А. Асарлар. 3 жилд. Тошкент: Mumtoz so`z 2009. 106-107 б.; Қаюмов А. Асарлар 9 жилд. Тошкент: Mumtoz so`z, 2010.
4. Нервные клетки всё таки восстанавливаются // Аргументы и факты, 2015.

¹⁰² Нервные клетки всё таки восстанавливаются // Аргументы и факты, 2015, № 5.



10.00.00

FILOLOGIYA FANLARI

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHILOLOGICAL SCIENCES

**ERKIN VOHIDOV SHE'RLARIDA FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOPOETIK
XUSUSIYATLARI**

Shahzoda Sog'inboyeva

Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti

o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

soginboyevashahzoda@gmail.com

Tel: +998947503205

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq shoiri, "O'zbekiston Qahramoni" Erkin Vohidovning she'rlari asosida frazeologizmlar o'rganilgan. Iboralarning etimologiyasi, ularning she'riy matnda qo'llanishi, badiiy-lisoniy xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Erkin Vohidov, frazeologizm, etimologiya, she'riy matn, badiiy-lisoniy vositalar.

Annotation: In this article, phraseologisms are studied based on the poems of the Uzbek poet, "Hero of Uzbekistan" Erkin Vahidov. The etymology of expressions, their use in poetic text, artistic-linguistic features are disclosed.

Keywords: Erkin Vahidov, phraseology, etymology, poetic text, artistic-linguistic means.

Аннотация: В данной статье изучаются фразеологизмы на основе стихов узбекского народного поэта, «Героя Узбекистана» Эркина Вахидова. Выявляются этимология выражений, их употребление в поэтических текстах, художественные и языковые особенности.

Ключевые слова: Эркин Вахидов, фразеология, этимология, поэтический текст, художественно-лингвистические инструментарий.



O‘zbek xalq shoiri, atoqli olim, publitsist, o‘zining chuqur ma’noli va betakror qofiyali she’rlari bilan o‘zbek xalq she’riyatida muhim o‘rinni egallagan Erkin Vohidov ijodi XX asr o‘zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi. O‘zbek she’riyati, o‘zbek madaniyati shoir nomi bilan chambarchas bog‘landi. Shoir chuqur falsafiy she’rlari, mutafakkirona xislatlari, o‘ta samimiy, o‘ta topqirona mutoyibalari bilan muxlislar qalbini zabt etdi. O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, yurtimiz ijtimoiy-siyosiy, madaniy ahvolini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi, o‘zbek xalqi oldidagi ulkan xizmatlari, qahramonona mehnatlari uchun “O‘zbekiston Qahramoni” unvoniga sazovor bo‘lgani shoirning muxlisleri qalbiga juda katta quvonch baxsh etadi. Albatta, shoir nomi doim xalq yodida saqlanadi, ulug‘ insonlarning nomlari asrlar o‘tsada millat farzandalari qalbida abadiy yashayveradi.

Ikki va undan ortiq so‘zning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma’nosi odatda bir so‘zga, ba’zan so‘z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi, ko‘chma ma’noli barqaror birikma ibora yoki frazeologizm deyiladi. Masalan, 1. *U ilonning yog‘ini yalagan odam.* 2. Bizning orzularimiz ko‘p edi, ammo *pehshonamizga yozilgani* shu bo‘ldi. Ushbu gaplarda *ilonning yog‘ini yalagan* – mug‘ombir, *pehshonamizga yozilgani* – taqdir, qismat iboralari qo‘llangan¹⁰³.

Frazeologizmlar nafaqat nutqimizni ixchamlashtiradi, balki ta’sirchan va obrazli nutq tuzishimizda yozdam beradi. Adabiy tilning badiiy va so‘zlashuv uslubida juda keng foydalaniladi va ko‘proq qo‘llanadi.

Shoirilar ijodida frazeologizmlar bir qancha shakliy va mazmuniy o‘zgarishlarga uchraydi. Shoir vazn va matn talabiga muvofiq, ayrim iboralarni o‘zgartirib, mazmunini burib qo‘llashi mumkin.

Shu jihatdan Erkin Vohidov she’rlaridagi frazeologizmlarni qo‘llanishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin:

1. Odatiy frazeologizmlar.
2. Individual frazeologizmlar.

Erkin Vohidovning “Donishqishloq hangomalari” she’ri asosida frazeologizmlarga nazar tashlaymiz.

¹⁰³ Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi – Toshkent, 2016. – 113-114 b.



Qalpoq oldi Matmusa, qalpoq desa – qalpoqday.

Uni kiyib Matmusa, yigit bo‘ldi chaqmoqday.

*O‘nta qo‘yga arziydi, yaraqlashi bir jahon.*¹⁰⁴

Ushbu she‘rdagi *o‘nta qo‘yga arziydi* iborasi individual frazeologizm hisoblanib, o‘zbek xalqida “qo‘y” bilan bog‘liq frazeologizmlar ko‘p uchraydi. Jumladan, “qo‘yi mingga yetdi”, “ming qo‘yli boydek” kabi iboralarda so‘zning “boylik” semasi yaqqol ko‘rinadi. Qahramon qalpoqning bahosini juda yuqoriga ko‘taradi, qalpoq shunchalik qimmat va hattoki qadrliki, Matmusaga o‘nta qo‘y taklif qilinsa ham u qalpoqni tanlaydigandek.

Eslanmagan qishloqning *itigacha qolmadi*.

Maqtalmagan qalpoqning *ipigacha qolmadi*.

O‘zbek xalq frazeologizmlari ichida *ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, ignasidan ipigacha* kabi iboralar uchraydi. “Butun tafsiloti bilan, hech narsani qoldirmay, maydachuydasigacha, batafsil” ma‘nosini anglatadi. Shunday ma‘noni ifodalovchi *boshdan oyoq* iborasi ham uchraydi. Bu yerda ushbu birikma ham o‘z ma‘nosida, ham ko‘chma ma‘noda qo‘llangan. Qalpoqning ipdan tikilishini nazarda tutganimizda uning o‘z ma‘nosi, shunchalik batafsil gapirildiki, hatto qalpoqning ipigacha gapirildi degan ma‘noda uning ko‘chma ma‘nosi yuzaga keladi. Bu yerda shoirning badiiy mahorati namoyon bo‘lgan.

Matmusani shundan hech *ko‘zga ilmas edilar*.

Qo‘rqasalar ham undan, hech hurmat qilmas edilar.

Ko‘zga ilmaslik iborasi mensimaslik, bepisandlik bilan muomala qilish, arzigulik deb, diqqatga loyiq deb qaramaslik kabi ma‘nolarni anglatadi va *nazariga ilmaslik* kabi holatda ham uchraydi. Shoir ikkinchi misrada ushbu iboraning ta‘rifini ham berib ketgan: hurmat qilmas edilar. *Pisand qilmaslik, oyoq uchida ko‘rsatish* iboralari ham shu ma‘noda qo‘llanadi

Pilla yorar kapalak, *qil sug‘rilar xamirdan*.

Lek Matmusa chiqolmas, o‘zi qurgan tandirdan.

Ushbu misrada shoir go‘zal o‘xshatish san‘atidan foydalangan, kapalakning pilla yorib chiqishini, xuddi xamirdan qil sug‘urganday oson bo‘lishiga qiyoslamoda. Ushbu ibora osonlik bilan, hech qanday qiyinchiliksiz ma‘nolarini anglatadi.

¹⁰⁴ Эркин Воҳидов. Табассум – Тошкент, 2010. 6-6



Kessangizlar boshimni, men niyatga yetarman.

Boshim olib bu yerdan biror yoqqa *ketarman*.

Bosh olib ketmoq iborasi butunlay tashlab, qaytmas bo‘lib ketmoq ma‘nolarida qo‘llanadi.¹⁰⁵ Ushbu frazeologizmga sinonim tarzida *boshini olib chiqib ketmoq*, *izsiz ketmoq* kabi iboralarni keltirishimiz mumkin. Bu ibora odatda biror inson o‘z oilasidan yoki o‘z xalqidan jabr-zulm ko‘rganda yoki ular tomonidan yerga urilganda, mensimay qo‘yilganda, ularga nafrat tuyg‘usi bilan yoki arazlab ketib qolishi kabi holatlar bo‘lganda qo‘llanadi. O‘zbek tilida bosh so‘zi qatnashgan iboralar juda ko‘p uchraydi. *Boshga ko‘tarmoq*, *boshdan kechirmoq*, *boshidan oshib ketmoq*, *boshiga yetmoq*, *boshida yong‘oq chaqmoq*, *boshi ko‘kka yetmoq*, *boshini ikkita qilmoq* va yana shu kabi ko‘plab frazeologizmlar bunga misol bo‘ladi.

Chiqdi, ko‘rdi, o‘qidi, kim *aqldan ozibdi*?

«Ehtiyot bo‘l, simyog‘och – bo‘yalgan», deb yozibdi.

Albatta, yangi kiyimlarni kiyib olib, bo‘yalgan simyog‘ochga tirmashib chiqib, “bo‘yalgan” deb yozilgan so‘zni o‘qigandan keyin inson *aqldan ozishi* tabiiy hol. Jinni bo‘lmoq, telba bo‘lmoq kabi ma‘nolarni ifodalovchi ushbu ibora insonning ichki dunyosiga, aqliy faoliyatiga xos. *Aqlini yeb qo‘ymoq*, *aql-hushini yo‘qotmoq*, *esi og‘moq*, *esidan og‘moq* kabi frazeologizmlar ham shu ma‘noda qo‘llanadi. *Aqli kirmoq*, *aqlini tanimoq*, *esi kirmoq*, *esini tanimoq* ushbu iboralarga nisbatan antonim sifatida qo‘llanadi.

Qat‘iyatli – Matmusa, *u og‘ziga so‘z oldi*.

Uyga kelib sandiqdan paytavalik bo‘z oldi.

Qat‘iyatli Matmusaning *og‘ziga so‘z olishi* uning gapirishni, shuningdek, va‘da berishni anglatadi. Bu iboraga nisbatan *og‘ziga oldi* iborasi sinonim bo‘la oladi. *Og‘ziga olmaslik*, *og‘ziga talqon solmoq* kabilar antonim sifatida qo‘llanadi. Gapirish, so‘zlash, nutq iroda etish og‘iz bilan bog‘liq bo‘lgani uchun aynan shu frazeologizmlar yuzaga kelgan va nutqda turg‘un birikma sifatida o‘rin egallagan.

Depti: Rahmat, shaharlik – yaxshi cholg‘u beribdi,

Faqat bitta narsaga *aqlim yetmay turibdi*.

¹⁰⁵ 1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент. 1978. 51-б



“Idrok qilmoq, uqmoq, bilmoq”¹⁰⁶ kabi ma’nomlarni anglatuvchi *aqli yetmoq* iborasiga antonim sifatida qo‘llanadigan *aqli yetmaslik* iborasi insonning bilim salohiyatiga bog‘liqdir. *Fahmi yetmaydi, fahm-farosati yetmaydi* kabilar idrok qilolmaydigan, bilim salohiyati yuqori bo‘lmagan insonlarga nisbatan aytiladi. Bir inson ikkinchi bir insonni haqorat qilishi uchun ushbu so‘zlarni qo‘llaydi va bundan haqorat qilayotgan insonning o‘zini katta olishi, qarshisidagi insonni mensimasligi anglashilib turadi. Ammo Matmusadek “aqlim yetmay turibdi” deb insonlar o‘zlariga nisbatan ham ishlatadi. Bunda inson xuddi sirli jumboqlarning oldida ojizdek ko‘rsatadi o‘zini.

«Ey, xotin, sen eringga nodon gapni deb qo‘yding.

Nima bo‘ldi? Yo qarib *es-hushingni yeb qo‘yding?*

O‘zbek xalqi mentalitetida ayol kishi o‘z erini hurmat qilishi, yuziga tik qaramasligi, gap qaytarmasligi va barcha aytganlarini qilishi kerak. Ayol kishining eriga nisbatan bunday muomalasi Islom dinida ham ta’kidlangan. Aql yuritib Allohga iymon keltirgan insonlar Islom dini yo‘l-yo‘riqlariga amal qiladi, demak ayol kishining eriga nodon gapni deyishi, o‘z diniga bo‘ysunmaslikni yoki *es-hushini yeb qo‘yganligini* anglatadi.

Matmusa shunday qilib, *ko‘kragini keribdi*.

Erini dono bilib, xotin ham *tan beribdi*.

Matmusaning mag‘rurligini, o‘zidan o‘zi ko‘ngli to‘lib xursand bo‘lganligini shoir *ko‘kragini keribdi* deya izohlagan. *Boshi osmonga yetdi, qo‘yi mingga yetdi, do‘ppisini osmonga otdi, og‘zi qulog‘iga yetdi* kabi iboralar ham qisman sinonim sifatida ishlatiladi. Bunda aqlli ekanligiga hatto xotini ham tan bergan Matmusaning quvongani, xursand bo‘lganini anglash mumkin. E’tirof qilishga majbur bo‘lib, rozi bo‘lib Matmusaning xotini ham *tan beradi*.

Yana mehnat, yuz kuncha *ter to‘kdilar* bearmon.

Yozgi haykal bitguncha qish keldi-ku qahraton...

Mashaqqat bilan qattiq ishlagan, jismoniy mehnat qilgan Matmusaning hamqishloqlarini shoir *ter to‘kdilar* deya ta’riflamoqda. *Peshana teri to‘kildi* kabi holatda ham

¹⁰⁶ 1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент. 1978. 29-б



uchraydigan bu ibora o‘zi mehnat qilib, halol yo‘l bilan ishlab rizq topadigan inson ma’nosini ham bildiradi. Halol so‘ziga esa *pehana teri* iborasini ham sinonim qilish mumkin

Endi *qolma yo‘lingdan*, men bilan gap talashma,

Arzon deb bir adashding, boshqa sira adashma.

O‘zbek tilida yo‘l so‘zi qatnashgan bir qancha frazeologizmlar mavjud. Ularning ko‘pi ish so‘zi bilan bog‘liq va ushbu ibora ham ishingdan qolma, ishingni davom ettir yoki yo‘lingda davom et, bu yerdan jo‘na kabi ma’nolarni ifodalaydi. *Yo‘l bermoq, yo‘l qo‘ymoq, yo‘lga chiqmoq, yo‘lga solmoq, yo‘ldan ozmoq, yo‘l ko‘rsatmoq, yo‘l olmoq* kabi iboralarning tub ma’nosida ham ish-harakatga bog‘liq ma’nolar mavjud.¹⁰⁷

Ayo do‘stlar, adashgan bir mo‘mindan kulmaylik.

Matmusadek o‘zimiz *tandir kiygan bo‘lmaylik!*

Ushbu misrada shoirning topqirona badiiy mahorati ko‘zga tashlanadi. Matmusa tandirini kiyib olib, yo‘lni ko‘rmay, yo‘lini yo‘qotadi va shoir buni Matmusadek *tandir kiygan bo‘lmaylik, ya’ni pand yeb qolmaylik* deya tanbeh bermoqda. Bir ishni qilishdan avval aql yuritib, oxirini o‘ylab ish qilmagan inson mehnatiga kuyib qolishi hech gap emas.

Bir necha so‘zlar bilan izohlashimizga to‘g‘ri keladigan so‘zlar bor tilimizda, ularning muqobili sifatida nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi frazeologizmlardan foydalanamiz va ta’sircha, qisqa, ma’noli nutq tuzishimizda iboralarning o‘rni katta. Erkin Vohidovning ijodida uchraydigan iboralarning bir qismini izohlaganimizda, uning nafaqat qalami o‘tkir shoir, balki topqir, hazil-mutoyibaga moyil ijodkor ekanini anglaymiz. Tilimizning esa naqadar boy, go‘zal til ekanligini his etamiz. Shoir mana shunday imkoniyatdan, albatta, mohirona foydalangan desak yanglishmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент. 1978.
2. Эркин Воҳидов. Табассум – Тошкент, 2010.
3. Nosirjon Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent. 2016.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006-2008. 5 жилдлик.
5. Кузиев У. Я. About sociolects and their place in glossaries (in example Uzbek

¹⁰⁷ 1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент. 1978. 121-123-б



language and dictionaries) //Научные исследования: теория, методика и практика. – 2017.
– С. 281-286.

6. Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.



FRAZEMALARNING UMUMIY XUSUSIYATLARI

Kurbanova Zaynab Burxanovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti stajyor-o‘qituvchisi

(+99891 598-16-86) zaynabqurbonova20@gmail.com

Annotatsiy: *Bu maqolada frazeologiya haqida gap ketar ekan, bu tushunchaning jahon tilshunosligidagi ahamiyati, ta’lim sohasida ham frazeologizmlarni o‘rganish bo‘yicha turli xil metodlar shakllanganligi xususida dolzarb fikrlar bildirilgan.*

Аннота̀ци: *Говоря о фразеологии, в данной статье высказываются актуальные соображения о значении этого понятия в мировом языкознании, о том, что и в сфере образования сформировались различные методы изучения фразеологизмов.*

Annotation: *Speaking about phraseology, this article expresses relevant considerations about the meaning of this concept in world linguistics, that various methods of studying phraseological units have been formed in the field of education.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, tilshunoslik, frazeologiya, mazmun-mohiyat, turg‘un birikmalar, lingvistika, semasiologiya, so‘z birikmalar, psixolingvistika, semantik tarkib.*

Ключевые слова: *Образование, Лингвистика, фразеология, содержание-сущность, устойчивые сочетания, Лингвистика, семасиология, лексика, психолингвистика, семантическое содержание.*

Keywords: *Education, Linguistics, phraseology, content-essence, stable combinations, Linguistics, semasiology, vocabulary, psycholinguistics, semantic content.*

Jahon tilshunosligida frazeologiya sohasi bo‘yicha ham amaliy, ham nazariy jihatlar yetarlicha tadqiq etilgan. Shuningdek, frazeologiya bo‘limi, uning mazmun-mohiyati, asarlarda qo‘llanilishi masalasiga oid bir qancha nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalar, frazeologik lug‘atlar, turli xil monografiyalar, ko‘plab maqolalar e‘lon qilingan. Ta’lim sohasida ham frazeologizmlarni o‘rganish bo‘yicha turli xil metodlar shakllangan. Ayni mana shu jihat frazeologizmlarni o‘rganish jarayonini yanada jadallashtirgan. Bugun ham jahon, ham o‘zbek tilshunosligida frazeologiya degan alohida bir sohaning ilmiy va



nazariyjamlanmasi yaratilganligi fikrimizning dalili bo‘la oladi. Bu holat esa frazeologizmlarni tizimli o‘rganish uchun ham katta imkoniyatlar yarata olgan.

Frazeologiya bo‘limi haqida gap ketar ekan, bu tushuncha dastlab fransuz tilshunosi Sh.Ballining asarida qo‘llanilganligi bilan ahamiyatlidir. Rus tilshunosligi maktabining yetuk vakili bo‘lgan E.D.Polivanov frazeologizmlar bo‘yicha alohida tadqiqot olib borgan. E.D.Polivanovning tilshunoslikka qo‘shgan hissasi shunda ko‘rinadiki, u dastlab frazeologiya bo‘limini xususiy ma‘nolariga ko‘ra o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi.

Ingliz tilshunosligida I.V.Arnold frazeologizmlarni o‘rganar ekan, ularni tilning boyish manbalari qatoriga kiritadi. Ya’ni lingvist til faqat yangi yasalgan so‘zlar hisobiga emas, balki turg‘un birikmalar – frazeologizmlar hisobiga ham boyiydi degan fikrlarni keltirib o‘tadi. O‘zi ham turg‘un birikmalarni chuqur tadqiq etadi. I.V.Arnoldning keltirgan fikrlari ta’sirida rus tilshunoslari ham frazeologiyani tilning boyish manbasi deya tadqiq eta boshlashdi.

Tilshunos Q.M.Hakimov o‘zining 1993-yilda yozgan nomzodlik dissertatsiyasida shunday fikrlarni keltirib o‘tadi:”F.F.Fortunatov, A.A.Shaxmatov, A.M.Pesikovskiy, A. A. Potebnya va boshqalar turg‘un so‘z birikmalari haqida yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa ham bir qator fikrlarni ilgari surishdi. Turg‘un so‘z birikmalarining doirasi ancha keng. Frazeologizmlar shu til fakti doirasiga kirsam ham, u o‘ziga xos lisoniy va nolisoniy xususiyatlarga ega bo‘lib, ular bir necha tadqiqot ishlarini talab qiladi. Bu:

1) til birligi sifatida tushunchani ifoda etish bilan birga, sub’ektiv munosabatni ham bildiradi;

2) gap tarkibida kelib, uning bo‘laklaridagi ma’no va sintaktik nomoslikni yuzaga keltiradi. Bulardan birinchisi hatto psixolingvistikaning tekshirish obyekti hisoblansa, ikkinchisini semasiologiyada ham, sintaksisda ham alohida o‘rganib chiqish zaruriyati bor. Uni o‘rganish leksikografiyada ham o‘z ahamiyatiga egadir.

Rus tilshunosligida ham frazeologizmlarning ahamiyati haqida dastlab V.V.Vinogradov o‘rgana boshlagan. Aynan o‘sha paytda nafaqat jahon va rus tilshunosligida, balki qardosh xalqlar tilshunosligida ham frazeologiya bo‘limiga alohida e’tibor berilib, o‘rganilgan bo‘lsa-da, lekin hamma tilshunoslik maktablari bu sohani tasnif qilish bilangina chegaralanib qolgan.



V.V.Vinogradov ham shunday: frazeologiya bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan bo‘lsa-da, tasnifdan nariga o‘tmagan.

1956-yilda rus tilshunosi Larin aynan mana shu jihatni tanqid qilib, quyidagilarni yozgan edi: “Frazeologiya lingvistik soha sifatida hali e‘tiborsiz taraqqiyot” ni boshidan kechirmoqda”. Rus tilshunosligida N.N.Aleosova keyinchalik frazeologiya bo‘limini yaxlit monografik planda tadqiq etadi hamda shunday deydi: “Frazeologik hodisalarni tadqiq etish tizim sifatidagi til haqida ham, nutq mexanizmi haqida ham mavjud tasavvurlarimizga sezilarli o‘zgarishlar kiritadi”. Shundan so‘ng rus tilshunosligida frazeologiya sohasi bo‘yicha bir qancha monografi tadqiqotlar, ilmiy ishlar yuzaga kela boshladi. Frazeologiyani turli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rganish ishlari jadallashdi. Jumladan, V.V.Vinogradov rus tilidagi frazeologik birliklarni ma‘no guruhlariga ajratib ko‘rsatadi, lekin uning hajmini juda kengaytirib yuboradi. Yana bir e‘tiborli jihati, taniqli tilshunoslar N.N.Shanskiy hamda B.A.Larin o‘z tadqiqotlarida frazeologiyani alohida mustaqil lingvistik fan sifatida ko‘rsata boshlaydi.

Tilshunos Smirnitskiy frazeologik birliklarni so‘z ekvivalenti, ya‘ni nutq va tilga yaqin hodisa deya ta‘riflaydi. Uning fikrlarini tilshunos E.A.Ivannikova tanqid qilib, frazeologizmlarni so‘zga teng qilish nutq va tilni qorishtirishga teng degan fikrlarni keltirib o‘tadi.

O‘zbek tilshunosligida ham dastlab frazeologiya sohasiga oid qarashlar rus tilshunoslarining ta‘sirida paydo bo‘la boshladi. O‘zbek tilshunosligidagi frazeologiya haqidagi fikrlar ilk marotaba tilshunos Sh.Rahmatullayevning tadqiqotlarida e‘lon qilina boshlandi. Sh.U.Rahmatullayev o‘z tadqiqotlarida rus tilshunosi V.V.Vinogradovning qarashlarini ilgari suradi. Ya‘ni Sh.Rahmatullayev frazeologik birliklarni faqat leksik, sintaktik jihatdan tadqiq etadi. Lekin uning semantik tarkibi, ichki bo‘linishlariga e‘tibor qaratmaydi. Shunday bo‘lsa-da Sh.Rahmatullayevning frazeologiya sohasida xizmatlari beqiyos. Tilshunos ilk marotaba frazeologiya sohasini tadqiq etganligi hamda uning leksik jihatlarini o‘rganganligi ahamiyatlidir.

O‘zbek tilshunosligida A.Hojiyevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida frazeologiya bo‘limi haqida yetarlicha ma‘lumotlar berilgan. Qolaversa, tilshunos o‘zidan



oldingi qilingan tadqiqotlarni tanqid qilib shunday deydi: “Frazeologizmlarning semantik tarkibi, ma’no taraqqiyoti, hosil bo‘lish yo‘llari kabilar o‘z tadqiqotchilarini talab qiladi”.

Umuman olganda, frazeologiya sohasi bo‘yicha jahon tilshunosligi biz uchun muhim lingvistik maktab vazifasini bajargan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki aynan jahon tilshunosligi maktabidan oziqlangan holda o‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasi bo‘yicha salmoqli ishlar qilindi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdullayev A. Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati. – T; O‘TA. 1996. №5.
2. Маматов А.Э. Хозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991
3. Маматов А, Boltayeva В. Frazeologik birliklarning semantik-pragmatik tadqiqi. “Navruz” Toshkent. 2019
4. Маматов А. Ўзбек тилида фразеологик шаклланиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.
5. Раҳматуллаев Ш. Фразеологик birliklarning asosiy ma’no turhlari. – Тошкент: Ўқитувчи, 1955.
6. Содикова М. Қисқача ўзбекча русча фразеологик lug‘at. – Тошкент: ЎзСЭБР, 1989.
7. Almatova SH.T. O‘zbek tili frazemalarining komponent tahlili. Filol.fanlari nomzodi...diss.- Toshkent 2008.
8. Boltayeva B.I. O‘zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil) Filol.fanlari nomzodi...diss.- Samarqnd 2019.
9. shakllanishi masalalari. Filol.fanlari doktori...diss.avtoref- Toshkent 2000.
10. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent. “Universitet” 2014
11. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent, O‘qituvchi, 1978.



O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARIDAGI AYRIM ANTROPONIMLARNING LISONIY TAHLILI

Ismoilova Gulmira

NamDU 2-kurs talabasi,

Email: gulmiraismoilova04@gmail.com

Ilmiy rahbar: Havasxon Solixo‘jayeva

f.f.f.d (PhD)., v.b. dotsent

Email: solihodjayevaxavasxon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Dunyoning ishlari” asaridagi ayrim antroponimlarni lisoniy tahlili, ularning o‘ziga xos ma‘nolari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Onomastika, antroponimiya, lisoniy tahlil, onomastik birlik, etimologik.*

Аннотация: *В данной статье раскрывается лингвистический анализ некоторых антропонимов в произведении «Творения мира» и их конкретные значения.*

Ключевые слова: *ономастика, антропонимия, лингвистический анализ, ономастическая единица, этимологический.*

Abstract: *In this article, the linguistic analysis of some anthroponyms in the work “Works of the World” and their specific meanings are revealed.*

Key words: *Onomastics, anthroponymy, linguistic analysis, onomastic unit, etymological.*

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asari onomastik birliklarga boyligi, asardagi antroponimlar o‘zining uslubiy jihatdan pishiqligi bilan qimmatlidir. Albatta, ma‘lum bir ijodkor asarini onomastik tadqiqi orqali yozuvchining badiiy va uslubiy mahoratini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa shakllanish bosqichida turgan onomastik birliklar ko‘lamining rivojlanishi, boyishi uchun asos vazifasini o‘taydi.

“Dunyoning ishlari” asaridagi antroponimlarning qiymati shundaki, ular atash (nominativ) vazifasidan tashqari – adibning mahorati, tajribalari, ma‘naviy, ruhiy tushunchayu mushohadalari, hayotiy xulosalarini ham o‘zida mujassam etgan.



Antroponim onomastik birlik sifatida *ism, kishi ismi, odam otlari, kishi nomlariga* nisbatan qo'llaniladi. O'zbek onomastikasida E.Begmatovning ilmiy izlanishlari orqali antroponimlar tadqiqi bo'yicha katta yutuqlarga erishildi. Jumladan, olimning "Kishi nomlari imlosi" (1970), "O'zbek ismlari imlosi" (1972), "O'zbek ismlari" (1991), "O'zbek ismlari ma'nosi" (1998, 2004, 2010), "Ism chiroyi" (1994) kabi ilmiy asarlari shular jumlasidandir.

Ernest Begmatov o'zining "O'zbek tili antroponimikasi" nomli monografiyasida o'zbek tilidagi kishilarning atoqli otlarini onomastik birlik sifatida quyidagi tasnifiy guruhlariga ajratadi:

1. Ismlar – konkret shaxslarga berilgan ismlar.
2. Laqablar.
3. Taxalluslar.
4. O'zbeklarda shaxs nomlashning o'tmishda mavjud bo'lgan ba'zi shakllari ("qizi", "o'g'li") yordamida nomlash.
5. Shaxsni uning ismiga o'tmish ajdodlarining nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari ("ibn", "binni") yordamida.
6. O'tgan asrning 20-30- yillarida rasmiy ravishda majburiy qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari.

Biz ham E.Begmatovning tasnifiga asoslangan holda, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridagi antroponimlarni quyidagicha tasnifiy guruhlariga ajratishni lozim topdik:

1. Konkret shaxslarga berilgan ismlar: *Qahramon, Toyir, Niso, Guli, Farhod, Dilbar, Hakim, Saida, Sobir, Odilxo'ja, Sobir, Asqar, Risolat, Yunus, Naim, Zebi, Habiba* kabilar.
2. Laqablar (orttirilgan nomlar): Mahmud – *bukur*, Hakim – *naynov*, Naim – *sartarosh*, Muborak – *chevar*, Haydar – *shamol* kabilar.

Misollardan anglashiladiki, asardagi laqablar – yozuvchi tomonidan qahramonlarning kasb-kori, tashqi ko'rinishi, fel-atvori kabi xususiyatlarga ishora sifatida shakllangan. Shunga ko'ra biz asardagi laqablarni quyidagi ikki guruhga ajratishimiz mumkin: 1. Kasb-koriga ishora qiluvchi laqablar (Naim *sartarosh*); 2. Tashqi ko'rinish-belgilarni ifodalovchi laqablar (Hakim *naynov*).



Ernest Begmatovning “O‘zbek tili antroponimikasi” kitobida laqablar ismlar kabi atoqli ot tiplaridan biri sifatida qaraladi. Chunki, ism – kishilarning yaqinlari tomonidan berilgan turg‘un nom bo‘lsa, laqablar – kishilarning ismlaridan keyin kelib, ularning hayoti davomida tashqi ko‘rinishi yoki xarakteridagi ma‘lum belgi yoki xususiyatlariga ko‘ra orttirilgan nomlardir.

Asardagi ismlarni etimologik nuqtai nazardan o‘zbekcha, arabcha, ruscha, forscha antraponimik guruhlariga ajratish mumkin:

1. O‘zbekcha.
2. Arabcha.
3. Ruscha.
4. Forscha.

O‘zbekcha antroponimlarga: *Bahodir, Toy, Dalavoy, To‘xtavoy, Otin, Kimsan, Yo‘ldosh, Egamberdi, Oltmishvoy* singari ismlarni kiritishimiz mumkin.

Arabcha antroponimlarga: *Ilhaq, Ishoq, Baxtiyor, Abduvohid, Toyir, Vali, Damin, Shayx, Niso, Ali, Odilxo‘ja, Muborak, Mahmud, Farhod, Islom, Habiba, Xizr, Ermon, Haydar, Rahmatulla, Xayri, Asqar, Sobir, Bashorat, Mo‘min, Hoji, Naim, Olim, Hakim, Sharofat, Inoy, Saida, Risolat, Murodjon, Orif, Afzalxon, Abdujabbor, Jahongir, Muhammad* kabilar. Asardagi antroponimlarning deyarli katta qismi arabcha antroponimlardan iborat.

Ruscha antroponimlar: *Vera, Pushkin, Klava, Achinska, Stalin, Valentin, Nikolay* kabilar.

Forscha antroponimlar: *Nilufar, Poshsha, Xo‘ja, Qahramon, Zebi, Dilbar.*

Demak, asardagi antraponimlarning katta qismini arabcha antroponimlar tashkil etadi.

Asardagi antraponimlar tuzilishiga ko‘ra:

1. Bir asosli *Nilufar, Xo‘ja, Vali, Poshsha, Qahramon, Toy, Xayri, Asqar*; 2. Ikki va undan ortiq asosli *Abduvohid, Jo‘raboshi, Abdujabbor., Egamberdi* kabi guruhlariga ajratishimiz mumkin.

O‘tkir Hoshimov asar qahramonlariga nom berishda uning fe‘l-atvori, harakteri, qo‘yingki o‘sha qahramonning tabiati, dunyo-qarashi kabi jihatlarini han nazardan chetda



qoldirmaydi. E'tiborlisi qahramonlarning nomlari orqali asarning mazmun-mohiyatini kitobxon ko'z o'ngida gavdalantirib, tasvirlashga-da erishadi. U tanlagan nomlar o'zbek antraponimiyasida o'z qiymatiga egadir. Chunki, adib asardagi yordamchi obrazlarga ham yengil-yelpi ism tanlamagan, u haqida aniq tasavvur hosil qilishga yordam beruvchi noodatiy nom tanlagan.

Asardagi antroponimlarni monografik planda alohida tatqiq etilmagan bo'lsada, "Dunyoning ishlari" qissasida qo'llangan poetonimlarning ba'zilari haqida Zohida Muqimovaning "O'tkir Hoshimov asarlaridagi ayrim onomastik birliklar lingvopoetikasi" nomli maqolasida ismlarning so'zlashuv uslubiga xos qisqartirilgan shakllarini tadqiqi doirasida to'xtalib o'tiladi. Masalan, "Mavlu hech qo'ymadi-da bolam", "Meni Toy demanglar". "O'zimning otim bor-Toyir", "Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi?- dedim erkalab", "Keyin-chi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Bahtiga ko'yлак..."¹⁰⁸. Yuqorida misollarda keltirilgan nomlar Mavluda ismi – *Mavlu*, Tohir ismi – *Toy*, Nilufar ismi – *Nilu*, Bahodir – *Baho*, Baxtiyor ismi – *Baxti*, tarzda so'zlashuv uslubida qisqartirilgan holda bolalarcha soddalikni ochib berishda xizmat qilgan.

Demak, yozuvchining yuksak mahoratini asardagi qahramonlarga ism berish va tanlashdagi zakiyligida ham ko'rinadi. Chunki ular nominativ vazifasidan tashqari kitobxon uchun o'zi nomlayotgan qahramonlarining xarakter xususiyati, fe'l-atvoridan ham darak beruvchi vosita vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.A. Begmatov. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
2. Muqimova Z. "O'tkir Hoshimov asarlaridagi ayrim onomastik birliklar lingvopoetikasi" // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2019/3. 102-bet.
3. <http://www.ziyonet.uz>.
4. <https://e-library.namdu.uz>.

¹⁰⁸Muqimova.Z. O'tkir Hoshimov asarlaridagi ayrim onomastik birliklar lingvopoetikasi // O'zbek tili va adabiyoti, 2019.– №3.– B.102.



ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDA ILM VA TA’LIMGA OID XALQ MAQOLLARINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Maxmudjonova Muborak Farxodjon qizi

Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti

o‘zbek tili yo‘nalishi 1-kurs UZB-CU-23(103) talabasi

Email:ahmadjonmahmudjonov500@gmail.com

Tel:(94)785-43-33

Ilmiy rahbar: Rahmatullayev Yunusxon

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab va o‘zbek folkloriga tegishli xalq maqollarining ilm va ma‘rifatga bag‘ishlangan qismi yoritib o‘tilgan. Ma‘lumki, avlodning ilm va tafakkur doirasini kengaytirish masalasi har bir xalqni chuqur o‘ylantiradigan va mushohadaga chorlaydigan mavzudir. Maqolada halollikka bag‘ishlangan arab va o‘zbek xalq maqollarining mushtarak va farqli jihatlari qiyosiy yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xalq maqollari, maqsadlar mushtarakligi, intellektual qobiliyat, islom dini, diniy e‘tiqod.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НАРОДНЫХ ПОСЛОВ ОБ ОБРАЗОВАНИИ В АРАБСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье рассматривается образовательный раздел арабского фольклора. Общеизвестно, что научная тема широко обсуждается и глубоко изучается в каждом народе. В статье сравниваются сходства и различия между арабскими и узбекскими народными пословицами об образовании.

Ключевые слова. Народные пословицы, единство цели, интеллектуальные способности, Ислам, религиозные убеждения.

NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF FOLK PROVERBS ON EDUCATION AND STUDY IN ARABIC AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. This article covers the section of education of Arabic and Uzbek folklore. It is well-known that the topic of improving knowledge is a topic which is widely considered



and studied in depth in every nation. The article compares the similarities and differences between Arabic and Uzbek folk proverbs about education.

Keywords. Folk proverbs, unite of purpose, intellectual ability, Islam, religious beliefs.

Ilm egallash, ilmni o‘rganib, uni to‘g‘ri yo‘lda sarf etish, erishilgan bilimlarni o‘zgalarga ham qo‘ldan kelgancha o‘rgatish har bir xalqning asosiy e‘tibori qaratilgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Inglizlarda shunday maqol bor: “Ta‘lim uchun sarflangan pul hech qachon behuda ketmaydi”¹⁰⁹. Yoki rus xalqida ham naql bor: “Ilm – ziyo, ilmsizlik – zulmat”. Bu borada o‘zimizning o‘zbek bobolari shunday deyishadi: “Ilm izlagan yetar, izlamagan yitar”. Shoirlar o‘z she‘rlarida, adiblar asarlarida ilmni inson umrining bezagi, mazmuni deya e‘tirof etadilar. Darhaqiqat, ilm barcha millatlarning mushtarak boyligidir, Bu ularning maqollari-yu matallarida o‘z aksini topgan. Aynan o‘zbek va arab folklori xazinasiga nazar tashlar ekanmiz, bunga yana bir bor amin bo‘lamiz.

Qadimdan sharq o‘zining dono so‘zlari-yu donishmand otalari bilan shuhrat topgan. Sharq maqollari, matallari, hatto hikmatli so‘zlarining ham o‘ziga xos qurilishi, badiiyati bor. Ilmga bag‘ishlangan maqollarda ham ana shu xususiyatlarni ko‘rish mumkin. Masalan, iroqliklarning maqoliga qaraylik: “Saboq mushkul bo‘lsa, o‘quvchini uyqu bosar”¹¹⁰. Bu yerda ilm murakkablashib borgani sayin o‘quvchining shashti susayib borishi xususida so‘z boradi. Armanlarda ham bilimdonlarga yaqin, nodonlardan esa uzoq yurish to‘g‘risida shunday matal bor: “Nodon bilan bazm qurgandan dono bilan tosh tashigan afzal”¹¹¹. O‘ziga xos tasviri va ixchamligi bilan ajralib turadigan arab maqollari orasida ham ilm o‘rganishning ahamiyati haqida yuzlab maqollarni uchratish mumkin:

- *Olim jannatga tushmaguncha ilm olishdan to‘xtamaydi.*¹¹² Mazkur naql o‘z ichida bir-necha ma‘nolarni ifodalab kelmoqda, ya‘ni olimning ilmni egallashdagi birinchi maqsadi jannatga erishishdir. Qolaversa, maqolda yaqqol ko‘rinib turibdiki, ilmni mukammal egallagan inson Allohning go‘zal mukofoti jannatga erishishga haqli bo‘ladi. Bundan tashqari, jannatni

¹⁰⁹ Ziyouz.com. Ingliz xalq maqollari(608)

¹¹⁰ Ziyouz.com. Iroq xalq maqollari(508)

¹¹¹ Ziyouz.com. Arman xalq maqollari(468)

¹¹² “Arab maqollari”. Nozim Siddiqov. .: Sanostandart. 2011.



istagan olim butun umri davomida ilmni o‘rganishi kerak. Bu maqol bizning o‘zbeklardagi “Yuzga kirsang, yuz yil o‘qi” degan maqol bilan bir- biriga juda yaqindir. Aytilayotgan gap boshqa, lekin maqsad bir: ilm, ziyo va ma‘rifat.

- *Ilmni yozish bilan mustahkamlang.* Inson o‘qigan ma‘lumotini yozar ekan, uning miyasida retikulyar faollashtiruvchi tizim ishga tushadi. U filtr kabi ishlaydi va diqqatni jamlashga yordam beradi. Qolaversa, qog‘ozga yozish miyani yoshartiradi.¹¹³ Arab folkloridagi bu maqol ta‘limda o‘z ahamiyatiga ega.

- *Katta farzandni o‘qit, tarbiyala, kichigi o‘zi (undan) o‘rganadi.* Albatta, bu maqol ham arablarning fikrlari o‘zbeklarning o‘y va mushohadalari bilan juda yaqin ekanligining dalilidir. Aynan o‘zbeklarda to‘ng‘ich farzandning bilim olishiga ko‘proq sharoit yaratiladi. Bu esa keyingi farzandlarning ham ilmga intilib borishiga zamin yaratadi.

- *“Hech nima”dan “nimadir” yaxshiroq.* Naqlda hech narsani bilmagandan ko‘ra nimanidir bilgan yaxshiroq degan g‘oya ilgari surilmoqda. O‘zbek maqollarida esa bu “Ilm olishning erta-kechi yo‘q” deya ifodalanadi.

- *Ilmini o‘rgatmaydigan olim - giyoh unmaydigan dala.* Ushbu maqolni mukammal sharhlash uchun, albatta, hadislar bilan tanish bo‘lmoq kerak. Chunki maqolda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning muborak hadislar bilan mazmuniy bog‘liqlik mavjud. Ba‘zi arab maqollari hadislar vositasida xalq tomonidan yaratilgan.

- *Yoshlikdagi ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir.* Bu naql o‘zbek ruhiyatiga shu qadar singib ketganki, uni o‘zbek maqoli sifatida ham e‘tirof etish mumkin. Lekin maqolning asl vatani Arabistondir.

- *Oqilning boyligi – ilmida, nodonning boyligi – pulida.* O‘zbek folklorida ham shunday maqollar mavjud: “Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r – mingni”, “Bilgan o‘zar, bilmagan – to‘zar”.

- *Ahmoqni qancha o‘qitganing bilan ertalab esidan chiqib ketadi.* Mazkur maqolga o‘zbek folklorida ham muqobillar bor: “Kuchuk bilan xo‘tikni qancha qilma tarbiya, it bo‘lur, eshak bo‘lur, aslo bo‘lmas odamiy”, “Dangasaga ish buyursang, senga aql o‘rgatadi”.

¹¹³ <https://m.aniq.uz>



- *Ahmoqning qalbi – tilida, dononing tili – qalbida.* Maqolda dono aytadigan gapini avval ko‘nglidan o‘tkazib, tafakkur qilib, keyin gapirishi haqida so‘z boradi. O‘zbeklarda esa “Avval o‘yla, keyin so‘yla”, - deyiladi. Tafakkur bilan gapirishni oqillikning fazilatlaridan deya qaraladi.

- *Suvsiz quduq shudring bilan to‘lmaydi.* Ilmni egallash uchun ko‘p mashaqqat chekish lozimligi bu maqolda o‘z aksini topgan. Ushbu mavzudagi o‘zbek maqollaridan biriga nazar tashlaymiz: “Ilm o‘rganish – igna bilan quduq qazish”. Bu ikki maqol ma’no va mazmun jihatidan bir – biriga juda yaqindir.

Yuqoridagi maqollardan shunday xulosaga kelish mumkinki, arab xalqida, barcha Islom diniga e‘tiqod qiluvchi xalqlar kabi ilm, ma’rifat kabi millatning fundamental ustunlari boshqa narsalardan ko‘ra ko‘proq qadrlanadi. Ilmni mukammal o‘rganish bilan jannatga erishish mumkinligi haqidagi maqollar arab folklorida alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmni egallagach, unga amal qilish kerakligi ham ta’kidlanadi. Bu maqollar g‘oyaviy - mafkuraviy jihatdan o‘zbek maqollari bilan birlikni tashkil qiladi. Ilmning xosiyati haqida gap borar ekan, arablar nafaqat xalq donishmandligiga, balki muqaddas Qur’oni Karimga murojaat qiladilar. Biz, o‘zbeklar ham Kalomullohda keltirilgan oyatlar mazmunidan kelib chiqib, Rasuli akramdan qolgan hadislardan ibrat olgan holda, qolaversa, milliy boyligimiz bo‘lgan maqollardan turtki olib ilm egallashda, aqliy qobiliyatimizni oshirishda davom etamiz. Ikki millatning hamfikir ekanligini yuqorida ko‘rilgan maqollar ham tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010.
2. N.Sodiqov. Arab maqollari. – T.: Sanostandart. 2011.
3. Uzbek scholar journal, volume-04, 2022.
4. {GIGAFOX.com}
5. <https://ziyouz.uz>.



**TURAR-JOY, UNING QISM VA JIHOZLARIGA OID LEKSIK BIRLIKLAR
(“MALIKA AYYOR” VA “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONLARI MISOLIDA)**

Manzura Tulaganovna Narmatova

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

(narmatovamanzura75@gmail.com)

Annotatsiya: maqolada “Malika ayyor”, “Bahrom va Gulandom” dostonlarida uy-joy, uning qism va jihozlariga oid leksik birliklar tushunchasi, xususan, ushbu mavzuga oid leksemalar tahlil qilingan.

Аннотация: в статье проанализировано понятие лексических единиц, относящихся к жилью, его частям и оборудованию в эпосах “Малика айёр”, “Бахрам и Гуландом”, в частности лексемы, относящиеся к данной теме.

Annotation: the article analyzes the concept of lexical units related to housing, its parts and equipment in the epics “The Cunning Princess,” “Bakhram and Gulandom,” in particular lexemes related to this topic.

Tayanch so‘zlar: qo‘rg‘on, saroy, uy, kulba, yurt, vatan, xonumon (uy va uning jihozlari) dargoh, xona, ayvon, eshik va h.k.

Ключевые слова: крепость, дворец, дом, коттедж, деревня, родина, ханамон (дом и его убранство), даргох, комната, айван, дверь и т. д.

Key words: fortress, palace, house, hut, country, homeland, lady (house and its furnishings) court, room, animal, door, and so on.

Insoniyatning barcha taraqqiyot bosqichlarida muayyan uy-joy yoki vaqtincha yashash uchun mo‘jallangan uy, turadigan o‘rin, makon muhim o‘rin tutganki, ularning har biri o‘z nomi va atamasiga ega. Ta’kidlamoqchimizki, har bir xalqning ma’naviy hayoti va kundalik maishiy turmush tarzida muayyan makon-turar joylar, ularning jihozlari nomlari o‘sha xalq tilining oltin fondi xazinasida, halq og‘zaki ijodi namunalarida munosib o‘rin olgan. Bu barcha turkiy xalqlar qatori, o‘zbek tili va folklariga ham tegishli, albatta.

Tadqiqotimizda qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib, tahlil ob'ektiga jalb qilingan xalq dostonlarini o‘rganish davomida muayyan makon-uy, joy, yashash o‘rni tushunchalarini



ifadolovchi 20 dan ortiq leksik birliklar qo‘llanganligini kuzatdik. Bular: qo‘rg‘on, saroy, uy, kulba, yurt, vatan, xonumon (uy va uning jihozlari) dargoh, xona, ayvon, eshik, darvoza, ustun, zina, bo‘sag‘a, to‘r, hujra makon va h.k. Quyida ulardan ayrimlarining etimologiyasi, qo‘llanilish doirasi va leksik-semantik xususiyatlari haqida qisqacha so‘z yuritamiz.

Qo‘rg‘on (qal‘a). Bu lisoniy birlik “Malika ayyor” dostonida 9 marta, uning xilma-xil: qo‘rg‘onga (2 marta), qo‘rg‘onda (1 marta), qo‘rg‘oni (2 marta), qo‘rg‘oniga (1 marta), qo‘rg‘onining (3 marta) kabi shakllari qo‘llanilgan. Lekin bu leksema “Bahrom va Gulandom” dostonida biror marta ishlatilmagan.

Ona tilimizning izohli lug‘atida qo‘rg‘on (qal‘a) leksemasining quyidagi ma‘nolarda qo‘llanilishi haqida ma‘lumot berilgan: 1. O‘rta asrlarda qalin va baland mudofaa devori bilan o‘rab qurilgan, asosan bir darvozali shahar-qal‘a; 2. Qal‘a, shahar, qo‘rg‘on va sh.k. ni mudofaa qilish uchun qurilgan mustahkam devor; 3. Dala joyda va umuman shahardan tashqarida atrofi devor bilan o‘ralgan hovli-joy va uning ichidagi binolar [qarang: O‘TIL, V, 416-bet]. “Malika ayyor” dostonidagi qo‘rg‘on (qal‘a) leksik birligi mazkur izohlarning dastlabkisiga aloqador, degan xulosaga keldik. Bu o‘rinda birgina misol keltirish bilan cheklanamiz: *Qarasa, murodga to‘lib, Izlab endi shahzodasin, Ko‘rdi-ku qo‘rg‘on-qal‘asin, Boymoq deb joyiga etib, Ochib kirdi darvozasin, Axtaradi shahzodasin, Devlarning berar jazosin* [M.a. 151-bet].

Ayrim nufuzli lug‘atlarda qo‘rg‘on atamasi asli “qo‘riqla” ma‘nosini anglatuvchi qori – fe‘lining ko‘paytirish ma‘nosini ifadolovchi –g‘a qo‘shimchasi bilan hosil qilingan shaklidagi –n qo‘shimchasi bilan yasalganligi, keyingi unlilardagi tovush o‘zgarishlar sababli qo‘rg‘on holatiga kelganligi qayd etilgan [qarang: O‘TIL, I, 558-559-bet]. Qo‘rg‘on leksik birligi “Malika ayyor”da ancha faol qo‘llangan. Misollar keltiramiz: *Shoqalandar bilan Shozargar qo‘rg‘onga kirib, u yoqqa bu yoqqa qaradi. Bu qo‘rg‘onda devlardan hech bir nishon – darak topmadi* [152-bet]. *Qarasa, Boymoq devning makoni-qo‘rg‘oni ko‘rinib turibdi* [152-bet].

Uy leksemasining xilma-xil shakllari turkiy xalqlar tillarining, og‘zaki va yozma nutqlarida faol qo‘llanilgani sir emas. Shu o‘rinda milliy tilimizning og‘zaki va yozma yodgorliklarida o‘z ifodasini topganligini ham qayd etish lozim. Masalan, “Malika ayyor” dostonida mazkur so‘zning uyiga, uyingdagi, uylaringizga, uyda kabi shakldoshlari 1 martadan



qo‘llanganligini kuzatdik: *Bu qanday zolimlik. Bundan o‘lib ketganimiz yaxshi emasmi, uyda kishisi borning tuzda urolmas, degan gap bor odamzodlarda* [M.a. 162-bet].

Uy leksik birligining qo‘llanilish doirasi juda qadim davrlarga borib taqaladi. Xususan, Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida qadimgi turkiy tildagi öw “uy” ma‘nosiga ega ekanligini, Öw tarzida til oldi o‘ bilan talaffuz etish zarurligini qayd etadi [qarang: DLT, I, 109-bet]. Bir qator olimlar, xususan, B.Abdushukurov, A.Xoziev va boshqalarning ilmiy ishlarida qadimgi turkiy tildagi “uy, turar-joy”, “oila” [DTS, 162-bet] ma‘nolarini ifodalaydigan ew (ev) shakli uning qadimgi variant ekanligi ta‘kidlangan. Keyingi davrlarda eski o‘zbek tili leksikasida ev bilan birga uy ham ko‘proq qo‘llanganligini Navoiy asarlaridagi ba‘zi lisoniy ma‘lumotlar tasdiqlaydi. Masalan, ular shoirning “Farhod va Shirin” asaridagi “Burun qirq uy bo‘lib oltun makoni, Har evda qirq xumi xusravoni” [F.Sh. 227-bet] kabi misralardagi uy va ev ayni bir ma‘noda qo‘llanilganligini kuzatamiz. Ko‘rinadiki, uy leksemasining qo‘llanilish bosqichlari uzoq davrlarga borib taqaladi va ayni kunlarda ham u eng faol leksik birlik sanaladi. Mazkur leksik birliklarning muayyan matnda ifodalangan ma‘nolari xilma-xil ekanligini ilmiy-badiiy manbalar bir qadar tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atida uy leksemasining quyidagi oltita ma‘nosi mavjudligi qayd etilgan: 1. Uy, xona, manzil, makon; 2. Imorat, bino; 3. Tana, jism, gavda; 4. Vatan; 5. Dargoh; 6. O‘tov, chodir [qarang: ANATIL, 3j., 281-bet]: Ona tilimizning izohli lug‘atida esa mazkur leksemaning beshta ma‘nosi berilgan: 1. Yashash uchun yoki turli tashkilot, muassasa va sh.k. joylashish uchun mo‘ljallangan bino; 2. Yashash uchun mo‘ljallangan bino ichidagi har bir xona; 3. Biror ijtimoiy talabni qondirishga qaratilgan muassasa; 4. Biror oila va xonadon o‘rnashgan bino va shu binoga taalluqli er, hovli; 5. Oila, xonadon [O‘TIL, IV, 271-bet].

Tahlil uchun keltirilgan har ikkala manbalardagi bunday ma‘lumotlardan shunday lisoniy holat ko‘zga tashlanadiki, xalq dostonlari tilidagi manzil, makon, vatan, mamlakat, dargoh, xona kabi leksemalar uy so‘zi o‘rnida qo‘llanilib, uylarga sinonimlik vazifasini bajargan. Ayni lisoniy holatni “Malika ayyor” dostoni matnididan olingan quyidagi matnlarda kuzatdik:



1. Uy, makon (manzil) yashash joy ma'nosida: *Besoqol bolamizning holi qanday bo'ldi, - deb o'zining manzil-makoniga bordi. Makonini ko'rdi. Qarasa manzilini eshigi ochiq, anqayib turibdi. Boymoq dev buni ko'rib, xayoli qochib, hushi kallasidan uchib, "Bizning makonga ham qalandarning qadami etgan ekan, bola omon bo'lsa shu-da", - deb osmonidan quyulib manziliga tushdi.* [M.a. 162-bet].

2. Uy → manzil (yashash joy) ma'nosida: *Uyingdagi sening sarvinozing, Eshit mening'arib gado tilini, Bizdan ko'rgin karomatning mo'lini, Yasab beray Malikaning sherini* [M.a. 94-bet].

3. Uy → vatan (yashash joy): *So'zimni eshitgin shohim, muqarrar, Otim Yo'lchi, o'zim yurgan qalandar. Tarki dunyo qildim, vatan ne darkor* [B.G.92-bet].

4. Uy → manzilxona (yashash joy): *Boybacha sifatlim, qaydan bo'lasan? Bino bo'lding qays gavhar donadan, Parvoz qilding qaysi manzil-xonadon* [B.G.52-bet].

Keltirilgan misollarning ichidagi manzil-xonadon so'zlarining keyingi qismiga e'tibor bersak: xona so'zi aslida tojikcha bo'lib, unga don qo'shimchasi qo'shilib "oila", "biror oila yashaydigan joy" ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan [qarang: O'TEL, III, 242-bet]. Bu so'z ayni ma'nolarda Alisher Navoiy asarlarida ham qo'llanilgan. Masalan, "Saddi Iskandariy"dagi "Ham otasi bu xonadon bandasi, Ham ajdodi ajdodim afkandasi" kabi misralar fikrimizga dalil bo'ladi.

Saroy leksemasiga tilimizning izohli lug'atida "xon, amir, podshohlarning doimiy qarorgohi bo'lib xizmat qilgan hashamatli katta bino, kashona" [O'TIL, III, 452-bet] tarzida tavsif berilgan. Mazkur so'z tadqiqotimizga jalb etilgan xalq dostonlarida ancha faol qo'llangan. Bu o'rinda ikkita matn keltirish bilan chegaralanamiz: "Unda Shozargar: "Shoqalandar aytsa ozroq aytib qo'yadi, men ko'proq aytayin, -deb, -qirq botmon tilla bering, qirq botmon guruch bilan qirqta yaxshi katta qo'y, bir qancha qand bilan choy, shahringizning yaxshi eridan – **saroyidan** joy bering" [M.a. 94-bet]. "Bu shaharning ichini u ko'radi, Qiblaboshi amaldorlar ko'radi, Qo'rboshilar bu Bahromga qaradi, Bir saroyga borib, Bahrom qo'nadi" [B.G. 56-bet].

Hujra, arab tilidan kirib kelgan bu so'z xona, bo'lma ma'nolarini ifodalaydi. Tilimizning izohli lug'atida mazkur leksik birlikning quyidagi ma'nolari qayd etilgan: 1. Kishi yashaydigan



kichik xona, uycha; 2. Tor, madrasa, qorixona va masjidida shogirdlar, domullalar yashashi uchun ajratilgan kichik xona [qarang: O‘TIL, V, 557-bet]. Navoiy asarlarida hujra leksemasi ikki ma'noda ishlatilganligi, shuningdek, uy va hujra o‘zaro sinonim bo‘lib qo‘llanganligi ayrim tadqiqotlarda qayd etilgan. Biz o‘rgangan “Bahrom va Gulandom” dostonidagi ayrim matnlarda hujra leksemasi yuqoridagi kabi ikki ma'noda qo‘llanganligini kuzatdik: 1. *Bahrom bu saroyda bir hujrani olib, saroybon bilan oshna bo‘lib, kunduzni o‘tkazdi. kun kech bo‘lib, oqshom bo‘ldi.* [B.G.56-bet] 2. ... *Harchan ishingiz bo‘lsa mana ozoda hujrangiz, Qandayin ishingiz bo‘lsa, qorong‘ida qaltirib qilgandan, yorug‘da yaltirab qilganigiz yaxshi emasmi?* –*deb nasihat qildi* [B.G.56-bet]. Ko‘rinadiki, keltirilgan matning dastlabkisida hujra hashamatli saroyning bir qismi, inson yashaydigan kichik xonasi; keyingi matnda esa yashash uchun ajratilgan kichik xona ma‘nosida qo‘llanganligi ayon bo‘ladi.

Ayvon – arabiy o‘zlashma sifatida tilimizga kirib kelgan va faol qo‘llanuvchi leksik birlik bo‘lib, “qasr, oldi ochiq bino” ma'nosini ifodalaydi. Ona tilimizning izohli lug‘atida ayvonga “uch tomoni berk, oldi ochiq xona” tarzida tavsif berilgan [qarang: O‘TIL, I, 52-bet]. Mazkur leksema tadqiq qilingan har ikkala dostonida qo‘llangan: *Shoqalandar bilan Shozargar qo‘rg‘onga kirib, u yoqqa bu yoqqa qaradi. Shunda ikki qalandar Boymoq devning manzilini, arkon-davlatini, ko‘shku-ayvonlarini, hamma qulfli joylarini axtarib ko‘rdi* [M.a. 152-bet]. *Bunga atab soldim tufha-saroyini, Ko‘shki ayvon qilib ul manzil joyini* [B.G. 60-bet] va h. k.

Tilshunosligimizda ayvon leksemasiga berilgan izohlar xilma-xil. Masalan, O‘TILda “ayvon-ko‘pincha uch tomoni berk, oldi ochiq xona” tarzida izohlangan [I, 52-bet], “O‘TEL”da esa “uyning uch tomoni devor, oldi tomoni ochiq qismi” [III, 2x]. Ayrim ishlarda “ayvon-uyning xonalariga taqab solingan usti yopiq va old tomoni ochiq qismi”. Ayvon so‘zining qo‘llanilishi juda keng va u uzoq davrlardan buyon ijtimoiy hayotda, kundalik turmush tarzida ancha faol ishlatilganligini xalq og‘zaki ijodi namunalari, qolaversa, yozma adabiyot manbalari ham tasdiqlaydi. Bu o‘rinda Navoiy asarlarida birgina misol keltirish bilan cheklanamiz: Ichinda gumbaz ayvonga loyiq, Yana dahlezi gumbazga muvofiq, Yana uch sori ham uch toqi ayvon [F.Sh, VIII, 281-bet].

Bu o‘rinda ta'kidlash lozimki, yozma adabiyot manbalaridagi toqli ayvon, gumbazli ayvon kabi lisoniy shakllar, shuningdek, xalq dostonlari matnida ko‘shkli ayvon birikmasi



nihoyatda ko‘p qo‘llangan. Masalan, *Gulandomga to‘y taraddi aylandi, ko‘shki ayvonlarin tilladan bezab* [B.G. 114-bet], *Sirli ustun bunda ko‘shku ayvonlar. O‘ynab o‘sgan sayirgohim, xo‘sh endi* [M.a. 191-bet]. Dostondan keltirilgan ko‘shk leksik birligi aslida turkiy va forsiyga “dalahovli, shahar tashqarisidagi qasr” ma'nolarini ifodalaydi. Ona tilimizning izohli lug‘atida bu so‘zga “qadimda baland, bahavo qilib solingan engil imorat”, degan izoh berilgan [qarang: O‘TIL, II, 479-bet]. Ayni ma'no biz o‘rgangan xalq dostonlari matnida ko‘plab uchraydi. Birga misol keltiramiz: *Gulqizoyim ko‘shklarini yaxshi orasta qilib, yaxshi lisob-to‘shaklardan soldirib, xizmatkor sanam qizlarga buyurib, o‘zi Gulbog‘ning darvozasiga chiqib qarasa, beklar parilar kanizlar bilan kelayotir* [M.a. 184-bet]. Dostonlarning matnida ko‘shk-ayvon lisoniy birikmalari ravoq-qo‘rg‘on so‘zlari bilan birga qo‘llanish holatlari kuzatildi: *Bu so‘zni eshitib Malika Go‘ro‘g‘liga aytib, bir ag‘anab turib, kaptar libosini kiyib fallaka parvoz qilib, uchib, jo‘nay berdi. Ko‘shk-ayvonlari ham falakka ravoq-qo‘rg‘onlar bilan ko‘chib jo‘nay berdi* [M.a. 9-bet]. Bu matndagi ravoq-qo‘rg‘on lisoniy birligi aslida arabcha so‘z bo‘lib, peshtoq, peshayvon, yopiq yo‘lak, bezakdor chodir ma'nolarini ifodalaydi. Tilimizning izohli lug‘atida mazkur so‘zning to‘rtta ma'nosi borligi ko‘rsatilgan. Ular: 1. Binoning old tomonidagi, peshtoq va ustunlar bilan bezatilgan qismi; 2. Hashamatli bino, saroy, qasr; 3. bik. Tokcha va tokning mehrob shaklida birlashgan yuqori qismi; 4. Hovli yoki bog‘ o‘rtasida tanasi yopiq qilib taxtadan ishlangan oynaband uy [qarang: O‘TIL, III, 435-bet]. Mazkur matning izohdagi hovli yoki bog‘ ma'nosidagi ravoq dostonning ba'zi matnlarida o‘z ifodasini topgan: *Buvishimiz kelmish boqqa, Qarab turgan shu ravoqqa, O‘ynab-kuling bu chorboqda, Juring, beklar, birga-birga boramiz* [M.a. 184-bet].

Ustun: lug‘aviy boyligimizga fors tilidan kirib kelgan bu leksema muayyan uy, imoratning ashyosi sifatida”Tirgak”, “poya”, “tirgovich”, “tayanch” kabi ma'nolarini ifodalagan. Ona tilimizning izohli lug‘atida mazkur leksik birlikning bir necha ma'nolari mavjudligi qayd etilgan: 1. Tomni ko‘tarib turuvchi tayanch yog‘och; 2. Bino peshtoqi va shiftining asosiy tayanchi; 3. Umuman, biror narsani ko‘tarib turish, osib qo‘yish va sh. k. uchun foydalaniladigan uzun tik yog‘och yoki shu taxlitda ishlangan qurilma [qarang: O‘TIL, IV, 302-bet]. Mazkur leksemaning sutun shakli yozma adabiyot namunalarida, xususan, Navoiy asarlarida [HA, VII, 262-bet; FSh, VIII, 221-bet] faol qo‘llanilganligi, qolaversa, xalq



dostonlarida va og‘zaki nutqda ham ustun shaklining qadimda ham, hozirgi kunda ham faol ishlatilishi uzoq taraqqiyot bosqichini bosib o‘tganligini tasdiqlaydi. Tadqiqot ob'ektiga jalb etilgan dostonlar matnida ham mazkur leksik birlik qo‘llangan: *Shunday bo‘ladi menga haqdan farmonlar, Yuragimda bordir g‘amu armonlar, Sirli ustun, bunda ko‘shku ayvonlar, O‘ynab o‘sgan sayrgohim, xo‘sh endi* [M.a. 191-bet]. *Qolmas yuragimda cheru armonlar, Sirli ustun, munda ko‘shku ayvonlar, Munoqqoshli ko‘shk, ayvon xush endi* [M.a. 222-bet]

“Bahrom va Gulandom” dostonida mazkur leksema ikki xil ma'noda: birinchisi – tomni ko‘tarib turuvchi tayanch yog‘och va ikkinchisi ko‘chma ustun-g‘olib, kuchli ma'nosi ifodalanganligini kuzatamiz: 1. *Shu vaqtda ham uxlay degan mo‘ljalda oyog‘iga tilla kishan solib, qo‘lini ustunga bog‘lab, jamolini tomosha qilib, uxlab qolgan edi* [B.G. 44-45-bet]; 2. *Kaltak sag‘al tegib qoldi. Jang boshini ololmay Sayfur, Quvvati kelmas bilibdi, Bu Novshod ustun kelibdi, Sayfur endi yiqilibdi.* [B.G 95-bet]. Keltirilgan matnlardagi dastlabki 3 ta misollar yuqorida ta'kidlangan ma'nolarni ifodalasa, oxirgi misolda esa ustun leksik birligi omonimlik vazifasini bajargan, g‘olib, kuchli ma'nolarida qo‘llangan.

Xulosa qilib aytganda, uy-joy nomlari, uning muayyan qism – bo‘laklari va jihozlariga oid leksik birliklar jamlanmasi ona tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining mustaqil bir tarmog‘i sanaladi. Bunday tipdagi leksemalar ijodkor xalqimizning ma'naviy hayotida va kundalik mayishiy turmush tarzida juda faol qo‘llanilib kelganligini qadimgi qo‘lyozma asarlar, shuningdek, xalq og‘zaki ijodi asarlari matnidagi lisoniy dalili – ma'lumotlari yana bir tasdiqlay oladi. Ta'kidlanayotgan va nazarda tutilayotgan leksik birliklarni to‘plash, muayyan matnlar tarkibida o‘rganish, ularning etimologik va funksional-semantik xususiyatlarini ochib berish tilshunosligimizning navbatdagi vazifalaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdushukurov B. “Qissasi Roburiy” leksikasi. Filol. fan doktori (DsS) dissertatsiyasi, Toshkent, 2017, b. 75.
2. Xoziyev A. Leksika slovary Maxmuda Kashgari “Devonu lyugot ut-turk” v sravneniye s sovremennom Bashkirskim yazikom. Kand. Dis-ya. Ufa, 2018
3. A.Navoiy «Tarixi muluki ajam» www.ziyouz.com kutubxonasi



4. B.G.- Bahrom va Gulandom –Toshkent:G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti,1886.

5.M.a.- Malika ayyor.- Toshkent:G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti,1886.

6. O‘TIL- O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Besh tomlik.- Toshkent:O‘zbME.,1-jild,2006.

7. O‘TIL- O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Besh tomlik.- Toshkent:O‘zbME.,3-jild,2006.

8. O‘TIL- O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Besh tomlik.- Toshkent:O‘zbME.,4-jild,2006.

9. O‘TIL- O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Besh tomlik.- Toshkent:O‘zbME.,5-jild,2006.

10. “O‘g‘uznoma” «Shajarayi turk» (1669)



ABDULLA ORIPOV SHE'RLARIDAGI SINONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Umidjon Qo'ziyev

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nazarova Sabrina Zafarjon qizi

Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

@nazarovasabrina046@gmail.com

Tel: +9989932933104

Annotatsiya. *Ushbu maqolada leksikologiya va uning turlari, so'zning atash ma'nosi, so'z va leksema, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, so'zning shakl va munosabatiga ko'ra turlari tahlil qilingan, qolaversa, fikrlar tegishli misollar bilan dalillangan.*

Tayanch so'zlar: *leksikologiya, so'zning atash ma'nosi, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar.*

Аннотация. *В данной статье анализируется лексикология и ее виды, значение слова, слова и лексемы, одно- и многозначные слова, а также типы слов по их форме и взаимосвязи. Примеры.*

Ключевые слова: *лексикология, этимологическое значение слова, одно- и многозначные слова, синонимы.*

Abstract. *This article analyzes lexicology and its types, the meaning of a word, a word and a lexeme, single- and multiple-meaning words, and types of words according to their form and relationship, moreover, the ideas are proved with relevant examples.*

Key words: *lexicology, etymological meaning of the word, single and multiple meaning words, synonyms.*

Shakli har xil bo'lsa ham ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar sinonimlar deyiladi. Bir (xil) ma'noning bir necha so'z shakllari orqali berilishi sinonimlarni yuzaga keltiradi. So'zlarning o'zaro sinonim munosabatda bo'lishi sinonimiya hodisasi deyiladi.¹¹⁴

Bir umumiy ma'nosi bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar guruhi sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi. Har bir sinonimik qatorda bir

¹¹⁴ Abduazizov A.A. Tilshunoslikka kirish. –T.,1999,b-57.



so‘z asosiy so‘z hisoblanadi. ¹¹⁵Bu so‘z barcha uslublarda qo‘llana oladi, shuning uchun (bosh so‘z), “neytral so‘z”, “betaraf so‘z”, “uslubiy neytral so‘z”, “dominanta” atamaları bilan nomlanadi. Masalan, nazar solmoq-boqmoq-qaramoq sinonimik qatorida bosh so‘z qaramoq; aft-bashara-chehra-oraz-yuz-turq sinonimik qatorida bosh so‘z yuzdir.

Abdulla Oripovning ijodidan olingan matnlar misolida sinonimlarga oid quyidagi misollarni ko‘rib chiqamiz:

Sinonimlar :

Dunyoda qutlovlar bor,

Biri biridan go‘zal.

Dunyoda tabriklar bor,

Biri biridan ezgu.

Sinonimlar - qutlovlar va tabriklar so‘zi. Bu so‘zlar biror bir munosabst bilan biror kimga ezgulik , yaxshilik tilash degan ma‘nolarda qo‘llaniladi. Yuqoridagi misralarda qutlov va tabrik so‘zlari qo‘llanish darajasiga ko‘ra farqlanadi. Jumladan, qutlov so‘zi ko‘proq badiiy adabiyotda qo‘llansa, tabrik so‘zi esa neytral, ya‘ni hamma uslublar - so‘zlashuv, badiiy, ilmiy, publitsistik va rasmiy uslublarda qo‘llashimiz mumkin.

Shu bir chanoq paxta ham ,

Zohirdan ma‘sum , yuvosh.

Va lekin zahmatlari

Sig‘mas ongga , shuurga.

Sinonimlar - ma‘sum , yuvosh va ong, shuur so‘zlari. Ma‘sum va yuvosh so‘zlari beozor ma‘nosida. Lekin ma‘sum so‘zi ravish bo‘lib kelganda , beozor tarzida ma‘nosida qo‘llaniladi. Masalan, Hamid G‘ulomovning “Mash‘al” asarida : “ Qamchi jahlidan tushib , Mavlon akaga yaxshi shogirdlardek yuvosh boqdi” misralarida ko‘rishimiz mumkin. Keyingi misralarda ong va shuur so‘zlari anglash , fahmlash , tushuncha , aql va idrok ma‘nolarida qo‘llangan.

Shu mo‘jaz hayotimni ,

El-yurtga bog‘labman to

¹¹⁵ Berdiyev X., Xo‘jayev P., Yo‘ldoshev B. Umumiy tilshunoslik.-Samarqand, 1974,b-54.



Bir ketmonchi o‘g‘liday,
Unga eshman , tirikman.
(“O‘zbek paxtasi”)

Sinonimlar - el , yurt so‘zlari. Bu so‘zlar davlat , mamlakat , maskan , zamin so‘zlarining sinonimi. Misralardagi el, yurt so‘zlarini ko‘proq badiiy adabiyotlarda uchratamiz. Ikkalasi ham muayyan yashaydigan joyni bildiradi. Ularning juft so‘z holatida kelishi mazmunni kuchaytirish, ta’kidlash va misralarning jarangdorligini oshirgan.

Xorg‘in bir yo‘lchingman , darvozungni och ,
Boshlab keldi dema kulfat, qayg‘uni
Nogoh ko‘zlarimda ko‘rsang qatra yosh,
Sog‘inch yoshlari deb qabul et uni.

Sinonimlar - kulfat va qayg‘u so‘zlari. Biror kimning boshiga g‘amtaashvish tushishi ma’nosida qo‘llangan. Kulfat qayg‘u so‘ziga nisbatan kuchsizroq va ularning ham ma’nosida farq bor. Kulfat - azob beradigan holat, qiynoq, azob va uqubat. Qayg‘u - biron narsaga, holatga nisbatan chuqur alam, ayniqsa, kimdir vafot etganligi sababli chuqur iztirobga tushish ma’nolarini ifodalaydi.

Qirq yosh ham keldi-yu , qo‘limdan tutdi,
Borman na ertakda , na afsonada.
Qirq yilning naq yarmi yo‘llarda o‘tdi ,
Yarmi esa o‘tdi bemorxonada.

Sinonimlar - ertak va afsona so‘zlari. Adabiy janr turlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ertak va afsona so‘zlari orasida biroz farqlanishlar bor. Ertak - voqealar to‘qima, xayoliy, yolg‘on va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht, majoziy xarakterdagi epik asar. Afsona - xayoliy, uydirma, mo‘jiza, sehr-jodu, to‘qimadan iborat bo‘ladi. Ularning tag zaminida oz bo‘lsa-da, haqiqat yotadi. Bular bir-biridan farqli janr hisoblansa-da, ularni birlashtirib turadigan xayoliy, uydirma, to‘qima kabi belgilar mavjud. Ya’ni ertak va afsona so‘zlarini shartli sinonimlar deb olsak bo‘ladi, chunki bu so‘zlarning ma’nosi bir-biriga juda yaqin.

Bir vaqtlar jo‘r bo‘lib o‘tli yoshlikka,
Yurardim hech so‘nmas tilagim bilan.



Bugun-chi , dardlashib turibman yakka ,
Shu majruh , shu xasta yuragim bilan.

(“Qirq yosh”)

Sinonimlar - majruh va xasta so‘zlari. Bu so‘zlar yaralangan , jarohatlangan, mayib va bemor ma’nolarida qo‘llanilyapti. Majruh - arabcha so‘z bo‘lib, yarador, jarohatlangan, nogiron ma’nolarida ishlatilsa, xasta esa kasal, bemor, betob ma’nolarida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, xasta so‘zi badiiy adabiyotda ko‘chma ma’nolarda dardli - xasta ko‘ngil, kuchsiz, zaif - xasta ovoz kabi birikmalarda ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Yo‘q deyman va lekin sim-sim yig‘layman,

Qirq ko‘zgu keladi qarshimga bot-bot.

Dilbar kunlarimni bir-bir ilg‘ayman,

Misli oynaga boqqanday Farhod.

Sinonimlar - ko‘zgu va oyna so‘zlari. Ikkalasi ham shisha ma’nosida. Lekin O‘tkir Hoshimovning hikmatlarida shunday deyilgan: “Ko‘zgu o‘zingni ko‘rsatadi. Oyna esa atrofdagilarni ko‘rsatadi. Shuning uchun ko‘zguga ko‘proq qara” .Ko‘zgu - yorug‘lik tekis qaytaruvchi yupqa (alyuminiy, kumush va boshqalar) qatlam bilan qoplangan silliq shisha metall yoki metall jism. Oyna - shisha, ko‘zguning jonli tildagi atalishi. Ikkalasi ham shishadan yasalgan metall nomi. Shoir shu so‘zlarni qo‘llash orqali so‘z takroridan qochgan va she’rga ham jozibadorlik baxsh etgan.

Men ko‘rar endigi bu go‘zal olam,

Sirli u odamlarning mavhum soyasi.

Shul sabab qalbimni o‘rtaydi alam,

Shul sabab g‘amimning yo‘q nihoyasi.

(“Xayrlashsh”)

Sinonimlar - alam va g‘am so‘zlari. Bu so‘zlar ham yuqorida qo‘llangan kulfat , qayg‘u so‘zlarining sinonimi desak ham bo‘ladi. Mazkur misralarda alam va g‘am o‘zaro sinonim bo‘lsa ham, shoir ularni alohida keltirish orqali semantikasida farqlanish borligiga ishora qiladi. Jumladan, alam – biror ish bo‘lib o‘tgandan so‘ng ko‘ngilda qoladigan g‘ashlik, rashk,



nafrat kabilarni anglatsa, g'am so'zi nisbatan kengroq ma'noda "tashvish", "hayot mashaqqatlari", "kundalik muammolar"ni bildiradi.

Ruhingda safo-yu, taningda mador,
Umidxbaxsh qo'shiqlar kuylaganmisan?
O'sha payt, o'sha on hech ko'rsa bir bor,
Chinorni Kim ekkan - o'ylaganmisan?

Sinonimlar - o'sha payt va o'sha on so'zlari. Biror voqeahodisalarning bir zumda, tasodifan sodir bo'lish degani. Sinonimlarni ketma ket keltirish orqali ijodkor mazmunni kuchaytirish, vaqtga urg'u berishga intilgan. Bunda o'sha so'zining takrori ham muhim ahamiyatga ega.

Turibman qo'limda qadah shu palla,
Demak, jom so'zimni aytmasam bo'lmas.
Sizga baxt tilashim mumkin baralla,
Lekin baxtli qilish qo'limdan kelmas.
("Qadah")

Sinonimlar - qadah va jom so'zlari. Ichish uchun mo'ljallangan idish. Yuqoridagi misralarda qo'llangan jom so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan. Bu yerda shoir sinonimlarni qo'llashda tarixiy qatlamdagi so'zlarga murojaat qilgan. Natijada misralar mumtoz adabiy an'analar ruhini o'zida aks ettirgan. Jom so'zi tasavvufiy leksikada qalbni bildiradi. Unga quyilgan may esa ishq demakdir. Shu yo'l bilan ijodkor qadah so'ziga ham ishq, muhabbat, oqibat tushunchalarini singdirishga harakat qilgan.

Yuqorida keltirilgan misollardan shuni ko'rish mumkinki, sinonim bo'lib kelayotgan so'zlar she'riy misralarning ta'sirchanligi, jozibadorligini oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish - Toshkent: Sharq, 2010. - 175 b.
2. Mengliyev B, Tojiyeva G. Tilshunoslikka kirish - Qarshi, 2007. - 173 b.
3. Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili - Toshkent: O'qituvchi, 2003. - 294 b.
4. Sayfullayeva R. Tilshunoslik - Toshkent, 2010. - 403 b.



5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili - Toshkent: Talqin, 2005. - 271 b.
6. Maktab darsliklari. (5- 10- sinflar). Mahmudov N, Nurmonov A, Sobirov A, Qodirov V, Jo‘raboyeva Z. 5-sinf Ona tili darsligi - Toshkent: Ma’naviyat, 2015. - 218 b.
7. Mahmudov N, Sobirov A, Odilov Y, Ziyodullayeva G. 10-sinf Ona tili darsligi - Toshkent: O‘zbekiston ilmiy ensiklopediyasi, 2017. - 109 b.
8. Rasulova N. Ona tili va adabiyot
9. Oripov A. Tanlangan asarlar 2 - Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2016. - 78 b.



SAID AHMADNING HAJVIY ASARLARIDA QO‘LLANGAN FRAZELOGIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Jahongirova Ruxsora

Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iboralarning leksik-semantik xususiyatlari Said Ahmad hajviy asarlari misolida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, A.Mamatov, lingvokulturologiya, Said Ahmad, til, madaniyat

Annotation: In this article linguistic and lexical-semantic features of expressions are analyzed on the example of Said Ahmad comic stories

Keywords: phraseologism, A.Mamatov, linguaculturalogy, Said Ahmad, language, culture

Аннотация: В данной статье лексико-семантические особенности выражения анализируются на примере комических рассказов Саида Ахмеда

Ключевое слова: фразеологизм, А.Маматов, лингвокультурология, Саид Ахмед, язык, культура.

Frazeologiya (gr.phrasis- ifoda, logos- ta'limot) atamasi 2 ma'noda ishlatiladi:

- 1) tilning frazeologik tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi;
- 2) shu tilning frazeologik majmuyi¹¹⁶.

Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq leksema ko'rinishining birikuvidan tarkib topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega lisoniy birlik frazeologizm deyiladi. Frazeologizmlar inson ongiga oddiy jumladan ko'ra tez ta'sir qiladi

Tilshunos A.Mamatov ilmiy izlanishlarida quyidagi fikrlarni aytgan edi: «Frazeologizmlar ya'ni bu yerda baxt, sevgi, ajablanish, istehzo, nafratlanish, qiziqish, xavotir; bu yerda insonning to'g'ri so'zligi, iroda kuchli, halollik, oliyjanoblik, aql va chanqoqlik, harakatchanlik, qaysarlik, ahmoqlik, sergaplik, xasislik, badjahllik, ya'ni insonning barcha salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjud; bu yerda o'xshashlik va farq, boshlanish va tugash,

¹¹⁶ Sayfullayeva R. Mengliyev B., Boqiyeva H., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. " Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent- 2009.



o‘zlik va shunga o‘xshash tushunchalarning tavsifi ifoda etiladi va shu orqali bizga olamning yaxlit frazeologik tabiati ochib beriladi”¹¹⁷.

Quyida o‘zbek adabiyotining zabardast vakili, Oybekning psixologik tasvir mahorati, Abdulla Qahhorning teran va ixcham fikrlash qobiliyati, G‘afur G‘ulom yumorini o‘zida mujassam etgan yozuvchi Said Ahmadning hajviy asarlarida frazeologizmlar (iboralar)ning qo‘llanishi orqali o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan lingvokulturologik ma‘nolarni ko‘rib chiqamiz. Masalan,

«Qovoq-tumshug‘imni osiltirib o‘rnimdan turdim. Bir hisobda dadamning uxlayotgani menga juda yaxshi bo‘ldi («Dadamning o‘rtog‘i» hikoyasi)¹¹⁸.

Ushbu gapda «qovoq-tumshug‘ini osiltirib» iborasi xafa bo‘lib ma‘nosini ifodalagan¹¹⁹.

– Bu qanaqasi sirkang suv ko‘tarmaydigan bo‘lib qopti, – deyishdi». («Chuchvara») hikoyasi)

Bu keltirilgan misolda. «sirkasi suv ko‘tarmaydigan» iborasi qo‘llangan va gap ko‘tarmaydigan, tanqidga chidamaydigan ma‘nolarni bildirgan

«Yegan go‘sh-t-yog‘laring ko‘r qiladi hali seni, shuncha sovg‘a-salomlarni ham bilmading! – deya ko‘nglidan o‘tkazdi («Uzun til» hikoyasi). Keltirilgan misolda «ko‘nglidan o‘tkazmoq» iborasi o‘ylamoq ma‘nosini anglatgan.

«Bolaginamga ega chiqib burnidan ip o‘tkazib oldi dog‘uli». («Hasrat» hikoyasi). Ushbu parchada «Burnidan ip o‘tkazmoq» iborasi *bo‘shligidan foydalanib hukmini o‘tkazmoq* ma‘nosida kelgan.

– Buni qarang-a to‘rt yil ham ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketibdi. («Nomi yo‘q to‘y» hikoyasi)

«Ko‘z ochib yumguncha» – juda qisqa fursatda.

«Normativ qo‘li ochiq, mard odam. Qorxatda aytilgan jami taomlarni birovdan qarz ko‘tarib bo‘lsa ham pishirish mumkin.»(Go‘sh-t-zarari haqida).

«Qo‘li ochiq – saxiy

¹¹⁷ Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019.

¹¹⁸ Said Ahmad. Tanlangan asarlar – Toshkent, 2009

¹¹⁹ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati –Toshkent: O‘qituvchi, 1978.



«Pilla xususida tili qisiqlik joyim yo‘q. Planni bir yuz o‘n, bir yuz o‘n bir prosent qilib qo‘yganman».

Tili qisiq – hech narsa deyolmaydigan, qarshi gapira olmaydigan.

«Zalda g'ala-g'ovur gap boshlandi.Ustozning gaplaridan ensasi qotib o‘tirgan Xodivoy rais «shaxsiyatga» tegilmasin deb qo‘ydi. («Xodivoy»)

«Ensasi qotmoq» – ranjib, noxush bo‘lmoq.

«Ular ustozning to‘y qilishini ko‘zlari to‘rt bo‘lib kirib turishgan ekan. Xat kelishi bilan yo‘lga chiqishdi. («Karnaychining to‘yi» hikoyasi)

Parchada keltirilgan «ko‘zlari to‘rt bo‘lmoq» iborasi intizor bo‘lmoq ma‘nosini anglatgan.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar tilimiz boyligi. Ular badiiy asarda kishiga oddiy jummalardan ko‘ra tez ta’sir qiladi va asarning badiiy qiymatini oshiradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R. Mengliyev B., Boqiyeva H.,Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
2. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika.– Toshkent: Noshir, 2019.
3. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2009
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.– Toshkent: O‘qituvchi. 1978.



MAHORAT PILLAPOYALARI

Xabibullayeva Nafisa

NamDU Filologiya fakulteti O‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

E-mail: nafisakhabibullaeva04@gmail.com

Umidjon Qo‘ziyev

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek lirikasining yorqin vakillaridan biri, poetik hamda drammatik asarlari bilan muxlislari qalbidan munosib o‘rin egallagan otashnafas shoir Usmon Nosirning she‘riyat dunyosiga ilk qadamlari hamda murakkab hayoti haqida ma‘lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Samarqand, Namangan, “Sanoyi nafisa”, Ali Muhsin, Muxtor Muhammadiy, “Bizning ko‘zgi”, “Yangi yo‘l”, Musa Jalil.*

Абстракт: *В данной статье представлена информация о первых шагах в мир поэзии и непростой жизни Усмана Насира – одного из ярчайших представителей узбекской лирики, завоевавшего достойное место в сердцах своих поклонников своими поэтическими и драматическими произведениями.*

Ключевые слова: *Самарканд, Наманган, «Санаи нафиса», Али Мухсин, Мухтар Мохаммади, «Наш зеркало», «Новая дорога», Муса Джалиль.*

Abstract: *This article provides information about the first steps in the world of poetry and the complicated life of Osman Nasir, one of the bright representatives of Uzbek lyric poetry, who has won a worthy place in the hearts of his fans with his poetic and dramatic works.*

Key words: *Samarkand, Namangan, “Sanaai nafeesa”, Ali Muhsin, Mukhtar Mohammadi, “Our Mirror”, “The New Road”, Musa Jalil.*

Insonning kamolotga erishuvida uni o‘rab turgan muhit, oila tarbiyasi, ustozlarning o‘rni muhim. “Tun qancha qaro bo‘lsa, Oy shuncha yorug‘” deganlaridek, o‘zbek adabiyotida eng mashhur va atoqli adiblarning bolaligi mashaqqatli va qorong‘u ibtidolardan boshlanadi.

Bayrog‘imsan yo‘limda har vaqt



O, hayotim – achchiq tajriba.

Kim qiynalsa, tilak hajrida

Uni kutar saodat va baxt!

(“Qora satrlar”)

Hamid Olimjon, Usmon Nosir, Erkin Vohidov kabi ijodkorlar o‘z bolaliklarini eslar ekanlar, iqtisodiy qiyinchilik, urushning ayanchli oqibatlari zalvoridan boychechakdek yorib chiqib, yorug‘likka chiqqanlarini aytadilar. O‘z xotiralarida maktab muhiti, to‘garaklarni eslab, shu kunlarga yetib kelishida ustozlar tarbiyasining ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar.

Biz qalamga olmoqchi bo‘lgan Usmon Nosirning taqdiri ham Namanganning tor va “chuqur” ko‘chalaridan boshlanadi:

“Esingdami g‘arib Ona,

U kunlarning zahri...”

Yosh Usmon ilm izlab Samarqanddagi internatda o‘qir ekan, 1927-yilda “Sanoyi nafisa” to‘garagiga qatnashib, she’rlar mashq qila boshladi. To‘garakka garchand Ali Muhsin yetakchilik qilgan bo‘lsa-da, uning asl rahbari Muxtor Muhammadiy edi.

Qora satrlar

Keldim, yana yodimga tushdi

O, shaharim, o‘sgan yerlarim.

Xayol yana qush kabi uchdi,

Yana seni kuylar she’rlarim...

Yig‘lab o‘tardim ko‘chalardan;

Ko‘z yoshimni shimgan yer guvoh.

Topib kelib, tun kechalardan

Internatga bermadingmi, oh?

Bu shoirlarning ijodiy o‘shida “Bizning ko‘zgi” deb nomlangan maktab devoriy gazetasi muhim omillardan biri bo‘lgan. Keyinchalik 50 nusxadan iborat jurnal tarzida tarqatilgan bu qo‘lyozma nashrda talabalar, shoir, adib, jurnalist, rassom va xattot sifatida ishtirok etganlar.



1927-yilda Qo‘qon shahar xotin-qizlar muxbirlarining yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Shu munosabat bilan “Bizning ko‘zgi” devoriy gazetasida maktab talabalarining she‘r, ocherk va maqolalari bosildi. Ular orasida Usmon Nosirning ham “Haqiqat qalami” degan she‘ri bor edi. Keyinchalik Muxtor Muhammadiyning tashabbusi bilan bu she‘r “Bizning ko‘zgi” jurnalining 1-sonida, so‘ng “Yangi yo‘l” jurnalining 8-sonida qayta bosildi. Ushbu she‘r adabiyotshunoslar tomonidan Usmon Nosirning ilk ijod namunasi sifatida baholanadi. So‘nggi nashr tufayli Usmon Nosir ijodining bu dastlabki mashqlaridan biri bizgacha yetib kelgan.

Mana, o‘sha she‘r:

Haqiqat qalami

(Muxbirlarga bag‘ishlab)

Qo‘llarda tinmay o‘ynar

Haqiqatchi qalaming.

Umid kuyini tinglar,

Qalbingda yo‘q alaming.

Haqiqatni yozasan,

Borliqni sen kezasan,

Zolim ko‘nglin uzasan,

Erkin yo‘llar chizasan.

Qalamingda zo‘r umid

Har vaqt chaq nab toshadir.

Ko‘nglingdagi zo‘r belgi

Istak tog‘in oshadir.

Usmon Nosir ijodining dastlabki tadqiqotchisi Abubakir Rajabiy zamondoshlarining xotiralariga tayanib, “Bizning ko‘zgi” qo‘lyozma gazetasi va jurnalida yosh shoirning “Paxtakor”, “Keng yo‘lda”, “Komsomol xati”, “1 May”, “Bahor” kabi ilk she‘rlari haqida ma‘lumot bergan. Bu sanoqdagi she‘rlardan faqat “Paxtakor” sarlavhali “adabiy montaj”gina



keyinchalik Usmon Nosirning “Quyosh bilan suhbat” to‘plamida nashr etilgan va saqlanib qolgan.

Usmon Nosir dastlabki mashqlariga “Usmon” deb imzo qo‘ydi. Ammo Usmon Nosirning ism-sharifi ham shoirona tahrirni talab etardi. Buni sezgan Muxtor Muhammadiy unga “Usmon Nosiriy” degan shoirona va zarifona taxallus hadya etdi. O‘sha yillarda shoir ana shu taxallus bilan she‘riyat muxlislari o‘rtasida e‘tibor qozona boshladi.

Usmon nosir bolaligidan sho‘x, bir joyda ko‘p o‘tirolmaydigan, quvnoq bola edi. Uning bolalik xotiralarini yodga olib, Amin Umariy shunday deydi: “Usmon Nosir serqahqaha, tinib-tinchimas, hazil-mutoyibaga o‘ch bo‘lib, o‘zi ham, she‘rlari ham toshni toshga urib, gupurib oquvchi sho‘x anhorni eslatar edi”. Ehtimol, uning shu fe‘l-atvori yaqin kelajak hayotida uni kutib turgan, yorug‘ligidan ayiradigan kulfatlarni yengib o‘tishi uchun qo‘l kelgandir.

Shirin bo‘ldi hayot iqlimi
Haqqim bilan tug‘ilganimdan.
Sho‘xlik kutib, quyilganimdan,
Rosa tanib oldim aqlimni.

O, quyulish- achchiq tajriba!
Chaqirasan, turib “ho” deyman,
Chunki kelajagim hajrida
Men umrimni yaxshi taniyman!

1929-yil ko‘klami yoz oylari bilan ro‘baro‘ kelgan kunlarda Usmon Nosir sinfdosh do‘stlari bilan birga ikkinchi bosqich o‘zbek maktabini tugatdi. Muallimlarni mamnun qilgan hol ular to‘qqiz yillik maktabning ilk bitiruvchilari edi. Qolaversa, bitiruvchilarning aksari chin iste‘dod egasi ekanligi, yaqin kelajakda el-yurt uchun ardoqli kishilar bo‘lib yetishishi mumkin bo‘lgan insonlar ekanligi quvonarli hol edi. Shu tufayli bitiruvchilarga nisbatan hurmat va e‘tibor ziyoda bo‘ldi. E‘tirofning ilk namunasi sifatida bir guruh bitiruvchilar Abdulla Qodiriy rahbarligida Leningradga ijodiy safar qilishdi. Bu safar shoir ijodida o‘chmas iz qoldirgan, desak yanglishmagan bo‘lamiz.



Ta'zim

A.S.Pushkinga

Teran so'z ummoning ichra g'arq bo'lib,

Arang chiqa oldim she'riy qirg'oqqa.

Yoniq satrlarda nurlangan ko'zim

Ravshan boqayotir yiroq-yiroqqa.

Yangidan ko'kardi fikr – ruhimda

Hidi yo'q, unutilgan qurigan chechak.

Goho ko'rinadi go'zal Tatyayang

Bizning xonamizda bo'lib kelinchak.

E. Sheminzodaning yozishicha, u Moskvaga borgandan keyin dastlabki uch oy vaqtini va undan keyin ham bo'sh vaqtlarini nashriyot, teatr va ko'rgazmalarda o'tkazgan. U shu yerda Musa Jalil bilan tanishib, muzey, konsert, kitob do'konlariga birga borgan. Shunday qilib, Usmon Nosir Moskvada istiqomat qilar ekan, Musa Jalil kabi qardosh yosh shoir va yozuvchilar bilan ko'proq ijodiy muloqotda bo'ldi.

Balki, chindan ham, biri Stalin, ikkinchisi Gitlarning o'lim lageriga tushgan va butun umri azob-uqubatda o'tgan bu ikki navqiron yigitning Moskvada uchrashib do'stlashishi Allohning irodasi bilan yuz bergandir...

Moskvada kechgan bir yil izziz o'tishi mumkin emas edi. U Qo'qonga qaytgach, Mayakovskiy ruhida sarbast she'rlar yozdi; shahar ekranlariga chiqqan yangi filmlarni kuzatib bordi; Hamza nomidagi mahalliy teatr repertuaridagi biror spektaklni ham qoldirmay ko'rib ular muhokamasida faol qatnashdi.

Goho raqs etarlar qarshimda turib

Jilvakor, husndor cherkas qizlari.

Xullas, aslo o'chmas bo'lib qoldilar

Lirikaning qalbimga solgan izlari.



Usmon Nosir, o‘z tabiatiga ko‘ra, lirik shoir edi. Lirik shoirlar esa bamisoli bir rubob bo‘ladilar. Ba‘zilari hamisha baxmal g‘ilof ichida; ahyon-ahyondagina undan olinib, sayray boshlaydi. Boshqalari esa hech qachon g‘ilof ichiga tushmaydi. Bunday rubobning torlari doimo sayragani-sayragan. Usmon Nosir ana shunday rubob edi. Lekin u ulkan iste’dodga ham ega bo‘lganligi sababli epik she’riyatda ham javlon urishi, dramaturgiyada ham begonasiramasligi tabiiy. U qisqa ijodiy hayoti davomida shunday qildi ham. She’riyat mangu go‘zallik va nafosat timsoli sifatida uning mehr-muhabbatini ohanrabo yanglig‘ o‘ziga torta boshladi.

Shoir lirikaga murojaat etib, yozadi:

Sen shunday baxtliki,

Shunday baxtliki,

Yetilding va to‘lding.

Tug‘ishgan

Singlimga

Hurmatim, bermaganimni:

Izzatim,

Ishqim, mehrimni

Senga beribmanki,

O‘ynab kulsin, deb.

Yurtimning nayini

Uzmay suzsın, deb.

Usmon Nosir “Yangi Farg‘ona” ro‘znomasining 1931-yilning 26-dekabr sonida avtobiografik ruhdagi bir she’rini e‘lon qiladi.

Qizig‘i shundaki, bu she’r an’anaviy sarlavhaga ega emas. Lekin unga ilova qilingan “Namangon, Tanhogo‘r mahalla, yetimligimning hamdardlari mahallasi. O‘rtoqlaringa tegsin. Usmon Nosir”, degan telegrammabop so‘zlar she’rning ayni paytda sarlavhasi ham bo‘lib xizmat etgan. Bu sarlavha-bag‘ishlovdan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, Namangan shahrining



shoir tug‘ilgan manzili 30-yillarning o‘rtalariga qadar Tanhogo‘r mahalla deb atalgan. Usmon Nosirning yetimlik yillari shu mahallada kechgan.

She‘r quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Boraman men sizga, qardoshlar,
Qurollanib yangi kuch bilan.
Zamon ancha ibrat berdi menga,
Ko‘zni ochdim zo‘r kurash bilan.

Qaytalabdan tug‘dirdilar meni,
O‘t singari o‘ynar yuragim.
O‘t singari qiziq bilagim!

Usmon Nosir shu davrda Qo‘qonda ham, Namanganga borib ham, o‘z asarlari uchun yangi mavzular izladi, yangi qahramonlar topdi.

Mana bog‘im, mana, internat,
Hali hamon ochilar siren.
Bu yer menga, hayotimga kat
Bergan uchun ko‘rinar Shirin.

Men bu yerda birinchi daf‘a
Ikki so‘zni qofiya qildim.
Men bu yerda birinchi daf‘a
Ikki so‘zning o‘tida kuydim...

1933-yilda O‘zbekiston yozuvchilari o‘z tarixlari davomida birinchi marta qurultoyga yig‘ilishdi. Bu davrda, aniqrog‘i, 1932-yilning o‘zida Usmon Nosirning ketma-ket ikki she‘rlar to‘plami “Quyosh bilan suhbat” va “Safarbar satrlar” nomi bilan chop etilgan edi. Shoir o‘z ijodining ana shu ikki dastlabki samarasi bilan o‘sha yilning 1-iyulida O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zoligiga nomzod sifatida qabul qilinadi.



Usmon Nosir she'riyatni sevadi, ardoqlab va e'zozlab yuksaklarga ko'taradi. Ammo bu quv shoir o'z iste'dodining kuchini ham biladi. She'riyat uning qalbidan buloq yanglig' suzib chiqqanidagina go'zal bo'lishini sezadi va bunga ishonadi:

Buncha shirin ekan
So'zlaring sening,
Buncha ham hur yonar
Ko'zlaring sening.
Qalbdan entikadi
Har daming,go'zal –
Senga til berganda
She'rim har mahal!...

Usmon Nosirning so'lim she'rlari 1934-yildan e'tiboran yaratila boshladi. Ammo uning qalbidan 1933-yilda yozilgan “Monolog”, “Yurak”, “She'rim” singari gavharlar yo'q emas. Chindan ham, shu yillardan e'tiboran Usmon Nosir ismli kumush jilg'a tufayli o'zbek she'riyati yanada go'zallasha boshladi.

She'rim! Yana o'zing yaxshisan,
Boqqa kirsang gullar sharmanda.
Bir men emas, hayot shaxsisan,
Jonim kabi yashaysan manda...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmon Nosir. Kh-davron.uz elektron sayti.
2. Usmon Nosir “Tanlangan asarlar”. She'rlar, poemalar, tarjimalar, dramalar. T.: “O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti” 1959. 128 b.
3. Unutmas meni bog'im:She'rlar. Dostonlar va she'riy drama [So'zboshi E.Vohidovniki],–T.:Adabiyot va san'at nashriyoti,1988–304 b.
4. Nosir Usmon. Tanlangan asarlar 2 tomlik:–T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi,1960.



5. Karimov N. Usmon Nosir. Hayotiy lavhalar. Hujjatlar. Rivoyatlar. – T.: Sharq NMIU – 1993.208 b.



ВИТАМИНЫ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ОРГАНИЗМА ЧЕЛОВЕКА

Одилжоновна Озода Шухратжон кизи

Студент 4 курса, Английская филология, Нам.ГУ, Узбекистан

*Научный руководитель: Улухужаева Нозима Нарзуллахоновна, преподаватель
кафедры Физиологии, Нам.ГУ, Узбекистан*

Аннотация: *Статья о витаминах и их важности для человеческого организма представляет обзорную информацию о разнообразных видов витаминов, их роли в поддержании здоровья и нормального функционирования организма. В статье рассматриваются основные группы витаминов, их источники, необходимое количество для поддержания здоровья, а также последствия их дефицита и избытка. Обсуждаются основные функции каждого витамина, влияние на иммунную систему, обмен веществ, здоровье кожи, зрение, их роль в росте и развитии. Статья также подчеркивает важность сбалансированного питания и правильного употребления витаминов для поддержания оптимального здоровья и профилактики различных заболеваний.*

Ключевые слова: *Иммунная система, сбалансированное питание, обмен веществ, метаболизм, токсичность, анализ, продукты.*

Введение. Важная функция витаминов заключается в обеспечении нормального функционирования человеческого организма и поддержании его здоровья и жизнедеятельности. Витамины разнообразны и каждый из них выполняет специфические функции, необходимые для обеспечения оптимального состояния организма. Их роль в поддержании иммунитета, метаболических процессов, роста и развития непреходяще важна для нашего благополучия. Несмотря на то, что многие витамины человек способен синтезировать в ограниченных количествах, большинство из них необходимо получать из пищи. В данной статье мы рассмотрим основные виды витаминов, их функции в организме, а также значение правильного питания для поддержания оптимального уровня витаминов в организме человека. Витамины - сущности, которые требуются организму в небольших количествах и подразделяются на



жирорастворимые и водорастворимые. Среди ключевых факторов питания, несущих высокое значение для поддержания здоровья, энергии и долголетия человека, основное значение придается регулярному и полноценному поступлению организму всех необходимых микронутриентов, таких как витамины, минералы и микроэлементы[1].

Витамины необходимы организму в малых количествах из-за их высокой биологической активности. Человеческий организм либо не производит витамины, либо делает это в недостаточных количествах, поэтому необходимо получать их из пищи. Пища на клеточном уровне регулирует все процессы в человеческом организме, определяя возможность долгой и активной жизни либо наличие болезни и ослабления [2]. Недостаток витаминов приводит к нарушению обмена веществ и функционированию отдельных органов или систем организма. Прием химических препаратов не является заменой здорового питания, поскольку химические варианты лишены жизненной активности. Важность следует придавать исключительно тем веществам, которые содержатся в натуральных продуктах, так как химические аналоги лишены живой энергии. Отсутствие витаминов не должно быть допущено для поддержания здоровья и нормального обмена веществ [3].

Методы исследования В данной статье рассмотрим использование химических и биохимических методов для измерения уровня витаминов в биологических образцах, таких как крови или ткани.

Анализ и результаты исследования Существует несколько способов проверить уровень витаминов и минералов в организме:

1. *Анализ крови:* Врач может назначить анализ крови для измерения концентрации определенных витаминов (например, витамины D, B12) и минералов (например, железо, кальций).

2. *Тестирование мочи:* Некоторые витамины и минералы могут также быть измерены через анализ мочи, что дает представление о текущем уровне этих элементов в организме.



3. *Диагностические тесты:* Существуют специализированные тесты для проверки конкретных витаминов и минералов, доступные в лабораториях или предлагаемые врачами.

4. *Самодиагностика:* Некоторые аптеки предлагают тесты на витамины и минералы для самостоятельного использования, но перед использованием стоит проконсультироваться с врачом.

Исходя из данного способа мы проверили анализ крови у студентов на Витамин А. При анализе крови на витамин А у студентов лаборатория провела измерение уровня ретинола (активной формы витамина А) в крови. Это была частью общего анализа крови или специфического теста на витамин А. Измеряя, уровня витамина А в крови это было важно для оценки его содержания в организме. Недостаток витамина А могло привести к проблемам со зрением, иммунной системой и кожей. Однако, избыточное потребление Витамина А также могло быть вредным для здоровья, поэтому контроль уровня этого витамина был важен. Этот вид анализа помогло нам оценить статус витамина А у студентов и, при необходимости, корректирование их питание или предоставить рекомендации для поддержания оптимального уровня этого витамина в организме. У некоторых студентов им сообщили избыточное употребление Витамина А, но после беседы с врачом терапевтом им дали советы и рекомендация исходя из общего анализа крови.

И подвели итог то что у каждого витамина есть своя функция в организме, также недостаток витаминов может вызвать разнообразные проблемы со здоровьем и ниже дана общий обзор основных витаминов

Витамины	Роль в организме	Недостаток	Продукты для употребление
А	Эластичность кожи и волос, способствование роста и регенерация	Снижение иммунитета, ухудшение зрения, шелушение кожи.	Морковь, брокколи, печень, молочные продукты.



	тканей		
B1,B2,B12	Регуляция циркуляции крови и кровотока, гладкая мускулатура,	Плохая память, бессонница, дерматит, тошнота, нарушения координации движение, отставание в росте.	Орехи, семена, горох, овсянка, молоко, йогурт, яйца, шпинат, грибы, мясо, морепродукты.
C	Стимулирует образование белка коллагена	Кровотечение десен, выпадение зубов, разрушение зубных эмаль.	Цитрусовые, киви, клубника, капуста, перец.
D	Обмен кальция и фосфора	Рахит, кариес зубов	Рыбий жир, трески, яйца, сыр.

Заклучение:

В заключении статьи о витаминах и их значении для организма человека можно подчеркнуть следующее:

1. Важность сбалансированного питания: Указать на необходимость разнообразного потребления пищи, богатой различными витаминами для поддержания здоровья.

2. Профилактика дефицитных состояний: Подчеркнуть значимость предотвращения дефицита витаминов через правильное питание или прием витаминных комплексов.

3. Влияние на здоровье: Описать связь между витаминами и поддержанием нормальной функции организма, включая поддержку иммунной системы, здоровья кожи, зрения и других важных аспектов.

4. Необходимость дальнейших исследований: Указать на потребность в дальнейших исследованиях для более полного понимания роли витаминов в поддержании здоровья и лечении различных заболеваний.



5. Заключительное утверждение: Подытожить основные выводы статьи, подчеркнуть важность понимания роли витаминов в жизни человека и их влияния на общее здоровье.

Список использованной литературы:

1. Арсеньева Т.П., Баранова И.В Основные вещества для обогащения продуктов питания // Пищевая промышленность. 2007. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnyye-veschestva-dlya-obogascheniya-produktov-pitaniya> (дата обращения: 15.12.2023).

2. Головешкина Е. В. Витамины и их роль в организме человека //Научные исследования и разработки студентов. – 2017. – С. 11-13.

3. Захарченко Анжелика Евгеньевна, Лазовская Виолетта Владимировна, Поддубная Полина Валентиновна ВИТАМИНЫ И ИХ РОЛЬ В ОБМЕНЕ ВЕЩЕСТВ // E-Scio. 2021. №2 (53). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vitaminy-i-ih-rol-v-obmene-veschestv> (дата обращения: 16.12.2023).



GEOGRAFIYA FANLARI

11.00.00

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАУКИ

GEOGRAPHY SCIENCES

**FOYDALI QAZILMA BOYLIKLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNI QAZIB
OLISH JARAYONIDAGI SALBIY OQIBATLAR**

Abdulxoshimova Feruza Dilshodjon qizi

Namangan davlat unversiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Geografiya yo‘nalishi GEO-AU-22 guruh talabasi

Kasansay3@gmail.com

+998930438625

***Annotatsiya:** Foydali qazilma boyliklarimizdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish va ularni qazib olish jarayonida atrof muhitga ta’sir etadigan salbiy oqibatlar va ularni bartaraf etish yo‘llari.*

***Kalit so‘zlari:** Neft koni, ko‘mir koni, kimyo, qazib olish, oltin konlar, tog‘-kon, tuproq, atmosfera, o‘simlik, hayvon, tuproq ifloslanishi, karbonat angidrid, metan va uglerod oksidi, moddalar, atrof-muhit, ekalogiya, tuproq eroziyasi, tabiiy boylik.*

Hozirgi kunda insoniyat katta miqdorda foydali qazilmalarni iste’mol qilmoqda. Dunyo bo‘yicha hozirgi kunda 42 mingga yaqin foydali qazilmalarni qazib oluvchi konchilik korxonalari ishlab turibdi. Yurtimizda yer usti va yer osti qazilma boyliklardan keng qamrovda foydalanib kelmoqdamiz. Mamlakatimiz hududida 1895 ta dan ortiq foydali qazilma manbalari ochilgan, shulardan 235 tasi uglevodorotli, 151 tasi metalli, 7 tasi ko‘mirli, 55 tasi tog‘ kon, 34 tasi tog‘ kimyo, 30 tasi yarim qimmatbaho ashyoli, 764 tasi turli yo‘nalishdagi qurulish materialli va 619 tasi yer osti mineral suvidir.

Shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston oltin zaxirasi bo‘yicha jahonda 10-o‘rinda qazib olish bo‘yicha esa 11-o‘rinda turadi. Oltin konlari, asosan, Qizilqumda keng tarqalgan bular, Muruntog‘, Metenboy, Chuqurquduq, Ajibugut, Omontog‘, Ko‘kpatas va boshqa bir nechta oltin konlari mavjud. Ularni qazib olishda mamlakatimizda turli xil usullardan foydalanib



kelinmoqda. Biz bilamizki, oltin konlarida qazish jarayonida oltin mahsulotini boshqa bir turli xil kimyoviy moddalardan ajratib olish jarayoni mashaqatli hisoblanadi va deyarli oltin konlaridan qazib olingan mahsulotdan keraksiz qismi kamdan kam chiqadi.

Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida yer yuzasida juda katta o'Ichamdagi bo'shliqlar, o'yiqlar, surilmalar, o'pirilish zonalari vujudga keladi. Tog'-kon sanoati tuproqning buzilishi, suv va havoning ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, tog'-kon sanoati zaharli va xavfli chiqindilarni hosil qilishi mumkin, bu esa konlar yaqinida yashovchi odamlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holatlar bizning yurtimizdan tashqari boshqa davlatlarda ham ko'pincha, sanoati tog'-kon sanoatiga qaratilgan davlatlarda kuzatiladi. Masalan, Braziliyada tog'-kon sanoati muhim iqtisodiy faoliyatdir, ammo u bir qator ekologik va ijtimoiy muammolar uchun ham javobgardir.

Ushbu maqolada siz konchilikning atrof-muhitga ta'siri va u biologik xilma-xillik va odamlarning hayot sifatiga qanday ta'sir qilishi haqida ko'proq bilib olasiz. Shuningdek, biz konchilikning atrof-muhit va odamlar salomatligiga salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun qanday choralar ko'rish mumkinligini muhokama qilamiz.

Konchilikning tuproqqa ta'siri. Tuproq eroziyasi. Kon qazib olish, ayniqsa, ochiq joylarda olib borilganda, tuproq eroziyasiga olib kelishi mumkin. Mineral qazib olish jarayonida katta maydonlar qazib olinadi, bu esa ko'p miqdorda ochiq tuproqqa olib kelishi mumkin. O'simlik qoplamini olib tashlash ham tuproq eroziyasini kuchaytirishi mumkin, chunki o'simlik ildizlari tuproqni joyida ushlab turishga yordam beradi. Tuproq eroziyasi tuproq sifati va o'simliklarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tuproqni yo'qotish tuproq unumdorligini pasayishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'simliklarning o'sishiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, tuproq eroziyasi daryolar va daryolarda cho'kindilarga olib kelishi mumkin, bu esa suv sifatiga ta'sir qiladi.

Tuproqning ifloslanishi Shuningdek, qazib olish tuproqning ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Mineral qazib olish jarayonida minerallarni jinsdan ajratish uchun siyanid va sulfat kislota kabi zaharli kimyoviy moddalar ishlatilishi mumkin. Ushbu kimyoviy moddalar tuproqqa kirib, uni ifloslantirishi mumkin. Tuproqning ifloslanishi o'simliklar va



hayvonlarning sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Qo‘rg‘oshin va simob kabi ba‘zi og‘ir metallar zaharli bo‘lib, o‘simliklar va hayvonlarning to‘qimalarida to‘planishi mumkin. Bu nevrologik kasalliklar va reproduktiv tizimning shikastlanishi kabi sog‘liq muammolariga olib kelishi mumkin. Kon qazib olishning tuproqqa salbiy ta‘sirini minimallashtirish uchun tog‘-kon kompaniyalari degradatsiyaga uchragan hududlarni qayta tiklash, foydaliroq va kamroq ifloslantiruvchi kon usullaridan foydalanish kabi barqaror amaliyotlarni qo‘llashlari muhimdir.

Havo sifatiga ta‘siri. Kon qazish havo sifatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ifloslantiruvchi moddalar emissiyasi foydali qazilmalarni qazib olish, qayta ishlash va tashish jarayonida chiqarilishi mumkin. Bu ifloslantiruvchi moddalar zarrachalar, gazlar, bug‘lar va hidlarni o‘z ichiga olishi mumkin, ular inson salomatligi va atrof-muhitga ta‘sir qiladi.

Ifloslantiruvchi moddalar emissiyasi. Kon qazish jarayonida ifloslantiruvchi moddalar emissiyasi bir necha shakllarda yuzaga kelishi mumkin. Masalan, toshlar va minerallarning portlashi havoga chang va zarralarni chiqarishi mumkin. Yuk mashinalari va ekskavatorlar kabi og‘ir uskunalardan foydalanish chiqindi gazlar va mayda zarralarni chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, yer osti qazib olish karbonat angidrid, metan va uglerod oksidi kabi xavfli gazlarni chiqarishi mumkin.

Atmosferaning ifloslanishi. Atmosferaning ifloslanishi konchilikning havo sifatiga asosiy ta‘siridan biridir. Tog‘-kon sanoati global isishga hissa qo‘shadigan karbonat angidrid va metan kabi issiqxona gazlarini chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, qazib olish oltingugurt dioksidi, azot oksidi va mayda zarralar kabi inson salomatligiga ta‘sir qiladigan ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishi mumkin. Havoning ifloslanishi inson salomatligiga bir necha jihatdan ta‘sir qilishi mumkin. Yuqori darajadagi ifloslantiruvchi moddalarga ta‘sir qilish astma va bronxit kabi nafas olish kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, havoning ifloslanishi yurak kasalliklari va o‘pka saratoni xavfini oshirishi mumkin.

Xulosa. Men bu maqolani yozish jarayonida Tog‘-kon sanoatida qazilma boyliklardan foydalanish va ularni qazib olish jarayonidagi turli xil tashqi muhitga va ekalogiyaga ta‘siri va insoniyat salomatligi uchun ta‘sir jihatlarini o‘rgandim. Biz tabiiy boyliklarimizdan qazib olishda va bundan keyin ham qazishda isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik va ularni kelajak



avlodlarimizga ham yetib borishini ta'minlashimiz zarur. Ekologiya va atrof muhitga ta'sirsiz va ekologik tozza energiya manbalaridan foydalanishni ustivor maqsadga aylantirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Атроф-мухит мухофазаси ва шаҳар климатологияси» фанидан МАЪРУЗАЛАР МАТНИ Тошкент-2010 й
2. A.Z.UMAROV “MINERALOGIYA VA GEOKIMYO” Toshkent 2019.
3. Экологик таълим йўналишлари учун қуланма ТОШКЕНТ – “ЎЗБЕКИСТО” - 2002
4. И.А.Ҳасанов, П.Н.Ғуломов, А.А.Қаюмов “Ўзбекистон табиий географияси” Тошкент-2009
5. О‘.Q.Abdunazarov, М.Т.Mirakmatov, Sh.M.Sharipov. R. A .Ibragimova. А.А.Ibraimova. “UMUMIY TABIIY GEOGRAFIYA” TOSHKENT 2019.



ҚУРУҚЛИКДАГИ “ОРОЛ”ЛАР ЁХУД МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ АНКЛАВ/ЭКСКЛАВ ХУДУДЛАР

Нуъмонов Неъматилло

НамДУ магистранти

Аннотация: *Мазкур мақолада Марказий Осиёда шаклланган анклав ҳудудларнинг географик ва геосиёсий хусусиятлари таҳлил этилган, шунингдек, минтақада шаклланаётган интеграцион жараёнларнинг географик манзараси ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *анклав, эксклав, “геосиёсий орол”, делимитация, демаркация.*

Ҳозирги вақтда ер шарида 7,8 миллиардга яқин аҳоли истиқомат қилади[7]. Тоғ водийлари, дарёларнинг юқори оқимлари-ю дельталаридан то қумли саҳроларгача яшайди. Лекин қаерда бўлишидан қатъи назар, кишилар маълум сиёсий-маъмурий бирликка мансуб ҳудудда истиқомат қилади.

Жумладан, Марказий Осиё – ер юзининг бошқа ҳудудларидан географик ва геостратегик ўрнининг муҳимлиги, ядровий қуролга эга бўлган мамлакатларнинг манфаатлари тўқнашган ҳудудда жойлашгани, табиий ресурсларга бойлиги, бир-бирига яқин этномаданий келиб чиқишга мансуб этносларнинг консолидацияси ўлароқ яхлитликни ифода этувчи минтақалардан бири ҳисобланади[3, -Б. 515]. Минтақа ўз ичига Қозоғистон, Туркменистон, Ўзбекистон, Қирғизистон ва Тожикистонни олади. Мазкур минтақа яқин йилларгача низоли “қайноқ нуқта”лардан бири бўлиб келган. Бунга биринчи навбатда, собиқ тоталитар тузумининг миллий-ҳудудий чегараланиш давридаги хўжалик яхлитлигининг инобатга олинмагани ва у орқали келиб чиққан чегара муаммоларини мисол қилиб келтириш мумкин. Академик В.В.Бартольд таъкидлаганидек, Марказий Осиё ҳаётида миллий фарқлар катта рол ўйнамайди, яъни унинг умумийлиги яхлит хўжалик тизимининг шаклланишидадир [1, -Б. 8]. Бир бутун минтақани “миллат-давлат”ларга бўлиб юбориш эса ўзига хос негатив кўшничилик муносабатларининг шаклланишига замин яратди. Қолаверса, чегараланишда шундай ҳудудлар борки, маълум давлатнинг ҳудуди асосий давлатдан узилиб, бошқа давлат ичида қолиб кетган бўлиши мумкин. Бундай ҳудудларни анклав/экслав ҳудудлар деб



юритилади. Зеро, бунда у тегишлилигига кўра эксклав бўлса, жойлашувига кўра анклавдир[2]. Уларни оролларга ўхшатиш мумкин, фақат сувликда эмас – курукликда. Чунки уларга кириб-чиқиш ўраб турган давлат ихтиёрида бўлади ҳамда ўзида “геосиёсий орол”лик хусусиятини намоён этади.

Марказий Осиёда шундай ҳудудлар қаторига Тожикистоннинг Ўзбекистон ҳудудидаги Сарвак, Қирғизистондаги Ворух ва Ғарбий Қалъача (Қайрағоч); Ўзбекистоннинг Қирғизистондаги Сўх, Шимолий Сўх (Чўнғара ёки Қалъача), Шоҳимардон, Жангаил (Халмион ёки Шимолий Шоҳимардон); Қирғизистоннинг Ўзбекистондаги Барак анклав/эксклавларини мисол қилиб келтириш мумкин[4]. Мустақилликдан сўнг маълум сабабларга кўра, айниқса, Ўзбекистоннинг “ёпиқлик” касб этиши ушбу ҳудудлар бўйича бир қанча муаммоларни юзага келтирди. М., чегараларни миналаштириш, чегара постларини ёпиш, ташқи савдо-сотик муносабатларини чеклаш, мамлакатлараро транспорт тизимининг транзитлик хусусиятининг чекланиши ва бошқалар.

2016 йилдан эътиборан, Президент Ш.М.Мирзиёевнинг ташаббуси билан нафақат Ўзбекистон, балки бутун минтақа геосиёсий ҳаётида янги даврни бошланди ҳамда бунинг натижасида қўшни давлатлар билан муносабатлар фаоллашиб, минтақада ҳамкорлик ва дўстлик алоқалари яна умумийлик касб эта бошлади. Давлатлар ўртасидаги делимитация, демаркация ишлари амалга оширилиб, чегаралар эндиликда ажратиш эмас, боғлаш вазифасини бажармоқда. Хусусан, анклав/эксклавларга эркин кириб-чиқиш тизими йўлга қўйилди. Қирғизистон билан 14 та, Тожикистон билан 17 та чегара ўтказиш постлари ҳозирги вақтда фаолият кўрсатиши натижасида чегара олди ҳудудларида кунига 20-30 минг аҳоли миграцион жараёнларни амалга оширмоқда. Афғонистон, Туркманистон ва Қозоғистон билан ҳам чегаралар делимитация, демаркацияси бўйича келишувлар давом этмоқда. Чунончи, ушбу мамлакатлар билан низоли “қайноқ нуқта”лар деярли йўқ ҳисоби. Зеро, миллий-худудий чегараланиш даврида бу ҳудудларда делимитация табиий объектлар асосида амалга оширилган[5].

Хулоса. Минтақада узоқ йиллардан бери муаммоли ҳисобланган Ўрта тўқай (Қирғизистонга тўлиқ расмийлаштирилди), Каркидон (Ўзбекистонга тўлиқ



расмийлаштирилди) сув омборларидан фойдаланиш тартибга солинди; Барак анклави ўрнига Ўзбекистон-Қирғизистон ўртасида тенг миқдордаги ер алмашланиб, анклав муаммосига барҳам берилди [6]; Тожикистон билан чегаралар минасизлантирилиб, чегара олди алоқалари яхшиланди. Энг асосийси, минтақадаги анклав/эксclaveларнинг “орол”лигига тобора барҳам берилиб, Бенилюкс тажрибаси каби, ҳудуд умумий макон сифатида шаклланиб бормоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдуллаев О. Фарғона водийси: ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнлари / Бош муҳаррир: З. М. Акрамов. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2000. – Б. 292.
2. Винокуров Е.Ю. Теория анклавов [Монография]. - Калининград: "Терра Балтика", 2007. - стр. 342. - ISBN: 978-5-98777-015-3.
3. Jumakhanov Sh., Toshpulatov A. Geopolitical view of the Central Asian region: Uzbekistan's geographical location in the region and its relationship [Journal] // ISJ Theoretical & Applied Science / Chief Editor: Shevtsov Alexandr. – Philadelphia (The USA): Theoretical & Applied Science, November 11, 2019. № 11(79). – P. 515 – 519. – ISSN: 2308 – 4944. <http://t-science.org/axivDOI/2019/11-79.html>
4. Jumakhanov Sh.Z., Toshpulatov A.M. The enclave/exclave areas as a geographic category: problems and solutions. South Asian Academic Research Journal // Academicia / ed. Rai B. S.. - Jagadhri: "CDL College of Education", March 2020. - 10 : Vol. III. - p. 123. - ISBN: 2249-7137.
5. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3- jild [OTM uchun o‘quv qo‘llanma] / Mas’ul muharrir: A.Yaxshiyev. –Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2010. – P. 496. ISBN: 978-9943-00-584-6.
6. Toshpulatov A., Kakhkharova U. Uzbek-Kyrgyz relations: overcoming the problem of the Barak enclave / Novateur Publication’s JournalNX – A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal [Journal]. – Pune (India), 2020. Issue: 6, Volume: 6. – P. 33 – 37. ISSN: 2581-4230. 03.06.2020. <https://journalnx.com/journal-article/20151037>
7. World population. 25.05.2021. <https://www.wordmeteres.com>



KOINOTNING KENGAYIB BORISH NAZARIYASI: TARIXIY-GEOGRAFIK TAHLIL

Eshturdiyev Qosim Ahmad o'gli

Namangan davlat universiteti Geografiya yo'nalishi talabasi

Tel.: +998 (90) 071-64-00

E-mail: qosimeshturdiyev@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "Katta portlash", olamning paydo bo'lish va kengayish nazariyalari ochib berilgan. Qolaversa, astrofizik tadqiqotlar, XX asrning birinchi va ikkinchi yarmida koinotni o'rgangan olimlarning ilmiy izlanishlari haqida qisqacha bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *koinot, Xabbl qonuni, Eyneshteyn tenglamalari, Katta portlash, NASA, IPAC, mega parsek.*

THE THEORY OF THE EXPANSION OF THE UNIVERSE: A HISTORICAL- GEOGRAPHICAL ANALYSIS

Annotation: *In this article, the theories of the "Big Bang", the origin and expansion of the universe are revealed. In addition, astrophysical research, scientific research of scientists who studied the universe in the first and second half of the 20th century is briefly described.*

Keywords: *universe, Hubble's law, Eyneshtein equations, Big Bang, NASA, IPAC, mega parsek.*

ТЕОРИЯ РАСШИРЕНИЯ ВСЕЛЕННОЙ: ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация: *В данной статье раскрываются теории «Большого взрыва», происхождения и расширения Вселенной. Кроме того, кратко описаны астрофизические исследования, научные изыскания учёных, изучавших Вселенную в первой и второй половине 20 века.*

Ключевые слова: *вселенная, закон Хаббла, уравнения Эйнштейна, Большой взрыв, НАСА, IPAC, мега парсек.*



Kirish. Koinot – cheksiz borliq bo‘lib, minglab galaktikalarni o‘z ichiga oladi. Olimlar kengayib borayotgan koinot haqida gapirganida, ular “Katta portlash” bilan boshlanganidan beri o‘sib borayotganini anglatishini aytishadi. Bizdan tashqaridagi galaktikalar bizdan uzoqlashmoqda, eng uzoqda joylashganlari esa tezroq harakatlanmoqda. Bu shuni anglatadiki, siz qaysi galaktikada bo‘lishingizdan qat’i nazar, boshqa barcha galaktikalar sizdan uzoqlashadi. Biroq, galaktikalar kosmos bo‘ylab harakatlanmaydi. Boshqacha qilib aytganda, olamning markazi yo‘q; har bir jism boshqa har qanday borliqdan uzoqlashib boraveradi. Agar har million yorug‘lik yilida yoki undan ko‘proq vaqt oralig‘ida galaktikasi bo‘lgan fazo panjarasini tasavvur qilinsa, yetarli vaqt o‘tgandan so‘ng, bu to‘r shunday cho‘ziladiki, galaktikalar har ikki million yorug‘lik yiliga tarqaladi va hokazo. Bu esa mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada jadal amalga oshirishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Koinot eng kichik atomdan tortib eng katta galaktikagacha mavjud bo‘lgan hamma narsani o‘z ichiga oladi. Taxminan 13,7 milliard yil oldin Katta portlashda paydo bo‘lganidan beri u kengayib bormoqda va uning ko‘lami cheksiz bo‘lishi mumkin [1]. Koinotning biz uchun bilimga ega bo‘lgan qismi kuzatilishi mumkin bo‘lgan koinot deb ataladi, bu Yer atrofida yorug‘lik bizga etib borishga muvaffaq bo‘lgan hududdir. Kengayayotgan koinotni tushuntirish uchun mashhur o‘xshatishlardan biri koinotni mayiz non xamiri kabi tasavvur qilishdir¹²⁰.

Amerikalik astronom Edvin Xabbl 1925-yilda uzoqdagi galaktikalarning tezligi va ularning Yerdan uzoqligi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik borligini isbotlab, kuzatishlarni amalga oshiradi [3; 320-b]. Galaktikalarning Yerdan masofasiga mutanosib tezlikda uzoqlashishi haqidagi kuzatuv an’anaviy ravishda Xabbl qonuni¹²¹ sifatida tanilgan, ammo shuni ta’kidlash kerakki, 2018-yilda Xalqaro Astronomiya Ittifoqi (IAU) Xabbl nomini o‘zgartirishni tavsiya qilish uchun ovoz bergan.

¹²⁰ Non ko‘tariladi va kengayadi, mayizlar bir-biridan uzoqlashadi. Lekin ular hali ham xamirga yopishib turganicha bo‘ladi. Koinotga kelsak, u yerda biz ko‘ra olmaydigan jismlar bo‘lishi mumkin. Chunki ular shunchalik tez uzoqlashganki, ularning yorug‘ligi Yerga yetib kelmagan ham. Yaxshiyamki, tortishish kuchi mahalliy darajadagi narsalarni nazorat qiladi va o‘ziga tortib turadi

¹²¹ Xabbl qonuni – koinotning uzluksiz kengayishi xususiyatini ifodalovchi qonun; 1929-yilda E.Xabbl tomonidan taklif etilgan. Bu kengayishning eng oddiy modeli bolalar sharini puflaganda uning kattalashishidir. Bunda shar sirtidagi boshlang‘ich nuqtalar bir-biridan vaqt davomida uzoqlashib boradi. Kuzatuvchi shu nuqtalarning (galaktikalar to‘dasining) birida joylashgan, deb tushuntiriladi



Lemaitre qonuni, Xabbl va belgiyalik astronom Jorj Lemetrning zamonaviy kosmologiya rivojlanishiga qo‘shgan hissalarini e‘tirof etish uchun ushbu qonunni o‘zgartirishdan voz kechdi. Xabbl kosmik teleskopi Edvin Xabbl sharafiga nomlangan va tashqi galaktikalarning ko‘rinadigan retsessiya tezligini ularning masofasiga bog‘laydigan kosmik kengayish tezligini tavsiflovchi yagona raqam Xabbl doimiysi deb ataladi. 1930-yilda astronom Edvin Xabbl koinot kengayib borayotganini tasdiqladi, bu hodisani ruhoniy va astrofizik Jorj Lemaitre Albert Eynshteyn tenglamalari va nazariyasiga asoslanib, olamning kengayishi (Katta portlash) haqidagi tadqiqotida tasvirlagan umumiy nisbiylik nazariyasi edi. Xabbl qonuni ilm-fanda deyarli darhol tan olindi. Xususan, ushbu kashfiyot ahamiyatini Albert Eynshteyn juda yuqori baholagan edi. 1931-yilda Eynshteyn o‘z maqolalarining birida «Xabbl va Xyumansonning yangi kuzatishlari asosida qizilga siljish hodisasi, Koinotning umumiy strukturasi turg‘un emasligiga ishora qilmoqda», – deb yozgan edi.

Koinotning boshlanishi va “Katta portlash” nazariyasi haqida tushuntirish, uning qanday tugashi haqida gapirishdan ko‘ra osonroq bo‘lishi mumkin. Koinot abadiy davom etishi yoki “Katta portlash” senariysining teskarisi bo‘yicha u yo‘q bo‘lib ketishi mumkin, ammo bu juda uzoq kelajakda bo‘lib, u cheksiz bo‘lishi mumkin. Yaqin vaqtgacha kosmologlar (koinotni o‘rganuvchi olimlar) tortishish ta’siri tufayli koinotning kengayish tezligi sekinlashayotganini taxmin qilishdi. Biroq, hozirgi tadqiqotlar koinotning abadiyatgacha kengayishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Ammo tadqiqotlar davom etmoqda va uzoq galaktikalardagi o‘ta yangi yulduzlar va qorong‘u energiya deb ataladigan kuch koinotning mumkin bo‘lgan taqdirini o‘zgartirishi mumkin.

1912-yilda Vesto M. Slifer uzoq galaktikalardan kelayotgan yorug‘likning qizil siljishini aniqladi, bu keyinchalik Yerdan uzoqlashgan galaktikalar deb talqin qilindi. 1922-yilda Aleksandr Fridman Eynshteyn maydon tenglamalaridan foydalanib, koinot kengayib borayotganiga nazariy dalillar keltirdi [2]. Shvetsiyalik astronom Knut Lundmark 1924-yilda kengayishning kuzatuv dalillarini topgan birinchi odam edi. NASA/IPAC Galaktikadan tashqari masofalar ma’lumotlar bazasidan Ian Steerning so‘zlariga ko‘ra, “Lundmarkning ekstragalaktik masofani taxmin qilishlari Xabblnikiga qaraganda ancha aniqroq bo‘lib, kengayish tezligiga mos edi.



Gallaktikalar to‘dalari va kvazalarning bizdan uzoqligi “R” va uzoqlashish tezligi “V” va ular orasidagi bog‘lanish quyidagicha ifodalanadi:

$$V = HR$$

Bunda, N – Xabbl doimiysi Xabbl qonuni; katta mashtabdagi doimo o‘rinli. N doimiy fizik tabiatiga ko‘ra, vaqtiga bog‘liq funksiya bo‘lib gravitatsion tortish kuchlari koinot kengayishin sekinishtirishi mumkin. Bu bugungi kundagi eng yaxshi o‘lchovlarning 1% ichida edi. 1927-yilda Jorj Lemetr mustaqil ravishda Fridmanga nazariy asosda xuddi shunday xulosaga keldi, shuningdek, galaktikalargacha bo‘lgan masofa va ularning turg‘unlik tezligi o‘rtasidagi chiziqli bog‘liqlik uchun kuzatuv dalillarini taqdim etdi.


Edvin Xabbl 1929-yilda Lundmark va Lemaitrning topilmalarini kuzatish orqali tasdiqladi. Kosmologik prinsipni nazarda tutadigan bo‘lsak, bu topilmalar barcha galaktikalar bir-biridan uzoqlashayotganini anglatadi. Astronom Valter Bade 1940-yillarda ma‘lum bo‘lgan koinot hajmini qayta hisoblab chiqdi va 1929-yilda Xabbl tomonidan qilingan avvalgi hisobni ikki baravar oshirdi. U bu topilmani 1952-yilda Rimda bo‘lib o‘tgan Xalqaro Astronomiya Ittifoqi yig‘ilishida juda hayratda qoldirdi. 20-asrning ikkinchi yarmining katta qismida Xabbl konstantasining qiymati 50 va 90 km s-1 Mpc-1 (Mega Parsek) oralig‘ida bo‘lgan.

1994-yil 13-yanvarda NASA Xabble kosmik teleskopining asosiy oynasi bilan bog‘liq ta‘mirlash ishlari yakunlangani haqida rasman e‘lon qildi, bu esa aniqroq tasvirlar olish va natijada kuzatuvlarini aniqroq tahlil qilish imkonini berdi.

Ta‘mirlash ishlari olib borilgandan qisqa vaqt o‘tgach, Vendi Fridmanning 1994-yildagi "Kalit loyihasi" Virgo klasterining yadrosidan M100 ning retsessiya tezligini tahlil qilib, Xabble doimiy o‘lchovini 80 ± 17 km s-1 Mpc-1 taklif qildi. O‘sha yilning oxirida Adam Ress va boshqalar Ia tipidagi o‘ta yangi yulduzlarning yorqinligini aniqroq baholash uchun vizual tarmoqli yorug‘lik shakli egri chizig‘ining empirik usulidan foydalanganlar. Bu Xabbl konstantasini tizimli o‘lchash xatolarini 67 ± 7 km s-1 Mpc-1 gacha qisqartirdi. Yaqin atrofdagi Virgo klasterining retsessiya tezligi bo‘yicha Reissning o‘lchovlari Ia o‘ta yangi yulduzlarning sferoid o‘zgaruvchan kalibrlashlarining keyingi va mustaqil tahlillari bilan yaqinroq mos keladi, bu esa Xabble doimiyligini 73 ± 7 km s-1 Mpc-1 deb baholaydi. 2003 yilda Devid Spergelning Uilkinson mikroto‘lqinli anizotropiya zondi (WMAP) sun‘iy yo‘ldoshining

birinchi yillik kuzatuvlari davomida Kosmik mikroto‘lqinli fonni tahlil qilish mahalliy galaktikalar uchun taxminiy kengayish tezligi bilan kelishildi, $72 \pm 5 \text{ km s}^{-1} \text{ Mpc}$ Koinotning yoshini aniqlash uchun reny-187 (Re187) ning ko‘pligi o‘lchanadi, u osmiy-187 (Os187) ga parchalanadi, yarimparchalanish davri 40 milliard yil.

Kosmik kengayish. Eng katta masshtabdagi koinot kosmologik printsipga mos keladigan bir hil (hamma joyda bir xil) va izotropik (barcha yo‘nalishlarda bir xil) ekanligi kuzatiladi. Bu cheklovlar koinotning har qanday kengayishi Xabbl qonuniga muvofiq bo‘lishini talab qiladi, bunda ob’ektlar har bir kuzatuvchidan o‘sha kuzatuvchiga nisbatan o‘z pozitsiyalariga proporsional tezlikda orqaga chekinadi.



1-rasm. Kosmik kengayish dinamikasi

Kengayish tarixi koinotning zichligiga bog‘liq. Ushbu grafikdagi $\bar{\Omega}$ materiya zichligining kritik zichlikka nisbatiga mos keladi, materiya hukmron bo‘lgan koinot uchun. "Tezlashuv" egri chizig‘i qorong‘u energiyaga ega bo‘lgan koinot uchun masshtab omilining traektoriyasini ko‘rsatadi. Koinotning kengayishini koinot tarkibini parchalab tashlagan dastlabki impuls (ehtimol inflyatsiya tufayli) oqibati sifatida tushunish mumkin. Koinotdagi materiya va nurlanishning o‘zaro tortishish kuchi vaqt o‘tishi bilan bu kengayishni asta-sekin sekinlashtiradi, lekin shunga qaramay, kengayish dastlabki impulsdan qolgan impuls tufayli davom etadi. Shuningdek, qorong‘u energiya va inflyatsiya kabi ba’zi ekzotik relativistik suyuqliklar kosmologik kontekstda tortishish kuchini keltirib chiqaradi, bu esa koinotning



kengayishini tezlashtiradi. Kosmologik konstanta ham shunday ta'sir ko'rsatadi. Matematik jihatdan koinotning kengayishi miqyos omili bilan belgilanadi.

Xulosa. Umuman olganda, galaktikalar kabi obyektlar orasidagi o'rtacha ajralish bilan proporsionaldir. O'lchov omili vaqtning funksiyasi bo'lib, shartli ravishda shunday qilib belgilanadi. Hozirgi vaqtda $a=1$. Chunki koinot kengaymoqda, o'tmishda kichikroq va kelajakda kattaroq bo'lishi mumkin. Muayyan kosmologik modellar yordamida vaqtni orqaga qaytarish, o'lchov omili nolga teng bo'lgan vaqtni beradi; bizning kosmologiya haqidagi hozirgi tushunchamiz yo'q, bu vaqtni $13,787 \pm 0,020$ milliard yil oldin tashkil etadi. Agar koinot abadiy kengayishda davom etsa, miqyos omili kelajakda cheksizlikka yaqinlashadi. Koinotning kengayishni to'xtatib, qisqarishni boshlashi prinsipial jihatdan ham mumkin, bu vaqt o'tishi bilan miqyos omilining qisqarishiga mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Space Conflict: The Universe Is Expanding, But How Fast? // The New York Times, 2017. – Pp. 32-39.
2. [Vesto Slipher. American astronomer.](#) – New York, 2021. – P. 250.
3. Peebles, P. J. E. (1993). [Principles of Physical Cosmology](#) // Princeton University Press. – P. 400.



TEKTONIK HARAKATLAR VA ULARNING TURLARI: GEOGRAFIK VA GEOTEKTONIK TAHLIL

Tursunov Yunusali Abduaziz o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Geografiya yo‘nalishi talabasi

Tel.: +998 (33) 130 27 07

E-mail: yunusalitursunov8@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yer sharida sodir bo‘ladigan turli tektonik jarayonlar hamda ularning sabab va oqibatlari tahlil etilgan. Shuningdek, litosfera plitalarining geologik va geotektonik xususiyatlari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tektonika, tektonik harakatlar, platforma, geosiklinallar, deformatsiya, gorst, graben, tog‘ burmalanishi, zilzila, gipoteza.*

TECTONIC MOVEMENTS AND THEIR TYPES: GEOGRAPHIC AND GEOTECTONIC ANALYSIS

Annotation. *This article analyzes various tectonic processes occurring on the Earth and their causes and consequences. The geological and geotectonic features of lithospheric plates are also described.*

Key words: *tectonics, tectonic movements, platform, geocyclines, deformation, horst, graben, mountain folding, earthquake, hypothesis.*

ТЕКТОНИЧЕСКИЕ ДВИЖЕНИЯ И ИХ ТИПЫ: ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ И ГЕОТЕКТОНИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.

Аннотация. *В данной статье анализируются различные тектонические процессы, происходящие на Земле, их причины и последствия. Описаны также геологические и геотектонические особенности литосферных плит.*


Ключевые слова: *тектоника, тектонические движения, платформа, геоциклины, деформации, горст, грабен, горная складчатость, землетрясение, гипотеза.*

Kirish. *Yer Quyosh sistemasidagi boshqa sayyoralardan farqli tarzda bir-birini to‘ldirib keluvchi mukammal geosferalardan tuzilgan. Ularning har biri o‘z funksiyasiga ega. Ularning*


ichida boshqalariga kuchli ta'sir etuvchi qobiq litosfera bo'lib, undagi jarayonlar biosfera, gidrosfera va atmosferadagi muhitning o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Ularning ichida tektonik harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Tektonika (yun. – «qurish san'ati») – bu mantiyadagi harakatlar natijasida Yer po'stida ro'y berayotgan bukilish, tebranish, burmalanish, silkinish, siljish, ko'tarilish va cho'kish hodisalari hisoblanadi [1; 84-b]. Tektonik harakatlar yuqori mantiya bilan Yer po'stining o'zaro ta'siri natijasida ro'y beradi hamda buning natijasida ayrim hududlar ko'tarilsa, izostaziya tufayli boshqa joylar cho'kadi. Asosiy pasayish yo'nalishlarining tezligi 1000 yilda 2,5 m gacha bo'lib, bu cho'kindi jinslar to'planadigan yirik – Reyn va Missisipi kabi daryolarning deltalarida, Niderlandiyada kuzatiladi. Bunday tebranma (epeyrogenik) harakatlar natijasida sinekliza, antiklizalar hosil bo'ladi [2; 295-b]. Burmali bukilish harakatlar natijasida burmali tog'lar, tog' oldi bukilmalari hosil bo'ladi.

Tektonik harakatlar o'zining xususiyatlari va natijalariga ko'ra turlicha tasniflanadi. Ulardan biriga ko'ra harakatlar ikki turga bo'linadi: vertikal va gorizantal. Bu ularning qay tomon yo'nalishidan kelib chiqqan holda sodir bo'lishiga aloqadorlikni ifodalaydi (1-rasm). Shuningdek, bukilish va burmalanish natijasida yer po'sti deformatsiyaga uchraydi. Ya'ni tog' jinslarining hajmi va shaklini o'zgaradi.



1-rasm. Tektonik harakatlarning turli ko'rinishlari




2-rasm. Litosfera plitalarining turli qismlaridagi deformatsiyalar

Odatda, tektonik harakatlar vujudga kelish davri Yerning Quyosh sistemasi bilan birgalikda galaktika markazida aylanib chiqish siklligiga bog'liq. Chunonchi, baykal tog' hosil bo'lish bosqichi proterozoyning oxiri, paleozoyning boshlarida; gersin va kaledon tog'

burmalanishlari esa paleozoyning birinchi va ikkinchi yarmida; kimmeriy tog' burmalanishi mezozoy erasida, alp tog' burmalanishi esa kaynazoy erasida sodir bo'lgan. Ular natijasida geotektura va geostrukturalar hosil bo'lgan.

Tektonik harakatlar yer po'sti va yuqori mantiyaning bir qismida sodir bo'ladigan tebranma harakatlarning umumiy nomi bo'lib, ularni zilzila va vulkanik jarayonlar orqali yaqqol ifoda etish mumkin. Yer po'stining har xil chuqurlikdagi tabiiy kuchlar ta'sirida sodir bo'ladigan silkinishlar tektonik zilzilalar deb ataladi. Ular sababiga ko'ra: tektonik, vulkanik, meteorit, antropogen va o'pirilma zilzila turlariga bo'linadi. Vulkanik va meteorit zilzilalar tabiatda juda kam sodir bo'ladi, ular kuchi jihatdan tektonik zilzilalarning eng kuchsizi bilan tenglashadi. Antropogen zilzila inson faoliyati ta'sirida yerlarning cho'kishi orqali namoyon bo'ladi. Umuman olganda, zilzilalarning eng yorqin ko'rinishi yerning ichki jarayonlari natijasida vujudga keladigan tektonik zilzilalardir. Ularning gipotsentrlari litosfera plitalarining to'qnashgan chegaralariga to'g'ri keladi (3-rasm) hamda tez-tez takrorlanib turadi.




3-rasm. Zilzila tez-tez takrorlanib turadigan eng asosiy nuqtalar

Yer qimirlaganda uch xil seysmik to'lqinlar hosil bo'ladi: a) yuza to'lqinlar, ular yer yuzasi bo'ylab tarqaladi va tezligi kam bo'ladi; b) bo'ylama to'lqinlar, moddalarning o'rtacha holati yaqinida to'lqinlar yo'nalishi bo'yicha elastik tebranishi, ya'ni ketma-ket qisilib cho'zilishidir. Bunday to'lqinlar har qanday muhitda ham tarqalaveradi, eng katta tezlikka ega

bo‘ladi va seysmik stansiyalarga eng oldin yetib keladi; d) ko‘ndalang to‘lqinlar, moddalarning to‘lqin tarqalish yo‘nalishiga nisbatan perpendikular tebranishlardir [5; 46-b]. Bular moddalarning siljishi bilan bog‘liq, ya‘ni moddalarning shaklini o‘zgarishi bilan bog‘liq. Bu to‘lqinlar faqat qattiq moddalarda ortadi, suyuq va gazsimon muhitlarda so‘nib qoladi: suyuqlik va gaz shakl o‘zgarishiga qarashlik qilmaydi[3; 74-b].

Olimlar uzoq yillar davomida yerdagi turli harakatlar, zilzilalarning ulkan oqibatlari, o‘sha oqibatlarni yuzaga keltirgan sabablarni tahlil qilib juda ko‘plab nazariyalarni ishlab chiqishgan. Ulardan eng asosiylari mobilizm, litosfera plitalari tektonikasi, kengayish nazariyalaridir.

Mobilizm (lot. «siljiydigan») – bu yer po‘sti materik bo‘laklarining geologik davr mobaynida bir-biriga nisbatan gorizantal va qutbiy siljish haqidagi ilmiy faraz bo‘lib, materiklarning harakatlanib turishini isbotlashga asoslangan. Materiklarning siljishi haqidagi ilmiy dalillar bilan asoslangan dastlabki gipoteza 1910-1912- yillarda F.Teylor va A.Vegener tomonidan taklif qilingan.



4-rasm. Mobilizm gipotezasiga muvofiq tuzilgan geotektura: Pangeya va Pantalassa

Materiklardagi bir-biriga o‘xshashlik, ular qirg‘oqlarining mosligi (4-rasm), geologik tuzilishidagi hamda qadimgi o‘simlik va hayvonot dunyosidagi o‘xshashlik bu gipotezani tasdiqlab turardi. A.Vegenerning bu nazariyaga bag‘ishlab yozgan kitobi materiklar dreyfi gipotezasiga yangi hayot berdi. Akademik A.A.Borisyak bu kitobni geologiyadagi eng yirik hodisa deb atadi. Gipotezaning tarafdorlari va uni rivojlantirishga intiluvchilar juda ko‘p bo‘ldi [4].



Ammo, keyinchalik bu gipotezaga qarshi dalillar ham ko‘plab keltirildi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Nima uchun Pangeya asosan shimoliy yarim sharda bo‘lgan? Agar materik po‘stloq Yer hayotining boshlanishi davrlarida yer yuzasini to‘la qoplagan bo‘lsa, Yer aylanishi natijasida u ekvator atrofiga to‘planishi kerak edi.

2. Shimoliy va Janubiy Amerikaning g‘arbiy qirg‘oqlari bo‘ylab Kordilyera va And burmali tog‘lari paydo bo‘lganu, bu holatni Yevropa va Afrikada ko‘rmaymiz.

3. Osiyoning sharqiy qismidagi burmali tog‘larning paydo bo‘lishi ushbu gipotezaga mos emas.

4. Materiklarning siljishiga olib keladigan kuchlar quvvati uzoq geologik davr orasida ham ularni bunday masofalarga ko‘chirishga ozlik qiladi.

5. Hozirgi zamon ma‘lumotlariga qaraganda Yer po‘stlog‘i bilan ichki qismlari orasida bog‘liqlik katta. Buni gipotsentri 600-700 km chuqurlikda joylashgan zilzilalar tasdiqlab turibdi.

6. Materiklar qirg‘oqlaridagi o‘simlik va hayvonot dunyosining bir xilligi bilan bir qatorda ular o‘rtasida farq qiladiganlari ham behisob.

1960-yillardan boshlab okean tubini o‘rganish bo‘yicha AQSh, Rossiya va boshqa mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar, tog‘ jinslarining paleomagnetizmi, kosmogeodeziya, kosmosdan olingan yer suratlari, seysmotomografiya natijalari «yangi global tektonika» nazariyasini yuzaga keltirdi. U «materiklar dreyfi» nazariyasini qaytadan tug‘dirdi, yangi ma‘lumotlar bilan boyitdi, yangicha asosladi. Shu asoslardan yangi global tektonika yoki litosfera plitalari tektonikasi nazariyasi yuzaga keldi. Bu nazariya tarafdorlari materiklar harakati emas, okeanik va materik qismlaridan iborat bo‘lgan litosfera plitalari harakati to‘g‘risida gapiradilar.

Litosfera plitalari tektonikasi – litosfera plitalari harakati haqidagi zamonaviy geologik nazariyaga muvofiq yer po‘sti nisbatan yaxlit blok – litosfera plitalaridan tuzilgan va ular bir-biriga nisbatan doimo harakatda bo‘ladi [4; 58-b]. Kengayish zonalari (o‘rta okean va kontinental riflarda) yangi okean po‘sti hosil bo‘ladi, eski subduksiya zonalari yutuladi. Bu



nazariya ko‘pchiligi litosfera plitalari chegaralarida joylashgan (3-rasm) zilzilalar, vulkanizm va tog‘ hosil bo‘lish jarayonlarini tushuntirib beradi.

Litosfera plitalarining gorizontal xarakterlari mantiyaning issiqlik-gravitatsion oqimlari – konveksiya tufayli sodir bo‘lishiga shubha yo‘q. Bu oqimlar energiyasining manbai bo‘lib, Yerning markaziy qismlari va yuzasidagi haroratlar farqi hisoblanadi. Yer yadrosidagi harorat juda yuqori bo‘ladi [6; 132-b]. Bu esa astenosfera kabi qatlamlarning shakllanishida asos bo‘ladi, yer po‘stidagi jarayonlarni shakllantiradi. Plitalarning serharakat qismlari geosinklinallar, nisbatan barqaror qismlari esa platformalar deb ataladi. Ularning turli harakatlari gorst (ko‘tarilma) va graben (uzilma) shakllarni yuzaga keltiradi.

Xulosa. Umuman olganda, tektonik harakatlar va ularning turli ko‘rinishlari, sabab va oqibatlarini tahlil qilish juda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki, zilzila xavfi yuqori bo‘lgan hududlarda muhandislik inshootlarini joylashtirish, gidrotexnik obyektlarni loyihalash noxush oqibatlarga olib keladi. Vulkanizm sodir bo‘ladigan hududlarda tektonik kuchning hosilasini to‘g‘ri baholagan holda aholini hududiy joylashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdunazarov O‘, Mirakmalov M., Sharipov Sh., Ibragimova R., Ibraimova A. Umumiy tabiiy geografiya [Darslik]. – T.: Barkamol fayz media, 2018. – 328 b.
2. Goudie A. Physische Geographie. – Germany, 2002. – Pp. 402. ISBN: 978-3860251591.
3. Vahobov H., Abdunazarov O‘. Zaynutdinov A., Yusupov R. Umumiy Yer bilimi [Darslik]. – T.: Bilim, 2005. – 256 b.
4. Камалов Б.А., Боймирзаев К.М. О тектонике литосферных плит. Горный вестник // Главный редактор: К.С.Санакулов. – Навоий: «OzGEORANGMETLITI», 2012. – Стр. 57-62.
5. Шубаев Л.П. Умумий Ер билими [Ўқув қўлланма]. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – 384 б.
6. Чинниқулов Ҳ., Жўлиев А. Умумий геология [Ўқув қўлланма]. – Т.: МРИТИ, 2011. – 396 б.
7. What is a tectonic plate? <https://pubs.usgs.gov/gip/dynamic/tectonic.html>



13.00.00

PEDAGOGIKA FANLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

PEDAGOGICAL SCIENCES

**BOLALAR BOG‘CHASIDA MIQDOR VA SON
TASAVVURLARINI TARKIB TOPTIRISH BO‘YICHA TAVSIYALAR BERISH**

Jaloldinova Husniya Abdusattor qizi

Namangan davlat universiteti magistranti

E-mail: jaloldinovahusniya@gmail.com

Tel: 94 170 58 99

Jaloldinov Nizomjon Abdusattor og‘li

Namangan muhandislik-qurilish instituti talabasi

Email: jaloldinovnizomjon@gmail.com

Telefon: 93 944 35 97

Annotatsiya: Maqolada bolalarni to‘plam, miqdor, son bilan tanishtirishning nazariy va uslubiy masalalari, har xil yosh guruhlarida bu tasavvurlarning o‘zlashtirishlari ustida ishlash bosqichlari ochib beriladi, arifmetik masalalar tuzish va yechish tavsifi bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: abstrak, bog‘lanish, matematik, arifmetik, to‘plam.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические и методические вопросы знакомства детей с множествами, величинами и числами, этапы работы над овладением этими представлениями в разных возрастных группах, а также описание создания и решения арифметических задач.

Ключевые слова: абстракция, связь, математическое, арифметика, множество.

Annotation: The article reveals the theoretical and methodological issues of introducing children to sets, quantities and numbers, the stages of work on mastering these concepts in different age groups, as well as a description of the creation and solution of arithmetic problems.

Key words: abstraction, connection, mathematical, arithmetic, set.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 7-martdagi PF-87-son farmonlari hamda “Maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 14-iyuldagi PQ-322-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish hamda budget tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 24-fevraldagi 129-son qaroriga muvofiq maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklik jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:[1].

“Bolalar bog‘chasida tarbiya va ta‘lim dasturi” da bolalarga matematika asoslarini o‘rgatishning mazmuni belgilab berilgan. Agar bolaning matematik ta‘limi rivojlantirilmasa, tasodifan o‘zlashtirilgan ma‘lumotlarga qaramay, uning aqliy rivojlanish saviyasi bu yoshdagi darajasida bo‘la olmaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o‘qitish o‘ziga xos xususiyatga ega. Maktabgacha tarbiya yoshida yechilishi kerak bo‘lgan vazifalar hal qilinmasa, maktabda o‘qitish muvaffaqiyatli bo‘lmaydi.

Bu vazifalardan biri konkret bilimlar va tafakkur usullariga o‘tishdan iborat. Bu xil o‘tish saviyasi, ayniqsa, matematika o‘qitish uchun zarurdir. Bunday saviyaning bo‘lmasligi yoki yetarli bo‘lmasligi ikki tomonlama qiyinchilikka olib keladi. Bir tomondan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ko‘pincha maktabga mavhum matematik usullarni egallagan holda keladilar, bularni bartaraf qilish juda qiyin bo‘ladi. Ikkinchi tomondan, bolalar maktabda abstrak bilimlarni egallar ekanlar, ko‘pincha ularni formal, asl mazmunini tushunib yetmagan holda o‘zlashtiradilar. Shuning uchun ha konkret shart- sharoitlarda matematik bilimlarni qo‘llanish imkoniyati juda cheklangan bo‘ladi. Shu sababli maktabgacha tarbiya bolalarni o‘qitishning muhim vazifasi matematik abstraklashlar bilan konkret borliq orasidagi bog‘lanishni ta‘minlaydigan bilim va harakatlarning oraliq saviyasini shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak. [2]



Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshidagi bolalarga matematika o'qitishda o'tish saviyasi mazmuni quyidagilardan iborat: Birinchidan, shunda faoliyat va masalalarni o'zlashtirish kerakki, ularda matematik operatsiyalarni qo'llashning zarurligi bolalarga yaqqol ko'rinib turadi. Bu bir tomondan, bolaning amaliy faoliyati bilan bevosita bog'liq (tenglashtirish, taqqoslashga oid) masalalar, ikkinchi tomondan, ularga shunday shartlar kiritiladiki, bunda mazkur masalalarni matematik vositalardan foydalanmay turib (masalan, fazoda ajratib qo'yilgan ikki to'plamni amalda tenglashtirish) amalga oshirish mumkin bo'lmaydi. [3].

Ikkinchidan, muhitning shunday munosabatlarini ajratish kiradiki, bu munosabatlarni qo'llanish bolaga konkret buyumlardan matematik obyektlarga o'tish (masalan, buyumlarni ma'lum belgilari bo'yicha guruhga kiritish va shu asosda to'plam munosabatlarini, qism – butun munosabatlarini hosil qilish) imkonini beradi.

Tekshirishning natijalari shuni ko'rsatadiki, matematik operatsiyalar maktabgacha yoshda o'zlashtirilgan shunday masalalar va munosabatlar asosida kiritilsa va qayta ishlansa, matematikani egallash samaraliroq bo'ladi. Yo haddan tashqari konkretlik, yo matematik bilimlarning formalligi tufayli paydo bo'ladigan qiyinchiliklar mazkur holda paydo bo'lmaydi[4].

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'qitishda matematik bilimlar tarkibini tekshirish tenglik – tengsizlik, qism - butun munosabatlarni, bilvosita tenglashtirish sanoq va arifmetik amallarni to'liq va ongli o'zlashtirish uchun asos bo'ladigan soda masalalar va munosabatlarning o'zidan iborat ekanini ko'rsatadi. Bu munosabat va masalalarni (ularning eng soda shakllarini) bolalar 3 yoshdan boshlab tushuna boshlaydilar. Ular bunday mashg'lotlarga qiziqish bilan yondashadilar, huddi shu yerning o'zida o'zlashtirganlari (tenglik, qism- butun va h.k. munosabatlari)ni o'yinlarga ko'chiradilar, turmushda amaliy ishlar qilishda foydalaniladilar, bir – birlariga (katta va tayyorlov guruhi bolalari) shunga o'xshash masalalarni taklif qiladilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tasavvurlarini o'rganish, tekshirish asosida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish dasturi tuzildi . Bu dastur



quyidaagi besh bo‘limdan iborat: “Miqdor va sanoq”, “Kattalik”, “Geometrik figuralar”, “Fazoda mo‘ljall olish”, “Vaqtga nisbatan mo‘ljall olish”[5].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak maktabgacha yoshdagi kichik guruh bolalarini sanoqqa o‘rgatishdagi bosh vazifalardan biri bir to‘plam elementlarini ikkinchi to‘plam elementlari bilan taqqoslash, solishtirish yo‘li orqali bolalarni to‘plamlarni taqqoslashga o‘rgatishdan iborat. Bu dastlabki bosqich kelgusida sanoq faolyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bola miqdoriy taqqoslash usullarini egallaydi. Bola sanashni bilmaydi, shu sababli u oldin taqqoslanayotgan to‘plamlarning qaysinisi ko‘p, qaysini kam ekanini, yoki ular teng quvvatli ekanini aniqlashni o‘rganadi. Bolalarda kelgusida matematik tasavvurlarni rivojlantirish ko‘p jihatdan sanoqqa o‘rgatishning boshlang‘ich davriga bog‘liq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”
2. Bikbayeva N.U Alieva U.S Matematika. «Maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyachilari uchun metodik qo‘llanma» T., «o‘qituvchi» 1999-y.
3. Bikbayeva N.U. «Maktabgacha ta'lim muassasasida matematika mashg‘ulotlarini rivojlantirish» T., «o‘qituvchi» 1998- y
4. Bikbayeva N.U. Ibragimova Z.I. Kosimova X.I. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish» T. «o‘qituvchi» 1995- y
5. Bikbayeva N.U. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish» T., «o‘qituvchi» 1996- y
6. <https://www.integer.uz/steam>
7. <http://exclusive.multibriefs.com>
8. <http://www.bmbf.de>
9. www.edu.uz
10. www.uzedu.uz



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING DO‘STONA MUNOSABATLAR ASOSIDA IJTIMOIIY-HISSIY RIVOJLANISHI

Mahkamova Husnida Ro‘ziboyevna

Namangan davlat univertiteti

Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning do‘stona munosabatlar asosida ijtimoiy-hissiy rivojlanishi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Maqola talabga ko‘ra annotatsiya, kalit so‘zlar, kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat.

Kalit so‘zlar: do‘stona munosabatlar, tengdoshlik, muloqot, fikr almashuvchanlik, ijtimoiy moslashuvchanlik, adaptatsiya, kompetensiya

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование дружеских отношений между детьми в дошкольных организациях. Статья состоит из аннотации по запросу, ключевых слов, введения, основной части, заключения и списка литературы.

Ключевые слова: дружеские отношения, равноправие, общение, обмен идеями, социальная гибкость, адаптация, компетентность.

Jamiyatimizda yoshlarga ta‘lim-tarbiya berish o‘sib kelayotgan yoshlarni ma‘nan yetuk qilib tarbiyalash, barcha davrlarda bo‘lgani kabi bugungi kunda ham davlatimiz oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan informatsiyaning 70 % ini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda olar ekan. Maktabgacha ta‘lim bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta‘minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta‘lim olishga tayyorlaydi.

Maktabgacha ta‘lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta‘lim maqsadi va vazifalarini ro‘yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi. Hozirgi kunda bolalarning maktabga tayyorgarlik darajalariga qo‘yilayotgan jiddiy talablar bu borada zaruriy nazariy, amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqazo etmoqda.



Rasman bolalar bog‘chasi maktabga tayyorlov maskani hisoblansada, aslida bolalar tug‘ilishi bilanoq maktabga tayyorgarlik boshlaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘z oila a‘zolari va do‘stlari — atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlari orqali ular boshqalarga mas‘ul bo‘lish, tashqi dunyoga qiziqish va yangi qobiliyatlarni o‘zlashtirish ishtiyoqini rivojlantirish singari muhim tayyorgarlik ko‘nikmalarini o‘rganadilar. Bundan tashqari, ular o‘zlarining ota-onalari, tarbiyachilari va aka-ukalaridan farqli alohida faoliyat bilan shug‘ullanadigan individual shaxslar ekanliklarini anglab boradilar. Bolalar bog‘chasida rivojlanishga yo‘naltirilgan dasturlardagi tizimli rejalashtirilgan o‘yinlar yordamida til, aql, sensomotorika va ijtimoiy-emotsional qobiliyatlar mustahkamlanadi.

Maktabgacha yosh davridagi bolalar rivojlanishining turli jihatlarini har tomonlama o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, maktabning birinchi sinflari bilan taqqoslaganda bolalar bog‘chasining maktabga tayyorgarlik guruhlarida o‘qiyotganda ular o‘zlarini xotirjam, psixologik jihatdan erkin va o‘ziga bo‘lgan ishonchni his qilishadi. Va bu yerda gap faqat bolalar bog‘chasining sharoyitlari bolaga yaxshi tanishligi va bu uning yangi ta‘lim faoliyatiga moslashish jarayoni haqida emas. Va hattoki qator obyektiv sabablar tufayli ya‘ni ko‘plab maktablarning uzoqda joylashganligi, qo‘shimcha sinflar va o‘qituvchilar yetishmasligi sababli sinflarning optimal bandligini oshirib yuborilishi, xonalar yetarli emasligi va hokazolardir. Buning asosiy sababi shundaki, bolalar bog‘chasining hayot ritmi, bolalarning kattalar bilan va bir-biri bilan muloqot uslubi maktabgacha yoshdagi bola psixikasining rivojlanish darajasiga ko‘proq mos keladi. Beqarorlik, yangi sharoyit va munosabatlarga moslashishdagi qiyinchiliklar tufayli 6 yoshli bola to‘g‘ridan-to‘g‘ri hissiy aloqalar(emotsional munosabat)ga muhtoj bo‘lib, rasmiylashtirilgan maktab sharoyitida bu ehtiyoj qondirilmaydi.

Psixologlar va o‘qituvchilar 6 yoshidan boshlab maktabda o‘qishning ko‘plab ijobiy va salbiy tomonlarini keltirib o‘tishadi. Ushbu yoshda maktabga borishga bo‘lgan eng jiddiy e‘tirozlarni D.B. Elkonin ilgari surgan. Uning yozishicha, bolalar rivojlanishining keyingi, yuqori bosqichiga o‘tish ichki qarama-qarshiliklarni namoyon qiladi. Agar bu qarama-qarshiliklar pishib yetilgunga qadar mukammal bo‘lsa — ob‘yektiv omillarni hisobga olmasdan subyektiv ravishda majburlansa — demak, bola shaxsi shakllanishi sezilarli darajada zarar ko‘radi. Maktabgacha yoshdagi bolalikni bir yilga qisqartirish hozirgi degeneratsiya



rivojlanish jarayonini buzishi va foyda keltirmasligi mumkin. D. B. Elkonin 6 yoshdan boshlab maktabda o‘qishni tashkil etish o‘rniga, bolalar bog‘chalariga tayyorgarlik guruhlarini kengaytirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi, chunki bolalarni maktabga tayyorlash qulayroq, negaki bolalar bog‘chasidagi bolalar yaxshiroq, ular yanada to‘liq, xilma-xil hayot tarzini kechirishadi va yanada quvnoq va sog‘lom ko‘rinishga ega bo‘lishadi. D. B. Elkonin rahbarligida qiziqarli psixologik fenomen aniqlangan. Ma'lum bo‘lishicha, maktabgacha yoshdagi bolalarda tartibga solingan aloqa sharoyitida bolalar bog‘chasiga nisbatan tezroq belgilangan xatti-harakatlar qoidalariga bo‘ysunish qobiliyati shakllanadi. Ammo shu bilan birga, ushbu qoidalarga rioya qilishdan qoniqish emas, balki ularni buzishdan qo‘rqish hissi ustunlik qiladi..

Xulosa qilib aytganda, bolalarda bezovtalanish, sarosima, xavotir kuchayadi, hissiy qulaylik (emotsional comfort) darajasi pasayadi. Biroq, shu bilan birga, bunday muloqot uslubi 7 yoshli birinchi sinf o‘quvchilarida xuddi shunday (bezovtalanish, sarosima, xavotir) ta'sirini keltirib chiqarmaydi. Yangi maktab hayotiga moslashishning dastlabki bosqichiga kelsak, shuni ta'kidlash joyizki, barcha maktabgacha yoshdagi bolalar moslashishga qiynaladilar. Ular nafaqat jismoniy, balki psixologik qiyinchiliklardir. Ba'zilarida sustkashlik, ko‘z yoshlari paydo bo‘ladi, uyqu va ishtaha buzilishi kuzatiladi, boshqalarida haddan tashqari qo‘zg‘alish kuchli bo‘ladi, g‘azablanadi va g‘azablantiradi. Ularning barchasiga maktabdagi ortiqcha yuklamalardan toliqish sabab bo‘ladi. Shuningdek, charchoq xatti-harakatlarning buzilishiga, injiqliklarga olib keladi.

O‘tgan asrlarlarda izlanishlar olib borgan Muxina, o‘g‘lining rivojlanishini kuzatgan, hamda oktyabr oyida jonli ta'sirchan reaksiyani ta'kidlar ekan, u o‘g‘lining: “Men o‘ynashni va yurishni xohlayman! Men uzoq vaqt davomida o‘qidim, endi esa dangasa bo‘lishni xohlayman.” degan gaplarini yozib qoldirgan. Nisbatan qulay o‘quv sharoyitida psixologik taranglik odatda 1,5–2 oydan keyin pasayishni boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абульханова К.А. Деятельность и психология личности. -М., 1980.
2. Ушаков Д. В. Интеллект: структурно-динамическая теория. М.: [Изд-во ИП РАН](#), 2003.



3. Диагностика социального интеллекта. Тест Дж. Гилфорда и М. Саливана. - СПб., 1999;
4. Aisenk, G.Yu. (1995). Conception and detection of intellect// Matters of psychology., М., -№1. - pg. 111-129.
5. Ananyev, B.G. (1980). Selected psychological works in 2 vol., М., Press: Pedagogika, vol.2.
6. Batarshev, A.B. (1999). Psychological diagnostics of ability to communicate or how to determine organizer ship and communicative characteristics of the person. -М.: Human, Press: CentrVlados, pg. 176.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI MASHG‘ULOTLARINI SAMARALI OLIB BORISH USULLARI

Samijonova Shaxnoza Rahmonjon qizi

Namangan davlat universiteti Ingliz filologiyasi fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi XTA-HU-21 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish usullari hamda ingliz tili o‘qitishning samarali va zamonaviy metodlari bo‘yicha to‘xtalib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *picture, o‘chig‘ich metodi, decorder, autentlik, gapiruvchi qo‘g‘irchoqlar.*

Аннотация. *В данной статье основное внимание уделяется способам повышения интереса учащихся к изучению языка в начальных классах, а также эффективным и современным методам преподавания английского языка.*

Ключевые слова: *картина, метод экстракции, декоратор, подлинность, говорящие куклы.*

Annotation. *This article focuses on innovative and efficient ways to teach English to elementary school students, as well as strategies to boost their enthusiasm in language study.*

Keywords: *picture, extraction method, decorder, authenticity, talking dolls.*

Kirish. Boshlang‘ich ta‘limda ingliz tili o‘qitishning zamonaviy maqsad, mazmun va texnologiyalarini takomillashtirish, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga ingliz tili o‘qitish amaliyotidagi to‘plangan an‘anaviy va xorijiy tajribalarni umumlashtirishga xizmat qiluvchi o‘quv qo‘llanmalar yetishmasligi oqibatida mazkur soha uchun pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida samaradorlikka erishish ko‘rsatkichi past.

Bugungi kunda til o‘rganish va o‘rgatishga juda katta e‘tibor berilmoqda. Chet tili ta‘limida sifat va samaradorlikka erishish maqsad qilib qo‘yildi. Bugun til o‘rganish yosh tanlamaydi, til o‘rganishga qiziqishi va ishtiyoqi bo‘lgan katta va kichik til o‘rganmoqda. Chet tili, xususan ingliz tilini kichik yoshdan o‘rgatish va o‘rganish ham o‘z tarixiga ega. Kichik yoshdan ingliz tilini o‘rganish va o‘rgatish dastlab yuqori tabaqa oilalarda tajriba qilingan



bo'lsa, 1950-yillarda AQSH va Yevropa mamlakatlarida ommaviy tus oldi, o'n yil ichida **“Foreign Language in Elementary School”** dasturi asosida ta'lim oluvchi o'quvchilar soni bir millionga yetdi. Fransiya, Shvetsiya va Gollandiyada esa 1950-yil o'rtalarida **“English without a book”** dasturi asosida ingliz tili 3-sinfdan o'qitila boshlandi. Ingliz tilini o'qitish amaliyotida taklif etilgan qoidalar va qarashlar lingvodidaktik (*tillar ta'limshunosligi*) tamoyillar maqomida umumlashtirilgan va ilmiy asoslangan. Boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirilgan: faollik, ko'rgazmalilik, o'quvchi salohiyatiga moslik, individual yondashish hamda tizimlilik. Ilmiy manbalarni o'rganib chiqib boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. O'quvchilarning ingliz tili o'rganish usullari, strategiyalari va qobiliyatini inobatga olish;
2. Tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish;
3. Darslarda ma'noli kontekstlar va mavzuga oid nutq vaziyatlarini yaratish;
4. Mashg'ulotlarda texnik vositalardan keng foydalanish;
5. O'quvchilarning yoshiga doir autentik materiallaridan foydalanish;
6. Nutq namunalari asosida ingliz tilini o'rgatish;
7. Dars mashg'ulotlarida noodatiy metodlardan foydalanish(dars jarayonlarini gapiruvchi qo'g'irchoqlar va shu kabi o'ziga jalb etadigan yoshga doir o'yinlar yordamida tashkil etish).

Bilamizki, bola tabiati juda nozik va serqirra hisoblanadi. Ko'plab pedagoglar boshlang'ich sinflarga dars o'tishda yuqori sinflar dars jarayonlari uchun foydalaniladigan metodlardan foydalanishmoqda, bu boshlang'ich sinflar uchun tanlangan noto'g'ri metoddir. Boshlang'ich sinflar bilan ishlagan har bir pedagog o'zlari ham yosh boladek beg'ubor bo'lib, ularning qiziqishlarini va o'yinqaroqligini hisobga olishlari lozim. Ko'proq ularga yoshga doir xususiyatlarini e'tiborga olib, musiqa, turli xil rasmi tarqatmalar, qo'g'irchoqli o'yinlar va ko'rgazmali tarqatma materiallaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Boshlang'ich sinflarni darsga qiziqtirish uchun quyidagi “Singan tuxum metodi”, “O'chirg'ich metodi”, “Decorder metod” metodlaridan foydalanish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.



“*Singan tuxum*” metodidan boshlang‘ich sinf dars jarayonlarida foydalanganimizda avvalo singan tuxumni rasmini chiqarib sinf taxtasiga ilishimiz kerak. Keyingi jarayon esa singan tuxumning teppa qismiga tanlangan so‘zni yarmini yozamiz, misol uchun: “picture” so‘zini oladigan bo‘lsak, tuxumning yarim qismga “pic” bo‘g‘inini yozamiz va o‘quvchilar qolgan bo‘g‘inini yozishi kerak bo‘ladi. Biz boshqa so‘zlarni ham shu metodni qo‘llab o‘quvchilarni dars jarayoniga qiziqtirishimiz mumkin.

“*O‘chirg‘ich metodi*”ni ko‘rib chiqaylik, bu metodni qo‘llashdan avval o‘quvchilarni soniga qarab ularni guruhlarga ajratib olamiz. Har bir guruhda 5 nafardan o‘quvchi bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bitta mavzu tanlanadi va mavzuga oid kamida 15 ta so‘z listga yozib chiqiladi, mavzudan tashqari yana 10 ta so‘zni listga aralashtirib yozib, o‘quvchilarga tarqatiladi. O‘quvchilar mavzuga oid bo‘lmagan so‘zlarni o‘chirg‘ich yordamida o‘chirish orqali mavzuga oid so‘zlarni eslab qolish, mavzuning mazmun mohiyatini tushunib olishda samarali natijaga erishiladi.

“*Decorder metod*” metodida bitta ingliz tiliga oid so‘z tanlanadi va uning har bitta harfi alifbo tartibida raqamlanib chiqiladi, sinf o‘quvchilariga son tartibini ko‘rsatiladi, sonlar tagida qanday so‘zlar borligini o‘quvchilarning o‘zlari topishi lozim bo‘ladi.

“*Yashirin so‘z*” metodini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qo‘llash orqali ularni so‘z yodlashga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin. Mazkur metodda mavzuga oid so‘zlar bilan birgalikda mavzuga oid bo‘lmagan so‘zlarni aralashtirib listga yoziladi va har bir o‘quvchi shu yozilgan so‘zlarni topishlari kerak bo‘ladi.

Bolalarda til o‘rganishga bo‘lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko‘pligi buning asosiy sabablaridan biridir. Shuni e‘tiborga olish kerakki, olti-yetti yoshli bolalar ma‘lumotlar ma‘nosini tushunib emas, uni mexanik(ko‘zi bilan ko‘rib, qo‘li bilan ushlab) tarzda yodlash qobiliyati kuchliroq bo‘ladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik lozim. Chunki bu orqali chet tilini o‘rgatishning dastlabki qadamidayoq bolani zo‘riqtirib qo‘yish va qiziqishlarini so‘ndirish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o‘rgatish ancha mushkul va mas‘uliyatli. Bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda qiziqarli metodlardan foydalanish va ularni darsga qiziqtirish zarur.



Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til o‘rgatish jarayonida ingliz tili sinf xonasini jihozlashining ham ahamiyati juda yuqori. Chet tili xonasi qanchalik chiroyli bezatilgan bo‘lsa shunchalik o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishi ortib boradi. Imkon qadar o‘quvchini turli xil o‘yinli metodlardan foydalanib, darsga qiziqtirish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fanga qiziqtirish har bir pedagogning usullari va metodikasiga bog‘liq. Boshlang‘ich sinflar dars jarayonida faqat grammatikaga bog‘lanib qolmaslik lozim, ular bilan bo‘lgan muloqotda qo‘shiq, she‘r, turli xil stiker va ko‘rgazmalardan ham foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida (PQ-1875-son)Xalq so‘zi gazetasi. 2012-yil.12-dekabr
2. “Chet tili o‘qitish metodikasi”-Jamol Jalolov.
3. Bekmuratova U.B.”Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish”//Toshkent 2012.
4. “Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish” -Tajibayev G.SH.Namangan 2019.
5. Toliboboyeva SH.(2020).Ingliz tilini o‘qitishdagi zamonaviy ta‘lim texnologiyalari.Young Scientist, 19(309),581-582.



INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB, YOSHLARDA TEXNIK IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH

Baxodirova Malika Shaxobidin qizi

Namangn davlat universiteti Pedagogika fakulteti

Kasb ta'limi kafedrasida 3-kurs talabasi

Аннотация: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchi yoshlarda texnik ijodkorlikni shakllantirish mavzusi yoritilgan.

Калит so'zlar: Texnologiya fani, intellektual loyihalar, ijodkorlik, ratsionalizatorlik, ixtiro.

ФОРМИРОВАНИЕ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА У МОЛОДЕЖИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Баходирова дочь Малика Шахобидина

Студентка 3 курса кафедры профессионального образования педагогического факультета Наманганского государственного университета

Аннотация: В данной статье описано использование инновационных педагогических технологий при преподавании технологии в общеобразовательных школах, формировании технического творчества у младших школьников.

Ключевые слова: Технологическая наука, интеллектуальные проекты, творчество, рационализация, изобретательство.

FORMATION OF TECHNICAL CREATIVITY IN YOUTH USING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Bakhodirova daughter of Malika Shahobidin

Namangan State University Faculty of Pedagogy,

3rd year student of the Department of Vocational Education



Abstract: *This article describes the use of innovative pedagogical technologies in the teaching of technology in general secondary schools, the formation of technical creativity in young students.*

Key words: *Technological science, intellectual projects, creativity, rationalization, invention.*

Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, bo'lg'usi pedagoglardan yana ham yuksakroq marralarni ko'zlash, fan, texnika va texnologiyalar borasidagi yangiliklardan xabardor bo'lish talab etilmoqda. Qadim zamonlardan beri ulug' ajdodlarimiz yangilikka ishtiyoqmand bo'lib kelganlari va sharqda renesans davrini boshlab berganliklarini dunyo hamjamiyati tan olgan. Hususan ilm olishga, hunar o'rganishga, biror bir kasb egasi bo'lishga intilish bizning bobokalonlarimizda juda kuchli bo'lgan va bu o'z navbatida diyorimizda juda ko'p dunyo ilm-fani rivojida katta hissa qo'shgan allomalar etishib chiqishiga sabab bo'lgan. Bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohatlar yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek, mamlakatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarning Vatanimiz ravnaqi yo'lida har taraflama yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, ularning raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishi uchun xizmat qilib kelmoqda. XXI asr fan texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir sohaga xorijiy tajribalar, yangi loyihalar kirib kelayotgani mamlakatimiz rivoji va ta'lim sohasida o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib kelmoqda. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar xalqimizning boy madaniy merosi, tarixiy an'analarini to'liqligicha saqlab qolish, hunarmandchilikni keng targ'ib qilish maqsadida 2017-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni va texnologiyalarni rivojlantirish to'g'risidagi" farmoni Davlat Ta'lim Standartlariga to'laligicha mos kelgan holatda uning sifatini oshirish uchun xizmat qilib kelmoqda[1].

Umumta'lim maktablarida texnologiya fani o'qituvchilari o'zlarini ikkinchi darajali fan o'qituvchisi deb his qilmasliklari va ushbi fanni chuqur egallagan holda o'quvchilarda ham fanga qiziqish uyg'ota olishlari kerak. Texnologiya fani o'qituvchilari dars o'tish jarayonida ushbu fanning jamiyatdagi o'rni va mazmunmohiyati, fanning o'qitilishdagi maqsadlarini o'zlari teran his etishlari va shu bilan birga o'quvchilarga mehnatsevarlikni, ijodkorlikni va



qaysidir ma'noda tadbirkorlikni o'rgatishlari lozim. "Ma'lumki o'qituvchilik kasbi o'ta ma'suliyatli kasb bo'lib, turli integratsion bilim va ko'nikmalarni talab etadi. Texnologiya fani o'qituvchisi kelajakda o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda ma'lum kasb-hunarga oid ko'nikmalarni shakllantiradi. Bunda berilgan buyumlarni tayyorlashda o'qituvchi yuqori malaka va kasbiy mahoratga ega bo'lmog'ini kerak. Ushbu natijaga erishish uchun bilim va ko'nikmalardan tashqari o'qituvchining o'z sinalgan uslubi, ta'lim va tarbiya orqali o'quvchilarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati bo'lishi lozim. Dars jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda mehnat qilish ko'nikmalarini o'stirish va mehnat orqali tarbiyalash ko'nikmasiga ega bo'lishni talabalarga oliy ta'lim muassasalarida shakllantirish lozimdir.[2] "O'quvchilarni mehnat va kasb olamiga olib kirish borasida "Texnologiya" fani muhim o'rin tutadi. Uning metodikasini takomillashtirish, moddiy jihozini mustahkamlash, maktabni o'z atrofidagi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, umumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini oshirish va ta'lim bilan qo'shib olib borish, o'quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Texnologiya fani darsi maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik prinsiplarni qo'llasada, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug'ullanadilar.

Texnologiya fani predmetlari, qurollari, jarayonlari oddiy o'rganish obyekti sifatida emas, balki o'quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko'rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta'limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Texnologiya fani o'quv fani sifatida ana shu va boshqa xususiyatlarini o'rgatadi[3]. Texnologiya fanini o'rganish materiallar, ularning xossalari o'rganishdan hamda ushbu materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqib ulardan turli buyumlar tayyorlashdan iborat bo'ladi. Ushbu jarayon o'qituvchilardan texnologik bilimlarni qo'llash, kreativ va texnik fikrlash orqali tayyor buyumlarning sifat darajasini tahlil etish va o'quvchilarga kasbiy bilimlarni singdirishdan iborat. O'quvchilarni yoshligidan mehnatga o'rgatish kelajak hayotlarda juda katta samara beradi. Bunda mehnat ko'nikmalari bilan birga o'quvchilarda kreativlik, texnik bilimlar, kollektiv ijodkorlik kabi qobiliyatlarni ham shakllantirish zarur. Mashhur idealist faylasuf E.L. Radlov tomonidan yigirmanchi asr boshidagi eng obro'li falsafiy lug'atlardan birida ijodkorlik biror narsaning yaratilishi bilan



bog‘liqligi, yaratilish qobiliyati xudoga eng xos bo‘lganligi va odam faqat nisbatan ijodiy harakatlarni bajarishi mumkin ... Bunday bayonotlar bilan bir qatorda, ijodiy jarayon tarkibida ongsiz jarayonlarning mavjudligiga e‘tibor qaratildi. Keyinchalik, ijodkorlikning har xil turlarini ilmiy o‘rganish o‘zgargani sari, umuman unga bo‘lgan munosabat ham, ijodga berilgan ta‘riflar ham o‘zgardi. So‘nggi paytlarda, asosan, yangi mahsulotning yaratilishi ilgari bo‘lmagan ijodkorlik bilan bog‘liqligiga e‘tibor qaratildi; ijodkorlik inson faoliyatining turli sohalarida, yangi moddiy va ma‘naviy qadriyatlar vujudga kelganda namoyon bo‘ladi. Ijodkorlik - bu ma‘lum bir mavzu uchun ilgari noma‘lum narsani yaratishga, kashf etishga hissa qo‘shadigan faoliyat. Yana bir nuqta ijodiy faoliyat ko‘lami bilan bog‘liq.

Ijtimoiy amaliyotda, qoida tariqasida, ijodkorlik kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatsiya kabi yangilik toifalari bilan o‘lchanadi. So‘nggi paytlarda tashkiliy va texnologik jarayonlarga yangilik kiritish bilan bog‘liq innovatsion (innovatsion) faoliyat haqida ko‘p narsa aytiladi. Ammo bunday faoliyatni ratsionalizatsiya deb atash mumkin. ratsionalizatsiya - mavjud texnologiyalardan foydalanishni yaxshilash uchun (biz faqat texnik muammolarni hal qilish bilan bog‘liq jihatni olamiz). Shunday qilib, biz buni aytishimiz mumkin: ixtirochi, birinchi navbatda, yakuniy effekt, funksiya, dizayner - funktsiyani bajaruvchi qurilma va ratsionalizator bilan qiziqadi - tugallangan qurilmadan ba‘zi shaxsiy maqsadlar uchun yanada oqilona foydalanish. Ratsionalizatorlik taklifi - bu ma‘lum bir muammoning mahalliy (umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan ixtirodan farqli o‘laroq) yangi o‘ziga xos muhitda (masalan, zavodning ba‘zi ustaxonalarida) ishlashini yaxshilash uchun ma‘lum bir muammoning echimi. lekin butun zavod miqyosida emas, balki eng ko‘p ishlab chiqarish).

Ma‘lum hollarda ratsionalizatorlik taklifi ixtiro bo‘lishi mumkin. Dizaynni ixtirochi va ratsionalizatorlik faoliyatiga "bog‘lab qo‘yish" mumkin, agar ularni amalga oshirish uchun ma‘lum dizaynlarni yaratish zarur bo‘lsa. Ixtiro, dizayn va ratsionalizatsiya o‘rtasidagi amaliy farqni har bir faoliyatning maqsadlari xarakteridan izlash kerak. Ixtiro texnik muammoni, umuman muammoni hal qilishga qaratilgan; dizayn - tuzilmani yaratish; Loyiha - bu talabalar tomonidan amalga oshiriladigan intellektual va amaliy harakterdagi ijodiy yechim.

O‘qituvchi rahbarligida bajariladigan talabalarning mustaqil ishlari. Agar biz ijodkorlikning ishchi ta‘rifiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, uni yangi muammolarni hal qilish



yoki ilgari hal qilingan muammolarni hal qilishning yangi usullarini topish, ishlab chiqarishda yuzaga keladigan turli xil muammolarni, vaziyatli qiyinchiliklarni hal qilish bilan bog‘lash maqsadga muvofiq ko‘rinadi. va kundalik hayot. Yangi muammoning ijodiy echimining tuzilishini ko‘rib chiqishdan oldin, texnik ijodiyot turlari haqida umumiy ma'lumotga to‘xtalib o‘tamiz. Kasbiy ijod turlariga ixtiro, qurilish, ratsionalizatsiya, dizayn kiradi. Texnik ijodkorlikning barcha turlari o‘rtasida yaqin munosabatlar mavjud. Texnologiyaning jadal rivojlanishining birinchi davrida bunday bo‘linish kuzatilmadi va ilmiy adabiyotlarda asosan ixtirochilik faoliyati haqida so‘z yuritildi. Hozirgi vaqtda kashfiyot, ixtiro va ratsionalizatorlik taklifining ilmiy va amaliy bo‘linmasi mavjud bo‘lib, ular nafaqat texnik ob'ektlarga nisbatan amalga oshiriladi. Shunday qilib, kashfiyot deganda, ilgari noma'lum bo‘lgan ob'ektiv mavjud bo‘lgan mulk yoki hodisani o‘rnatish tushuniladi. Ishlab chiqarish, madaniyat va boshqalar uchun ijobiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammoning yangi echimi deb nomlangan ixtiro. Ixtirolar konstruktiv (qurilmalar), texnologik (usullar) va yangi moddalarni yaratish bilan bog‘liq bo‘linadi[4].

Texnologiya fani bizga talim tizimining yangi sohalariga qadam qo‘yishga bo‘lgan imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunga yana yaqqol misol tariqasida mehnat talimi fani texnologiya faniga o‘zgartirilganligidir. Buning asosiy sababi mehnat so‘zi keng ma‘no va tushunchaga ega bo‘lib hozirgi texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonamizga to‘g‘ri kelmaydi. Texnologiya ta‘limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish lozim. Lekin bu sohada yuqori darajaga erishish uchun eng avvalo moddiy-texnik baza zamon talablariga javob berishi lozim.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim: - umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo‘llash imkoniyati bo‘lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas;

-texnologiya fanini o‘qitishda metapredmet kompetensiyalar va fanlararo bog‘liqlikning kamligi;



-texnologiya fani meʼyoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va darslik, ishchi daftar va oʻqituvchi kitoblari, multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi;

-texnologiya fani mazmuniga mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika, arduino kabi Oʻzbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur boʻladigan elementlarning kiritilmaganligi boʻlajak maktab bitiruvchisi va mutaxassislarning kasbiy sifatlariga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda;

-oʻquvchilarda taʼlim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun oʻquvchilarda zamonaviy texnika, mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika sohasidagi taktil kompetensiyalarni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan jihoz va uskunalarning yetishmasligi;

-texnologiya fani moddiy-texnika bazasini eskirganligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi hamda byudjetdan mablagʻ bilan taʼminlash boʻyicha yetarli choralar koʻrish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmaganli;

Foydalanilgn adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралдаги ПФ-4947 - сонли «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

2. Махбуба Аслановна Халмухамедова «НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИДА КАСБ-ҲУНАР ЭГАЛЛАШГА ДАЪВАТ.» Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal 3.Технология таълимини ривожлантириш стратегиялари модули бўйича ЎҚУВУСЛУБИЙ МАЖМУА. Тошкент-2021

4. А. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. “Та’лимда innovatsion texnologiyalar” Т.: 2008. – 128 б.



TA'LIMNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti magistranti

FayzullayevaMadina007@gmail.com

Tel: +998902970324

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim jarayonini turli xil raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganib, yurtimizda kerak bo'ladigan holatlarini o'rganib chiqildi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, raqamli texnologiya, pedagogik shart-sharoitlar, strategiya, motivatsiya, raqamli vositalar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Файзуллаева Мадина Абдумуниновна

магистрант факультета педагогики Чирчикского государственного

педагогического университета

+998902970324

Аннотация: *В данной статье изучены педагогические условия организации и развития образовательного процесса на основе различных цифровых технологий, а также изучены необходимые условия в нашей стране.*

Ключевые слова: *образование, цифровые технологии, педагогические условия, стратегия, мотивация, цифровые инструменты.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS OF ORGANIZING AND DEVELOPING EDUCATION BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi

Master's student in the Faculty of Pedagogy in Chirchik State Pedagogical University

+998902970324



Annotation: *In this article, the pedagogical conditions for the organization and development of the educational process based on various digital technologies have been studied, and the necessary conditions have been studied in our country.*

Key words: *education, digital technology, pedagogical conditions, strategy, motivation, digital tools.*

Kirish. Raqamli texnologiyalar, ya'ni IT (Information Technology), kompyuterlar, internet, smartfonlar, planshetlar, programmalash tillari, tizimlar va boshqa o'zaro aloqador qurilmalar kabi texnik vositalar orqali ma'lumotlar yig'ilish, saqlash, tahlil qilish, o'zgartirish va tarqatish imkoniyatlarini ta'minlovchi texnologiyalar jamlanmasidir. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda ko'plab sohalarda ishlatilmoqda, masalan, biznes, siyosat, madaniyat, ta'lim, tibbiyot va boshqa sohalarda. Raqamli texnologiyalar ta'lim sohasida ham juda keng qo'llanilmoqda, chunki ular o'rganish jarayonini osonlashtirish, o'quvchilarga tajriba yaratish, va o'quv jarayonini ko'p tizimlash imkoniyatlarini ta'minlaydi[3].

Raqamli texnologiyalar orqali tashkil etilgan ta'lim jarayonlari dunyo bo'ylab o'quvchilarning interaktiv va samarali o'rganishini ta'minlaydi. Bu esa ularga global ma'lumotlar va bilimlarni osonlik bilan o'rganish imkoniyatini beradi. Shuningdek, bu texnologiyalar o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ham ta'minlaydi, chunki ular o'zlarining o'zlashtirilgan o'rganish yo'nalishlarini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xalqaro miqyosida raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonlari esa, turli mamlakatlarning ta'lim tizimlarini bir-biriga yaqinlashishi va ularga bir-biridan o'rgangan tajribalarni almashish imkoniyatini yaratadi. Bu esa ta'lim sohasida innovatsion rivojlanishni kengaytiradi va global maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni kengaytirish va ularni o'rganish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishga qaratilgan qadamni ta'minlash uchun "O'zbekiston-ICT" nomli kompaniyani tashkil etishni buyurdi. Bu kompaniya ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni kengaytirish, ta'lim materiallarini yaratish va tarqatish, o'quv dasturlarini tuzish va boshqalar kabi xizmatlar ko'rsatadi. Prezident ta'lim jarayonini raqamli



texnologiyalar asosida boshqarish uchun "O‘zbekiston-ICT" kompaniyasi ta’lim tizimida raqamli xizmatlar ko‘rsatish uchun mahalliy va xalqaro tarmoqlar bilan hamkorlik qiladi.

2021 yil 17-martda ”Raqamli texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini rivojlantirish va o‘quv dasturlarini amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-5187-son farmoni bilan, raqamli texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini rivojlantirish va o‘quv dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi[1]. Bu farmon orqali raqamli texnologiyalar asosida ta’lim jarayonlarini rivojlantirish, kompyuter darsliklari va onlayn platformalar boyicha qo‘shimcha tashkilotchiliklar kiritildi.

Bularning hammasi ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’lim sohasidagi yuksak siyosati va kelajagi uchun katta muhim ahamiyatga ega.

Materiallar va tadqiqot usullari. Ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish maqsadida, o‘quvchilarga yangi o‘rganish usullari, interaktiv darsliklar va dasturlar, onlayn platformalar va mobil ilovalar yaratishni o‘z ichiga oladi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning darslarda qatnashishini osonlashtiradi, ularning ma’lumotlarni amaliyotga aylantirishiga yordam beradi va o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashni ta’minlaydi.

Raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilingan ta’lim jarayonlari, o‘quvchilarga boshqalar bilan hamkorlik qilish, ma’lumot almashish va muhokama qilish imkoniyatini beradi. Bu esa ularning ijtimoiy va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilingan ta’lim jarayonlari, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini kuzatish va baholash uchun ma’lumotlar to‘plashi, analiz qilish va ma’lumotlar asosida individual dasturlar tuzish imkoniyatini beradi. Bu esa har bir o‘quvchining o‘zining rivojlanish yo‘li va talablari asosida ta’lim olishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilingan ta’lim jarayonlari, o‘quvchilarning o‘zlashtirilgan, samarali va maqsadga muvofiq ta’lim olishini ta’minlaydi va ularning ma’lumotlarni amaliyotga aylantirishiga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikr-mulohazalarini rivojlantiradi va ularni innovatsion muammolarni hal qilishga ilhomlantiradi.



Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar kerak:

O'quvchilarning raqamli texnologiyalar orqali o'rganish jarayonida barcha qatnashchilar uchun qulaylik va samarali ta'lim muhitini ta'minlash uchun zarur bo'lgan texnologik vositalar, darsliklar, va boshqa resurslarni tayyorlash va o'quvchilarga taqdim etish uchun kerakligini anglatadi.

O'quvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanishga qodir bo'lishi uchun zarur bo'lgan umumiy ma'lumot va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Bu ma'lumot va ko'nikmalar o'quvchilarga raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularga qulaylik qilish uchun kerak bo'lgan asosiy texnologiyalar haqida ma'lumotlardan iborat bo'lishi mumkin, masalan, kompyuter, internet, dasturlar va boshqa raqamli vositalar. Shuningdek, pedagogik kadrlar o'quvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanishini ta'minlash va ularga yordam berish uchun tayyor bo'lishi kerak. Bu shart-sharoit pedagogik kadrlarning raqamli texnologiyalarni o'rganish, ularga yordam berish, va o'quvchilarga texnologiyalardan foydalanishni o'rgatish uchun tayyor bo'lishi kerakligini anglatadi. Bundan tashqari, raqamli ta'lim vositalari bilan ta'lim jarayonini tashkil qilish uchun o'qituvchilarni ham tayyorlashi kerak[4]. Bu o'qituvchilarning raqamli ta'lim vositalarini yaxshi tushunishiga yordam beruvchi kurslar va tadqiqotlar tashkil etilishi kerak.

Raqamli ta'lim vositalari bilan ta'lim jarayonining mazmuni o'zgartirilishi kerak. Bu talabalarning zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini o'rganishga yordam beruvchi yangi darsliklar, o'quv dasturlar va boshqa ma'lumotlar tayyorlashni talab qiladi. Ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish uchun ma'ruzalar, darsliklar va boshqa resurslarni tayyorlash va rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar asosiy o'rinda. Bu pedagogik shart-sharoitlar ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish uchun ma'ruzalar, darsliklar va boshqa resurslarni tayyorlash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik bilim va ko'nikmalar haqida ma'lumotlardan iborat bo'lishi mumkin.

Pedagogik usullarni va tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, talabalarning o'zlashtirish va muhokama qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quv jarayonini monitoring qilish va talabalarning o'zlashtirishiga yordam beruvchi boshqa usullarni o'rganishni talab qiladi.



Shuningdek, raqamli ta'lim vositalari bilan ta'lim jarayonini tashkil qilish uchun talabalarning o'qitish usullariga mos kelish kerak.

Raqamli ta'lim vositalari bilan ta'lim jarayonini rivojlantirish uchun texnologik shart-sharoitlarga ham e'tibor berilishi kerak. Bu ta'lim klasterining IT infrastrukturini rivojlantirish, talabalarning qulayliklari uchun zarur bo'lgan ta'lim vositalarini ta'minlash, o'quv jarayonini monitoring qilish va ma'lumotlar tizimlarini yaxshilashni talab qiladi.

Natija va tahlil. Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil qilish va rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar kerak. Ular quyidagi shart-sharoitlarni o'rganish orqali raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini samarali va effektiv rivojlantirishga erishish mumkin.

1. Pedagogik strategiyalar: Pedagogik strategiyalar, texnologiyalar foydalanishni ta'lim jarayonini amaliylashtirish, o'quvchilarni motivatsiyalash va ta'lim natijalarini oshirish uchun xavfsiz va samaradorlikni ta'minlash uchun muhimdir.

2. O'qituvchilar tayyorligi: O'qituvchilar raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va ularni ta'lim jarayonida integratsiya qilish uchun tayyor bo'lishlari kerak[5]. Ular texnologiyalarni foydalanishni, o'quvchilarni qiziqtirishni, ularning hamkorligini va fikrini o'zgartirishlari kerak.

3. O'quvchilar motivatsiyasi: O'quvchilarni texnologiyalar orqali ta'lim jarayoniga qatnashishga qiziqtirish, ularning diqqatini tortish va o'rganish motivatsiyasini oshirish uchun muhimdir.

4. Texnologiyalar bilan tanishish: O'quvchilar, o'qituvchilar va ma'muriyat organlari texnologiyalarni tushunish, ularning foydalanishining afzalliklarini, nafratlari va afzalliklarini o'rganishlari kerak.

5. Adolatli talim vositalarining amaliyoti: Texnologik vositalar o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimlarining yaxshi tuzilishi va mudofiasi, foydali ilovalarni taqdim etish va o'qituvchilar va o'quvchilarga texnologiyalardan samarali foydalanishning qulay yollari kengaytirish kerak.



6. Mustaqil o‘rganish: Raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilingan ta’lim jarayonida mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirish kerak. O‘quvchilar o‘zlarining qiziqtirgan mavzularni va ularga oid ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan sharoitlar asosida ta’lim klasteri raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishi va pedagogik jarayonni yanada rivojlantirishi mumkin. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt bilan bog‘liq texnologik rivojlanish va o‘z-o‘zini o‘rishni ta’minlash, tashqi hamkorlikni rivojlantirish va shu kabilarni turli sohalarda rivojlanishi o‘zaro bog‘liqlikka ega. Raqamli texnologiyalarning yanada rivojlantirilishi va jamiyatda ravnaq qilinishi ijobiy holat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [PK-5187-сон 19.07.2021.“Raqamli ishonch” raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jang‘armasini tugatishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida \(lex.uz\)](#)
2. [Shavkat Mirziyoyev oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqladi \(kun.uz\)](#)
3. Clark-Wilson, A., Robutti, O., & Thomas, M. (2020). Teaching with digital technology. *Zdm*, 1-20.
4. Ярашов, М. (2021). Та’лим тизимida рақамli texnologiyalarning o‘rni. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 5(5).
5. Mahmudovna, I. S., & Fayzulloyevna, N. F. (2023). Та’лим jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish. *Miasto Przyszłości*, 32, 47-49.
6. Karimova, Z. (2023). Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar. *Научный Фокус*, 1(1), 1125-1129.



YOSH AVLODNING RUHIY SALOMATLIGINI TA'MINLASHDA DA PSIXOLOG VA OTA – ONA HAMKORLIGI

Berdibayeva Nozima

Namangan davlat universitaeti Pedagogika fakulteti

Annotatsiya: *Psixologlarning ish faoliyati zamonamizning eng diqqatga sazovor sohalaridandir. Yoshlar psixolog haqida allaqachon tushunchaga ega bo'lib ulguranglar, biroq bundan bexabar ota – onalar ham yo'q emas. Quyida keltiradigan maqolamizda ota – onalarning sog'lom ruhiyatli farzand tarbiyalashdagi ba'zi kamchiliklarni keltirib, undan so'ng tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ehtiyoj, emotsional, intellectual, suidsidal, deviant xulq, xayrixoxlik, ustanovka.*

Inson bor ekan unda ehtiyojlar ham bo'ladi, fiziologik ehtiyojlar qondirilishi shart bo'lgan, masalan, ovqatlanish, nafas olish, tashnalik va shunga o'xshash ehtiyojlar. Bu ehtiyojlar qondirilmasa, bizning hayotimizga xavf solishi mumkin. Oilada, do'stlar yoki yaqinlar davrasida qondiriladigan boshqa ehtiyojlar ham mavjud. Ularning qondirilmasligi hayot faoliyati uchun jiddiy xavf tug'dirmaydigandek ko'rinsada, lekin, suidsidal holatlar, psixologik travmalarni, stress, depressiya, agressivlik holatlarini kelib chiqishining asosiy sababi hisoblanadi. Ularni oldini olish uchun aholiga psixolog yordami zarur. Aynan shuning uchun ham Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.06.2023 yildagi PQ-196-son "aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlarni imzoladi[1]. Bunga ko'ra 2023-yilning 1-avgustidan boshlab tuman shahar markaziy poliklinikalarida tibbiy-psixolog shtati joriy qilindi. Vazirlar mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli qarori ham "Psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimining yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida" ekanligi quvonarli holatdir[2].

Endi dunyo miqyosida olib qarasak psixologlarga ehtiyoj yuqori, ularning qadr-qimmatini ulug'lanadi. Hatto har bir shaxsning o'zining shaxsiy psixologi, oilaning oilaviy psixologi, korxon va tashkilotlarning ham o'z xodimlari uchun psixologik xizmatni yo'lga qo'yishgan.



Yana ularda psixologlar psixologiyaning alohida sohalari bilan ishlaydilar. Masalan, emotsional, intellektual, suitsidal holatlar va yana boshqa ko‘plab yo‘nalishlar bor. Germaniya universitetlari psixologiyaning magistratura bosqichi uchun 2000 dan ortiq yo‘nalishlarini taklif qiladi. O‘zbekistonda “O‘zbekiston davlat psixologiya universiteti” ning tashkil etilishi bu sohada bizning ham imkoniyatlarimizni kengayganidan darak beradi.

Diqqatimizni psixologik sog‘lom avlodga qaratsak psixologik sog‘lom inson o‘zini-o‘zi har tomonlama kamol toptirishga, o‘zini-o‘zi nazorat qilishga, ya‘ni turli oqimlar, zararli odatlar, biz uchun begona bo‘lgan madaniyat, omma fikriga beixtiyor xayrixohlik bildirish kabilar doirasiga tushib qolmaydi, o‘zining shaxsiy fikri, o‘z haqiqatlariga, o‘zining tartibiga amal qilishga o‘zida iroda kuchli topa oladi, lekin, yoshlarning aksariyati bunday qobiliyatga ega emasdek, buning asosiy sababi nima avvalo bolaning tug‘ilmasdan oldingi psixologik holati va oilada bunga e‘tibor berish darajasining pastligi bolalarga shaxs sifatida emas, shunchaki bola sifatida qaralishi, ularning fikrlari, hohishlari ko‘p hollarda eshitilmasdan e‘tiborsiz qoldirishi bizning jamiyatimizning ustanovkasiga aylanib ulgurgan. Ilk bolalik dabrida bolada yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usi shakllanadi yoki aksincha, ularning qarama-qarshisi bo‘lmish uyat va shubxa hiss hosil bo‘ladi[5]. Bixevioristik yo‘nalish namoyondasi Jon Lokk bolani oppoq taxtaga o‘xshatgan. Diniy manbalarda ham bola toza fitrat bilan tug‘ilishi, uning ta‘lim-tarbiyasi bolaning ota-onasidagi haqqi hisoblanadi. Bola dunyoni anglashni boshlab, olamga qiziqishi ortganda hamma narsani ushlab ko‘rgisi, qilib ko‘rgisi keladi, lekin, ota-ona o‘zining tinchi va bolani xavfsizligini o‘ylab, “tegma”, “qilma” degan taqiqlarni qo‘yishlari, bolada vaqt o‘tib, ong ostiga joylanib borib, keyinchalik loqaydlikka sabab bo‘ladi. Bolalar ilk bolalai davrining birinchi yarmida predmetlar bilan harakat qilib, tanishib boradilar. Harakatlarning barcha koordinatsiyasi bolada barqaroq diqqatning rivojlanishiga, idrokning aniq bo‘lishiga va iroda kuchining o‘shishiga olib keladi[3]. Bola tarbiyasida ota-ona tomonidan yo‘l qo‘yiladigan yana bir kamchilik – boladagi o‘zgarishlar e‘tiborga olinmasligi. Bu salbiy yoki ijobiy bo‘lishining farqi yo‘q, ba‘zan bolalarda ijobiydek ko‘ringan odatlar kelib chiqish sababiga ko‘ra salbiy bo‘lishi va uning natijasi salbiy oqibatlar bilan tugashi mumkin, bu ayniqsa o‘smirlik davrida kuzatiladigan holatlardandir. O‘smirlar va ilk yoshdagi o‘spirinlarning xulq-atvoriga do‘stlari



ota-ona va pedagoglarga nisbatan bir necha marta kuchliroq ta'sir etadilar. Buni shu bilan tushuntirish mumkin, o'smir bolaning yetilmaganligi va tajribasizligi uni tevarak atrofdagi kimsalardan madad axtarishga majbur qiladi. O'smir bolaga uni istaklarini tushunadigan va ularni amalga oshirishga yordam beradigan do'st kerak[4]. Shu ilinjda ko'pchilik bolalar turli oqimlar ta'siri, o'zining g'arazli niyatni amalga oshirmoqchi bo'lgan pedofillarning oson o'ljasiga aylanishyapti.

Yuqorida keltirilgan holatlarni oldini olish mavjud muammoni istiqboli choralarini ishlab chiqish mutaxassis psixologlarning asosiy vazifasi hisoblanadi shuning uchun ham 2018-yil 1-sentabrdan maktablarda psixologi shtatlari joriy qilindi, bunda biri shtat birligi uchun 250nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Bunda amaliyotchi psixolog yolg'iz o'zi emas, nspector psixolog bilan hamkorlikda ishlaydi. Bu psixologlarni qanchalik ahamiyatli shaxslar ekanini bildiradi. Psixolog qayerga borsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab, texnikum bolalarni turli psixologik usullar va metodlar yordamida o'rganib, ularda bor bo'lgan normadan og'ish, deviant xulq, turli oqimlarga qo'shilishga moyillik, suidsid ehtimolini oldindan aniqlashi mumkin, natijalar asosida o'qituvchi, ota-ona, bola bilan ishlab turli yomon oqibatlarini oldini olishi ehtimoli yuqori.

Hozir zamonning rivojlanishi, raqamli axborotning tez suratda o'sishi, gadjetlar orqali turli ma'lumotlar oqimining kirib kelishi, bular orasida psixologlar xizmatlari, ularning vazifalari haqidagi ma'lumotlarning borligi psixolog shaxsini, faoliyatini, obro'sini oshiradi. Yoshi katta avlodlariga qaraganda yoshlar psixologlarni qiziqish bilan qarshi olishi, o'zlaridagi turli emotsiyalar va holatlarni ochiq ayta olishlari ularni sog'lom muhitga intilishlarini bildiradi.

Yuqorida keltirilgan ota-onalar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklarga quyida ba'zi tavsiyalar keltirib o'tamiz:

1. Bolalar biror masala yuzasidan fikr bildirganlarida ularni diqqat bilan eshitish, talablarini imkon qadar qondirish kerak. Bu ularni kelajakda mustaqil fikrlaydigan o'ziga ishonchini baland qilib tarbiyalashingizning asosi bo'lib xizmat qiladi.

2. Bolalar harakatlanishni boshlaganlarida olamni o'rganishga juda qiziqishadi, hatto o'z qo'llari ham ularga o'zgacha ko'rinadi. Biror narsani ushlaganda, bajarganda unga taqiq



qo‘ymasdan, balki bajarishlari uchun ko‘mak berish kerak. Xavfsizlik masalasiga kelsak, bolaning hayotiga xavf tug‘dirmaydigan ishlarga ruxsat berish kerak, xavfli narsalar bola ko‘zi tushmaydigan joyda yashirish kerak xalos.

3. O‘sib borayotgan bolada yosh davriga xos o‘zgarishlar bo‘lishi tabiiy, lekin, anglanmagan maylar, qondirilmagan ruhiy ehtiyojlar sababli bo‘ladigan noodatiy o‘zgarishlar jiddiy qabul qilinmaydi buyruq asosida bostirilishi bolada hislarning ochiqlanmasligiga va oqibatda turli noxushliklarning kelib chiqishiga sabab mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lex.uz
2. Lex.uz
3. “Rivojlanish psixologiyasi” Z.T. Nishanova, N.G‘.Karimova va boshqalar. TDPU Toshkent-2019 170-b
4. “Rivojlanish psixologiyasi” Z.T. Nishanova, N.G‘.Karimova va boshqalar. TDPU Toshkent-2019 246-b
5. “Umumiy psixologiya” D.G‘.Muhamedov, N.M.Mullaboyeva, A.I.Rasulov “Mumtoz so‘z” nashriyoti Toshkent-2018 228-b.



FAVQULODDA VAZIYATLARDA AHOLINI O‘Z VAQTIDA OGOHLANTIRISH VA XABARDOR ETISHNING INNOVATSION YECHIMLARI

Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Kasb ta’limi kafedrasida o‘qituvchisi,

+998902228801 Jasurbek3786@mail.ru

Qodirov Diyorbek Bo‘ltak o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Hayot faoliyati xavfsizligi yo‘nalishi talabasi

+998939950802

Annotatsiya: *Mazkur maqola favqulodda vaziyatlarda aholini o‘z vaqtida ogohlantirish tizimlari va vositalarini o‘rganish orqali yurtimizda yuzaga kelayotgan tabiiy texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan fuqarolarimiz o‘z vaqtida ogohlantirishni samaralari tizimini tanlash va joriy etish bo‘yicha tavsiyalardan iborat.*

Annotation: *This article consists of recommendations on the selection and implementation of a system of timely warning of citizens from natural and man-made emergencies occurring in our country by studying the systems and means of timely warning of the population in emergency situations.*

Аннотация: *Данная статья состоит из рекомендаций по выбору и внедрению системы своевременного оповещения граждан о чрезвычайных ситуациях природного и техногенного характера, возникающих в нашей стране, путем изучения систем и средств своевременного оповещения населения о чрезвычайных ситуациях.*

Kalit so‘zlar: *Favqulodda vaziyatlarda oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi, telvidiniya, radio, ijtimoiy tarmoq, samaradorlik muvofiqlashtirish, mobil qurilma, sirena*

Keywords: *Prevention of emergency situations and action in such situations state system, television, radio, business network, efficiency coordination, mobile device, siren*



Ключевые слова: *Предупреждение чрезвычайных ситуаций и действия в таких ситуациях государственная система, телвидение, радио, деловая сеть, координация эффективности, мобильное устройство, сирена.*

Kirish. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular sodir bo‘lganda harakat qilish bo‘yicha yaxlit davlat tizmi va uning muvoffiqshatiruvchi organi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi, sohaning zarur me‘yoriy-huquqiy bazasi shakllantirildi. Favqulodda vaziyatlar vazirligi, boshqa vazirlik va idoralarning favqulodda vaziyatlar profilaktikasi, ularning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha imkoniyatlarini mustahkamlash borasida ko‘lami va mazmuniga ko‘ra salmoqli ishlar oshirildi[8].

Respublikamizda xabar berish va ogohlantirishga oid bir qancha me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining 11.08.2023 yildagi “Favqulodda vaziyat ro‘y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanishni tashkil etish to‘g‘risida”gi [361](#)-son qarori qabul qilindi.

Unga ko‘ra:

- xabar berish tizimining asosiy maqsadi – bu aholi va tegishli organlarga favqulodda vaziyatlar haqida haqqoniy va tezkor ma‘lumotlar yetkazish;
- xabar berish tizimi respublika, xududiy, lokal va ob‘yekt darajasida amalga oshiriladi va FVV vaziri, fuqaro muhofazasi boshlig‘i va ob‘yektlar rahbarlarining buyrug‘i asosida ishga tushiriladi;



• **1-rasm (xabar berish tizimi)**

- Favqulodda vaziyatda (yoki ro‘y berishidan oldin) “Barchaga diqqat” signali va elektrosirenalar ruporli ovoz kuchaytirgich orqali 3 daqiqagacha aholiga eshittiriladi.



- signaldan so‘ng yuzaga kelgan favqulodda vaziyat haqida ma’lumot televideniye, radio va internet orqali davomiyligi 5 daqiqagacha bo‘lgan video va audiorolik ko‘rinishda yetkaziladi;

- shuningdek aholi mobil operatorlar orqali ham xabardor qilinadi.

Aholini favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish radio, televideniya vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunda fuqoralarni ogohlantirishidan oldin sirena, ishlab chiqarish gudogi, transport vositalarining signallari va boshqa belgilar orqali ogoh etiladi. Ya’ni bu belgilar “DIQQAT HAMMAGA” degan ma’noni anglatadi. Shu belgilarni eshitgan har bir fuqoro radio, televizorlarni qo‘yishlari zarur. Har bir ofat yuz berganda , ularni fuqoralarga hamda iqtisodiyotga ko‘rsatadigan ta’sir xususiyatlarini hisobha olgan holda ogohlantirish mumkin[5]. Masalan:

a) Atom elektr stansiyasida yuz bergan avariya haqida fuqoralar muhofazasi quydagi tartibda xalqni ogoh qiladi: “DIQQAT”, Fuqoro Muhofazasi shtabidan gapiramiz, “Fuqoralar atom elektrstansiyasida avariya sodir bo‘ldi” shu ayis atrofida joylashgan “UzBAT” korxonasi, Hamza aloqa uzatish tarmog‘i, Toshkent mineral suv quyish zavodi va uy-joylar, mahallarga radioaktiv changlarning tushishi kutilmoqda. Shu hududda yashovchi hamma fuqoralar o‘zlarining, yashovchi uylari germitikligini (zichligini) mustahkamlashlari, uy hayvonlarini pana joyga kiritishlari, oziq-ovqat mahsulotlarini, suvlarini radioaktiv chng tushishidan saqlashlari, o‘zlari esa yodli preparatdan qabul qilishlari kerak. Keying xatti-harakatlar fuqoralar muhofazasi shtabi yo‘riqnomalari asosida boradi[6].

b) Yer silkinish ehtimolida: “DIQQAT” Fuqoralar muhofazasi shtabidan gapiramiz. Fuqoralar! Yer silkinish ehtimoli bor! Gaz, suv, elktroenergiya, yonayotgan moddalarni o‘chirib, uylarni xavfsiz holatda qoldirib, eshitgan ma’lumotlarni qo‘ni-qo‘shnilarga yetkazing. Kerakli narsalarni: kiyim-kechak, hujjat, oziq-ovqat, suv olib baland qurilgan imoratlardan uzoqroq joylarda saqlaning. Yer silkinganda inshotlarda bo‘lsangiz, darhol eshik, oyna ustunlarni tagiaga turib oling. Tartib va osayishtalik saqlansin. Fuqoro muhofazasi shtabi yo‘riqnomalariga e’tiborni qarating[7].

Natija va mulohazalar. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarida aholini o‘z vaqtda ohohlantirish tizimi qanday yo‘lga qo‘yilgan.



Rossiya Federatsiyasida. NTSUKS – inqiroz sharoitida milliy boshqaruv markazi – FSSN – seysmologik kuzatuvlar va zilzilalar prognozi Federal tizimi, KSEON – aholini favqulodda ogohlantirish uchun keng qamrovli tizim hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2012 yil 13 noyabrdagi 1522 – sonli Farmonini amalga oshirish doirasida KSEON erta ogohlantirish tizimi bo‘lishi kerak. Respublika va mahalliy darajada KSEON tizimini joriy etish ogohlantirish muddatini ta’minlaydi 5 daqiqadan oshmasligi kerak; ob’ekt darajasida 1 daqiqadan oshmasligi va 100 % qamrab olishi lozim. Moskva shahri aholisini ogohlantirish tizimining kuchi va vositalari.


Ogohlantirish turi	Miqdori	Aholini qamrab olish
Radio nuqtalar	2.2 mln. dona	83%
Elektrosirenlar	1316 dona	80%
Oksion	116 sht moduley	14%
Ko‘chadagi dinamiklar	1745 sht.	34%
Telvideniya	1 – y I 3 – y kanal	100%
Radio UKV	“Mayaka” “Radio Rossini” “Orfeya” “Yunosti”	100%

Yaponiya. J-Alert (Zenkoku Shunji Keiho System) – Yaponiyada milliy ogohlantirish tizimi, jamoatchilikni turli favqulodda vaziyatlar haqida tezda xabar berish va ogohlantirish uchun mo‘ljallangan. Yaponyalik ekspertlarning fikriga ko‘ra, 2011 yilgi dahshatli sunamidan so‘ng ogohlantiruvchi fuqoralar umumiy sonining 78% ko‘cha eshittirish tarmog‘i orqali 5% telvideniya orqali, radio orqali 12% mobil qurilmada 3% ogohlantirish oladilar. Yaponiyada zilziladan tashqari tabiiy ofatlardan 200 dan ortiq vulqon mavjud, shundan 49 faol hisoblanadi.

J-Alert – Yaponiyada butun mamlakat bo‘ylab aholini ogohlantirish tizimi mavjud. U sun‘iy yo‘ldoshlar orqali ishlaydi, bu esa rahbarlar va aholiga mahalliy ommaviy ahborot vositalari va srenalari orqali tezkor xabar berishga imkon beradi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, fuqaro muhofazasi rahbarlarini ogohlantirish 1 soniyada amalga oshiriladi va favqulodda vaziyat xavfi to‘g‘risida aholiga xabar yuborish uchun 4-20 soniyagacha vaqt yetadi[6].

Ogohlantirishlar quydagicha amalga oshiriladi:

Noqulay ob-havo haqida ogohlantirishlar faqat yapon tilida efirga uzatiladi. Boshqa barcha favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish tizimi zilzilalar, tsunami, vulqon portlashlari va harbiy harakatlar haqida besh tilda uzatilishi yo‘lga qo‘yilgan. Bular: Yapon, Ingiliz, Xitoy, Koreys va Portugal. Ushbu tizimni yaratish va uni ta‘mirlash ko‘p mablag‘ talab etadi.



2-rasm. (J-ALERT tizimi)

Amerika Qo‘shma Shtatlari. Amerika Qo‘shma Shtatlardagi ogohlantirish tizimi turli yo‘nalishlarda ishlaydi. Birinchisi, simsiz favqulodda ogohlantirish tizimi (Wireless Emergency Alerts, WEA). Bu vakolatli davlat organlari tomonidan mobil telefonlar va mobil qurilmalaraga yuborilgan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida ogohlantiruvchi matnli xabarlar hisoblanadi. Xabarlar favqulodda vaziyat xavfi vaqtida ishlashga mo‘ljallangan mobil aloqa antenalarini orqali uzatiladi. Agar xavf New – Yorkda paydo bo‘lsa, ogohlantirishlar New – York fuqorasi bo‘lmagan yoki boshqa mamlakatdan kelgan shaxslar mobil qurilmalari uchun ham WEA texnologiyasi qo‘llab – quvvatlaydi va New – Yorkda joylashgan barcha qurilmalarga ogohlantirish xabari keladi. Ular alohida signal va tebranishlarga ega, shuning uchun boshqa aloqa signallari bilan aralashmagan holda alohida ishlaydi. Ogohlantirish va xabar berish davlat va mahalliy jamoat xavfsizligi organlari, milliy ob - havo prognozi xizmati va AQSH prezidenti tamonidan berilishi mumkin.

Xulosa. Favqulodda vaziyatlarda aholini o‘z vaqtida ogohlantirish va xabardor qilish, yuzga kelayotgan favqulodda vaziyatlarini oqibatlarini oldini olishda, aholini jonini



sogʻligʻini, moddiy va madaniy boyliklarini saqlashda muhim oʻrin tutadi. Oxirgi yillarda favqulodda vaziyat soni oʻtgan yillarga nisbatan shiddat bilan oʻsib bordi. Xususan yurtimizda va dunyo miqyosida sodir boʻlayotgan tabiiy ofatlar bunga misol boʻla oladi. JMT (BMT tarkibiga kiruvchi Jahon Meteorologiya Tashkiloti) maʼlumotlariga qaraganda, 1970-2019 yillar orasida birgina qurgʻoqchilik oqibatida 650 mingdan ziyod kishi vafot etgan, boʻronlar 580 ming, suv toshqinlari 59 ming, ekstremal havo harorati esa 56 ming kishining oʻlimiga sabab boʻlgan. Bu vaqt oraligʻida boʻronlar 440 milliard yevrolik, suv toshqinlari qariyb 100 milliard yevrolik zarar yetkazgan.

Yurtimizda ham favqulodda vaziyatda aholini oʻz vaqtiga ogohlantirishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan rivojlanib borayotgan davlatlarning tajribalarini oʻrganish orqali yurtimizga tatbiq qilish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining «Fuqaro muhofazasi toʻgʻrisida»gi Qonuni. 2000-yil 26 may.
2. Oʻzbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish toʻgʻrisida»gi Qonuni. 1999-yil 20-avgust.
3. Yuldashev Oʻ.R., Djabbarova Sh., Xasanova O.T. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik –T.: Iqtisodiyot, 2014. - 268 b.
4. Tojiyev M., Nigmatov I. Hayot faoliyati xavfsizligi. Oʻquv qoʻllanma –T.: Tafakkur - Boʻstoni, 2012. - 271 b.
5. Nigmatov I., Tojiev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik –T.: Iqtisodiyot moliya. 2011. - 260 b.
6. Tabiiy favqulodda vaziyatlari aholini va xududlarni muhofaza qilish. M aʼruza matni. Oʻzbekiston Respublikasi FMI. T. 2000 y.
7. Hozirgi zamon sharoitida fuqaro muhofazasining dolzarb muammolari. Ilmiy amaliy anjuman materiallari. Oʻzbekiston Respublikasi FVV FMI. T. 2001 y.
8. Turagalov, T. D., & Nasriddinov, N. J. M. oʻgʻli. (2022). ZAMONAVIY YONGʻIN OʻCHIRISH AVTOMATIK TIZIMLARINING AHAMIYATI VA



MUAMMOLARI. Евразийский журнал академических исследований, 2(6), 705–709.
извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/2306>

9. Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o‘g‘li. (2022). SANOAT KORXONALARIDAN CHIQAYOTGAN ZARARLI MODDALARNI SABABLARI VA YECHIMLARI. Zamonaviy fan va ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha xalqaro konferentsiya materiallari, 1 (3), 144 149.<https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/597> dan olindi

10. Mamadboev, S. (2023). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE ORGANIZATION OF PROPER MOVEMENT IN EMERGENCY SITUATIONS. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(19), 90-93.



TIBBIYOT FANLARI

14.00.00

МЕДИЦИНСКИЕ НАУКИ

MEDICAL SCIENCES

**OVQAT HAZM QILISH TIZIMI. HAZM TIZIMI OLDINGI BO‘LIMI A‘ZOLARI.
HAZM QILISH NAYINING DEVORLARI TUZILISH PRINSPI**

Xafizova Klara Abdumannobovna

Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

e-mail: xafizovaklara@gmail.com Tel: +99897 520 23 11

Saidkarimova Sabohat Bahodir qizi

Namangan davlat universiteti, Pediatriya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: sabohatsaidkarimova1@gmail.com Tel: +998 94 635 57 27

Annotatsiya: Ushbu maqolada hazm qilish a‘zolari tuzilishi, unung gistologiyasi va hazm yo‘llari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Hazm qilish sistemasida organizmga kirgan ozuqa moddalar fermentlar ishtirokida kimyoviy va mehanik o‘zgarishlarga uchrashi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Metabolik reaksiyalar, proteazalar, karbogidraza, lipaza, embrion taraqqiyoti, dentin va sement.

**ПИЩЕВАРИТЕЛЬНАЯ СИСТЕМА. ЧЛЕНЫ ПЕРЕДНЕГО ОТДЕЛА
ПИЩЕВАРИТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ. ПРИНЦИП СТРОЕНИЯ СТЕНОК**

ПИЩЕВАРИТЕЛЬНОЙ ТРУБКИ

Хафизова Клара Абдуманнобовна

Наманганский государственный университет, преподаватель

e-mail: xafizovaklara@gmail.com

Номер телефона: +99897 520 23 11

Саидкаримова Сабохат Бахадир кизи

Наманганский государственный университет,

студент 2 курса педиатрического факультета



e-mail: sabohatsaidkarimova1@gmail.com

Номер телефона: +998 94 635 57 27

Аннотация: В статье представлены сведения о строении органов пищеварения, его гистологии и пищеварительном тракте. Питательные вещества, поступающие в организм по пищеварительной системе, претерпевают химические и механические изменения при участии ферментов.

Ключевые слова: Метаболические реакции, протеазы, карбогидраза, липаза, эмбриональное развитие, дентин и цемент.

DIGESTIVE SYSTEM. MEMBERS OF THE ANTERIOR PART OF THE DIGESTIVE SYSTEM. THE PRINCIPLE OF THE STRUCTURE OF THE WALLS OF THE DIGESTIVE TUBE

Xafizova Klara Abdumannobovna

Namangan State University, Teacher

e-mail: xafizovaklara@gmail.com

Tel number: +99897 520 23 11

Saidkarimova Sabohat Bahodir qizi

Namangan State University, second year student of pediatrics

e-mail: sabohatsaidkarimova1@gmail.com

Tel number: +998 94 635 57 27

Abstract: This article presents information about the structure of digestive organs, its histology and digestive tracts. Nutrients entering the body in the digestive system undergo chemical and mechanical changes with the participation of enzymes.

Key words: Metabolic reactions, proteases, carbohydrase, lipase, embryonic development, dentin and cementum.

Ovqat hazm qilish tizimi hazm nayi va undan tashqarida joylashgan 3 juft so‘lak bezlaridan iborat. Ovqat hazm qilish tizimining asosiy vazifasi oziq -ovqat tarkibidagi ozuqaviy moddalarni ajratib olishdir, oziq - ovqatni kichikroq elementlarga aylantiradigan fermentlar va jismoniy jarayonlar ta’siri orqali amalga oshadi.Bu amalga oshirilgandan



soʻng,ozuqa moddalari soʻriladi va qon oqimiga qoʻshiladi,ular orqali hujayralar boʻylab tanada tarqaladi. Metabolik reaksiyalar hujayralar ichida sodir boʻladi, ular energiya va hujayralarni tuzilishini saqlab qolish uchun moddalar beradi. Tanadagi yirik bezlar yaʼni 3 juft soʻlak bezlari ,jigar va meʼda osti bezlari ham ovqat hazm qilish jarayonida ishtirok etadi [Кодиров Э.К. Гистология. 1994].Hazm nayi ogʻiz boʻshligʻi,qiziloʻngach, meʼda, ingichka ichak, yoʻgʻon va toʻgʻri ichakdan tashkil topgan. Vazifasi organizmning yashashi, oʻsishi , energetik ehtiyojlarini qondirish uchun muhim boʻlgan moddalarni yetkazib berish va moddalar almashinuvida ishtirok etish.Bu tizim ovqat hazm qilish jarayonida ishtirok etadigan barcha organlardan iborat boʻlib,u oziq-ovqat mahsulotlarini fiziologik funksiyalarini saqlab turishi uchun tanada ishlatilishi mumkin boʻlgan ozuqalarga aylantirishdan iborat.[Алмазов И.В., Сутулов Л.С.1978].

Ovqat hazm qilish tizimi hujayra darajasida ovqatlanishdan tashqari tanaga foydali boʻlmagan moddalardan xalos boʻlish uchun javobgardir,ular foydali boʻlmagan yoki toksik moddalar va patogenlar boʻlsin. Ushbu elementlar najasni hosil qiladigan elementlardir, bu esa nafas olish yoʻli bilan yoʻq qilinadi. Ovqat hazm qilish murakkab jarayon hisoblanadi, bunda ovqat fizik va kimyoviy oʻzgarishlar natijasida mayda zarrachalarga parchalanib, oshqozon va ichak boʻshligʻida qon va limfaga soʻriladi. Ovqat tarkibidagi oqsil, yogʻ va uglevodlarning fermentlar taʼsirida parchalanishi kimyoviy oʻzgarish deb ataladi.Ovqatni parchalovchi fermentlar 3 guruhga boʻlinadi: 1). PROTEAZALAR-oqsil parchalovchi fermentlar. 2).Lipaza-yogʻlarni parchalovchi fermentlar. 3).KARBOGIDRAZA-uglevodlarni parchalovchi fermentlar.Bu fermentlar til osti,jagʻ osti, quloq oldida ,oshqozon va ichaklarni shilliq qavati ostida joylashgan bezlardan hamda oshqozon osti bezlaridan ishlab chiqariladi. Ogʻiz boʻshligʻi-ovqat hazm qilish tizimining boshlangʻich aʼzosi hisoblanadi. Unda til, tish va soʻlak bezlari joylashadi. Ogʻiz boʻshligʻida ovqat aksariyat fizik va qisman kimyoviy oʻzgarishlarga uchraydi.[Zufarov K.A. Gistologiya 1991.].


Tishlar-oziq mahsulotlarini maydalab, ovqat hazm qilish jarayonida faol ishtirok etadi.Tishlar 2 xil boʻladi:sut tishlari va doimiy tishlar.Sut tishlari 20 ta , doimiy tishlar soni esa 32 ta.Sut tishlari bolaning 6 oyligidan 2 yoshigacha chiqadi.Sogʻlom bola bir yoshga toʻlganida 8 ta ,ikki yoshga toʻlganida esa 20 ta sut tishlari boʻladi. Gistologik jihatdan tishda



emal ,dentin, sement,pulpa va periodont tafovut etiladi. TARAQQIYOTI: Embrion taraqqiyotining 6-7 haftasida og‘iz bo‘shlig‘i epiteliysi qalinlashadi va ostidagi mezenximaga epitelial plastinka hosil qilib botib kiradi. Har bir epitelial plastinka o‘z navbatida ikkiga ajraladi.Oldingi-lunj-tish plastinkasi deyiladi va undan o‘g‘izning dahliz qismi hosil bo‘lib, Orqa-tish plastinkasi deyiladi va undan yuqori va pastki tish kurtaklari vujudga keladi. Tishda qattiq va yumshoq moddalar farqlanadi. Tishning qattiq qismi emal, dentin va sementdan, yumshoq qismi esa pulpa va periodontdan iborat.[Zufarov K.A. Gistologiya 1991.].

Til-mushakli a‘zo hisoblanadi. Ta‘m bilish ,oziqqa mexanik ishlov berish, yutish aktida qatnashishdan tashqari tovush hosil qilish kabi vazifalarni bajaradi. Tilning ustki, ostki va yon yuzalari farqlanadi. Tilning ustki va yon yuzalarida shilliq pardasi epiteliy va xususiy plastinkadan tashkil topgan bo‘lib, shilliq osti pardasi bo‘lmaydi. Tilning ostki yuzasida shilliq va shilliq osti pardalari mavjud. Tilning ustki va yon yuzalarida 4 xil so‘rg‘ichlar tafovut etiladi.: Ipsimon, Zamburug‘simon, Tarnovsimon, Bargsimon.[Зуфаров К.А. Гистология].

Til sprg‘ichlarining tuzilishida umumiylik mavjud.Ularda xususiy plastinkaning epiteliyga botishi natijasida hosil bo‘lgan birlamchi so‘rg‘ichlar va ularning tarmoqlanishi natijasida hosil bo‘lgan ikkilamchi so‘rg‘ichlar bo‘ladi. Til so‘rg‘ichlarining shakllari ikkilamchi so‘rg‘ichlarning tarmoqlanishiga bog‘liq bo‘ladi. So‘rg‘ichlar yuzasi ko‘p qavatli yassi muguzlanmaydigan (ipsimon so‘rg‘ichlardan tashqari)epiteliy bilan qoplangan.



Og‘iz bo‘shlig‘ida ovqat hazm bo‘lishida so‘lak bezlarining ahamiyati: og‘iz bo‘shlig‘ida 3 juft:til osti,jag‘ osti , quloq oldi so‘lak bezlarining kanalchalari ochiladi[Zufarov K.A. Gistologiya 1991].Bu bezlardan ajralgan so‘lak og‘iz bo‘shlig‘iga quyilib,ovqatni ho‘llab uning yutilishini qulaylashtiradi.So‘lak tarkibida uhlevodni parchalovchi prialin fermenti bo‘ladi.Shuning uchun non og‘izda ko‘proq chaynalsa, shirin mazza beradi.So‘lak tarkibida lizotsim degan modda bo‘lib ,u og‘iz bo‘shlig‘iga tushgan mikroblarni eritib yuborish xususiyatiga ega.



Qizilo‘ngach. Qizilo‘ngach devori 4 ta pardadan tashkil topgan: shilliq,shilliq osti ,mushak va adventitsiya. Shilliq va shilliq osti pardalar 7-10 tagacha bo‘shliqqa qaragan bo‘ylama yo‘nalgan burmalar hosil qiladi. Qizilo‘ngach bezlarining shilliq sekretini me‘dadan tushgan kislota ta‘siridan kuchsiz himoya qobig‘ini yaratadi. Me‘da shirasining qizilo‘ngachga tushishi quyi sfinkter mushaklarining bo‘shashi hisobiga ro‘y berishi mumkin va reflyuks-ezofagit, ya‘ni jig‘ildon qaynashiga sabab bo‘ladi. Agar bu surunkali davom etsa, shilliq pardada yaralar paydo bo‘ladi. Bu kasallik gastroezofageal reflyuks deyiladi[Zufarov K.A. Gistologiya 1991]. Agar bu kasallik davolanmasa, qizilo‘ngach epitelisida metaplastik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi va u Barrett qizilo‘ngachi deb nomlanadi.

Hazm nayining devorlari :hazm nayining devorlari 4 ta pardadan iborat:Shilliq, shilliq osti, mushak, Seroz pardalardir.[Кодиров Э.К. Гистология 1994.].

- 1).Shilliq parda- 3 ta qavatdan iborat: epiteliy, xususiy plastinka va mushak plastinka
- 2).Shilliq osti parda-ko‘p sonli qon va limfa tomirlariga boy.
- 3).Mushak parda 2 qavatdan iborat: ichki sirkulyar va tashqi bo‘ylama.
- 4).Seroz parda-qon va limfa tomirlari hamda yog‘ to‘qimalariga boy hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кодиров Э.К. Гистология. Тошкент «Ўқитувчи», 1994 йил.
2. Елисеев В.Г. тахрири остида. Гистология. Тошкент «Медицина», 1968 йил.
3. Зуфаров К.А. Гистология. «Медицина», Тошкент, 1982.
4. Алмазов И.В., Сутулов Л.С. Атлас по гистологии и эмбриологии. М., «Медицина», 1978.
5. Заварин А.А. Основы часной цитологии и сравнительной гистологии многоклеточных животных. Л. «Наука», 1976.
- 6.Иванов И.Ф. Ковалевский П.А. Цитология, гистология, эмбриология. Москва. «Колос», 1969.
7. Антипчук Ю.Н. Гистология с основами эмбриологии. М. «Просвещение», 1983.
8. Андрес А.Г. Пособие для практических занятий по гистологии и общей эмбриологии. М. «Просвещение». 1969.
- 9.Alimov D.A. Gistologiya va Embriologiya.



- 10.Badalxo‘jayev I Gistalogiyadan amaliy mashg‘ulotlar. (o‘quv qo‘llanma), Andijon-2006.
- 11.Bilich R.G. Biologiya, sitologiya,embriologiya, gistologiya, anatomiya cheloveka. S.Peterburg. Izd. 2001.
- 12.Zufarov K.A.Toshxodjayev P.I. Shishova YE.K. Hamidov D.X. Elektronnaya mikroskopiya organov i tkaney. T. «Medisina», 1971.
- 13.Zufarov K.A. Gistologiya T. Ibn Sino. 1991.
- 14.Zufarov K.A. Gistologiya Medisina. Toshkent, 1982.
- 15.Kirpichnikov YE.S. Praktikum po obshey gistologii. M.visshaya shkola, 1962.
- 16.Kuznesov S.A. Mushkambarov N.N. Goryachkina V.L. Atlas po gistologiya, sitologii, embriologii. M. Med-oye informativnoye agenstvo, 2002.
- 17.Anthony L. Mescher, Junqueira’s Basic Histology: Text and Atlas, 13-th ed.- 2013 – 559 r.
18. Zufarov K.A. Gistologiya: darslik - Toshkent, 2005 - ..b.
19. Gistologiya: Uchebnik / Pod red. Afanaseva Yu.I., Yurinoy N.A. – M.: Meditsina, 2002 – 744 s.
- 20.Kuznetsov S.L., Mushkambarov N.N., Goryachkina V.L.Atlas po gistologii, tsitologii i embriologii.-M.:MIA,2010



SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI

17.00.00

ИСКУССТВО НАУКИ

THE ART OF SCIENCES

**HUNARMANDCHILIK, XUSUSAN, KULOLCHILIKNING FARG'ONA VODIYSIDA
TUTGAN O'RNI**

Ubaydullayeva Shahnoza

Andijon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonning gavhari deb atalmish Farg'ona vodiysi hududi o'zining qadimiy shaharlari hamda hunarmandchilikning Chust pichoq va do'ppilari, Marg'ilon do'ppilari, ipakli matolari atlas, adrasi, shoyi, beqasamlari, kulolchilik mahsulotlari to'g'risida so'z yuritilgan.*

Kalit so'z: *Kulol, unsur, amaliy bezak, dastgox, angob, sir, xal, simobdon, usta-shogird, simmetriya.*

Аннотация: *В данной статье Ферганская долина, так называемая жемчужина Узбекистана, представлена с ее древними городами и ремеслами, такими как чустские ножи и шапки, маргилонские шапки, шелковые ткани, атлас, адра, шелк, бекасам, гончарные изделия. о.*

Ключевые слова: *гончар, элемент, практическое украшение, дастгох, ангоб, тайна, раствор, ртуть, мастер-подмастерье, симметрия.*

Abstract: *In this article, Fergana Valley, the so-called jewel of Uzbekistan, is presented with its ancient cities and handicrafts such as Chust knives and caps, Margilon caps, silk fabrics, satin, adra, silk, bekasam, pottery products. talked about.*

Key words: *Potter, element, practical decoration, dastgoh, angob, secret, solution, mercury, master-apprentice, symmetry.*

Bizga tarixdan ma'lumki o'zbek xalq amaliy bezak san'ati o'zining qadimiyligi, madaniyatining bebaho hamda serqirraligi bilan butun dunyoda o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda. Buni albatta hozirgi kungacha o'z me'moriy obidalarini saqlanib qolgan qadimiy



shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy bezak san‘ati namunasi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan takrorlanmas, bebaho san‘at asarlari bo‘lib, jahon madaniyati durdonalari qatorida o‘z o‘rniga ega. Jumladan ko‘p asrlar mobaynida orttirilgan moddiy, madaniy va ma‘naviy boyligimiz, xususan, o‘zbek xalq amaliy bezak san‘atining eng ko‘p rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, toshtaroshlik, suyak o‘ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik kabi turlari saqlanib qolganligini guvohi bo‘lamiz.

O‘lkamizning ko‘hna qal‘alari, qo‘rg‘on va xarobaga aylangan tepaliklardan A.A.Asqarov va uning yo‘ldoshlari kovlab topgan ibtidoiy ov qurollari, ishlab chiqarish, ro‘zg‘or buyumlari qadimiy Farg‘onada qadim davridan boshlangan hunarmandchilik madaniyat izlari hunarmandchilik tarixining naqadar uzoq o‘tmishga borib taqalishini isbotlagan. Ma‘lumki insonlar ishlab chiqarish faoliyatini mehnat taqsimoti: ovchilik, chorvachilik, dexqonchilik, hunarmandchilikdan boshlaganlar[1]. Natijada ovchilik uchun kamon, pichoq, nayza, dexqonchilik uchun o‘roq, bolta, bel-kurak, bug‘doy-don yanchish uchun tegirmon (xoroz) hunarmandchilik uchun nina bigiz, po‘stin – telpak uchun xayvon terisi, osh tuzi kabilar asta-sekin takomillasha borganligi sababli ularni jamoa tarzida ishlab chiqarish ustaxonalari oddiy bo‘lsa ham boshlang‘ich fabrikalar kasbhunarmandlar uyushmasi-markazlari hosil bo‘lgan. Shu tariqa Yevropa va Osiyo mamlakatlarida shamol tegirmonlari, suv tegirmonlari, qo‘l tegirmonlari, ot, eshak, tuya bilan xarakatlantiriladigan tegirmonxorozlarda don yanchilgan-un hosil qilingan yoki juvoz yog‘i ishlab chiqarilgan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida daryo, dengiz okean bo‘yi mamlakatlarida qayiq, kemalar yasalgan va qo‘shni yerlarni o‘zlashtirish, bosib olish (XVII-XIX) asrlarda paydo bo‘lib-kapitalistik tuzum paydo bo‘lgan. O‘rta Osiyo xususan O‘zbekiston, Farg‘ona zabt qilinganidan so‘ng ming yillardan buyon davom etib kelayotgan sopol hunarmandchiligi uy-shaharsozlik, kiyim-kechak, zargarlik, chetga sotish biroz kasod topsa ham yo‘q bo‘lib ketmagan. XX asrning 20-30 yillarida Farg‘ona, Quva, Marg‘ilon kabi shahar va tumanlarda hunarmand artellari ochilgan va ustoz-shogird usuli bilan Chust do‘ppi va pichoqsozligi, Marg‘ilon ipak va atlaschilik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik, sangarlik (marmarga naqsh o‘yish) uyushmalari ochilgan[2].



San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi[3].

San'at faoliyatning yetakchi faoliyatga aylanishi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga, kishilarning ma'naviy ongi rivojlanishiga bog'liq. Bu kulolchilik san'atini puxta o'rganish uchun insonda, avvalo, iste'dod bo'lishi kerak, - deydi usta kulol. – Mana shu hunar sir-asrorlarini qunt bilan, erinmay o'rgatgan ustozim, rahmatli usta kulol Umar Jo'raqulovdan bir umr minnatdorman[4]. Albatta, ushbu san'atni o'rganish mumkin, ammo o'z yo'li, uslubiga ega bo'lish juda murakkab jarayon. Xalq xunarmandchiligi va amaliy san'atining tur va shakllari haqida ham ayrim ma'lumotlarga ega bo'lish biz uchun zaruratdir. Bizning davrimizga kelib katta-katta shaharlardagi aholining ko'pchilik qismini hunarmandlar tashkil etmokda. “Hunar-hunardan unar” qabilida yoshlarimiz uchun maxsus san'at maktablari va boshka turdagi o'quv yurtlarining tashkillanishi ham asosiy omillardan biriga aylanib kelmoqda. Bu masalada davlatimiz olib borayotgan ijtimoiy-maishiy turmush tarzimizni yuksaltrishga qaratilgan ishlarning mohiyatini baholash ancha quvonarli holdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.Bulanov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T., 1991 yil.
2. M.Rahimov. O'zbekiston badiiy keramikasi. T., 1961 y.
3. A.Turg'unov.O'zbek kulolchiligi san'atining hududiy xususiyatlari.T. 2001.
4. Q.Usmonov., M.Sodiqov., S.Burxonova. O'zbekiston tarixi.-Toshkent: Sharq, 2005.-49 b
5. N.A.Dmitriyeva, L.I.Akimova. Qadimgi dunyo madaniyati. - M.: Bolalar kutubxonasi, 1998-25 b
6. N.Abdullayev. Madaniyatlar tarixi.-Toshkent: O'qituvchi, 1986.-118 b



PSIXOLOGIYA FANLARI

19.00.00

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

PSYCHOLOGICAL SCIENCES

TA'LIM JARAYONIDA RAG'BATLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Rayimxo'jayeva Barnoxon Komilxo'ja qizi

NamDU Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Kurbanova Zarifa Bokijanovna –NamDU Psixologiya kafedrasi dotsenti.

Tel: +998 91 054 59 51

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning o'quv faoliyati motivlari. Ularning bilim bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishiga ta'siri, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda jazolash va rag'batlantirish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'quv faoliyati, motivatsiya, motiv, ishonchsizlik, malaka, ko'nikma, rag'batlantirish, jazolash.

Annotation: This article talks about increasing students' interest in reading, punishing and encouraging them, and also about the development of knowledge, skills, and abilities.

Key words: Educational activities, motivation, motivation, insecurities, qualifications, skills, encouragement, punishment.

Аннотация: В данной статье анализируется роль мотивов учебной деятельности в усвоении знаний, умений и навыков, а также психологическая значимость методов наказания и поощрения в учебно-воспитательном процессе.

Ключевые слова: мотивы, мотивация, учебная деятельность, доверие, недоверия, самоуверенность, знание, умение, навык, наказание, поощрение.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berishdagi muvaffaqiyatlar motivatsiyaga asoslanadi, ya'ni bilimlarni o'zlashtirishda, ko'nikma va malakalarning shakllanishida hamda shaxsning ayrim sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyatli bo'lgan harakatga keltiruvchi stimullarga bog'liq. Qobiliyatning o'zi o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlashning garovi bo'lolmaydi, chunki zarur motivatsiyaning bo'lmasligi oqibatida shaxs tashabbussiz na o'quv faoliyatiga, na



muloqot jarayoniga kirisha oladi. Natijada psixologik rivojlanishni o'zida aks ettiradigan ijtimoiy faollikning turlarida kam ishtirok eta boshlaydi. S.L.Rubinshteynning fikricha: motivatsiya bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiyadi[1]. Barcha psixik jarayonlarning namoyon bo'lishida motivatsiya, ya'ni sababiy bog'lanishga egadir.

Bolalarga ta'lim va tarbiya berishda ahamiyatli imkoniyatlar mavjud bo'lsada, amaliyotda ular motivatsiyaning yetishmasligi tufayli to'laligicha qo'llanilmaydi. Ushbu holatning bir nechta sabablari bo'lishi mumkin:

birinchidan, turli yoshdagi bolalarning individual xususiyatlari bilan ta'lim, muloqotga kirishishlariga turtki bo'luvchi barcha motivlar oxirigacha o'rganilmas ekan. Eng keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra motiv bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig'indisidan iboratdir[2].

ikkinchidan, katta bo'lishgach pedagogik faoliyat bilan shug'illangandan so'nggina kishi ilk bor bolalarning ta'lim olish motivlari borasida fikrlashga harakat qiladi va kishilarning maktabgacha yoshdan o'tgandan keyingina bolalarning xulq-atvoridagi haqiqiy motivlari haqida bashorat qila olishi mumkin. Ammo kishining oldindan ko'ra olishi qanchalik to'g'ri ekanligi va voqelikka mos kelishdek bashorat qilishga kafolat yo'qdir. Balki bolalarda haqiqatdan ham bo'lmagan narsalarni mavjud qilib ko'rsatishga va ularning ta'lim-tarbiyasini haqiqiy motivlashtiruvchi ahamiyatli bo'lgan narsa haqida bilmasligi ham mumkin. Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda eng muhim vazifalardan biri shundan iboratki, yuqoridagi qayd etilgan motivatsiyaning o'zgarish sabablarini inobatga olgan holda, amaliy jihatdan unga tasir qila bilish va motivatsiyani kamaytiruvchi minimum omillarga olib kela bilishi kerak. Ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan har qanday motiv va qiziqishlarni qanchalik ko'rib chiqmaylik, binobarin natijada ular rag'batlantirish va jazolash uslublarida namolarida namoyon bo'ladi.

Rag'batlantirish psixikaning ijobiy sifatlari va xususiyatlarini shakllanishini stimullashtiradi, jazolash usuli esa salbiyalarining yuzaga kelishini oldini oladi. Agar amaliyotda faqatgina rag'batlantirish qo'llanilib, jazolash inkor etilsa bolalar shaxsida ijobiy sifatlari bilan birgalikda salbiy xususiyatlarning yuzaga kelishini oldini olishga olib keladi, ammo shu bilan birga muhim ijobiy sifatlarning yetarli ravishda shakllanmasligiga sabab



bo‘ladi. Bolaning psixologik rivojlanishi uchun rag‘batlantirishi va jazolanishi bir xil me‘yorda bo‘lishi kerak, ya‘ni rag‘batlantirish ijobiy sifatlarning rivojlanishiga xizmat qilsa, salbiy xususiyatlar esa tuzatishga qaratiladi. Bu holatlar ta‘lim jarayonida o‘zgarishi mumkin. Agar o‘quv-tarbiyaviy ishlarda shaxsning ijobiy sifatlarini shakllantirishga bilim, malaka, ko‘nikmalarini egallashga zarur sifatlar safarbar qilinsa, rag‘batlantirish usulidan foydalanish yuqori natijalarga erishishni ta‘milaydi.

Bolada ishonchsizlik tuyg‘usi o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahosini pasaytirib yuboradi. Bunday bolalarni ko‘proq rag‘batlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘ziga ishonchi juda yuqori bolalarda esa jazolash usulidan foydalaniladi. Tortinchoqlik va o‘z kuchiga ishonmaslik o‘quvchilarda ishchanlikni kamaytiradi va faolligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday holatda tarbiyachi ular bilan xayrixoh va chidamli bo‘lishi, ularning ijodiy kuchini faollashtirishi kerak. Shunda o‘qituvchi o‘quvchida o‘zini har tamonlama ko‘rsata olishga o‘rgatadigan pedagogik-psixologik vaziyatni yaratadi. Ushbu usuldan foydalanish uchun pedagoglar har bir o‘quvchida muhim va bebaho xislat borligiga, uni yon-atrofdagilar va o‘quvchilar o‘zlarini namoyon qilish uchun kerakligiga ishontirishlari zarur bo‘ladi.

Ishonch pedagogik ta‘sir usuli sifatida ta‘lim-tarbiya jarayonida samarali hisoblanadi. Ishonch o‘quvchilarni quvontiradi, ilhomlantiradi va burch hissini uyg‘otadi, shuningdek tartib-intizom, tashkilotchilik, tashabuskorlik va faollikni mustahkamlaydi ya‘ni, butun kuchini o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishga sarflaydi. Agar tarbiyachilar o‘quvchining hurmatiga sazovor bo‘lsa, ishonch o‘quvchining xulqiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Faoliyatga qiziqishini so‘ndirmaslik uchun har doim topshiriqlarni murakkablashtirib borish o‘quvchilarda yanada ko‘proq iroda, bilim, malakalar va javobgarlik hissini oshirishga qaratilgan ishlarni olib borishni faollashtirish lozim. Pedagog o‘quvchilarning xatti- harakatini kuzatib turishi, darsga qiziqayotgan yoki qiziqmayotganligini aniqlashi mumkin. Bunday holatlar yuzaga kelmasligi uchun o‘quvchilarni turli tashkil etilgan to‘garaklarga, sport turi bilan shug‘ullanishga, turli tadbirlarni tashkil etish yoki qatnashishga jalb etishi lozim.

Bruner shunday yozadi “Shubhasiz, masalan, mavzu o‘rganilishi jihatdan qanchalik davomli va materiali jihatidan keng bo‘lsa, o‘quvchi shunchalik ko‘p intellektual “rag‘batlantirish” olishi kerakki, ana shunda u keyingi mavzuni yetarli qiziqish bilan



o‘rganishga kirishadi. O‘quvchi uchun materialni u qadar tushunmaslik, deylik, navbatdagi sinfga ko‘chish singari tashqi jihatlar rag‘batlantirish bo‘lib xizmat qilgan hollarda, navbatdagi bilimlarni egallash uchun bo‘lgan intilish bola sinfdan sinfga ko‘chishni tark etganda, ya’ni maktabni tugatganda to‘xtaydi”[3].

O‘quv faoliyatini boshqarishning diagnostik metodini ishlab chiqish, psixologiya fanining dolzarb sohalaridan bo‘lgan o‘qish faoliyatini boshqarish muammosining nazariy va amaliy, empirik tomonlarini yoritib beradi.

Pedagoglar tarafidan rag‘batlantirish ham jazolash ham o‘z meyorida bo‘lishi lozim. Bunday usuldan foydalanishdan oldin pedagoglar har taraflama o‘ylab ish ko‘rishlari, baholashda bolalarning ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olishi, o‘quvchilarni baholashda ularni ma’naviy va psixologik qo‘llab-quvvatlash, pedagogic-psixologik taktga ega bo‘lishi, o‘quvchilarning holatlarini kuzatib, to‘g‘ri idrok qilishi va baholab borishi lozim. O‘quvchilarning o‘quv faoliyati motivlaridan- obro‘ga intilish, kasbga qiziqish, muvaffaqiyatga erishish va boshqalarni yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ob’yektiv va sub’yektiv omillarni, shuningdek ularni rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya T. 2010.
2. Umarov B.M. Psixologiya nazariyasi va tarixi T. 2017
3. Shamshitova, Meliboyeva, Usmonova, Xaydarov. Umumiy psixologiya T. 2018.



MUNDARIJA:

01.00.00

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES**

1	Fizika o‘qitishda fanlararo bog‘lanishlarning ahamiyati Abdullayev Abdulvositxon Abdumutalxon o‘g‘li.....	3
2	Bilishning emperik va nazariy usullari Abdusattarova Dilfuza Shukurullo qizi.....	10
3	Kulon qonuni. Zaryadlangan jismlarning o‘zaro ta’siri Asqaraliyev Jasurbek Odiljon o‘g‘li.....	14
4	Fizika kursini o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlarining ahamiyati Ruvojiddinov Shavkatjon Faxriddin o‘g‘li.....	22
5	Fizikani o‘qitishda vr texnologiyasidan foydalanish Abdulboqiyeva Gulshoda Dilshod qizi.....	27
6	Namoyish tajriba turlari va ularning ahamiyati Tursunaliyeva Sevinch Odiljon qizi.....	31
7	Fizika yo‘nalishi talabalarini kreativlik xususiyatlarni shakllantirish va takomillashtirish usullari Xakimova Xumora Akramjon qizi, Maxmudov Ulug‘bek Ravshanbekovich.....	37
8	Biologik jarayonlarni matematik modellashtirish haqida Sotiboldiyev Shukurullo Karimjon o‘g‘li.....	44
9	Ta’limda axborot texnologiyalar samarali tashkil etish strukturasi Boymirzayev O‘lmasbek Sarbarali o‘g‘li.....	53

02.00.00

**KIMYO FANLARI
ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ
CHEMICAL SCIENCES**

10	Kimyoviy bog‘lanishlar, kovolen bog‘lanish Rahmonov Murodjon Ikromovich.....	60
----	--	----

03.00.00

**BIOLOGIYA FANLARI
БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
BIOLOGICAL SCIENCES**

11	Применение биогум и технология получения жидких биоорганических удобрений из биогумов Сайфиддинов Осимхан Обиддинович, Алихонова Зухра Саидходжаева.....	65
----	--	----



07.00.00

TARIX FANLARI
ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ
HISTORY SCIENCES

12	Ibn Arabshohning “Temur tarixi” asarida Amir Temurning Hindistonga qilgan yurishiga doir ayrim muloxazalar Durdoni Mashrabaliyeva.....	69
13	Yu. F. Buryakovning Choch va Eloq shahar madaniyatining shakllanish bosqichlaridagi tadqiqotlari Irbolayeva Iroda Sodiqjonovna.....	75
14	XXI asrning madaniy Renessansi: zamonaviy kutubxonalar taraqqiyotning muhim omili Rahmatullayeva O‘g‘iloy Maxmudovna.....	79
15	Sitorai Mohi Xossa Mahmudov Qahramon.....	84
16	Qoraxoniylar davlatining shakllanish jarayoni va tashkiliy sanasiga oid masalalar Mamajanova Mashhuraxon Maxmudjon qizi.....	92
17	XX asrning so‘ngida O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasi hamda gender tengligi: tashabbuslar va muammolar Fozilova Maftuna.....	97
18	Uyg‘onish davri beshigini tebratganlar Abdullayeva Nilufar.....	103
19	O‘zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyatidan Yaqubova Shahzoda Qo‘ziboy qizi.....	108
20	Nodirshoh Afshorning Markaziy Osiyoga yurishida: O‘zbek xonliklarini munosabati Alijonov Saidali, Mamasoliyev Elchinbek, Erkinjonov Elomon.....	115
21	O‘zbekistonda paxta ishi siyosati va uning oqibatlari Xolmirzayeva Oyshaxon.....	120
22	O‘zbekistonda millatlararo aloqalar va etnik jarayonlar Boydedayev Dostonbek Xusniddin o‘g‘li.....	123
23	Axsikent-o‘tmish, bugun va kalajak tadqiqotchilari nazarida.... Akhunova Muborakhon Maxmudjon qizi.....	129
24	Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida qo‘llanilgan harbiy soha bilan aloqador terminlar Adilova Shohista Tohirovna.....	134
25	Suyunchixon va uning vorislari taqdiri Erkinjonov Elomon.....	139
26	Tilzit shartnomasi Ro‘zinov Sardorbek Soxibjon o‘g‘li.....	145
27	Брикс как отдельная международная организация в XXI веке Меметов Руслан.....	153



08.00.00

IQTISODIYOT FANLARI
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ
ECONOMICS SCIENCES

- 28 **Контроль за налогообложением в сфере туризма**
Абдуллаев Зафарбек Сафибуллаевич, Абдуллабекова Ноилахон Гофуржон
қизи..... 157
- 29 **Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar**
Soyibjonov Islombek Sodikjon o‘g‘li, To‘rayev Asrorbek Akmaljon o‘g‘li,
Kaxarov Jobir Djamolovich..... 164
- 30 **Yashirin iqtisodiyotning jamiyatga ta’siri**
To‘rayev Asrorbek Akmaljon o‘g‘li, Soyibjonov Islombek Sodikjon o‘g‘li,
Mirzatojiyev Shoxijaxon Karimjon o‘g‘li..... 175

09.00.00

FALSAFA FANLARI
ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ
PHILOSOPHICAL SCIENCES

- 31 **Ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy yoshlar hayotiga ta’siri**
Rayomjonova Sitara Muhammadjon qizi..... 179
- 32 **Ma’naviyat – insonning ulg‘ayishi va kuch – qudrat manbayi**
Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o‘g‘li..... 186
- 33 **O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida ijtimoiy hayot va shaxs
ma’naviyati**
Soberova Mohira Soliyevna..... 191
- 34 **Dunyo muammosi O‘zbekistonda**
Tursunboyev Xusayn Xabibullo o‘g‘li, Mexmonxonov Murodulloxon Maxsudxon
o‘g‘li..... 198
- 35 **Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari**
Karimberdiyeva Sojida..... 201
- 36 **Reforms in the education of Uzbekistan: status and prospects**
Rakhmanov Dilshod Ortikbaevich, Askarova Dilorom Kurbonboy qizi, Mirzak
Parova Mohira Abduhalil qizi..... 205
- 37 **Vaqt-baxt kaliti**
Abdujabbarova Muhtasarxon Akramjon qizi..... 211
- 38 **Tarixiy tafakkurning rivojlanish bosqichlari**
Imomov Rahimjon Xabibjonovich..... 216
- 39 **Inson kapitalini rivojlantirishda ta’limning ahamiyati**
Umida Qayumova..... 220
- 40 **Islom tarixida paydo bo‘lgan ixtiloflar va ularning rivojlanishi**
Ravshanbek O‘rinov..... 228



41	Zamonaviy jamiyatda oila tushunchasi va oilaviy qadriyatlar dinamikasi Gulrux Nurbek qizi Jumaniyozova.....	232
42	Yoshlarda ilmiy-texnik ijodga qiziqishlari Imomov Rahimjon Xabibjonovich.....	241

10.00.00

FILOLOGIYA FANLARI
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

43	Erkin Vohidov she'rlarida frazeologizmlarning lingvopoetik xususiyatlari Shahzoda Sog'inboeva.....	244
44	Frazemalarning umumiy xususiyatlari Kurbanova Zaynab Burxanovna.....	251
45	O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridagi ayrim antroponimlarning lisoniy tahlili Ismoilova Gulmira.....	255
46	Arab va o'zbek tillarida ilm va ta'limga oid xalq maqollarining milliy-madaniy xususiyatlari Maxmudjonova Muborak Farxodjon qizi.....	259
47	Turar-joy, uning qism va jihozlariga oid leksik birliklar ("Malika ayyor" va "Bahrom va Gulandom" dostonlari misolida) Manzura Tulaganovna Narmatova.....	263
48	Abdulla Oripov she'rlaridagi sinonimlarning leksik-semantik tahlili Umidjon Qo'ziyev, Nazarova Sabrina Zafarjon qizi.....	271
49	Said Ahmadning hajviy asarlarida qo'llangan frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari Jahongirova Ruxsora.....	277
50	Mahorat pillapoyalari Xabibullayeva Nafisa, Umidjon Qo'ziyev.....	280
51	Витамины и их значение для организма человека Одилжонова Озода Шухратжон кизи.....	289

11.00.00

GEOGRAFIYA FANLARI
ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАУКИ
GEOGRAPHY SCIENCES

52	Foydali qazilma boyliklaridan foydalanish va ularni qazib olish jarayonidagi salbiy oqibatlar Abdulxoshimova Feruza Dilshodjon qizi.....	294
53	Қуруқликдаги "Орол"лар ёхуд Марказий Осиёдаги анклав/эксклав ҳудудлар Нуъмонов Неъматилло.....	298



54	Koinotning kengayib borish nazariyasi: tarixiy-geografik tahlil Eshturdiyev Qosim Ahmad o‘gli.....	301
55	Tektonik harakatlar va ularning turlari: geografik va geotektonik tahlil Tursunov Yunusali Abduaziz o‘g‘li.....	307

13.00.00

PEDAGOGIKA FANLARI
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL SCIENCES

56	Bolalar bog‘chasida miqdor va son tasavvurlarini tarkib toptirish bo‘yicha tavsiyalar berish Jaloldinova Husniya Abdusattor qizi.....	313
57	Maktabgacha yoshdagi bolalarning do‘stona munosabatlar asosida ijtimoiy-hissiy rivojlanishi Mahkamova Husnida Ro‘ziboyevna.....	317
58	Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili mashg‘ulotlarini samarali olib borish usullari Samijonova Shaxnoza Rahmonjon qizi.....	321
59	Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib, yoshlarda texnik ijodkorlikni shakllantirish Baxodirova Malika Shaxobidin qizi.....	325
60	Ta‘limni raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari Fayzullayeva Madina Abdumo‘min qizi.....	331
61	Yosh avlodning ruhiy salomatligini ta‘minlashda psixolog va ota – ona hamkorligi Berdibayeva Nozima.....	337
62	Favqulodda vaziyatlarda aholini o‘z vaqtida ogohlantirish va xabardor etishning innovatsion yechimlari Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o‘g‘li.....	341

14.00.00

TIBBIYOT FANLARI
МЕДИЦИНСКИЕ НАУКИ
MEDICAL SCIENCES

63	Ovqat hazm qilish tizimi. Hazm tizimi oldingi bo‘limi a‘zolari. Hazm qilish nayining devorlari tuzilish prinsipi Xafizova Klara Abdumannobovna, Saidkarimova Sabohat Bahodir qizi.....	348
----	--	-----

17.00.00

SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI
ИСКУССТВО НАУКИ
THE ART OF SCIENCES



- 64 **Hunarmandchilik, xususan, kulolchilikning farg‘ona vodiysida tutgan o‘rni**
Ubaydullayeva Shahnoza..... 354

19.00.00

PSIXOLOGIYA FANLARI
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PSYCHOLOGICAL SCIENCES

- 65 **Ta’lim jarayonida rag‘batlantirishning psixologik asoslari**
Rayimxo‘jayeva Barnoxon Komilxo‘ja qizi..... 357